7. Sullivan, Hannah. Three Poems. Faber & Faber, 2018.
8. Annotation: A groundbreaking contemporary take on precarious work in poetic form.
9. Waters, Catherine. Commodity Culture in Dickens's Household Words. Routledge, 2016.
10. Annotation: Secondary source analyzing Victorian literary representations of labor.

XVI ASR ADABIY MANBALARIDA IJTIMOIY MUHITNING BADIIY TALQIN: NISORIY “MUZAKKIRI AHBOB” VA MUTRIBIYNING “TAZKIRAT USH-SHUARO” TAZKIRALARI MISOLIDA

Kamola Axmedova, tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr tazkiranavislik merosining yetuk namoyandalari bo‘lgan Hasanxoja Nisoriy va Mutribiy Samarqandiy asarlari asosida o‘sha davrdagi ijtimoiy muhitning adabiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Tazkira janri orqali adabiy va ijtimoiy jarayonlar qanday uyg‘unlashgani, shoirlarning hayoti, ijodiy faoliyati, ularning zamonasiga munosabati va badiiy ifoda shakllari aniqlanadi. Shuningdek, Nisoriy va Mutribiy tazkiralarida aks etgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, adabiy tanqid va ijodiy muhitning o‘ziga xos jihatlari tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.

Annotation:This article examines the influence of the social environment of the 16th century on literature based on the tazkiras of Hasanxoja Nisoriy and Mutribiy Samarqandi. It analyzes how the tazkira genre reflects both literary and social processes, the lives and creative activity of poets, their perception of their time, and artistic expression. Special attention is paid to the socio-political realities, literary criticism, and the creative atmosphere depicted in the works of Nisoriy and Mutribiy.

XVI asr Markaziy Osiyo adabiy hayotida tazkira janri alohida o‘rin tutadi. Bu davrda siyosiy beqarorlik, mahalliy sulolalar o‘rtasidagi kurashlar, iqtisodiy tanglik va ma’naviy izlanishlar adabiyotda o‘z aksini topdi. Ayniqsa, tazkira asarlari orqali faqatgina adabiy jarayon emas, balki ijtimoiy muhit, shoirlarning ijtimoiy mavqei, siyosiy voqealarga munosabati ham yoritilgan.

Tazkira – adabiy shaxslar hayoti, ijodi va shaxsiy fazilatlari haqida ma’lumot beruvchi biografik-adabiy janrdir. Bu janr Sharq adabiyotida XI asrdan boshlab shakllana boshlagan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoda aynan XVI asrda o‘zining taraqqiyot cho‘qqisiga erishdi. Tazkira asarlarida mualliflar shoirlarning tarjimai holi, ularning ijodiy yondashuvi, badiiy mahorati, ijtimoiy mavqei va shaxsiy fazilatlarini yoritadilar.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” va Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” tomonidan yaratilgan tazkiralar bu borada alohida e’tiborga molik.

Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi va Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarlari nafaqat shoirlar tarjimai holidan, balki o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy holatidan, adabiy muhit va tanqidiy qarashlardan darak beradi. Ushbu maqolada ana shu ikki tazkira misolida XVI asr ijtimoiy muhitining adabiyotga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — tazkiraning adabiy tarixda tutgan o‘rnini aniqlash, ijtimoiy voqealarning adabiy ifodadagi aksini ochish va Nisoriy hamda Mutribiy asarlarida bu jarayon qanday ifodalanganini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Tazkira – adabiy shaxslar hayoti, ijodi va shaxsiy fazilatlari haqida ma’lumot beruvchi biografik-adabiy janrdir. Bu janr Sharq adabiyotida ilk tazkiralar shakllana boshlagan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyoda aynan XVI asrda o‘zining taraqqiyot cho‘qqisiga erishdi. Tazkira asarlarida mualliflar shoirlarning tarjimai holi, ularning ijodiy yondashuvi, badiiy mahorati, ijtimoiy mavqei va shaxsiy fazilatlarini yoritadilar.

Bu janrning eng muhim xususiyatlaridan biri — zamonasining ijtimoiy-siyosiy voqealarini bilvosita tarzda yoritishidir. Tazkira muallifi ko‘pincha shoirlar faoliyati orqali o‘z zamonasining muammolarini, adabiy tendensiyalarini va jamiyatdagi kayfiyatni tasvirlaydi. Aynan shu jihatlari sabab, tazkiralar nafaqat adabiy manba, balki tarixiy hujjat darajasida qadr topadi. Nisoriy va Mutribiy tazkiralari ana shu yo‘nalishda yaratilgan bo‘lib, ular o‘z davrining madaniy va ijtimoiy hayotini chuqur aks ettirgan. Bu asarlar nafaqat shoirlar haqida faktlar beribgina qolmay, balki ularning orqasida turgan ijtimoiy muhitni ham ko‘rsatadi. Tazkiralar orqali biz adabiyotning jamiyat bilan qanday bog‘liqlikda rivojlanganini, shoirlarning faqatgina san’at ahli emas, balki ijtimoiy fikr yetkazuvchisi sifatida ham faol bo‘lganini anglaymiz.

Hasanxo‘ja Nisoriy tomonidan yozilgan “Muzakkir al-ahbob” tazkirasi XVI asr o‘zbek adabiyoti va jamiyatining muhim manbalaridan biridir. Ushbu tazkira faqatgina shoirlarning ijodiy portretini chizibgina qolmay, balki ularning yashagan ijtimoiy muhitini ham yoritadi. Nisoriy o‘z asarida shoirlarning hayoti, ularning saroy bilan aloqasi, moddiy holati, jamiyatdagi mavqei va shaxsiy fazilatlariga alohida urg‘u beradi. Tazkiraning ayrim sahifalarida muallif shoirlarning saroy homiyligiga muhtojligi, ba’zilarining esa turmush sharoiti og‘ir bo‘lgani, moddiy yetishmovchilik sababli ijoddan uzoqlashgani haqida ochiq yozadi. Bu esa davrning iqtisodiy tangligidan, ijodkorlarning to‘liq erkin emasligidan dalolat beradi. Masalan, Nisoriy saroy ahli va sulolaviy shoirlaga a’lohida ahamiyat berad. Misol uchun,Bobur haqida shunday deydi: “Bobur podshohning fazilatlari bisyor va kamolotlari beshumordir. Aruz bo‘yicha yozgan risolasi bir dengizdurkim, ichi to‘la javohuru durdona, fiqh yozuvchi masalalarini dag’i bir risolada mubayn qilgankim, yozuvchisi donishmandligidan bir nishona:- turkiy va forsiyda yaxshi she’rlari bor” [2, 53-bet] Bundan tashqari, Nisoriy tazkirasida shoirlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, adabiy muhitdagi raqobat, ilhom va e’tirof muammolari ham tasvirlanadi. U shoirlarning badiiy iste’dodini baholarkan, nafaqat ularning uslubini, balki jamiyatga ta’sirini ham hisobga oladi. Umuman olganda, Nisoriyning “Muzakkir al-ahbob” ijtimoiy hayot, adabiy jarayon va shaxsiylik

omillari uyg‘unlashgan manba bo‘lib, adabiyotning o‘sha davrdagi ijtimoiy hayot bilan qanday aloqada bo‘lganini ochiq ko‘rsatadi.

Mutribiy Samarqandiy tomonidan yozilgan “Tazkirat ush-shuaro” XVI asr adabiy va ijtimoiy hayotining rang-barang manzarasini ko‘rsatadi. Ushbu asar shoirlarning ijodi, ularning hayotiy sharoiti va davr ijtimoiy muhitining o‘ziga xos jihatlarini yoritib bergan.

Mutribiy o‘z tazkirasida shoirlarning qobiliyati bilan birga, ularning jamiyatdagi o‘rni, davr siyosati bilan munosabati, axloqiy fazilatlari va hayot tarzi haqida ham so‘z yuritadi. Uning tazkirasidan ma’lum bo‘lishicha, adabiy muhitda ikki xil shoir toifasi mavjud bo‘lgan: saroyga yaqin bo‘lgan va homiylik yordami bilan yashagan shoirlar hamda mustaqil, biroq ko‘pincha moddiy tanglikda ijod qilgan shoirlar. Mutribiyning tazkirasi ijtimoiy adolat, shoirlarga bo‘lgan munosabat va madaniy qadriyatlar masalasiga e’tibor qaratadi. U ko‘plab shoirlarning ijodiy salohiyatini yuqori baholagan holda, ularning ijtimoiy sharoitini ham ochib beradi. Mutribiy shoirlarni baholashda ularning so‘z qo‘llash badiiy mahoratiga alohida e’tibor qaraadi. Misol uchun tazkira zikr etilgan shoir Avzaliyni esa zehni yetuk, fasohatli shoirlardan bo‘lgani, she’riyatning ilmi badi’ va qofiya ilmida zehni yetukligini ta’kidlaydi:“Janob Mir topshiriqqa binoan javobida shunday dedi.

Bayt:

Bulbulmonand dar chaman xomush,
Zog’ro bin ki dar navo shuda ast.

Mazmuni:

Bulbullar chamanda xomush erur,
Qarg’ani ko‘r navoga kirishibdi.

Janob Mir ilgari paytlarda zamon shoirlari va fozillari bilan majlis va yig’inlarda o‘tirib-turishar va chechanlik-fasohat to‘pini so‘zamollik-balog’at chovgoni bilan olib qochib, amirlar va sultonlardan yaxshigina mukofot-u sovrinlar olardi”[1. 90-bet],- deya ma’lumot beradi. Bu kabi ifodalar adabiyotning ijtimoiy muhitdan qanchalik ta’sirlangani, shoir taqdirining ko‘p jihatdan jamiyatdagi holatlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, tazkiradagi tanqidiy ruh, shoirlar orasidagi adabiy musobaqalar, davr axloqiy qadriyatlarining ifodasi ilmiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mutribiy tazkirasi nafaqat shoirlar haqida ma’lumot, balki XVI asr adabiy tafakkuri, ijtimoiy ong va estetik qarashlar haqida ham chuqur tasavvur beradi.

Xulosa qilib aytganda, XVI asr tazkiralari, xususan Hasanxo‘ja Nisoriy va Mutribiy Samarqandiy asarlari, nafaqat o‘sha davr shoirlarining ijtimoyi biografiyasini bayon etibgina qolmay, balki o‘sha zamon ijtimoiy muhitining adabiyotga ta’sirini aniq ifodalaydi. Bu asarlar orqali ko‘rinadiki, adabiyot va jamiyat o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ijtimoiy vaziyat, siyosiy sharoit va iqtisodiy holat shoirlarning ijodiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.Nisoriy tazkirasida ijtimoiy qiyinchiliklar, saroy homiyligining zaruriyati va shoirlarning moddiy holati ochiq-oydin ko‘rsatilgan. Mutribiy asarida esa adabiy tafakkur va ijtimoiy ongning rivojlanishi, shoirlarning jamiyatdagi o‘rni va axloqiy qadriyatlar muhim mavzu sifatida ko‘tarilgan. Shu bois, tazkira janri o‘ziga xos tarixiy hujjat

sifatida ham katta ahamiyatga ega. Mualliflik mahorati masalasiga kelsak, har ikkala tazkiranavis ham o‘z davri adabiy-estetik dunyoqarashi va poetik talqini asosida shoir obrazini yaratishga intilgan. Nisoriy o‘z uslubida murakkab tasviriy vositalar, kinoya, mubolag‘a ishoralar orqali shoir obrazini g‘oyaviy-ma’naviy jihatdan mukammal ko‘rsatishga intiladi. Bunda u turkiy tilning poetik imkoniyatlarini to‘liq safarbar etadi. Masalan, Navoiy haqida yozilgan boblarda u ishq, ma’rifat, tariqat tushunchalarini she’riy metaforalar orqali ochadi. Ushbu tahlillar asosida aytish mumkinki, XVI asr ijtimoiy muhitining adabiyotga ta’siri nafaqat mazmun va mavzular orqali, balki shoirlarning ijodiy uslubi va badiiy yo‘nalishlarida ham sezilarli bo‘lgan. Bu esa adabiy jarayonni yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. O‘zbek adabiyoti taraqqiyoti tazkira janri orqali chuqurroq ochib berilishi mumkin bo‘lgan sohalardan biridir. Ayniqsa, Hasanxo‘ja Nisoriy va Mutribiy Samarqandiy tazkiralari ushbu davr ijtimoiy-madaniy muhitining adabiyotga ko‘rsatgan bevosita ta’sirini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali biz shoirlarning ijodiy hayoti, jamiyatdagi o‘rni, moddiy va ma’naviy sharoitlari, shuningdek, ularning asarlari bilan davr ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatgani haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Bekchanov: Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasi.Tashkent: Mumtoz so‘z,2013.
2. I.Bekchanov: Nisoriy, “Tazkirat ush-shuaro” Tashkent: Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 1993
3. Jalilov, K. “O‘zbekiston adabiyoti tarixida tazkira janri”. Tashkent: Fan, 2003.
4. Shamsiyev, R. “XVI asr o‘zbek adabiyoti va tazkirachilik”. Tashkent: O‘zbekistan, 2007.
5. Abdurahmonov, A. “O‘zbek tazkiranavisligi va Mutribiy Samarqandiy”. Tashkent: Science, 2011.
6. Xalilov, M. “Adabiyotshunoslik asoslari”. Tashkent: O‘zbekiston, 2008.
7. Toshpulatov, B. “O‘zbek adabiyoti va tarixiy manbalar”. Tashkent: Fan va texnologiya, 2012.
8. Murodov, S. “Nisoriy va Mutribiy asarlarining tahlili”. Tashkent: Ilm-fan, 2010.
9. Rasulov, S. “Shuaro va tazkira janri: tarixiy tahlil” Tashkent: O‘zbekistan, 2009.
10. Mirzaev, N. “O‘zbek tazkirachiligi: tadqiqotlar va yondashuvlar”. Tashkent: O‘qituvchi, 2006.
11. Ergashev, O. “Nisoriy va Mutribiy asarlarida badiiy ifoda va uslubiy yondashuv”. Tashkent: Tashkent University Press, 2015.
12. Xojayev, A. “Badiiy mahorat va adabiyot tarixida tazkira janrining o‘rni”. Tashkent: Adabiyot, 2013.
13. Mamatqulov, U. “Adabiyot va tarix: o‘zbek tazkirasining roli”. Tashkent: O‘zbek adabiyoti, 2014.

BADIIY MATNLARNING LINGVOMADANIY VA LINGVOKOGNATIV TAVSIFI(“O‘TKAN KUNLAR” ASARI MISOLIDA)

Xolova Madina Boboqulovna,
Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy tillar fakulteti
Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi
madinaxolova1987@gmail.com

Annotatsiya. Badiiy matn madaniy jihatlarni tushunishda alohida o'rin tutadi, chunki u turli xil lingvistik elementlar amalga oshiriladigan murakkab lingvistik asardir. Har bir muallif o'zining fikrlari va voqelikni idrok etishini aks ettiruvchi o'ziga xos dunyosini yaratadi, bu unga hayot va inson haqidagi g'oyalarini boshqa odamlarga etkazish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda badiiy matnning madaniy kod sifatida ahamiyati, uning milliy tafakkur va tarixiy kontekstni aks ettirishdagi roli o'rganiladi. Abdulla Qodiriyning "O‘tkan kunlar" romani o'z xalqining madaniyati, qadriyatlari va tarixiy voqealarini badiiy tasvir orqali namoyon etadi, bu esa o'quvchiga millatning o'ziga xosligini, urf-odatlarini va mentalitetini tushunishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: badiiy matn, badiiy asar, madaniy kod

LINGUOCULTURAL ANALYSIS AND DESCRIPTION OF LITERARY TEXTS

Abstract. The artistic text serves a crucial function in the comprehension of cultural dimensions, as it represents a complex linguistic construct wherein various linguistic elements are manifested. Each author constructs a distinct world that mirrors their thoughts and perceptions of reality, thereby enabling them to communicate their ideas concerning life and humanity to others. This study examines the significance of the artistic text as a cultural code and its role in reflecting national consciousness and historical context. Abdulla Qodiri's novel "O'tkan kunlar" exemplifies the culture, values, and historical events of his people through artistic representation, facilitating the reader's understanding of the nation’s uniqueness, traditions, and mentality.

Keywords: litrary text, litrary work, cultural code.

Kirish. Til milliy tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniyatning muhim qismi va uni rivojlantirishning asosiy vositasidir. Yuriy Lotmanning fikriga ko'ra, til nafaqat madaniy xususiyatlarni ifodalaydi, balki o'zi ham madaniyat tashuvchisidir, chunki u matnlarda shakllanadi (Lotman, 1990). Edvard Sapirning ta'kidlashicha, madaniyat jamiyat nima qilayotgani va o'ylayotganini ifodalaydi, til esa bu fikrlarni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi; bundan tashqari, tilning mazmunini madaniyatdan ajratib bo'lmaydi (Sapir, 1949).

Yevgeniy Vereshchaginning ta'kidlashicha, adabiy matnlar voqelikning oddiy aksi emas, balki voqelikning ongli ravishda qurilgan modellaridir (Vereshchagin & Kostomarov, 1970). Nina Valginaning qo‘shimcha qilishicha, adabiy matnlar assotsiativ va obrazli tafakkur asosida, badiiy bo‘lmagan matnlar esa mantiqiy fikrlash asosida yaratilgan. Shu bilan birga, badiiy matnlar uchun

subyektiv va emotsional jihatlar, nobadiy matnlar uchun esa obyektiv va mantiqiy jihatlar muhim ahamiyatga ega (Valgina, 2003).

Vladimir Belyaninning ta'kidlashicha, adabiy matnda muallif o'zi tanish bo'lgan voqelik parchalarini tasvirlaydi va u uchun shaxsiy ma'noga ega bo'lgan lingvistik elementlardan foydalanadi. U badiiy matnning ham voqelik hodisasi, ham uni til elementlari orqali aks ettirish usuli ekanligini ta'kidlaydi (Belyanin, 1988). San'at asari voqelikni anglash va hayotiy materialni badiiy qayta ko'rib chiqish natijasi bo'lgan til va ruhning yaxlitligini ifodalaydi. Demak, asardagi har bir so‘zning o‘z maqsadi va mazmuni bor.

Badiiy matn megamatn deb nomlanuvchi kengroq madaniy kontekstga mos keladigan muhim elementdir. Muayyan tarixiy davrda yaratilgan har bir adabiy matn o‘sha davrning madaniy xususiyatlari bilan bir qatorda o‘zi mansub bo‘lgan xalqning o‘ziga xos xususiyatlarini ham aks ettiradi. Bu dunyoni idrok etish va ma'lum bir jamiyatdagi odamlarning o'zaro munosabatini shakllantiradigan asoslar, an'analar va mentalitetni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, adabiy matn nafaqat madaniy va tarixiy xususiyatlarni qayd etadi, balki muallifning shaxsiyati, shaxsiy tajribalari va hayotga bo'lgan qarashlarini ham o'z ichiga oladi.

O‘quvchi badiiy matnga sho‘ng‘iganda uning mazmunini idrok etibgina qolmay, balki avvalgi avlodlar tomonidan to‘plangan madaniy tajribani ham o‘zlashtiradi. Asarni o'qish orqali inson matnga kiritilgan madaniyat me'yorlari va qadriyatlarini tushunish va o'zlashtirishni boshlaydi. Shunday qilib, o'quvchi shunchaki tashqi kuzatuvchiga aylanmaydi; u madaniy kodni yetkazish va o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ushbu kod har bir xalq uchun o'ziga xos bo'lgan va vaqt o'tishi bilan o'zligini saqlab qolishga yordam beradigan ramzlar, ma'nolar va an'analar to'plamidir.

Badiiy matnlar ijtimoiy-tarixiy va badiiy-estetik tajribani “uzatuvchi kanal” bo‘lib xizmat qiladi. Ular insoniyat madaniyatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va uning xilma-xilligida sivilizatsiyani saqlashga yordam beradi. Adabiyot asarlarida turli xalqlarning tili, madaniyati va tafakkur tarzidagi farqlar qayd etilgan. Bu farqlar, ayniqsa, har bir til madaniyatining milliy o‘ziga xosligini yaqqol ifodalovchi badiiy adabiyot prizmasi orqali sezilarli bo‘ladi. Badiiy matnlardagi milliy-madaniy ma'lumotlarni madaniy kod sifatida tavsiflash mumkin. Bu kod har qanday xalqning mavjudligi va rivojlanishining asosidir. Xalq davom etishi va rivojlanishi uchun o‘zining madaniy kodini saqlab qolishi kerak – bu uning o‘ziga xosligi uchun o‘ziga xos asosdir. Ushbu kodning badiiy asarlarda mustahkamlanishi uni nafaqat bir millat doirasidagi kelajak avlodlarga, balki boshqa xalqlarga ham yetkazish imkonini beradi, bu esa o‘zaro tushunish va madaniy qadriyatlar almashinuviga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Madaniy kod ko'pincha milliy mentalitet deb ham ataladi. U nafaqat an'ana va urf-odatlarni, balki fikrlash, dunyoni idrok etish va turli hodisalarga hissiy munosabatni ham o'z ichiga oladi. Har bir xalqning o‘ziga xos mentaliteti shakllanadi, bu uning tilida, san’atida, kundalik hayotida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlar ana shu mentalitetni aks ettiruvchi o‘ziga xos oynaga aylanadi va shu orqali

o‘quvchiga nafaqat matnning o‘zi, balki u paydo bo‘lgan madaniyatni ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Badiiy matnni lingvomadaniy ma’lumotlar manbai sifatida o‘rganishni o‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiyoti roman janridagi ilk asar sifatida tanilgan "O‘tkan kunlar" romani misolida ko‘rsatish mumkin. Asarda o'z xalqining o'tmishi, milliy madaniyati va qadriyatlariga bo'lgan sobit munosabat, millatning kelajagini uning erkida, ozodligida, ma'rifatida ko'rish, o'zbekona tafakkur, o'zbekona urf-odat, o'zbekona xarakter va obraz, o'zbekona mentalitetni betakror badiiy tasvir vositalari orqali tasvirlab berish Abdulla Qodiriyning bosh maqsadi bo'lgan. Shuning uchun ham asarni o'zbek xalqi qadriyatlarining badiiy “qomusi” deyishimiz mumkin.

Romandagi uchlik — oshiq, ma’shuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan ko‘rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” — ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni — Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

Abdulla Qodiriy so‘zida o‘quvchini o‘ziga bog‘lab turadigan, insonni o‘ziga ohanrabodek tortadigan quvvat bor. Buni o‘quvchi sezmasligi mumkin emas. Aynan so‘zning ta’siri bois Kumush o‘lgan sahnada ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizodning o‘zi yig‘lab yozilgan. Demak, adibning titragan, ichikkan, o‘ksigan yuragi shu sahifalarga ko‘chgan. Badiiy ijoddagi bir qonuniyat shuki, mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi, yig‘lab yozilgan sahifalar yig‘lab o‘qiladi. Chinakam adibning estetik dunyosi, ijodkor qalbi ana shunday sahifalarga muhrlanadi.

Abdulla Qodiriy romanlarini o‘zbek adabiy tilining zamonaviy ko‘rinishda shakllanayotgan bir davrda yozdi. Adabiy tilning rutbasi, maqomi yuksalishida adibning xizmati katta bo‘ldi. Til millatni birlashtiruvchilik qudratiga ega qadriyatdir. Qodiriyshunos olimlar fikriga e’tibor berilsa, Abdulla Qodiriy toshkentlik bo‘la turib o‘z romanlarida mahalliy sheva unsurlarini umuman qo‘llamaydi. Hatto qahramonlarining nutqini individuallashtirishda ham boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Demak, adib shu zaylda bor mahorati bilan o‘zbek adabiy tilining boyligini, o‘zbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish ham qiladi.

“*Tana buzoqning turqi tuqg‘anig‘a tamg‘a*” yoki “*...oldidagi ovni ko‘rmay, uzoqdagi yovni ko‘radi*”, “*Xonning qo‘yini boqish uchun, qovoqlarni belga taqish uchun...”, “Endi ko‘rsam, miltiqning o‘qidek, pushti gulning to‘qidek kelinim bor ekan”* kabi yuzlab xalqona iboralardagi saj, ritm va latiflik adib asarlari tiliga, qahramonlari nutqiga joziba baxsh etadi.

Abdulla Qodiriy bejiz: “O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”, degan fikrni aytgan emas. Aynan o‘zbek tilining naqadar boy imkoniyatlarga egaligini asarlari bilan isbotladi. Qolaversa, ma’rifatli bir ziyoli sifatida o‘zbekning so‘zi uchun, adabiy tilning istiqboli uchun qayg‘urdi. Abdulla Qodiriy ijodidagi bunday chin haqiqatni har kim har doim yodda tutmog‘imiz lozim.

“O‘tkan kunlar” xayoliy va hayotiy omillar uyg‘unligida maydonga kelgan ulkan bir ma’naviyat qasriki, uning ichkarisiga kirgan odam insoniyat abadiyatiga daxldor tushunchalarning badiiy talqiniga, eng nafis his-tuyg‘ularning betakror tasviriga, o‘zaro chambarchas bog‘langan ijtimoiy va individual holatlar zanjiriga duch keladi, aqli hayron qoladi.

XULOSA

Shunday qilib, badiiy matn shunchaki adabiy asar emas; milliy va madaniy ma'lumotlarning muhim manbaidir. Bunday matnlarni o‘qish orqali odamlar nafaqat badiiy obrazlar, syujetlardan bahramand bo‘lishlari, balki bu asarni yaratgan xalq madaniyati va tarixi haqidagi tushunchalarini ham boyitadilar. Shu nuqtai nazardan, badiiy adabiyot madaniy merosni asrab-avaylash va yetkazishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy matnlar madaniy xususiyatlar va tarixiy voqealarni qamrab olish qobiliyatiga ega bo'lib, o'quvchilarga ularni o'z tajribalari bilan bog'lash imkonini beradi. Bu taqqoslash o'z madaniyatingizni ham, boshqa xalqlar madaniyatini ham chuqurroq tushunishga olib kelishi mumkin. Adabiyot odamlarga inson tajribasining murakkabligini va dunyoni idrok etish usullarining xilma-xilligini tushunishga yordam beradi. Badiiy matnlar, ayniqsa, "O‘tkan kunlar" kabi asarlar, o'quvchilarga faqatgina estetik zavq bermasdan, balki madaniyatning o'ziga xos belgilarini, qadriyatlarini va tarixiy tajribalarini uzatish imkonini beradi. Shunday qilib, adabiyot, madaniy merosni saqlash va rivojlantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi va turli xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni kuchaytiradi. Qodiriy asari nafaqat o'zbek millatining badiiy "qomusi", balki global madaniyat kontekstida ham o'ziga xos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belyanin, V. P. (1988). Psycholinguistic aspects of the artistic text [Психолингвистические аспекты художественного текста]. Moscow: Moscow University Press.
2. Lotman, Y. M. (1990). Universe of the mind: A semiotic theory of culture (I. M. Lotman, Trans.). Bloomington, IN: Indiana University Press.
3. Sapir, E. (1949). Selected writings in language, culture and personality. Berkeley: University of California Press.
4. Valgina, N. S. (2003). Theory of text [Теория текста]. Moscow: Logos.
5. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. (1970). Language and culture [Язык и культура]. Moscow: Nauka.
6. Qodiriy, A. (2014). O’tkan kunlar: Tanlangan asarlar. Tashkent: Sharq.

7. Kholova Madina Boboqulovna, . (2024). THE INFLUENCE OF CULTURAL CODES ON SOCIETY. American Journal of Philological Sciences, 4(03), 82–90. https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue03-15
8. Boboqulovna, K. M. (2024). CULTURAL CODES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION| INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022.
9. Kholova Madina Boboqulovna CULTURAL CODES IN ENGLISH LITERARY WORKS // EJAR. 2024. №6-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/cultural-codes-in-english-literary-works.
10. Xolova Madina Boboqulovna (2024). TUSHUNCHA MADANIY KODNING SHAKLLANGAN BIRLIGI SIFATIDA. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2024/3 (108)
11. Kholova Madina Boboqulovna.UNITS OF CULTURAL CODES: CHALLENGES IN THE REALM OF SEMANTICS. NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI, [2024-5] ISSN:2181-1458 ISSN:2181-0427

Xalq kosmogoniyasining genetik tavsifi, sayyora va sitoraning badiiy-poetk ifodalari xususida

Jabborova Malohat Valijon qizi
BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi BuxDU mustaqil izlanuvchisi
jabborovamalohat@buxdpi.uz.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida yulduz va sayyora nomlari bilan bog‘liq kosmogoniya va neokosmogoniya turlari, etimologiyasi, lisoniy hamda badiiy tadqiqidagi poetik mahorat qirralari yoritib o‘tildi. , “Avesto”, “Devonu lug‘otit turk”, “Favoyid ul-kibar”, “Qutadg‘u bilig” kabi bir qator asarlar tahlilga tortildi.
Kalit so‘zlar. Ulkar, Surayyo, Paruy, Ardvisura, Anaxita, Nohid, Ardvi, tarixiy diaxron.
Абстрактный. В данной исследовательской работе рассматриваются типы космогонии и неокосмогонии, этимология и аспекты поэтического мастерства в лингвистических и художественных исследованиях, связанных с названиями звезд и планет. Был проанализирован ряд произведений, таких как «Авеста», «Девону луготит турк», «Фавойид ул-кибар» и «Кутадгу билиг».
Abstract. This research work sheds light on the types of cosmogony and neocosmogony, etymology, aspects of poetic skill in linguistic and artistic research related to the names of stars and planets. , A number of works such as “Avesta”, “Devonu lug‘otit turk”, “Favoyid ul-kibar”, “Qutadgu bilig” were analyzed.
Keywords. Ulkar, Surayyo, Paruy, Ardvisura, Anahita, Nohid, Ardvi, historical diachron.
Ключевые слова. Улькар, Сурайя, Паруй, Ардвисура, Анахита, Нохид, Ардви, исторический диахрон.

O‘zbek tili yozma yodgorliklarga boy til bo‘lib, tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga doir materiallar ham juda ko‘p. Bir guruh o‘zbek nomshunoslari ta’kidlaganlaridek: «…o‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan va ko‘plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma’rifiy tomonlari fan uchun qorong’uligicha qolmoqda». Bu fikr o‘zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir.

Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik obyektlar nomi paydo bo‘ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmoqda. Tilimizda qadimdan qo‘llanib kelaètgan kosmonimlar va yangi hosil bo‘lgan kosmonimlarning lisoniy xususiyatlarini kengroq yoritish zarurati ularga diaxron va sinxron jihatdan yondashishni taqozo qiladi. Bu fikr o‘zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir. Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik ob’ektlar nomi paydo bo‘ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmoqda.

Tilimizda qadimdan qo‘llanib kelayotgan kosmonimlar va yangi hosil bo‘lgan kosmonimlarning lisoniy xususiyatlarini kengroq yoritish zarurati ularga diaxron va sinxron jihatdan èndashishni taqozo qiladi. Quyidagi ilmiy manbalarda kosmonimlar masalasiga to‘xtalib o‘tiladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida Erantuz(Yupiter), Baqir soqum (Mars), Temur qazunuq(Qutb yulduzi), Yetikan (Yetti qaroqchi yulduzi), Ulkar(Surayyo yulduz turkumi, Hulkar), Qoraqush(Yupiter), Yer(Yer planetasi), Ay(Oy) kabi kosmonimlarga izoh berilgan. Navoiy asarlari tili leksikasini o‘rgangan Bafayevning ma’lumot berishicha, osmon jismlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar, predmet nomlari Alisher Navoiy asarlarida oltmishdan ortiq so‘zlar ifoda etilgan[29].

Xalq kosmonimlari xalq tomonidan nomlangani sababli til tabiatiga muvofiq ularda fonetik o‘zgarishlar bo‘lishi, shuningdek turli davrlarda aynan bir obyektning o‘zi turlicha nomlar bilan atalishi yoki aynan ma’lum obyekt bir tilning sheva va lahjalarida bir-biridan farqli nomlar yoki sinonimik qatorga ega bo‘lishi ko‘plab kuzatiladi. Masalan, Mars sayyorasini hozirgacha yetti nom bilan atalganini ta’kidlashgan: Baqir so‘qum (Baqir so‘qum//Baqir so‘qin) – Baqir so‘qra yulduz- Angarak (Turfon matnlarda) –yulduz-Mirrix-Bahrom-Qizil-Mars[30].

Husn bozorida men bo‘ldim ul oyg‘a mushtariy,
Kim muqarrar aylagay oyo mohi tobong‘a narx[31].

Baytda mushtariy so‘zining ko‘p ma’noliligi asosida iyhom san’ati, ya’ni bir o‘rinda xaridor, bir o‘rinda planeta, Oy, Moh, Mushtariy kosmonimlari qo‘llash

[29] Бафоев Н. Навоий асарлари асарлари лексикаси.-Тошкент: Фан,1983. –Б.152.
[30] Бегматов Е., Дўсимов З., Нафасов Т., Қораев С. Ўзбек номшунослиги: тадқиқ ё‘налишлари ва усуллари. Хива. Номсуносликка бағишланган илмий-амалий анжуман тезислари.-Хива, 1991.-Н/1.-Б.12.
[31] Алишер Навоий.Фавойид ул-кибар. –Тошкент:Фан, 1960.-Б.116. А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.

orqali esa tanosub san'ati yuzaga kelgan. Parvin yulduzi "Avesto"da "Tir yasht"ning 12-bandida Paoryavini ko'plik shaklida qo'llangan, pahlaviyda Parviz, forsiyda Parvin, so'g'd tilida Paruy yoki Parvay, arabiyda Surayyo yulduz turkumi fransuz tilida Pleyadir. Parvin "Avesto"da boshqa yulduzlar qatori ulug'lanadi.

Hamul hayli Parvin o'zin ko'rguza,
Taloya kibi chiqti gardun uza[32].

Surayyo bir-biriga yaqin joylashgan oltita yulduzdir. Surayyo "boylik" ma'nosida saro so'zining kichraytirish shaklidan olingan. Tadqiqotchilarning fikricha, Surayyoni saro, ya'ni kichraytirish shaklida ishlatilishi unga nisbatan ehtirom ifodasidir. Iqdi so'zi eski o'zbek tilida, ba'zan Navoiy asarlarida Surayyo yulduzi ma'nosini ifodalagan.

"Avesto"da tabiatni yashartiruvchi, suvga, yerga va ayollarga homiylik qiluvchi ma'buda Ardvisura Anaxita nomi bilan bog'liq. "Avesto"ning 5-yashtida Anaxita yulduzi sifatida qayd qilinadi. Birinchi qism Ardvi-"nam", "bug'", ikkinchi qismi sura-"qudratli" ma'nosida, uchinchi qismi anaxita-"pokiza", "g'uborsiz", "bokira" ma'nolarida qo'llangan[33]. Hozir ham Xorazm shevalarida shaddod qizlarga nisbatan anakuta sifatlashi ishlatilib, u Anaxita so'ziga tarixan aloqadordir[34].

Astronomiyaga oid tarixiy ilmiy manbalarda Nohid planetasining makoni uchinchi falak ekani, bu so'zning majoziy ma'nosi "balog'atga yetgan qiz" ekanligi haqida ma'lumot beriladi va bu so'zning Nohida shakli ham uchraydi.

Ne axtar har biri Birjisu Nohid,
Ne Birjisu qayu Nohidi, Xurshid[35].

Nohid yulduzining Cho'lpon, Tong yulduzi, Yo'lchi yulduz nomlari o'zbekcha nomlar bo'lib planetaning turli xususiyatlari asosida nomlangan.

Mirrix yulduzi "Devoni lug'otit turk"da Baqir soqum nomi bilan keltirilgan. Mahmud Qoshg'ariy baqir so'zini izohlar ekan, "Chin o'lkasida chaqa, oldi sotdilari
Shu orqali qilinadi" deb izoh beradi. Baqir so'qum planetasini ta'riflaganda "u qizillikda misga o'xshatiladi" deydi.[36] XIV asr va undan keying manbaalarda Mars sayyorasi Mirrix deb atalgan. Mirrix arabcha "mis" demakdir. Ya'ni bunda sayyora rangiga nisbat berib aytiladi."Bir miri yo'q" iborasi tarkibidagi miri so'zi "mis tanga" ma'nosini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, sayyoralar nomlari xalqlarning mifologik va diniy dunyoqarashlarini boshqa kosmonimlarga nisbatan keng ifoda etishi bilan ahamiyatlidir. O'zbek kosmonomiyasini tizimli tahlil qilish, uning hajmi, vazifaviy ko'lami, umumxalq adabiy tilidagi mavqeyini oshirish ustivor vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бафоев Н. Навоий асарлари асарлари лексикаси.-Тошкент: Фан,1983. –Б.152.

[32] А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.
[33] Авесто. Тарухий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001.-Б.344..
[34] Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари номз…дисс. автореф. - Тошкент, 2009.-Б.58.
[35] А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.-Б.487.
[36] Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 3 жилдли. –Тошкент:1-жилд.- Б.342, 378.

2. Бегматов Е., Дўсимов З., Нафасов Т., Қораев С. Ўзбек номшунослиги: тадқиқ ёʻналишлари ва усуллари. Хива. Номсуносликка бағишланган илмий-амалий анжуман тезислари.-Хива, 1991.-Н/1.-Б.12.
3. Алишер Навоий.Фавойид ул-кибар. –Тошкент:Фан, 1960.-Б.116.
4. А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.
5. Авесто. Тарухий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001.-Б.344.
6. Примов А. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари номз…дисс. автореф.-Тошкент, 2009.-Б.58.
7. А.Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.4 жилдли. –Тошкент:Фан, 1983.-Б.487.
8. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. 3 жилдли. –Тошкент:1-жилд.-Б.342, 378.

ADABIY ASARLARDA TAQDIR VA QASOS TUSHUNCHASI

Baxodirova Odina Isroilovna
Namangan Davlat Chet Tillar Instituti magistranti

Anotatsiya:

Ushbu maqolada adabiy asarlarda taqdir va qasos tushunchalarining qanday yoritilishi tahlil qilinadi. Sharq va Gʻarb adabiyotlaridan olingan klassik va zamonaviy asarlar misolida yozuvchilarning taqdirga boʻlgan munosabati, qasosni qanday talqin qilganliklari koʻrsatib beriladi. Maqolada Alisher Navoiy, Omon Matjon, Oʻtkir Hoshimov, Saʼdiy Sheroziy, Sofokl, Uilyam Shekspir kabi adiblarning asarlari orqali taqdir va qasos mavzulariga diniy, falsafiy va psixologik yondashuvlar ochib berilgan. Tahlillar orqali taqdirga boʻysunish va qasosga intilish inson ruhiy olamining murakkab tomonlarini ifodalashda adabiy vosita sifatida qanday xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit soʻzlar: taqdir, qasos, adabiyot, Sharq, Gʻarb, falsafa, tragediya, axloq, ruhiyat

Annotation:

This article analyzes the representation of fate and revenge in literary works. Drawing examples from classical and modern Eastern and Western literature, the paper explores how different authors interpret destiny and the concept of vengeance. It focuses on the works of Alisher Navoi, Omon Matjon, Oʻtkir Hoshimov, Sadiy Shiraziy, Sophocles, and William Shakespeare, providing insight into religious, philosophical, and psychological approaches to these themes. The article highlights how submission to fate and the pursuit of revenge serve as powerful tools in revealing the complexities of human emotion and moral dilemmas.

Keywords: fate, revenge, literature, East, West, philosophy, tragedy, ethics, psychology

Аннотация:

В данной статье рассматривается, как в литературных произведениях раскрываются понятия судьбы и мести. На примерах классической и

современной восточной и западной литературы анализируется отношение писателей к судьбе и их интерпретации мести. Особое внимание уделяется произведениям Алишера Навои, Омона Матжона, Уткира Хошимова, Саади Ширази, Софокла и Уильяма Шекспира. В статье освещаются религиозные, философские и психологические подходы к этим темам, а также роль судьбы и мести как литературных средств, отражающих внутренний мир человека и его нравственные противоречия.

Ключевые слова: судьба, месть, литература, Восток, Запад, философия, трагедия, мораль, психология

Kirish

Taqdir va qasos tushunchalari barcha zamonlarda bahsli mavzu bo`lib, ular adabiyotda ham asar syujetini harakatga keltiruvchi muhim vositalar biri bo`lib kelmoqda. Insonlarning hayotdan mazmun qidirishlari, taqdirlarini o`zgartarishga bo`lgan harakatlari doimo qiziqarli hisoblanib, mashhur yozuvchilarni ilhomlantirib, o`quvchini o`ylashga majbur qiluvchi ko`plab asarlar yaratishlariga sabab bo`lib kelgan. Intiqom talay asarlarni asosiy yoki yondosh syujeti sifatida kengroq uchraydi va bu uch tomonlama yondashilgan holda yanada asarni his – hayajonga boy holda tasvirlashda muhim rol o`ynaydi. Taqdir va qasos bugungi kunda ham mavjud bo`lgan turli roman, qissa, hikoya va hatto lirik asarlarda hamon keng qo`llanilmoqda.

Ushbu maqolada bu mavzularning sharq va g`arb adabiyoti durdonalarida qanday bayon etilishi, ayrim asarlar misolida turli yozuvchilarning qay yo`sinda mavzuga yondashuvlari tahlil qilinib, mualliflarning yondashuv yo`llaridagi o`xshash va farqli tomonlarini ham ko`rib chiqiladi.

Taqdir Sharq adabiy asarlari talqinida

Sharq adabiyotida qismat mavzusi haqida gap borar ekan dastlab mumtoz adabiyotni ko`z oldimizga keltirmaslik mumkin emas. Bu davrdagi asarlarda tadqirga asosan diniy, so`fiyona tomondan qaralib, insonga qismati oldindan belgilab qo`yilganligi, inson berilgan qismatini o`zgartirolmasligi va unga isyon qilmasligi, aksincha belgilangan tadiridagi yaxshi - yomon tuhfalarni Yaratgandan deb bilmog`i va unga inonmoq kerakligi bayon etilgandir. Turkiy tilning ilmiy kuchini ilk bor isbotlab bergan buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy o`z asarlarida taqdirga muhabbat va unga iymon keltirish haqidagi tushunchalar yorqin namoyon bo`ladi.

Ishqu may, ey shayx, azaldin sarnavisht ermish manga,
Vah, netib xush ko‘rmagaymen Tengrining taqdirini?

Yuqoridagi baytda Alisher Navoiy taqdirimda avvaldan ishqdan mast bo`lish bitilgan ekan, men uni xursand bo`lib qabul qilishim kerak demoqda. Shoir ijodida taqdirni faqat Haq Taolodan deb bilish va unga shukurlar qilish kabi tariqat qarashlari mavjud. Buyuk alloma “Taqdirni sevish iymon kamoli, tasavvufdagi rizo maqomi natijasi bo‘lib, taqdirni so‘kish, qarg‘ash yoki la’natlash aslo mumkin emas, degan qoidaga asoslangan.”[37]

[37] Mirzo Kenjabek “Taqdirga muhabbat (Alisher Navoiy ijodida taqdir tushunchasi)” O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 2006 yil 37-son.

Mumtoz adbiyotdan ilhomlanib asarlar yaratgan Omon Matjon ijodida ham bu mavzu uchrab turadi. Quyidagi Alisher Navoiyning “o`xshamas” g`azaliga yozilgan muxammasdan keltirilgan parchada shoir Arshning Egasi tomonidan har insonga turli qismat yozilgan ekan hech bir narsa undan qochib keta olmaydi, ya`ni panada qolib ketmaydi demoqda:

Har kima har xil yozur Arsh Mirzosi sana,
Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,
Nafs ipiga bog‘lidur ruh iplarin uzgan tana,
Ko‘yining ehromidin ko‘nglimni man etmang yana,
Kim anga azmi haram avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Qismat mavzusi nasriy asarlarda ham syujetni harakatga keltiruvchi muhim vositalardan biri bo`lib xizmat qiladi. O`tkir Hoshimov “Ikki eshik orasida” asarida urush davrida insonlar boshdan kechirgan turfa taqdirlarni mahorat bilan yoritib bergan. Bu asarda qora amma, Robiya, Shomurod, oqsoqol kabi qahramonlar misolida murakkab taqdirlarni ko`rishimiz mumkin. O`z navbatida qahramonlarning qismatidagi sinovlarni mardonavor qabul qilishi va rozi bo`lishi, achchiq taqdirdan ham xursandchilik topa olishi kabi sharq adabiyotining o`ziga xos xususiyati namoyon bo`ladi.

G`arb adabiyoti durdonalarida qismat.

Bu mavzu g`arb adabiyotida uzoq o`tmishga borib taqaladi, Gomer va Sofokl ijodi boshlangan davrdanoq voqealar zanjirini harakatga kelishi insonga buysunmas tashqi kuchlar tufayli degan tushunchalar mavjud bo`lib, u davrlar o`tishi bilan turli yunon mifologik afsonalari, yahudiy yoki xristian an`analaridagi “Xudoning irodasi” kabi ko`rinish berib kelgan. Davrlar mobaynida bu tushuncha jarayonlar bosqichidan o`tib borar ekan kitobxon o`z navbatida uni yozuvchining bilim va salohiyati nuqtai nazari bilan anglaydi. Qismatga diniy, falsafiy yoki psixologik nuqtai nazardan qaralar ekan, asarlardan shuni anglash mumkinki inson o`z bitiklik nomasidan qocholmaydi. Sofoklning “Shoh Edip” asarida Edip taqdirini bilgach undan qochish uchun bosh olib ketadi, ammo askincha u taqdiri tomon qadam qo`ygan bo`ladi. Ushbu asarda taqdirdan qochib qutulib bo`lmaydi degan fikr bosh tamoyildir.

Shekspirning “Makbet” tragediyasini tom ma`noda taqdir mavzusida yaratilgan shoh asar deyish mumkin. Asar bosh qahramoni Makbetga uch alvasti kelajagini bashorat qiladi: Kavdor grafi va bo`lg`usi qirol bo`lishini. U bashoratga ishonmay turgan bir paytda unga Kavdor bo`lganligi haqidagi xabar yetib keladi va u turli shubha- o`ylar girdobida qoladi. Bu haqida Makbet xonimga aytganida esa xonim eridan farqli ravishda qismatga ishonib u sari olg`a harakat boshlaydi va Makbetni qirol Dunkanni o`ldirishga undaydi. Ular rejani muvofaqiyatli bajaradilar, lekin Makbetni g`umonlar kemirishda davom etadi, chunki alvastilar Bankoga qirol ajdodi bo`lishi haqida ham xabar bergan edilar. Makbetni qora quyun ichdan yemiradi:

Bashoratchi hamshiralar fol ochishganda,
Manga shohlik va`da qilib, Bankoga esa
Shohlar sendan tug`iladi, demaganmidi?

Mening taxtim pushtsiz emish! Qo`limdan o`g`lim
Toju taxtni olmas ekan! U boshqagamish!
Nima uchun u taxtga erishmoq yo`lida shuncha harakatlar qiladiyu, vorislik uning nasliga emas Bankoga nasib etishi kerak degan o`y tinchlik bermaydi. Makbet qismatga qarshi urush ochadi:
Go`sxo`rmanmi hali Banko vorislariga?!
Mendan keyin taxt ularga taqdir qilarmish!
Quritaman, Bankoning shoh zurriyotini!
Tanti jangga chaqiraman taqdirni! Kim u?
Makbet Bankoni o`ldirishga erishadi, lekin asosiy g`ov, o`g`li qoshishga muvaffaq bo`ladi. Ichki noroziliklar kuchayadi, Makbet yana shubhalar og`ushida qoladi va alvastilar huzuriga borib qismati haqida yangi ma`lumotlar olmoqchi bo`ladi. Ular uch narsa haqida aytib beradilar: Makdufdan ehtiyot bo`lishini, ayol tuqqan hech bir jot unga shikast yetkazolmasligini va Birnam o`rmoni Dunsinan tepaligini kesib chiqmaguncha uni hech kim mag`lub etolmasligini. Makbet bu xabarni eshitganida Makduf Angliyaga qochib ulgurgan edi, qoldirib ketgan oilasi va qarindoshlarini Makbet qilichdan o`tkazadi va noroziliklar kuchayishiga sabab bo`ladi. Shunga qaraman Makbet xotirjam edi, chunki har bir inson onadan tug`iladi va o`rmon aslo harakat qila olmaydi. Makduf qirol Dunkanning o`g`li Malkolm bilan birlashib qo`shin tortib keladilar va dushmanni chalg`itish uchun Birnam o`rmonidan shoxlar kesib bildirmay ular tomon yaqinlashadilar ya`ni o`rmonni siljitadilar. G`aflatda qolgan Makbetni Makduf bashoratda aytilgan inson ekanligini, ya`ni kesircha kesish yo`li bilan dunyoga kelganligi aytib o`ldiradi. Asarda bir qarashda imkonsizdek tuyulgan qismat o`yinlarini yozuvchi yuksak mahorat bilan ifodalaganini anglash qiyin emas.

Qasos haqidagi umumiy qarashlar.

Qasos biror kimning bizga qilgan zulmi yoki yomonligiga qarshi ya`ni javoban unga zarar yoxud og`riq yetkazish harakati sifatida tushuniladi. Bu mavzu adabiyotda ham uzoq vaqtdan beri asosiy syujetlardan biri bo`lib kelmoqda. Chunonchi, klassik adabiyotning ko`p qismi yoki teleekran oynasida namoyish etilayotgan zamonaviy filmlarda qasos mavzusini ko`plab uchratish mumkin. Shu o`rinda savol paydo bo`lishi tabiiy: nima uchun ko`plab asarlar manashu (qasos) mavzu doirasida yaratiladi? Qasos tushunchasi insoniyat kabi qadimiy bo`lib, bu jarayon “sabab va oqibat”ga asoslangan harakat hisoblanib, jabrdiydalar nafrat bilan haqli holda javob qaytarishini tushunilgan sodda jarayondir. Aslida, real hayotda ko`rishimiz mumkinki qasos salbiy oqibatlarga olib keladi, bu ruhiy qoniqish keltirish o`rniga insonda ko`ngil tushkinliklari, ichki qarama- qarshiliklar paydo bo`lishiga sabab bo`lishi ham mumkin.

Sharq adabiy asarlarida qasos masalasi

Intiqom adabiy syujetda oddiy naqshda chizilmaydi, balki u ko`p bosqichli murakkab shaklga ega bo`lib, inson tabiati murakkabligini va qat`iyatini, shuningdek, qasosning natijalari har doim ham aniq emasligini aks ettiradi. Ayrim asarlarda esa o`ch olish o`rniga aksincha o`zgarish ya`ni “yomonlikka yaxshilik” bilan javob qaytarish yozuvchining yuksak mahorati bilan bayon etiladi, ayniqsa

bu holatni sharq adabiyoti durdonalarida ko`plab uchratish mumkin. Sharq adabiyotida qasos tushunchasi chuqur diniy va axloqiy ildizlarga ega bo`lib, bu asosan sharaf, oila va jamiyat oldidagi burch, shaxsiy g`urur va ilohiy adolat va jazo bilan uzviy bog`liq holda namoyon bo`ladi. Ko`p o`rinlarda qasos asarlarda adolatni tiklash vositasi sifatida namoyon bo`lsada, lekin bu adolat shaxsiy bo`ladi, qasos davlat qonunlari orqali emas balki e`tiqod, urf-odat va shaxsiy tushunchalarga tayangan bo`ladi, desak to`g`riroq bo`ladi. Xalq og`zaki ijodi namunalaridan biri "Alpomish" dostonida Hakimbek Qalmoq yurtga Boysariga qilingan zulmlar uchun o`ch olgani borishi, yurtiga bildirmay qaytib kelib, dushmanidan yurtini va oilasini qaytarib olishi or –nomus uchun kurashning namunasidir.

Sa`diy Sheroziyning "Guliston" asarida qasos mavzusi bir necha hikoyalar orqali yoritilgan bo`lib, jazolash, adolatsiz va haddan oshgan qatl, xusumat va g`azab kabi ko`rinishlarda bayon etilgan. Bu hikoyalarda jabrlanuvchilar odatda intiqomni Allohga havola etib, duo qilishda bardavom bo`ladilar. Hikoyalardan birida aytiladiki, Zavzan hukumdorining oliyjanob amaldori bor bo`lib, uning biri ishi podshohga yoqmay qolib uni zindonband qiladi. Amaldorning dovrug`ini eshitgan qo`shni mamlakat podshohlari unga xat yozib o`zlari tomonga o`tsa izzat-ikromda yashajagi haqida ma`lum qiladilar. Podshohning yaqinlaridan biri bu haqida unga xabar berganlarida, darg`azab bo`lgan shoh choparning ortidan odam cho`natib xatni tekshirtirganida maktubda amaldor tuz yegan xonadoniga xiyonat qilmasligini aytgan edi:

Bir kishi umr bo`yi senga karam etibdi,
Bir galgina gunohini kechirsang netibdi!

Podshoh amaldorni ozod etib, qimmatbaho sarpolar bilan taqdirlab, uzr so`raganida amaldor deydi; "Ey podshohi olam, men bu ishda siz tomondan sodir bo`lgan hech qanday xatoni ko`rmayman. Aftidan, taqdiri ilohiy bilan boshimga shu ishlar kelmoq lozim ekan…"[38] Bu parchadan ko`rinib turubdiki amaldor boshiga tuzgan zulmni taqdirida bitilgan bilib, haqsizlikni kechirdi va adolatni Haqdan deb sabr bilan kutdi.

G`arb adabiyoti misolida qasos.

Qasos, intiqom, o`ch olish tushunchalari g`arb adabiyotida juda qadimiy syujet hisoblanadi. Bu turdagi asarlar ikki ming yillardan avvalgi Yunoniston va Rim adabiyotida keng tarqalgan bo`lib, intiqom tushunchasi turli ko`rinishlarda uchraydi. Uning yorqin namunalari sifatida Bibliya, qadimgi yunon va rim epik asarlarini aytish mumkin. Oradan uzoq vaqt o`tgan bo`lsada bu mavzu hamon muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu ruhdagi asarlar insonlar nima uchun qasos olayotganlari va qay yo`sinda bajaroyotganlari yoxud bu jarayonda axloqiy meyorlar buzilayotganlarini, hissiy qarama-qarshiliklar to`qnashgan syujetlarni hayajonga boyligi bilan ahamiyatlidir, balkim. Ba`zan yozuvchi intiqom uchun g`oyat betakror asos yaratishi bilan o`quvchini mavzu dolzarbligiga qarata oladi.

[38] Sa`diy Sheroziy "Guliston" – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.

Mohir dramaturg Uilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasida qasos asarning markaziy g`oyalaridan biri bo`lib, u nafaqat syujetni harakatga keltiradi, balki insoniy qarashlar, axloqiy tanlovlar va ichki ziddiyatlar orqali chuqur falsafiy savollarni o‘rtaga qo‘yadi. Asarning boshida Hamlet otasining arvohi bilan suhbatlashadi va otasi uning qotili o`z ukasi ekanligini aytib Hamletni qasos olishga undaydi. Bu o`rinda qasos arvoh orqali ilohiy adolat talabidek namoyon bo`ladi. Hamlet o`ch olishga shoshilmaydi, voqea rostligini aniqlashga urinadi. U o`z navbatida qasos olishni va adolatni tiklashni istaydi, ammo shu bilan birga o`zini qotilga aylantirishdan ham qo`rqadi. Bu orqali Shekspir qasosning oddiy, bevosita javob emasligini, balki murakkab axloqiy masalaga aylanishini ko‘rsatadi. Hamlet qasos olishga erishadi, lekin bu yo`lda onasini yo‘qotadi, o‘zi ham zaharlanadi, Ophelia aqldan ozadi va halok bo‘ladi, Laertes, Klavdiy va boshqa ko‘plab insonlar nobud bo‘ladi. Bu bilan Shekspir shuni ko‘rsatadiki, qasosning oxiri halokatdir, shuningdek, shaxsiy adolat yoki g‘azab bilan yo‘lga qo‘yilgan qasos jamiyat uchun katta fojialarga sabab bo‘ladi.

Xulosa.

Adabiy asarlarda taqdir va qasos tushunchalari har doim dolzarb va chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib kelgan. Bu ikki mavzu, aslida, insoniyat tafakkurining eng muhim savollaridan – “Hayotim qanday kechadi?”, “Nega men shunday yo‘l tutdim?”, “Adolat qaerda?” kabi savollarga javob izlash jarayonining bir ko‘rinishidir. Sharq adabiyotida taqdir masalasi ko‘pincha ilohiy iroda, sabr, qanoat va rizo bilan bog‘lanadi, qasos esa odatda ichki tozalikka, kechirim va ruhiy yuksalishga yo‘naltiriladi. G‘arb adabiyotida esa bu tushunchalar insoniyatning ichki kurashi, axloqiy tanlovi va ba'zida fojiali taqdir bilan to‘qnashuvi orqali ochib beriladi. Har ikkisida ham qasos va taqdir tushunchalari inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi, asar syujetini harakatga keltiruvchi kuchli vosita sifatida xizmat qilgan. Xulosa qilib aytganda, taqdir va qasos mavzulari adabiyot orqali insonning o‘z-o‘zini anglashiga, axloqiy tanlovlar oldida to‘xtab o‘ylashiga sabab bo‘lib, har bir davrda va har bir jamiyatda o‘ziga xos talqin topib kelmoqda. Bu esa mazkur tushunchalarning abadiyligi va adabiyotda o‘z o‘rniga ega ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzo Kenjabek “*Taqdirga muhabbat (Alisher Navoiy ijodida taqdir tushunchasi)”* O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 2006 yil 37-son
2. Navoiy, A. “*Xamsa*”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
3. Sa’diy Sheroziy. *“Guliston”.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986.
4. Matjon, O. *“Tanlangan asarlar”.* – Toshkent: Yozuvchi, 2005.
5. Hoshimov, O‘. *“Ikki eshik orasi”.* – Toshkent: Sharq, 2001.
6. Shekspir, U. *“Makbet”*/ Tarj. Sa`dulla Ahmad. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
7. Shekspir, U. *“Tanlangan asarlar”* 3-tom/ Tarj. Maqsud Shayxzoda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

8. Sofokl. *“Shoh Edip”*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1975.

RISOLAT HAYDAROVANING “JAVZO” ROMANIDA QORAKO‘ZBEGIM OBRAZI TAHLILI

Djalilova Durdona Zairxodja qizi
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyot universiteti tayanch doktoranti

Abstract: This article analyzes the life of Qarakozbegim, the wife of Badi'uzzaman Mirza, a prominent representative of the Timurid dynasty, her political and cultural activities, her place among the Timurid queens, and aspects reflected in historical sources. Through the image of Qarakozbegim, the participation of Timurid women in state administration and palace culture is highlighted. The article uses the necessary literature.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar sulolasining yirik vakili Badi’uzzamon Mirzoning rafiqasi Qorako‘zbegimning hayoti, uning siyosiy-madaniy faoliyati, Temuriy malikalar orasidagi o‘rni va tarixiy manbalarda aks etgan jihatlari tahlil qilinadi. Qorako‘zbegim obrazi orqali Temuriy ayollarining davlat boshqaruvi va saroy madaniyatidagi ishtiroki yoritiladi. Maqolada kerakli adabiyotlardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, malika, tarixiy shaxs, obraz, sohibqiron, shahzodalar, tarixiy voqelik, saroy madaniyati, tarixiy manbalar.

Temur va temuriy shahzodalar XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning birinchi choragigacha O‘rta Osiyo, Shimoliy Afg‘oniston, qisman Eron hamda Iroq mamlakatlarida hukmronlik qilganlar. Shahzodalar singari temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste’dodli siyosatdon, suxandon, yetuk olima va xassos shoiralar yetishib chiqqan. Ular tarix zarvaraqlarida o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirganlar.[39]

Temuriylar sulolasi Markaziy Osiyo tarixida beqiyos madaniy, ilmiy va siyosiy taraqqiyot bosqichini tashkil etgan. XIV–XVI asrlar orasida yashab o‘tgan bu sulola nafaqat qudratli hukmdorlar, balki madaniyat homiylari bilan ham tanilgan. Ayniqsa, Temuriy malikalar — saroy ayollari — siyosiy jarayonlarda, diplomatik ittifoqlarda, adabiyot va san’atda muhim o‘rin tutganlar. Ulardan biri, biroq hozircha yetarlicha o‘rganilmagan siymo — Badi’uzzamon Mirzoning rafiqasi Qorako‘zbegimdir.

Tarixiy manbalar Qorako‘zbegim haqida qisqacha, ba’zida bilvosita ma’lumotlar beradi. Uning ismi Temuriylar saroyi bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa Hirot madaniy muhitining faol a’zosi sifatida esga olinadi. Shuningdek, Temuriy malikalar orasida uning ijtimoiy va xayriya faoliyati bilan bog‘liq izlar ham kuzatiladi. Temuriylar davrida malikalar institutining shakllanishi an’anaviy turkiy va islomiy siyosiy madaniyatning uzviy qismiga aylangan edi. Temuriy malikalar

[39] Fayziyev T .Temuriy malikalar. – Toshkent, 1994.1-bet

– Amir Temur, Shoxrux, Ulug‘bek, Abu Sa’id Mirzo, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlarning rafiqalari va qizlari – ko‘pincha siyosiy ittifoqlarni mustahkamlash, diplomatik aloqalarni yuritish va madaniy hayotni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etgan. Ular faqatgina “saroy bezagi” emas, balki davlat siyosatining muhim ishtirokchilari bo‘lgan. Masalan, Bibixonim, Gavharshodbegim Robiyabegim, Xadichabegim, Shod Mulk kabi ayollar o‘zlarining me’morchilik, xayriya va madaniy homiylik ishlari bilan tarixda iz qoldirgan. Bunday faoliyat Temuriylar davrining o‘ziga xos jihatlaridan biri sanaladi.

Saroy malikalarining asosiy vazifalaridan biri — siyosiy barqarorlikni ta’minlash, valiahdlarning tarbiyasi bilan shug‘ullanish, tashqi saroy bilan ichki siyosat o‘rtasida muvozanatni saqlash bo‘lgan. Ular ko‘pincha madrasa, xonaqo, hammom, qabriston va masjid kabi obidalarni bunyod etishda bosh-qosh bo‘lganlar.

Qorako‘zbegimni, Bibixonim, Gavharshodbegim, Robiyabegim singari mashhur malikalar bilan taqqoslanganda, yozma manbalarda kamroq tilga olinadi. Ammo bu uning roli ahamiyatsiz bo‘lganini bildirmaydi. Aksincha, u siyosiy beqarorlik sharoitida, davlat inqirozga yuz tutgan davrda faoliyat ko‘rsatganligi sababli ko‘proq amaliy, ichki saroy ishlari bilan shug‘ullangan.

Bibixonim Amir Temurning rafiqasi sifatida mashhur me’moriy obidalar qurgan bo‘lsa, Gavharshodbegim Ulug‘bekning onasi sifatida madaniyatga hissa qo‘shgan. Qorako‘zbegim esa o‘zining jismoniy qoldirgan obidalari emas, balki siyosiy barqarorlik va ma’naviy homiylik orqali tarixda iz qoldirgan.

Qorako‘zbegim obrazi adabiyotda kam uchrasa-da, tarixiy romanlar va badiiy asarlarda u bilan bog‘liq personajlar paydo bo‘lmoqda. Zamonaviy romanlarda Temuriy malikalar haqida hikoya qilinayotgan bo‘lsa, bu Qorako‘zbegim obrazining qayta kashf etilishi uchun imkon yaratadi.

Agar yozuvchilar bu siymoga chuqurroq murojaat qilishsa, u Temuriy davr ayollari idealining muhim timsollaridan biriga aylanishi mumkin. Bu esa adabiyot orqali tarixiy haqiqatga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

XVI asr boshlarida Temuriylar sulolasi zaiflashgan, Xurosondagi siyosiy kurashlar kuchaygan va Movarounnahrda Shayboniylar siyosiy maydonga chiqqan davrda Qorako‘zbegim hayot kechirgan. Shayboniyxon (Muhammad Shayboniy) Temuriylar ustidan ustunlikka erishgach, Temuriy malikalar bilan bog‘liq siyosiy va nikohiy aloqalarni mustahkamlashga intildi. Shayboniyxonning siyosiy strategiyasidan biri — Temuriy malikalar bilan turmush qurish orqali o‘z hukmronligini kengaytirish, ya’ni qonuniylashtirish edi. Qorako‘zbegim bilan ham aynan shunday nikohiy aloqaga kirishgan. Bu nikoh Shayboniylarning Temuriy sulolasiga nisbatan merosiy da’volarini mustahkamlash uchun xizmat qilgan.

Bu holat Qorako‘zbegim uchun ixtiyoriy emas, balki siyosiy bosim ostida yuzaga kelgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Chunki Shayboniyxon Hirotni egallagach, Temuriy shahzodalar va ularning yaqinlarini qo‘lga kiritgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Shayboniyxon Qorako‘zbegimni nikohiga olgach, bu orqali Temuriylar sulolasining ramziy tugatishini e’lon qilgan.

Bu voqea Temuriylar madaniy merosining tugatilishi emas, balki siyosiy hukmronligining o‘zgarishini bildirgan bo‘lsa-da, Qorako‘zbegim shaxsiy hayotida katta fojialarni boshdan kechirgan bo‘lishi mumkin. Uning bu bosqichdagi hayoti haqida tafsilotlar kam, biroq tarixiy manbalar uning Shayboniyxon saroyida yashaganini bildiradi.

Bu hol Qorako‘zbegimni o‘z davrining eng murakkab ayollaridan biriga aylantiradi — u ikki sulola: Temuriy va Shayboniylar o‘rtasida siyosiy vositaga aylangan, biroq tarixda o‘z izini saqlab qolmagan.

“Javzo” romani Temuriylar sulolasining so‘nggi davri va Shayboniylar bosqini bilan bog‘liq tarixiy murakkabliklarni badiiy tasvirlashga uringan asarlardan biridir. Asarda qahramonlar qatorida tarixiy shaxs — Qorako‘zbegim obrazi alohida e’tibor bilan yoritilgan. U faqat saroy malikasi emas, balki tarixiy inqiroz sharoitida o‘z sha’nini, sulola izzatini saqlab qolgan mard va oqil ayol sifatida talqin etiladi. Asar voqeligi podshoh Xusayn Bayqaroning vafotidan so‘ng farzandlari Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolar o‘z saltanatlarini tashlab, qochib ketganligi, Shaybonixon Hirotni bosib olish ilinjida yaqinlashayotganligi va aholining sarosimali vaziyatni tasvirlashdan boshlanadi. “Bashirkat shohlarning (Bashirkat shohlar – davlatni sherikchilik asosida boshqaradigan shohlar. Husayn Boyqaro vafotidan keyin taxtga Badiuzzamon Mirzo o‘tirishi kerak edi. Lekin Xadicha begim o‘z o‘g‘li Muzaffar Mirzoni ham Badiuzzamon bilan baravar taxtga o‘tqazishga muyassar bo‘ladi. Shu tariqa aka-ukalar bashirkat shohlar deb atalgan) biri Qandahorga, ikkinchisi Astrobodga qochgan, shaharda sarosimalik”[40]

Adiba Risolat Haydarova “Javzo” romanida temuriylar davrida ayollarining turmush tarzi, o‘y-xayollari, ruhiy olamini ishonarli tarzda tasvirlab bera olgan. Asarda Qorako‘zbegim suyukli umr yo‘ldoshi Muzaffar Mirzo uni yog‘iylarga tashlab ketganligi, ko‘nglidagi g‘alayonlar unga tinchlik bermayotganligi, bu voqelikka ishonishi qiyin kechishi, ko‘nglidagi g‘am – tashvishni tasvirlash orqali asar qahramoni hayotidagi tub burilishga urg‘u beradi. Shayboniyxon Hirotni qo‘lga kiritsa uning holi ne kechishini o‘ylab, dilida tashvishli onlar unga yaqin kelayotganligidan sarosimaga tushadi. Shunda ko‘nglidan “...Shayboniyxonga qaynotasi Sulton Husayn Boyqarogina bas kelishi mumkin edi! Bu bashirkat shohlarning birortasi otasiga o‘xshamaydi”[41], - deya afsuslanish hissi o‘tadi. Shuningdek, o‘sha davr saroy ayollarining hayot yo‘li, uning taqdir bitiklariga nazar tashlar ekansiz, Qorako‘zbegimning onasi ta’rif etgan so‘zlarga juda mos keladi. Ya’ni: “Shohga yostiqdosh bo‘lgan ayollarning saodati hamisha qisqa bo‘ladi” [42]

Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Shayboniyxon Hirotdan so‘ng Temuriy malikalar ustidan nazorat o‘rnatgan. Qorako‘zbegim bilan nikoh esa sulolaviy nufuzni boyitish va xalq orasida o‘zini hukmdor sifatida ko‘rsatish

[40] Haydarova R. Javzo (tarixiy roman). – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011. – B. 3.
[41] Haydarova R. Javzo (tarixiy roman). – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011. – B. 4.
[42] Haydarova R. Javzo (tarixiy roman). – Toshkent: G‘afur G‘ulom NMIU, 2011– B. 5.

uchun xizmat qilgan[43]. “Javzo” romanida Qorakoʻzbegim qalbining iztiroblari, ayollik iftixori, siyosiy holatga nisbatan tushuncha va sabr-bardoshi chuqur badiiy vositalar orqali ochiladi. U Shayboniyxonning nikoh taklifiga qarshi ichki qarshilik koʻrsatadi, lekin saroy shaʼnini saqlab qolish uchun murosaga boradi.

Bu motiv tarixiy haqiqatga mos keladi. Shayboniyxon oʻz siyosatini kuchaytirish maqsadida Temuriy malikalar bilan aloqalar oʻrnatgan, lekin bu ayollar koʻpincha siyosiy bosim ostida qolishgan. “Javzo”dagi tasvirlar muallifning tarixiy asoslarni chuqur oʻrganib, ular asosida badiiy voqelik yaratganidan darak beradi.[44]

Roman davomida Qorakoʻzbegim oʻzini past tutmaydi, balki xalq, sulola va tarix oldida ayol shaʼnini qanday saqlab qolish mumkinligini koʻrsatadi. U ichki iztiroblarga qaramay, sabr bilan yashaydi. Shayboniyxon bilan boʻlgan majburiy aloqada ham u murosaga keluvchi emas, balki oʻz pozitsiyasini saqlagan shaxs sifatida koʻrsatiladi. Bu orqali muallif Temuriy malikalarining buyuk madaniy va axloqiy merosini qayta tiklaydi. Roman muallifi tarixiy faktlarga tayanadi: Hirotning Shayboniylar tomonidan egallanishi, Temuriy shahzodalarining panoh izlab tarqalib ketishi, malikalar taqdirining oʻzgarishi — bular barchasi tarixiy manbalarda mavjud. Qorakoʻzbegim timsoli tarixiy asosda yaratilgan boʻlib, muallif unga badiiy hayot, ruhiy olam va ayollik tafakkurini singdirgan.

“Javzo” romanidagi Qorakoʻzbegim obrazi tarixiy voqelik asosida yaratilgan, siyosiy oʻzgarishlar davrida ayolning qanday ogʻir tanlovlarga duch kelishini chuqur koʻrsatgan timsollardan biridir. U oʻz hayoti va shaʼnini fido qilgan, lekin sulola izzati uchun bosh egmagan shaxs sifatida tarixiy badiiyatda oʻz oʻrnini topgan. Deyish mumkinki, boshqa tarixiy asarlarda “Javzo” romanichalik ayollar obrazi va ruhiyati tasviri bu qadar keng qamrovda aks etmagan. Unda ayol zotining orzu- armonlari, gʻam-shodliklari, oʻy-kechinmalari, iztirob, qahr va alamlariga goʻzal chizgilar bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Fayziyev T .Temuriy malikalar. – Toshkent, 1994.1-bet
2.Haydarova R. Javzo (tarixiy roman). – Toshkent: Gʻafur Gʻulom NMIU, 2011. – B. 5.
3.Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. — T.: Fan, 1991
4.Halilov, N. Temuriylar davri va ayollar obrazi. — Toshkent, 2010.

“THE STARS, LIKE DUST” AS A PRE-HISTORY TO GALACTIC EMPIRE NOVELS BY ASIMOV

Akhmedov Rafael Sharifovich
Senior Lecturer, Gulistan State University
Email: rapha84@mail.ru

Abstract. Isaac Asimov’s “The Stars, Like Dust” (1951) serves as a foundational narrative within his expansive science fiction universe. Though often

[43] Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. — T.: Fan, 1991. – B. 22.
[44] Halilov, N. Temuriylar davri va ayollar obrazi. — Toshkent, 2010. – B. 30.

seen as a standalone novel, it is, in fact, the earliest in the chronological sequence of Asimov's Galactic Empire series, and thus forms an essential pre-history to his broader Foundation universe. This article critically examines the thematic, narrative, and philosophical elements of "The Stars, Like Dust" and explores how it anticipates the rise of the Galactic Empire featured in later novels. Through a detailed literature review, intertextual analysis, and discussion of political, philosophical, and cultural elements in the novel, this study positions "The Stars, Like Dust" as a significant precursor that lays the ideological and historical groundwork for the evolution of the Empire in Asimov's larger corpus. Key issues explored include authoritarianism, resistance, mythic governance, and the motif of lost knowledge. The findings suggest that while the novel lacks the epic scale of later works, its subtle exploration of early imperial tendencies makes it an integral part of Asimov's future history.

Keywords: Asimov, "The Stars Like Dust", Galactic Empire, science fiction, Foundation, future history.

Introduction. Isaac Asimov's contribution to science fiction is not merely in the breadth of his literary output, but in the coherence of the universe he created across multiple series — primarily the Robot, Galactic Empire, and Foundation sagas. While the Foundation series, beginning with "Foundation" (1951), is perhaps the most critically acclaimed, its historical backdrop is rooted in an earlier set of novels. Among these is "The Stars, Like Dust", the first in Asimov's Galactic Empire trilogy, followed by "The Currents of Space" and "Pebble in the Sky". These novels are often overshadowed by the complexity and philosophical depth of the Foundation series, yet they serve a crucial role in Asimov's future history.

"The Stars, Like Dust" is particularly noteworthy because it presents a galactic society on the cusp of transformation — still fragmented into planetary domains, but slowly moving toward centralized imperial rule. This novel thus serves as a "pre-history" to the Galactic Empire, offering insights into the political, cultural, and psychological forces that catalyze the formation of a galactic-scale government.

This article argues that "The Stars, Like Dust" plays a foundational role in understanding Asimov's later works. It examines the themes, characters, and sociopolitical structures in the novel and relates them to the broader arc of Asimov's universe. The analysis addresses questions about the novel's philosophical underpinnings, its contribution to speculative political theory, and its function as a narrative seedbed for the eventual rise of the Galactic Empire and, subsequently, the Foundation.

Literature Review. Asimov's future history has been the subject of extensive literary and critical attention, though the Galactic Empire novels — especially "The Stars, Like Dust" — have not received the same scholarly focus as the Foundation or Robot series. The following overview presents a synthesis of the most relevant literature.

According to James Gunn (1975) and Rafael Akhmedov (2020), Asimov's genius lies in constructing a coherent timeline that bridges artificial intelligence, galactic politics, and psychohistorical predictions. Gunn notes that "The Stars, Like Dust" occupies a transitional space — depicting a galaxy that has yet to coalesce into the centralized Empire of later books. He emphasizes the novel's depiction of early political unification as key to understanding Asimov's vision of historical development.

Donald M. Hassler (1982) and Mark Ciotola (2021) view the Galactic Empire novels as allegories for the rise and fall of empires throughout human history. Hassler suggests that "The Stars, Like Dust" mirrors ancient Roman and contemporary Cold War tensions, representing both a warning and a reflection on totalitarianism. The protagonist's rebellion against the Tyranni echoes anti-colonial narratives and libertarian concerns about state overreach.

Gary Wolfe (2005) and Jonathan Hay (2021) point out that Asimov retroactively integrated "The Stars, Like Dust" into the larger Foundation narrative, drawing thematic and ideological links between otherwise separate works. Wolfe emphasizes that even when Asimov had not originally intended a unified universe, the later blending of stories into a continuous timeline invites readings that consider each novel's contribution to the broader arc.

Farah Mendlesohn and Edward James (2003), as well as Donald Palumbo (2016), critique "The Stars, Like Dust" as structurally weaker than Asimov's other works but acknowledge its thematic significance. They argue that its exploration of resistance to tyranny, the preservation of knowledge, and the dangers of ideological rigidity are key motifs that recur throughout the Foundation saga.

These studies suggest a latent but rich scholarly interest in positioning "The Stars, Like Dust" within Asimov's meta-narrative. This article builds on that foundation by offering a focused, detailed reading of the novel as a historical and philosophical precursor to the Galactic Empire.

Results. Key Themes and Pre-Historical Elements:

1. Fragmentation and the Seeds of Empire. At the time of "The Stars, Like Dust", the galaxy is fragmented into independent planetary systems and local regimes. The central antagonists, the Tyranni, control several planets through a regime of surveillance and military oppression. This mirrors the kind of fragmented political structure seen in pre-Roman Europe or feudal Japan.

The novel thus portrays a transitional period where empire is not yet formalized but is already imagined. Biron Farrill, the protagonist, inadvertently becomes part of a movement seeking to unify planetary systems, foreshadowing the eventual consolidation that gives rise to the Galactic Empire. This process aligns with historical theories of state formation, where security threats and economic integration catalyze centralization.

As Asimov writes early in the novel: "The Tyranni are not an empire, not in the true sense. They are overlords of a score of planets and rulers of none." This distinction reinforces the sense of a transitional phase — one between anarchic independence and galactic unification. Biron Farrill, the protagonist, inadvertently

becomes part of a movement seeking to unify planetary systems, foreshadowing the eventual consolidation that gives rise to the Galactic Empire. As he is drawn deeper into rebellion, Biron is told by Gillbret: “You are not part of any plan, and that is the best part of the plan. You are a seed thrown into the wind.” The metaphor of seeds and planting resonates with historical theories of state formation, where external threats and economic interests catalyze centralization.

2. The Tyranni and Authoritarianism. The Tyranni are an oppressive regime that functions as a metaphor for authoritarian governments. Their reliance on censorship, police surveillance, and the suppression of knowledge provides a blueprint for the later Empire's authoritarian tendencies.

The text notes: “Books were among the most tightly controlled items under Tyranni rule. A man might be executed for owning the wrong volume.” This control of knowledge mirrors historical totalitarian regimes. Yet, Asimov offers a nuanced portrayal: the overthrow of the Tyranni does not guarantee democracy. As Aratap, a Tyranni Commissioner, muses during an interrogation: “Rebellion is never pure. It breeds its own forms of tyranny.” This introduces a central tension in Asimov’s future history: empires often arise not from a desire for domination but from the perceived necessity of stability in a fragmented political landscape.

Yet, the novel offers a nuanced portrayal — while the Tyranni are oppressive, their fall would not automatically guarantee democracy or justice. This introduces a central tension in Asimov’s future history: empires often arise not from a desire for domination but from the need for stability in a chaotic system.

3. The Myth of the Constitution. A major plot point in “The Stars, Like Dust” is the discovery of an ancient Earth document — revealed to be the United States Constitution. While some readers have criticized this as a naive or overly symbolic gesture, it serves an important thematic function.

When the Constitution is revealed, one of the novel characters remarks: “It is a relic, yes — but it is also a dream. A reminder that freedom once had rules.” This symbolic gesture ties the past of Earth to the future of the galaxy, echoing the idea of a civilizational memory. The Constitution, now mythologized, becomes a “Rosetta Stone” for future governance: “Perhaps, in some future time, those words may be the foundation of a new world.” Though it may not have immediate practical application, its rediscovery emphasizes ideals of governance based on checks, balances, and individual liberty — ideals that will echo, however distorted, in the later Galactic Empire.

The Constitution symbolizes a lost ideal of governance, one grounded in checks and balances and individual liberty. Its rediscovery evokes a civilizational memory that informs the values of future political systems, even if imperfectly. It becomes a kind of mythic artifact — a Rosetta Stone for future governance in the Galactic Empire.

4. Foreshadowing the Empire’s Rise. The novel ends not with a final triumph over tyranny but with the beginning of a longer struggle. The protagonists escape the immediate threat, but the broader system remains intact. This inconclusive ending is significant — it reflects the historical reality that empires

are not built in a day but over generations. Biron reflects near the end: “The road lies open — not to peace, perhaps, but to possibility.” This open-ended conclusion is deliberate. It sets the stage for the Empire’s rise in later novels like The Currents of Space and Pebble in the Sky, where the seeds planted in The Stars, Like Dust begin to germinate into a more centralized, bureaucratic, and expansive Galactic government.

Asimov’s decision to focus on political ambiguity, rather than resolution, sets the stage for the Empire’s later appearance in “The Currents of Space” and “Pebble in the Sky”, where a more centralized, bureaucratic, and expansive government begins to take shape.

Discussion. The above themes make clear that “The Stars, Like Dust” is an essential component of Asimov’s galactic narrative, both structurally and ideologically. It bridges a gap between isolated planetary societies and the sprawling Empire of the Foundation series.

From a philosophical perspective, the novel engages with ideas about governance, resistance, and historical memory. The Tyranni’s domination evokes both Orwellian surveillance and classical despotism. The protagonists’ resistance reflects Enlightenment-era ideals of liberty and self-determination, but Asimov complicates these ideals by suggesting that political freedom is often intertwined with, and sometimes dependent on, systemic stability.

The novel also delves into the mythology of foundational texts. The use of the U.S. Constitution as a plot device is often viewed as jarring or simplistic. However, when considered through the lens of cultural mythology, it becomes clear that Asimov is using it symbolically. The Constitution is less a literal solution to tyranny and more a representation of a political ideal whose value lies in its remembered virtue, not its immediate applicability.

Moreover, “The Stars, Like Dust” demonstrates Asimov’s engagement with the cyclical theory of history. The novel’s ambiguous ending underscores the idea that political progress is uneven and that the fight for justice is often recursive rather than linear.

The characters in the novel, while less developed than those in the Foundation series, embody archetypal roles that echo through Asimov’s future works: the reluctant hero (Biron Farrill), the hidden revolutionary (Rizal), the pragmatic politician (Hinrik), and the voice of moral conscience (Gillbret). These figures reappear in more complex forms throughout the Galactic Empire and Foundation series, suggesting a literary continuity in Asimov’s approach to character development as well.

Conclusion. To sum up, “The Stars, Like Dust” should not be read merely as an early or underdeveloped Asimov novel, but as a narrative cornerstone in the architecture of his galactic history. It captures a society in flux, grappling with the challenges of governance, resistance, and historical continuity. While the novel is thematically subtler than its successors, it is precisely its transitional nature that makes it essential.

Through its depiction of a galaxy moving from fragmentation to centralization, and through its symbolic use of constitutional mythos, “The Stars, Like Dust” offers a speculative pre-history that contextualizes the rise of the Galactic Empire. It explores the philosophical tensions inherent in power, freedom, and knowledge — tensions that reverberate throughout Asimov’s later works.

Ultimately, this novel serves as a foundational text not only in chronological terms but in its articulation of the ideological and historical pressures that shape the birth of empires. In doing so, it enriches our understanding of Asimov’s vision and underscores the enduring relevance of his speculative imagination.

References

1. Akhmedov, R. Sh. (2020). Social and Philosophical Ideas through Heterotopia: Asimov, Dick and Mieville. *GAP Bodhi Taru – Global Journal of Humanities, 3*(3), 32-39. DOI: 10.5281/zenodo.7343495
2. Ciotola, M. A (2021). *Simulation and Critique of Asimov’s Foundation Series: What Works and Fails*. Proceedings of Social Science History Association Annual Meeting (SSHA) in Philadelphia (USA), November 11-14, 2021. URL: http://ssha2021.ssha.org/abstracts/210383
3. Clute, J., Nicholls, P. (2000). *The Encyclopedia of Science Fiction*. St. Martin's Griffin, 2000.
4. Gunn, J. (1975). *Isaac Asimov: The Foundations of Science Fiction*. Oxford: Oxford University Press.
5. Hassler, D. M. (1982). *Isaac Asimov*. Ungar Publishing Company.
6. Hay, J. (2021). The Posthuman Trajectory of Isaac Asimov’s Foundation Universe. *The New York Review of Science Fiction, 31*(1), 13-20.
7. Mendlesohn, F., James, E. (2003). *The Cambridge Companion to Science Fiction*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Palumbo, D. E. (2016). *An Asimov Companion: Characters, Places and Terms in the Robot/Empire/Foundation Metaseries*. Jefferson: McFarland & Company Inc.
9. Wolfe, G. K. (2011). *Evaporating Genres: Essays on Fantastic Literature*. Wesleyan University Press.

"Bir ayol, bir kitob, bir dunyo"

Abdullayeva Irodaxon Kamoliddin qizi
NamDCHTI Magistratura talabasi
irodagulomova34@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada J.K. Rowlingning bolalik va yoshlik yillari yoritilib, bu davrda u boshidan kechirgan voqealar Garri Potter asarlariga qanday ilhom bo‘lganiga e’tibor qaratiladi. U maktabga bormasidan oldin hikoyalar yozishni boshlagan, o‘qituvchilari, sinfdoshlari va do‘stlari esa keyinchalik uning qahramonlariga aylangan. Jumladan, Sneyp, Malfoy va Ron Uizli Germiona va hatto Garrining onasi obrazlari shaxsiy hayotdagi odamlar asosida yaratilgan. Shaun Harris ismli do‘sti va uning eski Ford Anglia mashinasi esa ikkinchi kitobdagi muhim

voqealarga turtki bo‘lgan. Rowling yozishga bo‘lgan mehrini har qanday sharoitda davom ettirgan: samolyotda, maktabda, uyda. Ko‘plab rad javoblariga qaramay, u taslim bo‘lmagan va nihoyat 1996 yilda birinchi kitobi chop etilgan. 2008 yilga kelib, Garri Potter 65 tilga tarjima qilinib, 400 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Ushbu maqola Rowlingning oddiy hayotiy tajribalari qanday qilib jahonga mashhur adabiy asarga aylanganini ochib beradi.

Kalit so’zlar:
J.K. Rowling, Garri Potter, Bolalik tajribalari, Maktab hayoti, Ilhom manbalari, Qahramonlar yaratish, Shaun Harris, Ford Anglia, Nashriyot tarixi, Adabiy ijod, Dunyo adabiyoti, Kitoblarning tarqalishi, Yozuvchi hayoti, Bolalar adabiyoti, Kreativ yozish, Shaxsiy tajriba, Adabiy meros

Annotation

This article explores the formative years of J.K. Rowling, emphasizing how her personal experiences, childhood imagination, and school life directly influenced the creation of the Harry Potter series. From writing her first story at the age of six to being inspired by her teachers and classmates—who would later shape characters like Severus Snape, Draco Malfoy, and Ron Weasley Hermionie and Harry Potter’s mother—Rowling’s life served as a rich foundation for her fiction. Special attention is given to her close friendship with Shaun Harris and the symbolism of his old Ford Anglia, which later became a memorable element in the second book. The article also highlights Rowling’s unorthodox writing habits, her persistence in the face of multiple rejections, and the eventual publication of her first book by Bloomsbury in 1996. By 2008, the Harry Potter series had been translated into 65 languages and sold over 400 million copies, making Rowling one of the wealthiest female authors in Britain. This piece illustrates how Rowling’s real-life experiences were transformed into a literary phenomenon that continues to inspire readers worldwide**.**

Key words:
J.K. Rowling, Harry Potter, Childhood experiences, School life, Sources of inspiration, Character creation, Shaun Harris, Ford Anglia, Publishing history, Literary creativity, World literature, Book distribution, Writer’s life, Children’s literature, Creative writing, Personal experience, Literary legacy

Аннотация

В данной статье рассматриваются формирующие годы жизни Дж. К. Роулинг и то, как её личный опыт, детское воображение и школьные годы напрямую повлияли на создание серии Гарри Поттер. С момента написания своего первого рассказа в возрасте шести лет и до вдохновения, полученного от учителей и одноклассников — ставших прототипами таких персонажей, как Северус Снейп, Драко Малфой и Рон Уизли — жизнь Роулинг послужила богатым источником для её творчества. Особое внимание уделяется её близкой дружбе с Шоном Харрисом и символике его старого Ford Anglia, которая позже стала ярким элементом второго тома. Также подчеркиваются

необычные привычки Роулинг в написании, её настойчивость несмотря на многочисленные отказы и, в конечном итоге, публикация первой книги издательством Bloomsbury в 1996 году. К 2008 году серия Гарри Поттер была переведена на 65 языков и разошлась тиражом более 400 миллионов экземпляров, сделав Роулинг одной из самых богатых писательниц Великобритании. Эта работа демонстрирует, как реальные события из жизни автора превратились в литературное явление, вдохновляющее читателей по всему миру.

Ключевое слово

Дж.К. Роулинг, Гарри Поттер, Детский опыт, Школьная жизнь, Источники вдохновения, Создание персонажей, Шон Харрис, Форд Англия, История публикаций, Литературное творчество, Мировая литература, Распространение книг, Жизнь писателя, Детская литература, Креативное письмо, Личный опыт, Литературное наследие

Kirish. Garri Potter — bu oddiy fantastik qissa emas, balki sehrgarlar va jodugarlar, arvohlar va g‘ayritabiiy mavjudotlar, sehr va haqiqat, yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshi tushunchalarni o‘zida mujassam etgan mo‘jizaviy dunyo. Asarda chinakam hayotiy saboqlar, insoniy qadriyatlar va murakkab axloqiy tanlovlar fantastik olam fonida tasvirlanadi. Bu asarning ajoyibligi shundaki, u nafaqat bolalar, balki kattalar qalbiga ham kirib bora oladi. Yosh o‘quvchilar sehrli maktab — Xogvartsdagi sarguzashtlar orqali orzu qilish, do‘stlik va jasoratni o‘rganishsa, kattalar esa chuqur ramzlar, ijtimoiy mavzular va inson tabiatining murakkabliklari bilan yuzma-yuz keladilar. Garri Potter — bu har bir avlod uchun alohida ma’no va saboq bera oladigan noyob asar. Ko‘plab o‘quvchilarni o‘ylantirgan bir savol bor: “Kim shunday g‘oyadagi asarni yaratib, butun dunyoni o‘n yillar davomida sehrlab qo‘yishi mumkin?” Bu savolga javob izlar ekanmiz, ko‘z oldimizda birgina ism gavdalanadi — J.K. Rowling.

Muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, Garri Potter obrazi unga bir poyezd safarida, to‘satdan kelib qolgan. Biroq, asl haqiqat shundaki, bu mo‘jizaviy dunyo, uning qahramonlari va ularning his-tuyg‘ulari yozuvchining bolaligi, yoshlik davrida boshidan kechirgan sinovlari, yolg‘izlik, yo‘qchilik va orzulari bilan chambarchas bog‘liq .Garri — bu faqatgina sehrgar bola emas. U — muallifning ichki olamidan o‘sib chiqqan, og‘riq va umidlar, yo‘qotish va topishlar orqali shakllangan ruhiy timsol .Ana shu sababli Garri Potter — bu oddiy fantastik asar emas, balki chuqur hayotiy ildizlarga ega, yurakdan chiqqan va millionlab yuraklarga yetib borgan betakror asar hisoblanadi.

Garri Potter — bu mehrdan mosuvo holda ulg‘aygan, peshonasida chaqmoq izidan boshqa o‘tmishini eslatib turuvchi hech vaqosi bo‘lmagan bola edi. U hayotining dastlabki yillarini o‘zining xolasi Petunia va uning eri Vernon Darsleylarning sovuq, va fayzsiz uyida o‘tkazdi. Bu uyda unga bola emas, balki xizmatkordek munosabatda bo‘lishdi. Garri har doim e’tiborsizlik, qattiqqo‘llik ostida

yashar,o'zini xuddi bu dunyoda mavjud bo'lmagandek his qilardi. Ayni paytda esa, ularning o'g'li — noshukr va erkalikda o'sgan Dadley — barcha mehr va e'tiborni o'ziga qaratgan edi. Garri o'z ota-onasining kimligi, qanday qilib hayotdan ko'z yumganlari, hattoki o'zi nima sababdan bu xonadonda yashashga majbur bo'lganini ham bilmas edi. Uning yagona sirli belgisi — peshonasidagi chaqmoqsimon iz edi. Bu iz, go'yoki, uning o'tmishdagi sirli taqdiridan darak berar, ammo u o'sha haqiqatga yetib borish uchun hali uzoq yo'l bosishi kerak edi.
Garri Potter hayotining ilk o'n bir yilini o'zining sehrgar ekanini bilmagan holda, oddiy insonlar dunyosida, mehrsiz muhitda o'tkazdi. Ammo u o'n bir yoshga to'lganida, uning taqdiri butunlay o'zgaradi. Aynan o'sha paytda u o'zining sehrli kuchlarga ega ekanini, va undan ham muhimi, sehrgarlar olamida allaqachon mashhur nomga aylanganini bilib oladi. U — dahshatli qora sehrgar Lord Voldemort hujumidan tirik qolgan yagona bola edi. Aynan Voldemort Garri Potterning ota-onasini o'ldirgan va Garrini ham yo'q qilishga uringan, ammo bu urinish muvaffaqiyatsiz yakunlangan edi. Bu voqea Garri hayotiga sirli peshona izi va unutilmas taqdirni olib kelgan edi.

Garri sehrgarlar uchun mo'ljallangan Xogvarts maktabiga chaqiruv xatini olgach, uning hayotidagi haqiqiy sarguzashtlar boshlanadi. Rowlingning bu 7 kitobdan iborat asaridagi har bir kitob har bir o'quv yiliga atalgan bo'lib, ularning har biri yangi sirlar, xavf-xatarlar va ichki o'sish bilan boyitilgan. Xogvarts sari ilk safarida Garri hayotining ajralmas do'stlari — sodiq va halol Ron Uizli hamda aqlli va jasur Germiona Grenjer bilan tanishadi. Ularning do'stligi faqat maktab yillarida emas, balki butun asar davomida Garri uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Garri Potter kitoblari asosan Garri, Ron va Germionaning sehrli sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Ammo ushbu asarlarning jozibasi faqat bosh qahramonlar bilan cheklanmaydi. Muallif J.K. Rouling tomonidan mahorat bilan yaratilgan ko'plab ikkinchi darajali qahramonlar — Dambldor, Severus Sneyp, Sirius Blek, Minerva Makgonagal kabi obrazlar asarni yanada boyitadi, unga chuqur ma'no va hayotiylik baxsh etadi.

Yetti kitob davomida Garri o'zining sirli o'tmishi, ota-onasining fojiali taqdiri hamda Lord Voldemort bilan bo'lgan o'zaro bog'liqligini asta-sekin anglab boradi. Har bir qadamida u yanada kuchli, dono va jasur inson sifatida shakllanadi. Har safar yovuzlik kuch olib, Voldemort yana va yana qaytganida, Garri unga qarshi turadi. U buni yolg'iz emas — do'stlari, mehribon ustozlari, sevimli insonlari va eng muhimi, bilim va jasorati bilan amalga oshiradi. Oxir-oqibat, Garri Potter nafaqat o'zini, balki butun sehrli olamni zulmatdan qutqaradi. U ota-onasining, begunoh insonlarning o'limiga sabab bo'lgan, yillar davomida qo'rquv urug'ini sepib kelgan Voldemort ustidan g'alaba qozonadi. Bu g'alaba nafaqat sehrning, balki do'stlik, muhabbat, sadoqat va insoniy fazilatlarning ham g'alabasidir.
Jahon adabiyotining eng mashhur fantastik qahramonlaridan biri – Garri Potter muallifi J.K. Rowlingning hayoti ham o'ziga xos va ilhomlantiruvchi voqealarga boy. Ajablanarlisi shundaki, Rowlingning ota-onasi – Anne va Pete Rowling ham

asardagi mashhur uchlik – Garri, Ron va Germionaning ilk tanishuvini eslatadi. Ular ham birinchi bor poyezdda – Londonning King's Cross stansiyasidan Shotlandiyadagi Arbroath shahriga yo'l olgan chog'larida uchrashgan va tez orada turmush qurishgan.

1965-yil 31-iyul kuni, Anne 20 yoshida birinchi farzandi – Joanna Rowlingni dunyoga keltirdi. Oradan ikki yil o'tib, Diana ismli ikkinchi qizi tug'ildi. Diana chiroyli, serjilo va odamovi bo'lgan bo'lsa, Joannaning paxmoq qizil sochlari, sepkillari va tinimsiz kitob mutolaasi unga boshqacha joziba bag'ishlardi. Rowling oilasi Joanna to'rt yoshga to'lganida Bristoldagi Winterbourne shahriga ko'chib o'tadi. Aynan shu yerda u qo'shnisi Ruby Potter bilan do'stlashadi. Potterlar oilasining farzandlari – Ian va Vikki sehrgarlar va jodugarlar kabi kiyinib o'ynashni juda yaxshi ko'rishardi. Bu bolalarcha o'yinlar va Potter familiyasining quloqqa yoqimli jaranglashi Joanna qalbida iz qoldirdi. Yillar o'tib, aynan shu ism u yaratgan sehrli olamning yuragiga aylandi: Garri Potter.
Ayniqsa, fantaziyaga boy tasavvuri va hikoya tuzishdagi layoqati o'qituvchilarning e'tiborini tortgan. 1974-yilda Rouling oilasi Angliyaning G'arbiy mamlakatlaridan biri bo'lgan Glosterşir yaqinidagi Dean o'rmoniga ko'chib o'tadi. Bu manzara, tabiat va muhit uning yozuvchilik ilhomiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, keyinchalik "Garri Potter" turkumining ayrim sahifalarida ushbu o'rmon yodga olinadi. Dean o'rmoni yaqinidagi Tutshil boshlang'ich maktabida o'qiyotgan paytida, matematika fanidan dars bergan Miss Morgan ismli o'qituvchi Roulingning xotirasida alohida o'rin egallaydi. Bu o'qituvchi sinfdagi eng zukko o'quvchilarni sinfning chap tarafiga joylashtirar, qolganlarini esa o'ng tomonga o'tqazar edi. Rouling esa o'ng tarafning eng oxirgi qatorda o'tirganini eslab, bu holat uni o'sha paytlarda chuqur ranjitganini aytadi. Chunki u o'zini doimo aqlli, iqtidorli deb hisoblagan.

Miss Morgan obrazi va uning munosabati Roulingga keyinchalik "Garri Potter"dagi ayrim yoqtirilmaydigan obrazlarni yaratishda ilhom bergan. Jumladan, Severus Sneyp – Sehrli damlama darsining sovuqmuomala professori – aynan mana shu o'qituvchining obrazidan ilhomlanib yaratilgan. Sneyp dars davomida Garri Potterni pastga uradi, uni ko'p hollarda boshqa o'quvchilarning oldida tahqirlab, qo'rquv orqali tartib saqlaydi. Rouling esa bolalikdagi ana shu xotiralarni ijodiy kuch sifatida ishlatib, o'quvchini larzaga soluvchi, biroq yodda qoluvchi obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan.
Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, "Garri Potter" asaridagi Germiona Greynjer obrazi ham muallifaning bolalikdagi o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Rouling maktab davrida doimo a'lochi, bilimga chanqoq, intiluvchan o'quvchi bo'lishga harakat qilgan. Biroq bu fazilatlar unga nafaqat yutuqlar, balki ba'zan sinfdoshlarining tushunmovchiligi va yolg'izlikni ham olib kelgan. Germiona obrazida esa aynan shu ruhiy holat chuqur yoritilgan: u boshqalardan ajralib turadigan darajada bilimli, lekin asar davomida chin do'stlik, sadoqat va jamoaning ahamiyatini anglaydi.

Germionani faqat o'zi hamma narsani bilishini isbotlaydigan qizdan — o'z yaqinlari uchun xavf oldida qo'rqmasdan turadigan jasur qahramonga aylanishi, aslida Roulingning hayotiy yo'lini eslatadi. U ham o'z hayotida vaqt o'tishi bilan insonlar bilan bo'lgan munosabatlarni qadrlashni, faqat bilim emas, balki insonlar bilan iliq aloqada bo'lish orqali chinakam yutuqlarga erishish mumkinligini anglab yetgan.

1976-yilning kuzida Rouling Uaydendagi o'rta maktabga o'tadi. Avvaliga qo'rquv bilan qarshi olsa-da, u yerda o'ziga o'xshagan aqliy salohiyatli va mashhur qizlar bilan do'stlashadi. Ammo maktab hayoti faqat ijobiy tajribalar bilan cheklanmaydi — u bu davrda ko'plab bezorilar bilan to'qnashadi. Aynan shu bolalarning qiliqlari keyinchalik "Garri Potter"dagi Draco Malfoy va uning sodiq do'stlari — Krabb hamda Goyl obrazlarida aks etadi. Malfoy va uning do'stlari Xogvartsda o'z tengdoshlarini doimiy tahdid va qo'rquv ostida ushlab turadi. Rouling ularni "haqiqiy maktab bezorilari" deb ataydi.

Rowling Uayeden maktabining yuqori sinfida o'qiyotganida, u Shaun Harris ismli yangi o'quvchi bilan tanishib qoladi. Aynan shu bola keyinchalik Garrining eng yaqin do'sti — Ron Uizli obrazini yaratishga ilhom beradi. Shaun Harrisning juda eski, ammo o'ziga xos jozibaga ega bo'lgan Ford Anglia mashinasi bor edi. Bu mashina Rowling uchun erkinlik timsoli edi. Chunki har safar Shaun maktabdagi muammolardan yoki uydan qochishni istaganida, shunchaki mashinasiga minib ketardi. Bu mashina Rowling hayotida muhim o'rin egallagan, bu haqda u kitobining ikkinchi qismida ham bayon etgan. Aynan shu qismda Ron Uizlining otasiga tegishli bo'lgan Ford Anglia tasvirlanadi. Ron va uning akalari bu mashinani yashirincha olib, Garrini Darsliy oilasining qo'lidan qutqarish uchun yo'lga otlanishadi va kitob davomida bu mashina ularga turli qiyin vaziyatga tushishganda yordamga keladi, Shu voqea orqali bolalikdagi xotiralar adabiy shaklga kirib, sehrli dunyoda yangi ma'no kasb etadi.

Uaydendagi maktab yillari Rowling hayotida ilk orzular sinovga tushgan davr bo'ldi. U ko'p yillik umidi — Oksford universitetiga kirish imtihonidan o'ta olmadi. Bu uning yuragiga og'ir botdi, ammo u ortga qaytmadi. 1983 yilning yozida Exeter universitetining eshiklari unga ochildi. Aynan shu joyda, u tasavvur kuchi bilan Garri Potter olamining poydevorini qurishni boshlaydi.
Ammo hayot unga yozuvchilik yo'lida ilhom bilan birga og'riqni ham ulashgan edi. 15 yoshida uning onasi Anne Rowlingga skleroz tashxisi qo'yildi. Bu faqat onasining emas, balki butun oila hayotining izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Yillar o'tib, 1990 yilda, Yangi yil arafasida, Joanna onasining vafoti haqida xabar oldi. Anne Rowling — faqat ona emas, balki Joananing ichki kuchi, suyanadigan tayanchi edi. Eng achinarlisi shuki, u qizi yozayotgan sehrli dunyo — Garri Potter haqida hech qachon bilmagan.
Joanna hayotining shu og'ir voqeasini hech qachon ochiqchasiga hikoya qilmagan. Ammo uning asarlarida bu yo'qotishning og'riqli izi yaqqol seziladi. Garri

onasining muhabbati bilan yovuzlikka qarshi turgani — bu oddiy syujet emas, balki Rowlingning yuragidagi dardning timsolidir. Onaning o‘z farzandi uchun jonini fido qilishi — Garri Potter olamidagi eng muhim sehr, eng yengilmas kuchdir.

“Erised oynasi” esa Joanna qalbining eng nozik parda-larini ochib beradi. Oyna inson qalbidagi eng kuchli istakni ko‘rsatadi. Garrining istagi esa ota-onasini yana bir bor ko‘rish, ularning mehrli nigohini his etish. Garri oynaga tikilganida u nafaqat onasini ko‘radi — balki u bilan ko‘z orqali tilsiz, ammo kuchli rishta hosil qiladi. Bu sahnada yozuvchi sevgi, yo‘qotish va umidni bir joyga jamlaydi.
Joanna hech qachon onasi haqida bevosita yozmagan, lekin uning o‘limi — har bir sahifada yurakni titratadigan mehrga, ona va bola o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmas, ammo hech qachon uzilmaydigan bog‘lanishga aylangan.

Garri Potter obrazi Joanna Rowling hayoliga kutilmaganda — oddiy bir poyezd safarida, Manchesterdan Londonga qarab ketayotgan chog‘ida kelgan. To‘rt soatlik bu sokin yo‘l, go‘yoki yozuvchining ongini ilhom bag‘riga olib kirgan edi. Eng qizig‘i — u paytda Joanna bilan birga na daftar, na ruchka bor edi. Ammo bu unga xalal bermadi. U o‘z tasavvurining sehrli ko‘chalarida yurib, Garri obrazining har bir jihatini yuragida chizib bordi.

Ozg‘in gavdali, qora sochli, yuzi ortiga biroz tushgan ko‘zoynakli, sehrli dunyo haqida hali o‘zi bilmagan bola — Garri. U juda oddiy ko‘rinsa-da, ichki kuchi va taqdiri bilan butun bir sehrli olamni o‘zgartiruvchi qahramonga aylanishi kerak edi.

Londonga qaytgan kuniyoq Rowling ilk satrlarni yozishga kirishdi. Bu — oddiy bir yozuv emas, balki yillar davomida uning qalbida pishgan, o‘z hayoti, hislari, sog‘inchlari va orzulari bilan sug‘orilgan bir asarning boshlanishi edi. Shu kundan boshlab, Garri Potter endi faqat tasavvurdagi bola emas — balki butun dunyo qalbini zabt etadigan afsonaning bosh qahramoni edi.

Onasi Anne Rowlingning vafotidan to‘qqiz oy o‘tib, Joanna kutilmaganda hayotida yangi sahifa ochdi — u Portugaliyaga ko‘chib o‘tdi. Bu yerda u ingliz tilidan dars bera boshladi va, eng muhimi, o‘z bilan birga Garri Potter qo‘lyozmasini ham olib ketdi. Har bir satr, har bir obraz — uning yuragida pishib borayotgan umid va og‘riqning uyg‘unligi edi.

Portugaliyada u Xorxes Arantes ismli jurnalist bilan tanishdi. Bu tanishuv tez orada oila bo‘lish bilan yakunlandi. 1993 yilda Joanna qiz farzand — Jessikani dunyoga keltirdi. Ammo baxt uzoq davom etmadi. Hayot yana burilish oldi — Joana turmushidan ajralib, qizini olib, singlisi yoniga — sovuq, ammo tanish Shotlandiyaga qaytishga majbur bo‘ldi.

Davlat yordami evaziga yashagan bu yillar Rowling hayotining eng qorong‘u davrlaridan biri bo‘ldi. Qizi uchun ko‘proq narsa istar, lekin o‘zi ruhiy tushkunlik bilan kurashar edi. Shunday holatda ham u yozishni to‘xtatmadi. Aksincha, yozish — uning yagona najoti, yolg‘izlikdan qochish, dardini ifoda etish vositasiga aylandi.

Aynan shu ichki iztiroblar, his-tuyg‘ularining tubidan dementorlar — insonning eng quvonchli lahzalarini so‘rib oladigan, yurakka qorong‘ilik soluvchi mavjudotlar dunyoga keldi. Rowling o‘zining og‘riqlarini qog‘ozga ko‘chirar ekan, millionlab o‘quvchilarga ham dardni yengish, umidsizlikdan yorug‘likka intilish yo‘lini ko‘rsatdi.

Yana bir muhim jihat shuki, Rowling hech qachon yozish uchun alohida joy yoki sharoit izlamagan. U ilhom kelgan onlarda, qaerda bo‘lishidan qat’i nazar, yozishni boshlagan. Hatto bir safar samolyotda uchib ketayotganida, Xogvartsdagi fakultetlar nomini samolyot o‘rindig‘ining orqasiga yozib qo‘ygan. Har bir qahramonining xarakteri, tafsilotlari va biografiyasiga juda katta e’tibor bergan. Chunki u har bir obrazning o‘tmishini puxta tasvirlagan — shunda o‘quvchi ularni to‘liq tushunishi va qalban his qilishi mumkin bo‘lgan.

Yozish jarayoni esa unchalik oson kechmagan. Avval u qo‘lda yozgan, so‘ng esa uni printerda chiqarib olgan. 1995-yilda Rowling o‘z asarini uch xil agentga yuboradi. Ko‘pchilik uni rad etsa-da, Kristofer Littl uning yozganlariga qiziqib qoladi. Little bu asarga nashriyot topish uchun butun bir yil vaqt sarflaydi va nihoyat, 1996-yil avgust oyida Bloomsbury nashriyoti “Garri Potter” asarini bosib chiqarishga rozi bo‘ladi.

1998-yilga kelib, bu kitob allaqachon 30 ta davlatda chop etilgan va ommalashishni boshlagan edi. 2008-yilgi hisobotga ko‘ra, “Garri Potter” kitoblari 65 xil tilda, 400 million nusxada bosilib chiqqan. Statistika shuni ko‘rsatadiki, har 30 soniyada dunyoning biror burchagida kimdir bu kitobni mutolaa qilishni boshlaydi.

Kitoblar bilan birga “Garri Potter” atamasi ham mashhurlikka erishdi. Bu sehrli dunyo muallifi — J.K. Rowling esa, Britaniyaning ikkinchi eng boy ayol yozuvchisi maqomiga ega bo‘ldi. Bu nafaqat ijodiy mehnat, balki qat’iyat, sabr va orzularning chinakam kuchini isbotlaydigan hayotiy voqea bo‘ldi. Endi esa, bu hikoya adabiyot olamida abadiy yashaydi.

Xulosa.

Joana Roulingning hayoti – bolalik tasavvuri bilan boshlangan, iztiroblar va ilhomlar bilan to‘yingan ijod yo‘lidir. U sinfda aqlli bo‘lishga intilgan qizaloqdan — o‘z obrazlariga hayot bag‘ishlagan yozuvchiga aylandi. Maktabdagi do‘stlari va ustozlari, oilaviy muammolar, onasining og‘ir kasalligi va vafoti, hatto yonida

ruchkasi bo‘lmagan poyezd safarigacha – bularning bari Garri Potter olamiga aylangan.

Shaun Harris, Ford Anglia, Tutshil maktabi, Erised oynasi, dementorlar — har biri hayotdan olingan va asarga o‘z hayotiy ohangini bergan. Onasining yo‘qotilishi, Portugalga ketish, qizi bilan yolg‘izlik – bu kechinmalar unga yozishni to‘xtatmaslikni, aksincha, undan taskin topishni o‘rgatdi.

Roulingning asarlari shunchaki sehrli ertak emas – bu hayotdan, darddan, kuchdan va muhabbatdan to‘qilgan haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1”Harry Potter and the Philosopher stone” J.K.Rowling
2, Harry Potter and the Chamber of secrets” J.K.Rowling
3. https://ejournals.bc.edu/index.php/freshink/article/view/1230/1588
4. https://www.britishlibrary.cn/en/articles/fantasy-and-fairytale-in-childrens-literature/
5. https://www.therowlinglibrary.com
6. http://www.accio-quote.org/articles/2000/0600-times-treneman.html

GOTIK ASARLARDA BADIIY DETALLAR IFODASI

Abdusattarova Shoxina Baxtiyor qizi
NamDCHTI tayanch doktoranti
shahinaabdusattarova0224@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada gotik adabiy yo‘nalishidagi asarlarda badiiy detallarning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Gotik adabiyotning shakllanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va badiiy detallarning mazkur yo‘nalishdagi asarlar g‘oyaviy-badiiy qimmatini oshirishdagi roli yoritilgan. Maqolada makon bilan bog‘liq detallar, ob-havo va tabiat tasviridagi detallar, portret detallari kabi turli xil badiiy detallar turlari va ularning ramziy ma’nolari, shuningdek, gotik adabiyotning yetakchi namoyondalari ijodida badiiy detallarning qo‘llanilishi misollar asosida ko‘rsatilgan. Maqola gotik adabiyotda badiiy detallar tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, oliy ta’lim muassasalarining filologiya yo‘nalishi talabalari hamda adabiyot o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: gotik adabiyot, badiiy detal, ramziylik, portret detallari, makon detallari, Edgar Allan Po, Mary Shelley, Bram Stoker, psixologik tasvir, g‘ayritabiiylik.

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение художественных деталей в произведениях готического литературного направления.

Освещается формирование готической литературы, её специфические особенности и роль художественных деталей в повышении идейно-художественной ценности произведений данного направления. В статье на примерах показаны различные типы художественных деталей, такие как детали, связанные с пространством, детали в описании погоды и природы, портретные детали, их символические значения, а также использование художественных деталей в творчестве ведущих представителей готической литературы. Статья предназначена для специалистов, занимающихся исследованием художественных деталей в готической литературе, студентов филологических направлений высших учебных заведений и преподавателей литературы.
Ключевые слова: готическая литература, художественная деталь, символизм, портретные детали, пространственные детали, Эдгар Аллан По, Мэри Шелли, Брэм Стокер, психологическое описание, сверхъестественное.

Annotation

This article analyzes the role and significance of artistic details in works of the Gothic literary direction. The formation of Gothic literature, its specific features, and the role of artistic details in enhancing the ideological and artistic value of works in this direction are highlighted. The article demonstrates various types of artistic details, such as space-related details, weather and nature description details, portrait details, their symbolic meanings, and the use of artistic details in the works of leading representatives of Gothic literature through examples. The article is intended for specialists engaged in studying artistic details in Gothic literature, students of philological directions of higher educational institutions, and literature teachers.
Keywords: Gothic literature, artistic detail, symbolism, portrait details, spatial details, Edgar Allan Poe, Mary Shelley, Bram Stoker, psychological description, supernatural.

Adabiyotshunoslikda badiiy detallar tadqiqi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir adabiy yo‘nalish o‘ziga xos badiiy detal qo‘llash uslubiga ega bo‘ladi. Gotik adabiyot o‘zining sirli, vahimali, g‘ayritabiiy unsurlarni aks ettiruvchi mazmuni bilan alohida ajralib turadi va unda badiiy detallar asarning umumiy ruhiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Evropada shakllangan gotik adabiyot hozirga qadar jahon adabiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.[45]

Gotik adabiyot XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Evropada romantizm oqimi doirasida shakllangan yo‘nalish bo‘lib, uning ilk namunasi sifatida ingliz yozuvchisi Horace Walpole tomonidan 1764 yilda yozilgan “Otranto qasri” romani e’tirof etiladi.[46] Gotik adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Sirli, vahimali, g‘ayritabiiy voqealar tasviri

[45] Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 125.
[46] Qosimov U. Jahon adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 145.

- Qadimiy qasrlar, xarobalar, qabristonlar kabi makonda voqealar rivojlanishi
- Personajlarning ruhiy holatini chuqur psixologik tahlil qilish
- Qo‘rquv, dahshat, vahima hissini uyg‘otish
- Romantik va realistik unsurlarning uyg‘unligi

Gotik adabiyotda badiiy detallar alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy detal - bu badiiy asarda tasvirlangan narsa, hodisa, belgi, xususiyat bo‘lib, u asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.[47] Gotik asarlarda badiiy detallar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Atmosfera yaratish - g‘ayritabiiy, sirli, vahimali muhitni tasvirlash
- Obrazlarni chuqurlashtirish va karakterlarni ochib berish
- Ramziy ma’nolarni ifodalash
- Voqealar rivojini ko‘rsatish va syujet dinamikasini ta’minlash

Masalan, Mary Shelley’ning “Frankenshteyn” romanida laboratoriya tasviri, elektr chirog‘i, tirik mavjudot yaratish jarayonidagi detallar asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini teranlashtiradi, kitobxonda ilm-fanning cheklanmagan imkoniyatlari va ular keltirishi mumkin bo‘lgan fojiali oqibatlar haqida o‘ylashga undaydi.[48]

Gotik asarlardagi badiiy detallar turlari

1. Makon bilan bog‘liq detallar

Gotik asarlarda makon tasviridagi detallar markaziy o‘rin tutadi. Qadimiy qasrlar, qorong‘u yo‘laklar, yashirin xonalar, chirigan zinapoyalar, g‘ayrioddiy tovushlar kabi detallar orqali muallif kitobxon tasavvurida muayyan ruhiy holat uyg‘otadi. Ann Radcliffe’ning “Udolfo siri” romanida qasr ichidagi zal, devor pardasi ortidagi sir, qadimiy mebel tasviridagi detallar asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini boyitadi.[49]

Bram Stokerning “Drakula” romanida Karpat tog‘laridagi qadimiy qal’a tasviri, uning me’moriy xususiyatlari, ichki tuzilishi haqidagi detallar asardagi sirli, vahimali kayfiyatni yaratishga xizmat qiladi. Stoker yozadi: “Qal’aning toshdan qurilgan devorlari orasidan shamol g‘alati ovoz chiqarib o‘tar, sarg‘aygan qadimiy gilamlar ustida allaqanday soyalar o‘rmalab yurar edi”.[50]

2. Ob-havo va tabiat bilan bog‘liq detallar

Gotik asarlarda ob-havo va tabiat hodisalari tasviri ham muhim ahamiyatga ega. Momaqaldiroq, chaqmoq, qorong‘u tun, oy nurining g‘alati tovlanishi, tuman - bularning barchasi voqealarning dramatik rivojini ko‘rsatuvchi, personajlarning ichki dunyosi va ruhiy holati bilan uyg‘unlashuvchi detallar sifatida ishlatiladi.

Emily Brontëning “Baland dovon” romanida Yorkshir cho‘llaridagi shamol, qor bo‘roni, sovuq ob-havo tasviri personajlar ruhiyatining ochib berilishiga

[47] Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – B. 203.
[48] Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2017. – B. 56.
[49] Radcliffe A. Udolfo siri // Tarj. J. Kamolova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 112.
[50] Stoker B. Drakula / Tarj. M. Hakimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – B. 45.

xizmat qiladi. Brontë yozadi: “Shimoldan esayotgan kuchli shamol bog‘dagi daraxtlarni egib, uyning devorlariga urilar, deraza oynalarini silkitar edi”.[51]

3. Portret detallari

Gotik qahramonlarning tashqi ko‘rinishi tasvirida ranglar, mimika, harakatlar, kiyim-kechak kabi detallar muhim rol o‘ynaydi. Ularning ko‘zlari, terisi, yuz ifodasi tasviridagi g‘ayritabiiy jihatlar orqali muallif qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi.

Edgar Allan Poning “Telba yurak” hikoyasida qariyaning ko‘zi tasviri asarning markaziy detali hisoblanadi: “Uning ko‘zi – quzg‘un ko‘zi kabi... ko‘k pardali ko‘z edi”.[52] Bu detal asardagi qotillikni asoslovchi muhim element bo‘lib xizmat qiladi.

Gotik adabiyotda badiiy detallarning ramziy ma’nolari

Gotik asarlarda detallar ko‘pincha ramziy ma’nolarga ega bo‘ladi. Ramziylik gotik adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Quyida gotik asarlarda eng ko‘p uchraydigan ramziy detallar tahlil etilgan:

1. Ko‘zgu

Ko‘zgu gotik adabiyotda ikkilanish, shaxsning parchalanishi, o‘z-o‘zini anglash ramzi sifatida ishlatiladi. Oscar Wilde’ning “Dorian Greyning portreti” romanida ko‘zgu orqali qahramonning ichki dunyosi va tashqi qiyofasi o‘rtasidagi ziddiyat ochib beriladi.[53]

2. Portret

Portret gotik adabiyotda o‘tmish, ajdodlar va taqdirning hozirgi hayotga ta’siri ramzi hisoblanadi. Edgar Allan Poning “Oval portret” hikoyasida portret san’at va hayot o‘rtasidagi ziddiyatni, go‘zallik va o‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi ramziy detal sifatida qo‘llaniladi.[54]

3. Eshik/Yo‘lak

Eshik yoki yo‘lak noma’lum dunyo va xavf-xatar, o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasidagi chegara ramzi hisoblanadi. Bram Stokerning “Drakula” romanida qal’aning sirli eshiklari, berk xonalari personajlarning xavfli, notanish dunyoga kirib borishini ramziy ifodalaydi.[55]

4. Qon

Qon gotik adabiyotda hayot, o‘lim va tabu mavzulari bilan bog‘liq ramz sifatida ishlatiladi. Mary Shelley’ning “Frankenshteyn” romanida qon hayot ramzi sifatida, Bram Stokerning “Drakula” romanida esa qon abadiy hayot, kuch-quvvat va hokimiyat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.[56]

[51] Brontë E. Baland dovon / Tarj. S. Olimova. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B. 95.
[52] Po E.A. Tanlangan asarlar / Tarj. O. Murodov. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 112.
[53] Wilde O. Dorian Greyning portreti / Tarj. Z. Islomov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – B. 64.
[54] Po E.A. Oval portret // Sharq yulduzi. – 2019. – №3. – B. 45.
[55] Stoker B. Drakula / Tarj. M. Hakimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – B. 92.
[56] Umarov A. G‘arb adabiyotida gotik an’analar. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 132.

Mashhur gotik adiblar ijodida badiiy detallar tahlili

1. Edgar Allan Po ijodida badiiy detallar

Edgar Allan Po gotik adabiyotning eng yorqin namoyondalaridan biri hisoblanadi. U o‘z hikoyalarida badiiy detallarni kuchli psixologik ta’sir vositasi sifatida ishlatadi. “Qora mushuk” hikoyasida mushuk ko‘zi, “Usher uyining qulashi” hikoyasida yoriqlar va hovuz, “Telba yurak” hikoyasida yurak urishi - bularning barchasi qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiruvchi detallardir.[57] Po “Amontillado bochkasi” hikoyasida yerto‘la, zanjirlar, g‘isht devor kabi detallar orqali qasos va jinoyat mavzusini ochib beradi. Hikoyada yerosti yo‘laklari, namlik, qorong‘ulik tasviri o‘lim va jazoning muqarrarligi g‘oyasini ifodalaydi.[58]

2. Mary Shelley’ning “Frankenshteyn” romanida badiiy detallar

Mary Shelley’ning “Frankenshteyn” romani gotik adabiyotning eng muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Unda laboratoriya, elektr chirog‘i, tibbiy asbob-uskunalar tasviri ilm-fan rivojlanishi va uning oqibatlari mavzusini ochib berishga xizmat qiladi.[59] Romanda yaratilgan maxluqning ko‘zlari, terisi, harakatlari tasviri orqali muallif jamiyat va inson moddiy tanasi o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Meteorologik detallar - chaqmoq, momaqaldiroq esa hayot va o‘lim mavzusiga ishora qiladi.[60]

Gotik adabiyotdagi badiiy detallar tadqiqi nafaqat bu yo‘nalishdagi asarlarni chuqurroq tushunishga, balki umumiy adabiyotshunoslik nazariyasini boyitishga ham xizmat qiladi. Gotik adabiyotda qo‘llaniladigan badiiy detallar zamonaviy adabiyotga, xususan, detektiv, fantastika, qo‘rqinch janridagi asarlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shu nuqtai nazardan, gotik adabiyotdagi badiiy detallar tadqiqi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bu sohada yangi izlanishlar olib borish muhimdir.

Gotik asarlarda makon bilan bog‘liq detallar, ob-havo va tabiat tasviridagi detallar, portret detallari kabi turli xil badiiy detallar qo‘llaniladi. Bu detallar ko‘pincha ramziy ma’nolarga ega bo‘lib, asarning chuqur g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Edgar Allan Po, Mary Shelley, Bram Stoker kabi gotik adabiyotning yetakchi namoyondalari ijodida badiiy detallar alohida ahamiyatga ega. Ular o‘z asarlarida badiiy detallarni mahorat bilan qo‘llab, kitobxonning hissiy kechinmalariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, sirli, vahimali muhitni yaratadi, personajlarning ichki dunyosini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adabiyotshunoslik lug‘ati / Tuzuvchilar: D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 408 b.

[57] Po E.A. Tanlangan asarlar / Tarj. O. Murodov. – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 154.
[58] Po E.A. Amontillado bochkasi // Jahon adabiyoti jurnali. – 2019. – №7. – B. 56.
[59] Shelley M. Frankenshteyn yoxud zamonaviy Prometey / Tarj. F. Nazirov. – Toshkent: Yangi kitob, 2019. – B. 104.
[60] Adabiyotshunoslik lug‘ati / Tuzuvchilar: D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 112.

2. Brontë E. Baland dovon / Tarj. S. Olimova. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 325 b.
3. Po E.A. Amontillado bochkasi // Jahon adabiyoti jurnali. – 2019. – №7. – B. 52-63.
4. Po E.A. Oval portret // Sharq yulduzi. – 2019. – №3. – B. 42-48.
5. Po E.A. Tanlangan asarlar / Tarj. O. Murodov. – Toshkent: Sharq, 2020. – 286 b.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 352 b.
7. Radcliffe A. Udolfo siri // Tarj. J. Kamolova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 324 b.
8. Shelley M. Frankenshteyn yoxud zamonaviy Prometey / Tarj. F. Nazirov. – Toshkent: Yangi kitob, 2019. – 248 b.
9. Stoker B. Drakula / Tarj. M. Hakimov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 342 b.
10. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 365 b.
11. Umarov A. G‘arb adabiyotida gotik an’analar. – Toshkent: Fan, 2019. – 215 b.
12. Wilde O. Dorian Greyning portreti / Tarj. Z. Islomov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 218 b.
13. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2017. – 264 b.

JANUB RENESSANSI DAVRIDA YOZILGAN TARIXIY ASARLAR RIVOJI, HUSUSAN UILYAM FOLKNER,MARGARET MITCHEL VA ROBERT PENN WARREN ASARLARI MISOLIDA

Namangan davlat chet tillari instituti magistranti
Ismailova Zuhra Tohirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika adabiyotining Janubiy Renessans deb atalgan davrida tarixiy mavzularda ijod qilgan mashhur yozuvchilar — Uilyam Folkner, Margaret Mitchell va Robert Penn Warren'ning asarlari tahlil qilinadi. Ularning badiiy yondashuvi orqali tarixni qanday aks ettirgani, Janubiy shtatlar mentalitetini ifodalashdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Janubiy Renessans, tarixiy roman, Uilyam Folkner, Margaret Mitchell, Robert Penn Warren, Amerika adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the works of renowned writers of the Southern Renaissance in American literature — William Faulkner, Margaret Mitchell, and Robert Penn Warren — who wrote on historical themes. It explores how they reflected history through artistic expression and portrayed the mentality of the Southern states.

Key words: Southern Renaissance, historical novel, William Faulkner, Margaret Mitchell, Robert Penn Warren, American literature

Аннотация: в данной статье анализируются произведения известных писателей Южного Ренессанса в американской литературе — Уильяма Фолкнера, Маргарет Митчелл и Роберта Пенна Уоррена, писавших на исторические темы. Рассматривается их художественный подход к отражению истории и менталитета южных штатов.

Ключевые слова: Южный Ренессанс, исторический роман, Уильям Фолкнер, Маргарет Митчелл, Роберт Пенн Уоррен, американская литератураю.

Asosiy mavzular:

1. Janub Renessans va tarixiy adabiyotning ahamiyati
2. Uilyam Folkner, Margaret Mitchel va Robert Penn Warrenning tarihiy asarlari misolida.
3. Adiblarning asarlari orqali yoritilgan asosiy g'oyalar va maqsadlar.
4. Xulosa: tarixiy adabiyotning bugungi kunda ahamiyati

Kirish

Janub Renessansi davri adabiyoti dunyo adabiyotida juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. XX asrning birinchi yarmida Amerika janubida yuzaga kelgan adabiy harakat — Janubiy Renessans (Southern Renaissance) adabiy jarayonda chuqur iz qoldirdi. Ushbu davr adiblari tarixga, o‘z yurti — Amerika janubining o‘tmishiga murakkab, falsafiy, ba’zida tanqidiy yondashuv bilan murojaat qildilar. Ular tarixni ideallashtirish emas, balki uni anglash, tahlil qilish va o‘rganish orqali milliy ongni uyg‘otishga intildilar. Bu yo‘nalishda Uilyam Folkner, Margaret Mitchell va Robert Penn Warren muhim o‘rin tutadilar.Renessans davri inson tafakkurining uyg'onishi, san'at, fan va adabiyotning yuksalish davri sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan. Bu davr Shimoliy va Janubiy Yevropada turli yo'nalishlarda namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Janubiy Renessans — asosan Italiya hududida yuzaga kelgan madaniy harakat — insonparvarlik, qadimgi yunon-rum merosiga qaytish va estetik mukammallikka intilish orqali adabiyotda tub burilish yasadi. Ushbu maqolada Janub Renessansining asosiy xususiyatlari va tarixiy adabiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Janubiy Yevropada Renessans XIV asr oxiri — XVI asr o'rtalarida rivoj topdi. U Italiyada boshlandi va keyinchalik Frantsiya, Ispaniya kabi mamlakatlarga tarqaldi. Bu davrda inson shaxsiyati, erkin tafakkur va ilm-fan yutuqlari markaziy o'rinni egalladi. Adabiyotda qadimgi yunon va lotin tillariga qaytish, antik mualliflarning asarlarini tarjima qilish va o'rganish keng tarqaldi. Dante Aligyerining "Ilohiy Komediya"si, Petrarkaning sonetlari va Bokkachchoning "Dekameron"i bu davrning yorqin namunalari sifatida qaraladi.Tarixiy adabiyot Renessans davrida ayniqsa muhim o'rin egalladi. Bu davr adiblari tarixiy voqealarga yangicha yondashib, ularni badiiy tahlil qilishga harakat qildilar. Tarixiy shaxslar va voqealar orqali zamonaviy g‘oyalarni ifodalash keng tus oldi. Machiavellining "Hukmdor" asari siyosiy tarixga yangicha nazar bilan qaragan asar sifatida e’tiborga molik[61].Bundan tashqari, tarixiy adabiyot insoniyatning o'tmishdagi xatolarini anglash, ma'naviy merosni saqlash va milliy o'zlikni shakllantirishda katta rol o'ynadi. Bu asarlar nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham dolzarbligini saqlab qoldi.

Uilyam Folkner haqida so’z yuritadigan bo’lsak,bu yozuvchi Janubiy Renessans adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biridir. Uning asarlarida tarixiy

[61] Makiavelli Nikkolo. Hukmdor / rus tilidan tarj. S. Jo‘raev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – B. 25.

voqealar, irqiy ziddiyatlar, fuqarolik urushi oqibatlari va Janub jamiyatining tanazzuli chuqur aks ettirilgan. Folkner o‘z asarlarida tarixiy xotirani individuallik va kollektiv ong nuqtai nazaridan yoritishga intilgan. Uning “The Sound and the Fury” (1929) romanida Compson oilasi timsolida Janubning inqirozga yuz tutgan ijtimoiy tuzilmasi ko‘rsatiladi. “Absalom, Absalom!” (1936) esa fuqarolik urushidan oldingi davrni murakkab kompozitsion va psixologik tarzda tahlil qiladi. Ushbu romanda Tomas Sutpen obrazi orqali insoniy qudrat va halokatning tarixiy asoslari ko‘rsatib beriladi. Folkner o‘zining xayoliy Yoknapatawpha okrugi orqali Janub tarixini badiiy timsolga aylantirgan.

Margaret Mitchell esa tarixiy roman janrida yozilgan “Gone with the Wind” (1936) asari bilan dunyo miqyosida mashhur bo‘lgan yozuvchidir. Ushbu roman Amerika fuqarolik urushi (1861–1865) va undan keyingi Rekonstruksiya davrini o‘z ichiga oladi. Asarda Scarlett O’Hara obrazida ayol kuch-qudrati, tarixiy voqealar ta’sirida shakllangan shaxsiy o‘sish va jamiyatdagi o‘zgarishlar ko‘rsatiladi. Mitchell urushning ijtimoiy va psixologik oqibatlarini romantik, biroq chuqur falsafiy yondashuvda tahlil qiladi. Asarda urush natijasida vayron bo‘lgan jamiyatning yangilanishga intilishi, qadriyatlarning qayta ko‘rib chiqilishi markaziy o‘rinni egallaydi. Bu roman Janub tarixi va ayollar roli haqida keng mushohada yuritishga imkon beradi.

Robert Penn Warren esa adib, adabiyotshunos va AQShning birinchi Poetik Lauriyati. Uning “All the King’s Men” (1946) romani siyosiy tarixiy roman bo‘lib, unda 1930-yillardagi siyosiy korrupsiya, hokimiyat va axloqiy tanlov muammolari yoritiladi. Roman real tarixiy shaxs — Luiziana gubernatori Huey Long hayoti asosida yaratilgan bo‘lsa-da, asar badiiy-falsafiy darajada chuqur tahlilga ega.[62] Warren o‘z asarida tarixni insoniylik, axloq va jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning boshqa tarixiy-falsafiy she’riy to‘plamlari ham Janub o‘tmishining ziddiyatli jihatlarini ochib beradi. Uning adabiy uslubi orqali tarix va insoniyat mohiyatining murakkabligi badiiy ifoda topgan.

Uilyam Folknerning asarlari haqida so’z yuritadigan bo’lsak,uning asarlari asosan inson ruhiyati, tarix va jamiyatning ichki ziddiyatlarini yoritishga qaratilgan. Uning maqsadi fuqarolik urushi va uning oqibatlarini, irqiy tengsizlik, ijtimoiy inqiroz va madaniy identitet muammolarini badiiy tahlil qilish edi. 'The Sound and the Fury', 'Absalom, Absalom!', 'As I Lay Dying' kabi asarlarida oila, insoniy munosabatlar va tarixning og‘ir yuklari psixologik va struktural jihatdan murakkab shaklda tasvirlangan. Folkner yozgan har bir asarda tarixiy kontekst orqali inson ruhining tahlili, jamiyatdagi axloqiy tanazzul va adolat masalalari ochib beriladi. U o‘z asarlari orqali insoniyat tarixini eslash, uni qayta anglash va hozirgi zamonga bog‘lash vazifasini bajargan.

Margaret Mitchellning asarlari esa chuqurroq ma’noga ega sarlardan biri hisoblanadi, uning asarlarida biz biz tarihni qayta ko’rishimiz mumkin. Masalan: “Gone with the Wind"”asaridagi asosiy maqsadi — Amerika fuqarolik urushi va undan keyingi davrni realistik va emotsional tarzda ifodalash, ayol obrazining

[62] Warren R. P. All the King’s Men. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1946. – B. 112.

kuchini ko‘rsatish, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va sinfiy kurashlarni yoritishdan iborat. Asarda Scarlett O’Hara obrazida insoniy qat’iyat, omon qolish instinkti va qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ochilgan. Mitchell tarixiy voqealarni romantik tusda tasvirlasa-da, ularning psixologik va ijtimoiy tomonlarini chuqur ochishga harakat qilgan. Asar tarixni idealizatsiyalamasdan, balki uni insoniy fojiaga yaqinlashtirgan.

Robert Penn Warren asarlari esa yana ham boshqacha ruh bag’ishlaydi. Asarlarining asosiy maqsadi — tarixiy voqealar va shaxslar orqali axloqiy tanlov, hokimiyatning buzilishi va insoniy javobgarlik kabi mavzularni ochib berishdan iborat. “All the King’s Men” asarida u siyosiy lider obrazini yaratgan bo‘lib, bu obraz orqali korrupsiya, manipulyatsiya va shaxsiy vijdon muammolarini ko‘rsatadi.[63] Warren o‘z asarlari orqali o‘quvchini nafaqat tarixni bilishga, balki uni tahlil qilish, undan saboq olishga chorlaydi. Uning poetik va nasriy asarlarida Janub o‘tmishining ziddiyatli, ba’zan fojeaviy, lekin doimo chuqur ma’noli aks ettirilishi kuzatiladi.Adiblarning asarlari orqali yoritilgan asosiy mavzu va g’oyalar haqida so’z yuritadigan bo’lsak,asarlarda chuqur ma’noga ega mavzu va g’oyalar tilga olingan. Tarixiy adabiyot Renessans davrida ayniqsa muhim o'rin egalladi. Bu davr adiblari tarixiy voqealarga yangicha yondashib, ularni badiiy tahlil qilishga harakat qildilar. Tarixiy shaxslar va voqealar orqali zamonaviy g‘oyalarni ifodalash keng tus oldi. Machiavellining "Hukmdor" asari siyosiy tarixga yangicha nazar bilan qaragan asar sifatida e’tiborga molik.Bundan tashqari, tarixiy adabiyot insoniyatning o'tmishdagi xatolarini anglash, ma'naviy merosni saqlash va milliy o'zlikni shakllantirishda katta rol o'ynadi. Bu asarlar nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham dolzarbligini saqlab qoldi.Uilyam Folkner, Margaret Mitchell va Robert Penn Warrenning tarixiy asarlari bugungi kun o‘quvchisi uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular yaratgan badiiy olam nafaqat o‘tgan davr voqealarini aks ettiradi, balki hozirgi jamiyat muammolari bilan bevosita aloqador bo‘lgan axloqiy, ijtimoiy va ruhiy savollarni ko‘ndalang qo‘yadi. Tarixiy adabiyot insoniyat xotirasini saqlab qolish, o‘tmishdan saboq chiqarish va kelajak uchun yo‘l ko‘rsatish vositasidir. Shuning uchun ham bu adiblarning asarlari zamonaviy adabiy va madaniy kontekstda qayta-qayta o‘rganilmoqda. Tarixni anglash, uni baholash va bugungi holat bilan bog‘lash orqali o‘quvchi o‘zini va jamiyatini chuqurroq tushunishga harakat qiladi. Shu ma’noda, tarixiy adabiyot bugungi kun uchun dolzarb, o‘quvchi qalbiga yaqin va hayotiy ahamiyatga ega janr bo‘lib qolmoqda.Janubiy Renessans davrining adabiyotida Uilyam Folkner, Margaret Mitchell va Robert Penn Warren o‘ziga xos uslub va yondashuvlari bilan ajralib turadi. [64]Ular tarixni nafaqat voqealar yig‘indisi sifatida, balki insoniyat taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy, ruhiy va axloqiy jarayonlar sifatida tasvirladilar. Folkner asarlarida inson ruhiyati va tarix o‘rtasidagi murakkab aloqalar ochib berilgan bo‘lsa, Mitchell ijtimoiy o‘zgarishlar fonida ayol shaxsiyatining kuchini

[63] Warren R. P. All the King’s Men. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1946. – B. 145.
[64] Faulkner W. The Sound and the Fury. – New York: Random House, 1929;
Mitchell M. Gone with the Wind. – New York: Macmillan, 1936;
Warren R. P. All the King’s Men. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1946.

ko‘rsatishga intilgan. Warren esa tarixiy voqealarni axloqiy tanlovlar bilan bog‘lab, siyosiy va jamiyat muammolarini fosh etgan. Ularning badiiy ijodi tarixni anglash, uni hozirgi zamon bilan bog‘lash va insoniyat ongida uyg‘onish uyg‘otishdek ulug‘ maqsadga xizmat qiladi. Shuning uchun ularning asarlari nafaqat adabiy, balki tarixiy-falsafiy ahamiyatga ham ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Renessans adabiyoti o‘zining tarixiy yondashuvi, falsafiy teranligi va murakkab badiiy uslublari bilan ajralib turadi. Uilyam Folkner, Margaret Mitchell va Robert Penn Warren nafaqat tarixiy voqealarni tasvirladilar, balki ularni tahlil qilish, zamonaviylik bilan bog‘lash va inson ruhiyatiga singdirish orqali adabiyotda yangi bosqichni boshlab berdilar. Ularning ijodi bugungi kunda ham o‘z ilmiy va badiiy ahamiyatini saqlab qolgan. Hattoki hozirgi kunda ham bu asarlar o’lmas asarlar hisoblanadi balkim tarih haqida habar beruvchi asosiy manbalardan biri ham hisoblanadi. Bu asarlar orqali o’quvchi o’tmish haqida va insonlar hayotidagi qiyinchiliklar va ular bilan kurashish yo’llarini ham o’zi uchun kashf qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. **Makiavelli, N.** (1532). *Il Principe* (Hukmdor). Florence: Giunti.
2. **Guicciardini, F.** (1561). *Storia d’Italia* (Italiya tarixi).
3. **Da Vinci, L.** (2005). *Notebooks*. Penguin Classics.
4. **Polo, M.** (1958). *The Travels of Marco Polo* (Marko Poloning Sayohatlari).
5. **Burke, P.** (1999). *The Italian Renaissance: Culture and Society in Italy*.
6. **Shakespeare, W.** (2008). *Julius Caesar*. Oxford University Press.
7. **Rafael**. (1511). *The School of Athens* (Afina maktabi). Vatican Museums.
8. **Harrison, C.** (2004). *The History of Renaissance Art*. Thames & Hudson.
9. **Hulme, P.** (2005). *Italian Renaissance Thought and the Classical Tradition*.
10. **Barker, E.** (2010). *The Renaissance in Italy: A Social and Cultural History*.

GABRIYEL GARCIA MARKES ASARLARIDA VAQT IFODASI HUSUSIDA

Nematillayev Akram
NamDU tadqiqotchisi

Abstract

This article examines the representation of time in Gabriyel García Márquyez’s One Hundred Years of Solitude and Love in the Time of Cholera. In these works, time functions not only as a narrative theme but also as a structural and philosophical element. While One Hundred Years of Solitude portrays time as cyclical and mythic, Love in the Time of Cholera reflects a more linear and personal temporality. The study highlights how magical realism disrupts conventional notions of chronological time by integrating memory, prophecy, and collective experiyencye into the temporal structure.

Keywords

Gabriyel García Márquyez, time, magical realism, temporality, narrative structure, Latin American fiction.

Аннотация

В данной стате рассматривается представление времени в романах Габриеля Гарсиа Маркеса «Сто лет одиночества» и «Любов во время чумы». В этих произведениях время выступает не толко как тематический элемент, но и как структурный и философский принсип. В «Ста годах одиночества» время изображается как цикличное и мифическое, в то время как в «Любви во время чумы» оно приобретает более линейный и личностный характер. Исследование подчеркивает, как магический реализм нарушает традисионные представления о хронологическом времени, интегрируя в его структуру памят, пророчество и коллективный опыт.

Ключевые слова

Габриел Гарсиа Маркес, время, магический реализм, темпоралност, структура повествования, латиноамериканская литература**.**

Vaqt Gabriyel Garsía Markesning badiiy olamida faqat mavzuli masala emas, balki tarix, afsona va inson tajribasi aks etadigan ontologik vosita hamda tuzilma prinsipidir. Markes asarlarida vaqt ko’pincha moslashuvchan, subektiv va ba’zan hatto aylanish xususiyatiga ega sifatida tasvirlanadi — bu esa uni chiziqli yoki qat’iy bo’lgan tasavvurlardan farqlantiradi. Vaqtning bunday talqini uning romanlaridagi olamlarni shakllantirish uslubiga hamda qahramonlarning ongiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi (Bell-Villada, 1990). Macondo shahridagi oilalarning takrorlanuvchi taqdirlari, javobsiz sevgi yetishishining 50 yildan ortiq davom etgan kutish, yoki shaxsiy xotiraning jamoaviy tarix bilan to‘qnashuvi — bularning barchasi Markes tahlil qiladigan vaqtning ko‘p qirrali tomonlarini ochib beradi: vaqtning yemirish, saqlash, buzish va yangilash xususiyatlari Markes estetik qarashlarining markazida turadi va Lotin Amerikasi o‘zligini hamda umuman insoniyat holatini tahlil qilishning muhim vositasiga aylanadi. Uning asarlari o‘quvchini vaqtni voqealar joylashadigan qat’iy idish emas, balki voqealarni keyingi hodisalar bilan shakllanadigan uzluksiz oqim bo‘ylab harakatlantiradigan, mavjudlikni belgilovchi hamda boshqaruvchi mo‘jizaviy xususiyatlarga ega agent sifatida his qilishga undaydi.

Kitobxonlar sehrli realizmni Garsía Markes va boshqa yigirmanchi asr Lotin Amerikasi yozuvchilari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan adabiy uslub sifatida ko‘radilar. Sehrli realist asarlarda afsonaviy yoki fantastik unsurlar namoyon bo‘ladi, bunda g‘ayrioddiy holatlar oddiy hol sifatida tasvirlanadi (Karpenter 1949 yilda “lo real maravilloso” — “ajoyib haqiqat” tushunchasida shunga o‘xshash fikrni izohlagan edi). Bunday fantastik aralashuv G‘arb realizmining an’anaviy shakliga — ya’ni chiziqli sabab-natija munosabatlari va xronologik vaqt farazlariga, tajribaviy va rasional bilimga asoslangan, realizmga qarshi turadi (Zamora & Faris, 1995).

Sehrli realistik asarlarda vaqt tushunchasi ko‘pincha kamroq chiziqli shaklda namoyon bo‘ladi — vaqt o‘zining qat’iyligini yo‘qotadi; o‘tgan, hozirgi va kelajakdagi voqealar qorishib ketadi, ulr bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladi yoki bir-biriga o‘ralashib ketadi. Bunday holatlar bashoratlar orqali hozirgi harakatlarni

shakllantirish, tiriklar bilan muloqot qiluvchi ruhlar, vaqt halqalari yoki tezlashgan yoki izdan chiqqan tarixiy jarayonlar kabi g‘oyalar orqali ifodalanadi.

Vaqtning bunday qiziqarli manipulyasiyasi shunchaki tashqi bezak emas — sehrli realizm muqobil kosmologiyalarni tasvirlash yoki faqat empirik tarixiy hikoyalarning cheklovchanligini tanqid qilish, hamda chiziqli vaqtga bo‘ysunmaydigan kollektiv xotira, afsona yoki ong osti haqiqatlariga murojaat qilish vositasidir (Roh bu atamani 1925 yilda san’atshunoslikda kiritgan bo‘lsa-da, uning adabiyotdagi qo‘llanilishi sezilarli darajada kengaydi).

Shu bois, o‘zgaruvchan va ko‘pincha chiziqli bo‘lmagan vaqt sehrli realistic asarlarda voqelik mantig‘i va mavzu ohangining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Gabriyel Garsía Markesning "Yolg‘izlikning yuz yili" (1967) asari yigirmanchi asr adabiyotining ramziy namunalaridan biri sifatida tan olingan bo‘lib, sehrli realizmning eng yuksak cho‘qqilaridan biri hisoblanadi. Ushbu roman Karib tog‘larida joylashgan Macondo nomli yakkalanib qolgan shaharchada yashovchi Buyendía oilasining ko‘p avlodlar bo‘ylab yuksalishi va qulashini epik va afsonaviy ko‘lamda tasvirlaydi. Asarda vaqt asosan siklik va qaytuvchan tarzda tasvirlanadi; tarix — bu rivojlanish emas, balki takrorlanuvchi naqshlar, oldini olish mumkin bo‘lgan kelajaklar va avlodiy aylanishlardir. Oxir-oqibat, qadimgilar bashorat qilgan apokaliptik bir lahza, ya’ni barcha zamonlarning bir lahzada jam bo‘lishi ochib beriladi (García Márquyez, 1967).

Hikoya voqealarining rivoji ham ichki, ham tashqi jihatdan aylanishli tuzilmaga ega: ba’zida Markes o‘nlab yillarni bitta jumlaga jamlaydi, ba’zida esa bir lahzani afsonaviy darajadagi cho‘ziluvchanlikda tasvirlaydi.

Yozuvchining "Vabo paytida muhabbat" (1985) asarida ham Markesning uslubi saqlangan, biroq vaqtning aks ettirilish shakli butunlay boshqacha. Bu roman aniq xronologik chiziqlarga bog‘lanmagan bo‘lsa-da, undagi voqealar nisbatan to‘g‘ri chiziqli tarzda rivojlanadi — Florentino Ariza tomonidan Fermina Dazani ellik bir yil, to‘qqiz oy va to‘rt kun davomida sabr bilan kutgan davri yoritiladi (García Márquyez, 1985). Vaqt bu asarda insoniy qat’iyat, xotira, qarish va inson hayotining vaqt bilan qanday aloqada bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi. Roman davomida vaqtning o‘tishi bilan birga o‘zgarib boruvchi metaforalar va obrazlar, jumladan, vabo — ramziy va timsolli ma’noda — muhim o‘rin egallaydi.

Har ikki romanda ham retrospektiv (orqaga qarovchi) voqealar va xotiraning subektiv buzilishi mavjud. Ularning vaqt strukturalari sabr-toqat va uzluksizlikni urg‘ulaydi: "Yolg‘izlikning yuz yili" asarida bu siklik, afsonaviy, yakkama-yakka taqdirlarning umumiy tarixga aylanishi bilan, "Vabo paytida muhabbat"da esa bir kishining sadoqatli, chiziqli, ammo ichki tajribalarga boy kutuvi orqali ifodalanadi.

Bu ikki asar vaqtning turlicha, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi ifodalarini taklif etadi: biri naslning siklik taqdirini, boshqasi esa individuallikning sabr-toqatli sodiqligini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, García Márquyezning magik realizm janrini va uslubiy an’analarni qo‘llashi o‘quvchilarga vaqtni tasvirlashda o‘ziga xos vaqt tajribasini yaratadi. Bu tajriba, masalan, **oqimlilik, siklik tabiati, anaxronizmlarning normalizatsiyasi** va o‘z vaqtining yashash tajribasi hamda

afsonasini empirik, lineyer xronologiya o‘rniga ajratishga asoslanadi. Uslub o‘zi vaqtning alternativ tajribalarini ifodalashning vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell-Villada, G. H. (1990). García Márquyez: The Man and His Work. University of North Carolina Press.
2. Bloom, H. (Ed.). (1998). Gabriyel García Márquyez. Chelsea House Publishers.
3. Carpentiyer, A. (1949). Prologuye to El reino de este mundo [The Kingdom of This World].
4. Comriye, B. (1976). Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems. Cambridge University Press.
5. Comriye, B. (1985). Tense. Cambridge University Press.
6. García Márquyez, G. (1985). Love in the Time of Cholera. (E. Grossman, Trans.). Alfred A. Knopf.

ANNI ERNONING AVTOBIOGRAFIK ASARLARIDA SHAXSIY VA IJTIMOIY OMILLAR

Abdullayeva Firdavsxon A’zamjon qizi
Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
firdavsxonabdullayeva92@gmail.com
Nurmatova Nozima Madrim qizi
Namangan davlat chet tillari instituti 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy fransuz yozuvchisi Anni Ernoning “La Place (Hayotdagi o‘rin)” asarida avtobiografizmning badiiy-dunyoviy xususiyatlari o‘rganiladi. Unda yozuvchining “tekis yozuv” deb ataluvchi uslubining badiiy o‘ziga xosligi ochib beriladi. Bu uslub shakl va mazmun jihatidan hujjatli etnografik hamda sotsiologik tadqiqotlarga yaqin bo‘lib, an’anaviy avtobiografiyalarga xos bo‘lgan subyektivlikdan ajralib turadi. Avtobiografik yozuv harakati matnda sotsiolog Pyer Burdyo tomonidan ilgari surilgan “ramziy zo‘ravonlik” tushunchasi orqali tahlil qilinadi. Maqolada, Anni Erno asarida otasi va qizi o‘rtasida yuzaga kelgan “sinflararo masofa”ning ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlarini badiiy tadqiq etish, odatiy avtobiografik asarlarda uchraydigan xronologik voqea bayoni aks etadi. Yozuvchining poetikasiga xos bo‘lgan “dunyo”, “joy”, “uyat”, “pastki ijtimoiy maqom” kabi asosiy konseptlarni tahlil qilish orqali, bir tomondan, ijtimoiy-madaniy begonalashuv qanday yuzaga kelishi, boshqa tomondan esa, ushbu holat ijtimoiy haqiqatni tanqidiy yoritish uchun qanday asos bo‘lib xizmat qilishi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: avtobiografik yozuv, xotira, shaxsiylik, ijtimoiylik, sotsiologik yondashuv, ramziy zo‘ravonlik, tekis yozuv

Аннотация: В статье изучаются художественно-мировоззренческие особенности автобиографиз ма в произведении известной современной французской писательницы А. Эрно «Место в жизни». Раскрывается художественное своеобразие разрабатываемого ею «плоского пись ма», близкого по форме и содержанию к документальным этнографическим и

социоло гическим исследованиям и лишенного характерной для автобиографии субъективности. Движение автобиографического письма рассматривается сквозь призму реализации в тек сте понятия «символическое насилие», заимствованного из социологии П. Бурдье. Доказы вается, что художественное исследование социально-исторических закономерностей воз никновения «классовой дистанции» между отцом и дочерью заменяет у А. Эрно характер ное для автобиографии хронологическое событийное повествование. Анализ ключевых для поэтики А. Эрно концептов, таких как «мир», «место», «стыд», «низшее положение», поз воляет понять, с одной стороны, как рождается социально-культурное отчуждение, а с дру гой стороны, становится поводом для социальной критики действительности.

Ключевые слова: автобиографическое письмо, память, личное, социальное, со циологический подход, символическое насилие, плоское письмо

Anni Erno ijodi zamonaviy Fransiya adabiy manzarasida alohida o‘rin egallaydi. U yigirmadan ortiq kitob muallifi bo‘lib, ularning aksariyati nufuzli «Gallimard» nashriyotida chop etilgan va dunyoning turli tillariga, jumladan, rus tiliga ham tarjima qilingan. Jerom Garsen tahriri ostida nashr etilgan “Lug‘at: zamonaviy fransuz adabiyoti *(Jérôme Garcin’s well-known Dictionnaire des écrivains contemporains de langue française)”* nomli mashhur nashrda uning nomi XX asr Fransuz adabiyotining klassikasiga aylangan 250 nafar yozuvchi orasida tilga olinadi.

Yozuvchi ko‘plab nufuzli fransuz va xalqaro adabiy mukofotlar bilan taqdirlangan. 1984-yilda uning *“La Place” (Hayotdagi o‘rin)* asaridagi badiiy yangiligi “Renodo” mukofoti bilan e’tirof etilgan. Bu mukofot ilgari dunyo miqyosida e’tirof etilgan L.F. Selin, A. Aragon, M. Byutor, J.M. G. Leklezio, J. Perec kabi adiblarga ham berilgan edi. 2019-yilda Anni Erno «Xalqaro Buker mukofoti»ning oltita nomzodidan biriga munosib deb topilgan. A. Ernoning nasriy asarlari Fransiya o‘rta maktablari va universitetlarida o‘rganiladi. Unda ko‘tarilgan mavzular va haqiqatni – shaxsiy, ijtimoiy, sinfiy, tarixiy, genderlik jihatidan – anglashda qo‘llanilgan usullar xilma-xil bo‘lgani sababli, uning asarlari nafaqat xorijiy adabiyotshunoslikda ko‘p qirrali tahlil obyektiga aylangan, balki sotsiologlar, tarixchilar va psixoanalitiklar orasida ham qiziqish uyg‘otmoqda. Biroq adabiyotshunoslik ilmida A. Erno ijodiga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqotlar mavjud emas. Garchi uning nomi XX–XXI asrlar chegarasidagi fransuz adabiyotida autofiktsion janrni o‘rganish kontekstida tilga olingan bo‘lsa-da P. Mishon, P. Bergunye, F. Bon, J. Ruo va boshqalar qatori, Anni Erno ham 1980–1990-yillar fransuz yozuvchilari avlodiga mansubdir. Bu adiblar, yangi roman an’analarining yirik namoyondalaridan hisoblanib, avtobiografik yo‘nalishga ega bo‘lgan “o‘tish davri adabiyoti” da ijod qiladi.

Zamonaviy dunyoning inqirozli holati bilan bog‘liq holda, “odatiy, oddiy hayotlar”ni [65] anglash alohida ahamiyat kasb etadi va fransuz adabiyotshunosi

[65] Viart, D. (2010). La littérature contemporaine et la question politique. In B. Havercroft, P. Michelucci, P. Riendeau (Dir.), Le roman français de l’extrême contemporain. Écritures, engagements, énonciation (pp. 105–123). Québec: Éditions Nota Bene.

D. Viar so‘zlariga ko‘ra, bu muammo muqarrar ravishda “siyosiy masala”ga aylanadi. Bejiz ko‘plab tanqidchilar u haqida: “U jur’at etdi...” [66] deb yozishmaydi. D. Viar ijtimoiy-siyosiy ongning o‘tkirligi bilan ajralib turuvchi A. Ernoning “tanqidiy to‘qima” (fiction critique) yaratuvchilari safiga kiritadi. Bunday adabiy matn endi “predikativ” (ya’ni dunyoning holatini shunchaki tasvirlovchi) yoki “kelishuvchan” (mavjud tartib – ya’ni umumiy qabul qilingan qarashlar bilan murosa qiluvchi) bo‘lmay, balki tanqidiy ma’nolarni ishlab chiqish va mulohaza yuritish maydoniga aylanadi. Adabiyot oldiga qo‘yilayotgan vazifa “uch karra tanqidiy”dir : u dunyo (uning o‘tmishi va buguni), kanonik adabiy shakllar va ideologik hamda estetik buzilishlarsiz haqiqatni ifodalash usuli sifatida yozuvchining o‘z uslubiga savol bilan yuzlanadi. Haqiqatning qochuvchan tabiati, vaqtning tez o‘tishi va tarixning o‘zgaruvchan mohiyatini anglashda badiiy tergov shakli, mavjudlik izlari va ob’yektiv belgilarni arxivlash eng mos yo‘l sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo bu yondashuv zamonaviy fransuz adiblarining ijodida turlicha amalga oshiriladi. A. Erno tomonidan ishlab chiqilgan avtobiografik yozuv shakli, mashhur fransuz sotsiologi P. Burdye g‘oyalarining kuchli ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, na klassik avtobiografiya va na avtofiktsiya janri kanonlariga to‘liq mos keladi. Uning kitoblarida “o‘zi” va ajdodlari haqida hikoya qilish keng sotsiologik material hamda metadabiy refleksiya bilan uyg‘unlashadi.

A. Ernoning to‘rtinchi kitobi — ***“La Place (Hayotdagi o‘rin)”*** (1984-yil), otasining taqdiriga bag‘ishlangan bo‘lib, nafaqat yozuvchining ijodida burilish nuqtasini belgilaydi, balki zamonaviy fransuz adabiyotida **“o‘zini yozish”** (l’écriture de soi) ning yangi uslubini ham shakllantiradi. Chunki bu asar mavjud bo‘lgan eski yoki yangi adabiy janrlarning hech biriga to‘liq mos kelmaydi. U — **na roman, na avtobiografiya, na biografiya, na “avtobiografik to‘qima” (autofiction), na “nasl-nasab haqida hikoya” (récit de filiation)**, balki keyinchalik yozuvchining o‘zi **“avto-sotsio-biografiya”** deb atagan janrga mansubdir. Shaxsiy tajribaning doimo ijtimoiy tabiatga ega ekanligini, subyektivlik esa tarix, ijtimoiy determinizm va “boshqa” bilan identifikatsiyadan tashqarida mavjud bo‘la olmasligini anglash yozuvchini **adabiyot, sotsiologiya va tarix oralig‘ida joylashgan** avtobiografik yozuvning ushbu **gibrid formasini** yaratishga olib keladi.[67] Uning maqsadi yozuv jarayonida o‘z **identikligini yig‘ish** emas, balki, aksincha, **“men”ini yo‘qotish, uni yanada kengroq ijtimoiy haqiqatga singdirishdir**. A. Erno ta’kidlaydi: “je me sers de ma subjectivité pour retrouver, dévoiler les mécanis- mes ou les phénomènes plus généraux, collectifs *(Men o‘z subyektivligimdan foydalanaman, shunda umumiyroq, kollektiv tusdagi mexanizmlar va hodisalarni ochib berishim mumkin)*[68]

Fransuz yozuvchisi F. Dyuga-Portning fikricha, A. Ernoning asarlariga xos bo‘lgan subyektivlikka qaramay, ular **“oddiy egotsentrik xotira”** doirasidan chiqib ketadi; ularning asosiy maqsadi **ichki dunyo introspektsiyasi emas, balki**

[66] Dugast-Portes, F. (2008). Annie Ernaux: étude de l’œuvre. Paris: Bordas.
[67] Ernaux A. Une femme. Paris: Gallimard, 1987. 112 p.
[68] Ernaux A. L’écriture comme un couteau. Entretiens avec Frédéric-Yves Jeannet. Paris: Éditions Stock, 2003. 156 p.

o‘zini mavjudlik sharoitlaridan ajralmas ong sifatida tadqiq etishdir.[69] Kitob muqovasida uning janrga mansubligi ko‘rsatilmagan. Matnga kiritilgan metadabiy izohlarda muallif darhol ochiq bildiradiki, **“roman yozish mumkin emas”**, chunki **“hayotiy zaruratlarga bo‘ysungan hayot”** asosida **“qiziqarli yoki hayajonli biror narsa yaratishga urinish”** ota-onasiga va o‘zining proletr kelib chiqish muhitiga nisbatan **xiyonat** bo‘lur edi.[70]

O‘tmish haqida hikoya qilish uchun tanlangan yangi til **“tekis(sodda) yozuv”** (*une écriture plate*) deb ataladi. Bu uslubga **faktlarning sodda tarzda qayd etilishi va ishchi hamda dehqonlarning mavjudlik izlarini arxivlash** xosdir: turmush va mehnat tashkiloti, xatti-harakatlar, qadriyatlar, didlar, afzalliklar, qo‘rquvlar, so‘zlar va hokazo. **Har qanday stilistik bezaklar va badiiylikning yo‘qligi** bu yozuv uslubini dastlab qaraganda sotsiologik yoki etnografik tadqiqot tili bilan yaqinlashtiradi. Bejiz emaski, kitobning ishchi nomi **“Oilaviy etnografiyaga oid elementlar”** bo‘lgan. “Tekis **(sodda)**yozuv”da **na lirizm, na sentimentallik, na patetika, na populizm, na istehzo** mavjud. A. Erno bu uslubni quyidagicha izohlaydi: *“Je rassemblerai les paroles, les gestes, les goûts de mon père, les faits marquants de sa vie, tous les signes objectifs d’une existence que j’ai aussi partagée. Aucune poésie de souvenirs, pas de dérision jubilante. L’écriture plate me vient naturellement, celle-là même que j’utilisais en écrivant autrefois à mes parents pour leur dire les nouvelles essentielles* (*Men otamga oid so‘zlar, harakatlar, didlar, uning hayotidagi muhim faktlar — men ham ulashgan mavjudlikning barcha ob’yektiv belgilarini yig‘aman. Xotiralar poeziyasi bo‘lmaydi, xushchaqchaq kinoya ham bo‘lmaydi. Tekis yozuv menga tabiiy tarzda keladi, u ilgari ota-onamga asosiy yangiliklarni yetkazish uchun yozgan xatlarimga o‘xshaydi).* [71]

Yangi **“o‘zini yozish”** yondashuvida **P. Burdye**ning sotsiologik nazariyasining ta’siri aniq ko‘rinadi, uning asosiy tushunchalari bo‘lgan **“farqlanish”**, **“gabitus”**, **“hukmron/bo‘ysunuvchi”**, **“simvolik zo‘ravonlik”** o‘z aksini topadi. Uning asarlari bilan tanishish A. Erno uchun katta **“ontologik”** ahamiyatga ega bo‘lgan, chunki bu uning jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni qayta tiklashning yashirin mexanizmlarini anglashiga yordam berdi: *“70-yillarda ‘Merosxo‘rlar’, ‘Takrorlanish’, keyinchalik esa ‘Farqlanish’ni o‘qish men uchun kuchli ontologik zarba bo‘ldi va bu menga hozir ham shunday ta’sir qiladi. Men ‘ontologik’ atamasini bilvosita ishlataman: bizning bo‘lishimiz deb hisoblangan narsa endi bir xil ko‘rinmasdi, o‘zimizni va boshqalarni jamiyatda ko‘rishimizdagi qarashlar buzildi, bizning o‘rnimiz, didlarimiz, hech narsa endi tabiiy, o‘z-o‘zidan tushunarli emas edi…”*[72] Sotsiologning ishlari tufayli o‘z muhitidan chetlanish, yozuvchining so‘zlariga ko‘ra, **“ichki surgun”** endi biror alohida holat emas, balki ijtimoiy qonuniyatlarning ifodasi bo‘lib, bu qonuniyatlarning yuzasi ochildi.

[69] Dugast-Portes, F. (2008). Annie Ernaux: étude de l’œuvre. Paris: Bordas.
[70] Ernaux, A. (1983). La place. Paris: Gallimard.
[71] Ernaux, A. (1983). La place. Paris: Gallimard.
[72] Ernaux A. Bourdieu: le chagrin // Le Monde. 2002. 5 février.

“Hayotdagi o‘rin” asarida individual tajribani umumiy hodisalarga aylantirish, umumlashtirish tendensiyasi mavjud.

Xulosa qilib aytganda , **A. Ernoning *“La Place” (Hayotdagi o‘rin)* romani** zamonaviy adabiyotning o‘z manbalariga qaytish tendensiyasiga mos keladi. Unda **“aylanma” avtobiografiya** yaratiladi — bunda hikoya qiluvchi **guvoh o‘rnini** egallaydi. Shu bilan birga, bu asar **Zola romanlaridan boshlangan** ishchi sinfi hayot sharoitlarini tasvirlashga doir **realistik an’anaga** ham kiradi, biroq boshqa **semantik va estetik darajada albatta.** Mazkur asarda **formal eksperimentlar** va **tilga bo‘lgan e’tibor,** odatda sotsiologiya sohasiga kiradigan mavzularni **badiiy idrok etish** bilan bog‘langan. Muallif **otasi hayoti voqealari bilan o‘z hayoti o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini izlashga** intiladi; bu bog‘liqliklar mavjudlik sharoitlaridan ajralmas deb qaraladi. Aynan shu yondashuv asarning **strukturaviy, mantiqiy va til jihatidan tashkil etilishini belgilaydi.** Asar asosiga **ikki ijtimoiy sinf va hayot tarzi — burjuaziya dunyosi** va **oddiy odamlar (dehqonlar, ishchilar, kichik savdogarlar) dunyosi** qarama-qarshiligi yotadi. Bu qarama-qarshilik sotsiolog P. Burdye ifodalaganidek, **“hukmronlar va bo‘ysunuvchilar”** (dominants – dominés) o‘rtasidagi ijtimoiy farqni aks ettiradi. A. Ernoning ushbu **avto-sotsio-biografik yozuvi,** realizmga yoki an’anaviy avtobiografiyaga oddiy qaytish emas, balki **o‘tmish va bugundagi oddiy odamlarning mavjudligiga oid savollarni** ko‘tarishga imkon beradi. Bunda u **syujetli hikoyalash, psixologik yoki ijtimoiy sharh** berish uslubidan foydalanmaydi, **hayot haqiqatlarini istehzo yoki xotira orqali yumshatmaydi.**

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.Viart . La littérature contemporaine et la question politique // Le roman français de l’extrême contemporain. Écritures, engagements, énonciation / B. Havercroft, P. Mi- chelucci, P. Riendeau (dir.). Québec: Éditions Nota Bene, 2010. Pp. 105–123.
2. C.-L.Tondeur.A. Ernaux. Entretien avec Annie Ernaux // The French Review. 1995. Vol. 69. No. 1. Pp. 37–34.
3. F. Dugast-Portes . Annie Ernaux: étude de l’œuvre. Paris: Bordas, 2008. 191 p.
4. A.Ernaux . Une femme. Paris: Gallimard, 1987. 112 p.
5. A.Ernaux . L’écriture comme un couteau. Entretiens avec Frédéric-Yves Jeannet. Paris: Éditions Stock, 2003. 156 p.
6. A.Ernaux . La place. Paris: Gallimard, 1983. 128 p.
7. A.Ernaux . Bourdieu: le chagrin // Le Monde. 2002. 5 février.
8. Yu.A. Kosova, E.B.Ponomarenko, & G.Siary, (2020). The individual and the social in Annie Ernaux's autobiographical writing.
9. A. Ernaux. Bourdieu: le chagrin // Le Monde. 2002. 5 février.

NEMIS XALQ OG‘ZAKI IJODIDA ERTAK JANRINING SHAKLLANISHI (Aka-uka Grimm ertaklari misolida)

Madolimov Xusanboy Shuhratovich
Namngan davlat chet tillari instituti katta o`qituvchisi
husanboy8282@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada nemis xalq og‘zaki ijodida ertak janrining shakllanishi, uning asosiy xususiyatlari va axloqiy-didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Ertaklarning mifologik motivlari, formulalik va takroriylik unsurlari hamda ularning milliy madaniyatdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Maqola nemis ertaklarining universal mavzular orqali zamon va makon chegaralaridan tashqarida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Nemis xalq og‘zaki ijodi, ertak janri, mifologiya, axloqiy didaktika, formulalik va takroriylik, qahramonlik konsepsiyasi, milliy madaniyat, universal mavzular, tarbiyaviy qadriyatlar*

Abstract

The article analyzes the formation of the fairy tale genre in German oral folk literature, its main features, and moral-didactic significance. It examines mythological motifs, formulaic and repetitive elements, and their role in national culture. The article emphasizes the universal themes of German fairy tales, which give them relevance beyond time and place.

Keywords: German oral folk literature, fairy tale genre, mythology, moral didactics, formulaic and repetitive elements, heroism concept, national culture, universal themes, rducational values

Аннотация

В статье анализируется становление жанра сказки в немецком устном народном творчестве, его основные особенности и нравственно-дидактическое значение. Рассматриваются мифологические мотивы, формулы и повторяющиеся элементы, а также их роль в национальной культуре. Подчеркивается универсальность тем немецких сказок, что делает их актуальными вне времени и пространства.

Ключевые слова: Немецкое устное народное творчество, жанр сказки, мифология, нравственная дидактика, формулы и повторения, понятие героизма, национальная культура, универсальные темы, воспитательные ценности

Kirish

Nemis xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining muhim qismi hisoblanib, bu janr orqali milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va xalqning dunyoqarashi avloddan-avlodga yetkazib kelinmoqda. Mazkur tadqiqot nemis xalq ertaklarining shakllanish jarayonini, asosiy motivlarini hamda ularning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Metodologiya

Tadqiqotda tarixiy-komparativ metoddan foydalangan holda, aka-uka Grimmlar tomonidan yozib olingan nemis xalq ertaklarining matnlari hamda folklorshunos Maks Lyuti va Hayns Ro`lleke kabi olimlarning tadqiqotlari asosida tahlil olib borildi.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqot natijalariga koʻra nemis xalq ertaklarida mifologik unsurlar alohida oʻrin tutadi. Bu xususan 'Qizil qalpoqcha', 'Kuloyim' va 'Oltin sochli qiz' kabi mashhur ertaklarda yaqqol koʻrinadi. Misol tariqasida 'Kuloyim' ertagida sabr, halollik va sadoqat fazilatlari qahramonning muvaffaqiyatga erishishiga olib keladigan asosiy omil sifatida tasvirlangan. Shuningdek, koʻpchilik ertaklarda uch martalik harakat tamoyili keng qoʻllanilgan boʻlib, bu ertak strukturasining asosini tashkil etadi.

Nemis xalq ogʻzaki ijodi juda boy boʻlib, uning eng yorqin koʻrinishlaridan biri ertak janridir. Ertaklar xalqning qadimiy e'tiqodlari, axloqiy me'yorlari va hayot falsafasini oʻzida mujassam etgan holda, ogʻzaki shaklda asrlar davomida rivojlanib kelgan. Nemis xalq ertaklari nafaqat estetik baho uchun, balki didaktik va tarbiyaviy maqsadlarda ham xizmat qilgan. Xalq ogʻzaki ijodida ertaklar eng keng tarqalgan matn turi ekanligi bejiz emas.[73]

Ertaklarning shakllanishida qadimgi german mifologiyasi muhim rol oʻynagan. Dastlabki ertaklarda tabiat kuchlari, ajinalar, jinlar va qahramonlik ruhidagi obrazlar koʻp uchraydi. Bunday motivlar xalqning dunyoqarashi bilan bogʻliq boʻlib, mifologik tasavvurlar ogʻzaki ijod orqali ertak shaklida avloddan-avlodga oʻtgan. Shu bois, ayrim tadqiqotchilar nemis ertaklarini "xalq mifologiyasining soddalashtirilgan shakli" deb ataydilar[1].

Nemis xalq ertaklarining asosiy jihatlaridan biri-oddiy odamning favqulodda kuchlar yordamida yovuzlikka qarshi kurashib, gʻalaba qozonishidir. Bu motiv xalq ongida adolat, jasorat va umid timsoli sifatida mustahkam oʻrin olgan. Qahramonlar odatda kambagʻal dehqon oʻgʻli, yetim bola yoki jamiyatda zaif deb hisoblangan shaxs boʻladi. Shunga qaramay, ular jasorati, halolligi va sabr-toqati evaziga sinovlardan muvaffaqiyatli oʻtadi.

Sehrli vositalar-masalan, sehrli qalpoq, oʻz-oʻzidan ovqat tayyorlaydigan dasturxon yoki gapiradigan hayvon-ushbu qahramonlarga yordam beradi. Bu moʻjizaviy elementlar ertaklarning nafaqat badiiy goʻzalligini oshiradi, balki xalqning orzu-umidlarini ramziy tarzda ifodalaydi. Grimm aka-ukalarining mashhur "Qizil qalpoqcha" ertagida qizalogʻining yolgʻizlikda yovuz boʻriga duch kelishi va oxir-oqibat qutulishi aynan bunday dramatik qahramonlik strukturasi asosida qurilgan.

Max Lyuti bu haqda shunday deydi: "Xalq ertagi qahramoni hech qachon ichki kechinmalar bilan kurashmaydi, u harakat qiluvchi obrazdir-jasorat bilan

[73] Berdiqulova N., O`zbek va nemis ertaklarining tarjimalari tahlili, *Образование наука и инновационные идеи в мире, 2023, 30-bet*

yuradi, yo‘l bosadi, yengadi”[74]. Bu esa ertakni epik janrga yaqinlashtiradi va uni xalqning hayotiy kurashlariga ramziy javob sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, ko‘plab ertaklarda qahramonning yengishi shaxsiy kuch-g‘ayrat emas, balki axloqiy ustunlik evaziga yuz beradi: halol bo‘lish, kattalarni hurmat qilish, va’dasiga sodiq qolish-bu fazilatlar unga mo‘jizaviy yordamni keltiradi. Shu bois nemis ertaklarida qahramonlik nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jasorat bilan ham bog‘liq.

Nemis xalq ertaklarining ajralmas jihatlaridan biri-axloqiy g‘oyalar va saboqlarning aniq ifodalanishidir. Ertaklarda har bir voqea, harakat va natija biron bir axloqiy mezonga bog‘liq bo‘lib, ular orqali tinglovchilarga – ayniqsa bolalarga – qanday yashash, qanday fazilatli inson bo‘lish kerakligi o‘rgatiladi. Shuning uchun ham bu ertaklar faqat ko‘ngilochar emas, balki tarbiyaviy vosita sifatida qadrlanadi.

Ertaklarda yaxshi niyatli, halol, mehnatkash, sabrli qahramonlar bor. Ular odatda jismoniy yoki ijtimoiy jihatdan zaif ko‘rinishsa-da, ertak yakunida mukofotga erishadilar-podshoning qizi bilan turmush quradilar, butun davlatga egalik qiladilar yoki o‘z orzulariga yetadilar. Aksincha, xasis, yolg‘onchi, manman yoki shafqatsiz obrazlar ertak so‘ngida jazolanadi: ular yo o‘z baxtidan ajraydi, yo yo‘q bo‘ladi, yoki xalq oldida sharmanda bo‘ladi.

Bu motiv nemis madaniyatida chuqur ildiz otgan axloqiy printsiplar-haqiqat, halollik va sadoqatning og‘zaki ifodasi hisoblanadi. “Grimm ertaklari hech qachon g‘ayriaxloqiy xulqni rag‘batlantirmaydi; ularning asosiy vazifasi – axloqiy qarashlarni mustahkamlash va bolani ichki axloqiy tartibga yo‘naltirishdir”[75]. Shu bois bu ertaklar ko‘p hollarda maktab darsliklarida, tarbiyaviy adabiyotlarda ham qo‘llanilgan.

Zamonaviy adabiyotshunoslar bunday ertaklardagi axloqiy dualizmni (yaxshi-yomon qarama-qarshiligi) arxetipik asos deb talqin qiladilar. Ular bu ikki kuchning doimiy kurashi orqali insoniyat ongida axloqiy tafakkur shakllanishini ta’kidlaydilar. Bu esa ertakni shunchaki "bolalar uchun voqea" emas, balki xalq ongining tarbiyaviy me’yorlari ifodasi sifatida ko‘rsatadi.

Nemis xalq ertaklarining eng ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri bu formulalik, ya’ni barqaror shakllangan iboralar, strukturalar va takroriylikning ustuvorligidir. Bu jihatlar ertakning og‘zaki ijod mahsuli sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki og‘zaki shaklda saqlanuvchi matnlarning eslab qolish imkonini kuchaytirish va tinglovchiga ma’lum bir intonatsion, emotsional ta’sirni yetkazish uchun formulalar va takroriylik zarur bo‘lgan.

Ertaklar odatda an’anaviy boshlanish bilan kirib keladi: nemis tilida bu “Es war einmal...” ("Bir bor ekan...") shaklida bo‘ladi. Bu ibora ertak voqeasini haqiqat bilan bog‘lamasdan, uni alohida, afsonaviy olamga olib kiradi. Shuningdek, ertaklar ko‘pincha "...und wenn sie nicht gestorben sind, dann leben sie noch heute" ("...ular haligacha tirik bo‘lishi mumkin") kabi tugallanadi. Bu esa

[74] Lüthi M, *Das europäische Volksmärchen: Form und Wesen*, 1947
[75] Rölleke H., *Die Märchen der Brüder Grimm*, 1988

voqelikning cheksizligi, ertakning universal, abadiy qiymatga ega ekanini bildiradi.

Syujetda esa uch martalik harakat (uchta urinish, uchta sinov, uchta qahramon) eng ko‘p uchraydigan shakldir. Masalan, birinchi ikki harakat muvaffaqiyatsiz bo‘lib, uchinchisi-aksariyat hollarda eng oddiy, kamtar, ammo halol qahramon tomonidan amalga oshiriladi, natijani belgilaydi. Aka-uka Grimmlarining “Oltin sochli qiz” ertagida uchta aka-ukadan eng kichigi mo‘jizani amalga oshiradi.

Maks Lyuti bu hodisani tahlil qilib, shunday yozadi: “Takroriylik xalq ertagining poetik tuzilmasida ishonch va kutilganlik hissini hosil qiladi; u og‘zaki matnning ritmini belgilaydi”[76]. Shu tarzda formulalik va takroriylik ertakni tinglovchilar uchun qabul qilishni osonlashtiradi, ayni vaqtda ularning ishtirokini, masalan, voqeani oldindan taxmin qilish rag‘batlantiradi.

Bundan tashqari, takroriy dialoglar ham keng tarqalgan. Qahramon bir xil so‘zlarni bir necha bor takrorlaydi yoki boshqa obrazlar bilan bir xil mazmundagi muloqotlarni qayta-qayta olib boradi. Bu takroriylik ertakning marosimiy, deyarli ritual tusini kuchaytiradi va bolalar ongida qahramonlik yo‘lining bosqichlarini yanada aniqlashtiradi.

Nemis xalq ertaklarining dolzarb va o‘lmas jihatlaridan biri-mavzularining universalligidir. Bu ertaklar milliy madaniyat doirasida yaratilgan bo‘lsada, ular o‘z mazmuni va g‘oyalari bilan har qanday zamon va makon uchun tushunarli va muhim bo‘lib qolaveradi. Chunki ular insoniyat hayotining eng muhim, eng asosiy mavzularini-sevgi, sadoqat, adolat, jasorat, umid va kurash kabi tushunchalarni tasvirlaydi.

Masalan, aka-uka Grimmlarining “Kuloyim” (nem. *Aschenputtel*) ertagida sevgi va sadoqat markaziy mavzu sifatida talqin qilinadi. Qahramon qiz har qanday xo‘rlikka sabr qiladi, o‘z orzusiga sadoqat bilan intiladi va nihoyat sevgisiga erishadi. Bu orqali ertak tinglovchiga: "Toza niyat va sabr bilan har qanday to‘siq yengiladi", degan umuminsoniy xulosani yetkazadi.

Adolat mavzusi ham xalq ertaklarining asosiy g‘oyalaridan biridir. Har bir ertakda yovuzlik jazolanadi, begunohlar esa mukofotlanadi. Bu fikr Hayns Ro`lleke tomonidan ham tasdiqlanadi: “Grimm ertaklarida adolat bo‘yicha sodir bo‘ladigan yakuniy hukm-xalq istagining badiiy ifodasidir”[77]. Tinglovchi yoki o‘quvchi ertak orqali dunyoda adolat borligi, yaxshilik kech bo‘lsada g‘alaba qozonishini his qiladi.

Jasorat mavzusi, ayniqsa, kuchsiz, ijtimoiy jihatdan zaif qahramonlarning tavakkal va irodaviy harakatlari orqali yoritiladi. Ular ko‘pincha yolg‘iz, nochor holatda katta xavflarga qarshi chiqadilar. Bu esa har bir insonning ichki kuchiga, o‘z taqdirini o‘zgartirish qudratiga ishora qiladi. Bu jihat ertakni shunchaki badiiy matn emas, balki inson psixologiyasining arxetipik qatlamlariga oid xabar sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Shuningdek, Grimm ertaklarida umid va najot tushunchasi ham markaziy mavzulardan biridir. Qahramon qanchalik og‘ir holatga tushmasin, oxir-oqibat

[76] Lüthi M, *Das europäische Volksmärchen*, 1947.
[77] Rölleke H., *Die Märchen der Brüder Grimm*, 1988

unda najotga olib boruvchi yo‘l topiladi. Ko‘pincha bu sehrli yordam yoki kutilmagan do‘st orqali amalga oshadi. Bu umid elementlari ertakni og‘zaki madaniyatda kuchli ijtimoiy vosita sifatida xizmat qilishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa.

Nemis ertak janri xalq og‘zaki ijodining eng boy va chuqur qatlamlariga mansub bo‘lib, u asrlar davomida shakllangan xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy qarashlari, e’tiqodi va orzu-umidlarini badiiy shaklda ifoda etadi. Ertaklar xalq hayotining ichki ritmini, o‘ziga xos dunyoqarashini va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Aynan shuning uchun ham ular faqat bolalar uchun emas, balki madaniyatshunoslik, folklorshunoslik va psixologiya nuqtayi nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega.

Grimm aka-ukalarining XIX asrda olib borgan izchil va ilmiy faoliyati bu ertaklarning saqlanishi va tizimlashtirilishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ular og‘zaki xalq ijodini yozma shaklga keltirib, uni adabiy va ilmiy kontekstga olib chiqishga muvaffaq bo‘ldilar. Natijada, nemis xalq ertaklari nafaqat milliy, balki jahon madaniy merosining ajralmas va qadrlangan qismiga aylandi. Zamonaviy davrda ham bu ertaklar o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q: ularning mavzulari sevgi, adolat, jasorat, sadoqat har qanday davr va jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois nemis ertaklari hanuzgacha nafaqat adabiy, balki tarbiyaviy va falsafiy manba sifatida ham o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berdiqulova N., O`zbek va nemis ertaklarining tarjimalari tahlili, *Образование наука и инновационные идеи в мире, 2023, 30-bet*
2. Lüthi M, *Das europäische Volksmärchen: Form und Wesen*, 1947
3. Rölleke H., *Die Märchen der Brüder Grimm*, 1988
4. Adizova N. XALQ OG’ZAKI IJODINING DIDAKTIK VA TARBIYAVIY AHAMIYATI, Zamonaviy ilm-fan va ta`lim istiqbollari (ilmiy-amaliy konferensiya), Buxoro 2025.
5. http://www.grimmstories.com/de/grimm_maerchen/list

J.B. PRIESTLEY ASARLARIDA IJTIMOIY HAYOTNING BADIIY TALQINI

Karimova Shirinxon Ne’matjon qizi
Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz dramaturgi J.B. Priestley ijodidagi ijtimoiy tengsizlik, axloqiy javobgarlik, vaqt tushunchasi va inson mas’uliyati kabi muhim mavzular badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, “An Inspector Calls” dramasi asosida adibning ijtimoiy tanqidga yondashuvi va dramatik uslubining o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: J.B. Priestley, ingliz dramaturgiyasi, “An Inspector Calls”, ijtimoiy tanqid, vaqt konsepsiyasi.

Annotation
This article explores the main social and moral themes in the works of British playwright J.B. Priestley, focusing on artistic representations of time, responsibility, and human fate. Special attention is given to his acclaimed play “An Inspector Calls” and its integration of social critique and philosophical depth.

Keywords: J.B. Priestley, British drama, An Inspector Calls, social criticism, concept of time.

1. Kirish

J.B. Priestley (1894–1984) ingliz adabiyoti va dramaturgiyasida muhim o‘rin egallagan yozuvchi, publitsist va ssenaristdir. U o‘z asarlarida ijtimoiy adolatsizlik, axloqiy muammolar, vaqt tushunchasi va inson hayotining murakkab tomonlarini o‘rganishga harakat qilgan. Xususan, “An Inspector Calls” dramasi ijtimoiy tanqid va psixologik tahlil uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Maqolada asosan, ijtimoiy hayot tasviri, dramatik struktura va adibning falsafiy qarashlari o‘rganiladi.

2. J.B. Priestley: hayoti va adabiy merosi

J.B. Priestley Yorshirda tug‘ilgan bo‘lib, Birinchi jahon urushida qatnashgan. Uning frontdagi tajribalari adabiy faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U dastlab publitsistik maqolalar yozgan, keyinchalik roman va dramalar orqali tanilgan. Uning eng mashhur asarlaridan biri — “An Inspector Calls” (1945), Ikkinchi jahon urushidan so‘ng sahnaga qo‘yilgan va britan jamiyatidagi sinfiy farqlar, axloqiy mas’uliyat masalalarini ko‘taradi[1].

Priestley o‘zining “Time Plays” turkumidagi pyesalarida vaqt tushunchasini noan’anaviy shakllarda yoritgan. U J.M.E. McTaggart va P.D. Ouspensky kabi faylasuflarning g‘oyalaridan ilhomlangan[2]. Bu yondashuv orqali u inson xatti-harakatlarining vaqt o‘qi bo‘yicha oqibatlarini ko‘rsatishga intiladi.

3. “An Inspector Calls” dramasining ijtimoiy va badiiy talqini

Mazkur drama Birlinglar oilasi atrofida rivojlanadi. Ular boy, obro‘li oiladir, biroq inspektor Goole tashrifidan keyin ularning axloqiy zaifliklari fosh bo‘ladi. Har bir a’zo — janob Birling, uning rafiqasi Sybil, qizi Sheila, o‘g‘li Eric va Sheila’ning unashtirilgan yori Gerald — kambag‘al qizning o‘z joniga qasd qilishida qandaydir darajada aybdor ekanliklari aniqlanadi.

Bu orqali Priestley har bir inson jamiyatdagi o‘rniga nisbatan mas’uliyatli bo‘lishi kerakligini uqtiradi[3]. Dramaturg syujetni detektiv janr uslubida quradi, bu esa o‘quvchini (yoki tomoshabinni) e’tibor bilan kuzatishga undaydi. Asarda vaqt o‘rtasidagi tafovutlar, qahramonlarning qarashlaridagi o‘zgarishlar aniq aks ettirilgan.

4. Vaqt konsepsiyasi va "Time Plays" turkumidagi dramalar

Priestley “Time and the Conways” (1937), “Dangerous Corner” (1932), “I Have Been Here Before” (1937) kabi asarlarida vaqt tushunchasiga nisbatan eksperimental yondashuvni qo‘llaydi. Masalan, “Time and the Conways” dramasida birinchi va uchinchi parda o‘rtasida 19 yillik vaqt farqi mavjud. U

voqealarni orqaga qaytarish orqali inson tanlovi va taqdir o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi[4].

Bu yondashuv, o‘z navbatida, tomoshabinni muayyan harakatlar oqibatlari haqida chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Vaqtning chiziqli emasligi, muqarrarlik va tanlov imkoniyati asarlar orqali falsafiy darajada aks ettiriladi.

5. Ijtimoiy ong va axloqiy pozitsiya

Priestley dramalarida asosiy e’tibor ijtimoiy adolat, insoniylik va axloqiy pozitsiyaga qaratilgan. “An Inspector Calls” dramasi bu jihatdan eng yorqin namunadir. Unda yosh avlod vakillari (Sheila va Eric) o‘z xatolarini tan olib, axloqiy yuksalish sari intilsa, katta avlod vakillari (janob Birling va xotini Sybil) o‘z xatti-harakatlarini oqlashga urinishadi.

Bu orqali muallif jamiyatning yangilanishi va adolatga erishishi faqat yangicha qaraydigan avlod orqali ro‘y berishini uqtiradi. Dramaturg real hayotdagi muammolarni metafora va ramzlar orqali ko‘rsatishga intiladi, bu esa uning asarlarini zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb qiladi[5].

Xulosa

J.B. Priestley o‘zining dramatik merosi orqali ingliz sahna san’atida yangi bosqich boshlab bergan adibdir. Uning asarlarida vaqt, axloq, insoniyat, jamiyat va adolat kabi g‘oyalar badiiy mukammallik bilan yoritilgan. Ayniqsa “An Inspector Calls” dramasi orqali u sinfiy tafovutlar, befarqlik va javobgarlik masalalarini ilgari suradi. Bugungi kunda ham uning asarlari teatr san’ati, madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Priestley, J.B. An Inspector Calls. Heinemann, 1945.
2. Ouspensky, P.D. A New Model of the Universe. Dover Publications, 1997.
3. Innes, C. Modern British Drama: The Twentieth Century. Cambridge University Press, 2002.
4. Gilmour, R. The Idea of the Gentleman in the Victorian Novel. George Allen & Unwin, 1981.
5. Taylor, D.J. A Vain Conceit: British Intellectuals and the Idea of Europe. 1992.
6. Internet manbalari: www.britannica.com, www.bl.uk

AYRIS MERDOKNING “QORA SHAXZODA” ASARIDA EKZISTENSIALIZM QARASHLARI

Namangan davlat chet tillar instituti magistranti
Umarova Umida Tulkunovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ayris Merdokning “Qora Shaxzoda” asarida ekzistensializm g‘oyalari qanday ifoda etilgani tahlil qilinadi. Asarda insonning erkinligi, tanlov mas’uliyati, yolg‘izlik, mavjudlikning mazmuni kabi ekzistensial muammolar markaziy o‘rinda turadi. Muallif qahramonlar ruhiy kechinmalari

orqali insoniy mavjudlikning murakkabligini ochib beradi. Maqolada ekzistensializmning J.-P. Sartr va A. Kamyu kabi mutafakkirlar nazariyalari bilan bog‘liqligi ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ayris Merdok, ekzistensializm, “Qora Shaxzoda”, erkinlik, tanlov, mavjudlik,o’zlikni izlash,begonasuvlik

Annotation: This article explores existentialist themes in Iris Murdoch’s novel The Black Prince. Central to the analysis are issues such as human freedom, moral responsibility, loneliness, and the search for meaning. The author examines how Murdoch presents existential dilemmas through the psychological depth of her characters. The article also draws connections with the existential philosophies of Jean-Paul Sartre and Albert Camus.

Keywords: Iris Murdoch, existentialism, The Black Prince, freedom, choice, existence, alienation, quest for self

Аннотация: в статье рассматриваются идеи экзистенциализма в романе Айрис Мёрдок «Чёрный принц». Особое внимание уделяется таким темам, как свобода личности, ответственность за выбор, одиночество и поиск смысла существования. Через внутренний мир персонажей автор раскрывает экзистенциальные аспекты человеческой жизни. Также анализируются параллели с философией Ж.-П. Сартра и А. Камю.

Ключевые слова: Айрис Мёрдок, экзистенциализм, «Чёрный принц», свобода, выбор, существование, поиск идентичности, отчуждение

Kirish

Insonning hayoti, uning harakatlari va hayotdagi o’rni, barchasi bevosita adabiyot bilan bog’liq,zero,adabiyotning asosiy obyekti-inson.Adabiyotning rivojlanish davrida inson taqdiri muhim joy egallab kelib, u XX asr adabiyotida birinchi o’ringa chiqdi. Bu davr psixologiya va falsafa bilan bog’langan holda,insonning ongiga, ichki dunyosiga,o’zligini anglashga e’tibor qaratdi. Modernizm,postmodernism,feminism,absurd teatr va ekzistensializm bu davrning oqimlari bo’lib,ichki psixologiya,hayotdan ma’no izlashga, insonni asosiy qurol sifatida olinib,buyuk asarlar yozilgan. Ayniqsa, ekzistensializm oqimi bu savollarni markaziy muammolar sifatida ilgari surdi. Ushbu falsafiy yo‘nalish doirasida inson erkinligi, mas’uliyati va tanlovi muhim o‘rin egallaydi. Adabiyotda esa bu qarashlar ko‘plab ijodkorlar tomonidan badiiy shaklda aks ettirildi. Ekzistensializm oqimi inson ongini birinchi o’ringa quyadi, chunki XX asr adabiyotida "ong oqimi" (stream of consciousness) uslubi — inson ongidagi fikrlar, hissiyotlar va xotiralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, mantiqiy yoki grammatik tartibga solmasdan ifodalash shaklidir. Bu uslub psixologik chuqurlik va ichki monologga urg‘u beradi. Ong oqimi uslubida ichki monolog,tartibsiz vaqt oqimi,sintaktik noaniqlik,assotsiativ fikrlash orqali insonning ichki dunyosini ochadi. Xuddi shu sifatlar ekzistensializmda ko’rish mumkin. Maqola ekzistensial qarashlarni Ayris Merdok, ingliz yozuvchisi va faylasufi, “Qora Shaxzoda”asari orqali o’rganib chiqishni maqsad qildan. Ayris Merdokning "Qora shahzoda" (The Black Prince, 1973) romanida ekzistensializm g‘oyalari chuqur va murakkab tarzda ifodalangan, ammo u bu falsafani odatdagi ekzistensialist yozuvchilardan

farqli uslubda yoritadi. Merdokning qarashlari ko‘proq *ma’naviyat, axloq* va *san’atning haqiqat* bilan munosabati asosida shakllanadi. Ayris Merdok -yirik ingliz yozuvchisi va faylasufi bo’lib,uning ijodi falsafa, psixologiya va murakkab insoniy munosabatlar tahlili bilan chambarchas bog'liq. "Qora Shahzoda" asari uning eng mashhur romanlaridan biri bo'lib, unda san'at, sevgi, o'lim va hayotning ma'nosi kabi chuqur masalalar qalamga olinadi. Asar bosh qahramon, keksa va omadsiz yozuvchi Bredli Pirsonning hayoti va uning atrofidagi munosabatlarga qaratilgan bo‘lib, voqealar murakkab psixologik tahlillar orqali ochib beriladi.

Ekzistensializmga nigoh va uning unsurlari“Qora Shaxzoda” asari tahlili misolida

Ekzistensializm – XX asrda yuzaga kelgan falsafiy oqim bo'lib, u insonning mavjudligiga, uning erkinligi, mas'uliyati va o'z hayotini yaratish qobiliyatiga e'tibor qaratadi. Ekzistensializmning markaziy g'oyalaridan biri "***mohiyatdan oldin mavjudlik" (existence precedes essence)*** tamoyilidir. Ya'ni, inson avval mavjud bo'ladi, so'ngra o'z tanlovlari va harakatlari orqali o'z mohiyatini yaratadi. Hayotning oldindan belgilangan ma'nosi yo'q, inson uni o'zi yaratishi kerak. Ekzistensializm insonning mavjudligi, taqdiri, imon-e’tiqodi, hayotining mazmuni va maqsadlari singari masalalar tahliliga e’tibor qaratgan. Ekzistensializmga ko’ra, *shaxs* – bosh maqsad, *jamoa* -uning moddiy mavjudligini ta’minlashga xizmat qiladigan vositadir. Ekzistensializm namoyandalari jamiyat uning har bir a’zosining erkin ma’naviy rivojlanishini ta’minlashi, shaxs erkinligiga to‘sqinlik qiluvchi omillarga barham beradigan huquqiy tartibni kafolatlashi zarur. Ekzistensialistlar erkinlikni faqat tashqi (iqtisodiy yoki siyosiy) imkoniyat bilan cheklab qo‘ymaydilar. Ular insonning ichki erkinligi – ya’ni ruhiy va ma’naviy erkinlikni ham asosiy deb hisoblaydilar. *Iqtisodiy va siyosiy erkinlik (tashqi erkinlik)* ko’proq jamiyat,davlat va qonunlar bilan bog‘liq va bunga misollar: so‘z erkinligi,harakatlanish erkinligi,mehnat qilish, ta'lim olish, saylovda qatnashish,mol-mulkka egalik qilish. Bunday erkinliklar bo‘lmasa, inson tashqi sharoitda cheklangan bo‘ladi. Masalan, diktaturada yoki qashshoqlikda yashaydigan odam ko‘p imkoniyatlardan mahrum. Lekin ekzistensialistlar aytadi:“Bu tashqi erkinlik yetarli emas.”[78] Ruhiy-ma’naviy erkinlik (ichki erkinlik) va bu ekzistensialistlar uchun haqiqiy erkinlik hisoblanadi. Ya’ni: “Inson qanday sharoitda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining qarorini o‘zi qabul qilishi, hech kim uning ongini, niyatini, tanlovini boshqara olmaydi.Inson o‘z hayoti uchun shaxsan o‘zi javobgar”[79]

“Qora Shaxzoda” romanining tuzulishi

Ayris Merdokning “Qora Shaxzoda” (1973) romani murakkab tuzilishi, falsafiy qatlamlari va ishonchsiz rivoyatchiligi bilan ajralib turadi. Asar o’ziga xos shakli va chuqur psixologik tahlillari bilan o‘quvchini hayratda qoldiradi. Roman

[78] Sartre, J.-P. Existentialism is a Humanism. Translated by Philip Mairet, Yale University Press, 2007.
[79] Сартр, Ж.-П. Экзистенциализм — это гуманизм. — М.: Республика, 1999.

ichida roman-bu shakl yanada asarning o’quvchiga qiziqroq va uni o’ylantirishga majbur qiladi Roman to’rt darajali tuzilishga ega:

Muharrirning so’zboshi: "P. Loxias" taxallusi bilan yozilgan, bu qism san’at, muhabbat va haqiqat haqida falsafiy mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

Bradley Pearsonning hikoyasi: Asosiy qism bo‘lib, 58 yoshli yozuvchi Bradley Pearsonning bir yozgi voqealari haqida hikoya qiladi.

So’zoxiri Bredli Pirsonning: Qamoqda o’tirgandagi ichki kechinmalari

Personajlarning so‘zoxirlari: Bradley hikoyasiga javoban, boshqa personajlar (masalan, Christian, Rachel, Francis, Julian) o‘z nuqtai nazarlarini bildiradilar, bu esa asosiy hikoyaning ishonchliligini shubha ostiga qo‘yadi.

Muharrirning yakuniy so‘zi: Muharrir Bradleyning versiyasini qo‘llab-quvvatlaydi va uni muhabbatga sodiq inson sifatida tasvirlaydi.

"Qora Shahzoda" asari uning eng mashhur romanlaridan biri bo'lib, unda san'at, sevgi, o'lim va hayotning ma'nosi kabi chuqur masalalar qalamga olinadi. Asar bosh qahramon, keksa va omadsiz yozuvchi Bredli Pirsonning hayoti va uning atrofidagi munosabatlarga qaratilgan bo‘lib, voqealar murakkab psixologik tahlillar orqali ochib beriladi. "Qora Shahzoda" nafaqat badiiy asar, balki falsafiy mushohadalar maydonidir. Ayris Merdokning o'zi faylasuf sifatida ekzistensializm, xususan, Jan-Pol Sartr va Albert Kamyuning g'oyalari bilan tanish bo'lgan va ularga o'z asarlarida murojaat qilgan.

Nega yozuvchi “Qora Shaxzoda” deb romanga nom qo’ygan?

Ichki zulmat ramzi (psixologik talqin) “Qora” — odatda ichki zulmat, ehtiros, iroda zaifligi, ong osti, insonning yashirin tomonlarini ifodalaydi.Bredli Pirson o‘zini axloqiy, ruhiy toza odam deb ko‘rsatadi, lekin uning ichida sevgiga chanqoqlik, rashk, istak, yolg‘on va agressiya yashirin.“Shahzoda” esa – u o‘zini idealist, “ruhiy aristokrat” deb biladi.

Nom Bredlining zohiran “shahzoda”, botinan “qora” (zulmatli, ziddiyatli) inson ekanini anglatadi.

Shekspirga ishora – Hamlet“Qora shahzoda” iborasi Shekspirning Hamlet obraziga ham ishora bo‘lishi mumkin. Hamlet — falsafiy, ikkilanuvchi, haqiqat izlovchi qahramon. Bredli ham xuddi shunday – sevgi, adolat, san’at va ma’naviyat o‘rtasida parcha-parcha bo‘lib yashaydi.Iqtiboslar ichida Hamletga ochiq murojaatlar bor.

Bredli va Arnold: Platonning Eros va Apollon konsepsiyasi kontekstida

Bredli Pirson va Arnold haqidagi tahlilni, Platonning Eros va Apollon tushunchalari bilan bog’lash juda qiziqarli. *"Qora Shahzoda"* asarida Bredli Pirson o‘zining haqiqiyligini, axloqiy javobgarligini, va ichki dunyosini izlaydi. Uning hayoti Platonning Eros va Apollon bilan o’xshash tarzda taqdim etilgan. Bredli, bir tomondan, **Eros**ga o’xshab, o’z ehtiroslari va ijodiy orzularini izlab, o’zligini yaratishga intiladi, lekin boshqa tomondan, u o’zining mantiqiy va axloqiy izlanishlarida **Apollon**ga o’xshaydi, bu esa uning ichki kurashini yanada kuchaytiradi.

Ekzistensializmning asosiy tamoyillari va ularing asardagi o’rni

Erkinlik va Tanlov (Freedom & Choice): **Ekzistensializmda:** Inson o‘z hayotining ma’nosini o‘zi belgilaydi. Har bir tanlov — inson erkinligining ifodasi, lekin u doimo javobgarlikni ham talab qiladi.

Asarda: Bredli Pirson Julian Baffin bilan sevgiga aralashish, do‘stining oilaviy hayotiga aralashish, yozuvchilik hayotini tanlash kabi keskin tanlovlar qiladi. U bu tanlovlar natijasida ruhiy, axloqiy va ijtimoiy tanazzulga yuz tutadi.

Asardn parcha: “Men sevgini tanladim. Men bu tanlovim bilan o‘zimni yo‘q qildim.” Bu Bredlining tanlov orqali o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, lekin uning og‘ir oqibatlariga tayyor emasligi ekzistensializmga xos motiv.

O‘zlikni anglash (Authenticity & Self-discovery): **Ekzistensializmda:** Haqiqiy inson — o‘zini aldashdan yiroq, o‘z "men"iga sodiq, jamiyat niqoblaridan ozod bo‘lgan shaxsdir.

Asarda: Bredlining asosiy maqsadi — "haqiqiy yozuvchi" bo‘lish. U buni ichki anglash, kurash, muhabbat va qulash orqali izlaydi.

Asardan parcha: “Men o‘zimni yozish orqali yaratmoqchi edim.”Biroq u bu yo‘lda o‘zining zaif, yolg‘on, istaklariga asir tomonlarini ham kashf etadi.

Yolg‘izlik va Begonalik (Isolation & Alienation): Ekzistensializmda: Inson o‘zining ongli mavjudligi sababli doim yolg‘iz. Hech bir inson boshqa birovni to‘liq anglay olmaydi.

Asarda: Bredli jamiyatdan chetlashgan, sobiq soliq xodimi, hozir esa o‘zini yozuvchi deb biladi. U ichki dialoglar, o‘zini anglash, o‘ziga gapirish orqali hayotini tushunishga urinadi.

Asardan parcha: “Ular meni tushunishmadi. Balki men ularni tushunishga urinmadim”. Bu yolg‘izlik — ekzistensial insonning ruhiy portretidir.

Ma’nosizlik va Absurdlilik (Absurdity): Ekzistensializmda: Hayot ko‘p hollarda ma’nosiz, tartibsiz va noaniq. Inson uni o‘z tanlovi bilan mazmunli qiladi yoki qilolmaydi.

Asarda: Bredli boshdan kechirgan voqealar — muhabbat, do‘stlik, ijod va so‘nggi fojia — go‘yo bekor ketgan. Oxir-oqibat haqiqat shubha ostida qoladi, hikoya yolg‘onmi yoki yo‘qmi — noma’lum.

Asardan parcha: “Men yozdim. Bu haqiqatmi yoki yolg‘on — men bilmayman.”Bu absurdizm elementi romanda markaziy mavzuga aylanadi.

O‘lim va fojia (Death & Tragedy): Ekzistensializmda: O‘lim — inson hayotining eng yakuniy haqiqatidir. U orqali hayotga mazmun kiradi.

Asarda: Roman oxirida Bredli fojiali voqealarga aralashadi, turmushdan, muhabbatdan va yozuvchilikdan mahrum bo‘ladi. Bu o‘limga yaqinlashuv sifatida tasvirlanadi — ruhiy va ijodiy o‘lim.

Asardan parcha: “Men o‘zimni so‘nggi sahifalarda yo‘q qildim.”

Yomon niyat (Bad Faith): Ekzistensializmda: Insonning o'z erkinligini inkor etishi, o'zini vaziyat qurboni deb bilishi yoki boshqalarning talablariga ko'r-ko'rona bo'ysunishi.

Asarda: Bredli Pirson – roman bosh qahramoni – o‘zini "buyuk yozuvchi" deb hisoblaydi, ammo hayoti davomida deyarli hech narsa yozmagan. U

atrofidagilar, ayniqsa Julian bilan bo‘lgan munosabatlarida doimo o‘zini oqlash, haqiqatni yashirish, va ichki motivlarini e’tirof etmaslik orqali yashaydi.

Asardan parcha: “Men Julianni sevganim uchun emas, balki uni himoya qilish uchun yaqinlashdim deb o‘zimga aytardim. Lekin yuragimda men bu daqiqani orzu qilgan edim.”

Bu jumlada Bredli o‘z his-tuyg‘ularidan qochadi, ularni “himoya qilish” niqobi bilan oqlaydi. Bu — klassik bad faith holati: inson o‘zining asl niyati va ehtirosidan qochadi, boshqa “yaxshi” motiv bilan niqoblaydi.

Tahlil yakunlari

Ayris Merdokning “Qora Shaxzoda” asari ekzistensializm falsafasining badiiy ifodasi sifatida e’tiborga loyiqdir. Roman strukturasining murakkabligi, ishonchsiz rivoyatchilik, ichki monologlar va ong oqimi uslubi orqali insonning ichki dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Bredli Pirson obrazi orqali insonning erkin tanlovi, o’zlikni anglash istagi, yolg‘izlik va o’z-o’zini inkor etish singari ekzistensial muammolar ko‘tariladi. Ayniqsa, uning muhabbat, ijod va axloqiy tanlovlar oldida bo‘lgan ichki kurashi orqali insoniy mavjudotning ziddiyatli tabiati yoritiladi. Merdok asarda insonni jamiyatdan ajralgan holda emas, balki o’z muhitida, o’z his-tuyg’ulari va axloqiy tanlovlari bilan qarorlar qiluvchi mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu esa ekzistensializmning klassik yondashuviga nisbatan yanada murakkab, chuqur va badiiy-falsafiy yondashuvni ko’rsatadi.

Xulosa

Ayris Merdokning “Qora Shahzoda” asari ekzistensializm g‘oyalarini ingliz adabiyotidagi o‘ziga xos va betakror badiiy shaklda aks ettirgan muhim adabiy namunalardan biridir. Asarda inson ongining murakkabligi, ichki erkinlik va axloqiy tanlov masalalari markaziy mavzuga aylangan. Merdok ekzistensialist yozuvchilarga xos bo‘lgan motivlarni — erkinlik, tanlov, yolg‘izlik, o‘lim va hayotning ma’nosizligi — o‘ziga xos psixologik va falsafiy teranlik bilan yoritadi. U shunchaki ekzistensial muammolarni ko‘rsatibgina qolmay, balki ularni estetik va axloqiy nuqtai nazardan tahlil etadi.

Roman strukturasining murakkabligi — ishonchsiz rivoyatchilik, bir nechta qarama-qarshi nuqtai nazarlar, ichki monolog va ong oqimi uslubining qo‘llanilishi — o‘quvchini faqat voqealar ketma-ketligiga emas, balki voqealarning ma’nosiga, haqiqat va yolg‘on orasidagi noaniqlikka e’tibor qaratishga majbur qiladi. Bu jihatlar ham ekzistensializm falsafasiga uyg‘un: ya’ni haqiqatning mutlaq emas, nisbiy va subyektivligini namoyon etadi.

Bredli Pirson obrazi orqali insonning o‘zligini izlash yo‘li, ichki erkinlik va mas’uliyat, o‘z tanlovining oqibatlari bilan yuzlashish kabi ekzistensialist g‘oyalar tahlil etiladi. Uning harakati — sevgini tanlashi, haqiqatni izlashga intilishi, o‘zini oqlash yoki aldash istagi — bularning barchasi insoniy tabiatning murakkabligini ochib beradi. Asar oxirida esa Pirsonning halokatli tanlovlari, o‘z-o‘zini yo‘q qilish jarayoni, ma’naviy inqiroz va yolg‘izlik, o‘quvchini chuqur falsafiy o‘yga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, “Qora Shahzoda” ekzistensializmning adabiyotdagi yorqin ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, unda Merdok inson ruhiyatining tub

qatlamlariga nazar soladi. U ekzistensializmni faqat falsafa sifatida emas, balki badiiy-estetik tajriba sifatida ham ochib beradi. Bu esa uning ijodini nafaqat ingliz adabiyotida, balki XX asr g‘arb falsafiy tafakkuri kontekstida ham alohida o‘ringa ega qiladi.

Adabiyot ro’yxati

1. Sartre, J.-P. (2007). *Existentialism is a Humanism*. Yale University Press.
2. Camus, A. (1991). *The Myth of Sisyphus*. Penguin Books.
3. Murdoch, I. (1973). *The Black Prince*. Chatto & Windus.
4. Broackes, J. (Ed.). (2012). *Iris Murdoch, Philosopher*. Oxford University Press.
5. Malik, Q. (2018). *Adabiyot nazariyasi va falsafiy oqimlar*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Russell, B. (2005). *History of Western Philosophy*. Routledge.
7. Qosimova, N. (2020). *XX asr adabiyoti va zamonaviy oqimlar*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.

“JANUB RENESSANSI”DAVRI ADABIYOTINING ASOSIY G`OYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Xolxo`jayeva Durdona Murodjon qizi
Namangan davlat chet tillari instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada AQSHning “Janub Renessansi”davri adabiyotidagi ijtimoiy va ma`naviy yemirilish,irqchilik,gender tengsizlik va ayollar ovozi kabi g`oyalar yoritiladi. Uilyam Folkner asarlari va boshqa ijodkorlar asarlari misolida davr adabiyoti mavzulari haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Qora feminism, ovoz va sukunat, patriarxal jamiyat, gender ro`llari, ma`naviy uyg`onish, rasizm va jinsiy kamsitish.

Аннотация: В статье освешаются такие идеи,как социалное и духовное разложение,расизм,гендерное неравенство и голос женщин в литературе периода «Южного Ренессанса» США. На примере произведения Уильяма Фолкнера и произведений других авторов рассматриваются темы литературы того времени.

Клучевые слова: черный феминизм, голос и молчание, патриархальное общество, гендерные роли, духовное пробуждение, расизм и гендерная дискриминация

Annotation: The article explores themes such as social and spiritual decay, racism, gender inequality, and the voice of women in the literature of the American “Southern Renaissance” period. Through the works of William Faulkner and the works by other authors, the literary themes of the era are discussed.

Keywords: Black feminism, voice and silence, patriarchal society, gender roles, spiritual awakening, racism and gender discrimination.

Janubiy Renessans adabiyoti 20-asrning o`rtalaridan boshlab Amerika adabiyotida muhim o`rin egallay boshladi. Ushbu davrda AQSHning janubiy

shtatlarida-Alabama, Missisipi, Kentukki va Tenessi kabi joylarda adabiyotning yangi shakllari va mavzulari shakllandi. Bu davr adabiyoti janubiy mintaqaning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi asarlarga boy bo`lib, adabiy asarlar ijtimoiy adolatsizlik,irqchilik, shaxsiy va kollektiv o`zini anglash, zamonaviylik va an`anaviylik o`rtasidagi to`qnashuv kabi mavzularni muhokama qilgan. Ushbu adabiy harakat, Janubdagi adabiy an`analarni yangilash va ular orqali mintaqaning murakkab ijtimoiy tuzilmasini o`rganish, nafaqat Amerika mintaqasiga, balki butun dunyoga o`zligini tanitish maqsadida yuzaga keldi. AQSHdagi Fuqarolar urushi Janubiy shtatlar uchun falokat bilan yakunlandi. Bu davrdagi iqtisodiy tanazzul, ijtimoiy barqarorlik va qullik tizimining oshib borishi, irqiy tenglik, ijtimoiy tartibot va siyosiy barqarorlikka undovchi asarlar paydo bolishiga olib keldi. Urushdan keying davrda yozilgan ko`plab janubiy asarlar nostaljik, ya`ni o`tmishdagi “ulug`vor” plantatsiya hayotini ideallashtiruvchi xarakterga ega edi.Lekin 20-asr boshlarida yangi avlod yozuvchilari bu romantizm asarlarini tanqid ostiga oldi: ular janubiy tarixning qora tomonlarini- qullik, irqchilik, patriarxal tartibni – fosh qilishdi. Yangi avlod an`anaviy janubiy adabiyotga qarshi reaksiya bildirishdi. Vanderbilt Universiteti ( Nashville, Tennessee )da yig`ilgan adiblar guruhi- Fugitives- she`riyat orqali janub madaniyatini yangilashga harakat qildilar.1930-yilda ular “I`ll take my stand”nomli esse to`plamini chop etishdi. Bu to`plamda yozuvchilar industrial jamiyatga qarshi chiqib, agrar jamiyat qadriyatlarini himoya qildilar. Xuddi shu davrda jahon adabiyotida hukmron bo`lgan Modernizm harakati Janubiy Renessans yozuvchilariga kuchli ta`sir ko`rsatdi.

Uilyam Folknerning “Light in August” romanida Joe Christmas aralash irq vakili sifatida o`z irqiy kelib chiqishi tufayli doimiy rad etishga uchraydi. Bu orqali irqiy identitet inqirozi va jamiyatdagi irqiy nafrat yoritiladi.“The Sound and The Fury” asarida Kaddy Kompson oilasi xizmatkori Dilsey obrazida ayolning erkinligi va axloqiy mezonlarga bo`ysundirilganligi orqali ayollar taqdirining ijtimoiy nazorat ostida ekanligi ko`rsatiladi. Shunday bo`lsada, u mehribon, sabrli va ma`naviy jihatdan barqaror obraz sifatida tasvirlanadi. U oilaning ma`naviy inqirozga uchrashiga qaramay, yagona axloqiy tayanch sifatida ko`rsatiladi. Kompsonlar oilasining fojiasi orqali janubiy aristokratiyaning tanazzulga uchrashi va insoniy qadriyatlarning yo`qolishi tasvirlangan. Asardagi aqliy nogiron bola, ammo u orqali jamiyatning axloqiy nogironligi ko`rsatib beriladi. “Dry September” hikoyasida oq tanli ayol qora tanli erkakni jinsiy tajovuzda ayblaydi. Ma`lumki, shu voqea qora tanli ayolga bo`lganida, bu haqida bir og`iz so`z eshitilmas ham edi.Bu voqea isbotlanmasada qora tanli sartarosh oq tanli erkaklar guruhi tomonidan qiynab o`ldiriladi, bu ochiq aytilmaydi, lekin anglatiladi. Hikoya orqali o`sha davrdagi irqiy ziddiyat, ijtimoiy adolatsizlik va zo`ravonlik ko`rsatib berilgan.

“She was crying quietly and steadily into her handkerchief, the handkerchief damp and wadded in her palm. The other women made clucking sounds of commiseration.”(Dry September) Voqea fojiali, lekin jamiyat haqiqiy dardga loqayd.Yig`layotgan ayolning og`rig`iga jamiyat faqat tashqi reaksiyalar bilan

javob berardi- chuqur tushunush yoki harakat yo`q. Folkner sukut orqali ijtimoiy aybni fosh qiladi.

"Maybe nothing ever happens once and is finished. Maybe happen is never once but like ripples."(Absalom, Absalom!) Tarixiy zulm-irqchilik, urush- bir marta sodir bo`lib tugamaydi.
U avloddan avlodga o`tadigan og`riqdir. Irqiy fojealar hozirgi avlodga qanday ta`sir qilishini ko`rsatadi.

"She told them that her father was not dead. She did that for three days, with the ministers calling on her, and he doctors, trying to persuade her to let them dispose of the body." Otasi vafot etgan b`olsa ham, Emily uni o`z hayotidan chiqara olmaydi. Folkner bu yerda patriarxatning ayol ruhiyatiga ta`sirini ochadi.

"That evening Sun" asaridagi Nancy obrazida yosh qora tanli xizmatkor. Uning hayoti doimiy tahdid ostida- irqiy zo`ravonlik, jamiyat beparvoligi va ruhiy beqarorlik. Hikoya qora tanlilar xavfsizligi va jamiyatning ularni himoya qilmasligi haqida. Folkner qora tanli ayollarni ko`pincha quyi ijtimoiy tabaqa vakillari sifatida tasvirlasada, ular axloqiy barqarorlik, insoniylik timsoli va ma`naviyat uyg`otuvchilari bo`lib chiqadi.Folkner faqat tashqi qiyofa bilan yashash
(surface and reality) mavzusini ham ilgari suradi. "A Rose for Emily"da bu mavzu to`liq
tasvirlanadi-tashqi hurmat ortida odam o`ldirish va ruhiy qulash yotadi.Bolallik va yo`qotish hissi ya`ni Folknerning ko`p asarlarida bolalik ifloslashgan va ma`naviy jarohatlanish joyi sifatida tasvirlanadi. U bolalar orqali kattalar dunyosining g`araz va zo`ravonliklarini fosh qiladi.Harold Bloom Folknerning ayollar obraziga tanqidiy yondashadi. Uning fikricha, Folkner ayol jinsini ko`pincha o`lim bilan bog`laydi va bu uning asarlarida ayollar va onalar ro`lini cheklaydi. Bloom bu yondashuvni "ayol jinsiga nisbatan o`lim bilan bog`liq qarash" deb ataydi va bu Folknerning eng kuchli asarlarida ham mavjudligini ta`kidlaydi. "As I Lay Dying" asaridagi Addie Bundren- o`lik bo`lsada, roman voqealarini harakatga keltiradi. Bloom nazarida Folknerning asosiy mavzulari:

- Meros va tarixiy xotira: Folkner Janub tarixini unutishga harakat qilmaydi, aksincha, uni o`z asarlarida doimiy eslatma sifatida ishlatadi.
- Oila va buzuqlik: "Absalom, Absalom!" va "The Sound and the Fury"da oilaviy buzilishlar va axloqiy inqirozlar markazda bo`ladi.
- Ichki monolog va subyektivlik: Bloom Folknerning ichki monolog uslubini joy-joyida iqtiboslar bilan ko`rsatadi- bu uslub Bloom nazarida Folknerning modernist yozuvchi sifatida alohida o`ringa qo`yadi.
- Irqchilik: Bloom Folknerni irqchilikni tasvirlash usulini tan oladi, lekin ba`zida u bu masalalarni " hali ham oq markazli" yondashuv bilan ko`rsatadi deb tanqid qiladi.

"As I Lay Dying" romanida patriarxal jamiyat yaqqol ko`zga tashlanadi.Ayol obrazlarning jamiyatda ro`li bo`lmasligi va uning erkinlikka intilishi, lekin oxir-oqibat ijtimoiy bosim va oilaviy qarama-qarshilik tufayli tushkunlikka tushishi tasvirlanadi.

Tennessee Williamsning “ A Streetcar named Desire” asarida Blanche Dubois obrazida ayolning zaifligi,erkakalar hukmron dunyoda o`z o`rnini yo`qotishi va zo`ravonlik qurboni bo`lishi orqali gender tengsizligi ochiladi. “Cat on a Hot Tin Roof” asarida oila ichidagi sirlar, repressiya qilingan jinsiylik va mulk atrofidagi ziddiyatlar orqali jamiyatning axloqiy inqirozi ya`ni ijtimoiy yemirilishi ifodalanadi.

Zora Neale Hurston (garchi afroamerikalik adabiyotda ko`proq so`z yuritilsada, janubiy kontekstda ham muhim). “Their Eyes were Watching God” asarida Janie Crawfordning turmushlari orqali u genderga asoslangan kuch va sukunat muammolari bilan kurashadi. Janie asta-sekin o`z ovozini topadi-bu ayol erkinligi va shaxsiy identitet mavzulariga ham bog`liq bo`la oladi.

Ko`plab asarlarda Janub din bilan yog`rilgan mintaqa sifatida tasvirlanadi, lekin yozuvchilar diniy e`tiqod bilan amaldagi axloqiy buzilish o`rtasidagi farqni ochib beradi.

Flannery O`Connorning “Wise Blood” asarida bu mavzu chuqur ochiladi-personajlar dinga bog`langan, lekin ruhiy jihatdan yo`qotilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda Janub Renessansi davrinining asosiy mavzularini o`rganish, ularning muhimliligini hayotga tatbiq qilish davr adabiyotini yanada rivojlantiradi va yangi avlod o`quvchilariga tanitadi. Tarixiy ma`lumotlar o`sha davr hayotining qanday kechganligi haqida tayyor hujjat vazifasini bajaradi. Ushbu davr yozuvchilari nafaqat janubiy jamiyatning o`ziga xosliklarini namoyon etdilar, balki insoniyatning eng dolzarb muammolarini ko`tarib jahon adabiyotiga ulkan hissa qo`shdilar.

Irqchilik, jinsiy tengsizlik,ijtimoiy ziddiyatlar ma`naviy inqirozlarning asarlarda yoritib berilishi orqali shu tizimning qanchalik nohaqlik va zo`ravonlikka olib kelishini ko`rsatib berishgan va uni tanqid qilishga harakat qilishgan. Bu muammolar nafaqat o`sha davrda va o`sha mintaqada bo`lmagan, hozirgi vaqtda bizning ko`z ongimizda ham ro`y beryapti. Asarlarni o`qish va uning g`oyalarini tafakkur qilish orqali zamonimizdagi qaysidir qonunbuzarliklar, axloqiy muammolarni oldini olgan bo`lamiz. O`quvchi o`sha davr va hozirgi davrning ijtimoiy va ma`naviy qarama-qarshililarini taqqoslaydi, hozirgi zamonimizning tinchligiga, ayollarga berilayotgan e`tiborning o`sib borayotganligiga shukrona aytadi.

Adabiyotlar:

1. Cuddon, J.A.A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory
2. Matthiessen,F.O. American Renaissance: Art and Expression in the Age of Emerson and Whitman
3. Faulker, William. Collected stories (Vintage international,1995)
4. Lahr, John. Tennessee Williams: Mad Pilgrimage of the Flesh
5. JSTOR. Project Muse kabi akademik platformalardan Janubiy Renessans va adiblar haqida maqolalar.
6. Bloom, Harold, ed. William Faulkner. Chelsea House Publishers, 2004

Abdulhamid Cho`lpon va Shavkat Rahmon she`riyatida ramzlar tahlili.

Olimjonova Nozimaxon Erkin qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-bosqich magistranti
nozima.olimjonova02@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqola o`zbek adabiyotining ikki yirik vakili Abdulhamid Cho`lpon va Shavkat Rahmon ijodidagi ramzlarning badiiy tahliliga bag'ishlangan. Maqolada har ikki shoir ijodidagi ramzlar turli she'rlar asosida tahlil qilinadi. Ramzlarning badiiy funksiyasi, mazmuni va ularning shoirlar fikrini obrazli ifodalashdagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Cho'lpon ramzlar orqali milliy uyg'onish va ozodlik g'oyasini, Shavkat Rahmon esa ichki dunyo, ruhiy iztirob va mavjudlik haqida falsafiy fikrlarni ifodalagan.
**Kalit so`zlar**: Cho`lpon, Sh.Rahmon, ramzlar, milliy uyg`onish, ichki dunyo.
Abstract
This article is devoted to the literary analysis of symbols in the works of two prominent figures of Uzbek literature — Abdulhamid Cho'lpon and Shavkat Rakhmon. The article explores various symbols in their poetry through selected examples. It highlights the artistic function, semantic meaning, and the role of symbols in conveying the poets' ideas in an imaginative way poetry. The research findings show that Cho'lpon used symbolic imagery to express ideas of national awakening and freedom, while Shavkat Rahmon employed symbolism to explore inner emotional turmoil and philosophical reflections on existence.
Key words: Cho`lpon, Sh.Rakhmon, symbols, national awakening, inner emotions.
Аннотация
Настоящая статья посвящена художественному анализу символов в творчестве двух выдающихся представителей узбекской литературы — Абдулхамида Чулпона и Шавката Рахмона. В статье рассматриваются различные символы в их поэтических произведениях на основе анализа отдельных стихотворений. Особое внимание уделяется художественной функции символов, их смысловой нагрузке и роли в образной передаче авторской мысли. Результаты исследования показывают, что Чулпон использовал символы для выражения идей национального пробуждения и свободы, в то время как Шавкат Рахмон — для передачи внутреннего мира, душевных переживаний и философских размышлений о бытии.
Ключевые слова: Чулпон, Ш. Рахмон, символы, национальное пробуждение, внутренний мир.

O'zbek adabiyoti tarixida ramzlar vositasida ichki va ijtimoiy kechinmalarni ifoda etgan shoirlar orasida Cho'lpon va Shavkat Rahmon alohida o'rin egallaydi. Ularning she'riyati chuqur ramziy ma'no, estetik teranlik va falsafiy

mushohadalarga boy bo‘lib, o‘quvchini nafaqat badiiy go‘zallik, balki ichki ruhiy olam bilan yuzlashtiradi.

Cho‘lpon o‘z davrida mustamlakachilik sharoitida yashab ijod qilgan bo‘lsa, Shavkat Rahmon mustaqillik arafasi va undan keyingi davrda o‘zining individual ruhiy izlanishlari bilan tanilgan. Ikkala shoir ijodida ramzlar orqali ifodalangan mavzular — ozodlik, yolg‘izlik, sevgi, ma’naviy iztirob — o‘zaro bog‘liq bo‘lishi bilan birga, davr va shaxsiyat ta’sirida o‘ziga xos tus oladi.

Ushbu maqola Cho‘lpon va Shavkat Rahmon she’rlaridagi ramzlarning poetik funksiyasini qiyosiy tahlil qilishga, ularning qanday badiiy maqsadlarda qo‘llanilishini aniqlashga qaratiladi.

Avvalo, badiiy adabiyotdagi ramz tushunchasini tahlil qilaylik. Ramz (arab. Ishora qilmoq), (badiiy adabiyotda) voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridan hisoblanadi. Badiiy ijodda ramz uch xil shaklda: asar qahramonlari, predmetlari yoki hodisalari orqali ifodalanadi. Masalan, Jorj Oruelning “Hayvonlar fermasi” asarida hayvonlar asosiy ramzlar ya`ni inson jamiyatining turli tabaqalarini ramziy ifodalab keladi.

O`zbek mumtoz adabiyotida ramziy tasvirlardan juda keng qo`llaniladi, jumladan, mustamlaka yillarining eng og`ir davrida yashab, ijod qilgan, o`z milliy g`oyalarini oshkora ifoda etishga imkoni bo`lmagan, Cho`lpon she`riyatida ramzlar muhim rol o`ynaydi. Uning she`rlarida turli xil ramzlar orqali ozodlik, milliy uyg`onish, xalq dardi va orzulari badiiy ifoda etilgan. Masalan, shoirning eng mashxur she`rlaridan biri “Go`zal” she`rini olaylik. “…Men suygan “suyukli” shunchalar go`zal, Oydan-da go`zaldir, kundan-da go`zal!..”

Mazkur she`rda markaziy obraz sifatida tasvirlangan ayol timsoli aslida Vatan, ozodlik, millat ramzidir. Shoir unga oshiq bo‘lgan erkak orqali xalqning erkinlikka intilishini, ozod Vatanga bo‘lgan sog‘inchini ifodalaydi. Go‘zallikka tashna ko‘zlar orqaligina emas, balki yurakdagi orzu-umidlar orqali ham shoirning ramziy ma’nosi chuqurlashadi. Shoirning yana bir ko`ngillarga yaqin “Bahorni sog`indim” nomli she`ri ham o`ziga xos go`zal, badiiy ramzlar bilan boyitilgan.

Bahorni sog`indim, bahorni…
Ko`rganda yerlar, olamlar to`la qorni.
Qor… qor…
Zaharli ninalar kabi
Ko`zlarga qarab oqar…
Qaydasan, qaydasan
Latif siynalar kabi
Dillarga singgan bahor?!

She’rda qish — zulm va umidsizlik, bahor esa ozodlik va yasharish ramzlari sifatida tasvirlanadi. Shoir bahorni sog‘inib, aslida o‘z yurtining erkin kelajagini orzu qiladi. Bu ramzlar orqali Cho‘lpon jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga badiiy munosabat bildiradi.

“*Cho‘lponning ijodida quyosh ramziy obraz sifatida davrning og‘riqli nuqtalarini, shoir qalbini o‘rtagan millat, xalq taqdiri bilan bog‘liq siyosiy muammolar talqini uchun buysundirilgan. Cho‘lpon mumtoz adabiyotning*

o‘lmas an’analaridan, ohang va obrazlaridan mohirona foydalandi. Mumtoz she’riyatdagi yetakchi bo‘lgan ishq mavzusining Cho‘lpon lirikasida ma’no qirralari kengaydi. Buni shoirning mashhur “Qalandar ishqi” she’rida ham ko‘rishimiz mumkin. G‘azal ma’tasida quyosh ramzi ijtimoiy muammolarning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.”[80]

Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

Ushbu baytdagi Quyosh obrazi turli talqin qilinadi. Jumladan, adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov oshiq sevgan yorini quyoshga qiyoslagan deya an`anaviy qarashlarga tayangan.

Xuddi shu baytni adabiyotshunos olim D.Quronov ham o`zining ilmiy ishlarida tahlil qiladi. “... *maqta’dagi shoir taxallusining asl ma’nosi ramziy ma’noga ishora qiladi, muhabbat osmonidagi yulduz quyosh chiqishi bilan so‘nishga majbur bo‘ldiki, bu bilan Oktyabr inqilobining mustaqillik uchun kurash payini qirqqaniga ishora qilinayotir*”[81].5 Bundan xulosa qilish mumkinki, shoirning ushbu bir bayti ham zohiriy, ham botiniy ma`nolariga ega.

Shavkat Rahmon — XX asr oxiri va XXI asr boshidagi o‘zbek she’riyatining eng chuqur tafakkur egalari sirasiga kiradi. Uning she’rlarida inson ruhiyati, hayot falsafasi, vaqt, yolg‘izlik kabi mavzular chuqur ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shavkat Rahmon ramzlarni tashqi ijtimoiy holatdan ko‘ra ko‘proq ichki kechinma va falsafiy o‘ylarni berish uchun ishlatadi. Shoirning o`zi “Shoirlik kasb emas, she`r ham botmon-botmon yozilavermaydi, yozilish sababi bor, vaqti-soati bor. She`r buyuk sevinchdan yoki buyuk fojiadan dunyoga keladi, tanholikda yaraladi, tanholikda o`qiladi” – deb aytadi. Shavkat Rahmon ijodining gullagan davri eng og`ir kunlarga – mustabid Sho`ro tuzumining so`nggi yillariga to`g`ri keladi, Buning oqibatida she`riyatda, xususan, Shavkat Rahmon ijodida ijtimoiy mavzuning muhimroq o`ringa chiqqanini ko`rishimiz mumkin.

Ma`lumki, har qanday hayot hodisasi, inson qalbiga doir har qanaqa fikr-tuyg`u she`riyatda obraz orqali, bevosita obrazli tilda aksini topadi. Shavkat Rahmon ham o`z she`rlariga tabiat bag`ridan go`zal va betakror timsollar tanlab oladi. Shoir she`riyatida tog` - shoirning yuksalib ketgan ruhiy qalbi, ruhining iztirob-u quvonchlarini ifodalashga vosita bo`lish bilan bir qatorda Vatan sevgisini ham bildiradi. U juda ko`p she`rlarida tog`larga murojaat qiladi.

Tog` xo`rsinib yubordi og`ir-
Vodiylarga yugurdi shamol,
Yuzlarini yashirdi hilol.
Tog` xo`rsinib yubordi og`ir,
Teran xobdan uyg`ondi yurak,
Tog`lar kabi xo`rsinmoq kerak.

Tadqiqotchi D.Mingboyeva tog‘ obrazining badiiy adabiyotdagi mazmun mohiyatiga berilgan tavsiflarni keltiradi: “…Tog‘ yuksalish g‘oyasining mujassamidir”, “Tog‘larga sig‘inishning ruhiy ildizlari ularning osmonga

[80] Ismatova Mohigul. Cho`lpon she`riyatida ramzlar. International scientific journal “Modern science and research”
[81] .D.Quronov. “Cho`lpon hayoti va ijodiy merosi” T.,O`qituvchi. 1997.-B36

yaqinligi", "She'riyatda tog' ba'zan mag'rur va sabotli odam obrazi bo'lib keladi" Darhaqiqat, tog`lardagi salobat, mag`rurlik va ulug`vorlik shoir she`rlarida o`z aksini topgan.

Zamon har doim ham shoirning ko`nglidagi gaplarni ochiq aytishga imkon bermagani tufayli, Sh.Rahmon o`z she`rlarida chechaklar-u giyohlardan, toshlarning gullashiyu, yulduzlarning qulashidan ajib ramziy obrazlar yaratib majoziy ifodalarga aylantirdi.:

Tosh ham gullarmi deb,
Minglab kaltabin
Gurzisin do`layib yig`ilgan paytda,
Mardona iljayib, ko`rasiz, dedim,
Bir kun gullaydi bu tosh, albatta.

Shoirning "Mavzu" deb nomlangan she`ri ham insonni chuqur fikr yuritishga majbur qiladi. She`rda yurak alohida ramziy ifoda bo`lib keladi, shoir yurakni daraxt timsolida gavdalantiradi.

Xotiramdan chiqmaydi dushman,
Har zarbadan g'oyo barq urar.
Potirlaydi bag'rimda qushday
Ildizlari qirqilgan yurak…

She'r boshida bolta ramziy obrazi berilgan, bu obraz sho'ro davlati ramzini o'zida mujassam etgan. Bolta yurakning ildizlarini qirqqan. U "Potirlaydi bag'rimda qushday" deydi shoir. Demak jon berayotgan yurak timsoli. Shoir bu ramziy obrazlar orqali erksizlikni, Vatani dushman qo'lida ekanini ayta olgan. Bunday holatda ramziy obrazlar fikr aytishning eng qulay yo'lidir. Shoir eng zarur gapni ayta olgan ham, Cho'lponlar fojiasidan saboq olgan shoir o'zini sho'ro davlati tazyiqidan himoya qila olgan ham.

Shavkat Rahmon inson muhabbtining eng toza sarhadlari, iroda kuchining yuksak darajalarida, INSON yashashi mumkin bo`lgan eng baland pardalarda yashadi va dunyoni yuksak o`lchovlar bilan o`lchadi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon va Shavkat Rahmon o'zbek she'riyatida ramzlar orqali chuqur mazmun yaratgan shoirlardir. Ular ramzlar yordamida o'z davrining og'riqlari, orzulari yoki ichki dunyosini obrazli ifodalashgan. Bu maqola shuni ko'rsatadiki, ramzlar — oddiy so'zlardan ham kuchliroq bo'lib, ular orqali katta ma'naviy va hissiy yuk berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon, "she`rlar, hikoyalar, she`riy va nasriy tarjimalar". "Zabarjad Media", 2022-yil.
2. Shavkat Rahmon "Zulfiqor Ruh" she`rlar. "Anorbooks" nashriyoti. 2023-yil.
3. "Shavkat Rahmon she`riyatida obrazlarning tasnifi". Orzigul Aliyeva.

CHARLZ DIKKENS ASARLARIDA AXLOQIY MAVZULAR TAHLILI

Mirsadullaev Miravaz Mirmuslim o‘g‘li
Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi,
NamDU tayanch doktoranti

Abstract:

This article analyzes the role and artistic representation of moral themes in the works of Charles Dickens. The research findings indicate that Dickens's novels emphasize core ideas such as social justice, humanism, and moral values. In particular, *Oliver Twist* highlights the violence of child labor, while *A Tale of Two Cities* addresses themes of self-sacrifice and respect for human dignity. Through character analysis, the author reveals moral choices and societal ethical crises. Using literary quotations and specific examples, the article explores the educational and spiritual impact of Dickens’s work. Additionally, by referencing the views of both British and Uzbek literary scholars, the study substantiates the continued relevance of Dickens’s works in the modern era.

Charlz Dikkens (1812–1870) ingliz adabiyotining eng mashhur va ta’sirli yozuvchilaridan biri bo‘lib, uning nomi 19-asr Viktoriya davri madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq. U adabiyot orqali jamiyatdagi chuqur ijtimoiy muammolarni ochib berishga muvaffaq bo‘lgan ijodkordir. Dikkens romanlarining o‘ziga xosligi shundaki, u hayotiy voqealarni realistik tasvirlagan holda, o‘quvchini axloqiy o‘y va mulohazalarga undaydi. Aynan shu jihatlar uning asarlarini zamonaviy adabiy va pedagogik tadqiqotlar uchun dolzarb mavzuga aylantirmoqda.

Charlz Dikkensning asarlarida axloqiy masalalar markaziy o‘rin egallaydi. U insoniy adolat, mehr-shafqat, saxiylik, taqdir sinovlariga chidamli bo‘lish kabi qadriyatlarni yoritib, o‘z davrining ijtimoiy tengsizliklari, iqtisodiy adolatsizliklari va mehnatkash sinfning og‘ir hayotini fosh etgan. Uning “Oliver Tvist”, “David Kopperfild”, “Ikki shahar haqida rivoyat” kabi romanlari axloqiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinsa, jamiyatda adolat, inson qadr-qimmati, va shaxsiy erkinlik kabi tushunchalarning qanday talqin etilganini chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi.

Dikkens o‘z asarlari orqali nafaqat ko‘ngilochar syujet yaratishga, balki jamiyatni axloqiy o‘zgarishga da’vat etishga intilgan. U personajlar xarakterini tasvirlashda ularning ichki dunyosi, axloqiy pozitsiyasi va qarorlarining ijtimoiy oqibatlariga alohida e’tibor qaratgan.[4, p. 66] Bu jihatlar Dikkens asarlarini adabiy tahlil qilishda axloqiy-falsafiy metodikani qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada Charlz Dikkensning mashhur romanlari asosida axloqiy mavzularning tahlili beriladi. Unda adolat, aybsizlik, axloqiy tanlov, kambag‘allik va boylik, yetim bolalar taqdiri kabi motivlar qanday yoritilganiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, Dikkens qahramonlarining axloqiy shakllanish jarayoni, ularning jamiyatdagi o‘rni va insoniy qadriyatlar bilan o‘zaro munosabatlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlil adabiyotni o‘qitishda axloqiy-falsafiy yondashuvning dolzarbligini asoslashga ham xizmat qiladi.

“Oliver Tvist” romanida axloqiy mujda

Charlz Dikkensning *“Oliver Tvist”* romani 19-asr ingliz jamiyatining ijtimoiy muammolarini, ayniqsa kambag‘allik, bolalar ekspluatatsiyasi va jinoyatchilik muhitining kuchayishini ochib beruvchi chuqur axloqiy-falsafiy asardir. Bu asarda muallif o‘zining axloqiy pozitsiyasini ochiq bayon qilib, yosh qahramon – Oliver obrazida insoniy poklik, qat’iyat va ichki ezgulik timsolini yaratgan.

Oliver o‘zining hayoti davomida qator ijtimoiy sinovlarga duch keladi. U tug‘ilganidan boshlab nochorlik, ochlik, zulm va e’tiborsizlik muhitida yashaydi. Ammo shunga qaramay, Dikkens Oliverni axloqiy jihatdan buzilmagan, or-nomusini saqlab qolgan bola sifatida tasvirlaydi. Bu, avvalo, asarning asosiy g‘oyasi – ***inson axloqi sharoit qanday bo‘lmasin, saqlanib qolishi mumkin*** – degan mujda bilan bog‘liq.

Roman boshida, yetimxona sharoitida Oliverning eng mashhur iqtiboslaridan biri — *“Please, sir, I want some more”* [1, p. 25] — aynan uning o‘zining insoniy qadriyatlari, ochlik va tahqirga qaramay, ichki jasorati va or-nomusini namoyon etadi. Bu oddiy so‘zlarda Dikkens o‘quvchiga katta axloqiy mazmunni yuklaydi: ***Oliver qashshoqlikdan so‘ngan emas, balki axloqiy jasorat bilan tiriklikni talab qilmoqda.***

Roman davomida *Oliver Fagin, Bill Sykes* kabi jinoyatchilar bilan to‘qnashadi, ammo u hech qachon ularning ta’siriga tushmaydi. Bu yerda muhim axloqiy qarama-qarshilik mavjud: jamiyat kambag‘allarni jinoyatga boshlasa-da, odam o‘z tanloviga mas’uldir. Dikkens aynan Oliver obrazida ***axloqiy tanlov erkinligi*** g‘oyasini ilgari suradi. Fagin va Sykes – jamiyatning axloqsiz va yovuz qatlamining vakili bo‘lsa, Oliver – insoniyatning umidini va pokligini aks ettiruvchi qahramondir.

Bundan tashqari, Dikkens roman davomida axloqiy poklikni nafaqat individual, balki ijtimoiy o‘lchamda ham ko‘rsatadi. Misol uchun, janob Brownlow obrazida jamiyatning halol, insonparvar va adolatli vakili aks ettiriladi. U Oliverga yordam qo‘lini cho‘zadi, himoya qiladi va uni o‘z oila doirasiga qabul qiladi. Bu orqali muallif ***axloqiy qadriyatlar jamiyat asosiga aylanishi kerak*** degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, roman viktoriyalik “Workhouse” tizimini ham tanqid ostiga oladi. Ushbu tizim kambag‘allarni emas, balki ularning axloqiy izzatini bostirishni maqsad qilgan edi. Dikkens Oliver orqali bu tizimning notog‘riligini ko‘rsatib, axloqiy adolat va inson sha’nini himoya qilish g‘oyasini ilgari suradi.

Shunday qilib, *“Oliver Tvist”* romanida Dikkens axloqiy poklikni murakkab va zolim ijtimoiy sharoitlarda ham saqlab qolish mumkinligini isbotlaydi. Bu asarda inson axloqiyati hayotda eng muhim qadriyat sifatida ko‘rsatiladi. Oliverning o‘z e’tiqodi va pokligini saqlab qolishi, o‘quvchiga hayotiy saboq beradi – ***qaysi sharoitda bo‘lmasin, ezgulik va adolatdan voz kechmaslik kerak***.

“David Kopperfild” romanida axloqiy-falsafiy g‘oyalar

Charlz Dikkensning *“David Copperfield”* romani muallifning avtobiografik jihatdan eng yaqin bo‘lgan asarlaridan biri bo‘lib, unda inson hayoti davomida axloqiy shakllanish, yetilish, shaxsiy o‘sish va hayotiy tanlovlar muhim o‘rin

egallaydi. [2] Roman qahramoni Devidning hayotiy yo‘li orqali Dikkens axloqiy jihatdan yetuk inson qanday shakllanishini chuqur va ta’sirli tarzda ko‘rsatadi.

Asarda bosh qahramon Devid Kopperfild og‘ir bolalik, mehrsiz o‘gay ota va maktabdagi tahqirlardan boshlab, hayotda o‘z o‘rnini topish sari kurashadi. Uning shaxsiy rivojlanish jarayoni orqali Dikkens ***axloqiy yetuklik, mehnatsevarlik va shaxsiy mas’uliyat*** kabi qadriyatlarni ilgari suradi. Devid hayotda turli to‘siqlarga duch keladi, biroq u har safar axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lni tanlashga harakat qiladi.

Roman davomida ko‘plab axloqiy obrazlar va kontrastli xarakterlar uchraydi. Masalan, ***Jeyms Stierfort*** va ***Urayya Xip*** kabi personajlar o‘zlarining riyokorligi, manfaatparastligi va yolg‘onchiligi bilan axloqiy inqiroz timsollari bo‘lsa, ***Agnes*** – mehr, sadoqat va poklik timsolidir. Dikkens bu orqali o‘quvchini hayotda kimga ergashish va kimdan o‘zini tiyish kerakligi haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Devidning ruhiy o‘sishi uning hayotiy tanlovlari bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, u hayotda sevgi, sadoqat, do‘stlik va mehnatsevarlikni qadrlashni o‘rganadi. Bu jihatlar Dikkens uchun axloqiy yetuklik mezoni sifatida talqin etiladi. Devidning Agnes bilan bo‘lgan munosabati — chinakam axloqiy va ruhiy uyg‘unlikning namunasidir.

Roman axloqiy-falsafiy yondashuv nuqtayi nazaridan, inson o‘zining taqdirini axloqiy tanlovlar orqali shakllantirishi mumkin degan fikrni ilgari suradi. Dikkens bu orqali o‘quvchiga shunday xabar yetkazadi: ***inson o‘zining axloqiy yo‘nalishini tanlashga mas’uldir va bu tanlov uning kim bo‘lishini belgilaydi***.

“David Copperfield” shunchaki bir hayot tarixchasi emas, balki axloqiy saboqlar maktabidir. Unda Dikkens insoniylik, poklik, samimiylik va haqiqatga sadoqatni asosiy axloqiy ustunliklar sifatida ko‘rsatadi.

“Ikki shahar haqida rivoyat” romanida axloqiy-falsafiy yondashuv

Charlz Dikkensning *“A Tale of Two Cities”* asari Fransuz inqilobi fonida insoniyat tarixining eng murakkab axloqiy muammolarini yorituvchi roman hisoblanadi. Asarda nafaqat tarixiy voqealar tasviri, balki insoniy axloq, o‘zini qurbon qilish, adolat va kechirim kabi falsafiy tushunchalar chuqur ochib berilgan.

Roman qahramonlaridan ***Sidney Carton*** obrazi ayniqsa axloqiy-falsafiy nuqtayi nazardan diqqatga sazovor. Dastlab ichkilikka mukkasidan ketgan, o‘z hayotini ma’nosiz deb hisoblovchi bu inson, roman so‘nggida boshqalar baxti uchun o‘zini fido qiladi. U *Lucie Manett*ni chin dildan sevsa-da, o‘z sevgisini qurbon qilib, uning baxti uchun kurashadi. Cartonning mashhur so‘zlari — *“It is a far, far better thing that I do, than I have ever done...”* [3, p. 412] — insoniy yuksalish, axloqiy poklanish va o‘z hayotini ma’naviy maqsad yo‘lida qurbon qilish falsafasini aks ettiradi.

Roman davomida ***inqilob, zo‘ravonlik va adolat*** kabi tushunchalar o‘rtasida murakkab dialektika yotadi. Dikkens bu orqali inqilobning haqli asoslari bo‘lishiga qaramay, adolatsizlikka adolatsizlik bilan javob berish yangi axloqiy muammolarni tug‘dirishini ko‘rsatadi. ***Madame Defarge*** obrazida adolat niqobidagi shafqatsizlik

tanqid qilinadi, ***Dr. Manette*** va ***Charles Darnay*** kabi obrazlar esa insoniy poklik, o‘tmish bilan kurash va kechirim timsollaridir.

Bu roman axloqiy-falsafiy yondashuv asosida o‘rganilganda, inson qanchalik murakkab tarixiy va siyosiy jarayonlarga duch kelmasin, uning axloqiy tanlovi va ichki qadriyatlari ustun turishini ko‘rsatadi. Cartonning o‘zini qurbon qilishi orqali Dikkens insonda chuqur axloqiy yuksalish imkoniyati mavjudligini isbotlaydi.

Xulosa. Charlz Dikkensning *“Oliver Tvist”*, *“David Kopperfild”* va *“A Tale of Two Cities”* romanlarida axloqiy-falsafiy g‘oyalar markaziy o‘rin egallaydi. Muallif insoniy poklik, adolat, mehr-shafqat, axloqiy tanlov va o‘zini qurbon qilish kabi qadriyatlarni turli tarixiy va ijtimoiy kontekstlarda tasvirlaydi. [5, p. 213] Oliver hayot sinovlariga qaramay pok qalbini saqlaydi; David o‘zining axloqiy o‘sishi orqali yetuk shaxsga aylanadi; Carton esa insoniy fidoiylikning eng yuksak darajasini namoyon etadi.

Ushbu asarlar nafaqat adabiy-estetik jihatdan ahamiyatga ega, balki o‘quvchilarni axloqiy mulohaza yuritishga, murakkab tanlovlar mohiyatini anglashga va insoniy qadriyatlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Dikkens asarlari, axloqiy-falsafiy yondashuv asosida o‘qitilganda, talabalar ongida axloqiy tafakkur, hamdardlik va ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dikkens, C. *Oliver Twist*. London: Richard Bentley. 1838.
2. Dikkens, C. *David Copperfield*. London: Chapman & Hall. 1843.
3. Dikkens, C. *A Tale of two cities*. London: Bradbury & Evans. 1854.
4. Mirvaliyev, A. *Ingliz romanida realizm an’analari*. Toshkent: Fan. 2010.
5. Qosimov, B. *G‘arb adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2005.

ALLAN SILLITOU VA SID CHAPLINNING HAYOT VA IJOD YO’LLARI

Dadaxonova O’g’iloy Xasanboy qizi
NamDCHTI magistranti 1-kurs talabasi
E-mail: dadaxonova15@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz adabiyotining 20-asr o‘rtalari va ikkinchi yarmida faoliyat yuritgan, “ishchi guruh” adabiy romanchiligining yorqin vakillari bo‘lgan Allan Sillitoe va Sid Chaplinning hayoti hamda ijodiy faoliyati chuqur tahlil etiladi. Asosiy e’tibor ularning asarlarida aks etgan sanoatlashgan jamiyatdagi ishchi sinf vakillarining ijtimoiy-ma’naviy holati, shaxsiy erkinlik uchun kurash va realistik ifoda vositalariga qaratilgan. Shuningdek, yozuvchilarning adabiy uslubi, mavzu tanlovi va ularning ingliz realizmi rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda o‘rganiladi.

Kalit sózlar: Allan Sillitou, Sid Chaplin, hayot yóli, ijodiy faoliyat, Angliya adabiyoti, realizm, ishchi sinf adabiyoti, yangi avlod yozuvchilari, ijtimoiy tanqid, roman va hikoyalar.

Annotatsion:

This article provides an in-depth analysis of the lives and creative trajectories of Allan Sillitoe and Sid Chaplin, prominent representatives of the mid-20th century English literary novels known as the “Working class” The study focuses on the depiction of the working class in an industrialized society, the struggle for personal freedom, and the use of realist narrative techniques in their works. It also examines their thematic choices, stylistic features, and their contributions to the development of English literary realism from a scholarly perspective.

Key words: Allan Sillitou, Sid Chaplin, life path, creative activity, English literature, realism, working-class literature, new generation writers, social criticism, novels and short stories

Аннотация:

В данной статье проводится углублённый анализ жизненного пути и творческой деятельности Аллана Силлитоу и Сида Чаплина — выдающихся представителей английского литературного течения середины XX века, известного как «рабочий класс». Основное внимание уделяется изображению положения рабочего класса в индустриальном обществе, теме борьбы за личную свободу, а также реалистическим художественным приёмам, использованным в их произведениях. Кроме того, рассматриваются их литературный стиль, тематические предпочтения и вклад в развитие английского реализма.

Ключевые слова: Аллан Силлитоу, Сид Чаплин, жизненный путь, творческая деятельность, Английская литература, реализм, литература рабочего класса, писатели нового поколения, социальная критика.

Allan Sillitou (1928-2010) va Sid Chaplin (1916-1986) 20-asr o‘rtalaridagi Britaniya adabiyotining muhim namoyandalari bo‘lib, ular ko‘pincha "ishchi sinfi yozuvchilari" harakatining vakillari sifatida e’tirof etiladi. Ikkalasi ham Angliyaning sanoatlashgan hududlaridan kelib chiqqan va o‘z asarlarida oddiy odamlarning hayotini, ularning kundalik muammolarini, orzu va umidlarini, shuningdek, jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvini aks ettirgan. Ularning ijodi Britaniya adabiyotida yangi sahifa ochib, ilgari kam e’tibor berilgan mavzular va qahramonlarni markazga olib chiqqan. Ushbu maqolamizda biz ularning hayot yo‘llarini, ijodini, asarlarining asosiy mavzularini va Britaniya adabiyotidagi o‘rnini ko‘rib chiqamiz.

Allan Sillitou va Sid Chaplinning ijodi Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Britaniya jamiyatida jiddiy ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berayotgan edi. An’anaviy sanoat tarmoqlari tanazzulga yuz tutayotgan, ishchi sinfi turmush tarzi o‘zgarayotgan edi. Adabiyotda esa yangi avlod yozuvchilari, jumladan, "g‘azablangan yoshlar" (Angry Young Men) nomi bilan tanilgan guruh paydo bo‘lgan edi. Sillitou ko‘pincha shu guruh bilan

bog‘lanadi, Chaplin esa undan biroz kattaroq va o‘ziga xos yo‘nalishga ega bo‘lgan. Ikkala yozuvchi ham o‘z asarlarida ijtimoiy realizmga tayanib, ishchi sinfining haqqoniy va jonli obrazini yaratishga intilgan.

"Allan Sillitoe 1928-yilning 4-martida Notingem shahrining chekkasidagi qizil g‘ishtli konsullik uyida tug‘ilgan. Uning otasi odatda savodsiz ishshiz va ba’zida kon zavodida ishchi bo‘lgan. Hayotining dastlabki yillarida “Sovutsiz hayot” (Life without armour) nomli mamlakatning ichki tajovuzkorligi yo‘g‘rilgan va qashshoqlik ko‘rsatilgan avtobiografik asarini yozgan. Sillitoening ona tomonidan bobosi ham savodsiz temirchi bo‘lgan. Biroq bobosining uyida muallifning kitobga va o‘qishda bo‘lgan mehri rivojlangan. Bolalik yillarida Sillitoe asosan hafta oxirini va maktab ta’tillarini shahar chetidagi uylarida o‘tkazardi. Burtonning bolalari “Sokin sig‘im” nomli uy kolleksiyasidan yakshanbalik maktab mukofoti sifatida shisha qirrali jamadon qabul qilishardi. Sillitoe “Tog‘lar va g‘orlar” asarida “Men hech qachon bir uyda shunchalar ko‘p kitob ko‘rmaganman” deb tan oladi. Uning buvisi Mari Anna keyinchalik uni grammatika maktabi uchun imtihon topshirishga undaydi va unga bu do‘kondan eski kitob beradi.

Sillitoe maktabni 14 yoshida tark etdi va Nottingemdagi ko‘plab zavodlarda stanok operatori shuningdek, shahardagi mashhur Raley velosiped zavodida ham ishladi. 1945-yilda samalyot ishlab chiqarish ministrligida havo yo‘l harakati nazoratchi yordamchisi bo‘ldi. Keyin u Qirollik Havo Kuchiga xizmatga kirdi va u yerda radio operator bo‘lib ishladi. U Malayaga jo‘natilganda hamkasb operator unda tuganmas taassurot qoldirgan Robert Tresselning “The ragged trousered philanthropist” nomli asarning nusxasini unga berdi. U 1964-yilda “Birinchi marta bu kitobni o‘qiganimda bu kitob menda qanchalik bebaho taassurot qoldirganini tasvirlash oson emas. Bu haqiqatda buyuk asar, chunki u shu paytgacha mening hayolimdan ketmagan.” - deb ta’kidlagan.

Sillitoe tuberkulyoz kasalligi bilan hastalanib Qirollik Havo Kuchi kasalxonasida bir yildan oshiq vaqtini o‘tkazdi va u yerda u ishtiyoq bilan o‘qishni va yozishni boshladi. Kasalxonadan chiqqandan keyin u Qirollik Havo Kuchi jismoniy talablarini bajarishni to‘xtatganidan so‘ng 21 yoshida nafaqaga chiqdi. 19 yoshida Nottingemga qaytib amerikalik shoira Ruth Fainlight ni kitob do‘konida uchratadi. Ular sevishib qoladi va 1952-yilda G‘arbiy Yevropa; Fransiya, Italiya va Ispaniyaga keyingi 6 yil davomida Sillitoening nafaqasiga kun ko‘rib suzib ketishadi. Bu davr mobaynida Sillitoe ko‘plab qisqa hikoyalar, she’rlar va katta romanlar yozadi, lekin bularning hech biri dastlab nashriyot topishda muvaffaqqiyatga erishmaydi. Majorkada juftlik shoir va yozuvchi Robert Graves bilan do‘stlashadi. Graves tomonidan ilhomlanib Sillitoe asosiy qismi 1956-yilning kuzini tasvirlagan “Shanba tuni va yakshanba tongi “nomli romanini apelsin daraxti ostida o‘tirgan holda yozadi. Birt nechta kompaniyakar tomonidan rad etilib, roman vanihoyat W.H.Allen tomonidan qabul qilinib 1958-yil 14-oktabrda nashr qilindi. U birdaniga tanqidiy va iqtisodiy muvaffaqqiyatga erishdi, “Observer” tomonidan yilning eng zo‘r romani sifatida ovoz berildi va 1959-yil aprelda 1958-yilning Eng Zo‘r Birinchi Romani uchun Mualliflar Klubi Mukofoti

bilan taqdirlandi. Roman muvaffaqqiyatli sahnada va ekranda badiiylashtirildi (senariyni Sillitoe o‘zi yozdi), shundan buyon “Shanba tuni va yakshanba tongi” hamon nashrdan to‘xtagani yo‘q."[1]Allan Sillitounning bu mashhur va debyut romani "Saturday Night and Sunday Morning" (1958) Nottingemlik yosh ishchi Artur Seti (Arthur Seaton) haqida hikoya qiladi. Artur zavodda zerikarli ishlaydi, lekin dam olish kunlarida ichkilikbozlik, ayollar bilan munosabatlar va boshqa ko‘ngilxushliklar bilan o‘z hayotining bir xilligidan qochishga harakat qiladi.[82]

Roman ishchi sifining kundalik hayotini, ularning ichki dunyosini, orzu va umidlarini, jamiyatga bo‘lgan noroziliklarini realistik tarzda tasvirlaydi. Artur jamiyat qoidalariga bo‘ysunishni istamaydigan, o‘z erkinligini qadrlaydigan qahramon. Roman Britaniya adabiyotida yangi, dadil ovozni olib kirgan.

Sillitouning boshqa muhim romanlari qatoriga "Key to the Door" (Eshik kaliti, 1961) kiradi. Bu roman "Saturday Night and Sunday Morning"ning davomi bo‘lib, Artur Setining bolaligi va o‘smirligi haqida hikoya qiladi. Unda yosh Setining shaxsiyatining shakllanishi, ishchi muhitidagi hayoti va Malaysiyadagi harbiy xizmati davri tasvirlangan. "A Tree on Fire" (Yonayotgan daraxt, 1967) romani esa Ikkinchi Jahon urushi davrida Fransiyadagi qarshilik harakatlari ishtirokchisi haqida bo‘lib, bu asar uning ijodidagi mavzu doirasining kengayganini ko‘rsatadi. Sillitou keyinchalik ham ko‘plab romanlar yozgan, ularda ko‘pincha Nottingemlik oddiy odamlar hayotini tasvirlashni davom ettirgan.

Ko‘plab yozuvchi va tanqidchilar Allan Sillitou haqida o‘zlarining go‘zal fikrlarini bildirgan.

D.J. Taylor (adabiy tanqidchi va biograf): “Sillitoe ishchi sinf qahramonlariga yangi adabiy kuch bag‘ishladi — murosasiz, ravshan va g‘azabli tarzda.”[83]

Raymond Williams (marksistik tanqidchi va olim): “Sillitoening Saturday Night and Sunday Morning asari — bu badiiy adabiyotdagi burilish nuqtasi, proza shaklidagi isyondir.”[84]

The Guardian (adabiy nekrolog): “U urushdan keyingi Britaniya yoshlari — umidsiz, real va jamiyatga moslashishni istamagan avlodning ovozini hujjatlashtirdi.”[85]

David Lodge (yozuvchi va tanqidchi): “Sillitoe orqali ‘g‘azabli yoshlar’ obrazlari ramz emas, balki to‘liq shakllangan insoniy qahramonlarga aylandi.”[86]

Hilary Mantel (Wolf Hall muallifi): “Sillitoe Nottingemdagi til va manzaralarni o‘zgartirdi — u o‘zi ulg‘aygan ko‘chalarni ulug‘ladi.”[87]

Sid Chaplin 1916-yil 31-avgustda Angliyaning Durham grafligidagi Shildon shahrida, konchi oilasida tug‘ilgan. Uning bolaligi Shimoliy-Sharqiy Angliyaning

[82] Allan Sillitouning "Shanba tuni va Yakshanba tongi " mavzusidagi maqolasi Ishoqhon Ibrat nomidagi Namangan Davlat chet tillari Instituti Chet tili óqitishda innavatsion texnologiyalar va filologiya muammolari mavzusida ilmiy amaliy anjuman (158-sahifa)
[83] Taylor, D.J., The Prose Factory: Literary Life in England Since 1918, 2016-yil
[84] Williams, R., Culture and Materialism asaridan iqtibos, 1980-yil
[85] The Guardian, nekrolog, 2010-yil aprel
[86] Lodge, D., The Art of Fiction, 1992-yil
[87] 2009-yillar atrofida Britaniya adabiyoti bo‘yicha intervyulardan iqtibos sifatida

konchilik jamoalaridaoʻtgan. 14 yoshida maktabni tugatib, 1941-1953-yillarda Ferryhillda otasi kabi konchi boʻlib ishlay boshlagan. Uning konchilikdagi tajribasi keyinchalik uning ijodida markaziy oʻrin tutgan. Chaplin konlarda ishlash bilan birga, oʻz-oʻzini oʻqitish bilan shugʻullangan va mahalliy kutubxonada koʻp vaqt oʻtkazgan. U D.H. Lourens va boshqa yozuvchilarning asarlarini oʻqib, adabiyotga qiziqishini oshirgan. 1946-yilda “The leading lab” nomli qisqa hikoyalar to’plami uchun Atlantik mukofotini yutib olgan. Yana qo’shimcha konchi sifatidagi ish faoliyatidan so’ng Chaplin Milliy Ko’mir Shaxtasi nomli jurnal uchun to’liq stavkada yoza boshlagan. Keyinchalik esa The Guardian jurnali uchun ijtimoiy kuzatuv esseylari va teatr pyesalarini va 1963-yildan o’zining Northern Accent nomli maqolasini yozgan.

Sid Chaplinning dastlabki va eng ta’sirchan asarlari koʻpincha konchilik dunyosi haqida. "The Thin Seam" (1950) romani konchilik qishlogʻidagi hayotni, kon ishining qiyinchiliklarini va xavflarini, konchilarning oʻzaro munosabatlarini tasvirlaydi. Uning hikoyalar toʻplamlari, masalan, "The Leaping Lad and Other Stories" (Sakrovchi yigit va boshqa hikoyalar, 1955) ham konchilarning kundalik hayotini, ularning yumori va qat’iyatini aks ettiradi. Chaplin kon ishini shunchaki ogʻir mehnat sifatida emas, balki oʻziga xos madaniyat va an’analarga ega boʻlgan hayot tarzi sifatida tasvirlashga muvaffaq boʻlgan.

Chaplinning adabiy kariyerasi “Jahldor yoshlar” oqimi asosida ilhomlandi va 1950-1960- yillarning oxirida Allan Sillitou, Stan Barstow kabi yozuvchilar qatorida oddiy xalqning ijtimoiy realizm hayotini yorituvchi uslub bo’yicha rivojlandi. Uning ijodiy faoliyatiga keladigan boʻlsak, "Sardina kuni"(The day of Sardine) va "Kuzatuvchilar va Kuzatilganlar"(The Watchers and the Watched) nomli romanlari ishchi sinf ekzistensializmining klassikasi sifatida e'tirof etildi va 2004-yilda Flambard Press nashriyotida qayta nashr qilindi. Bu asarlarida Chaplin Shimoliy-Sharqiy Angliyadagi oʻzgarishlarni, ayniqsa sanoat tanazzuli va shahar hayotidagi oʻzgarishlarni aks ettirgan. Bundan tashqari u oʻz asarlarida oʻrta sinf hayotiga ,shahar atrofidagi yangi tutar joylarga koʻchib oʻtgan ishchi sinf vakillarining tajribalariga ham toʻxtalib oʻtgan. "The Day of the Sardine" (Sardina kuni, 1961) romani Nyukastldagi oʻsmir yigitning shahar hayotiga moslashuvi haqida. Unda yangi, zamonaviy dunyo va an’anaviy ishchi sinfi qadriyatlari oʻrtasidagi toʻqnashuv tasvirlangan. Ushbu asar Chaplinning ijodiy doirasining kengayganini, uning faqat konchilik mavzusi bilan cheklanib qolmaganini koʻrsatadi.1968-yilda senarist Alan Plater Chaplinning dastlabki "Koʻmir uyining eshigini berkiting" (Close the coalhouse door) nomli asariga asoslanib musiqali sahna asarini yaratdi, uning qoʻshigʻi Aleks Glasgov tomonidan yozilgan. 2012-yilda musiqasi qayta jonlandi. Chaplin 1967-yilda " Qayiq koʻringanda(When the Boat comes in) nomli teleserialning senariysiga oʻz hissasini qo'shdi. Keyingi yil esa Shimoliy Sharqda San'at sohasida koʻrsatgan xizmatlari uchun Britaniya Imperiyasining eng a'lo sinfining ofitseri (OBE) mukofoti bilan taqdirlandi.

Chaplin 1986-yilda vafot etdi. 1987-yilda vafotidan keyingi asarlar toʻplami Blackberry Times jurnalida nashr qilindi. 1997-yilda Chaplinning oilasi Sid

Chaplinning asarlarining asosiy qismini Newcastle Universiteti Robinson kutubxonasining maxsus to‘plamlar bo‘limiga depositga qo‘ydi.

Sid Chaplin haqida ham ko‘plab yozuvchi, tanqidchi va jurnalistlar o‘zlarining fikrlarini bildirgan quyida ularni ko‘rib chiqamiz.

Alan Plater (dramaturg): “Sid Chaplin adabiyotda kamdan-kam eshitilgan odamlarga ovoz berdi... U ularni romantiklashtirmadi yoki past ko‘rmadi — u ularga hurmat bilan qaradi.”[88]

Keith Armstrong (shoir va tadqiqotchi): “Chaplinning asarlari Shimoliy-Sharq shevasining ohangiga to‘la va uning bolaligidagi ko‘chalar hamda shaxtalarga chuqur ildiz otgan. U hamdardlik, aniqlik va kuchli lirik ruh bilan yozgan.”[89]

“Sid Chaplinning asarlari Shimoliy-Sharq adabiyotining asosidir. U mahalliy hayot — ishchi sinf hayoti ham buyuk adabiyotga munosib mavzu bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.”[90]

The Guardian (adabiy sharh): “Chaplin oshxona realizmining kashshoflaridan bo‘lib, ishchi sinf hayotining og‘irligini she’riy nigoh bilan uyg‘unlashtirdi. U Sillitoe va Barstow bilan bir qatorda eslanishga loyiqdir.”[91]

Graeme Miles (adabiyotshunos): “Chaplinning The Day of the Sardine romani Britaniya adabiyotida muhim burilishdir — bu yerda ishchi sinf ongini realizm va adabiy maqsadlar uyg‘unligida ifodalash mumkinligi ko‘rsatilgan.”[92]

Allan Sillitou va Sid Chaplinning ijodidagi eng muhim umumiylik ularning ishchi sinfidan kelib chiqqanligidir. Ikkalasi ham o‘z bolaligini qiyinchilikda o‘tkazgan, erta yoshdan mehnat faoliyatini boshlagan. Bu tajriba ularga ishchi sinfining hayotini, muammolarini va dunyoqarashini chuqur tushunish imkonini bergan. Ularning ikkalasi ham o‘z asarlarida aynan shu qatlam vakillarini, ularning kundalik kurashlarini, orzularini va muammolarini markazga qo‘ygan. Ular Britaniya adabiyotida ishchi sinfining haqqoniy va jonli obrazini yaratishga hissa qo‘shganlar.

Umumiyliklarga qaramay, Sillitou va Chaplin o‘rtasida jiddiy farqlar ham bor. Ikkalasi ham ijtimoiy realizmga tayanadi, ammo Sillitouning asarlarida isyon, begonalashuv va shaxsiy norozilik mavzulari ustunlik qiladi. Uning qahramonlari ko‘pincha jamiyatga qarshi chiqqan yolg‘iz qahramonlardir. Chaplinning asarlarida esa jamoa, birdamlik, mahalliy madaniyat va optimizm ko‘proq aks etgan. Uning qahramonlari ko‘proq o‘z jamoasi bilan bog‘liq va ular o‘zaro yordam orqali qiyinchiliklarni yengishadi. Sillitouning uslubi ko‘proq qattiq va bevosita bo‘lsa, Chaplinning uslubida lirika va yumor elementlari ko‘proq uchraydi. Geografik farqlar (Nottingem vs. Durham) ham ularning asarlaridagi fonni belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Allan Sillitou va Sid Chaplin Britaniya adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan yozuvchilardir. Ular o‘z asarlarida ishchi sinfining

[88](BBC Radio 4 intervyusidan, 1990-yillar)
[89] (Keith Armstrongning "In Blackberry Time: The Short Stories of Sid Chaplin" kitobiga kirish so‘zidan, 1987-yil)
[90](New Writing North intervyusidan, 2002-yil, iqtibos tarzida)
[91](The Guardian, 2004-yildagi sharhdan)
[92] (Miles, G. “Voice and Vision: Sid Chaplin and the Postwar Novel,” Journal of Northern English Studies, 2010)

realistik va jonli obrazini yaratib, jamiyatning ilgari kam e'tibor berilgan qatlamining hayotini yoritganlar. Sillitou isyonkor ruhni, begonalashuvni va individual erkinlikni ifodalagan bo'lsa, Chaplin jamoaviy qadriyatlar, o'zgarishlarga moslashuv va insoniy iliqlikni aks ettirgan. Ularning ijodi Britaniya jamiyatining 20-asr o'rtalaridagi ijtimoiy va iqtisodiy holatini tushunish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning merosi hanuzgacha dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barstow, Stan. "Chaplin, Sidney". Oxford Dictionary of National Biography (online ed.). Oxford University Press. doi:10.1093/ref:odnb/60264. (Subscription or UK public library membership required.)
2. "Sid Chaplin - University Library - Newcastle University". Archived from the original on 24 February 2014.
3. Miner and author Sid Chaplin blue plaque unveiled - BBC News". BBC News. 25 September 2016.
4. Obituary, The Times, 26 April 2010.
5. Richard Bradford (25 April 2010). "Alan Sillitoe obituary". The Guardian. Retrieved 5 June 2013.
6. Sillitoe, Allan. Saturday Night and Sunday Morning. London: W. H. Allen, 1958.

ABDULRAZZOQ GURNAH BADIIY ASARLARIDA INSON RUHIYATI TAHLILI

Saydamatova Dilafro'z Xamidullo qizi
NamDU 2-boshqich tayanch doktoranti
Email:dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulrazzoq Gurnah asarlari va ularning tahlili amalga oshirilgan bo'lib, maqolada asosiy e'tibor Gurnahning mashxur romanlari sirasiga kiruvchi "Paradise" (Jannat), "By the Sea" (Dengiz bo'yida) Romanlari orqali inson qalbidagi iztirob, yo'qotish, o'zlikni izlash kabi psixologik holatlarning badiiy ifodasi va ularning tahliliga qaratilgan. Gurnah romanlarini nafaqat adabiy, balki psixologik tahlil uchun ham muhim deb hisoblanadi. Gurnah asarlarining chuqur psixologik mazmuni zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uyg'unlashibgina qolmay, yangi avlod o'quvchilari uchun dolzarb ruhiy savollarni ko'taradi va shaxsiy va ijtimoiy kontekstlarni chuqur tushunishga yordam beradi. Bu asarlar, nafaqat post-kolonial jamiyatlardagi shaxsiy izlanishlar, balki butun dunyo bo'ylab ruhiy holatlarning umumiy tasviri ekanligi maqolada tahlil qilingan.
Key words: Abdulrazzoq Gurnah, migratsiya, o'zlikni anglash , inson ruhiyati, post colonial, "Paradise", " By the Sea".

ANALYSIS OF HUMAN SPIRIT IN THE ARTISTIC WORKS OF ABDULRAZZAK GURNAH

Saidamatova Dilafroz Khamidullo qizi
NamDU 2nd year doctoral student

Email:dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Abstract: This article analyzes the works of Abdulrazaq Gurnah, focusing on the artistic expression of psychological states such as suffering, loss, and search for identity in the human soul through Gurnah's famous novels "Paradise" and "By the Sea". Gurnah's novels are considered important not only for literary but also for psychological analysis. The deep psychological content of Gurnah's works not only harmonizes with modern literary processes, but also raises urgent spiritual questions for the new generation of readers and helps to deeply understand personal and social contexts. The article analyzes that these works are not only personal searches in post-colonial societies, but also a general picture of spiritual states around the world.

Key words: Abdulrazaq Gurnah, migration, self-awareness, human psyche, post colonial, "Paradise", "By the Sea".

АНАЛИЗ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДУХА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТВОРЧЕСТВАХ АБДУЛРАЗЗАКА ГУРНАХА

Саидаматова Дилафроз Хамидулло кызы
Докторант 2 курса НамДУ
Электронная почта: dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются произведения Абдулразака Гурнаха, особое внимание уделяется художественному выражению и анализу психологических состояний, таких как страдание, утрата и поиск идентичности в человеческой душе, через знаменитые романы Гурнаха «Рай» и «У моря». Романы Гурны считаются важными не только с точки зрения литературного, но и психологического анализа. Глубокое психологическое содержание произведений Гурны не только перекликается с современными литературными тенденциями, но и поднимает актуальные духовные вопросы перед новым поколением читателей и помогает им глубже понять личные и социальные контексты. В статье анализируется, что эти работы представляют собой не только личные исследования постколониальных обществ, но и общие описания психических состояний во всем мире.

Ключевые слова: Абдулраззок Гурнах, миграция, идентичность, человеческая психика, постколониальный, «Рай», «У моря».

Kirish

Jahon adabiyotida juda muhim o‘rin egallagan yozuvchilardan biri - Abdulrazzoq Gurnah , post-kolonial adabiyotning yetakchi yozuvchilaridan biri sifatida tanilgan. Gurnahning asarlari, ayniqsa, Afrika va Osiyo o‘rtasidagi madaniy va tarixiy bog‘liqliklarni, migratsiya, kimlik va kolonializmning inson ruhiyatiga ta’sirini chuqur tasvirlaydi. Uning romanlari insonlarning ichki iztirobi, yo‘qotishlari va o‘zlikni izlash jarayonlarini badiiy jihatdan yoritadi. Shuningdek,

Gurnah yozgan hikoyalar zamonaviy dunyoda ko‘plab insonlar duch kelayotgan murakkab ijtimoiy va ruhiy muammolarni o‘rganishga yordam beradi. Shu sababdan, u nafaqat adabiyotda, balki madaniyat va tarixni tushunishda ham muhim ovoz hisoblanadi. 2021-yilda Gurnahga adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti berilishi uning adabiyotdagi o‘rnining dunyo miqyosida yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Post-kolonial adabiyotda o‘ziga xos yorituvchi ovozga ega bo‘lgan yozuvchilarning yorqin namunasi Abdulrazzoq Gurnah , u asarlarida asosan migratsiya o’zlikni izlash, jtimoiy tengsizlik kabi mavzularni ommaga havola etadi. Gurnahning badiiy asarlarida inson ruhiyati, shaxsiy tajribalar, travmalar va o‘tmish xotiralari kabilar boshqa asarlardan ko’ra murakkab va chuqur tasvirlanadi. Gurnah, o‘z asarlarida shaxsiy ruhiyatni nafaqat individual hissiyotlar, balki jamiyatdagi kuchli sotsiologik va tarixiy omillar orqali ham ko‘rsatadi. Ushbu maqolada, Gurnahning ayrim badiiy asarlarida inson ruhiyatining talqini tahlil qilinibgina qolmay, uning asarlarida ruhiy holatlarning qanday ifodalanishi va bu tasvirlarning post-kolonial jamiyatlar kontekstida qanday ahamiyatga ega ekanligi o‘rganiladi. Mazkur maqolada Gurnah asarlari ichida yuqorida keltirib o’tilgan holatlarni o’zida mujassam etgan "Paradise" va "By the Sea" kabi asarlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Metodologiya

Ushbu maqolada Gurnahning badiiy asarlaridan namunalar keltirib, uning o’z asarlarida ruhiyatni tasvirlashdagi o’ziga xos uslubi va asarlaridagi diqqatni toruvchi psixologik elementlar chuqur o‘rganilib, matnli tahlil usuli qo’llanildi. Shu bilan birgalikda, psixologik va post-kolonial adabiyotshunoslik nazariyalariga asoslangan holda asarlarning kontekstual tahlili amalga oshiriladi. Qo’llanilgan metodologiyalar inson ruhiyatining psixologik, ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday tasvirlanishini tushunishga yordam berdi.

1. **Matnli Tahlil**: Gurnahning asarlaridagi matnningasosiy strukturasi, qahramonlarning ichki dunyosini tushunish, asarda foydalanilgan til va uslubning tahlili va simvol va motivlar tahlil qilindi.
2. **Psixoanalitik Yondashuv** : Sigmund Freud va Carl Jungning psixoanalitik nazariyalaridan foydalanilib, asarlardagi qahramonlarning ruhiy holatlari va o'zlik izlanishlari o'rganildi. Masalan, Freudning id, ego, va supergo kontseptsiyalari yordamida ichki konfliktlar va shaxsiy muammolar tahlil qilindi.

Gurnahning badiiy uslubi va dunyoqarashini yoritish uchun uning asarlarida ruhiyatni shakllantiruvchi asosiy omillar – tarixiy jarayonlar, migratsiya, kimlikni izlash va o‘zlikni anglash kabi unsurlarni ochib berish lozimligi aniqlandi.

Natijalar

Gurnahning asarlarida inson ruhiyatining tasviri ko‘pincha ichki monologlar, yodgorliklar va o‘zlikni yo‘qotish yoki qayta tiklash orqali ifodalanadi. Gurnah o’z asarlarida ichki kurashlar va kimlikni izlash, qochish va uyga qaytish , travma va o’tgan hotiralar, kuchli realism kabi usullardan inson ruhiyatini chuqurroq yoitish maqsadida mohirona foydalangan. "Paradise" va "By the Sea" kabi romanlarida, qahramonlarning ruhiy holatlari o‘zgaruvchan va dinamikdir. Masalan,

"Paradise"da yozuvchi voqea yuz bergan malakatdagi iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, kolonialistik va ijtimoiy tizimlar o‘z ta’sirini o‘tkazgan qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlaydi. Bu ta’sirlar esa asarning badiiy qiymatini sezilarli darajada oshirib berdi. Asarda o‘zlik, kimlik, oilaviy aloqalar, sevgi, xiyonat va insonning o‘z ruhiy holatini anglashiga asosiy e’tibor qaratilgan. Qahramonlar o‘zlarini va atrofdagi dunyoni anglashga intilishlari kabi jarayonlar esa ularning ruhiyatini shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda “Paradise“ romani ustida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy xodimi Muborak Qosimova tomonidan ham izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lib Gurnahning romanida kolonializmning ta'siri, identitet va joylashuv mavzularini chuqur o‘rganadi.U roman orqali Gurnahning murakkab tarixiy va madaniy kontekstlarni qanday ifodalashini tahlil qiladi.[93] Uning 2024-yilda chop etilgan maqolasi “Abdurrazzoq Gurnah asarlarida roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari” nomi bilan e'lon qilingan va bu asarlarda Gurnahning murakkab badiiy tuzilmalari, tarixiy kontekstlari va postkolonial mavzularni qanday yoritgani tahlil qilingan.

"By the Sea" romaniga to’xtaladigan bo’lsak, ushbu asar migratsiya va insonlarning yangi madaniyatlarga duch kelishi va tanishish jarayonidagi ichki iztiroblari va ruhiy kechinmalari aks ettirilgan . Gurnahning mazkur asarlari, insonlarning ichki izlanishlari, aloqalari va ruhiy izlanishlari haqida chuqur fikrlar beradi.

Gurnahning asarlarida migratsiya va yashash joylarining o’zgarishi, odamlarning kimligini yo‘qotish yoki qayta tiklash haqidagi ichki izlanishlari asosiy mavzulardan biridir. Ruhiyat va identitetni izlash jarayonidagi qahramonlarning psixologik kechinmalari, jamiyat va madaniyat ta’sirida o‘zgaradi. Shu bilan birga, Gurnah ruhiyatni tasvirlashda tarixi, madaniyat va individual tajribalarning kesishgan nuqtalarini ochib beradi, bu esa o‘quvchiga chuqur psixologik tafakkur imkonini yaratadi. Har ikkala bebaho asar ham o’z zamirida inson ruhiyatini, o‘zlikni anglashni va o‘tmishning ta’sirini chuqur yoritadi.

Muhokama

Gurnahning asarlarida inson ruhiyatini tahlil qilish masalasi oldimizda turar ekan avvalo, asarlarni ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstlarda ko‘rib chiqish lozim . Abdulrazzoq Gurnahning asarlarida inson ruhiyatining talqini post-kolonial jamiyatlarda yashayotgan shaxslarning ichki iztiroblari va o’zlikni izlash jarayonlariga qaratilgan. Gurnah, badiiy asarlarida individual va kollektiv xotira, tarixiy travmalar, shaxsiy kimlik va madaniy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Bu jarayonlar, nafaqat qahramonlarning shaxsiy hissiyotlariga, balki ularning yashash sharoitlari, ijtimoiy tizimlar va madaniyatlar bilan munosabatlariga ham ta’sir qiladi. Gurnah asarlarida ruhiyatning shakllanishi va o‘zgarishi, xarakterlarning o‘ziga xos psixologik portretlari orqali ifodalanadi.

[93] UNIQUE FEATURES OF THE NOVEL GENRE IN THE WORK OF ABULRAZAK GURNAH.2024.

Abdulrazzoq Gurnah asarlarida inson ruhiyatini tahlil qilish jarayoni, uning yaratgan badiiy dunyosida ko‘plab murakkab va nozik jihatlar mavjud. Inson ruhiyatining shakllanishida ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstning ta’sirini o‘rganish Gurnah asarlarini o‘rganishda asosiy ro‘l uning romanlari — postmustamlakachilik va muhojirlik kontekstida shakllangan shaxsiyatlar dramatik ichki kechinmalari orqali zamonaviy insonning ruhiy holatini o‘rganish uchun muhim manbadir.

Gurnah asarlarida inson ruhiyatining shakllanishida kolonializmning ta’siri o‘ta muhim ahamiyatga ega. Kolonializmni, Gurnah ko‘pincha ijtimoiy tizimlarning, etnik guruhlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning va yurtlardan majburiy ravishda ko‘chirilgan odamlarning ruhiyatidagi izlar sifatida ko‘rsatadi. Buning yorqin dalili sifatida yozuvchi "Paradise" va "By the Sea" kabi asarlarda, Gurnah o‘zining qahramonlari — Yusuf va Salim orqali, kolonializmning insonlar va jamiyatlarga bo‘lgan ta’sirini, bu jarayonning ruhiy darajada qanday izlar qoldirganini tasvirlaganini ko’rishimiz mumkin.

Gurnah asarlarida duch kelinadigan mavzulardan biri — bu identitet inqirozidir. "By the Sea" romanida bosh qahramon Salim o‘zining kim ekani , milliy va madaniy ildizlarini anglashda iztiroblar girdobida qoladi. Salim o‘zini “begona” his qilgan muhitda yashashga majbur bo‘ladi, lekin shu bilan birga o‘zining kelib chiqishini butunlay inkor etolmaydi. Bu psixologik holat — Frants Fanonning “qora tanli insonning oq jamiyatdagi o‘zligini yo‘qotish” g‘oyasini eslatadi. Gurnah shaxsiyatning buzilishi, ijtimoiy maskalash va ruhiy yakkalanish kabi jarayonlarni ochib berishda qahramon Salimning ichki kechinmalaridan foydalandi. Bu jarayonlar Loimeier, Romanning “Muslim Societies in Postcolonial Africa” asarida chuqur tahlil qilingan.[94]

Frants Fanonning “Qora tanli insonning oq jamiyatdagi o‘zligini yo‘qotishi” masalasi, ya'ni irqchilik va kolonializm sharoitida qora tanlilarning o‘zligini yo‘qotishi mavzusi ko‘plab postkolonial adabiyotshunoslar va faylasuflar tomonidan tahlil qilingan. Bu borada ayniqsa Frants Fanonning o‘zi muhim nazariy manba hisoblanadi, uning "Qora terining pedagogikasi" va "Jismoniy va ruhiy qullik" kabi asarlari bunga misol.

Xulosa

Abdulrazzoq Gurnah - ijodi inson ruhiyatini o‘rganish nuqtai nazaridan boy manbalardan biri hisoblanadi. Asarlaridagi qahramonlar o‘zlik izlanishida, madaniy to‘qnashuvlar va tarixiy travmalar ta’sirida ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi. Mazkur ruhiy holatlarning badiiy ifodasi Gurnah romanlarini nafaqat adabiy, balki psixologik tahlil uchun ham muhimlik zaruriyatini oshirib beradi deb hisoblanadi. Gurnah asarlarining chuqur psixologik mazmuni zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uyg‘unlashibgina qolmay, yangi avlod o‘quvchilari uchun dolzarb ruhiy savollarni ko‘taradi va shaxsiy va ijtimoiy kontekstlarni chuqur tushunishga

[94] Loimeier, Roman. “Muslim Societies in Postcolonial Africa.” Indiana University Press, 2013.

yordam beradi. Bu asarlar, nafaqat post-kolonial jamiyatlardagi shaxsiy izlanishlar, balki butun dunyo bo‘ylab ruhiy holatlarning umumiy tasviridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Erikson, Erik H. *Identity: Youth and Crisis*. Norton & Company, 1968.
2. Said, Edward. *Culture and Imperialism*. Vintage Books, 1993.
3. Loimeier, Roman. “Muslim Societies in Postcolonial Africa.” *Indiana University Press*, 2013.
4. Yo‘ldoshev, M. (2008). *Adabiyotshunoslik asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Said, E. W. (1993). *Culture and Imperialism*. New York: Alfred A. Knopf.
6. López, M. (2001). Postcolonial Whiteness: A Critical Reader on Race and Empire. SUNY Press.
7. Fanon, Frantz. *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Continuum, 1970.
8. Fanon, Frantz. *The Wretched of the Earth*. New York: Grove Press, 1963.

THE THEME OF WARS AND THEIR IMPACT ON SOCIETY IN AMERICAN HISTORICAL NOVELS AFTER THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY

Bokiev Nurali Abdurashid ugli,
Namangan State Institute of Foreign Languages
Namangan, Uzbekistan
Researcher Dr. Jacek Welniak,
Professor of Nicolaus Copernicus University, Poland

Annotation: This article explores the representation of wars and their impact on society in American historical novels written after the second half of the 20th century. It examines how major conflicts such as World War II, the Vietnam War, the Cold War, and wars in the Middle East are depicted through diverse literary voices. The article highlights the psychological consequences of war, social transformations, and the evolving roles of women and minority groups. Through literary analysis, the study emphasizes how these novels preserve memory, challenge dominant narratives, and deepen our understanding of the human cost of war.

Keywords: Historical novel, war theme, World War II, Vietnam War, Cold War, Middle East conflicts, psychological trauma, women's roles, consequences of war.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmidan keyin yozilgan Amerika tarixiy romanlarida urushlar va ularning jamiyatga ta’siri qanday aks ettirilgani yoritiladi. Unda Ikkinchi jahon urushi, Vetnam urushi, Sovuq urush va Yaqin Sharqdagi mojarolar adabiy asarlar orqali qanday tasvirlangani tahlil qilinadi. Maqolada urushning psixologik oqibatlari, jamiyatdagi o‘zgarishlar va ayollar hamda ozchilik guruhlarining o‘rni alohida e’tiborga olinadi. Ushbu tahlillar orqali romanlarning tarixiy xotirani saqlash va urushning insoniy narxini anglashdagi ahamiyati ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, urush mavzusi, Ikkinchi jahon urushi, Vetnam urushi, Sovuq urush, Yaqin Sharqdagi mojarolar, psixologik travma, ayollar roli, urush oqibatlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается, как войны и их влияние на общество отражаются в американских исторических романах, написанных во второй половине XX века и позже. Анализируются такие крупные конфликты, как Вторая мировая война, Вьетнамская война, Холодная война и войны на Ближнем Востоке. Особое внимание уделяется психологическим последствиям войн, социальным изменениям, а также роли женщин и этнических меньшинств. Исследование подчеркивает значение этих романов как средств сохранения памяти и критического осмысления человеческих потерь, вызванных войной.

Ключевые слова: Исторический роман, тема войны, Вторая мировая война, Вьетнамская война, Холодная война, конфликты на Ближнем Востоке, психологическая травма, роль женщин, последствия войны.

Introduction

Keywords: female image, folklore, East, West, fairy tale, symbol, culture, comparative analysis.

Аннотация: в данной статье представлен сравнительный анализ художественной интерпретации образа женщины в фольклоре народов Востока и Запада. Женский образ в устном народном творчестве различных народов рассматривается не только как эстетический символ, но и как отражение нравственных, социальных и духовных ценностей общества. В статье анализируются женские образы в восточной культурной среде — на примере узбекских, иранских, арабских и японских народных сказок, где женщины изображаются как символы терпения, самоотверженности и духовной чистоты. В то же время в немецких, английских и французских сказках западной традиции женские персонажи предстают как активные, независимые, инициативные, а иногда и магические или опасные фигуры. В статье выявляются сходства и различия в представлении женского образа в восточной и западной культурах посредством межкультурного анализа.

Ключевые слова: женский образ, народное устное творчество, Восток, Запад, сказка, символ, культура, сравнительный анализ.

Kirish

Har bir millatning milliy xususiyatlari, uning o’ziga xosligi, mentalitetini ko’rsatadigan bu ona tili va adabiyotidir. Chunki milliy adabiyotda xalqning ong-u tafakkuri, aql-u zakovati o’z ifodasini topibgina qolmasdan, balki ma’rifiy, axloqiy, ma’naviy xususiyatlari ham o’z tajassumini topgandir. Adabiyot bugun paydo bo’lib qolmagani xammaga ma’lum. Uning ilk ko’rinishlari asosan yozma emas og’zaki bo’lgan Yoshligida ertak eshitmagan insonni o’zi bo’lmasa kerak. Albatta bundan biz bilishimiz mumkinki, xalq og’zaki ijodi ko’p yillar davomida inson bilan xamnafas bo’lib kelgan. Xalq og‘zaki ijodi - bu yozma shakldan ilgari paydo bo’lgan va xalq orasida og‘zaki tarzda avloddan-avlodga o’tib kelgan adabiy va badiiy ijodiy faoliyat turidir. U xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, e’tiqodi, qadriyatlari, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari va estetik didini aks ettiradi. Bu ijod

og‘zaki shaklda yaratiladi, yodda saqlanadi va og‘zaki tarzda tarqatiladi. Xalq og’zaki ijodiga ertaklar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, topishmoqlar va boshqa janrlar kiradi. Har bir millat o’zining tarixiga ega bo’ldandek, uning adabiyoti xam bo’lak bo’ladi. G’arb va Shark xalq og’zaki ijodlari xam o’zlarining ertaklari yoki dostonlari bilan ajralib turishadi. Ayol-har davrning asosiy arxetipi desak, adashmaymiz. Xalq og‘zaki ijodida ayol obrazi har doim e'tiborni jalb etgan. Bu obraz orqali xalq o’zining axloqiy-me’yoriy qarashlarini, ideal ayol timsolini yaratgan. Sharq va G‘arb madaniyatlarida bu timsollar har xil shakllangan bo‘lsa-da, ularning asosida ayolning ijtimoiy, ma’naviy va estetik qadriyat sifatidagi rolini ko’rish mumkin. Jahon adabiyotshunosligida genderlik tushunchasi XX asrdan shakllana boshlagan bo’lsa-da, biroq, “ayollar adabiyoti” va uning qalbi bilan bog’liq jarayon xalq og’zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq og’zaki ijodi ayollarga xos bo’lgan ijodni o’rgatuvchi muhim manba hisoblanadi. Zotan, folklor ayol ruhiyatini aks ettiruvchi fenomen bo’lib xizmat qiladi. Chunki folklorga e’tibor qaratilsa, unda ayol ruhiyatini ifoda etgan janrlar talaygina ekanligiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Folklorda ayol obrazi juda boy va rang-barang bo’lib, u xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy tuzilmasini aks ettiradi. O’zbek xalq og’zaki ijodida ayol obrazi turli xil rollarda namoyon bo’ladi — bu obrazlar orqali jamiyatdagi ayollarning o’rni, ularga bo’lgan munosabat va ideal ayol qiyofasi ifodalanadi. Har bir xalqning og’zaki ijodi — uning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va ma’naviy dunyosining yorqin ifodasidir. Xalq og’zaki ijodida inson, uning fazilatlari, orzu-intilishlari, ezgulik va yovuzlikka bo’lgan munosabati o’z ifodasini topadi. Bu jarayonda ayol obrazining tutgan o’rni alohida e’tiborga loyiqdir. Chunki ayol — hayotning, muhabbatning, sabr-toqatning va go’zallikning timsolidir. Xalq folklorida ayol obrazi turli qiyofalarda — mehribon ona, sadoqatli yor, donishmand ayol, yovuz o’gay ona kabi rollarda tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali xalqimizning ayolga bo’lgan munosabati, ijtimoiy qadriyatlari va estetik qarashlari ifoda etilgan. Mazkur maqolada folklordagi ayol obrazlarining xilma-xilligi va ularning badiiy talqini tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Xalq folklorida ayol obrazi keng va rang-barang tasvirlanadi. Bu obrazlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqiy qarashlari va estetik didini aks ettiradi. Ayol nafaqat biologik, balki ijtimoiy-ma’naviy borliq sifatida ko’riladi. U jamiyatda ona, yor, kelin, opa, ayol do’sti, donishmand maslahatgo’y kabi turli rollarni bajaradi. Shu bois xalq og’zaki ijodida ayol obrazining ko’p qirrali tasvirlari shakllangan. Avvalo, mehribon ona obrazi xalq og’zaki ijodining deyarli barcha janrlarida uchraydi. Ertaklar, dostonlar, afsona va rivoyatlarda ona farzandiga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat, fidoyilik va sabr-toqat timsoli sifatida gavdalantiriladi. “Alpomish” dostonida Alpomishning onasi Obidaxon o’z farzandi uchun doimiy duo va xavotirda bo’adi. Bu orqali xalqimizning onaga bo’lgan hurmati, uni muqaddas sanashi yaqqol ko’zga tashlanadi. Folklorda ayolning yana bir muhim obrazi — bu vafodor yor, ya’ni sadoqatli ayoldir. Sevgi va sadoqat mavzusida yaratilgan qo’shiqlar, dostonlar, afsonalarda yor eriga nisbatan sadoqatli, vafodor, sabrli bo’lib tasvirlanadi. “Yusuf va Zulayho” dostoni bunga

yorqin misoldir. Zulayho obrazi orqali sevgi va sadoqat timsoli yaratiladi. Ayniqsa, ayolning erkakni sevishi va unga umr bo'yi sodiq bo'lib qolishi xalq estetikasi va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Shuningdek, ayrim ertak va rivoyatlarda donishmand ayol obraziga ham katta o'rin berilgan. Bu obrazlar orqali ayollarning aql-zakovati, topqirligi va muammolarga dono yondashuvi ko'rsatiladi. Masalan, "Qarshilik kelin" yoki "Donishmand ayol" haqidagi ertaklarda ayol nafaqat oila, balki butun jamiyat miqyosida muhim masalalarni hal qila oladigan shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar xalqimizda ayollarning faolligi va bilimga bo'lgan hurmatini ifodalaydi. Biroq folklorda salbiy ayol obrazlari ham mavjud. Bular odatda yovuz o'gay ona, hasadgo'y ayol, fitnagar kelin kabi obrazlardir. Bunday obrazlar orqali xalq og'zaki ijodida yovuzlik, xiyonat va nafrat kabi illatlar qoralanadi. Bu obrazlar odatda ijobiy qahramonlar bilan qarama-qarshi qo'yiladi va yakunda jazolanadi. Bu orqali xalq axloqiy tarbiya berishni, yovuzlik ustidan ezgulik g'alabasini targ'ib qiladi. Go'zallik timsoli bo'lgan ayol obrazi ham folklorda keng uchraydi. Qo'shiqlar, afsonalar va lirik janrlarda ayol chiroy, nazokat, odob-axloq, muomala madaniyatining timsoli sifatida tasvirlanadi. "Oydek go'zal", "qoshlaring kamondek", "sochlaring zanjirdek" kabi badiiy tasvirlar orqali ayolning estetik jihatlari madh etiladi. Sharq va G'arb xalq og'zaki ijodida ayol obrazini quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

Sharq folklorida ayol obrazi

Sharq xalqlari ertaklari va dostonlarida ayol odatda sabr-toqatli, sadoqatli, mehribon va oqila obrazida gavdalanadi. Sharq xalqlari folklori boy ma'naviy meros bo'lib, unda inson, jamiyat va tabiat haqidagi qarashlar badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Bu asarlar orqali xalq o'z orzulari, axloqiy ideallari, ijtimoiy qadriyatlari va estetik qarashlarini avloddan avlodga yetkazib kelgan. Sharq folklorida ayol obrazlari alohida o'rin egallaydi. Ayol — hayot manbai, go'zallik va sadoqat, sabr-toqat va fidoyilik timsoli sifatida turli qiyofalarda gavdalanadi. Sharq folklorida ayol eng avvalo ona sifatida ulug'lanadi. Onaning farzandga nisbatan cheksiz muhabbati, mehribonligi va fidoyiligi ko'plab ertak, doston va afsonalarda ko'zga tashlanadi. Masalan, o'zbek va fors dostonlarida onaning farzand yo'lida qilgan sabrli kutishlari, duo va maslahatlari orqali u donishmand va ma'naviy tayanch sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali ona timsolida xalq donishmandligi va mehr-muhabbat g'oyalari targ'ib qilinadi.

Sharq folklorida ayol obrazining donishmand va aql-zakovatga ega bo'lgan shakllari ham mavjud. Xususan, "Hazrati Yusuf" rivoyatlarida yoki arab "Ming bir kecha" to'plamidagi Shahrizod obrazida ayol nafaqat go'zalligi, balki aqlli, topqir, dono bo'lishi bilan ajralib turadi. Shahrizod ming kecha davomida podshohga ertak aytib, uni zulm va qon to'kishdan qaytaradi. Bu obrazlar orqali Sharqda ayol aql-zakovati, sabr-bardoshi va ijtimoiy rolini ham yuksak baholash an'anasi mavjudligini ko'rish mumkin.

Sharq xalqlari folklorida ayol obraziga misollar:

O'zbek ertagi — "Zumrad va Qimmat": bu ertakda Zumrad — mehnatkash, itoatkor va pokiza qiz sifatida tasvirlanadi, uning halolligi unga baxt olib keladi. Qimmat esa dangasa, hasadgo'y bo'lib, axloqan pastligi sabab jazolanadi.

“Alpomish” dostoni: Barchinoy — fidoyi va sadoqatli yor obrazidir. U Alpomishga nisbatan muhabbati va sadoqati tufayli har qanday sinovga bardosh beradi.

Fors xalq rivoyatlari: Ko’plab eron ertaklarida ayollar sabr-toqat va dono maslahatlari orqali qahramonlarga yo’l ko‘rsatadi. “Mahinbonu va Shahzoda” rivoyatida Mahinbonu donishmand va sabrli malikadir.

Yapon xalq ertagi — “Bambukchi chol va qiz” (Kaguya-hime): Qiz obrazida osmoniy go’zallik, poklik va yuksak ma’naviyat timsoli mujassam.

G‘arb folklorida ayol obrazi

G‘arb ertaklarida ayol ko’proq faol, tashabbuskor, ba’zan esa ikkiyuzlama yoki xavfli obrazlarda ham ko’rsatiladi. Avvalo, mehribon ona obrazi G’arb folklorida ham keng o’rin egallaydi. U oilaning tayanchi, bolalarining himoyachisi va tarbiyachisi sifatida gavdalanadi. Ayniqsa, ingliz va nemis ertaklarida ona farzandini asrash, unga yo’l ko’rsatish, xavfdan ogohlantirish orqali ijobiy kuch sifatida namoyon bo’ladi. Biroq G’arb ertaklarida bu obraz ko’pincha o’gay ona obraziga qarama-qarshi qo‘yiladi. Masalan, “Qor Malikasi”, “Oppog’oy va yetti gnomlar”, “Zolushka” kabi ertaklarda yovuz o’gay ona — hasad, zulm va xiyonat timsolidir. U o’z farzandini emas, begona qizni qiynaydi, unga turli to’siqlar yaratadi. Bu orqali xalq ertaklarida ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash ifodalanadi. G’arb folklorida ayolning yana bir muhim qiyofasi — *bu go’zal va sadoqatli qiz obrazidir*. Ko’plab ertaklar va afsonalarda ayol go’zalligi, beg’uborligi, sabr-toqati bilan ajralib turadi. “Zolushka”, “Uyqudagi malika”, “Rapunzel” singari ertaklardagi bosh qahramonlar — chiroyli, pokiza, mehnatsevar va sadoqatli bo’lib, ezgulikka bo’lgan ishonchni ifodalaydi. Ular ko’pincha sinovlardan o’tadi, qiynaladi, ammo oxir-oqibat ezgulik g’alaba qiladi va mukofot sifatida baxtli turmushga erishadi. Bu obrazlar orqali G’arb jamiyatidagi ayolga nisbatan ideal qarashlar — itoatkorlik, sabr, go’zallik va sadoqat targ’ib qilinadi.

G’arb xalqlar folkorida ayol obraziga misollar:

Nemis ertagi — “Qizil Shapkacha” (Brothers Grimm): Qiz passiv bo’lsa-da, ertakda yovuzlik (bo’ri) va aybsizlik (qiz) o‘rtasidagi kurash orqali ayolning himoyasizligi va ehtiyotkorlik zarurati ko‘rsatiladi.

“Zolushka” (Cinderella): Asosiy qahramon — mehribon va mehnatkash, ammo voqealar rivojida faqat sehrli yordam orqali yutuqqa erishadi. Ayolning go’zalligi va sabr-bardoshi muvaffaqiyat omiliga aylanadi.

“Qor malikasi” (Hans Christian Andersen): Gerda — o’zining do’stini qutqarish uchun sovuq va xavfli yo‘llarni bosib o‘tadi. Bu obraz G‘arb folklorida jasoratli va fidoyi qiz timsolining yorqin namunasi hisoblanadi.

Fransuz ertagi — “Maxluq va Soxibjamol” (Beauty and the Beast): Go‘zallik (ayol) o’z mehribonligi, rahm-shafqati orqali yovuzlikni mag‘lub etadi. Bu obraz G‘arb adabiyotida ayolning ichki kuchi va ta’sirini ifodalaydi.

Sharq va G‘arb ayol obrazlarining taqqosiy tahlili

Mezoni	Sharq folklori	G‘arb folklori
Ayolning roli	Sabrli, sodiq, passiv, ko‘proq	Faol, jasoratli, tashabbuskor

Mezoni	**Sharq folklori** ma’naviy kuch manbai	**G‘arb folklori** yoki ikkiyuzlama
Etakchi timsollar	Barchinoy, Zumrad, Mahinbonu	Cinderella, Gerda, Beauty
E’tibor qaratilgan jihatlar	Axloqiy tozalik, sadoqat, oilaviy qadriyatlar	Mustaqillik, tashqi go‘zallik, ijtimoiy faollik
Qahramonlik shakli	Ichki ruhiy bardosh	Faol harakat, xavfni yengish

Xulosa

Sharq va G‘arb xalq og‘zaki ijodidagi ayol obrazlari bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlarni namoyon etadi. Sharqda ayol ko’proq ruhiy qudrat, sadoqat va fidoyilik timsoli bo’lsa, G‘arbda u faol, mustaqil va qaror qabul qiluvchi sifatida gavdalanadi. Bu obrazlar har bir madaniyatning o’z qadriyatlari va ijtimoiy funksiyalari asosida shakllangan bo’lib, ayol timsoli orqali xalq tafakkurining chuqur qatlamlari ochiladi. Xalq og‘zaki ijodida ayol obrazi har doim e'tiborni jalb etgan. Bu obraz orqali xalq o‘zining axloqiy-me’yoriy qarashlarini, ideal ayol timsolini yaratgan. Sharq va G‘arb madaniyatlarida bu timsollar har xil shakllangan bo‘lsa-da, ularning asosida ayolning ijtimoiy, ma‹naviy va estetik qadriyat sifatidagi rolini ko’rish mumkin. Umuman olganda, o’zbek xalq folklorida ayol obrazlari ijobiy va salbiy qirralarda keng va teran tasvirlangan. Ayol obrazining xilma-xilligi xalqning uni qanday ko’rishi, qadrlashi, undan nimani kutishi va qanday fazilatlarni ulug’lashini yaqqol namoyon etadi. Bu obrazlar orqali avlodlarga axloqiy tarbiya, mehr-oqibat, sabr-toqat, vatanparvarlik, va sadoqat kabi fazilatlar singdiriladi. Sharq va G‘arb xalq og‘zaki ijodidagi ayol obrazlari bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlarni namoyon etadi. Sharqda ayol ko‘proq ruhiy qudrat, sadoqat va fidoyilik timsoli bo’lsa, G‘arbda u faol, mustaqil va qaror qabul qiluvchi sifatida gavdalanadi. Har ikki madaniyatda ayol obrazlari xalq tafakkurining, qadriyatlar tizimining muhim ifodasi bo’lib, o’z davri va jamiyati haqida muhim tasavvurlarni beradi. Folklordagi bu obrazlarni o‘rganish orqali turli madaniyatlar orasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni anglash, ayolning jamiyatdagi o‘rnini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati tug’iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova, S. *O’zbek xalq ertaklarida obrazlar tizimi*. — Toshkent: Fan, 2012.
2. Shomurodov, Q. *Sharq va G‘arb adabiyotida timsollar talqini*. — Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Propp, V.Ya. *Tarkibiy tahlil asoslari: ertak morfologiyasi*. — Moskva: Nauka, 1976.
4. Ashliman, D. L. *Folk and Fairy Tales: A Handbook*. — Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
5. Grimm, J. & Grimm, W. *Grimm's Fairy Tales*. — London: Puffin Classics, 2008.

6. Andersen, H. C. *Fairy Tales and Stories*. — New York: Oxford University Press, 2009.
7. Tokarev, S.A. *Miflar va folklor: Xalq ijodi tahlili*. — Moskva: Nauka, 1983.
8. Eshonqulova, M. *Xalq og‘zaki ijodida ayol obrazi*. // “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021, №2.

SHARQ VA G’ARB ADABIYOTIDA MUHABBAT MOTIVI

Yoqubbayeva Dilnoza Mahmudjanovna
Qiyosiy tilshunoslik fakulteti lingvistik
tarjimashunoslik yo‘nalish
1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq va G‘arb adabiyotlarida muhabbat motivining tasviri qiyosiy-tahliliy metod asosida o‘rganiladi. Asarda turli madaniy va estetik muhitlarda muhabbatning talqin etilishi, uning ma’naviy va dunyoviy qatlamlari, badiiy obrazlar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Sharq adabiyotidagi tasavvufiy muhabbat va G‘arb adabiyotidagi individuallikka asoslangan sevgi tasviri o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Muhabbat motivi, Sharq adabiyoti, G‘arb adabiyoti, qiyosiy tahlil, ma’naviy muhabbat, dunyoviy muhabbat, badiiy talqin.

Аннотация: В данной статье исследуется образ любовного мотива в Восточной и западной литературе на основе сравнительно-аналитического метода. В работе анализируется трактовка любви в различных культурных и эстетических средах, ее выражение через духовные и светские слои, через художественные образы. Будут освещены сходства и различия между мистической любовью в восточной литературе и изображением любви, основанной на индивидуальности, в западной литературе.

Ключевые слова: мотив любви, Восточная литература, западная литература, сравнительный анализ, духовная любовь, светская любовь, художественная интерпретация.

Abstract: This article examines the image of the love motif in Eastern and Western literature based on a comparative analytical method. The work analyzes the interpretation of love in various cultural and aesthetic environments, its expression through spiritual and secular layers, through artistic images. The similarities and differences between mystical love in Eastern literature and the depiction of personality-based love in Western literature will be highlighted.

Keywords: Motive of love, Oriental literature, Western literature, comparative analysis, spiritual love, secular love, artistic interpretation.

Muhabbat motivi dunyo adabiyotining abadiy va yetakchi mavzularidan biri bo‘lib, turli tarixiy va madaniy makonlarda o‘ziga xos tarzda talqin etilgan. Sharq adabiyotida muhabbat ko‘proq ilohiy, ma’naviy va tasavvufiy ruhda ifodalangan bo‘lsa, G‘arb adabiyotida u shaxsiy his-tuyg‘ular, individuallik va ijtimoiy erkinlik tamoyillari asosida tasvirlangan. Biz esa qiyosiy-tahliliy metod asosida Sharq va

G‘arb adabiy maktablarida muhabbat motivining ma’no qatlamlari, badiiy ifodasi va estetik talqinini o’rganamiz.

SHARQ ADABIYOTIDA MUHABBAT MOTIVI

Sharq adabiyotida muhabbat motivi ko‘pincha ilohiy darajaga ko‘tarilgan, insoniy sevgidan ilohiy haqiqatga eltuvchi vosita sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, fors-tojik adabiyoti vakillari - Alisher Navoiy, Hofiz, Sa’diy, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarning asarlarida muhabbat — ma’rifat sari olib boruvchi ichki sayohat, Allohga yetishish va o‘zini anglash yo‘li sifatida aks etadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida Majnunning Layliga bo‘lgan sadoqati va iztiroblari nafaqat dunyoviy muhabbatni, balki ruhiy komillik sari intilishni ham ifodalaydi. Majnun Laylini sevish orqali o‘zining insoniy chegaralaridan chiqadi va ruhiy poklanish bosqichlariga ko‘tariladi. Bu jihat tasavvuf ta’sirida shakllangan yuksak ma’naviy mafkuraning adabiyotdagi ifodasidir. Umuman olganda, tasavvufiy tafakkurda muhabbat - bu nafaqat insonlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlik, balki inson ruhining ilohiy haqiqatni anglashi va unga yetishish jarayoni sifatida ko‘riladi. Shuning uchun Sharq adabiyotida muhabbat ko‘pincha fidoyilik, sabr, tavozu, va ichki tozalikka intilish ramzi sifatida badiiy talqin topgan.

Bu haqida adabiyotshunos olim Abdulaziz Kayumov shunday deydi[101]:

“Sharq she’riyatida muhabbat tasavvufiy ma’nolar bilan boyigan: u nafaqat ikki inson o‘rtasidagi muhabbatni, balki inson va iloh o‘rtasidagi abadiy bog‘liqlikni ifodalaydi”

Shunga o‘xshash tarzda, Jaloliddin Rumiy o‘z asarlarida muhabbatni ilohiy tajriba sifatida tasvirlaydi. Uning “Masnaviy” asarida muhabbat insonni o‘z haqiqiy mohiyatini anglashga va Alloh bilan birlashishga yetaklovchi kuch sifatida ta’riflanadi. Rumiy shunday yozadi: “Muhabbat olovdir, u yonmagan qalb – tosh kabidir.” Bu baytda muhabbat nafaqat his-tuyg‘u, balki ruhiy uyg‘onish va o‘zlikdan voz kechish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Hofiz Sheroziyning g‘azallarida ham muhabbat tasavvufiy ma’noda yuksak darajada kuylanadi. Uning she’riyatida yor - ko‘pincha Allohning timsoli bo‘lib, haqiqiy oshiq yorini sevish orqali ilohiy nurga yetishadi. Hofiz shunday deydi[102]:

“Ey yor, sening muhabbatingni sharob bilib ichdim, Shu mastlikda dunyodagi barcha g‘amdan o‘zimmi qutqardim.”

Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bustan” asarlarida esa muhabbat insoniy kamolot va axloqiy tozalikning asosiy omili sifatida ifodalanadi. U muhabbatni inson qalbini yuksaltiruvchi, uni mehr-shafqat va adolat sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi.

G‘ARB ADABIYOTIDA MUHABBAT MOTIVI

G‘arb adabiyotida muhabbat ko‘proq **shaxsiy his-tuyg‘ular**, **erkin tanlov** va **individuallik** tamoyillari asosida tasvirlanadi. Sharq adabiyotidan farqli

[101] Kayumov A. *Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti*, Toshkent, Fan, 1979, 45-bet
[102] Hofiz g‘azallari" (Abdulla Oripov tarjimasi, Toshkent, 1990-yil

o‘laroq, G‘arbda muhabbat ko‘pincha **ijtimoiy normalarga, an’analarga va qoidabuzarlik** sifatida qarshi turuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Sevgi — insonning o‘zligini ifodalashi, erkin qaror qabul qilishi va o‘z shaxsiy baxti uchun kurashish vositasi sifatida tasvirlanadi. Masalan, **Uyg‘onish davri adabiyoti** muhabbatni tabiiy insoniy ehtiyoj va hayotiy quvonch sifatida ko‘rsatadi. **Uyg‘onish** inson shaxsiga, uning his-tuyg‘ulariga va aql-idrokiga e’tiborni kuchaytirgani uchun bu davrda muhabbat asarlar markaziga chiqadi.

Uilyam Shekspir bu borada eng yorqin adibdir. Uning "Romeo va Julietta" tragediyasida ikki yoshning bir-biriga bo‘lgan chuqur va beg‘ubor muhabbati ular o‘sib-o‘sgan jamiyat — ya’ni oilaviy adovat va qadimgi urf-odatlar qarshiligiga duch keladi. Shekspir muhabbatni insoniy erkinlik va hayotiy tanlov sifatida ko‘rsatadi: Romeo va Julietta o‘z muhabbatini saqlab qolish uchun jamiyat qoidalarini buzadilar, hatto o‘z hayotlarini qurbon qiladilar.

G‘arb adabiyotida muhabbat motivi insonning ichki kechinmalari va shaxsiy iztiroblarini ifodalashda muhim o‘rin tutar ekan, Johann Wolfgang von Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" (*Die Leiden des jungen Werthers*, 1774) asarini ham misol qilib olishimiz mumkin va ushbu asarda muhabbat qahramonning butun ichki dunyosini qamrab oluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Asarda Verter Lotteni chin yurakdan sevadi, biroq bu sevgi jamiyat me’yorlari va shaxsiy imkoniyatsizlik tufayli imkonsiz bo‘lib qoladi. Gyotening talqinida muhabbat shunchaki ikki inson o‘rtasidagi his-tuyg‘u emas, balki insonning ichki ehtiyojlarini, erkinlikka va to‘la hayotiy tajribaga intilishini ifodalovchi falsafiy tushuncha sifatida ko‘rsatiladi.

Verterning muhabbati unga hayotni nihoyatda kuchli va jo‘shqin his qilish imkonini beradi, biroq ayni paytda bu kuch uni chidab bo‘lmas azob-uqubatga duchor qiladi. Asar davomida Verterning kechinmalari shunchalik chuqurlashadiki, oxir-oqibat u o‘z muhabbatiga erisha olmaslik iztirobi tufayli o‘z joniga qasd qiladi. Gyote bu asar orqali muhabbatni insonni oliy zavq va eng tuban iztiroblar o‘rtasida tebratadigan kuch sifatida tasvirlaydi.

Gyote asarida shunday yozadi[103]: **"Men seni sevmaslikni xohlasam-da, sevaman; sening mavjudliging butun vujudimni to‘ldirib yuboradi."** (*Die Leiden des jungen Werthers*)

Bu iqtibos Verterning muhabbatga qarshi ojizligini va uning bu tuyg‘u oldidagi to‘liq taslim bo‘lishini ko‘rsatadi. Verter uchun muhabbat — nafaqat shaxsiy baxt, balki shaxsiy fojia manbai hamdir. Bundan tashqari, Gyote muhabbatni inson tabiatining doimiy paradoksal holati sifatida ko‘rsatadi: u bir tomondan insonni yuksaltiradi, ikkinchi tomondan esa uni vayron qiladi. "Yosh Verterning iztiroblari" G‘arb adabiyotida romantizm ruhining shakllanishiga asos bo‘lgan va muhabbatning tragik, individualistik talqiniga asos solgan asarlardan biridir.

Modernizm davrida esa muhabbat motivi an'anaviy adabiyotdan farq qilib, individual ong va psixologik kechinmalar nuqtayi nazaridan tasvirlanadi. Bu davrda muhabbat nafaqat jismoniy his-tuyg‘ular, balki insonning ichki dunyosi,

[103] Goethe, Johann Wolfgang von. **Die Leiden des jungen Werthers**. 1774. P-98

ruhiy holatlari va shaxsiy iztiroblari orqali yoritiladi. Modernizm adabiyotida muhabbat ko‘pincha murakkab va ziddiyatli, insonning ruhiyatini ochib beruvchi bir motiv sifatida ishlatiladi. Bu o‘zgarishlarning badiiy ifodasini D.H. Lorensning asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin.

D. H. Lorensning "Sariq gullar" va "O‘lim va sevgisi" kabi asarlarida muhabbat insonning psixologik kechinmalarini va ongini ochib beradigan murakkab motiv sifatida ko‘riladi. Lorens muhabbatni insonning ichki dunyosidagi qarama-qarshi kuchlar, instinktiv va mantiqiy his-tuyg‘ular orasidagi ziddiyatlarni tasvirlash uchun ishlatadi. Uning asarlarida muhabbat nafaqat jismoniy ehtiroslar, balki ruhiy va intellektual qiyinchiliklar, ehtiroslar va aqlning o‘zaro kurashi sifatida ko‘rsatiladi.

Lorensning **"Sariq gullar"** asarida muhabbat erkinlikka, hissiyotlarga va tabiatga bo‘lgan ehtiyojni ifodalaydi. Asarda asosiy qahramonlar, ayol va erkak, o‘rtasidagi muhabbat, shaxsiy erkinlik va yuksak ehtiroslar bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasida tushunmovchiliklar va ziddiyatlar yuzaga keladi. Bu ziddiyatlar nafaqat tashqi omillar, balki ularning ichki kechinmalari va ruhiy holatlari bilan bog‘liq. Lorens shunday deb yozadi: *"Sevgi, bir tomondan, bizni yuksaltiradi, lekin boshqa tomondan, bizni o‘zimizga nisbatan jaholatga tushiradi."*

QIYOSIY TAHLIL NATIJALARI

Muhabbat motivi Sharq va G‘arb adabiyotida turli shakllarda ifodalangan bo‘lsa-da, har ikkala madaniyatda ham insonning ichki dunyosini, ruhiyatini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim badiiy vosita sifatida ko‘rsatiladi. Sharq adabiyotida muhabbat ko‘pincha ilohiy, ma’naviy va tasavvufiy ma’nolarda talqin qilinadi, bunda muhabbat yuksak ma’naviy pog‘onaga yetishishning vositasi sifatida qaraladi. G‘arb adabiyotida esa muhabbat ko‘proq shaxsiy va dunyoviy his-tuyg‘ular sifatida tasvirlanadi. Shekspirning "Romeo va Julietta" tragediyasida muhabbat yoshlarning jamiyat qoidalari va oilaviy adovatga qarshi kurashuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikkala madaniyatda ham muhabbat insonning ruhiy holatini aks ettiradi, ammo Sharqda u ilohiy maqsadga erishish uchun ruhiy komillikka olib boruvchi kuch sifatida, G‘arbda esa shaxsiy iztirob va ichki ziddiyatlar ramzi sifatida tasvirlanadi. Sharq adabiyotida muhabbat nafaqat insonlar o‘rtasidagi sevgi, balki ilohiy muhabbat va ma’rifatga yetishish jarayonining ifodasidir, G‘arbda esa muhabbat shaxsiy ehtiros va ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha tashqi muhit, jamiyat yoki oilaviy an’analarga qarshi kurashuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq va G‘arb adabiyotida muhabbat motivi turli shakllarda va turli ma’nolarda ifodalangan bo‘lsa-da, har ikkala madaniyatda ham u insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi, ruhiy holatini o‘rganishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida yoritilgan. Sharq adabiyotida muhabbat ilohiy va ma’naviy jihatlarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, G‘arb adabiyotida esa ko‘proq shaxsiy his-tuyg‘ular va ichki ziddiyatlar tasvirlangan. Shu bilan birga, har ikki madaniyatda ham muhabbat insonning ruhiyatini va ichki dunyosini aks ettiruvchi

kuch sifatida qaraladi, lekin ularning ifodalanishi madaniy va dunyoqarashdagi farqlarni ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Kayumov A. *Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti*, Toshkent, Fan, 1979, 45-bet
2. Hofiz g‘azallari" (Abdulla Oripov tarjimasi, Toshkent, 1990-yil. B-16-17
3. Goethe, Johann Wolfgang von. Die Leiden des jungen Werthers. 1774. P-98
4. Comparative Study of Love in Eastern and Western Literature: From Rumi to Shakespeare. August 2024. International Journal of Literature Studies 4(2):64-69. DOI:10.32996/ijts.2024.4.2.9
5. EASTERN AND WESTERN RENAISSANCE LITERATURE COMPARATIVE. Dilnoza Usmanovna Rakhmatullaeva. 2021 // https://cyberleninka.ru/article/n/eastern-and-western-renaissance-
6. Boys’ Love Romance in the Realm of Popular Literature: Genre, Motif, and the Future of Romance Ali Mustofa alimustofa@unesa.ac.id English Department Universitas Negeri Surabaya Surabaya, Indonesia. DOI 10.4108/eai.14-8-2021.2317615
7. SHARQ VA G'ARB TAFAKKURIDA "ISHQ" VA "MUHABBAT" TUSHUNCHALARI KOMPARATIVISTIKASI. Ruzmatova Gulnoz Mirakhrarovna. educational, natural and social sciences 4(8), Sep., 2024. ISSN: 2181-1784

PARADOX VA UNING ADABIYOTDAGI TALQINI (INGLIZ ADABIYOTI MISOLIDA)

Komilova Muxarramxon Nosirjon qizi,
NamDCHTI Magistratura talabasi,
mukharramkomilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda paradoks atamasi va uning asosan badiiy adabiyotda qo'llanilish holatlari keltirilgan bo'lib, paradoksning vazifasi, uning adabiy asar mazmunini yanada boyitish va asarni yanada ta'sirliroq bo'lishiga hissa qo'shishi haqida so'z boradi. Shuningdek ushbu tezis, badiiy adabiyotda foydalanilgan paradoksning eng mashhur va mohirona ifodalangan holatlarini misol tariqasida keltiradi va ularni semantik va pragmatik jihatdan tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot paradoks orqali tasvirlash usulining adabiyotdagi o'rni qanchalik muhimligini ta'kidlab o'tadi va uning adabiyotshunoslikda tutgan o'rni haqida tushuncha berishga, uning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: paradoks, adabiy obraz, qarama-qarshilik, mantiqiy fikrlash, chuqur ma'no, falsafiy qarashlar, zid ma'nolilik, hayratlanarli tasvir, absurd

Annotation: This thesis presents the term paradox and its use mainly in fiction, and discusses the function of paradox, its contribution to enriching the content of a literary work and making it more effective. This thesis also cites as examples the most famous and skillfully expressed cases of paradox used in fiction and analyzes them semantically and pragmatically. This study emphasizes the importance of the role of the method of description through paradox in literature and aims to provide a broader understanding of its role in literary criticism, to reveal its creative potential and influence on modern literature.

Keywords: paradox, literary image, contradiction, logical thinking, deep meaning, philosophical views, contradictory meaning, surprising image, absurd

Аннотация: В данной диссертации рассматривается термин «парадокс» и его использование, в основном в художественной литературе, а также обсуждается функция парадокса, его способность обогащать содержание литературного произведения и делать его более эффективным. В диссертации в качестве примеров приводятся наиболее известные и искусно выраженные случаи парадокса, используемые в художественной литературе, и анализируются они семантически и прагматически. В настоящем исследовании подчеркивается важность парадоксального метода описания в литературе и ставится цель обеспечить более широкое понимание его роли в литературоведении, раскрыть его творческий потенциал и влияние на современную литературу.

Ключевые слова: парадокс, литературный образ, противоречие, логическое мышление, глубокий смысл, философские взгляды, противоречивый смысл, удивительный образ, абсурд

Kirish. Paradoks - bu avvaliga qarama-qarshi bo'lib ko'rinadigan, ammo mulohaza yuritilgandan so'ng mantiqiy bo'lgan bayonot. Ushbu badiiy tasvir vositasi odatda o'quvchini o'ziga qarama-qarshi bo'lib tuyuladigan gap yoki iborada asosiy mantiqni topishga jalb qilish uchun ishlatiladi. Natijada, paradoks o'quvchilarga tushunchalarni boshqacha va hatto noan'anaviy tarzda tushunishga imkon beradi.

Qadimgi yunonlar paradoks bizni odatiy fikrlash doiramizdan tashqariga olib chiqishi mumkinligini yaxshi bilishgan. Ular para- ("beyond" yoki "tashqarida") prefiksini dokein ("o'ylash") fe'li bilan birlashtirib, "kutishganga zid" degan ma'noni anglatuvchi **paradoks** so'zini hosil qilgan. Lotin tilida so'zlashuvchilar bu so'zni paradoksal ot uchun asos sifatida ishlatishgan, ingliz tilida so'zlashuvchilar 1500-yillarda paradoks so'zini o'z tilariga olib kirishgan.

Adabiyotda, paradoks bu hayratlanarli tasvir yoki kutilmagan tushunchani yuzaga keltirish maqsadida bir biriga zid bo'lgan g'oyalarning birgalikda g'ayritabiiy holda ishatilishidir. U adabiy kompozitsiya va tahlil usuli vazifasini bajaradi, bu bir qarashda qarama-qarshi bo'lgan ibora va so'zlarni o'rganish va ularni bir biriga moslashtirish yoki ularning ishlatilish sabablarini izohlaydi va kerakli xulosalar beradi.

Paradokslar ko'pincha istehzoli haqiqatlarni etkazish uchun aforizmlar sifatida ishlatiladi (masalan, "Pul topish uchun pul sarflash kerak").

Ba'zi paradokslar haqiqatni mantiqsiz bo'lib tuyulgan bayonotlar orqali ochib beradi, boshqalari esa odatiy fikrlashdagi kamchiliklarni ochib beradi.

"Kamroq - ko'p" ("Less is more")- bu paradoksning kundalik misolidir. Bu so'z odatda oddiy, minimalist estetikaning ta'siri va jozibadorligini ta'kidlash uchun ishlatiladi.

Adabiyot va ritorikada paradokslar ritorik vositalar yoki syujet vositalari sifatida ishlatilishi mumkin. Paradokslar odatda adabiyotda falsafiy mushohadalarni esda qolarli va ba'zan hazil tarzida ifodalash uchun qo'llaniladi, biroq ular tanqidni ifodalash uchun satirik sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Paradokslar mantiq va falsafaning boshqa sohalarida ham muhim rol o'ynaydi, ular o'rnatilgan mantiqiy tizimlarga qarshi chiqadilar va inson bilimlari yoki tushunchalaridagi bo'shliqlarni ko'rsatadilar. Mantiqiy va falsafiy paradokslar boshqa fanlarga, jumladan, matematika va fanga ta'sir qilishi mumkin.

Adabiy paradox. Adabiyotdagi paradokslar o'z-o'zidan qarama-qarshi ko'rinadigan, ammo haqiqat yoki tushunchaning ajoyib elementlarini o'z ichiga olgan bayonotlar yoki syujet nuqtalarini o'z ichiga oladi. Adabiy paradoks ko'plab maqsadlarga xizmat qilishi mumkin, masalan, hazil, absurdlik, falsafiy hikmat yoki ijtimoiy tanqidni etkazish. Adabiy paradokslar ko'pincha matnning asosiy xabarini ta'kidlaydi.

Quyida adabiy paradoxning eng mashhur misollarini ko'rishimz mumkin:

a) **"Bola - bu odamning otasi." ("The Child is father of the Man.")** Uilyam Wordsvortning "Mening yuragim ko'tariladi" she'rida bu paradoks bolalik tajribasining kattalar shaxsiyatiga doimiy ta'sirini ta'kidlaydi.

b) "**Men mehribon bo'lish uchungina shafqatsiz bo'lishim kerak." (“I must be cruel, only to be kind.”)** Uilyam Shekspirning "Gamlet" asarida bu paradoks Gamletning qo'pol harakatlarini katta yaxshilikka erishish uchun zarurligini tushuntiradi.

c) **"Bu dunyoda faqat ikkita fojia bor: biri xohlagan narsaga erisha olmaydi, ikkinchisi esa unga erishadi." (“In this world there are only two tragedies. One is not getting what one wants, and the other is getting it.”)** Oskar Uayldning “Ledi Uindermirning muxlisi” asarida paradokslar kulgili falsafiy kuzatishlar yoki inson tabiatini tanqid qilish uchun ishlatiladi.

d) **"Urush - tinchlik, ozodlik - qullik, johillik - kuch". (“War is peace. Freedom is slavery. Ignorance is strength.”)** Jorj Oruellning 1984 yilgi asarida Haqiqat vazirligining bu paradoksal shiorlari urushni, hokimiyatga bo'ysunishni va jaholatni targ'ib qilish uchun tashviqotdan dahshatli foydalanishni masxara qiladi.

e) **"Barcha hayvonlar teng, lekin ba'zi hayvonlar boshqalarga qaraganda tengroq" ("All animals are equal, but some animals are more equal than others")** Jorj Oruellning “Molxona” romanidagi bu mashhur paradoks ierarxik tuzilmalarni yaratishda tenglikni da'vo qiladigan jamiyatning ikkiyuzlamachiligini ochib beradi.

f) **“Baxt – bu bo’linganda ko’payadi” (Happiness is something that multiplies when it is divided)** Paulo Koeloning “Piedra daryosi bo‘yida o‘tirib yig‘ladim” (By the River Piedra I Sat Down and Wept) asaridagi uhbu mashhur iqtibos baxtni baham ko'rish, uni boshqalarga berish kabi, aslida o'z baxt tuyg'usini oshiradi. Bu umumiy his-tuyg'u bo'lib, ko'pincha quvonch boshdan kechirilganda va boshqalar bilan baham ko'rilganda kuchayadi degan fikr bilan bog'liq.

Paradokslar ko'pincha syujetning burilishlari yoki chuqurroq tematik yoylarga hissa qo'shadi va yozuvchilar paradokslardan murakkab g'oyalarni o'rganish, taxminlarga qarshi chiqish yoki o'z ishlariga murakkablik qatlami qo'shish uchun foydalanadilar. Bu o'quvchini chalkashtirib yuborish emas - bu ularni chuqurroq o'ylashga undashdir.

Yozuvchilar aqlli ko’rinish uchungina o'z asarlarida shunchaki paradokslardan foydalanmaydilar. Paradokslar adabiyotda kuchli maqsadga xizmat qiladi: ular o‘quvchilarni o‘ylashga, savol berishga va yanada teran fikrlashga majbur qiladi. Ular qanchalik ko'p tahlil qilsangiz yoki ular haqida fikr yuritsangiz, paradox shunchalik chuqur ma’no kasb etaveradi. Xo'sh, nega paradokslar mualliflar, shoirlar va dramaturglar orasida juda mashhur? Quyida bir nechta sabablar keltirib o’tamiz.

1) O’quvchini fikrlashga undaydi

Yaxshi paradoks bizni biroz to'xtab turishga va haqiqat deb hisoblagan narsalar haqida qayta o’ylab ko’rishga majbur qiladi. Bu narsalar oddiy ko'rinadigan joyda murakkablikni va narsalar murakkab ko'rinadigan joyda soddalikni ko’rsatadi. Bu tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi

2) Mavzuga chuqur saviyadorlik va ma’no qatlamlarni qo'shadi

Sevgi, vaqt, o'ziga xoslik yoki haqiqat kabi mavzular ko'pincha oq-qora fikrlashga qarshi turadi. Misol uchun, 1984 yilda "Ozodlik - qullik" shiori dastlab bema'ni tuyulishi mumkin, ammo kontekstda bu totalitar tuzumning o'ralgan mantiqini ochib beradi.

3) Ichki ziddiyatni aks ettirish

Asardagi obrazlar kamdan-kam hollarda bir o'lchovli bo'ladi. Ularning ichki ziddiyatlari, shubhalari va to'qnashuvlari ifodasisiz asar to'liq bo'lmaydi. Paradokslar, ayniqsa, birinchi shaxsning o'z o'zini tanqid qilish hikoyalarida yaxshi ish beradi, bu yerda qahramonning ichki notinchligi e'tibor markazidadir. Ular ko'pincha dialogda paydo bo'lib, uni yanada realistik qiladi, realizm va ichki ziddiyatni qo'shib, o'quvchilarga qahramonning hissiy yoki falsafiy kurashi bilan bog'lanishiga yordam beradi. "Olomon ichida o'zimni yolg'iz his qilaman" degan qahramon bir jumlada chuqur va o'ziga xos narsani ochib beradi.

4. Hissiy yoki falsafiy aloqadorlik uyg'otish uchun

Paradokslar esda qolarli. Ular sahifani ochganingizdan keyin ko'p vaqt o'tgach, sizning fikringizda aks-sado beradi. Ular "Kutib turing ... ha?" lahza - keyin "Voy". O'sha hissiy yoki intellektual pauza buyuk adabiyotning maqsadidir.

Xulosa

Muxtasar qilib aytganda, paradokslar shunchaki chiroyli jumboqlar emas - ular chegaralarni kengaytiradigan va haqiqatni kutilmagan tarzda ochib beradigan hikoya qilish vositalaridir.

Paradokslar adabiyotning mazmunli bo'lishi uchun darhol ma'noga ega bo'lishi shart emasligining isbotidir - aslida, ba'zida eng kuchli haqiqatlar qarama-qarshiliklar ichida yashiringan. Shekspirning ziddiyatli qahramonlaridan tortib, Oruellning dahshatli shiorlarigacha paradokslar bizni to'xtashga, o'ylashga va dunyoni boshqa tomondan ko'rishga majbur qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shabo, M. (2025, February 07). *What Is a Paradox? | Definition & Examples*. Scribbr. Retrieved April 28, 2025, from https://www.scribbr.com/rhetoric/paradox/
2. https://spines.com/paradox-definition-literature/
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Paradox_(literature)
4. https://youtube.com/shorts/bOjdhIyWBPU?si=VpGXEuTewuUYbj7w
5. Rescher, Nicholas. *Paradoxes: Their Roots, Range, and Resolution.* Open Court: Chicago, 2001.
6. *Literary Theory: An Anthology*, 2nd Ed., Eds. Julie Rivkin and Michael Ryan
7. From "A Tall Story" in *The Paradoxes of Mr. Pond*.
8. Crane, R.S. "Cleanth Brooks; Or, The Bankruptcy of Critical Monism." In *Modern Philology*, Vol. 45, No. 4 (May 1948) pp 226–245.
9. Searle, Leroy. "New Criticism." In *The Johns Hopkins Guide to Literary Theory and Criticism*, 2nd edition. Edited by Michael Groden, Martin Kreiswirth, and Imre Szeman. Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2005.

SATIRA VA HAJVIY DRAMMATURGIYANING TARIXIY TARAQQIYOTI VA DAVRLARARO TAHLILI

Sultanova Feruza Akbarovna,
NamanganDChTIi magistranti.
ezozshahnoza@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada satira va hajviyaning turli xil davrlardagi rivojlanish bosqichlari, asosiy yo'nalishlari va tanqidiy mavzulari tahlil qilinadi. Antik davrdan to XX asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotda satira jamiyatdagi muammolar, adolatsizliklar, insoniy kamchiliklarni fosh etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va bu xususiyatini hozirgi kunda ham saqlab qolmoqda. Har bir davr madaniy, siyosiy, ijtimoiy va falsafiy sharoitiga mos ravishda satiraning shakli va mazmuni o'zgarib, bir-biridan farqlanib borgan.

Kalit so'zlar:

Satira, hajviya, taraqqiyot, jamiyat, siyosat, adolatsizlik, yumor, kulgi, tanqid, axloqiy-diniy, ijtimoiy, feodalizm, byurokratiya, mansabparastlik.

Annotatsiya

This article analyzes the developmental stages, main trends, and critical themes of the satire in various historical periods. From antiquity to the 20th century, satire has served as a means of exposing societal problems, injustices, and human flaws. The form and content of satire have changed in accordance with the cultural, political, and philosophical conditions of each era.

Key words:

Satire, humor, development, nation, society, politics, injustice, irony, criticize, esthetic- religious, social, feudalism, bureaucracy, place-hunter, careerism.

Аннотация

Эта статья анализирует этапы развития, основные тенденции и критические темы сатиры в различные исторические периоды. С античности до XX века сатира служила средством разоблачения общественных проблем, несправедливости и человеческих пороков. Форма и содержание сатиры изменялись в соответствии с культурными, политическими и философскими условиями каждой эпохи.

Ключевые слова:

Сатира, юмор, сатира, комическое произведение, развитие, общество, политика, несправедливость, смех, критика, нравственно-религиозный, социальный, общественный, феодализм, бюрократия, стяжательство.

Kirish

Adabiyot jamiyatning oynasi bo'lib, unda davr, inson va ijtimoiy muhit aks etadi. Xususan, satira va hajviy dramaturgiya adabiyotning eng ta'sirchan

usullaridan biri bo‘lib, ular jamiyatdagi kamchiliklarni ochib tashlash, odamlarni kulgi orqali o‘ylashga undash va o‘ziga xos ijtimoiy belgi berish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, komediyaning bu yo’nalishlari davralararo o’zgarib turgan bo’lib, usha davr muammolari va qiyinchiliklarini yoritib berish va bir-biridan farqlash vazifalarni bajargan. Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos madaniy, siyosiy va falsafiy sharoitlari satiraning yo‘nalishiga va asosiy e'tibor qaratilgan jihatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Quyida turli davrlarda satira qanday rivojlanganiga nazar tashlaymiz.

Antik davr: kulgi va tanqid uyg‘unligi. Antik davrda, xususan Yunon va Rim adabiyotida satira ilk bor o‘zining asosiy shaklini topa boshladi. Bu davrda kulgi orqali tanqid qilish, jamiyatdagi nohaqliklarni fosh etish, axloqsizlik va kibr kabi insoniy kamchiliklarga qarshi kurashish asosiy vazifa bo‘lgan. Yunon dramaturgiyasi — Aristofan komediyalarida siyosiy tanqid, falsafiy masalalar va jamiyat illatlari ustida kulgi vositasida fikr yuritilgan. Rim adabiyotida esa satira mustaqil janr sifatida shakllandi. Xususan, Yuvinal va Goratssiy kabi adiblar asarlarida rimliklarning axloqiy buzilishi, boylikka ruju qo‘yishi, yolg‘on va ikkiyuzlamachilik keskin tanqid qilingan. Antik davr satirasi kulgi orqali o‘rgatish, tarbiyalash va jamiyatni isloh qilish g‘oyasiga xizmat qilgan.

O‘rta asrlar: axloqiy-diniy tanqid markazda. O‘rta asrlarda diniy dunyoqarash ustuvor bo‘lib, feodal tuzum jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrda satira, asosan, diniy va axloqiy normalarga zid bo‘lgan harakatlar, ayniqsa ruhoniylarning ikkiyuzlamachiligi, insoniy illatlar (xasislik, manmanlik) va adolatsizliklarni fosh etishga yo‘naltirilgan. Asarlar ko‘pincha didaktik ruhda, ya’ni o‘quvchini tarbiyalash, uni yomon illatlardan ogoh etish maqsadida yozilgan. Masalan, ingliz adabiyotida Joffri Choserni misol qilish mumkin.

Renessans: inson markazga chiqadi. Renessans davri o‘zining insonparvarlik g‘oyalari, antik madaniyatga qiziqish va dunyoviy mavzularga yuzlanish bilan ajralib turadi. Satira ham bu davrda yangicha mazmun kasb etadi: u insonning aqliy qobiliyatlari bilan bir qatorda uning illatlarini, davlat arboblari, sud xodimlari, boylar va jamiyatdagi boshqa tabaqalarni tanqid ostiga oladi. Satirik asarlarda o‘tkir til, kinoya va yumor kuchli bo‘lib, ularning maqsadi nafaqat kuldirish, balki chuqur o‘ylantirish edi. Misol tariqasida Erazm Rotterdamskiyning “Ahmoqlik madhiyasi” asarini eslash mumkin.

Ma'rifatparvarlik davri: aql va mantiq ustuvorligi. XVII–XVIII asrlarda yuzaga kelgan Ma’rifatparvarlik harakati satirada ham yangi yo‘nalishni shakllantirdi. Bu davrda aql va mantiq, fan va bilim, inson huquqlari asosiy qadriyat sifatida ilgari surildi. Satira feodalizm qoldiqlari, diniy fanatizm, aristokratiyaning bema’niliklari, ijtimoiy tengsizliklarni fosh etishga qaratilgan. Bu davr satirasi ham didaktik xususiyatga ega bo‘lib, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishga harakat qilgan. Fransuz adabiyoti vakili Volter asarlari bunga yorqin misoldir.

XX asr: global tanqid va yangi uslublar. XX asrda satiraning mavzu doirasi yanada kengaydi. Bu davr totalitar rejimlar, urushlar, ideologik qarama-

qarshiliklar, byurokratiya, iste’molchilik va ommaviy madaniyat hodisalarini keskin tanqid qilgan. Satira shakl jihatidan ham boyidi: absurd, qora yumor, fantastik satira kabi uslublar paydo bo‘ldi. Ushbu asarlar ko‘pincha siyosiy ideologiyalarni tanqid qilish bilan birga, insonning zamonaviy jamiyatdagi holatiga ham chuqur e’tibor qaratdi. Ingliz yozuvchisi Jorj Oruellning “ Molxona” yoki “1984” romanlari bunga yorqin misoldir. Bu davrda turkiy adabiyotning yirik vakili Aziz Nesin o‘zining o‘tkir hajviy asarlari bilan tanildi. U byurokratiya, siyosiy riyokorlik, jamiyatdagi qusurlar va insoniy zaifliklarni keskin tanqid qildi. O‘zbek adabiyotida esa Abdulla Qahhorning hikoyalari va romanlarida xalq hayotidagi kamchiliklar, mahalliychilik, mansabparastlik kabi illatlar o‘ziga xos yumor va kinoya bilan tasvirlangan. Ularning ijodi XX asr satirasi nafaqat global, balki milliy miqyosda ham o‘tkir ijtimoiy tanqid quroli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Natijalar

Satiraning O‘rta asrlarda axloqiy-diniy muammolarni, Renessansda insonparvarlik asosidagi ijtimoiy tabaqalarni, Ma’rifatparvarlikda aql va mantiq bilan bog‘liq illatlarni, XX asrda esa siyosiy va global muammolarni fosh etishga yo‘naltirilgani aniqlandi.

Munozara

Turli tarixiy davrlarda satira o‘zining shakl va mazmun jihatidan o‘zgarib bordi. Ammo uning jamiyatdagi muhim vazifasi — tanqidiy fikrni shakllantirish va ijtimoiy adolatsizliklarga qarshi kurashishdagi o‘rni doimiy bo‘lib qoldi.

Xulosa

Satira har qanday davrda jamiyatdagi muammolarni fosh etuvchi “ko‘zgu” bo‘lib xizmat qilgan. U kulgi orqali insonni o‘ylantiradi, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik bildiradi va shu orqali ijobiy o‘zgarishlarga turtki beradi. Har bir davrda satiraning yo‘nalishi o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitidan kelib chiqqan holda shakllanib borgan. Bugungi kunda ham satira o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan — u zamonaviy jamiyat muammolarini yoritishda o‘tkir va ta’sirchan vosita bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Choser, J. (1387). The Canterbury Tales.
Erasmus, D. (1511). The Praise of Folly.
Voltaire. (1759). Candide.
Orwell, G. (1945). Animal Farm.
Orwell, G. (1948). 1984.
A. Fitrat “Adabiyot qoidalari”, Tanlangan asarlar – T. Ma’naviyat 2006
A.Qahhor “ O’tmishdan ertaklar”- Toshkent,2001
A.Nesin. “G’aroyib bolalar” 1967
Xasanova, Sh. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.
Axmedov, M. (2007). Satira va hajviy asarlar tahlili. Samarqand: SamDU nashriyoti.
Britannica. (2024). Satire. www.britannica.com

"YO'QOTILGAN AVLOD ADABIYOTIDA INSONIY INQIROZNING BADIIY TALQINI"

NamDChTI magistranti
Qodirova Zebiniso

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarida shakllangan "yo‘qotilgan avlod" adabiyoti tahlil qilinadi hamda uning badiiy xususiyatlari, tematik yo‘nalishlari va insoniy inqirozning talqini ochib beriladi. Muallif Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, Gertrude Stein kabi adiblar ijodi misolida urushdan keyingi inson ruhiyati, qadriyatlar yemirilishi va jamiyat bilan shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar tahliliga urg‘u beradi. Maqolada, shuningdek, yo‘qotilgan avlod adabiyotining jahon adabiy jarayoniga ko‘rsatgan ta’siri, uning modernizm va ekzistensializm bilan ideaviy va uslubiy bog‘liqliklari yoritiladi. Tadqiqot natijalari adabiyotda insoniy inqirozning umumlashtirilgan badiiy talqinini ko‘rsatib beradi va bu adabiy oqimning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: yo‘qotilgan avlod, adabiy modernizm, insoniy inqiroz, Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, urushdan keyingi adabiyot, badiiy talqin, ekzistensializm, XX asr adabiyoti, ruhiy bo‘shliq.

Annotation

This article analyzes the "Lost Generation" literature that emerged in the early 20th century, focusing on its artistic characteristics, thematic directions, and the literary interpretation of the human crisis. Through the works of authors such as Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, and Gertrude Stein, the article explores postwar human psychology, the collapse of values, and the tension between the individual and society. It also highlights the influence of the Lost Generation on global literary development and its philosophical and stylistic links to modernism and existentialism. The findings demonstrate how the Lost Generation conveyed a generalized artistic vision of human crisis and confirm the continued relevance of this literary trend.

Keywords: Lost Generation, literary modernism, human crisis, Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, postwar literature, literary interpretation, existentialism, 20th-century literature, spiritual emptiness.

Аннотация

В данной статье анализируется литература «потерянного поколения», сформировавшаяся в начале XX века, а также её художественные особенности, тематические направления и интерпретация человеческого кризиса. На примере творчества таких писателей, как Эрнест Хемингуэй, Фрэнсис Скотт Фицджеральд и Гертруда Стайн, рассматриваются духовное состояние человека после войны, разрушение ценностей и конфликты между личностью и обществом. Кроме того, в статье освещается влияние

литературы потерянного поколения на мировые литературные процессы, её связь с модернизмом и экзистенциализмом. Результаты исследования демонстрируют художественную интерпретацию человеческого кризиса и подтверждают актуальность данного литературного течения.

Ключевые слова: потерянное поколение, литературный модернизм, человеческий кризис, Эрнест Хемингуэй, Фрэнсис Скотт Фицджеральд, послевоенная литература, художественная интерпретация, экзистенциализм, литература XX века, духовная пустота.

Kirish

XX asrning birinchi choragida yuz bergan global ijtimoiy-siyosiy siljishlar, ayniqsa Birinchi jahon urushi insoniyat tafakkurida chuqur iz qoldirdi. Urushdan omon qolgan, biroq ruhan va ma’naviy jihatdan jarohatlangan bir avlod paydo bo‘ldi. Ushbu avlod vakillari adabiyotda o‘z izlarini “yo‘qotilgan avlod” (Lost Generation) nomi bilan qoldirdilar. Bu atama dastlab Gertrude Stein tomonidan ishlatilgan bo‘lib, Ernest Hemingway tomonidan adabiy istiloh sifatida ilmiy muomalaga olib kirilgan. Yo‘qotilgan avlod yozuvchilari o‘z ijodlarida insoniyatning ma’naviy inqirozi, qadriyatlar yemirilishi, urushning ruhiy oqibatlari kabi murakkab masalalarni badiiy tarzda ochib berishga intildilar. Yo‘qotilgan avlod adabiyotining markazida insoniy iztirob, mavjudlik mazmunining so‘roq qilinishi, beqarorlik va begonalashuv kabi holatlar turadi. Ayniqsa, Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald va Gertrude Stein kabi yozuvchilarning asarlarida bu inqiroz holati turli badiiy vositalar bilan tasvirlanadi. Ularning har biri o‘ziga xos uslubda insoniy mavjudlikni, urushdan keyingi bo‘shliqni va umidsizlikni yoritishga harakat qilgan. Ushbu maqolada yo‘qotilgan avlod vakillarining asarlarida insoniy inqirozning qanday badiiy ifoda topgani tahlil qilinadi. Maqola doirasida adiblarning estetik yondashuvlari, badiiy vositalari va uslublari orqali ularning umumiy adabiy-estetik qarashlari ochib beriladi. Shuningdek, mazkur adabiy maktabning ingliz tilidagi modernizm taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ham ko‘rib chiqiladi.

Yo’qotilgan avlod fenomeni: Tarixiy va adabiy asoslar

“Yo‘qotilgan avlod” (Lost Generation) atamasi XX asr boshlarida shakllangan adabiy va ijtimoiy holatni ifodalovchi muhim tushunchalardan biridir. Ushbu atama birinchi marta amerikalik yozuvchi Gertrude Stein tomonidan ishlatilgan bo‘lib, u o‘z shogirdi Ernest Hemingwayga qarata aytgan: “Siz hammangiz yo‘qotilgan avlodsiz.” Hemingway bu iborani o‘zining The Sun Also Rises romanining epigrafi sifatida kiritib, unga adabiylik va konseptual chuqurlik bag‘ishladi. Atama ko‘p o‘tmay keng tarqalib, Birinchi jahon urushi qatnashchilari bo‘lgan, ammo urushdan keyingi dunyoda o‘z o‘rnini topa olmagan yozuvchi va ziyolilar avlodiga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Tarixiy jihatdan olganda, yo‘qotilgan avlod — bu 1914–1918 yillardagi urushda ishtirok etgan, ammo uning dahshatli oqibatlari sababli ruhiy, axloqiy va madaniy tanazzulni boshdan kechirgan yoshlarning nomi edi. Urushdan so‘nggi davrda ularning ko‘pchiligi

Yevropaning turli shaharlari, xususan Parijda to‘planib, yangi adabiy yo‘nalish va ifoda shakllarini izlay boshladilar. Ular an’anaviy realizmga qarshi chiqib, modernistik ifoda vositalarini — ichki monolog, psixologik tahlil, fragmentar syujet tuzilmasini adabiyotga olib kirdilar. Adabiy jihatdan yo‘qotilgan avlod vakillari o‘z asarlarida qahramonlarining beqarorligini, qadriyatlar yemirilgan jamiyatdagi o‘z o‘rnini topa olmayotgan odamning iztirobini tasvirladilar. Hemingwayning quruq, lakonik uslubi; Fitzgeraldning hashamat ortidagi ma’naviy bo‘shliqni fosh etuvchi obrazlari; Steinning til eksperimentlari — bularning barchasi insoniyat ruhiyatidagi inqirozni ifodalash yo‘lidagi izlanishlardir. Shunday qilib, yo‘qotilgan avlod adabiyoti Birinchi jahon urushidan so‘nggi madaniy va ma’naviy muhitning o‘ziga xos aksidir. Bu fenomen orqali yozuvchilar o‘z zamonasining murakkabliklarini badiiy shaklda ifoda etishga, zamon ruhi va inson ruhiyatidagi chuqur silkinishlarni o‘quvchiga yetkazishga muvaffaq bo‘ldilar.

Yo’qotilgan avlod adiblarining inqirozni yoritishdagi badiiy vositalari

Yo‘qotilgan avlod vakillarining ijodida insoniy inqiroz holati chuqur badiiy vositalar orqali ifodalangan. Ular urushning dahshatli oqibatlarini, insoniyat qadriyatlarining yemirilishini va jamiyatdagi beqarorlikni obrazlar, uslublar va stilistik yangiliklar orqali yoritganlar. Bu yozuvchilarning asarlarida an’anaviy syujetdan chekinish, ichki monolog, psixologik portret, ramziy obrazlar va minimalizm kabi modernistik yondashuvlar yetakchi o‘rin tutadi.

Ernest Hemingway

Hemingway insoniy inqirozni ifodalashda o‘zining mashhur “muziqiy” uslubi bilan ajralib turadi.[104] U buni “muz tog‘i nazariyasi” (Iceberg Theory) deb atagan: matnda faqat yuzaki ma’lumotlar taqdim etiladi, chuqur ma’nolar esa matn ostida yashiringan bo‘ladi. Masalan, The Sun Also Rises romanida urushdan keyin jismonan va ruhan jarohatlangan qahramonlar — Jake Barnes va uning do‘stlari — ichki bo‘shliq, beqarorlik, sevgi va ma’naviy yo‘qotishlar girdobida sarson bo‘ladilar. Qahramonlar ko‘p gapirmaydi, lekin ularning sukunati va oddiy harakatlari ortida chuqur iztirob yashiringan.

F. Scott Fitzgerald

Fitzgeraldning The Great Gatsby romanida[105] insoniy inqiroz jamiyatning axloqiy yemirilishi orqali ochib beriladi. Roman qahramoni Jey Gatsby boylik va muhabbat orqali o‘z orzulariga yetishga harakat qiladi, biroq oxir-oqibat yolg‘izlik va rad etilish uni halokat sari yetaklaydi. Fitzgerald “Amerika orzusi” tushunchasini tanqidiy yondashuv bilan yoritadi va bu orzuning asosida bo‘sh, ma’naviy jihatdan qulagan jamiyat turishini ochib beradi. Roman uslubida ramziy elementlar (masalan, yashil chiroq, kul tepaliklari, doktor T. J. Eckleburgning ko‘zlari) insoniy iztirob va yolg‘on qadriyatlarni badiiy shaklda aks ettiradi.

Gertrude Stein

[104] Хемингуэй Э. Прощай, оружие! — Москва: Эксмо, 2019.
[105] Фицджеральд Ф. Скотт. Великий Гэтсби. — Санкт-Петербург: Азбука, 2021.

Steinning ijodi yo‘qotilgan avlodning falsafiy-estetik izlanishlarini yangi badiiy shakllarda ifoda etadi.[106] U til strukturasida yangiliklar yaratishga, ifodaning o‘rniga tuyg‘u va tafakkurni tildagi bevosita shakli bilan berishga uringan. U “yozish bu fikrlashning o‘zidir” degan prinsipga amal qilib, oqimli, takroriy, grammatik me’yorlardan chetga chiqqan, ammo psixologik jihatdan to‘g‘ri matnlar yaratdi. Stein asarlarida insoniy ongdagi tartibsizlik, mavjudlikni anglashdagi chalkashliklar o‘z aksini topgan. Bu yozuvchilarning umumiy jihati shundaki, ular real voqealardan ko‘ra, insonning ichki kechinmalariga urg‘u beradilar. Insoniy inqiroz – ularning asarlarida tashqi omillarning tasviri emas, balki ong va qalb ichidagi ziddiyatlarning badiiy in’ikosidir. Bu esa yo‘qotilgan avlod adabiyotini nafaqat urushdan keyingi yozuvchilik namunasi, balki psixologik-modernistik oqimning yorqin ko‘rinishi sifatida namoyon qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yo‘qotilgan avlod adabiyotida bir necha umumiy obrazlar va tematik birliklar muntazam uchraydi. Ulardan biri — "yo‘qotilgan qahramon" obrazidir. Bu qahramon ko‘pincha o‘z hayotiga nisbatan befarq, yengilgan, ijtimoiy qadriyatlarni rad etgan, ammo ich-ichida ma’no izlashdan to‘xtamagan shaxsdir. Hemingwayning Jake Barnes yoki Fitzgeraldning Jey Gatsby obrazlari bunday tipik misollardir. Ular tashqi jihatdan faol ko‘rinsa-da, ichki dunyosi bo‘shliq va umidsizlik bilan to‘la.

Yana bir muhim uslubiy xususiyat bu — minimalizm va understatement (ya’ni “aytmaslik orqali aytish”) usulining keng qo‘llanishidir. Hemingway bu uslubda yetakchilik qilgan va o‘z qahramonlarining hissiy holatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalash o‘rniga, oddiy sukunat, xatti-harakat yoki qisqa dialoglar orqali ifoda etgan. Bu orqali o‘quvchi obrazlarning ichki dunyosini o‘zi anglashga undaladi. Natijada matn chuqur psixologik qatlamlarga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, urush motivi ham yo‘qotilgan avlod adabiyotining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Bu urush faqat fizik halokat emas, balki ruhiy va axloqiy yemirilish ramzi sifatida beriladi. Urushdan keyin yashayotgan qahramonlar nafaqat hayotda o‘z o‘rnini topolmaydi, balki o‘zini anglash, sevgini his qilish, atrofdagilar bilan sog‘lom munosabat qurish kabi insoniy funksiyalarini ham yo‘qotgan bo‘ladi. Bu esa insonning mavjudlik mohiyatini so‘roq qilishga olib keladi — modern adabiyotning markaziy muammolaridan biri sifatida. Yo‘qotilgan avlod adiblarining bu kabi yondashuvlari ularni zamonaviy psixologik, modernistik va ekzistensial adabiyotning muhim yo‘lboshchilari sifatida namoyon etadi.

Insoniy inqirozning umumlashtirilgan badiiy talqini

Yo‘qotilgan avlod adabiyoti, avvalo, insonning ma’naviy va axloqiy asoslaridan mahrum qolgan davrdagi holatini tahlil qilishga qaratilgan. Urushning bevosita oqibatlari, ijtimoiy beqarorlik, qadriyatlarning yemirilishi, inson va jamiyat o‘rtasidagi uzilish — bularning barchasi adabiyotda umumlashtirilgan inqiroz holati sifatida talqin qilinadi. Bu inqiroz shunchaki bir avlodning fojiaviy

[106] Stein G. The Autobiography of Alice B. Toklas. — New York: Vintage Books, 2001.

kechinmalari emas, balki butun bir davrning muammolarini aks ettiruvchi badiiy konsepsiyadir.[107]

Yo‘qotilgan avlod adabiyotidagi qahramonlar — o‘z zamonasi vakillari. Ular orzularini yo‘qotgan, mavjudlikning mohiyatini anglashda qiynalayotgan, sevgiga, ishonchga, kelajakka bo‘lgan ishtiyoqini yo‘qotgan shaxslardir. Ammo ular faqat inqirozning qurboni emas — ular orqali yozuvchilar zamonaviy insonning ruhiy portretini yaratadilar. Bu portret asarlar orasida umumiylik kasb etgan: ruhiy bo‘shliq, iztirob, begonalashuv, yolg‘izlik, beqarorlik. Bu holatlar o‘zaro uyg‘unlashib, badiiy umumlashtirish orqali inqirozni global, ekzistensial darajada ochib beradi.

Bundan tashqari, yo‘qotilgan avlod vakillari o‘z ijodlari orqali insoniyatga ogohlantiruvchi bir xitobni yo‘llaydilar — urush, moddiylik, ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi insonning insoniyligini so‘roq ostiga qo‘yadi. Shu ma’noda, yo‘qotilgan avlod asarlarida inqiroz faqat individual emas, balki ijtimoiy va sivilizatsiyaviy hodisa sifatida talqin qilinadi. Ular jamiyatning vaqti-vaqti bilan yuzlashadigan ma’naviy tanazzul jarayonlarini badiiy ifodalash orqali adabiyotning falsafiy va sotsiologik imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Shunday qilib, yo‘qotilgan avlod adabiyotida insoniy inqiroz badiiy obraz, tematik birlik va stilistik vositalar orqali chuqur va murakkab tarzda umumlashtirilgan. Bu asarlar nafaqat tarixiy davrni tasvirlaydi, balki har qanday zamondagi o‘quvchi uchun dolzarb bo‘lib qoladi, chunki unda inson ruhiyati va mavjudlikning asosiy savollari yotadi.

Yo’qotilgan avlod adabiyotining jahon adabiy jarayoniga ta’siri

Yo‘qotilgan avlod adabiyoti XX asr adabiy jarayonida muhim burilish yasagan hodisa sifatida tarixda mustahkam o‘rnini egallagan. Bu adabiy oqim vakillari – Ernest Hemingway, F. Scott Fitzgerald, Gertrude Stein, va boshqalar – o‘z davrining ruhiy muammolarini yangicha badiiy vositalar bilan ifodalash orqali nafaqat Amerika, balki butun jahon adabiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganlar. Ularning modernistik ifoda uslublari, xususan, psixologik tahlil, ichki monolog, fragmentar syujet, “aytilmagan narsalar” orqali chuqur ma’no berish (Hemingway uslubi) keyingi avlod yozuvchilarining estetik qarashlariga katta ta’sir o‘tkazdi. Ayniqsa, minimalizm va turmushning oddiy detallarida chuqur ruhiy iztirobni ko‘rsatish ko‘plab adiblar, jumladan Raymond Carver, J. D. Salinger, va hatto yevropalik yozuvchilarning ham ijodida aks etdi.[108]Yo‘qotilgan avlodning mavzu doirasi ham jahon adabiyotining yo‘nalishlarini belgilab berdi: urushdan keyingi inson kechinmalari, axloqiy qadriyatlar yemirilishi, jamiyat va individ o‘rtasidagi ziddiyat, yolg‘izlik, begonalashuv kabi masalalar XX asrning ko‘plab yozuvchilari uchun bosh mavzuga aylandi. Ayniqsa, ekzistensializm va postmodernizm oqimlarida bu tematik davomiylik kuzatiladi.

Shuningdek, yo‘qotilgan avlod ijodkorlari adabiyotda muallifning shaxsiy tajribasi va tarixiy kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikka urg‘u berib, badiiy ijodga yangi falsafiy

[107] Назарова С. Қ. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
[108] Jo‘raqulova G‘. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2018.

yondashuv olib kirdilar. Bu jihat o‘z navbatida adabiyotshunoslikda ham yangi tahliliy uslublar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Natijada, yo‘qotilgan avlod vakillarining ijodi nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki keyingi davr adabiyoti va g‘arb madaniyatining shakllanishi uchun ham chuqur manba bo‘lib xizmat qildi. Ular tomonidan yaratilgan adabiy meros insoniyat tafakkuri tarixida zamonaviy insonning ruhiy portreti sifatida qadr topmoqda.

Xulosa

"Yo‘qotilgan avlod" adabiyoti XX asr boshlaridagi insoniyat tarixidagi eng muhim va murakkab davrlardan birining badiiy in’ikosidir. Urush, ruhiy tanazzul, qadriyatlar yemirilishi va ma’naviy iztirob kabi holatlar bu avlod vakillarining asarlarida chuqur aks etgan. Ularning har biri o‘ziga xos uslubda, lekin umumiy muammoni — zamonaviy insonning inqiroz holatini — tasvirlashga harakat qilgan. Hemingwayning lakonik va ramziy ifodasi, Fitzgeraldning estetik-psixologik tasvirlari, Steinning tajriba asosidagi tili va struktura bilan ishlashi bu adiblarning badiiy shaklga bo‘lgan yangicha qarashini namoyon etadi. Ular orqali inqiroz faqat shaxsiy yoki milliy emas, balki butun insoniyatning muammosi sifatida talqin etiladi. Mazkur maqolada ko‘rilganidek, yo‘qotilgan avlod adabiyoti nafaqat o‘z davrining ruhiy manzarasini yaratdi, balki keyingi avlod yozuvchilariga ham estetik va tematik yo‘l ko‘rsatdi. Bu oqim vakillari adabiyotni soddalashtirib emas, balki chuqurlashtirib, insoniy mavjudlikning murakkabliklarini tasvirlashga muvaffaq bo‘ldilar.

Shu boisdan, yo‘qotilgan avlod merosi bugungi kun o‘quvchisi uchun ham dolzarbligicha qolmoqda: u insoniyatning o‘z-o‘zini anglash jarayonida adabiyotning qanday beqiyos vosita bo‘la olishini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Хемингуэй Э. Прощай, оружие! — Москва: Эксмо, 2019.
2. Фицджеральд Ф. Скотт. Великий Гэтсби. - Санкт-Петербург: Азбука, 2021.
3. Stein G. The Autobiography of Alice B. Toklas. — New York: Vintage Books, 2001.
4. Cowley M. Exile's Return: A Literary Odyssey of the 1920s. — New York: Penguin Books, 1994.
5. Bradbury M., McFarlane J. Modernism: A Guide to European Literature 1890–1930. — London: Penguin, 1991.
6. Tindall W. Y. The Literary Symbol. — Bloomington: Indiana University Press, 1955.
7. Kirmayer L. J. Landscapes of Memory: Trauma, Narrative, and Dissociation. — Harvard Review of Psychiatry, 1996, Vol. 4, No. 2.
8. Жирмунский В. М. История зарубежной литературы XIX–XX вв. — Ленинград: Наука, 1987.
9. Назарова С. Қ. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
10. Jo‘raqulova G‘. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2018.

"QUTADG‘U BILIG VA JAHON ADABIY-FALSAFIY QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI"

Soyibjonova Diyora Erkinboy qizi
Namangan chet tillari instituti, Qiyosiy tilshunoslik lingvistik tarjimashunoslik yònalishi magistr 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari jahon adabiy-falsafiy tafakkuri doirasida qiyosiy tahlil etiladi. Asarda ilgari surilgan adolat, aql, baxt va axloqiylik kabi tamoyillar qadimiy falsafiy maktablar, xususan, Platonning “Davlat”, Machiavellining “Hukmdor” asarlari hamda Konfutsiy ta’limoti bilan solishtirilib o‘rganiladi. Qiyosiy tahlil asosida “Qutadg‘u Bilig”ning o‘ziga xosligi, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi falsafiy konsepsiyasi va uning Sharq va G‘arb tafakkuri bilan ideaviy aloqalari ochib beriladi. Asarda qadriyatlar uyg‘unligi va farqlari orqali o‘zaro muloqot va tafakkur xilma-xilligining boyligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u Bilig, Yusuf Xos Hojib, Platon, Machiavelli, Konfutsiy, adabiy-falsafiy tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik, axloq, adolat, hukmdor konsepsiyasi, Sharq va G‘arb tafakkuri, siyosiy falsafa.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ произведения Юсуфа Хос-Гаджиба “Кутадгу Билиг” в рамках Мировой литературно-философской мысли. Такие принципы, как справедливость, разум, счастье и нравственность, выдвинутые в работе, исследуются в сравнении с древними философскими школами, в частности с трудами Платона “Государство”, Макиавелли “правитель”, а также с учением Конфуция. На основе сравнительного анализа раскрывается самобытность “Кутадгу Билига”, его философская концепция, пропагандирующая общечеловеческие ценности, и его идеологические связи с восточной и Западной мыслью. Работа освещает богатство диалога и разнообразие мышления через гармонию и различия ценностей.

Ключевые слова: Кутадгу Билиг, Юсуф Хосров Хадж, Платон, Макиавелли, Конфуций, литературно-философский анализ, сравнительное литературоведение, этика, справедливость, концепция правителя, Восточная и западная мысль, политическая философия.

Abstract: This article provides a comparative analysis of Yusuf Khos-Hajib's work “Kutadgu Bilig” within the framework of World literary and philosophical thought. Principles such as justice, reason, happiness and morality put forward in the work are examined in comparison with ancient philosophical schools, in particular with the works of Plato “The State”, Machiavelli “the ruler”, as well as with the teachings of Confucius. A comparative analysis reveals the identity of Kutadgu Bilig, its philosophical concept promoting universal values, and its ideological connections with Eastern and Western thought. The work highlights the richness of dialogue and the diversity of thinking through harmony and differences of values.

Keywords: Kutadgu Bilig, Yusuf Khos Hajib, Plato, Machiavelli, Confucius, literary and philosophical analysis, comparative literature, ethics, justice, the concept of ruler, Eastern and Western thought, political philosophy.

Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asrda[109] yozilgan "Qutadg‘u Bilig" asari Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asar o‘zida nafaqat adabiy mahoratni, balki siyosiy, axloqiy va falsafiy qarashlarni mujassam etgan bo‘lib, unda baxtli hayot, adolatli jamiyat, dono hukmdor va axloqli inson ideallari talqin qilinadi.

"Qutadg‘u Bilig" asarida to‘rtta asosiy timsol: Kuntugdi (Adolat), Ayto‘ldi (Saodat), Ögdümish (Aql) va Odg‘urmiš (Nafoat) orqali davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi muhim qadriyatlar ifodalanadi. Yusuf Xos Hojib jamiyatning barqarorligi, davlatning kuchi adolatli boshqaruv va ma’rifatli hukmdor orqali ta’minlanishini asoslab beradi.

Shuningdek, ssarda jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvi masalalari, barcha amaldorlarning burch va mas’uliyatlari, boshqaruv tizimida qonun va adolatning ustuvorligi, huquqiy masalalarga ham yetakchi urg‘u berilgan. Shuning uchun ushbu kitob qoraxoniylar davlatining Nizomi darajasiga erishdi. Bulargina emas, dostonda dunyoning yaralishi, koinotning tuzilishi to‘g‘risida ham fikr yuritiladi. Bu masalada Yusuf Xos Hojib Sharqdagina emas, dunyo astronomiya bilimida ancha ilg‘orlab ketgan faylasuflardan sanaladi.

Muhimi shundaki[110], dostonning muqaddimasida bir bob yulduz va burjlarga bag‘ishlangan. Ushbu bob «Yeti yulduz, to‘rt yag‘iz, o‘n iki o‘kakning o‘gdukini ayur» («Yetti yulduz, to‘rt unsur, o‘n ikki burjni madh etganini aytadi») deb atalgan. Ulug‘ donishmandning olam va uning tuzilishi haqidagi falsafiy qarashlari asar bo‘ylab davom etadi. Kitobni o‘qib, butun bir astronomik atamalar tizimiga to‘qnashamiz. Shu tizimning o‘zi-yoq o‘sha kezda astronomik bilimlar yuqori bosqichda ekanligidan belgi berib turadi. Yusuf Xos Hojibning ta’kidlashicha, evran, ya’ni «falak» doim evriladi (muttasil aylanadi), tezginch, ya’ni «Yer kurrasi» tezginadi (charx urib turadi). Muallif Allohga hamd o‘qir ekan, yozadi:

Yaratti, ko‘r, evran tuchi evrulur,
Aning birla tezginch yema tezginur.
(Falakni yaratdi, ko‘rgin, doim aylanadi,
Uning bilan charx ham charx uradi).

Yoki boshqa bir o‘rinda ulug‘ Tangrini «doim aylanuvchi bu falakni yaratdi» (to‘rutti bu evran tuchi evrulur) deya alqaydi shoir. Buning bilan falakning aylanishi, Yer kurrasining tinimsiz harakatda ekaniga ishora etiladi.

[109] Zilola Olimjon qizi Abdusodiqova. JDPU 2-bosqich magistranti. QUTADG'U BILIG" DOSTONINING MANBALARI VA UNING O’ RGANILISHI. 2023. B-607-609

[110] Qosimjon SODIQOV, filologiya fanlari doktori, professor. “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilganiga 950 yil to‘ldi // https://uza.uz/oz/posts/qutadg-u-bilig-asarining-yaratilganiga-950-yil-to-ldi-15-10-2019?ysclid=mawtwff9v2798659010

Qiyosiy tahlil - Platonning "Davlat" asarida[111] ideal jamiyat konsepsiyasi ilgari suriladi. Unga ko‘ra, hukmdorlar falsafa bilan shug‘ullanuvchi donishmandlar bo‘lishi lozim. Bu qarash "Qutadg‘u Bilig"dagi dono hukmdor g‘oyasiga juda yaqin. Ikkala asarda ham adolat, bilim va axloq asosiy qadriyat sifatida talqin etiladi.

Machiavelli esa "Hukmdor" asarida[112] real siyosatga urg‘u beradi. U hukmdor uchun maqsadga erishish vositani oqlaydi, degan qarashni ilgari suradi. Bu jihatdan u Yusuf Xos Hojibdan farq qiladi, chunki "Qutadg‘u Bilig"da vosita emas, maqsad va usulning axloqiy jihati muhim sanaladi.

Konfutsiy ta’limotida[113] esa axloqiylik, ota-onaga hurmat, davlatga sadoqat asosiy o‘rinni egallaydi. "Qutadg‘u Bilig"da ham bu qadriyatlar aks ettirilgan bo‘lib, ikki tafakkur maktabi o‘rtasida ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Platonning “Davlat” asari falsafa va siyosat tarixida ideal jamiyat modeli sifatida muhim o‘rin egallaydi. Platon hukmdorlarni “filosof-hukmdorlar” deb ataydi, ya’ni ular nafaqat siyosiy qudratga, balki chuqur falsafiy bilimga ega bo‘lishi kerak. Unga ko‘ra, jamiyat uch tabaqaga bo‘linadi: hukmdor-filosoflar, qo‘riqchilar (askarlar) va ishlab chiqaruvchilar (dehqonlar, hunarmandlar). Ideal jamiyatda adolat shundan iboratki, har bir tabaqa o‘z vazifasini to‘g‘ri bajaradi va boshqalarining ishiga aralashmaydi. Platon “Davlat”da adolat, bilim va axloqiylikning bir-biriga bog‘liqligini ta’kidlaydi, shuningdek, hukmdorning donoligi jamiyat barqarorligi uchun muhimligini ta’kidlaydi.

“Qutadg‘u Bilig” asarida ham dono hukmdor timsoli – Kuntug‘di – adolat, aql va axloqiylikka tayangan holda jamiyatni boshqaradi. Yusuf Xos Hojibning fikricha, hukmdorning donoligi va axloqi davlatning farovonligi va barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardir. Platon va Yusuf Xos Hojib o‘rtasidagi bu fikriy uyg‘unlik, hukmdorning ma’rifatli va axloqli bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Machiavellining “Hukmdor” asari esa siyosatda realizmni targ‘ib qiladi. U hukmdorga davlatni saqlab qolish va kuchini mustahkamlash uchun har qanday vositadan foydalanishga ruxsat beradi. Machiavelli uchun siyosiy maqsadni amalga oshirish vositalari axloqiy me’yorlardan ustun turadi; ya’ni, hukmdor ko‘pincha yolg‘on, hiyla va zo‘ravonlikdan ham foydalanishi mumkin, agar bu davlat manfaatlariga xizmat qilsa. Bu yondashuv Machiavellining siyosiy pragmatizmiga asoslanadi va u hukmdor uchun “yaxshi” yoki “yomon” qadamlarning o‘rnini ko‘rib chiqmaydi, faqat natijaga e’tibor beradi.

“Qutadg‘u Bilig” bilan solishtirilganda, Machiavellining bu yondashuvi tubdan farq qiladi. Yusuf Xos Hojibning asarida siyosiy va axloqiy tamoyillar bir-biridan ajratilmaydi: hukmdorning vositalari ham maqsadlari kabi axloqiy jihatdan

[111] RAXIMDJANOVA Dilnavoz Sunnat qizi.PLATONNING IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARIDAGI ERKINLIK TUSHUNCHASIGA SALBIY YONDASHUV TAHLILI. 2024. B-16-19. International scientific journal of Biruni

[112] Никколо Макиавелли: жизнь сторонника сильной государственной власти. Пархоменко Александр. С-36-41. 2009 // https://cyberleninka.ru/article/n/nikollo-makiavelli-zhizn-storonnika-silnoy-gosudarstvennoy-vlasti?ysclid=mawue8r2jv266646337

[113] KONFUTSIY FALSAFIY TA'LIMOTI VA UNDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR. TURSINBOYEV Azizbek. 2022. B-879-881. https://doi.org/10.5281/zenodo.7354597

to‘g‘ri bo‘lishi talab etiladi. Masalan, Kuntug‘di faqat adolat va dono maslahatlar bilan boshqaradi, zo‘ravonlik va firibgarlikni rad etadi. Shu nuqtai nazardan, “Qutadg‘u Bilig”da siyosiy idealizm va axloqiy mukammallik bir-birini to‘ldiradi.

Konfutsiy ta’limotida ham axloqiylik, ota-onaga hurmat, ijtimoiy tartib va davlatga sadoqat markaziy o‘rin tutadi. Konfutsiyning “Lunyu” (Axloqiy suhbatlar) asarlarida shaxsiy kamolot va oilaviy qadriyatlar davlat barqarorligining poydevori sifatida ko‘riladi. Hukmdorning fazilatlari xalq uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi, shuningdek, uning adolatli va mehribonligi muhimligi ta’kidlanadi. Bu jihat “Qutadg‘u Bilig”dagi dono va axloqli hukmdor tasviri bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Ayto‘ldi” timsoli orqali ko‘rsatilgan baxt-saodat va jamiyatning osoyishtaligi Konfutsiy ta’limotidagi ijtimoiy uyg‘unlik tamoyiliga o‘xshash.

Shu bilan birga, Konfutsiy ta’limotida shaxsning oilaviy va ijtimoiy mas’uliyati keng ta’kidlanadi. “Qutadg‘u Bilig”da ham insonning o‘z oilasi va jamiyat oldidagi burchlari, axloqiy mas’uliyati haqida ko‘plab tavsiyalar berilgan. Ikkala asar o‘rtasidagi bu uyg‘unlik, Sharq falsafasining asosiy qadriyatlari bo‘lgan axloqiy poklik, o‘zaro hurmat va jamiyat barqarorligi tamoyillarining umumiyligini ko‘rsatadi. Natijada, Platon va Yusuf Xos Hojibning idealizmga asoslangan hukmdor konsepsiyasi, Machiavellining siyosiy realizmga urg‘usi hamda Konfutsiy ta’limotidagi axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy uyg‘unlik qarashlari “Qutadg‘u Bilig” asarining mazmun-mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu qiyosiy tahlil orqali “Qutadg‘u Bilig”ning jahon adabiy-falsafiy merosidagi o‘rni, uning turli madaniyat va tafakkur maktablari bilan bog‘liqligi aniqroq ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, "Qutadg‘u Bilig"dagi siyosiy-falsafiy qarashlar Sharq va G‘arb tafakkurining ayrim umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Platon va Yusuf Xos Hojib asarlaridagi ideal jamiyat modeli bir-birini to‘ldiradi. Machiavellining realizmga asoslangan yondashuvi esa ularning axloqiy ideallaridan farqlanadi. Konfutsiy falsafasi bilan esa qadriyatlar jihatidan uyg‘unlik mavjud. "Qutadg‘u Bilig" nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham dolzarb asardir. Undagi axloq, adolat, aql va baxt haqidagi qarashlar jahon adabiy-falsafiy tafakkuri bilan mushtaraklik kasb etadi. Ushbu maqolada asarning jahon adabiy merosidagi o‘rni qiyosiy tahlil asosida yoritildi va uning qadimiy, ammo zamonaviy g‘oyalarga boy ekani namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Zilola Olimjon qizi Abdusodiqova. JDPU 2-bosqich magistranti. QUTADG'U BILIG" DOSTONINING MANBALARI VA UNING O’ RGANILISHI. 2023. B-607-609
2. Qosimjon SODIQOV, filologiya fanlari doktori, professor. “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilganiga 950 yil to‘ldi // https://uza.uz/oz/posts/qutadg-u-bilig-asarining-yaratilganiga-950-yil-to-ldi-15-10-2019?ysclid=mawtwff9v2798659010

3. RAXIMDJANOVA Dilnavoz Sunnat qizi.PLATONNING IJTIMOIY-SIYOSIY QARASHLARIDAGI ERKINLIK TUSHUNCHASIGA SALBIY YONDASHUV TAHLILI. 2024. B-16-19. International scientific journal of Biruni
4. Никколо Макиавелли: жизнь сторонника сильной государственной власти. Пархоменко Александр. С-36-41. 2009 // https://cyberleninka.ru/article/n/nikollo-makiavelli-zhizn-storonnika-silnoy-gosudarstvennoy-vlasti?ysclid=mawue8r2jv266646337
5. KONFUTSIY FALSAFIY TA'LIMOTI VA UNDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR. TURSINBOYEV Azizbek. 2022. B-879-881. https://doi.org/10.5281/zenodo.7354597
6. Vohidov R.J., Eshonqulov N.R. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. 1-qism. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. 2006.

ADABIYOT VA TARIXNING O`ZARO BOG`LIQLIGI

Uzoqova(Nazullayeva) Nasiba Najmiddinovna
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLRI INSTITUTI
nasibauzoqova0070@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyot va tarixning o`zaro bog`liqligi, ularning rivojlanishida bir-biriga ta`siri, adabiyotning tarix uchun va tarixning adabiyot uchun asosiy manbaa bo`lib hizmat qilishi asrlar davomida o`z tasdig`ini ko`rsatib kelmoqda. Butun asrlar davomida adabiyot tarixiy voqealar, madaniy o`zgarishlar va jamiyatdagi voqea-hodisalarning aksi bo`lib xizmat qilgan. O`z navbatida muayyan tarixiy davrda yaratilgan asarlar o`sha davrda yashagan odamlarning boshidan kechirgan kechinmalari, e`tiqodlari, qadryatlari va kurashlari haqida tushuncha beradi. Ushbu maqola tarix va adabiyotning uzviy bog`liqligi, yozuvchilarning fikrlari va kechinmalri, trixiy voqealar asosida yaratilgan asarlarning o`sha davr tarixiy muhitiga ta`siri va adabiy janrlarning shakllanishi haqida o`rganadi.

Annotation: The relationship between history and literature is a profound and intricate one, with each influencing and shaping each other in various ways. Throughout ages literature has served as a reflection of historical events, cultural shifts, and societal changes.in turn, the literary works produced during specific historical periods often provide insight into the values, beliefs and struggles of the people who lived who lived through those times. This article will explore about the connection between history and literature, writers` opinions and emotions on specific historical events and themes, evolution of literary genres.

Kalit so`zlar: tarix, adabiyot, tarixiy davr, manbaa, romantizm, modernizm, ijtimoiy harakat, zamonaviy adabiyot, harlem renessansi
Key words: history, literature, historical period, context, social events, modern literature, romanticism, modernism, harlem renaissance

Asrlar osha tarix va adabiyot bir-biriga uzviy bog`liq ekanligini isbot etib kelmoqda. Adabiyot o`z navbatida tarix va jamiyatga ham ta`sir qiladi ham uni aks ettiradi.Tarix esa adabiy asarlarni tushunish uchun manbaa bo`lib hizmat qiladi.Adzbiyot o`tmishda sodir bo`lgan voqealar, o`sha davr madaniyati va qadryati haqida tushuncha bergan holda tarixga ta`sir qilai va uni to`laqonli aks ettirishga harakat qiadi.

ADABIYOT TARIXIY MANBAA SIFATIDA HIZMAT QILADI

Adabiy asarlar (har qanday ko`rinishda badiiy, ilmiy …) yoritib berilayotgan davrdagi jamiyatlarning madaniyati, tillari, urf-odatlari, hayot tarzi, davr insonlarining onglilik darajasini aniqroq tushunish va his qilishga yordam beradi. Tarixchilar adabiy asarlarning mavzularini, qahramonlarini, tili va asar yaratilgan sharoit va yaratilish sabablarini o`rganish orqali qimmatli tarixiy asosli ma`lumotlarga ega bo`lishlari mumkin. Ma`lum bir tarixiy davrda yaratilgan asar o`sha davrning kundalik hayoti, ijtimoiy meyorlari,va siyosati haqida kengroq tushunchaga ega bo`lish imkonini beradi. Masalan: jahldor yoshlar haraktining yorqin namoyondalaridan biri Alan Sillitoe o`zining “Shanba tungi va yakshanba tongi’’ ( Saturday night and Sunday morning) romani orqali 1958-yillar atrofida sodir bo`layotgan ishchilar hayotidagi va shu orqali jamiyat hayotidagi o`zgarishlarni Artur Siton hayoti timsolida yoritib bergan. Bu asar yozuvchiga Author`s Club Best First Novel Award mukofotiga erishtirgan. Jamiyat dardini , xalqning og`riqli nuqtalarini ko`rstgan har qanday asar doimo e`tirofda bo`lganini yana bir bor Silletoening ushbu romani orqali ko`rish mumkin.

Afro-amerikan yozuvchilaring zabardast vakillaridan biri, 1920-1930-yillarda sodir bo`lgan Harlem Renaissance harakatining ishtirokchisi Maya Anjelo ham o`zining she`rlari va asarlarida Amerikada o`z o`rnini topishga harakat qlayotgan Afrikaliklarning hayot tarzi, ichki hissiyotlari, madaniyati va irqchilikka bo`lgan munosabatlarini aks ettirgan. Mayani yozishga undagan kuch ham aynan o`zi va atrofidagilar bilan sodir bo`layotgan muammolar va ularga qarshi kurashish, o`zi kabi ezilayotganlarni ruhlantirish uchun paydo bo`lgan.

O`zbek adabiyotining ilk romani hisoblangan Abdulla Qodiriyning “ O`tkan kunlar” romanidagi bosh qahramonlari bo`lmish Otabek va Kumushning taqdiri orqali siyosiy jarayonlar,xalqning kundalik turmushi va urf-odatlari tasvirlangan. O`tkir Hoshimov aytganiday “Haqiqiy yozuvchi Hudo ko`ngliga solganini yozadi xalqning dardini tarannum qiladi, xalqni uyg`otishga yanada kuchli bo`lishga undaydi.

Adabiy asar yoritilgan davrni o`rganish bu asarni har tomonlama talqin qilish uchun juda muhim hisolanadi. Jonatan Sviftning “Gulliverning Sayohatlari” 4 qisimli satira-fantastik yo`nalishida yozilgan romani bir qarashda bolalar uchun yozilganday ko`rinadi aslida esa o`sha davr siyosatini hazilomuz ifodalagan va buni tushunish uchun asar yaratilgan davrni ham o`rganish kerak.

Tarixiy voqealar, madaniy o`zgarishlar va ijtimoiy harakatlar adabiy asarning mavzulari, harakteri va uslubiga ta`sir qiladi. Urush davrida yozilgan asarlarda asosan urushning sabablari, oqibatlari, insoniyatga ta`siri haqida so`z

yuritiladi. Masalan: Ernest Hemingueyning " Alvido qurol" asarida birinchi jahon urushi davridagi sevgi va yo`qotish she`riy- nasriy va realizm orqali keskin tasvirlangan. Yanada aniqroq tushunish uchun Musa Jalilnig "Kechir Yurtim" she`ridan olingan ushbu jumlalarga e`tabor qaratsak:

Taqdir kuldi o`lim tegmasdan,
O`tib ketdi, qilmadi jurat.
Netay axir so`nggi minutda,
Pistoletim qildi xiyonat.
Netay axir do`st pistoletim,
So`nggi so`zdan to`sat bosh tortdi.
Kishan soldi dushman qo`lingga,
Va erksizlik qa`riga tortdi.

Shoirning hayotiy faoliyati o`rganilar ekan ikkinchi jahon urushi mobaynida okopda jangchilar orasida tashviqot ishlarini, ma`rifiy targ`ibot ishlarini olib brogan. Front gazatalarida harbiy muhbir sifatida turli habar, maqolalar va badiiy asarlari bilan faol ishtirok etgan va jang qilayotgan askarlarni ma`rifiy jihatdan ilmdan bahramand bo`lishlariga o`z hissasini qo`shgan. Biroq mening o`z fikrimcha turli yozuvchilar sodir bo`layaotgan voqea va o`zgarishlarga turli taraflardan va o`z nuqtai-nazarlaridan kelib chiqqan holda yondoshadilar va yoritib beradilar. Shuning uchun faqat bir yozuvcining asarlariga suyanib qolmasdan turli yozuvchilarning asarlarini o`qib o`rganish kerak shundagina to`liq ma`lumotga ega bo`lish mumkin.

TARIX ADABIY ASAR YARATILISHI UCHUN MANBAADIR

Muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy iqlimi,madaniy me`zonlari mualliflar o`rganishi uchun tanlagan mavzular va uslublariga kata ta`sir qiladi. Misol uchun: 18-asr oxri va 19- asr boshlaridagi Romantik davr adabiyoti Sanoat inqilobiga alohida e`tabor berilishiga qarshi vujudga keldi. Villiyam Vordsvordz va Samuyel Taylor Kolerj singari romantik davr yozuvchilari sanoatlashish va tabiat bilan bo`lgan aloqaning yo`qolishidan mamnun bo`lmaga holda tabiat, hissiyotlar va shaxsiyat haqida ko`praoq yozishdi. Quyida Vordsvordz she`riyatidan bahramand bo`lamiz

I WANDERED AS A CLOUD

I wandered lonely as a cloud
That floats on high o`er vales and hills,
When all at once I saw a crowd,
A host, of golden daffodils;
Beside the lake, beneath the trees,
Flattering and dancing in breeze.

She`rdan ma`lum bo`ladiki shoir tabiat bilan uyg`unlikni saqlab qolishga harakat qilgan va buni uddalagan. Insonlarni tabiatni his qilishga u bilan uyg`un holda yashashga hamohanglikni his qilishga chorlagan. Shoirning ko`plab she`rlarida ham huddi shunday kayfiyatni sezishimiz mumkin. Romantik davr adabiyoti badiiy ifodalarning sezilarli darajad o`zgarishi bilan ajralib turadi va unda asosan hissiyot va shaxsiy tajribalarga e`tabor qaratilgan va bu qishloq

ho`jaligi, iqtisodiyot va ijyimoiy tuzilmalarni o`zgartirgan sanoat inqilobining keskin oqibatlariga javob sifatida paydo bo`ldi. Zavodlar ko`payib shaharlashish davom etarkan juda ko`plab insonlar tabiatdan va an`anaviy turmush-tarzidan uzoqlashdilar. Romantik davr yozuvchilari tabiatning go`zalligi va ilohiyligini tasvirlashga intilib, uni ko`p hollarda Sanoatlashish tartibsizliklaridan boshpana sifatida ko`rsatishgan. Masalan: yuqorida eslab o`tganimiz Vordsvordz o`z she`riyatida ingliz qishloqlarining go`zalligini tarannum etgan bo`lsa, Kolerj tabiatning go`zalligi ,sirliligi va g`aroyibotlarini tasvirlagan. Bundan tashqari Rimantik oqim "Nobel saevage" g`oyasini qo`llab quvvatladi, unda insonlar tabiatan sof fitratda bo`ladi lekin svilizatsiya ko`pincha bu soflikni buzadi deyilgan. Bunday g`oyani Russening " Ijtimoiy shartnoma"(Social contract) asarida ko`rish mumkin . Asarda ijtimoiy me`yorlar tanqid qilinadi va oddiyoq hayot tarziga qaytish targ`ib qilinadi. Rmantik davr yozuvchilarining shaxsiy his-tuyg`ularga va voqelikning subyektiv oqibatlariga e`tabor qaratishlari kelajakdagi adabiy harakatlar uchun ham zamin yaratadi. Asosan shaxsiy nuqtai-nazarning muhimligiga va hikoya qilishda hissiyot ko`lamiga alohida e`tabor qaratish bu davrning o`ziga hos jihatlaridan hisoblanadi.

MODERNIZMNING PAYDO BO`LISHI. UMIDSIZLIK VA PARCHALANISH

Birinchi jahon urushining oqibatlri ananaviylikdan uzilgan va parchalangan haqiqatlarni o`rganish bilan tavsiflangan modernizmning vujudga kelishiga olib keldi. Urush jamiyatga juda kata ta`sir ko`rsatdi, keng tarqalgan tushunmovchilikka sabab bo`ldi,taraqqiyot, sivilizatsiya va insonlar holati haqidagi ilgari mavjud bo`lgan e`tiqodlarga shubha uyg`otdi.T.S.Eliot va Virjiniya Vulf kabi yozuvchilar urush dahshatlari va jamiyatda sodir bo`layotgan keskin o`zgarishlar bilan kurashayotgan avlodning umidsizlik va egzistensial g`azabini tasvirlab berishdi. Eliot "The waste land" asari orqali urushdan keyin hayotga kirib kelgan tartibsizlik va umidsizlik tuyg`usini go`zal til orqali tasvirlab berdi.Modernist yozuvchilar ko`pincha inson tafakkuri va tajribasining murakkabligini aks ettirish uchun ong oqimi kabi hikoya usullarini sinab ko`rdilar.Virjinia Vulfning "Mrs. Dalloway'' va Eliotning "Ulysses" asrlari bu yondashuvga yorqin misol bo`la oladi. Ular qahramonlarning hayotiga chuqur kirib boradi va vaqtni chiziqli bo`lmagan holatda tasvirlaydi. 20- asrning boshlarida sodir bo`lgan texnologik taraqqiyot va ijtimoiy me`yorlarning o`zgarishi adabiy manzaralarni shakllantirdi va bu innavatsion hikoya usullarining shakillanishiga olib keldi.

IJTIMOIY HARAKATLARNING ADABIYOTGA TA`SIRI

Urush va evalutsiyadan tashqari juda ham ko`plab jtimoiy harakatlar va o`zgarishlar ham adabiyotga o`z ta`sirini ko`rsatdi. Misol uchun: feminizmning rivojlanishi,fuqarolik urushlari, LGBTQ+ huquqlarining kuchayishi adabiyotda turli ovozlar va qarashlarning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Virjinia Vulf va Simon de Bovuar kabi yozuvchilar an`anaviy gender me`yorlariga qarshi chiqdilar.Ularning asarlari nafaqat o`z davrining kurashlarini aks ettirdi balki

kelajak avlod uchun jins, o`ziga hoslik va kuch dinamikasi muammolarini hal qilish uchun yo` lochdi.

Shunigdek, Qo`shma Shtatlardagi fuqarolik urushlari irqiy adolatsizlik va tenglik uchun intilishlrni bartaraf etishga intiladigan ko`plab adbiyotlrni ilhomlantirdi. Leyms Boldvin va Zora Nil Hurstin kabi mualliflar o`z ishlaridan afro-amerikaliklar tajribasini yoritish, ijtimoiy me`yorlarga qarshi turish va ijtimoiy o`zgarishlarni himoya qilish uchun foydalanganlar. Ushbu harakatlarning tarixiy manbaalari adabiy izlanishlar uchun qulay zamin yaratib, yozuvchilarga dolzarb ijtimoiy muammolar bilan shug`ullanish va adolat hamda inson huquqlari bo`yicha kengroq munozaraga hissa qo`shish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda tarix va adabiyot o`rtasidagi o`zaro aloqa adabiy manzarani shakllantirishda davom etuvchi ko`p qirrali va dinamik munosabatdir. Turli davrdagi ijtimoiy-siyosiy iqlim, iqtisodiy sharoitlar va madaniy me`yorlar mualliflar o`rganmoqchi bo`lgan mavzular va uslublarga chuqur tasir ko`rsatadi. Romantik davning hissiy izchilligdan modernizmning parchalangan voqeliklari va ijtimoy harakatlardan kelib chiqadigan xilma-hil ovozlargacha adabiyot o`zi jonlantirga tarixiy voqelikni ham aks ettiradi ham unga javob qaytaradi. Ushbu bog`liqliklarn i tushunish adabiiy asarlarni qadrlashmiz va hikoya qilishning tarix davomida insoniyatning murakkabligi bilan kurashish vositasi sekanligini anglashimizga yordam beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. (Inheriting the Sublimation and Transmutation——Analysis of the Relationship between History and Literature, 2014)
2. (Relationship between History and Literature in Historical Texts, 2019)
3. (D, et al., 2008)
4. (T, 2002)
5. (Sh, et al., 2021)

ADABIYOTSHUNOSLIKDA VIRJINIYA VULF IJODINING O‘RGANILISHI

Mavlanova Gulnigor Bahriddin qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Modernizmning eng mashhur vakillaridan biri sifatida Virjiniya Vulf ingliz yozuvchilarining keyingi bir necha avlodi uchun ilhom manbai bo‘lib qoldi. Ushbu maqola Virjiniya Vulf ta’sir ko‘rsatgan turli usullarni ko‘rsatishga va zamonaviy Britaniya badiiy adabiyoti va Vulf hayoti hamda ijodi bilan bog‘liqligini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Virjiniya Vulf, modernism, adabiyot

Annotation: As one of the most prominent representatives of modernism, Virginia Woolf remained a source of inspiration for several subsequent generations of English writers. This article attempts to show the various ways in which

Virginia Woolf was influenced and to analyze the relationship with contemporary British fiction and Woolf's life and work.
Keywords: Virginia Woolf, modernism, literature

Modernizm G‘arbiy Yevropa adabiyotida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sahnaga chiqdi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, modernizm – bu zamonaviy san’at va adabiyotdagi yangi uslubiy ta’limot bo’lib, modern (modern) so’zining o’zi ham yangi va zamonaviy ma’nolarini anglatadi.[1] Modernizm adabiyoti odatda klassik adabiyotning qoidalari va an’analariga qarshi chiqib, yozuvchilar subjektivlik, eksperimentalizm, fragmentarizm, jiddiylik, zamonaviy jamiyatning tahlili, biron-bir mavzuga oid turli perspektivlar va yondashuvlar bilan taniladi. Modernizm adabiyoti, yozuvchilarga jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga, madaniyat, jamiyat va boshqa muhim mavzular bilan shug‘ullanishga chaqiradi va shuningdek, adabiyotda real voqelikning keskin sur’atda o‘zgarishi yoki o‘zgartirilishiga keng yo‘l ochib berdi. Modernizm adabiyotining mashhur yozuvchilari James Joyce, Virginia Woolf, T.S. Eliot, Franz Kafka, William Faulkner, Marcel Proust, Ezra Pound, D.H. Lawrence va boshqalar hisoblanadi. Ularning asarlari modernizm adabiyotining eng muhim namunalaridan hisoblanadi va uning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Virjiniya Vulf haqida Turkiyalik ingliz adabiyoti professori Mine Ozyurt Kilich shunday deydi: “Virjiniya Vulf meni nafaqat janrlar orasida erkin harakat qila oladigan iste’dodli ijodkor sifatida, balki chuqur tarixiylik tuyg‘usi, an’anaga hurmat va o‘z zamonasini teran anglashi tufayli ham o‘ziga jalb etdi. Bu xususiyatlar uni serqirra va ziyrak qiladi. Vulf jamiyatda o‘z o‘rnini aniq anglagan ayol – muayyan davrda yashayotgan yozuvchi va mutafakkir edi. Aynan shu xususiyatlari uni kelajak tendensiyalarini oldindan ko‘ra oladigan, uzoqni ko‘zlay oladigan inson deb hisoblashga asos bo‘ladi.” [2] Virginiya Vulfning yozish uslubi, uning romanlarida aks etgan. Uning asarlarida subjektiv so‘z qo‘llanilishi, zamonaviy yozuvchilik tekshirishlari, feminizmga oid mavzular va zamonaviy jamiyatning tahlili o‘rin olgan.

Virjiniya Vulf asarlarida mavjud bo‘lgan reallikka falsafiy nuqtai nazardan to‘kis izoh berishga urinayotgan tanqidchilar orasidan Jozefin Obrayen Shefer birinchilardan hisoblanadi. Tadqiqotchi bunday reallikni uchta asosiy element bilan izohlaydi: tabiiy fenomen, ijtimoiy hayot va personajlarning ichki dunyosi. Adiba romanlarini mana shu uch unsurning o‘zaro aloqasi asosida talqin etishga harakat qiladi.[3] O‘tgan asrning 40-50 yillarida nashr qilingan Virjiniya Vulf ijodini tadqiq qilishdagi J.Bennet, R.L.Chembers, D.Deychez, B.Blekstoun hamda D.Xeflilarning muhim ishlari, Uolter Allenning “An’ana va orzu” (Moskva,1970) va Arnold Kettlning “Ingliz romani tarixiga kirish” (Moskva, 1966) nomli rus tiliga tarjima qilingan kitoblarida Virjiniya Vulfga bag‘ishlangan maxsus boblari asosan, I.Rantavvarning ta’biri bilan aytganda, Virjiniya Vulf romanlari asosida yotgan “nasr va she’riyat orasidagi xolis territoriya”ni o‘lchash va ifodalashga qaratilganligi tasodif emas edi. [4] Bunday ilmiy tadqiqotlarning yuksak vazifasi Virjiniya Vulf ijodini modernistik adabiyot oqimida yaratilganligini qayd qilish,

XX asr adabiy jarayonida ingliz adibasining o‘rnini belgilash yoki, Xarold Blumning atamasi bilan aytganda, uning romanlarini G‘arb qonun qoidalariga xosligini ta’kidlashga intilish edi.[5]

Virjiniya Vulfning hayoti va ijodi Bloomsbury guruhi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu ingliz ziyolilari va san’atkorlarining nufuzli guruhini o‘z ichiga olgan madaniy loyihadir. Bloomsburyning dastlabki a’zolari Virjiniyaning turmush ortog‘i Leonard keyinchalik “eski Bloomsbury” deb atagan guruh bilan hamkorlikdagi aloqada bo‘lgan. Bu guruhga o‘sha davrning ko‘zga ko‘ringan ziyolilaridan Leonard va Virjiniya, Vanessa va Klayv Bell, Litton Strachi, Jon Meynard Keyns, Dunkan Grant, Rojer Fray, E. M. Forster, Sakson Sidney-Terner, Adrian va Karin Stiven hamda Desmond va Meri (Molli) Makkartilap kirganlar. Virjiniya Vulf yigirmanchi asrning boshlarida u ong oqimi yo‘nalishida ishlab boshladi va shu orqali e’tiborga tushdi. Jeyms Joys usulidan farqli o‘laroq, uning romanlariga o‘ziga xos tarzda ong kirib keldi. Uning ong oqimi texnikasidan foydalanishi, voqelik chegaralarini yorib o‘tishi zamonaviy yozuvchi va san’atkorlar ijodida yangicha qarashlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Vulf asarlari nafaqat rassomlar, olimlar va yozuvchilarni ilhomlantiradi, balki ularning dunyoqarashini ham o‘zgartiradi. Balki shuning uchun uning ijodi yzouvchi yashab o‘tgan davrdan to hozirgacha turli xil yo‘nalishda va turli xil millatda qayta kashf etilayapti. Uning safdosh do‘stlaridan biri shunday yozadi: “To‘g‘risini aytsam, men Vulf xonimning kecha kechki ovqatdan so‘ng aytgan gaplarini takrorlamoqda edim. U ayollar siyosiy jarayondan tashqarida ekanligini va shu sababli urushning ularga aloqasi yo‘qligini aytgandi. Bu uning og‘zidan chiqqanda aqlli eshitilgandi, men takrorlaganimda esa ahmoqona tuyuldi.”

Xulosa qilib aytganda, Virjiniya Vulf jamiyat hayotidan ta‘sirlangan holda asarlar yozgan, asosan feminism ustida ishlagan, jamiyatdagi patriarxal tuzumni qoralagan. U o‘z asarlarida ayollar mavjud bo‘lishi uchun o‘z makonini yaratishi zarurligini tushuntiradi va romanlarida ayollarning ichki dunyosini, ularning o‘ziga va dunyoga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. U buni birinchi “Voyage Out” romanidan boshlab, umrining oxirigacha yozilgan “Orlando”, “Missis Dellouey”, “Mayoqqa qarab”, “Uch gvineya”, shuningdek, “Pardalar orasida” asarlarida amalga oshiradi.[6]

“Istasangiz, kutubxonalaringizni qulflab qo‘ying, lekin mening fikrim erkinligiga qo‘yadigan na darvoza, na qulf, na tamba bor”. (V.Vulf. “Shaxsiy xona”)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Xolbekov. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini. Ziyo.net
2. https://elleuzbekistan.com/
3. Schaefer, Josephine O. the Three-Fold Nature of Reality in the Novels of Virginia Woolf. The Hague, 1965
4. Forster, E.M. Virfinia Woolf.Cambridge, 1942.p.16 Forster E.M. The Early Novels of Virginia Woolf// Forster E.M.Abinger Harvest. New York, 1953.p.115

5. U.Fayzullayeva. Virjiniya vulf romanlarida ayol ichki dunyosining tasvirlanishi.f.f.d.diss.Jizzax.2020.
6. https://elleuzbekistan.com/

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA VAQT OBRAZINING BADIIY TALQINI: USLUBIY JIHATDAN TAHLILI

Yunusova Halima Madaminovna
Is'hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat Chet tillari institutining
Qiyosiy tilshunoslik linguistik tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-bosqich magistranti
yunusovahalima2002@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq va G'arb adabiyotida vaqt metaforasining stilistik talqini, uning poetik va falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Vaqt tushunchasi har bir madaniyat va adabiy an'anada o'ziga xos tarzda aks ettirilgan bo'lib, Sharq adabiyotida vaqt ko'pincha tsiklik, abadiylik va taqdir tushunchalari bilan uyg'unlashgan, G'arb adabiyotida esa chiziqli rivojlanish, subyektiv vaqt kechishi va psixologik o'zgarishlar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Maqolada Sharq adabiyotidan Alisher Navoiy, Fuzuliy va Umar Xayyom kabi ijodkorlarning asarlaridagi vaqt tasvirlari, G'arb adabiyotidan esa Shekspir, Prust va Joys kabi mualliflarning badiiy matnlarida vaqt metaforasi qanday shakllangani tahlil qilinadi. Vaqt metaforasining stilistik xususiyatlari adabiy tahlil va qiyosiy usullar asosida o'rganilib, uning adabiy obraz yaratish, qahramon kechinmalarini ifodalash va asarning umumiy estetik qiyofasini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: vaqt metaforasi, Sharq adabiyoti, G'arb adabiyoti, stilistik xususiyatlar, poetik vaqt, chiziqli vaqt, tsiklik vaqt, taqdir, subyektiv vaqt kechishi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются стилистические различия метафоры времени в восточной и западной литературе, а также ее поэтическое и философское значение. Понятие времени в каждой литературной традиции представлено по-разному: в восточной литературе оно чаще всего связано с цикличностью, вечностью и предопределенностью, в то время как в западной литературе время воспринимается линейно, субъективно и в контексте психологических изменений.
В статье анализируются представления о времени в произведениях таких восточных авторов, как Алишер Навои, Физули и Омар Хайям, а также западных писателей, включая Шекспира, Пруста и Джойса. Стилистические особенности метафоры времени рассматриваются через литературный анализ и сравнительное исследование, уделяя особое внимание роли времени в создании художественного образа, выражении переживаний персонажей и формировании эстетики произведения.

Ключевые слова: метафора времени, восточная литература, западная литература, стилистические особенности, поэтическое время, линейное время, цикличность времени, судьба, субъективное восприятие времени.

Abstract: This article examines the stylistic differences in the metaphor of time in Eastern and Western literature, as well as its poetic and philosophical significance. The concept of time is interpreted differently in each literary tradition: in Eastern literature, it is often associated with cyclicality, eternity, and destiny, while in Western literature, time is perceived as linear, subjective, and linked to psychological transformation.

The study analyzes representations of time in the works of Eastern authors such as Alisher Navoi, Fuzuli, and Omar Khayyam, as well as Western writers including Shakespeare, Proust, and Joyce. The stylistic features of time metaphors are explored through literary analysis and comparative research, emphasizing their role in shaping artistic imagery, expressing character emotions, and defining the aesthetic structure of literary works.

Key words: time metaphor, Eastern literature, Western literature, stylistic features, poetic time, linear time, cyclic time, destiny, subjective perception of time.

Kirish

Adabiyotda vaqt tushunchasi muhim badiiy vositalardan biri bo‘lib, u turli madaniyat va adabiy an’analarda o‘ziga xos talqin qilinadi. Xususan, Sharq va G‘arb adabiyotida vaqt metaforasining stilistik jihatdan ifodalanishi turlicha kechadi. Sharq adabiyotida vaqt ko‘proq tsiklik, abadiylik va mutlaq haqiqat bilan bog‘liq holda tasvirlansa, G‘arb adabiyotida vaqt chiziqli, o‘tkinchi va dinamik kategoriya sifatida aks etadi. Ushbu tadqiqot ana shu ikki adabiy makonda vaqt metaforasining stilistik xususiyatlarini aniqlash va ularning o‘zaro farqlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi

Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rtasidagi badiiy tafakkur farqlari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, vaqt metaforasining stilistik jihatdan ifodalanishi hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Ayniqsa, badiiy matnlarda vaqt metaforasining qo‘llanish usullari, ularning obrazlilik darajasi va semantik yuklamalari chuqur tahlil talab etadi. Shu sababli, ushbu mavzu zamonaviy adabiyotshunoslik uchun dolzarb va muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Sharq va G‘arb adabiyotida vaqt metaforasining stilistik farqlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Vaqt metaforasining nazariy asoslarini o‘rganish va uni adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish.
2. Sharq adabiyotida vaqt tushunchasining poetik ifodalanish usullarini aniqlash.

3. G‘arb adabiyotida vaqt metaforasining stilistik xususiyatlarini tadqiq etish.
4. Ikkala adabiy makondagi vaqt metaforalari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash.
5. Olingan natijalar asosida adabiyotda vaqt metaforasining ahamiyatini belgilash va stilistik xususiyatlarini umumlashtirish.

Ushbu tadqiqot Sharq va G‘arb adabiyotidagi vaqt konsepsiyasini stilistik jihatdan solishtirishga, badiiy asarlardagi metaforik ifoda vositalarini chuqurroq anglashga va adabiyotshunoslik ilmida yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.Tadqiqotning ilmiy asoslarini mustahkamlash maqsadida Sharq va G‘arb adabiyotlarida vaqt metaforasi bilan bog‘liq mavjud nazariy va amaliy ishlanmalar tahlil qilindi. Tadqiqotda adabiyotshunoslik, lingvistika va falsafiy nazariyalarga asoslangan manbalar o‘rganilib, vaqt metaforasining badiiy asarlardagi o‘ziga xosligi ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Qiyosiy-tahliliy metod** - Sharq va G‘arb adabiyotidagi vaqt metaforalarining farqli jihatlarini aniqlash uchun qo‘llanildi.
2. **Semantik tahlil** - Badiiy matnlarda vaqt tushunchasining semantik xususiyatlarini ochib berish uchun ishlatildi.
3. **Strukturaviy tahlil** - Metaforik ifodalar tarkibini aniqlash va ularning matndagi o‘rni hamda vazifasini belgilash uchun qo‘llanildi.
4. **Kontekstual tahlil** - Metaforik ifodalarni tarixiy va madaniy kontekstga bog‘lab o‘rganish uchun foydalanildi.
5. **Statistik metod** - Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish maqsadida qo‘llanildi.

Ushbu metodlar asosida tadqiqotning ilmiy asosi mustahkamlanib, vaqt metaforasining Sharq va G‘arb adabiyotidagi stilistik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sharq adabiyotida vaqt metaforasi asosan doiraviylik, abadiylik va falsafiy chuqurlik bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu, ayniqsa, sufiyona adabiyot va Sharq falsafasida yaqqol namoyon bo‘ladi. G‘arb adabiyotida esa vaqt chiziqli, dinamik va o‘zgaruvchan hodisa sifatida aks ettiriladi. Bunday yondashuv tarixiy taraqqiyot va modernizm ta’siri bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ba’zi muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, vaqt metaforasining adabiyotdagi roli hali ham to‘liq o‘rganilmagan sohalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ikkinchidan, Sharq va G‘arb adabiyotining o‘zaro ta’sir darajasi va metaforik uslublarning sintezi chuqurroq tadqiqot talab etadi. Uchinchidan, zamonaviy adabiyotda vaqt metaforasining yangicha talqini va uning stilistik o‘zgarishlari alohida e’tibor talab qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu muammolarni hal qilishga qaratilishi lozim. Xususan, vaqt metaforasining qo‘llanilish xususiyatlarini yanada kengroq adabiy makonlarda o‘rganish, madaniy va lingvistik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalariga koʻra, Sharq va Gʻarb adabiyotlarida vaqt metaforasining stilistik talqini oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Sharq adabiyotida vaqt abadiylik va falsafiy chuqurlik bilan bogʻliq holda talqin qilinsa, Gʻarb adabiyotida u progressiv, dinamik va oʻtkinchi tushuncha sifatida aks etadi. Tadqiqot Sharq va Gʻarb adabiyotlaridagi metaforik uslublarni solishtirish imkonini berdi va vaqt konsepsiyasining badiiy asarlarda qanday stilistik usullar bilan ifodalanganini ochib berdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar kelajakda adabiyotshunoslik, lingvistika va falsafa fanlarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi. Vaqt metaforasining adabiyotdagi oʻrni yanada chuqur oʻrganilishi lozim va kelajak tadqiqotlarda uning boshqa badiiy vositalar bilan bogʻliqligi ham tahlil qilinishi kerak.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqning falsafiy tafakkuri (oʻrta asrlar). - T.: Sharq, 2010. - 189 bet. (The philosophical thought of Central Asia, Near and Middle East (Middle Ages))
2. Ricoeur P. Time and Narrative. - Chicago: University of Chicago Press, 1984. - 525 p.
3. Lotman Yu. M. Semiosphere. - SPb.: Iskusstvo-SPB, 2000. - 731 p.
4. Bakhtin M. The Dialogic Imagination: Four Essays. – Austin: University of Texas Press, 1981. - 384 p.
5. Eliot T. S. Four Quartets. – London: Faber & Faber, 1944. - 64 p.
6. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. - Ithaca: Cornell University Press, 1980. - 285 p.

Said E. Orientalism. - New York: Pantheon Books, 1978. - 368 p.

Avtobiografiya madaniyat va adabiyot hodisasi sifatida
Автобиография как культурное и литературное явление
Autobiography as a Cultural and Literary Phenomenon

Alisher Navoiy nomidagi oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Azimova Yulduz Baxtiyor qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada avtobiografiya janri madaniyat va adabiyot hodisasi sifatida tahlil qilinadi. Muallif shaxsining ichki kechinmalari, tarixiy-madaniy kontekstdagi oʻrni va badiiy ifoda vositalari orqali jamiyat madaniyati va adabiyotdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, avtobiografiyaning estetik va ijtimoiy ahamiyati, uning milliy identitet va madaniy xotirani shakllantirishdagi oʻrni yoritiladi.

Kalit soʻzlar: avtobiografiya, madaniyat, adabiyot, shaxs, estetik, madaniy xotira, identitet, adabiyot, badiiy asar.

Аннотация:

В статье рассматривается автобиография как культурное и литературное явление. Анализируются внутренние переживания автора, его место в историко-культурном контексте, а также художественные средства выражения, раскрывающие роль автобиографии в культуре и литературе общества. Особое внимание уделяется эстетическому и социальному значению автобиографии, её роли в формировании национальной идентичности и культурной памяти.

Ключевые слова: автобиография, культура, литература, личность, эстетика, культурная память, идентичность,

Abstract:

This article explores autobiography as a cultural and literary phenomenon. It examines the author's inner experiences, their place in the historical-cultural context, and the artistic means used to reflect the role of autobiography in literature and culture. Particular attention is given to the aesthetic and social significance of autobiography and its role in shaping national identity and cultural memory.

Keywords: autobiography, culture, literature, self, aesthetics, cultural memory, identity

Avtobiografik yozuvlarning ilk shakllari qadimgi Gretsiya va Rim adabiyotida uchraydi. Bu davrda shaxsiy hayot voqealari asosan esdalik va falsafiy mulohaza tarzida bayon qilingan. Platon (miloddan avvalgi 5–4 asrlar) va Seneka (milodiy 1-asr) asarlarida o‘z tajribalarini umumlashtirib, axloqiy-ma’naviy qadriyatlar asosida hikoya qilishga urinishlar mavjud. Avgustinusning “Iqrornoma” (Confessiones) asari (397–400-yillar) ilk diniy avtobiografiyalardan biri bo‘lib, ruhiy hayot va Xudoga qaytish jarayonini tasvirlaydi. U avtobiografiyaning ichki dunyoni yoritish imkoniyatini kengaytirdi.[114]Yevropa o‘rta asr adabiyotida avtobiografik asarlar kam uchraydi, chunki shaxsiylik g‘oyasi diniy kollektivlik fonida ortga surilgan edi.Diniy kechinmalar asosiy o‘rinda edi. Masalan, Margery Kempe (1373–1438) ilk ingliz ayol avtobiografi sifatida tanilgan (“The Book of Margery Kempe”).

Uyg‘onish davrida inson markaziy figura sifatida ko‘rilganligi sababli, avtobiografiya shaxsiy yuksalish va tafakkurni yoritish vositasiga aylandi. Benvenuto Cellini (1500–1571) o‘zining mashhur “Hayotim” (La Vita) asarida ijodkorning o‘z hayoti va san’atdagi o‘rnini aks ettirgan. Bu g‘arbiy avtobiografik an’ananing muhim namunasi sanaladi.

Yangi davrda (XVIII–XIX asrlar) avtobiografiya mustaqil adabiy janr sifatida shakllana boshladi. Bu jarayonda Ma’rifatchilik va Romantizm oqimlari muhim rol o‘ynadi.Rousseauning “E’tiroflar” (Les Confessions, 1782) asari avtobiografiyani subyektiv, shaxsiy ruhiy portret sifatida tasdiqladi.Goethening “Dunyoviy yillari” (Dichtung und Wahrheit, 1811–1833) esa intellektual shaxsning shakllanish tarixini ochib beradi.

[114] Augustine. Confessions. Cambridge University Press, 2002.

XX asr va zamonaviy bosqichida modernizm va postmodernizm davrida avtobiografiya janri sezilarli darajada yangilandi:Virginia Woolf, James Joyce, Jean-Paul Sartre va Maya Angelou kabi mualliflar o‘z hayotlari asosida subyektiv, ko‘p qatlamli matnlar yaratdi.

Philippe Lejeune – "Avtobiografik shartnoma" nazariyasiga ko‘ra Lejeune avtobiografiyani quyidagicha ta’riflaydi:

"Avtobiografiya — bu real muallif tomonidan yozilgan, o‘z hayoti haqida, real voqealarga asoslangan, retrospektiv hikoyadir. Bu yerda muallif, hikoya qiluvchi va bosh qahramon bir shaxsdir" Lejeune “avtobiografik shartnoma”ni muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonch kelishuvi deb ataydi: o‘quvchi muallif aytgan voqealarni haqiqat sifatida qabul qiladi.

Paul de Man – Avtobiografiyaning dekonstruktiv tahlili De Manning fikricha, avtobiografiya real hayotni emas, balki til orqali yaratilgan konstruktsiyadir. Shuning uchun u avtobiografiyani aniq janr emas, matndagi o‘ziga xos strategiya deb hisoblaydi. “Avtobiografik janr degani, hayotiy haqiqatni emas, balki matn orqali ongni tashkil etishdir.”

Sidonie Smith & Julia Watson – Feminist yondashuvda avtobiografiyani ijtimoiy, madaniy va gender jihatdan interaktiv va kontekstual matn deb tushuntiradi. Ularning qarashlarida shaxs identiteti — ijtimoiy munosabatlar va tarixiy holatlar ta’sirida shakllanadi. “Avtobiografik yozuv bu – o‘z-o‘zini ifodalash emas, balki ijtimoiy diskurslar orqali yaratilgan o‘zlik qurilishidir.”

Avtobiografiya (yun. autos – “o‘zim”, bios – “hayot”, grapho – “yozaman”) – bu muallif o‘z hayotini bevosita o‘zi tasvirlaydigan adabiy janrdir. U shaxsiy kechinmalar, hayotiy tajriba, muhit, tarixiy hodisalar va o‘ziga xos qarashlarni qamrab oladi.[115] Avtobiografiya – bu o‘quvchi va muallif o‘rtasida “avtobiografik kelishuv”ga asoslangan diskurs bo‘lib, bu kelishuv orqali muallif o‘zini hikoya qilishga da’vo qiladi va o‘quvchi buni chinakam hayotiy hikoya sifatida qabul qiladi.[116] Avtobiografiya — bu faqatgina shaxsiy hayot haqidagi yozuv emas, balki o‘tmishni eslash, xotirani matnlashtirish, o‘zlikni anglash va jamiyatdagi madaniy pozitsiyani belgilovchi murakkab janrdir. U adabiy-badiiy shaklda ifodalansa-da, ichki mohiyatiga ko‘ra madaniy, ijtimoiy va diskursiv hodisadir. Bu jihatlar uning ko‘p qatlamli mohiyatini ochib beradi. Avtobiografiya janri ham adabiy ham madaniy hodisa hisoblanadi. Adabiy hodisa sifatida avtobiografiya estetik va janr belgilariga ega. Avtobiografik asarlar: badiiy voqeani vaqt va makon nuqtai nazaridan tartiblaydi; obrazlilik, kompozitsiya, til uslubi kabi adabiy vositalardan foydalanadi; muallif, hikoyachi va qahramonning birligi bilan ajralib turadi.[117]

Avtobiografiya o‘zlikning estetik shakllanishi uchun platformadir. Shaxsiy voqeliklar badiiy asar sifatida qayta yaratiladi va bu o‘quvchida estetik taassurot uyg‘otadi.[118] Avtobiografiya: memuar bilan tarixiylikda, kundalik bilan hissiyotda,

[115] Gasparov, M.L. (1997). Ocherki istorii russkoy literatury. M.: Nauka.
[116] Lejeune, Ph. (1989). On Autobiography. Minneapolis: University of Minnesota Press.
[117] Lejeune, P. Le pacte autobiographique. Paris: Seuil, 1975.
[118] Olney, J. Metaphors of Self: The Meaning of Autobiography. Princeton University Press, 1972.

roman bilan kompozitsiyada kesishadi. Avtobiografiya adabiyotda, badiiyatdagi o‘rni ham shu bilan hamiyatlidir.

Avtobiografiyaning madaniy hodisa sifatidagi o‘rniga keladigan bo‘lsak, avtobiografik yozuvlar orqali shaxs o‘zini nafaqat inson sifatida, balki qayerga mansub va qanday qadriyatlar bilan bog‘liq ekanini ham namoyon qiladi. Bu milliy, diniy, jinsiy va sinfiylikni ifodalashdagi muhim jihatlardan biri.[119]

Avtobiografik asar — bu shaxsiy xotira bilan bir qatorda madaniy xotirani ham saqlovchi vositadir. Xotiraning yozma shaklga aylanishi orqali muallif o‘z davrining tarixiy-falsafiy kontekstini aks ettiradi. Avtobiografiya – adabiy emas, madaniy voqelik. Nafaqat adabiy janr, balki madaniy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. U muallifning shaxsiy kechinmalari orqali tarixiy, ijtimoiy, madaniy va ideologik jarayonlarni ifoda etadi. O‘zini ifodalash orqali muallif aslida jamiyatni, davr ruhini, milliy ongni aks ettiradi.[120] Avtobiografiya va o‘zlik konsepsiyasi (selfhood) ya‘ni adabiy hodisa sifatida avtobiografiya “o‘zlikni yaratish amali” (identity construction) deb qaraladi. Bu jarayon: muallifning retrospektiv (orqaga qarab) nigohi, madaniy kodlar, til va janr orqali o‘zligini shakllantirishdan iborat.[121]

Philippe Lejeune o‘zining mashhur “avtobiografik pakt” konsepsiyasida shunday deydi: “Avtobiografiya – bu muallif, qahramon va hikoyachi o‘rtasidagi nomuvofiqlik yo‘qligi va bu uchlikning birligi haqida o‘quvchi bilan tuzilgan kelishuvdir.” Ammo postmodern yondashuvlarda bu pakt inqirozga uchraydi: haqiqat (truth) va xotira (memory) o‘rtasidagi ziddiyat. O‘tmishni yozish – bu uni qayta ixtiro qilish demak.[122] Avtobiografiyaning boshqa janrlar bilan aloqasi, bog‘liqligi xususida ham bir qancha nazariy qarashlar mavjuddir. Misol uchun Saunders ismli xorijlik professor avtobiografiya – janrlararo integratsiya mahsuli deb hisoblagan. Avtobiografiya o‘z tabiatiga ko‘ra interjanr hodisa ya‘ni:

Memuar – tarixiy kontekstga yaqin, hissiylikdan xoli.

Kundalik – ichki dunyo va kechinmalarga to‘liq yo‘naltirilgan.

Fikriy esse – falsafiy umumlashmalar kuchli.

Avtofikshn (autofiction) – fakt va badiiy ixtironing aralashmasi.[123]

O‘zbek adabiyotimiz tarixi-yu kelajagida ham avtobiografiuya janri, avtobiografik asarlar o‘rni beqiyos. Abdulla Avloniy – “Turkiy guliston yoxud axloq”da o‘z tarbiyaviy qarashlarini biografik kontekstda ifodalab bergan vatanparvar jadidalarimizdandir. Oybekning “Bolalik” asari – avtobiografik realizm namunasi hisoblanadi. Cholponning “Kecha va Kunduz ” asari ham tarixiy konteksda yozilgan bo‘lib, shaxsiy iztirob, xalq kechinmalari uyg‘unlashgan. O‘zbek avtobiografiyalari, ayniqsa XX asrda, faqat shaxs emas, xalq taqdirining

[119] Smith, Sidonie & Watson, Julia (2010). Reading Autobiography: A Guide for Interpreting Life Narratives. University of Minnesota Press.
[120] Smith, Sidonie & Watson, Julia (2010). Reading Autobiography: A Guide for Interpreting Life Narratives. University of Minnesota Press.
[121] Paul John Eakin. How Our Lives Become Stories: Making Selves. Cornell University Press, 1999.
[122] Lejeune, P. (1989). On Autobiography. University of Minnesota Press.
[123] Saunders, Max (2010). Self Impression: Life-Writing, Autobiografiction, and the Forms of Modern Literature. Oxford University Press.

timsoli sifatida shakllangan.[124] Bundan tashqari avtobiografiya adabiy hodisa sifatida faqat matn emas, balki diskurs bo‘lib, u: shaxsning o‘zini qanday til orqali ifoda etishini, qanday madaniy kodlar orqali o‘zligini qurishini va qanday ijtimoiy rollarini tan olishini tahlil qiladi.[125] Avtobiografiya — bu shunchaki o‘z hayotingizni yozish emas, balki o‘tmish, hozirgi zamon va til orqali o‘zlikni barpo etish, milliy va shaxsiy xotiraning shakllanishida faol ishtirok etish vositasidir. Adabiy hodisa sifatida u estetik, madaniy, falsafiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyot va badiiyat haqida [About Literature and Artistic Creativity]. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
2. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati [Explanatory Dictionary of World Literature Terms]. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.
3. Augustine. Confessions. Cambridge University Press, 2002.
4. Rousseau, Jean-Jacques. The Confessions. Penguin Classics, 1953.
5. Lejeune, Philippe. On Autobiography. University of Minnesota Press, 1989.
6. De Man, Paul. Autobiography as De-facement. Modern Language Notes, 1979.
7. Smith, Sidonie & Watson, Julia. Reading Autobiography: A Guide for Interpreting Life Narratives. University of Minnesota Press, 2010.
8. Olney, James. Metaphors of Self: The Meaning of Autobiography. Princeton University Press, 1972.
9. Pascal, Roy. Design and Truth in Autobiography. Harvard UP, 1960.

O‘ZBEK VA INGLIZ XALQ ERTAKLARINING QIYOSIY TIPOLOGIK VA IJTIMOIY-MADANIY HUSUSIYATLARI.

V.Nishonova
University of Business and Science magistranti

Anotatsiya: Ushbu dissertatsiya **O‘zbek va ingliz xalq ertaklarining qiyosiy tipologik tahlili** mavzusida yozilgan. Tadqiqotda ikki xalqning xalq ertaklari o‘rtasidagi tematik, struktural va axloqiy farqlar va o‘xshashliklar tahlil qilinadi. Ertaklar xalqning madaniy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini aks ettirib, ularda yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, axloqiy saboqlar va qahramonlar tipologiyasi asosiy o‘rin tutadi. Tahlil davomida ingliz va o‘zbek ertaklarining o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, xalqaro madaniy o‘zaro ta’sirning rolini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot xulosalari ikki xalqning madaniy va axloqiy qadriyatlari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni ko‘rsatib, xalqaro ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

[124] Yo‘ldoshev, A. (2016). O‘zbek adabiyotida avtobiografik janr xususiyatlari. TDPU ilmiy jurnali.
[125] Benveniste, É. (1971). Problems in General Linguistics
Foucault, M. (1988). Technologies of the Self

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq ertaklari, ingliz xalq ertaklari, qiyosiy tahlil, tipologik tahlil, yaxshilik va yovuzlik, axloqiy qadriyatlar, qahramonlar, xalq madaniyati, fantastik elementlar, ijtimoiy adolat.
Annotation: This dissertation focuses on the comparative typological analysis of Uzbek and English folk tales**.** The study analyzes thematic, structural, and moral differences and similarities between the folk tales of both nations. Folk tales reflect the cultural, social, and moral values of the people, with the central themes being the struggle between good and evil, moral lessons, and the typology of characters. The analysis highlights the distinctive features of English and Uzbek folk tales, as well as the role of international cultural exchange. The conclusions demonstrate the commonalities and differences in the cultural and moral values of the two nations, offering new perspectives for international scholarly research.
Keywords:Uzbek folk tales, English folk tales, comparative analysis, typological analysis, good vs. evil, moral values, heroes, folk culture, fantastic elements, social justice.
Аннотация: Диссертация посвящена сравнительному типологическому анализу узбекских и английских народных сказок. В исследовании рассматриваются тематические, структурные и моральные различия и сходства между народными сказками обеих культур. Сказки отражают культурные, социальные и моральные ценности народов, в которых главными темами являются борьба добра и зла, нравственные уроки и типология героев. Анализ подчеркивает особенности английских и узбекских сказок, а также роль международного культурного обмена. Выводы показывают общие и различные аспекты культурных и моральных ценностей двух народов, предлагая новые возможности для международных научных исследований.
Ключевые слова: Узбекские народные сказки, английские народные сказки, сравнительный анализ, типологический анализ, борьба добра и зла, моральные ценности, герои, народная культура, фантастические элементы, социальная справедливость.

Xalq ertaklari nafaqat xalqning madaniy merosi, balki uning dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini va urf-odatlarini aks ettiruvchi yirik badiiy asarlardir. Xalq ertaklari milliy identitetni saqlab qolishning, xalqning tarixiy va ijtimoiy hayotini anglashning muhim vositalaridan biridir. Ushbu dissertatsiya O‘zbek va ingliz xalq ertaklarining tipologik tahlilini o‘tkazib, ularning o‘xshashliklari va farqliliklarini keltiradi. Ertaklar orqali ikki xalqning madaniyatlaridagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni yoritib, xalqaro tadqiqotchilar uchun yangi tahliliy yondashuvni taklif etadi.

Xalq ertaklari – xalqning og‘zaki ijod mahsulidir. Ular o‘zgarmas tarixiy davrlarda shakllanib, avloddan-avlodga o‘tilgan. Ertaklarning turli janrlari mavjud ya’ni ular quyidagicha turlanishini ko‘rishimiz mumkin Fantastik Ertaklar: Mifologik elementlar, hayvonlar bilan gaplashish, yovuzlikka qarshi kurashish.Maishiy Ertaklar: Oddiy odamlarning hayotini tasvirlab, ko‘proq axloqiy saboqlarni berish.Didaktik Ertaklar: Aql-idrok va axloqni targ‘ib qiluvchi, o‘rganish

jarayonini ko‘rsatadigan hikoyalar.O‘zbek va ingliz xalq ertaklarining tematik va strukturalarini tahlil qilishda, bu janrlarning qanday tasvirlanishi muhim ahamiyatga ega.Tematik o‘xshashliklar va farqlar quyidagicha keltirilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.Yaxshilik va yovuzlik kurashi ya’ni har ikkala xalq ertaklarida yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash markaziy mavzu hisoblanadi.Ingliz ertaklarida yaxshi qahramonlar (masalan, "Cinderella" yoki "The Ugly Duckling") odatda nohaq odamlar tomonidan zulmga uchraydi, ammo ular omad va mehnat bilan baxtga erishadi.O‘zbek ertaklarida yovuzlik odatda haqiqiy, tabiiy kuchlar yoki shaytoniy kuchlar tomonidan ifodalanadi. "Beshikdagi yovuzlar" kabi ertaklarda yaxshi qahramonlar adolatni tiklash uchun kurashadilar.

Boshqacha qilib aytganda, ingliz ertaklarida baxt va boylikning kutilmagan tarzda kelishi ko‘proq ta'kidlanadi, o‘zbek ertaklarida esa adolat va mehnatning muhimligi keltiriladi.Boylik va kambag’allik bu boylik va kambag‘allik o‘rtasidagi farqni o‘rgatish ham ko‘plab xalq ertaklarida uchraydi.Ingliz ertaklarida boylik yoki mukofot ko‘pincha omadning yoki baxtning natijasi sifatida tasvirlanadi. Masalan, "King Midas" ertagida boylik insonning baxtsizligiga aylanishi mumkin.O‘zbek ertaklarida esa boylik ko'proq mehnat va axloqiy yaxshilikka bog‘liq. "Mehnatning mevasini to‘lash" kabi ertaklar, erishilgan muvaffaqiyatning mehnat va sabr-toqatga asoslanganligini ko‘rsatadi. O‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy adolat bu ingliz ertaklarida ko‘pincha qahramonlar o‘zlarining baxtli tug‘ilganliklarini anglaydilar. "The Golden Goose" kabi ertaklar, baxt va boylikni olishda tabiatning yoki shansning ta’siri katta bo‘ladi.O‘zbek ertaklarida esa ertaklar ko‘proq shaxsning o‘zini o‘rganishi va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan. O‘zbek xalq ertaklarida jamiyatga foyda keltirish uchun qahramonning o‘zini qurbon qilishi ko‘rsatiladi. Qahramonlar va ularning tiplari xalq ertaklaridagi qahramonlar har doim axloqiy jihatdan aniq turlarga bo‘linadi ya’ni yaxshi, yomon, adolatli va zolim.Ingliz ertaklaridagi qahramonlar qahramonlar ko‘pincha baxtli yoki omadli bo‘lib, ular oddiy, mehnatkash va sadoqatli. "Jack and the Beanstalk" ertagidagi Jack qahramoni kambag‘al oila farzandi bo‘lib, orzulariga erishadi.O‘zbek ertaklaridagi qahramonlar esa o‘zbek ertaklarida qahramonlar ko‘pincha ma’naviy yuksaklikka erishish, ijtimoiy tenglikka erishish va haqiqiy adolatni tiklash uchun kurashadilar. Masalan, "Alisher" kabi qahramonlar o‘zining ma'naviy kuchi va qahramonligi bilan jamiyatga yordam berishadi.Umumiy saboqlar va axloqiy qadriyatlar xalq ertaklarining asosiy vazifalaridan biri - axloqiy saboqlarni o‘rgatish.

Ingliz ertaklarida axloqiy saboqlar odatda ochiq-oydin, saboq olishning asosiy usuli qahramonlarning muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklarida ko‘rinadi.O‘zbek ertaklarida axloqiy saboqlar ko‘proq qahramonning shaxsiy tajribasi va mehnatiga asoslanadi. Misol uchun, "Qushni tutgan burun" ertagida, adolat, mehnat va samimiyatning qadri ko‘rsatiladi.O‘zbek va ingliz ertaklarida quyidagi strukturaviy farqlar ko‘rsatishimiz mumkin ya’ni o‘zbek va ingliz xalq ertaklari struktura jihatidan o‘xshash bo‘lishi mumkin, ammo ba’zi farqlar mavjud.Ingliz ertaklarida ko‘proq fantastik elementlar va chiroyli, og'irlik bilan

tugaydigan voqealar mavjud.O‘zbek ertaklarida esa realistik va ko‘pincha ijtimoiy tabiatdagi tasvirlar ustun. O‘zbek ertaklari ko‘proq axloqiy jihatlarga asoslangan va o‘rganish jarayonining natijasida yakunlanadi.Madaniy xususiyatlar va ularning xalqaro ta’siri bu ingliz va o'zbek ertaklaridagi farqlar, ularning madaniy an'analari va tarixiy sharoitlaridan kelib chiqadi.Ingliz ertaklarida ertaklar ko‘pincha individualizm va shaxsiyatga taalluqli bo‘lib, baxt va omadning tashqi kuchlar bilan bog‘lanishini tasvirlaydi.O’zbek ertaklarida esa jamiyat, oila va ma'naviyat bilan bog'liq jihatlar asosiy rol o'ynaydi. O'zbek ertaklarida ko'pincha xalqning qadriyatlari, mehnat, adolat va insoniylikni ta'kidlashga e'tibor qaratiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak O’zbek va ingliz xalq ertaklarining qiyosiy tahlili, ikki xalqning madaniy va axloqiy qadriyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil xalqlar o‘rtasida umumiyliklarni va farqlarni ko‘rsatib, xalqaro madaniy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi. Har ikkala madaniyatda ham adolat, yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashning mavjudligi, erkak va ayollar obrazlarining shakllanishi va axloqiy saboqlarning ta'limi barchasida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

A'zamov, X. (2018). Xalq ertaklari va ularning o‘ziga xosligi. Toshkent: Sharq nashriyoti.

Bekmuhammadov, M. (2005). O‘zbek xalq ertaklari: Strukturaviy va janr xususiyatlari. Tashkent: Fan nashriyoti.

G‘afurov, I. (2007). Xalq ertaklari: An'anaviy va zamonaviy tahlil. Toshkent: Ma’naviyat.

Sariyoqov, D. (2012). Ertakshunoslikning asosiy tamoyillari. Toshkent: O‘qituvchi.

Meyr, K. (2004). The Fairy Tales of the World. Oxford University Press.

Grimm, J. & Grimm, W. (1812). Grimm's Fairy Tales. Berlin: Reimer.

Propp, V. (1968). Morphology of the Folktale. University of Texas Press.

II-SHO'BA. TILSHUNOSLIKDA KOMPORATIVISTIK YONDOSHUVLAR

THE USAGE OF THE CONCEPT OF "BEAUTY/ UGLINESS" IN PAREMIOLOGICAL UNITS

I.U. Tojiboyev,
Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences,
Namangan State University
ilxomjon.tojiboyev.78@mail.ru

As is known, the phraseological fund of a language is an important source of information reflecting the customs, lifestyle, culture and mentality of a particular people. Because phraseological units reflect the myths, customs, legends, traditions of a particular people. Phraseological units play a special role in creating a linguistic picture of the world or in seeing the world through language. Phraseological units are important means of creating imagery, expressiveness and emotionality, and they play an important role in increasing the expressive effectiveness of literary texts. That is why phraseological units are compact, meaningful and effective units. Phraseological units are inextricably linked with the spirituality, customs, profession, lifestyle, past, and attitude to reality of the people who own the language. V.V. Vinogradov, taking into account the motivation of phraseological units, divides them into three types: phraseological units, phraseological units, and phraseological units (5;7).

Analyzing idioms, N. Amosova divides idioms into two groups depending on whether one or all of their components are in a transitive sense: if one of the components in idioms is in a transitive sense, she proposes calling them "phrases," and if all components are in a transitive sense, she proposes calling them "idioms" (6;123).

AI Smirnitsky shows FBs as equivalent to words and emphasizes that they occur in speech as a part of speech (7;254).

In world linguistics, until now, the field of phraseology is understood in a broad and narrow sense. Scholars who understand phraseology in a wide range include proverbs, sayings, aphorisms and other types of stable units (3;344).

Uzbek linguist Sh. Rahmatullaev proposes to call units specific to the phraseological layer "phraseme" (4;405).

In most genres of folk art, phraseological units describe various relationships in society, events and In order to express situations more simply and clearly, the images of animals, plants, and birds are used. Each of these is used as a symbol, and through them the image of people with certain positive and negative qualities is strengthened and embodied. Below we will dwell on the analysis of phraseological units expressing "beauty/ugliness" in English and Uzbek.

The results of the analysis of phraseological dictionaries of the English language showed that there are a large number of phraseological units expressing human appearance. It is also worth noting that the phraseological material in the

English language is more focused on expressing beauty than ugliness. Human beautiful appearance in phrases we can see: sweets to the sweet; out of this world; graceful as a swan; prince charming; as pretty as a picture; may queen; soft as down; as handsome as a paint; as shining as star;

Proverbs and sayings, which are considered paremiological units, are folk sayings that affirm or deny something in a clear, expressive, and effective way, that is, they express the truth. Each nation has its own system of proverbs and sayings, which reflect the customs, mentality, and traditions of this nation. When used in communication, proverbs and sayings have a strong impact on the interlocutor and serve to quickly understand the meaning. The results of the analysis showed that in both languages, proverbs are used more often to express the beauty of women than men. It should also be noted that proverbs pay more attention to the attractiveness and beauty of a person's appearance, stature, and behavior. For example, 1. A person external Denoting the beauty of appearance proverbs: *A pretty man looks pretty in every clothing; If you are beautiful, whatever you do is fine; Good face is a letter of recommendation; Every woman would rather be handsome than good;* Like *Beauty is a living thing*. 2. Pleasant, expressing the possession of good behavior: *Good fame is better than a good face; A clear conscience shines not only a good face; Faults are thick where love is thin; Beauty is silent eloquence; Fair words break no bones; A bird is known by its note and a man by his talk* like 3. Beauty and love lie with sideways - sideways walk expressive proverbs: *Beauty lies in lover's eyes; Beauty is in the eye of the beholder; He who loves at one-eyed girl thinks that one-eyed girls are beautiful; Beautiful roads never go far; What blossoms beautifully, withers fast* like.

Beauty, when viewed as a subjective evaluation, is expressed in English by the following proverb: *Every mother thinks her own gosling a swan.* In Uzbek, the same situation is: *Hammaniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga; Qo‘ng’iz ham bolasini oppog‘im, tipratikan yumshog‘im deydi.*

Proverbs about how disproportion in beauty leads to ugliness: *Didsiz o‘tirgan yerini ham changitar; Yirtiq to‘nga – zar yamoq; Kal boshiga – shamshod taroq; So‘qir ko‘zga surmaning keragi yo‘q; O‘rdak o‘ziga oro bersa ham, oqqush bo‘lolmas*.

From the results of the research, it became clear that lexemes representing beauty can be further divided into the following groups and analyzed:

1) Don't judge by appearance alone: *Beauty is but/only skin-deep; Appearances are deceptive/deceitful.* In Uzbek: Chiroyli xotin ko‘cha ko‘rki, aqlli hotin uy ko‘rki; Chiroyiga non botirib yeb bo’lmas.

2) About being more beautiful on the inside than on the outside: *Virtue lives when beauty dies*; *A fair face may hide a foul heart/soul*; *Fair without, foul (false) within* like. In Uzbek: *Chiroy to‘yda kerak, aql kunda kerak; Usti yaltiroq, ichi qaltiroq.*

3) Regarding the fact that everyone has a different idea of beauty: *Tastes differ*; *Beauty is in the eye of the gazer/beholder; Beauty is in the beholder’s eye*. In Uzbek: *Har kimni didi har xil*;

4) Clothes are the adornment of a person: *Fine feathers make fine birds*; *The tailor makes the man.* In Uzbek: *Kiyim kishining bezagi; Kiyimiga qarab kutib olinadi, aqliga qarab kuzatishadi*.

We have seen that in English people's culture, when expressing ugliness, more attention is paid to its unpleasant appearance and behavior. For example, expressing the unpleasantness and ugliness of human appearance or body parts**:** Never look up to others thinking you are ugly, instead be so successful that they look up to you; When you humiliate an ugly person do remember that it is the ugliness of your eyes; You are what you think about yourself, if you think yourself as ugly you will never overcome this thought.

Ugly behavior**:** Pretty people give their lives trying to look better; ugly people give their lives to make their lives better; True love is found in the character and personality and not whether they are beautiful or ugly; Laughing at ugly ones will get you nothing; remember that your beauty will fade over time; Nothing is more ugly than your hatred towards someone; Devil is the ugliest of all creations, sometimes they appear in the form of angels; An honest and trustworthy man becomes ugly when he is driven by greed for money; "Your ugliness depends on how you perceive things, not what others say; "The ugliness of the face does not matter, but the ugliness of the heart does .

In conclusion, it can be said that in the phraseology of the English language, more attention is paid to the external appearance and clothing of the primary person. In the culture of the Uzbek people, more situations related to the inner beauty, behavior, and mental processes of a person are reflected. Also , in the system of paremiological units in the languages being compared, we can observe certain linguocultural similarities and differences. It turned out that while analytical means prevail in the English language, agglutinative means prevail in the Uzbek language.

Used literature

1. Berdyorov X., Rasulov. R. Uzbek tilining paremiologik lug'ati. T., 1984-290 p.
2. Yusupov.U.K . Mano , concept , concept and linguokulturema // Scientific and practical conference materials . - T., 2011. - B. 45 - 48.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). Л.: Просвещение, 1973. - 304 с.;
4. Rakhmatullaev Sh. Explanatory phraseological dictionary of the Uzbek language. Tashkent: Teacher. 1978, 405 p.
5. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц в русском языке. – М.: Наука, 1947. - С. 7.
6. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1961. - С. 123-145.
7. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. – М.: Высшая школа, 1956. - 254 с.
8. Mamatov A.E. Phraseologisms of the Uzbek language formation issues.: autoref. diss .... d-ra. f ilol. science - T., 1999. - 56 p.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY O‘RGANILISHI.

Babaqulova Oydin Xayrulla qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola dunyo bo’ylab frazeologiya birliklarining qiyosiy o’rganilishi, ularning tahlil qilinishi, turli davlatlar tilshunos olimlarining o’xshash va farqli nazariy yondoshuvlari va shular asnosida paydo bo’lgan ilmiy ishlar haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Leksik frazeologik, structural-grammatik, semantik, pragmatic tahlil, frazeologik konsepsiya, frazeologik turg’unlik.

Annotation: This article provides information about the comparative study of phraseological units around the world, their analysis, similar and different theoretical approaches of linguists from different countries, and the scientific works that have emerged as a result.

Keywords: Lexical phraseological, structural-grammatical, semantic, pragmatic analysis, phraseological concept, phraseological stability.

Cheksiz sirli hilqat, o’rganilishi to’xtamaydigan va tugamaydigan bepayon kenglilik bu – ilm fan! Uning bir bo’lagi tilshunoslik bo’lib, quyidagi maqolada dunyo bo’ylab frazeologiya birliklarining qiyosiy o’rganilishi haqida ko’rib chiqamiz. Istalgan tilning leksik-frazeologik tizimi o’zgarib, kundan kun taraqqiy etib va albatta boyib boruvchi, so’zlashuv madaniyati yuksalishiga beqiyos xizmat qiluvchi hodisa bo’lganligi uchun ham jahon tilshunosligida frazeologizmlarni yanada chuqurroq o’rganishga bo’lgan qiziqish va talab hamisha uning yangidan – yangi qirralarini ochishga xizmat qilib kelmoqda. Frazeologik birliklarga til hodisasi sifatida qaralishi, uni turli aspektkarda tadqiq etish vazifalarini horijlik tilshunos olimlar boshlab berishdi va shu bilan birgalikda rivojlantirishdi. Jumladan, ingliz frazeologiyasida N.N.Amasova, A.V.Kunin, nemis frazeologiyasida I.I.Chernisheva, A.D.Rayxshteyn, fransuz frazeologiyasida V.G.Gak , N.N.Kirillova, Z.N.Levit, A.G.Nazaryan, G.G.Sokolova, I.N.Timeskova, A.E.Mamatov, rus frazeologiyasida V.V.Vinogradov, V.L.Arxangelskiy, L.I.Royzenson, V.P.Jukov, M.T.Tagiyev , V.N.Teliya, N.M.Shanskiy, B.A.Larin, V.M.Mokienko, ispan frazeologiyasida N.N.Kurchatkina, A.V.Suprun, italyan frazeologiyasida T.Z.Cherdanseva singari tilshunos olimlar o’zlarining doktorlik dissertatsiyalari va monografiyalarini shu muammolarga bag’ishlaganlar.

O’zbek tilshunosligida ham o’zlarining ilmiy ishlari va monografik taqdiqotlari bilan o’zbek tili frazeologiyasi muammolari yechimiga bag’ishlagan tilshunos olimlar Sh.Rahmatullayev, X.Berdiyorov, E.Umarxo’jayev, A .Mamatov, B.Yo’ldoshev haqida alohida takidlash zarur.

Tilshunoslik olamida frazeologik birliklarni structural-grammatik, semantik, uslubiy pragmatik jihatdan tahlillari yetarlicha bo’lsada, frazeologik tizim,frazeologik ma’no, frazeologizmlarning kelib chiqishi,tarixiy taraqqiyoti, manbaalari va milliy-madaniy jihatlarini qiyoslab o’rganish borasida haligacha o’z

yechimini kuyatotgan muammolar bor, albatta. Tilshunoslikda fraziologik birliklar -serqirra hodisa hisoblanadi vas hu bilan birgalikda tahlil usullari ham xilma-xil. Frazeologik identifikatsiya, ,kontekstologik, ikki tomonlama qiyosiy sinxron tahlil,tuzulmaviy-tipologik tahlil usullari shular jumlasidandir.

Sharl Balli frazeologizmlarning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni birinchi bo'lib ko'tarib chiqqan fransuz tilshunosi hisoblanadi. U ikki jildli frazeologik konsepsiya ishlab chiqdi. Bu konsepsiyaning nomi "Précis de stylistique", "Traité de stylistique française" bo'lib, u tildagi frazeologik birliklarni ilmiy jihatdan mahsus o'rganish zarurligiga asoslangan edi.[28] Sh.Ballidan so'ng u ilgari surgan konsepsiyani keyinchalik V.V.Vinogradov, V.P.Jukov, A.G.Nazaryan, G.G.Sokolova kabi rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

Sh.Balli konsepsiyasini to'ldirib, mukammalshtirib rus tili frazeologizmlarini o'rganish bilan birgalikda frazeologik birliklarining semantikasi va tuzilishidan tashqari uning grammatik xususiyatlariga ham e'tibor qaratib o'rgangan olim V.V.Vinogradov edi. U "Frazeologik birliklar ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tarkib topgan, ma'no jihatidan yaxlit, muloqot jarayonida keng qo'llaniladigan so'zlar birikmasi"dan iboratliligini takidlab, frazeologizmlarning mohiyati "ularning turg'unligi va bu turg'unlik frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari natijasi" deya qayd etadi va V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oya tilshunoslikda frazeologiyaning mustaqil soha sifatida shakllanishida poydevor vazifasini bajardi. V.V.Vinogradov fikricha frazeologizmlarning uchta turi mavjud:1)frazeologik qo'shilma; 2)frazeologik butunlik; 3)frazeologik chatishma.

Dunyo tilshunosligi nazariyasida frazeologik birliklarining qat'iy,yagona ta'rifi mavjud emas. Quyida ba'zi tilshunos olimlarning fikrlarini keltirib o'tamiz: A.G.Nazaryan: "Frazeologik birlik-bu qisman va to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalaridan iborat bo'lib, frazeologizmlar turg'unlik darajasini semantik belgisi, ularning morfologik va sintaktik tuzilishida namoyon bo'ladi." P.Giro: "Frazeologizm bir necha so'zdan iborat birikmaning yaxlit ma'no ifodalashi orqali yuzaga chiqadi" B.A.Larin "Frazeologik birliklarning asosiy belgisi uni tashkil qiluvchi so'z komponentlarning ma'nosidan, uning umumiy ma'nosi kelib chiqmaganligida". N.N.Amasova "Frazeologik birlik-matn". S.G.Garvin: "Frazeologik birlik- funksional -semantik uyg'unlik mezonlari". A.A.Reformatskiy: "Frazeologik birliklarning xususiyati ular tarkibidagi komponentlarni boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmasligida". Yuqorida keltirilgan ta'riflar davomiyligini anchagacha davom ettirish mumkin.

Jahon tilshunosligida frazeologiya sohasini tor va keng ma'noda tushunib talqin qilish an'anasi mavjud bo'lib quyidagi tilshunos olimlar shular jumlasidandir: N.N.Asamova, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, A.M.Fyodorov, A.M.Babkin kabi olimlar uchun frazeologiyani tor doirada tushunish harakterlidir. Ular maqol va matallarni frazeologik birliklar qatoriga qo'shmaydilar va ularni turg'un va ko'chma ma'nolarini e'tiborli deb hisoblaydilar. A.V.Kunin, A.G.Nazaryan, V.N.Teliya, A.I.Smirniskiy, A.A.Reformatskiy, E.M.Vereshagen,

V.G.Kostomarov o'zlarining ilmiy ishlarida frazeologik birliklarni keng ma'noda e'tirof etadilar. Ular frazeologik birliklar qatoriga proverbal frazeologizmlar(maqol va matallar),iboralar, nutqiy qoliplar, iqtibozlar va shuning bilan birgalikda hikmatli so'zlarni ham kiritishadi.

Frazeologik birliklar semantikasini ikkiga bo'lib o'rganish g'oyasini ilgari surgan olimlar esa rus tilshunoslari V.G. Kostomarov va E.M.Vereshaginlar edi. Bular: 1) sinxron jihatdan ikki planli frazeologik birliklar; 2) diaxron jihatdan ikki planli frazeologik birliklar . Bugungi kunda tilshunoslikning frazeologiya bo'limiga bo'lgan qiziqish va uni tadbiq qilish uchun olib borilayotgan ilmiy izlanishlar O'zbek tilshunosligida ham sezilarli darajada amalga oshirilmoqda. Frazeologizmlaning kelib chiqish tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratilishini quyida berilgan tilshunos olimlarning ishlaridan ham bilib olishimiz mumkin:1) Shavkat Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"[1], 2)Sh.Shomaqsudovning "Ma'nolar mahzani"[2] singari ilmiy ishlari edi. Yuqorida ma'lumotlar yanada boyitilib, Qurbonova Gulsara Sodiqovnaning "Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy hususiyatlari"[3] nomli ilmiy tadqiqotlarida batafsil berilgan.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning frazeologiya olami butun jahon tilshunoslari tomonidan chuqur tahlil va mulohazalar bilan qadimdan o'rganilib kelingan va hozirda ham o'rganilishi davom etayotgan cheksiz sirli olam hisoblanib, zabd etilgani sari jilovdorligi yanada ortib borayotgan ilm chashmasi desak asli mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"
2. Sh.Shomaqsudov "Ma'nolar mahzani"
3. Qurbonova G.S."Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy hususiyatlari".

BILINGVIZM VA IDENTIFIKATSIYA: SHAXS VA JAMIYAT O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Ruziyeva Madina Ilhom qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar
kafedrasi tayanch doktoranti
e-mail madinaruziyeva67@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bilingvizm (ikki tilni bir vaqtda o'rganish yoki foydalanish) va shaxs identifikatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, jamiyat bilan aloqasi muhokama qilinadi. Bilingvizmning shaxsning ichki va tashqi identifikatsiyasiga ta'siri, madaniyatlararo o'zaro aloqalar va tilning jamiyatdagi o'rni keltiriladi. Jamiyatning turli qatlamlaridagi tilni bilishning ahamiyati, til orqali shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya qanday shakllanishi ko'rib

chiqiladi. Shuningdek, bilingvizmni o‘rganish orqali, shaxsning o‘zini ifodalash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, identifikatsiya, shaxs va jamiyat, til va madaniyat, ijtimoiy identifikatsiya, madaniyatlararo aloqalar, ijtimoiy integratsiya, tilni bilish va shaxsiy rivojlanish.

Аннотация. В статье рассматриваются отношения между билингвизмом (овладение или использование двух языков одновременно) и идентификацией личности, а также их связь с обществом. Освещается влияние билингвизма на внутреннюю и внешнюю идентификацию личности, межкультурное взаимодействие и роль языка в обществе. Обсуждается важность знания языка на разных уровнях общества, а также как через язык формируется личная и социальная идентификация. Также анализируется процесс самовыражения личности и нахождения своего места в обществе через изучение билингвизма.

Ключевые слова: билингвизм, идентификация, личность и общество, язык и культура, социальная идентификация, межкультурное взаимодействие, социальная интеграция, знание языка и личностное развитие.

Annotation. The article discusses the relationship between bilingualism (the simultaneous learning or use of two languages) and personal identity, as well as its connection to society. It highlights the impact of bilingualism on both internal and external identity formation, intercultural interactions, and the role of language within society. The importance of language knowledge across different social strata is discussed, as well as how personal and social identity are shaped through language. Furthermore, the process of self-expression and finding one’s place in society through the study of bilingualism is analyzed.

Keywords: bilingualism, identity, person and society, language and culture, social identity, intercultural interaction, social integration, language proficiency and personal development.

“Bilingvizm va identifikatsiya: shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik” masalasi tilshunoslikda dolzarb mavzulardan biridir. Jahon tilshunosligida Joshua Fishman – Sotsiolingvistika sohasining asoschilaridan biri. U bilingvizm, til va identifikatsiya, til rejalashtirish va til siyosati masalalarini chuqur o‘rgangan. Einar Haugen – bilingvizm va kod almashtirish (code-switching) masalalarida taniqli olim. Shaxsiy va ijtimoiy identitet bilan til o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritgan. John Gumperz – etnografik yondashuv asosida til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan. U ijtimoiy identifikatsiya va muloqotdagi til tanlashni o‘rgangan. Bonny Norton – til o‘rganish, identitet va ijtimoiy kuch o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Pierre Bourdieu ijtimoiy maydon (social field) va habitus (odatiy xatti-harakatlar, me’yorlar) tushunchalari orqali bilingvizmning ijtimoiy rolini

o‘rgangan. Bilingvizm, Bourdieu fikriga ko‘ra, nafaqat tilni bilish, balki turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi kuch muvozanatlarini aniqlovchi vosita bo‘lishi mumkin. Agar jamiyatda bir til boshqalaridan ustun bo‘lsa, bu tilni bilish shaxsga ijtimoiy va iqtisodiy imtiyozlar yaratishi mumkin. Aksincha, tilni bilmagan shaxslar ijtimoiy ravishda marginalizatsiya qilinishi mumkin:

Ko‘plab ko‘p tilli jamiyatlarda rasmiy tilni bilish ko‘proq ijtimoiy va iqtisodiy imtiyozlarni anglatadi. Masalan, AQShda ingliz tilini bilish imtiyozli hisoblanadi, va shu tilni bilgan shaxslar ko'proq ish imkoniyatlariga ega bo‘lishadi, boshqa tillarda gapiruvchilar esa ko‘proq chegaralangan imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin .

William Labov, sotsiolingvistika sohasida ko‘p ishlagan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlari bilingvizmning ijtimoiy tuzilmalar va guruhlar o‘rtasidagi ta’siri haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirgan. Labov, tildagi variatsiyalarni va tilni ishlatish usullarini, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish bilan bog‘lab tushuntirgan. U, bilingvizmning ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqalarini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatgan . Masalan, jamiyatda ingliz tilini biluvchi yuqori ijtimoiy tabaqa o'z tili orqali mavqeini saqlab qolishga harakat qiladi, o'zining tilini boshqa guruhlarga qaraganda ustun qiladi. Aksincha, tilni bilmagan past ijtimoiy tabaqalar marginal holatga tushishi mumkin.

Lev Vygotskiy o‘zining ijtimoiy madaniy nazariyasida til va fikrlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Uning fikriga ko‘ra, til - bu nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning o‘z fikrlarini va dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradigan asosiy omildir. Bilingvizm, shaxsning o‘ziga xos fikrlash usulini va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishga imkon beradi. Bilingvistik shaxslar bir til yordamida an’anaviy, qadimgi madaniyatni saqlab qolishga intilishlari mumkin, boshqa tilda esa zamonaviy va globalizmga oid identifikatsiyani anglashlari mumkin. Shu tariqa, bilingvizm ularning dunyoqarashlarini va ijtimoiy rolini shakllantiradi. Quyida bunga amaliy misollarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ko‘p tilli jamiyatlardan biri bu Kanadadir.

Kanadada fransuz va ingliz tillari rasmiy tillar sifatida qabul qilingan. Bu davlatda bilingvizm faqat shaxsiy identifikatsiya emas, balki ijtimoiy va siyosiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Kanadada ko‘p tilli shaxslar o‘zlarining madaniy va ijtimoiy rollarini bilingvizm orqali ifodalashadi. Masalan, Montreal shahrida fransuz va ingliz tillarini biluvchi shaxslar, o‘zlarini faqat bir tilga ega bo‘lganlarga qaraganda ko‘proq madaniy va ijtimoiy imkoniyatlarga ega deb his qilishlari mumkin.

AQShda ispan tilini biluvchi latino-amerikaliklar o‘zlarini amerikalik sifatida tan olmasliklari mumkin, aksincha, ularni boshqa milliy guruhlardan ajratib turadigan til va madaniyatni ko‘rishadi. Bilingvizm ularning ikki xil madaniyatga tegishli ekanliklarini his qilishlariga olib keladi, bu esa ularning ijtimoiy va siyosiy identifikatsiyasini o‘zgartiradi. Masalan, ispan tilini bilgan latino-amerikaliklar AQShda ko‘proq o‘zlarining madaniy guruhlariga mos ravishda hayot kechirishadi.

Xitoy va Tibet o‘rtasidagi til va identifikatsiya. Xitoyning tibet hududida tibet tili va madaniyati uzun tarixga ega. Tibet tilini biluvchi odamlar o‘zlarini tibetlik deb his qilishadi, lekin Xitoyning rasmiy tilini biluvchi tibetliklar ko‘pincha o‘zlarini Xitoyning qismi sifatida tan olishadi. Bu bilingvistik tafovutlar, ularning ijtimoiy identifikatsiyasini va jamiyatdagi rolini ta’sir qiladi.

O‘zbek tilshunosligida G‘ulomov A. – O‘zbekistonda sotsiolingvistika asoschilaridan biri. Til va jamiyat, shuningdek ko‘p tillilikning ijtimoiy tomonlarini o‘rgangan.To‘xtaxo‘jayev B. – bilingvizm, diglossiya va ko‘p tillilikning sotsial jihatlari haqida tadqiqotlar olib borgan. Mamajanova G. – o‘zbek va rus tillari bilingvizmi bo‘yicha tadqiqotlar qilgan. Shaxsiy identitet va tilning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatgan. Solijonova M. – o‘zbek jamiyatida til siyosati va bilingvizmning ta’siri haqida yozgan .

Bilingvizm va identifikatsiya mavzusi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bilingvizm (ikki yoki undan ortiq tilni bilish) va identifikatsiya (shaxsning o‘zini va o'zini jamiyatda qanday ko‘rishi) o‘rtasidagi aloqalar turli xil sotsiologik, psixologik va madaniy omillar bilan bog‘liq. “Identifikatsiya” so‘zi lotincha identitas – “o‘xshashlik”, “bir xil” va facere – “qilmoq” so‘zlaridan olingan bo‘lib, psixologiya, sotsiologiya va tilshunoslik fanlarida keng qo‘llanadi. U shaxsning o‘zini biror guruh, jamiyat yoki ijtimoiy rol bilan bog‘lashi, o‘zini shu guruh a’zosi deb his qilishi jarayonini bildiradi.

Sigmund Freud – psixoanaliz asoschisi sifatida identifikatsiya tushunchasini birinchi bo‘lib psixologiyada joriy qilgan. U bu atamani inson shaxsi shakllanishida, ayniqsa bolaning otasi yoki onasi bilan o‘zini tenglashtirishida qo‘llagan, kriminalistikada obyekt yoki shaxsning umumiy va xususiy belgilari majmuiga qarab aynanligini aniqlash.

Erik Erikson – identifikatsiyani shaxsiy identitet (identity) shakllanishining asosiy elementi deb ko‘rgan. U “Identitet in Crisis” (1950-yillar) asarlarida bu tushunchani rivojlantirgan va sotsiologik-ma’noga ega ekanligini isbotlagan.

Tilshunoslikda bu tushuncha bilingv shaxs yoki ko‘p tilli jamiyat kontekstida qo‘llanadi. Masalan, shaxs qaysi tilni tanlashi uning etnik yoki madaniy identiteti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bilingv shaxs bir til orqali o‘zini “o‘zimizniki” deb his qilsa, boshqa til orqali “begona” yoki “muqobil guruh” bilan o‘zini bog‘laydi.

Joshua Fishman, John Gumperz, Bonny Norton kabi sotsiolingvistlar bu jarayonni “til orqali identifikatsiya” deb atashadi.

O‘zbek tilshunosligida “identifikatsiya” tushunchasi asosan sotsiolingvistika, psixolingvistika va madaniy lingvistika doirasida til va shaxs, til va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilishda qo‘llanadi. Bu tushuncha orqali shaxsning til vositasida o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb his qilishi, ya’ni o‘zini identifikatsiya qilishi tushuniladi. Bu sohani o‘rgangan o‘zbek olimlaridan biri B. To‘xtaxo‘jayev o‘zbek jamiyatida ko‘p tillilik va diglossiya hodisalarini o‘rganar ekan, shaxsning rus va o‘zbek tillariga bo‘lgan munosabati

orqali identifikatsiyalashuv jarayonlarini tahlil qiladi. Uning fikricha, tilni tanlash faqat aloqa vositasi emas, balki identitet ifodasidir.

G. Mamajanova esa rus-o‘zbek bilingvizmi misolida identifikatsiyaning ikki darajasini ko‘rsatadi: etnik identifikatsiya (o‘zini milliy guruhga bog‘lash) va sotsial identifikatsiya (sotsial mavqe yoki ijtimoiy guruh bilan bog‘liq). U bilingv shaxsning til tanlovi ko‘pincha uning o‘zini kim deb his qilishi bilan bog‘liq ekanligini asoslaydi . M. Solijonova o‘zbek jamiyatida til siyosati va sotsial guruhlar orasidagi aloqalarni o‘rganib, ijtimoiy identifikatsiyaning til orqali qanday shakllanishiga e’tibor qaratadi. U tilni “ijtimoiy belgili kod” deb ataydi, ya’ni til orqali shaxs o‘zini va boshqalarni ajratib turadi. A. G‘ulomov til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni umumiy sotsiolingvistik asosda o‘rgangan bo‘lsa-da, tilning jamiyatdagi statusi orqali identitet shakllanishiga ta’sirini ham qayd etgan.

Demak, “identifikatsiya” tushunchasi o‘zbek tilshunosligida ham jahon tilshunosligi singari shaxsning til orqali o‘zini tanishtirishi, o‘ziga mos guruhni aniqlashi va ijtimoiy maqomini belgilashi jarayoni sifatida tushuniladi. Bu, ayniqsa, ko‘p tillilik sharoitida yashovchi jamiyatlarda dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bilingv shaxslar til tanlash orqali o‘zlarining kimligini – madaniy, etnik va sotsial jihatdan – ifoda etadi. Bilingvizm va identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Bilingvizm shaxsning shaxsiy va madaniy identifikatsiyasiga ta’sir qiladi. Aksariyat hollarda, biror shaxsning bilingvistik tajribasi uning o'zini jamiyatda qanday tanitishiga, o‘zligini qanday his qilishiga, va qaysi guruhga tegishli ekanligini his qilishiga yordam beradi.

Madaniy identifikatsiya va bilingvizm. Bilingvizmni madaniy identifikatsiya bilan bog‘lash mumkin, chunki tilning o‘rganilishi faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki shaxsning madaniy, tarixiy va ijtimoiy qiyofasining bir qismidir. Masalan, ikki tilda gaplashuvchi shaxs o‘zini ikkita madaniyatga mansub deb his qilish mumkin, chunki har bir til o‘zining madaniy kontekstini va tarixiy merosini olib keladi.

Shaxsiy identifikatsiya va bilingvizm. Shaxs bilingvistik qarorlar orqali o‘z identifikatsiyasini shakllantiradi. Agar shaxs biror tilni o‘zining asosiy tili sifatida qabul qilsa, u tilning tasavvurida o‘zining shaxsiy xususiyatlarini ko‘rishi mumkin. Masalan, ayrim shaxslar uchun ona tili ularning haqiqiy “menini” ifodalaydi, boshqalar uchun esa ikkinchi tilni bilish, ko‘p tilli muhitda yashash ularga yanada kengroq identifikatsiyani taqdim etishi mumkin.

Jamiyat va bilingvizm. Bugungi globallashuv (globalizatsiya) davrida jamiyat va bilingvizm (ikki tilda so‘zlasha olish) o‘rtasidagi bog‘liqlik juda kuchli va o‘zaro ta’sirchan. Quyida bu bog‘liqlik asosiy jihatlari bilan izohlanadi:

1. Globalizatsiya — tillararo chegaralarni yo‘q qilmoqda. Global iqtisodiyot, migratsiya, internet, xalqaro ta’lim kabi omillar odamlarni turli tillar bilan doimiy aloqaga keltiradi.

Natijada, ko‘plab insonlar boshqa tillarni o‘rganishga majbur bo‘ladi — bu esa bilingvizmni kuchaytiradi.

2. Jamiyatda kommunikatsion ehtiyoj oshmoqda. Ish joylarida, ta’limda, ommaviy axborot vositalarida bir nechta tilda so‘zlasha olish zarurati tug‘iladi.

Ayniqsa, turizm, diplomatiya, biznes sohalarida bilingvallik ko‘nikmalari talab qilinadi.

3. Bilingvizm ijtimoiy harakatchanlikni oshiradi. Ikki yoki undan ortiq tilni biladiganlar ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi: yaxshi o‘qish, yuqori lavozim, chet elda ishlash.

Bu esa ularning jamiyatdagi mavqeini ko‘taradi.

4. Madaniy ko‘prik sifatida bilingvizm. Bilingv shaxslar ikki madaniyatni birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular jamiyat ichidagi ijtimoiy integratsiyani tezlashtiradi.

5. Identitet va ijtimoiy tenglik masalalari. Globallashuv sharoitida mahalliy tillar bilingvizm fonida yo‘qolib ketish xavfi ostida qoladi.

Shu sababli, jamiyatda til siyosati muhim bo‘lib boradi: rasmiy til va ona tilini birgalikda rivojlantirish zarur.

Globalizatsiya va bilingvizm o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisini rag‘batlantiradi. Zamonaviy jamiyatda bilingvallik — bu nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki ijtimoiy integratsiya, madaniy boylik va iqtisodiy ustunlik manbai hamdir.

Hozirgi kunda dunyo aholisining kamida 50 foizi ikki yoki undan ortiq tilda gaplasha oladi. Ba’zi manbalarda bu ko‘rsatkich 43% deb berilgan bo‘lsa, boshqalarida 60–75% gacha yetishi mumkinligi aytiladi . Asosiy statistikalar shuni ko‘rsatadiki:

Bilingval aholi: Dunyo bo‘yicha odamlarning kamida 43% ikki tilda gaplasha oladi.

Multilingval aholi: Taxminan 17% odam uch yoki undan ortiq tilda so‘zlasha oladi.

Monolingval aholi: Faqat bitta tilni biladiganlar soni 40% atrofida.

Yevropa: Latviya, Niderlandiya, Shvetsiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda aholining 90% dan ortig‘i ikki yoki undan ortiq tilda gaplasha oladi.

AQSh: Aholining taxminan 20% ikki yoki undan ortiq tilda gaplasha oladi.

Hindiston: 2011-yilgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlariga ko‘ra, aholining 26% ikki tilda, 7% esa uch tilda gaplasha oladi .

Dunyo bo‘yicha bilingvallik keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab hududlarda bu holat odatiy hisoblanadi. Bilingval va multilingval bo‘lish ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy afzalliklarni taqdim etadi.

Dunyoning qator davlatlarida ikki va undan ortiq tillar rasmiy til sifatida qabul qilingan. Bilingvizm va identifikatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, tilning ijtimoiy va psixologik ahamiyatini yoritadi. Til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki shaxsning o‘zini va jamiyatdagi o‘rnini aniqlashdagi kuchli bir faktordir. Bilingvizm, shaxsning jamiyat bilan o‘zaro aloqasini, o‘zini his qilishini va madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fishman, J. A. (1972). Language and Nationalism: Two Integrative Essays. Rowley, MA: Newbury House.
2. Haugen, E. (1953). The Norwegian Language in America: A Study in Bilingual Behavior. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
3. Gumperz, J. J. (1982). Discourse Strategies. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Norton, B. (2000). Identity and Language Learning: Gender, Ethnicity and Educational Change. Harlow: Pearson Education.
5. G‘ulomov, A. (1984). Til va jamiyat. Toshkent.
6. Solijonova, M. (2012). Til siyosati va ijtimoiy guruhlar: O‘zbekiston misolida. // “Filologiya masalalari” ilmiy to‘plami. – №2. – B. 45–52.
7. https://uz.wikipedia.org
8. https://ziyonet.uz

INGLIZ LEKSIKOGRAFIYASIGA HISOBLASH LINGVISTIKASI YONDASHUVI

Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi pedagogik-tarbiyachi,
Xolmirzayeva Madina

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz tili lingvistikasida hisoblash lingvistikasi yondashuvlarining o‘rnini ko‘rsatadi. Unda matnni qayta ishlash, leksik ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, semantik bog‘liqliklarni aniqlash, tillararo qiyosiy tadqiqotlar hamda korpus lingvistikasi kabi yo‘nalishlar orqali ingliz tilini chuqur tushunish va undan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot hisoblash yondashuvlarining tabiiy tilni qayta ishlash, mashinali tarjima, kayfiyatni aniqlash va axborot izlash kabi amaliy sohalardagi ahamiyatini ham ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *hisoblash lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash, matn tahlili, tilni yaratish, tilni tushunish, avtomatik tarjima, sintaktik tahlil, semantik tahlil, leksik tahlil, til modellari, nutqni aniqlash, matnni avtomatik toifalash, kayfiyatni aniqlash, axborot izlash, korpus lingvistikasi, so‘z birliklarini tahlil qilish, til statistikasi.*

Annotation. This study highlights the role of computational linguistic approaches in English linguistics. It explores how English can be deeply understood and effectively utilized through areas such as text processing, in-depth lexical analysis, identification of semantic relationships, cross-linguistic comparative research, and corpus linguistics. The research also emphasizes the significance of computational methods in practical fields such as natural language processing, machine translation, sentiment analysis, and information retrieval.

Keywords: *computational linguistics, natural language processing, text analysis, language generation, language understanding, automatic translation, syntactic analysis, semantic analysis, lexical analysis, language models, speech*

recognition, automatic text classification, sentiment analysis, information retrieval, corpus linguistics, word unit analysis, language statistics.

Kirish. Ingliz leksikografiyasi har doim lingvistika va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida muhim tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib kelgan. Kompyuter fanlari va katta hajmdagi ma’lumotlar texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan ingliz leksikografiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda hisoblash lingvistikasi uslublarining qo‘llanilishi kengaydi. Bu esa ingliz tilidagi so‘z boyligi va semantik munosabatlarni chuqurroq tushunish va tahlil qilish uchun yangi vositalar va yondashuvlarni taqdim etdi [1].

Ushbu tadqiqot ingliz leksikografiyasiga hisoblash lingvistikasi yondashuvlarini o‘rganishni hamda bu yondashuvlarning lingvistika va amaliy sohalardagi ahamiyati va potentsial ta’sirini aniqlashni maqsad qiladi.

Jahon tili sifatida ingliz tili boy va xilma-xil leksik tizimga ega bo‘lib, u sinonimlar, ko‘p ma’noli so‘zlar va yashirin semantik munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Inglizcha so‘z boyligini o‘rganish nafaqat lingvistik nazariyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, balki tabiiy tilni qayta ishlash, axborotni izlash, mashinali tarjima va kayfiyatni tahlil qilish kabi ko‘plab amaliy sohalarda ham katta ahamiyatga ega [2].

Biroq, an’anaviy leksikografik tadqiqot uslublari ko‘pincha ma’lumotlar hajmi va murakkabligi bilan cheklangan bo‘lib, inglizcha lug‘at xususiyatlarini to‘liq tushunish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatini cheklab qo‘yadi [3].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ingliz leksikografiyasi tadqiqotlarida hisoblash lingvistikasi uslublarining qo‘llanishini o‘rganish va bu uslublar leksikografik muammolarga qanday yangi vositalar va qarashlar taqdim eta olishini aniqlashdir.

Hisoblash lingvistikasi uslublarining ingliz leksikografiyasiga tatbiqi lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirish, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalarining samaradorligini oshirish va amaliy muammolarni hal qilishda foydalidir [4]. Bu yondashuvlar izlash tizimlari, kayfiyatni aniqlash vositalari, mashinali tarjima tizimlari, aqlli yordamchilar kabi texnologiyalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi va lingvistik tadqiqotlar uchun ko‘proq ma’lumotlar va tahlil usullarini taqdim etadi.

Mazkur tadqiqot orqali biz ingliz tilshunosligi, xususan, leksikografiya sohasini hisoblash lingvistikasi uslublari orqali yanada boyitish va kengaytirish imkoniyatlarini chuqurroq tushunishga umid qilamiz. Shu bilan birga, bu sohada tadqiqotchilar, amaliyotchilar va siyosat yurituvchilar uchun muhim nazariy va amaliy xulosalarni taqdim etish maqsad qilinadi.

Shuningdek, sohaning istiqbollari va kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari ko‘rib chiqilib, bu borada ilmiy qiziqish va izlanishlarni kuchaytirishga hissa qo‘shiladi.

Matnni ifodalash va leksik xususiyatlarni ajratib olish

Ingliz tilidagi leksikografiyaga oid hisoblash lingvistikasi yondashuvlarini o‘rganishda matnni ifodalash va leksik xususiyatlarni ajratib olish asosiy

qadamlardan hisoblanadi. Bu jarayon matnli ma’lumotlarni kompyuter qayta ishlay oladigan shaklga keltirishga xizmat qiladi.

“So‘zlar to‘plami” (bag-of-words) modeli — matnni ifodalashning klassik usullaridan bo‘lib, u matnni grammatik tuzilmasi va so‘zlar tartibini e’tiborga olmagan holda, oddiy so‘zlar majmuasi sifatida ko‘radi [5]. Muhim jihatlar quyidagilardan iborat:

Bag-of-words modelining asosiy tushunchalari va prinsiplari;

Matnni ushbu modelga asoslangan tarzda qanday aylantirish va so‘zlarni mustaqil birliklarga ajratish;

So‘z chastotasi (TF) va hujjat chastotasi (DF)ni hisoblash orqali so‘zlarning ahamiyatini aniqlash;

Bag-of-words modelining soddaligi va samaradorligi kabi afzalliklari, shuningdek, so‘zlar orasidagi munosabatlarni aniqlay olmaslik kabi cheklovlari [6];

Bu modelning matnlarni tasniflash va klasterlashdagi qo‘llanilishi hamda tegishli algoritmlar.

TF-IDF (Term Frequency-Inverse Document Frequency) — so‘z chastotasi va hujjatlar bo‘yicha teskari chastotaga asoslangan ifodalash usulidir. U matnlar to‘plamida ma’lum bir so‘zning ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Muhim jihatlar:

TF-IDF og‘irliklarini hisoblash usuli: so‘z chastotasini va teskari hujjat chastotasini qanday aniqlash;

Teskari hujjat chastotasining roli va matn to‘plamidagi so‘z ahamiyatini aniqlashdagi vazifasi [7];

Matnni TF-IDF og‘irliklari asosida ifodalash orqali har bir matnga xos leksik xususiyatlarni ajratib olish;

TF-IDF ning axborot izlashda dolzarblikni oshirishdagi qo‘llanilishi;

Turli sohalarda TF-IDF ni moslashtirish va takomillashtirish usullari.

Taqsimlangan so‘z vektorlari — so‘zlarni uzluksiz vektor fazosiga proyeksiyalash orqali ularni ifodalash usulidir. Bu yondashuv o‘xshash so‘zlarning bir-biriga yaqin joylashishini ta’minlaydi. Muhim jihatlar:

Taqsimlangan so‘z vektorlarining asosiy prinsiplari;

Word2Vec modellari (CBOW — Continuous Bag of Words va Skip-gram) bilan tanishtirish [8];

So‘z vektor modellarini o‘qitish: kontekst oynalari va salbiy namunalar (negative sampling) usullari;

So‘z vektorlarining fazoviy ifodasi va so‘zlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash usullari [9];

So‘z vektorlarining tabiiy tilni qayta ishlashdagi qo‘llanilishi: leksik tasniflash, kayfiyat tahlili, grammatik tahlil;

Boshqa modellarga (FastText, GloVe) doir qisqacha taqdimot va ularning taqqoslanishi [10].

Chuqqur o‘rganish (deep learning) metodlari — matn xususiyatlarini aniqlashda samaradorligi bilan ajralib turadi. Muhim jihatlar:

Konvolyutsion neyron tarmoqlarning (CNN) matn xususiyatlarini ajratishdagi qo‘llanilishi, matn konvolyutsiya qatlamlari va yadrolarining dizayni [11];

RNN va LSTM tarmoqlarining ketma-ket ma’lumotlar va matn bilan ishlashdagi ifodalari;

Word2Vec va Doc2Vec usullari yordamida so‘z va gap embeddinglarini hosil qilish [12];

Chuqqur o‘rganishga asoslangan matn tasnifi va kayfiyat tahlili usullari;

Matn yaratish va xulosa chiqarishdagi GAN (Generative Adversarial Networks) modelining qo‘llanilishi.

Leksik ma’nolarni farqlash (Lexical Disambiguation) – bu ko‘pma’noli so‘zlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish vazifasi bo‘lib, maqsad – berilgan kontekstdagi so‘zning aniq ma’nosini aniqlashdan iborat. Asosiy jihatlar quyidagilardan iborat: so‘z ma’nosini aniqlash muammosining mohiyati va qiyinchiliklari, ko‘pma’nolilik (polisemiyali so‘zlar) muammosi va kontekstning ahamiyati [15]. Kontekstga asoslangan ma’no aniqlash usullari, shu jumladan nazoratli (supervised) va nazoratsiz (unsupervised) o‘rganish metodlari. So‘z ma’nosini aniqlashning mashina tarjimasi va axborotni izlash (information retrieval) kabi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) vazifalaridagi qo‘llanilishi. So‘z ma’nosini aniqlovchi tizimlar samaradorligini baholash mezonlari va ma’lumotlar to‘plamlari.

Leksik hissiy tahlil (Lexical Sentiment Analysis) – bu matndagi hissiy holatlarni (musbat, salbiy va betaraf) aniqlashga qaratilgan muhim vazifa hisoblanadi. Asosiy jihatlar: hissiy tahlil asoslari, shu jumladan hissiy lug‘at va hissiyotning qutbiyligi (polarity) [16]. Hissiy tahlil vazifalari: hissiy tasniflash va hissiyot intensivligini tahlil qilish. Matndagi hissiy holatni avtomatik aniqlash uchun hisoblash lingvistikasi metodlaridan foydalanish. Hissiy tahlilning ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish, mahsulot sharhlarini tahlil qilish va jamoatchilik fikrini aniqlashdagi qo‘llanilishi.

XULOSA

Ingliz tilshunosligida hisoblash lingvistikasi metodlarini o‘rganish tilning tuzilishi, semantikasi va qo‘llanilishini chuqurroq anglash uchun boy bilim va vositalarni taqdim etadi. Keng ko‘lamli ma’lumot tahlili, mashinaviy va chuqur o‘rganish hamda tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari orqali tilshunoslikda misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Hisoblash lingvistika metodlari til hodisalarini tahlil qilish va amaliy muammolarni hal qilishda ajralmas vositaga aylandi. Matnni tahlil qilish texnologiyalari mashina tarjimasi, hissiy tahlil va matn tasnifi kabi vazifalarda keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va avtomatlashtirilgan matn ishlov berishga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Tilni tushunish va yaratish tizimlari takomillashib, kompyuterlar va insonlar o‘rtasidagi muloqotni samarali qiladi. Bu intellektual yordamchilar, avtomatlashtirilgan savol-javob tizimlari va mashina tarjimasi uchun muhim ahamiyatga ega. Lug‘atchilik va semantika sohalaridagi tadqiqotlar tarqatilgan so‘z

vektorlari, semantik rollarni belgilash va hissiy tahlil kabi texnikalardan foyda ko‘rmoqda. Bu esa so‘zning ma’nosi va kontekstini chuqur tushunishga xizmat qiladi. Katta ma’lumotlar va tillarar taqqoslash tadqiqotlari orqali global o‘xshashlik va farqlar ochib berilmoqda. Korpus lingvistikasi va katta ma’lumotlar tahlili lingvistik tadqiqotlar uchun boy resurslar va vositalarni taqdim etmoqda. Kelajakdagi tadqiqot yo‘nalishlari yanada ilg‘or NLP texnologiyalari, kengroq korpuslar, tillarar va ko‘p tillilikdagi tadqiqotlar hamda til nazariyalarini katta ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirish tomon yo‘naladi. Hisoblash lingvistikasi til texnologiyalari, ijtimoiy media, NLP, mashinaviy o‘rganish va til ta’limi sohalarida muhim rol o‘ynashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Skoufaki, S., & Petrić, B. (2021). Exploring polysemy in the Academic Vocabulary List: A lexicographic approach. Journal of English for Academic Purposes, 54, 101038.
2. Frankenberg-Garcia, A., Rees, G. P., & Lew, R. (2021). Slipping through the Cracks in e-Lexicography. International Journal of Lexicography, 34(2), 206-234.
3. Dollinger, S. (2020). English Lexicography: A global perspective. The Handbook of English Linguistics, 525-546.
4. Zhumasheva, K. B., Sapargaliyeva, M. E., Sarkulova, D. S., Kuzhentayeva, R. M., & Utarova, A. G. (2022). Representation of gender metaphor in lexicography as a reflection of culture. International Journal of Society, Culture & Language, 10(3), 151-162.
5. Hargraves, O. (2021). Lexicography in the Post-Dictionary World. Dictionaries: Journal of the Dictionary Society of North America, 42(2), 119-129.
6. Maziarz, M., Grabowski, Ł., Piotrowski, T., Rudnicka, E., & Piasecki, M. (2023). Lexicalisation of Polish and English word combinations: an empirical study. Poznan Studies in Contemporary Linguistics, 59(2), 381-406.
7. Costa, R., Salgado, A. D. C., & Almeida, B. (2021). SKOS as a key element for linking lexicography to digital humanities. Information and Knowledge Organisation in Digital Humanities, 178-204.
8. D'Souza, J., Hoppe, A., Brack, A., Jaradeh, M. Y., Auer, S., & Ewerth, R. (2020). The STEM-ECR dataset: grounding scientific entity references in STEM scholarly content to authoritative encyclopedic and lexicographic sources.
9. Khumalo, L., & Nkomo, D. (2022). The intellectualization of African languages through terminology and lexicography: methodological reflections with special reference to lexicographic products of the University of KwaZulu-Natal. Lexikos, 32(2), 133-157.
10. Bellandi, A. (2023). Building linked lexicography applications with LexO-server. Digital Scholarship in the Humanities, fqac095.

AN ANALYTICAL OVERVIEW OF BEHAVIORAL VERBS IN UZBEK DICTIONARIES

Ochilova Sanobar Narzullaevna
Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature of the University of Economics and Pedagogy
Under the review of Sh. Z. Rahmatullaeva, Associate Professor at the UEP

Annotation. This study provides a statistical and semantic investigation of behavioral verbs in the Uzbek language, utilizing data from explanatory dictionaries. It explores patterns of frequency, semantic categorization, and stylistic functions associated with these verbs. The research underscores their essential role as key lexical units used to convey various aspects of human behavior.

Keywords: Uzbek language, behavioral verbs, explanatory dictionaries, semantics, statistical analysis, lexical categorization.

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilidagi xatti-harakat fe’llari izohli lug‘atlar materiali asosida statistik va semantik mezonlar bo‘yicha tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu fe’llarning qo‘llanish chastotasi, ma’no guruhlari, uslubiy xususiyatlari va tipik birikmalari aniqlanadi. Shuningdek, statistik ko‘rsatkichlar asosida ularning leksik tizimdagi funksional o‘rni hamda semantik tavsifi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, xatti-harakat fe’llari, izohli lug‘atlar, statistik tahlil, semantik guruhlash, fe’l leksikasi.

Аннотация. Настоящая статья посвящена статистическому и семантическому анализу поведенческих глаголов узбекского языка на основе материалов толковых словарей. Рассматриваются их частотные показатели, семантическая классификация, характерные лексические сочетания и стилистические особенности. В центре внимания — функциональная значимость этих глаголов как ключевых единиц лексической системы языка.

Ключевые слова: узбекский язык, поведенческие глаголы, толковые словари, статистический анализ, семантическая классификация, лексическая система.

Introduction. The Uzbek language serves as a reflection of the nation's cultural heritage and worldview, with behavioral verbs functioning as vital linguistic tools for articulating social conventions and interpersonal dynamics [6]. Although these verbs hold significant value in the language system, they have not been extensively subjected to statistical investigation within the framework of explanatory lexicography [7]. This paper investigates the distribution, semantic categorization, and stylistic application of behavioral verbs in Uzbek, with the goal of deepening insight into their linguistic role and contributing to ongoing research in the field.

1. Analysis and Classification of Behavioral Verbs. In the Uzbek language, behavioral verbs form a unique lexical subset that encapsulates human emotions,

dispositions, and physical actions. These verbs are fundamental in articulating social relationships and individual psychological conditions, making them crucial for both linguistic inquiry and cultural interpretation. From a semantic standpoint, behavioral verbs may be broadly categorized into three major groups:

1.1. Emotional state verbs (e.g., *to love*, *to like*, *to envy*) capture internal emotional processes. They frequently convey affective experiences and subjective emotions within both personal and social frameworks [8].

1.2. Verbs denoting personal traits and attitudes (e.g., *to fear*, *to trust*, *to admit*) reflect inherent personality characteristics, evaluative judgments, and relational stances. These verbs shed light on how individuals assess others and engage with their surroundings [8].

1.3. Action-oriented behavioral verbs (e.g., *to quarrel*, *to struggle*, *to run*) describe outwardly visible behaviors often linked to social interaction or reactions to external circumstances [8].

These semantic categories are substantiated by data from explanatory dictionaries of Uzbek, which frequently provide multiple interpretations for each verb—demonstrating their polysemous nature and semantic richness. This variability underscores the dynamic role of behavioral verbs in diverse communicative and stylistic settings.

2. Statistical Description and Usage of Verbs. A statistical examination of Uzbek behavioral verbs, based on explanatory dictionary data, indicates that these verbs are both polysemous and widely utilized in everyday communication. Verbs such as *sevmoq* (to love), *yoqtirmoq* (to like), *qo‘rqmoq* (to fear), and *ishonmoq* (to trust) exhibit multiple layers of meaning, extending from their core definitions to figurative, comparative, and metaphorical interpretations. This semantic richness enhances their expressive capacity and communicative scope. For example, *sevmoq* can express emotional attachment, personal enjoyment, or metaphorical enthusiasm for an activity or idea. In a similar way, *yoqtirmoq* captures both literal preferences and symbolic appreciation. *Qo‘rqmoq* spans meanings from concrete fear to broader emotional vulnerability, while *ishonmoq* ranges from interpersonal confidence to abstract belief in concepts such as fate or higher powers. The verb *kurashmoq* (to struggle) is particularly illustrative of behavioral verb polysemy, as it operates across multiple domains: physical (e.g., athletic competition), psychological (e.g., battling illness or internal conflict), and social (e.g., advocating for rights or aspirations). This semantic adaptability underlies its frequent usage and communicative value.

In summary, the behavioral verbs of Uzbek reflect a dynamic correlation between lexical frequency and semantic expansion, affirming their vital role in conveying nuanced meaning within verbal interaction.

3. Semantics and Psychological Analysis of Behavioral Verbs. In Uzbek, behavioral verbs serve not only as linguistic units but also as indicators of underlying psychological processes. For instance, *sevmoq* (to love) typically signifies affection but also functions metaphorically to convey profound emotional states [1:8:3]. The verb *qo‘rqmoq* (to fear) encapsulates both explicit fear and more

subtle psychological reactions, as demonstrated in expressions like *qo‘rqib ketmoq* (to become frightened) and *qattiq qo‘rqmoq* (to be deeply afraid) [5:8:3]. Likewise, *ishonmoq* (to trust) encompasses belief, confidence, and acceptance across a wide range of communicative situations [9:8:3]. From a cognitive linguistic standpoint, these verbs offer insight into the conceptualization of emotions and social relationships by native speakers. Verbs such as *ishonmoq* (to trust) and *ishontirmoq* (to convince) reflect culturally grounded understandings of trust, persuasion, and interpersonal interaction [8:2:7:4:10].

Explanatory dictionaries present these behavioral verbs through detailed definitions, contextual usage examples, and semantic relations such as synonymy and antonymy. For example, *yoqtirmoq* (to like) is often treated as a near-synonym of *sevmoq* (to love), while *ishonmoq* (to trust) may serve as a semantic counterpart to *ishontirmoq* (to persuade), either in contrast or complementarity. This lexicographic framing highlights the semantic complexity and cognitive relevance of behavioral verbs in Uzbek [8:6].

Conclusion. Behavioral verbs in the Uzbek language function as linguistic expressions of the nation’s cultural principles, worldview, and everyday experiences. Explanatory dictionaries document their polysemous nature and broad applicability, highlighting both their semantic complexity and functional adaptability. The statistical and linguistic evidence presented in this study confirms that behavioral verbs constitute a highly frequent and semantically rich segment of the Uzbek lexicon. Beyond their linguistic utility, these verbs carry significant cognitive and psychological weight, reflecting emotional, spiritual, and social facets of Uzbek identity. Verbs such as *sevmoq* (to love), *qo‘rqmoq* (to fear), and *ishonmoq* (to trust) exemplify how emotions and interpersonal dynamics are mentally conceptualized by native speakers. Accordingly, the analysis of behavioral verbs not only enhances our understanding of the structural features of the Uzbek language, but also sheds light on the cognitive and cultural frameworks that underpin its use—thereby opening pathways for broader interdisciplinary research.

References

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
2. Langacker, R. W. (1987). *Foundations of cognitive grammar: Theoretical prerequisites* (Vol. 1). Stanford University Press.
3. Jackendoff, R. (1990). *Semantic structures*. MIT Press.
4. Talmy, L. (2000). *Toward a cognitive semantics* (Vols. 1–2). MIT Press.
5. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, culture, and cognition: Universal human concepts in culture-specific configurations*. Oxford University Press.
6. Jo‘rayev, D. (2021). *O‘zbek tilida metafora va metonimiya: Kognitiv yondashuv*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Muminova, Z. (2010). *O‘zbek tilining semantik tizimi va ko‘p ma’nolilik*. Toshkent: TDPU nashriyoti.

8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006). 1–5 jildlar. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
9. Kamusella, T. (2017). *Language and identity in Central Asia: The Uzbek case*. Central Asian Survey, 36(2), 221–239.
10. Boers, F., & Lindstromberg, S. (2008). *Cognitive linguistic approaches to teaching vocabulary and phraseology*. Mouton de Gruyter.
11. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive linguistics: An introduction*. Lawrence Erlbaum Associates.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI NUTQIY FAOLIYAT FE’LLARINING PARADIGMATIK TAHLILI

Ziyoyeva Dilnoza Anvarovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti
O‘zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Elektron manzil: ziyoyeva.dilnoza@bsmi.uz
ORCID ID 0009-0004-4141-4805

ANNOTATSIYA. Maqolada nutqiy faoliyat fe’llarining o‘zbek tilidagi o‘ziga xos verbal vositalarini konseptual metodologiya asosida tadqiq qilish ushbu konseptosfera semantikasi voqelanishi jaryonidagi lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarining namoyon bo‘lishi xamda so‘z birliklari asosida bir so‘zni ikkinchisidan farklab turadigan belgilar yotgan muayyan aloka va boglikliklar mavjudligi , shu bilan birga ayni shu so‘zlar bilan ularga semantik, stilistik va boshka jixatlaridan qarama-qarshi ko‘yilgan jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: faoliyat fe’llari, co‘z birliklari, paradigmatika leksika, struktura, stilistik vositalar.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется изучение специфических вербальных средств глаголов речевой деятельности в узбекском языке на основе концептуальной методологии, проявление лингво культурных и прагматических особенностей в семантике феноменов данной концептуосферы, наличие определенных выделений и связей, лежащих в основе единиц речи, на основе признаков, которые отличайте одно слово от другого.

Ключевые слова: *глаголы деятельности, словарные единицы, парадигматическая лексика, структура, стилистические средства.*

ANNOTATION. The article analyzes the study of specific verbal means of verbs of speech activity in the Uzbek language on the basis of conceptual methodology, the manifestation of linguo-cultural and pragmatic features in the semantics of the phenomena of this conceptuosphere, the presence of certain secretions and connections underlying speech units, based on signs that distinguish one word from another.

Key words: verbs of activity, vocabulary units, paradigmatic vocabulary, structure, stylistic means

Nutqiy faoliyat fe'llarining o‘zbek tilidagi o‘ziga xos verbal vositalarini konseptual metodologiya asosida tadqiq qilish ushbu konseptosfera semantikasi voqelanishi jaryonidagi lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlarining namoyon bo‘lishini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik tamoyilning yetakchi paradigmaga aylanishi natijasida struktur-semantik va kognitiv yondashuvlar asosida voqelikning konseptual xususiyatlarini tadqiq qilish, olamning lisoniy manzarasida milliy-etnik xususiyatlarning ifoda imkoniyatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Muloqot jarayonining paradigmatik, sintagmatik va variant munosabatlari tahlili orqali kontrastiv tadqiqotlarni rivojlantirish, til va madaniyat muammolariga qiziqishning faollashuvi kognitiv, etnolingvistik tadqiqot imkoniyatlarni kengaytirish, milliy-madaniy konseptlarni o‘rganish muammosiga olib keldi.

So‘z birliklari asosida bir so‘zni ikkinchisidan farklab turadigan belgilar yotgan muayyan aloka va boglikliklar mavjud. Boshkacha kilib aytganda, har bir muayyan so‘z o‘zga so‘zlardan semantik, stilistik va boshka belgilarga ko‘ra farklanar ekan, shu bilan birga ayni shu so‘zlar bilan ularga semantik, stilistik va boshka jixatlaridan qarama-qarshi ko‘yilgan jihati bilan bog‘lanadi ham. Shunday kilib, so‘z til boyligi o‘zaro munosabatlari ularga xos bo‘lgan karshi ko‘yishlarni tadkik etish orqali o‘rganiladigan o‘zaro bog‘lik va o‘zaro tob'e birliklarning murakkab tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Assotsiativ jihatdan bog‘lik, taqqoslash munosabatlarida bo‘lgan birliklarni izchillik bilan ko‘rib chiqishga leksikologiyada izoh berilganidek, paradigmatika deyiladi. So‘z boyligi tarkibining izchil tubga ega ekanligi, birinchi navbatda so‘zlarning ba'zi semantik jihatdan birlashgan leksik guruhlarga - leksik-semantik paradigmalarga taksimlanganidan ma'lum bo‘ladi. Tildagi har bir so‘z muayyan leksik - semantik paradigma tarkibiga, yana ko‘pincha o‘z ko‘p ma'noligidan kelib chikib bir necha paradigma tarkibiga kiradi.

So‘znpng shaxciy semantikasi uni paradigmalarning boshka a'zolariga kiyoslash, karama-karshi ko‘yish o‘zi kirgan, muayyan farkli belgilariga ko‘ra, ochib beriladi [1]. Masalan, a'zolari bino ma'nosini bildirib kelgan umumiy ma'noli "dwelling" so‘zi yordamida birlashgan (the house which is a place of residence). Nutqiy faoliyat fe'llari. Fikr yuritish va suzlash insonga xos xislatlardan biri xisoblanib buni harakat deb aytilishiga sabab:

- bu jarayonni og‘iz (tilning bo‘g‘iz)ning tovush obyektlari vujudga keltirdi.

K. Xaliqov ta'kidlaganidek, “gapirish fikr ifodalash uchun bajariladigan harakatdir” [2]. Masalan, u gapirdi – demak, «u fikr ifodaladi». Bu harakat tilda nutqiy faoliyat fe'llari (gapirmoq, so‘zlamoq, so‘zlamoq, aytmoq, aytib bermoq, demoq) orqali tasvirlanadi.

I. Leksik morfologik hodisalar.

A) Ravishlar. Nutqiy faoliyatni ifodalovchi fe'llar oldidan ravish qo‘llanib kelganda, gapirish harakatining kay xolatda bajarganligi payti urni va shu kabilar aniqlanadi [3]. Masalan: Orif o‘tirgan joyidan uning darg‘azab yuziga qarab yumshoq gapirdi. Qora Axmad bir qo‘lini yerga tirab, ohisga ko‘tarildi, qon aralash tupurdi. Yo‘lchiga qarab yumshoq gapirdi: Mard ekansan Qora Ahmadni

urding.. Yana qanday! Chin so‘z kerak. Men odamning xo‘roziga boshimni beraman. Sen u qizni sevasanmi? Ol, ket! Hech kimning ko‘z qorasi unga tushgani yo‘q. Ishon manga!—so‘l, qo‘lini ehtiyot bilan ushladi Qora Ahmad— Qo‘lga shikast berding-da. Zarari yo‘q. Kir! (Oybek, Qutlug‘ qon, 133)

Bunda predmetnnig sifat belgisiga xos bo‘lgan yumshoq so‘zi (ravish) ko‘chgan ma’noda qo‘llanib gapirish usulini belgilamoqda. Lekin bu o‘rinda yumshoq ravishi ancha keng ma’noda va vazifasini o‘z zimmasiga olgan. Yumshoq gapirdi deyilganda, birinchidan, gapirish jarayonida, ovozning pasayganligi so‘zlarning tanlab qo‘llanganligini anglatilsa, ikkinchidan, so‘zlovchining tinglovchini avaylab unga ehtiyotkorlik bilan yondoshganligi va shu singari nozik ma’no tomonlari anglashilib turadi.

Leksik – stilistik vositalar

A) Leksik ma’nodoshlar.

Gapirmoq fe’li o‘zining so‘zlamoq, aytmoq, demoq (deb aytmoq) kabi leksik sinonimlariga (leksik variantlariga) ega (bulardan – ayt, so‘zla fe’llarining qo‘llanishi gapirmoq fe’liga nisbatan qadimiyroq bo‘lib hisoblanadi). So‘zlamoq fe’li qo‘llanish jihatdan adabiy nutqqa xos qilib qolganligi tufayli gapirmoq fe’li bilan stilistik farq hosil qilgan. So‘z ham ko‘pincha, jonli nutqda gap shaklida qo‘llangani kabi gapirmoq fe’li jonli nutqda ham adabiy tilda ham teng qo‘llanaveradi.

So‘zlamoq fe’li oldidan qo‘llanib, harakat uslubini belgilovchi xarakterini ochuvchi ayrim leksik, morfologik elementlar gapirmoq fe’li oldidan qo‘llanuvchi xuddi shunday elementlardan deyarli farq qilmaydi. Masalan: Salimboyvachcha andak mulodaza kilib, suzlab ketdi:

Unchaligini keskin ayta olmayman. (Oybek, Qutlug‘ qon, 167).

U kishlokdan singlisini kelgirib, uzi birdan goyib bulganligini, keyin to‘satdan paydo bo‘lib, Salimboyvachchani odamlar orasida urganligini va hokazolarni so‘zlab berdi. (Oybek, Qutlug‘ qon, 151).

Aytmoq, demoq, deb aytmoq fe’llari jonli va adabiy nutqda birdek ishtirok etaverishga qaramay yana o‘z stilistik xususiyatiga, qo‘llanishi o‘rniga ega. Masalan: aytmoq fe’li bayon, informatsiya berish ma’nolari kuchli ashula aytdi misolida «aytdi» fe’li o‘rnida yuqorida keltirilgan fe’llardan birortasini qo‘llab bo‘lmaydi [1]. Shunga o‘xshash «Nutq so‘zladi» birikmasidan so‘zladi fe’lini boshqalar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Dedi, aytdi fe’llarida esa umumiy ijrodan ko‘ra yakunlash, xulosalash, izohlash ma’nolari ustun.

Mirzakarimboyning bog‘i qayerda, bilmaysizmi?— dedi muloyimlik bilan.

Nima ishing bor? (Oybek, Qutlug‘ qon, 2).

Nuri javob bermadi, qarshi ayvonga borib, bir chetga uyulgan paranjilardan eskirog‘ini oldi, onasini yolg‘iz uchratib, uni sekingina maqsadini aytdi. Onaning ko‘zlari taka-puka bo‘ldi. (Oybek, Qutlug‘ qon, 81).

B) Stilistik ma’nodoshlar. Shunisi e’tiborga moyilki, harakatni tasvirlashga xizmat qiluvchi ayrim vositalar (ravish, ravishdoshlar)ning o‘zi gapirmoq, so‘zlamoq fe’llariga stilistik ma’nodoshlar bo‘lib qo‘llana oladi. Bunday holatda

harakat xolati kushimcha elementlarsiz ham tushunarli bo‘laveradi: ming‘illab – gapirmoq – ming‘illamoq singari.

Salbiy xarakterga ega bo‘lgan stilistik variantlar: vaysamoq, valdiramoq, bobillamoq, vaqillamoq va hokazo. Yozuvchining biror shaxsga uning nutqiga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabati tufayli yoki bepisandlik natijasida uning nutqi, gap-so‘zi shu tarzda xarakterlanadi [4]. Masalan, Ko‘p valdirama, xo‘jayinga yalinsam, o‘tinsiz qo‘ymas. Xudo o‘ldi-yettidan saqlasin!—bir oz sukut qilib, yana so‘zladi:— Mana Yo‘lchini jo‘natdik: xabarlaring yo‘q shekilli... (Oybek, Qutlug‘ qon, 106). Hakimboyvachcha Gulsumbibini kuch bilan siltab tortdi ko‘zlarini piyoladay baqraygirib bobilladi:

— Bas, uyatsiz maxluq!.. Kim uni zaharlaydi? Bu gapni man ikkinchi eshitmay... (Oybek, Qutlug‘ qon, 174). Vaysamoq, javramoq fe’llari yuqorida sanab o‘tilgan salbiy bo‘yoqdorlikka ega. Masalan: Bolalar yopishavergach, xaltani ochishga majbur bo‘ldi-da, labini burib vaysay boshladi: (Oybek, Qutlug‘ qon, 5).

Ma’no xususiyatlaridan tashqari o‘git nasihat qilmoq, e’tiroz bildirmoq, uqtirmoq, tayinlamoq, va’zxonlik qilmoq kabi qator ma’no otenkalari bilan ham bog‘liq. Keltirilgan fe’llarda so‘zlovchining gapirish manerasini belgilovchi ma’nolar yo‘q. Unda keragidan ortiq gapirish, ezmalik qilish, ayni mavzuni ko‘p takrorlar kabi ma’no bo‘yoqdorliklari aks etadi.

Ming‘irlamoq, ming‘illamoq, bidirlamoq, bidillamoq, to‘ng‘illamoq, do‘ng‘illamoq, go‘ng‘illamoq ham shular jumlasidandir. Demak, nutq jarayonini, gapirish harakatini vujudga keltiruvchi obyektlar og‘iz (til+bo‘g‘iz)+ tovush. Gapirishning turli usullari, harakat xarakteri, subyektning gapirish manerasi – leksik, grammatik fonetik vositalar, leksik stilistik usullar bilan beriladi.

Ingliz tilidagi fe’llar

Verb

Fe’l harakat yoki holatni ifodalovchi so‘z turkumidir. Fe’llar tuzilishiga ko‘ra: sodda (Simple verbs), yasama fe’llar (Derivational verbs), qo‘shma fe’llar (Compound verbs) dan iborat. Masalan,

Simple verbs (sodda fe’llar)

To come to bring
To buy to forget
To help to find

Derivational verbs (yasama fe’llar)

To outcry to sweeten
To mistendersland to upbring
To equalize

Compound verbs (qo‘shma fe’llar)

to tonque-tie
to nickname
to whitewash
to broadcoast

Quyidagi fe'llar ingliz tilida nutq fe'llari sanaladi. Demak, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi hatto harakat fe'llari ham gapda nutqiy faoliyat fe'llari vazifasida kelishi mumkin.

Bizning tahlilimiz jarayonida shuni esdan chiqarmasligimiz kerakki, bu nutqiy faoliyat fe'llari vazifasida keluvchi fe'llar doimo predloglar bilan uchrayapti.

Ikkinchidan, bu fe'llar har doim ham nutq fe'li vazifasida kelmaydi balki qachonki bunga yozuvchi katta ehtiyoj sezgandagina bular nutqiy faoliyat fe'llari vazifasida kelishi mumkin.

Biz bu misollar orqali fe'llarning qanchalik jozibador va rang-barang xislatlarga ega ekanligini bilib oldik.

Xoh u istasangiz o'qituvchimi yoki buyuk notiqli, bu bilimlarni egallamay turib daholik darajasiga ko'tarolmaydi. Bu fe'llarning xislatlarini o'rganish uchun esa albatta ikki tildagi adabiyotlarni qiyoslab o'qish kerak. Biz tadqiqot ishimmizni qiyosiy grammatika bilan boshladik va yana aylanib kelib shu soha bilan tugatamiz. Bu qilingan ish qiyosiy grammatikaning qanchalik muhim fan ekanligi va uning o'rni til sohasida qanchalik buyuk va bebaho ekanligining yana bir oddiy isboti bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan manbalar:

1. Акбаров С. Ўзбек тилида қўшма феъллар. – Тошкент 1996. –Б.81-83.
2. Васильев Л. М. Семантические классы глаголов чувства, мысли и речи // Очерки по семантике русского глагола: некоторые вопросы урало-алтайского языкознания. Уфа, 1970. С. 38-310.
3. Халиқов К. Глаголы движения в современном узбекском литературном языке. –Самарқанд 19967. – С.3.
4. Содиқова М. Феъл стилистикаси. –Тошкент 1975, –Б.74.
5. Ziyaeva D.A. Different meaning of the speech verbs say, tell, speak, talk. International Journal on Integrated Education» Volume 3. Issue 1.
6. Ziyaeva D.A. GENERAL BASIS OF LEXICO-SEMANTIC COMPOSITION OF WORDS. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 06, volume 86 published June 30, 2020
7. Ziyaeva D.A THE STUDY OF NATIONAL CULTURE IS A BASIS FOR THE FORMATION OF LINGUOCULTUROLOGICALCOMPETENCE IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. SP, p. 4, Jan. 2021.
8. Ziyaeva D A SEMANTICS OF SPEECH VERBS SPEAK AND TALK IN THE ENGLISH LANGUAGE Scientific Journal Impact Factor-5.938 Innovative Development in Educational Activities.Volume2 Issue6 2023\6
9. Ziyaeva D A THE CLASSIFICATION OF SPEECH VERBS. https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1230/1142 Miasto PrzyszłościKielce 2023 Impact factor-9.2
10. Ziyaeva D A APPROACHES TO THE STUDY OF SPEECH VERBS IN MODERN ENGLISH International Journal of education , Social science and

Humanities. Finland academic research science publishers. ISSN:2945-4492(ONLINE) SJIF -7.502 IMPACT FACTOR 8.9 Volume 11 Issue -5 22.05.2023 ."International Journal on Integrated Education, vol. 3, no. 3, 2020, pp. 24-28, doi:10.31149/ijie.v3i3.81.

IMPROVING ENGLISH SPEAKING SKILLS THROUGH LINGUACULTUROLOGY

Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi
The first year PhD student of
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation: "Enhancing English Speaking Proficiency through Linguaculturological Competence: A Cultural-Linguistic Perspective" This signals a more scholarly approach and incorporates key terms like *proficiency* and *competence*."Linguaculturology is an exciting and unique field."*Strength*: The introductory paragraph successfully defines linguaculturology and introduces its relevance to English speaking skills.*Critical Note*: You should cite foundational scholars in linguaculturology or cultural linguistics—e.g., Vereshchagin & Kostomarov (1980s), or Kramsch (1998). The lack of citations weakens the academic tone.*Suggestion*: Integrate a thesis statement that outlines the article's structure and scope:"This article explores how integrating cultural knowledge, pragmatic awareness, and intercultural communication strategies can significantly enhance English speaking skills."

Linguaculturology is an exciting and unique field that blends **linguistics** (the study of language) with **cultural studies**. It highlights how language and culture are deeply interconnected—language is not just a way to communicate; it reflects the culture from which it emerges. When it comes to improving your English speaking skills, linguaculturology offers a refreshing approach that goes beyond just grammar and vocabulary. By immersing yourself in the cultural aspects of the English language, you can speak more naturally, confidently, and fluently.Incorporating an understanding of the cultural nuances and social contexts that shape English will not only improve your fluency but will also make you more aware of the subtleties in communication. Here are several ways in which you can enhance your English speaking skills through linguaculturology. **Understand the Cultural Context of English.** Language and culture are inseparable. To truly improve your English, it's essential to understand that the way people speak is deeply influenced by their culture. English speakers often use idioms, slang, expressions, and references that carry specific cultural meaning. This means that improving your English is not just about learning new words or practising grammar; it is about understanding why certain words or expressions are used in specific contexts. For instance, phrases like "break the ice," "hit the nail on the head," or "call it a day" have meanings that go beyond their literal translation. These expressions are steeped in cultural history and reflect the ways that speakers

of English engage with their world. By recognizing the cultural context behind such phrases, you can start using them correctly, making your English sound more natural and authentic.Understanding culture-specific references, humor, and values will also help you build a deeper connection with native speakers, making your conversations more meaningful. For example, learning about major holidays, historical events, and current trends in English-speaking countries can provide context for conversations and allow you to speak about topics that are relevant and engaging.


Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda diskurs-tahlil va lingvostilistik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Li Kuan

Yuning “From Third World to First: The Singapore Story 1965–2000” (2000) asari tanlab olindi. Tahlil uchun ushbu asardan stilistik, semantik va pragmatik jihatdan ahamiyatli deb topilgan paragraflar ajratib olindi. Har bir paragraf lingvistik birliklar — ya’ni so‘z tanlovi, jumla tuzilishi, stilistik vositalar, zamon va shaxs olmoshlari — bo‘yicha tahlil qilindi. So‘ngra ushbu birliklar rahbarlik uslubi, siyosiy qarorlarning ifodalanish usuli, shaxsiy va institutsional til o‘rtasidagi o‘zaro munosabat orqali kontekstual jihatdan talqin qilindi. Tadqiqotda tarjimashunoslik nazariyasi (xususan, Skopos nazariyasi), kritik diskurs tahlili (Fairclough modeli) va stilistika nazariyasiga asoslangan yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Shuningdek, siyosiy liderlik matnlaridagi nutq strategiyalarini aniqlash uchun retorik struktura nazariyasidan (RST) ham foydalanildi. Tahlil jarayonida sifatli (qualitative) metod asosida chuqur o‘rganish tamoyili qo‘llanildi, bunda til vositalarining siyosiy identitet, boshqaruv ideologiyasi va xalqaro diplomatik kontekstda qanday aks etishi aniqlab berildi.

Adabiyotlar sharhi. Li Kuan Yuning siyosiy nutqi va yozma asarlari tilshunoslar va siyosatshunoslar e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Chew (2016) o‘z maqolasida ushbu memuarni til siyosati va tilni boshqarish nuqtai nazaridan tahlil qilgan, unda siyosiy pragmatizm va texnokratik yondashuv asosiy mavzu bo‘lib xizmat qiladi. Yew (2000) tomonidan yozilgan asar esa nafaqat tarixiy hujjat, balki liderlik va til vositasidagi siyosiy kommunikatsiya namunasi sifatida baholanadi. Chia (2021) va Chan & Chong (2022) tadqiqotlarida liderlik tili va janubi-sharqiy Osiyoda rahbarlik diskursi o‘rtasidagi aloqalar yoritilgan bo‘lib, bunda Li Kuan Yuning nutqi boshqa mintaqaviy liderlar nutqi bilan qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tan & Lim (2021) esa Singapur siyosiy identitetining shakllanishida narativ strukturalarning tutgan o‘rniga e’tibor qaratadi. Zhai va boshq. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Li Kuan Yuning siyosiy uslubi “temir musht ostidagi baxmal qo‘lqop” modeli orqali tavsiflanadi. Bu metafora rahbarlikdagi qat’iylik bilan birga ijtimoiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan yumshoq yondashuvni anglatadi. Wong (2020) esa Li Kuan Yuning diplomatik faoliyatini tahlil qilib, uning xalqaro maydondagi nutqlari va uchrashuvlaridagi til vositalarini o‘rganadi. Goh (2023) maqolasida esa iqtisodiy diskurs va iqtisodiy terminologiyalarning davlat strategiyasidagi o‘rni yoritilgan. Yuqoridagi adabiyotlar umumlashtirilgan holda shuni ko‘rsatadiki, Li Kuan Yuning yozma til uslubi nafaqat tarixiy, balki lingvistik va siyosiy jihatdan ham chuqur tadqiq qilinishi mumkin bo‘lgan murakkab qatlamli fenomen hisoblanadi. Ushbu maqola avvalgi ishlarga tayangan holda, matn ichidagi lingvostilistik elementlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilish orqali yangi qirralarni ochishga intiladi.

Natijalar:

- **Aniqlik va bevositalikning ustuvorligi:** Li Kuan Yu o‘z nutqida murakkab metaforalardan tiyilgan holda, fikrni sodda va aniq ifodalashga intilgan. Uning “Men har doim to‘g‘ri bo‘lishga harakat qilganman, siyosiy to‘g‘rilikka emas” degan iborasi uning realistik va ochiqchasiga gapirish uslubini namoyon etadi (Lee, 2000, 182-bet).

- **Ishonchli va buyruqboz ohang:** Memuarda sabab-oqibatga asoslangan mantiqiy tuzilmalar ko‘p uchraydi. Masalan, “Bizda tabiiy resurslar yo‘q edi... strategiyalarsiz omon qololmasdik” degan jumla davlat siyosatining zaruriyatga asoslanganligi va ratsional yondashuv bilan olib borilganini ko‘rsatadi (Lee, 2000, 67-bet).
- **Iqtisodiy-siyosiy terminologiyadan foydalanish:** “Makroiqtisodiy siyosat”, “fiskal intizom” kabi atamalarning qo‘llanishi Li Kuan Yuning davlat boshqaruvida texnokratik yondashuvga ega ekanini, iqtisodiy rejalashtirish va moliyaviy barqarorlik masalalarida chuqur bilimga egaligini aks ettiradi (Chew, 2016, 38–40-betlar).
- **Shaxsiy hikoya va diplomatik kontekst:** Muallif tomonidan “men” va “biz” olmoshlarining doimiy ishlatilishi siyosiy qarorlar qabul qilinishida shaxsiy ishtirok va yetakchilik mas’uliyatining yuqoriligini ifodalaydi.
- **Rasmiy yondashuv va voqelikka asoslangan hikoyachilik uyg‘unligi:** Memuar siyosiy voqealarni tahliliy izohlar bilan birgalikda shaxsiy hayotiy tajriba orqali yoritadi. Bu yondashuv o‘quvchiga siyosiy jarayonlarni real holatda tushunish imkonini beradi (Zhai va boshq., 2023).
- **Taqqoslash va kontrast asosidagi argumentatsiya:** Muallif Singapurning rivojlanish yo‘lini boshqa mamlakatlar bilan solishtirgan holda bayon etadi. Jumladan, tabiiy resurslarga boy, biroq iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan orqada qolgan sobiq mustamlaka mamlakatlar bilan kontrast keltiriladi. Bu Singapurning yuksalishidagi o‘ziga xos omillarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi (Lee, 2000, 211-bet).

Muhokama. Li Kuan Yuning mazkur asarida tahliliy uslub, shaxsiy tajriba va rasmiy ohang birlashtirilgan. Asar tili Singapur tarixini nafaqat faktlar, balki liderlik qarashlari orqali tushuntiradi. Bu jihatlar hozirgi rahbarlik sohasida o‘rnak bo‘la oladi (Chia, 2021, p. 90). Li Kuan Yu tilidan xalqaro maydondagi siyosiy yetakchilik tajribasi yaqqol ko‘rinadi. "Uchinchi dunyodan birinchiga: Singapur tarixi (1965–2000)" asarining til tuzilmasi quyidagi asosiy elementlar bilan tavsiflanadi: *Aniqlik va bevositalik.* Li Kuan Yuning yozish uslubi sodda, aniq va bezaksiz. U ravshan gap tuzilmalaridan foydalanadi hamda ortiqcha murakkablikdan qochadi. Li Kuan Yu tushunilishi qiyin bo‘lgan iboralarni ishlatishdan qochadi va bevosita murojaat qiladi (Yew, 2000, p. 145). Bu uslub uning amaliy yetakchilik uslubini aks ettiradi. Jumladan, *“I always tried to be correct, not politically correct.”* (Men har doim to‘g‘ri bo‘lishga harakat qilganman, siyosiy jihatdan to‘g‘ri emas). Bu jumla juda sodda, lekin aniq va qat’iy fikrni bildiradi — bu Lee Kuan Yewning yozish uslubiga xos jihat. *“I am often accused of interfering in the private lives of citizens. Yes, if I did not, had I not done that, we wouldn’t be here today. And I say without the slightest remorse, that we wouldn’t be here, we would not have made economic progress, if we had not intervened on very personal matters — who your neighbor is, how you live, the noise you make, how you spit, or what language you use.”* (Meni ko‘pincha fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashganlikda ayblashadi. Ha, agar men bunday

qilmagan bo‘lsam, biz bugungi holatga yetib kelmagan bo‘lardik. Men hech qanday afsuslanmasdan aytaman: biz bunga erisha olmagan bo‘lardik, iqtisodiy taraqqiyotga erisholmagan bo‘lardik, agar biz odamlarning qo‘shnisi kimligi, qanday yashashi, qanday shovqin qilishi, qanday tufurishi yoki qanday tilda gapirishi kabi shaxsiy masalalarga aralashmaganimizda). Bu parcha Lee Kuan Yewning uslubini yaqqol ko‘rsatadi: u o‘z fikrlarini murakkab iboralarsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qiladi, mas'uliyatni tan oladi va qarashlarini aniq asoslaydi. Izohlovchi va tahliliy ohang. Kitob asosan izohlovchi xarakterga ega bo‘lib, Singapurning o‘zgarishi haqidagi tarixiy va siyosiy tahlilni taqdim etadi. Unda siyosiy qarorlar bo‘yicha tushuntirishlar, asoslantirishlar va mulohazalar mavjud. Siyosiy qarorlar asoslari batafsil tahlil etiladi (Yew, 2000, p. 173). “*We had no natural resources. We had to create a competitive economy by opening up to foreign investments, encouraging exports, and educating our people to be productive. Without these strategies, we could not have survived.”* (Bizda hech qanday tabiiy resurslar yo‘q edi. Biz raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish uchun xorijiy investitsiyalarga yo‘l ochishimiz, eksportni rag‘batlantirishimiz va xalqimizni samarali bo‘lishga o‘rgatishimiz kerak edi. Bu strategiyalarsiz biz omon qololmagan bo‘lardik). Bu parcha aniq tushuntirishni o‘z ichiga oladi: u sabab (resurslar yo‘qligi), harakatlar (strategiyalar), va natijani (omonda qolish) ko‘rsatadi. Lee Kuan Yew o‘z qarorlarini qanday qabul qilganini tahlil qilib beradi — bu aynan tahliliy va tushuntiruvchi uslubning belgisi.

Siyosiy va iqtisodiy atamalardan foydalanish. Matnda siyosat, iqtisodiyot va diplomatiyaga oid ko‘plab atamalar uchraydi. Bu Li Kuan Yu davlat boshqaruvi va taraqqiyotiga chuqur aralashganini ko‘rsatadi. Atamalar siyosiy qarorlarning texnik asoslarini ifodalaydi (Goh, 2023, p. 87). Xalqaro savdo, diplomatiya va iqtisodiy siyosatga oid terminlar tez-tez tilga olinadi. *“We had to establish sound macroeconomic policies to ensure low inflation and a stable exchange rate. At the same time, we built up our foreign reserves and maintained fiscal discipline to gain investors’ confidence.”* (Inflyatsiyani past darajada ushlab turish va barqaror valyuta kursini ta’minlash uchun biz sog‘lom makroiqtisodiy siyosatni yo‘lga qo‘yishimiz kerak edi. Shu bilan birga, biz xorijiy valyuta zaxiralarini to‘pladik va investorlar ishonchini qozonish uchun moliyaviy intizomni saqladik). Bu parchada quyidagi atamalar qatnashmoqda:

- *macroeconomic policies* — makroiqtisodiy siyosat
- *inflation* — inflyatsiya
- *exchange rate* — valyuta kursi
- *foreign reserves* — xorijiy zaxiralar
- *fiscal discipline* — moliyaviy intizom
- *investors’ confidence* — investorlar ishonchi

Bu terminlar Li Kuan Yu faqat siyosiy yetakchi emas, balki mohir iqtisodchi va strateg ham bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi. U davlatni boshqarishda texnik va global tushunchalarga asoslangan tilda fikr yuritadi.

Ishonchli va buyruqboz ohang. Li o‘zining rahbarlik mavqeini kuchaytirish uchun buyruqboz ohangdan foydalanadi. Matnda qat’iy fikrlar va boshqaruv

uslubini asoslash mavjud. Birinchi shaxs (“men”, “biz”) shaklidagi hikoya uni Singapur taqdirini belgilashdagi shaxsiy ishtirokini ta’kidlaydi. *“I had to ensure that Singapore did not become a pawn in the Cold War. I made it clear to both the Americans and the Soviets that we would not be anyone’s satellite. We would chart our own course.”* (Lee, 2000, 199-bet). (Men Singapurning Sovuq urush davrida biror kuchning qo‘g‘irchog‘iga aylanishiga yo‘l qo‘ymasligim kerak edi. Men amerikaliklarga ham, sovetlarga ham biz hech kimning sun’iy yo‘ldoshi bo‘lmasligimizni ochiq aytdim. Biz o‘z yo‘limizni o‘zimiz belgilaymiz). Bu parcha bir necha elementni o‘z ichiga oladi:

- Birinchi shaxsdagi ifoda (“I had to ensure…”, “I made it clear…”): bu Li Kuan Yuning shaxsiy rahbar sifatida faol rolini ko‘rsatadi.
- Buyruqboz va qat’iy ohang: “We would chart our own course” (“Biz o‘z yo‘limizni o‘zimiz belgilaymiz”) — mustaqillik, qaror qat’iyligi va rahbarlik pozitsiyasi aks etgan.
- Ishonchli uslub: u fikrlarini shubha yoki noaniqlikdan yiroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qat’iy bayon qiladi.

Shuningdek, ushbu ohang kitob davomida tez-tez uchraydi, bu esa Li Kuan Yuning davlat taqdirini o‘z zimmasiga olishga tayyor rahbar bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shaxsiy hikoya va diplomatik kontekst. Kitob asosan tahliliy bo‘lsa-da, unda shaxsiy xotiralar va diplomatik uchrashuvlar haqida hikoyalar ham keltirilgan. Bu hikoyalar Singapurning rivojlanishidagi muhim lahzalarni yorqinroq tasvirlaydi. Li Kuan Yu o‘z asarida tahlilni shaxsiy tajriba va tarixiy voqealar bilan uyg‘unlashtirib beradi. *“When I first met Deng Xiaoping in November 1978, I found him tough-minded and decisive. He said China needed to learn from countries that had succeeded, and that Singapore had done certain things right. That was a surprise, and I realized how serious he was about reform.”* (Men birinchi marta Den Syaopin bilan 1978-yil noyabr oyida uchrashganimda, uni qat’iyatli va qat’iy fikrli inson deb topdim. U Xitoy muvaffaqiyatga erishgan davlatlardan o‘rganishi kerakligini aytdi va Singapur ba’zi ishlarni to‘g‘ri bajarganini tan oldi. Bu meni hayratda qoldirdi va men uning islohotlarga chin dildan bel bog‘laganini tushundim). Bu parcha quyidagi jihatlarni o‘zida mujassam etadi:

- Voqeabop hikoya: Li Kuan Yu Xitoy yetakchisi bilan bo‘lgan shaxsiy uchrashuvini eslaydi.
- Tahliliy yondashuv: u uchrashuvdan qanday xulosa chiqarganini ochiq aytadi — Denning islohotlarga jiddiy yondashuvi.
- Diplomatik kontekst: ikki davlat o‘rtasidagi strategik munosabatlar, tajriba almashish.

Bu uslub kitobni nafaqat siyosiy tahlil, balki tarixiy hujjat darajasiga ko‘taradi — o‘quvchiga muhim voqealarni “ichidan” turib ko‘rish imkonini beradi. Kitobda tarixiy voqealar rahbarlik kontekstida tasvirlanadi (Wong, 2020, p. 212).

Taqqoslash va qarama-qarshi strukturalar. Asarda Singapurning yo‘li boshqa mamlakatlar, ayniqsa sobiq mustamlaka davlatlar bilan taqqoslab ko‘rsatiladi. Bunday yondashuv Singapur boshqaruv modelining o‘ziga xosligini

asoslashga xizmat qiladi.*“Many ex-colonies had natural resources, larger populations, and more land, but they failed to progress. We had nothing — no natural resources, a small population, no hinterland. Yet we succeeded because we were pragmatic, honest, and disciplined.”* (Ko‘plab sobiq mustamlakalar tabiiy boyliklarga, katta aholiga va keng hududlarga ega edi, lekin ular rivoqlana olmadilar. Bizda hech narsa yo‘q edi — na tabiiy resurslar, na katta aholi, na orqa hudud. Ammo biz muvaffaqiyat qozondik, chunki biz amaliy, halol va intizomli edik). Bu parcha quyidagilarni ochib beradi:

- Taqqoslash: Singapur boshqa sobiq mustamlaka davlatlar bilan solishtirilmoqda.
- Qarama-qarshilik: Ular boy bo‘lishiga qaramay muvaffaqiyatsizlikka uchragan, Singapur esa resurssiz bo‘lsa ham muvaffaqiyatga erishgan.

Bu uslub kitob davomida ko‘p uchraydi va o‘quvchiga Singapurning tanlagan yo‘li nimasi bilan boshqachaligini tushunishga yordam beradi. Singapurning o‘ziga xos yondashuvi — pragmatizm, halollik va intizom — muvaffaqiyat asoslari sifatida ko‘rsatilgan.

Rasmiy yondashuv va voqelikka asoslangan hikoyachilik uyg‘unligi. Kitob siyosiy xotira sifatida rasmiy ohangni saqlab qolgan bo‘lsa-da, hikoyaviy elementlar orqali o‘quvchini jalb etadi. Tarixiy voqealarni hikoya qilish va shaxsiy fikrlar uyg‘un ravishda berilgan. *“My first visit to the White House was in October 1967, when I met President Lyndon Johnson. He received me with warmth, but I sensed he was preoccupied with the war in Vietnam. Over lunch, we discussed Southeast Asia, and I told him that America’s presence in the region was vital.”* (Oq Uyga birinchi tashrifim 1967-yil oktabr oyida bo‘lgan, o‘shanda Prezident Lindon Jonson bilan uchrashdim. U meni iliqlik bilan kutib oldi, biroq uning butun e’tibori Vetnam urushida ekanini sezdim. Tushlik paytida biz Janubi-Sharqiy Osiyo haqida suhbatlashdik, men unga Amerikani bu mintaqada bo‘lishi naqadar muhimligini aytdim). Bu parcha rasmiy siyosiy kontekstda yozilgan bo‘lsa-da, unda shaxsiy kuzatuvlar (“meni iliqlik bilan kutib oldi”, “sezdim…”) va hikoya elementlari mavjud. Bu o‘quvchini siyosiy sahnaga “yaqinlashtiradi”, rasmiy uslub esa saqlanib qoladi.

Mantiqiy ketma-ketlik va dalillar. Matn xronologik tartibda bayon qilingan, lekin u boshqaruv, iqtisodiyot, diplomatiya va milliy qurilish mavzulariga bo‘lingan. Dalillar mantiqiy tuzilgan bo‘lib, ko‘pincha tarixiy dalillar va raqamli ma’lumotlar bilan mustahkamlangan. *“In the 1960s, our unemployment rate was over 10 percent. By creating jobs through industrialization and attracting foreign investment, we brought it down to 3 percent by the late 1970s. We ensured our workers were trained and productive, and this gave us a competitive edge.”* (1960-yillarda ishsizlik darajasi 10 foizdan yuqori edi. Biz sanoatlashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali ish o‘rinlari yaratdik va 1970-yillarning oxiriga kelib bu ko‘rsatkichni 3 foizgacha tushirdik. Ishchilarimizni malakali va samarali qilishga e’tibor berdik — bu bizga raqobatbardoshlik ustunligini berdi). Bu parcha muammodan (ishsizlik) boshlanadi, keyin ketma-ket choralar (sanoatlashtirish, investitsiya, malaka oshirish), so‘ng natija (raqamlar bilan) ko‘rsatiladi. Bu — tahliliy va mantiqiy tuzilgan argumentatsiya namunasi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Uchinchi dunyodan birinchiga" asari amaliy, ishonarli va tahliliy til tuzilmasiga ega bo‘lib, Li Kuan Yuning rahbarlik falsafasi hamda boshqaruvdagi tizimli yondashuvini aks ettiradi. Asarning til tuzilmasi — rahbarlik, siyosat va tarixni bog‘lovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu, Singapur misolida, til orqali qanday qilib kuchli rahbarlik kommunikatsiyasi barpo etilganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chan, S., & Chong, T. (2022). *The Language of Leadership in Southeast Asia*. Routledge.
2. Tan, L. H., & Lim, J. (2021). Political narratives and identity in Singapore. *Asian Journal of Political Science*, 29(2), 45–63. https://doi.org/10.1080/02185377.2021.1931095
3. Goh, M. (2023). Economic Discourse in Singapore’s Developmental Strategy. *Journal of Southeast Asian Studies*, 54(1), 80–95.
4. Wong, E. (2020). *Diplomacy and Nation-Building in Modern Asia*. Springer.
5. Chia, Y. (2021). Leadership Language and Historical Legacy. *Leadership Quarterly*, 32(3), 85–94.
6. Yew, L. K. (2000). *From Third World to First: The Singapore Story 1965–2000*. HarperCollins.
7. Chew, P. (2016). From Third World to First: A Case Study of Lee Kuan Yew and Language Management in Singapore. *Linguistics and The Human Sciences, 11*(1), 31–50.
8. Lee, K. Y. (2000). *From Third World to First: The Singapore Story: 1965–2000*.
9. Zhai, Y., Zhai, J., & Kwong, S. (2023). A Man Ahead of His Time: Lee Kuan Yew’s Iron First Beneath the Velvet Glove.

Axborot texnologiyalariga oid terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi va ularning qo‘llanilishi

Orifjon Olimjon O‘g‘li yo‘ldoshev
“Is’hoqxon Ibrat” nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti
qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
mutaxasisligi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalariga oid ingliz tilidagi terminlarning o‘zbek tiliga mos tushishi va ularning amaliy ishlatilishi holatlari tahlil qilinadi. Terminologik moslashuv jarayonida uchraydigan tarjima strategiyalari, semantik farqlar va tarjimada uchraydigan muammolari yoritiladi. Shuningdek, darsliklar, rasmiy hujjatlar va ommaviy axborot vositalarida AT terminlarining qanday qo‘llanilayotgani misollar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek maqolada inglizcha terminlarning o‘zbek tilida to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha ham ayrim tavsiyalar berib o‘tiladi.

Abstract: This article analyzes the adaptation of English-language information technology (IT) terms into the Uzbek language and examines their practical usage. It highlights translation strategies, semantic differences, and common challenges encountered during the process of terminological adaptation. The study also explores how IT terms are used in textbooks, official documents, and mass media through concrete examples. In addition, the article provides recommendations for the correct and appropriate use of English IT terms in the Uzbek language.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, terminlar, ingliz tili, o‘zbek tili, tarjima strategiyalari, semantik tafovutlar, terminologik moslashuv, AT atamalari, tilshunoslik, tarjima muammolari.

Keywords: Information technology, terminology, English language, Uzbek language, translation strategies, semantic differences, terminological adaptation, IT terms, linguistics, translation challenges

Kirish

XXI asrda axborot texnologiyalarining kundan-kunga rivojlanib borishi inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Bunda yangi tushunchalar, jarayonlar va vositalarni ifodalovchi terminlarning shakllanishi va ulardan to‘g‘ri foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida shakllangan AT terminlarining o‘zbek tiliga to‘g‘ri va tabiiy moslashtirilishi nafaqat tarjimonlar, balki pedagoglar, dasturchilar va tilshunoslar uchun ham dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda o‘zbek tilida yaratilayotgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalar va rasmiy hujjatlarda axborot texnologiyalariga oid terminlar keng qo‘llanilmoqda. Biroq bu terminlarning barchasi ham o‘zbek tilining fonetik, morfologik yoki semantik xususiyatlariga to‘la mos kelavermaydi. Shuningdek, bir qator atamalar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmay, ba’zida asliyatdagi shakli bilan, ba’zida esa noto‘g‘ri yoki tushunarsiz ko‘rinishda ishlatilmoqda. Bu esa terminlarning o‘quvchilar, talabalar va mutaxasislar tomonidan noto‘g‘ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi AT terminlarining o‘zbek tiliga moslashtirilish jarayoni, tarjima strategiyalari, semantik tafovutlar va ularning amaliy qo‘llanilish holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ba’zi takliflar ilgari suriladi.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA OID TERMINLAR HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Axborot texnologiyalari (AT) bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida iqtisodiyot, ta’lim, fan, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi va boshqa ko‘plab sohalarning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu jarayon, tabiiyki, yangi tushuncha va atamalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. AT sohasiga oid terminlar asosan ingliz tilida shakllanib, boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham kirib kelmoqda.

Termin atamasi ma’lum bir soha doirasidagi aniq tushuncha va mazmunni ifodalaydigan til birligi hisoblanadi. Aynan shu jihati bilan terminologiya umumxalq tilidan farqlanadi. Axborot texnologiyalari terminologiyasi esa ilm-fan va texnikaning eng faol va sermazmun sohalaridan biri bo‘lib, doimiy yangilanish, takomillashuv va ommalashuv holatida rivojlanadi.

AT terminlari orasida qisqartmalar, kalkalash, metaforik ifodalar, kompozit so‘zlar keng tarqalgan. Masalan, *software* (dasturiy ta’minot), *browser* (brauzer), *cloud computing* (bulutli hisoblash), *interface* (tugun interfeysi), *login* (tizimga kirish) kabi atamalar tilga tezda singib borayotgan birliklardir. (1) Bunday terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi ularning shakl va mazmuniga, shuningdek, milliy til me’yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, ayrim terminlar so‘zlashuv tilida, dars jarayonlarida yoki ommaviy axborot vositalarida izohsiz va asliyatdagi shaklida ishlatilmoqda, bu esa ularning to‘g‘ri anglanmasligi xavfini tug‘diradi. Shu bois, terminlarni nafaqat tarjima qilish, balki ularni aniq, izchil va to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha ilmiy yondashuv zarurdir.

O‘ZBEK TILIGA MOSLASHUV JARAYONI

Axborot texnologiyalariga oid terminlarning o‘zbek tiliga moslashuvi murakkab va ko‘p bosqichli jarayondir. Bu jarayon faqatgina ma’lum bir so‘zlarni

U. Vahobov (2018). *Inglizcha-o‘zbekcha axborot texnologiyalari atamalari lug‘ati*.

Tarjima qilish bilan cheklanibgina qolmay, balki uning fonetik,morfologik, semantik va stilistik xususiyatlarini o‘zbek tilining me‘yorlariga moslashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

AT sohasidagi ko‘plab atamalar ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirilgan. Masalan: ***kompyuter, printer, monitor, internet, server*** kabi so‘zlar bugungi kunda o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi va ular deyarli o‘zgarishsiz shaklda tilda singib ketgan. Biroq, bu kabi o‘zlashtirishlar har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lmaydi. Ba’zan asliyatdagi shakl tushunarsiz yoki o‘zbek tilining fonetik tizimiga mos bo ‘lmagan holatda bo‘ladi.

Moslashuvning yana bir yo‘li — **kalkalash**, ya’ni so‘zning tarkibiy qismlarini tarjima qilish orqali yangi birlik yaratish. Masalan, *cloud computing* atamasi ayrim matnlarda ***bulutli hisoblash*** shaklida tarjima qilinmoqda. (2) Bu usul terminning mazmunini tushunarli va milliy tilga yaqinlashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ammo kalkalangan terminlarning umumiy tilda qabul qilinishi va ommalashuvi ko‘proq vaqt va izchil ishlovni talab etadi.

Shuningdek, AT terminlarini tarjima qilishda ***transliteratsiya*** usuli ham qo‘llaniladi. (3) Bu usulda so‘z o‘zbek yozuviga mos tovushlar asosida yoziladi: ***log in-login, chat – chat, byte – bayt, online-onlayn, offline-oflayn.*** Transliteratsiya so‘zning talaffuzini saqlab qolishga xizmat qiladi, biroq ayrim hollarda yozma shakl talaffuzdan farq qilishi mumkin.

Moslashuv jarayonida shuningdek, ayrim terminlar uchun **muqobil o‘zbekcha atamalar** yaratilmoqda. Masalan, ***software*** so‘zi o‘rniga ***dasturiy***

ta’minot, ***browser*** o‘rniga ***brauzer*** yoki ***ko‘rish dasturi***, ***password*** o‘rniga ***parol*** kabi shakllar taklif etilgan.

Ammo mavjud tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, terminlarning moslashtirilishi faqatgina tilshunoslar yoki tarjimonlarning ishi emas. Ularning to‘g‘ri va izchil ishlatilishi uchun muallimlar, jurnalistlar, dasturchilar, noshirlar
va keng jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

1. Karimov, A. & Jo‘rayev, S. (2020). *Zamonaviy texnologik terminlarning tarjima nazariyasi*.

QO‘LLANISH HOLATLARI VA TAHLIL

Axborot texnologiyalariga oid terminlarning o‘zbek tilidagi amaliy qo‘llanilishi turli manbalar — o‘quv darsliklari, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va internet nashrlarida kuzatilmoqda. Ushbu terminlar ba’zan asliyatdagi shaklida, ba’zan esa tarjima yoki moslashtirilgan holatda uchraydi. Biroq ularning ishlatilishida bir xillik yo‘qligi, ba’zan esa noto‘g‘ri qo‘llanilish holatlari ham uchrab turadi.

Masalan, maktab va kollej darsliklarida ***kompyuter, monitor, fayl, brauzer, dasturiy ta’minot*** kabi terminlar o‘zbek tilida qabul qilingan shakllarda
beriladi. (3) Biroq, ayrim hollarda ***program, mouse, login*** kabi terminlar izohsiz, o‘zlashtirilmagan shaklda qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilar uchun tushunmovchiliklar va noto‘g‘ri talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, internetdagi texnologik yangiliklar saytlarida inglizcha terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi keng tarqalgan. Masalan: “***smartfonlar uchun yangi update chiqdi”*** **,** **“*messengerda yangi features mavjud”*** **,** **“*cloud storage imkoniyatlari kengaydi”***. Bu kabi misollar tildagi ikki komponent – o‘zbekcha va inglizcha birliklarning aralashmasi hisoblanadi.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa, internetdagi texnologik yangiliklar saytlarida inglizcha terminlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishi keng tarqalgan. Masalan: “***smartfonlar uchun yangi update chiqdi”*** **,** **“*messengerda yangi features mavjud”*****,** **“*cloud storage imkoniyatlari kengaydi”*****.** Bu kabi misollar tildagi ikki komponent – o‘zbekcha va inglizcha birliklarning aralashmasi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayni paytda terminlarni qo‘llashda yagona standart yo‘qligi, matn yaratuvchilarning til me’yorlariga e’tibor qaratmasligi va ba’zida tarjima strategiyalaridan xabardor bo‘lmasligi muammo tug‘dirmoqda.

3 U. Vahobov (2018). *Inglizcha-o‘zbekcha axborot texnologiyalari atamalari lug‘ati*.

Shu bois terminlarni tahlil asosida tasniflash, ularni tavsiflash va to‘g‘ri qo‘llanishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

O‘ZBEK TILIDAGI AMALIY QO‘LLANILISH HOLATLARI

Axborot texnologiyalariga oid terminlar o‘zbek tilidagi turli manbalarda — darsliklar, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari (OAV) va internet saytlari matnlarida keng qo‘llanilmoqda. Biroq bu qo‘llanilish jarayoni ko‘p hollarda bir xillik va normativlikdan yiroq bo‘lib, ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu bo‘limda terminlarning real kontekstdagi amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi va asosiy muammolar yoritiladi.

Darsliklardagi qo‘llanilish

O‘zbekiston ta’lim tizimida foydalanilayotgan IT darsliklarida inglizcha terminlarning bir qismi o‘zbek tiliga moslashtirilgan, masalan: ***dasturiy ta’minot, qattiq disk, foydalanuvchi interfeysi, kompyuter tarmoqlari.*** Biroq ayrim terminlar to‘liq tarjima qilinmagan yoki asliyatdagi shaklda qoldirilgan: ***login, browser, update, mouse*** kabi. (4) Bu esa birgina darslik doirasida ham terminlarning ikki yoki undan ortiq shaklda qo‘llanilishiga olib kelmoqda. Masalan, ayrim hollarda ***“kompyuter sichqonchasi”*** deyilsa, boshqa joyda bevosita ***“mouse”*** ishlatiladi.

Rasmiy hujjatlardagi qo‘llanilish

Normativ-huquqiy hujjatlar, axborot xavfsizligi standartlari va davlat dasturlarida terminlar odatda rasmiylashtirilgan, lekin ayrim hujjatlarda ham tarjima usullaridagi nomuvofiqlik kuzatiladi. Masalan, *cybersecurity* atamasi bir hujjatda ***kiberxavfsizlik*** deb, boshqa birida ***axborot xavfsizligi*** deb berilgan. Shuningdek, ***cloud technologies*** ba’zan ***bulutli texnologiyalar***, ba’zan esa ***oblachniy texnologiyalar*** tarzida uchraydi. Bunday sinonimlik muomalada tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ommaviy axborot vositalaridagi holatlar

Ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa internet yangiliklarida, IT terminlarining aralash holda ishlatilishi keng tarqalgan.

---

4. Ahmadaliyeva, M. (2021). *Axborot texnologiyalariga oid terminlarning tarjimasi va ularning o‘zbek tilidagi moslamalari*.

Matnlarda bir vaqtning o‘zida inglizcha, ruscha va o‘zbekcha variantlar uchrab turadi.

Misollar:

- *Brauzeringiz yangilanmagan bo‘lsa, yangi versiyani yuklab oling.*
- *Messengerdagi yangi update foydalanuvchilarga yoqmadi.*
- *Foydalanuvchi interfeysi juda user-friendly emas.*

Bu kabi aralashmalar o‘zbek adabiy tili me’yorlariga zid bo‘lishi bilan birga, rasmiy yozuvlarda terminologik noaniqliklar va stilistik notekisliklarni keltirib chiqaradi.

Asosiy muammolar

1. **Sinonimlik** – bir atama bir necha variantda qo‘llanilishi (masalan, *kiberxavfsizlik – axborot xavfsizligi*).
2. **Noto‘g‘ri tarjimalar** – texnik mazmun to‘g‘ri anglanmasdan berilgan holatlar (masalan, *interface*ning noto‘g‘ri izohlanishi).

3. **Aralashmalar** – inglizcha va o‘zbekcha shakllarning bir matn ichida o‘zboshimchalik bilan almashib qo‘llanishi (masalan, *“settinglarni sozlang”* kabi).

Bu muammolar terminlar bilan ishlovchi mutaxassislar, tarjimonlar, jurnalistlar hamda pedagoglar uchun jiddiy masalani tashkil qiladi. Shuning uchun IT terminlarini yagona tamoyillar asosida standartlashtirish, ularni kontekstual va izohli tahlil qilish zarur bo‘lib qolmoqda.

Xulosa va tavsiyalar

Axborot texnologiyalari sohasining jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan yangi terminlarning o‘zbek tiliga moslashtirilishi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, inglizcha terminlarning o‘zbek tilidagi amaliy qo‘llanilishi bir xil emas — darsliklar, rasmiy hujjatlar va ommaviy axborot vositalarida terminlarning sinonim shakllarda, noto‘g‘ri yoki aralash tarzda qo‘llanilishi kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud muammolar quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- terminlar tarjimasida yagona yondashuvning mavjud emasligi;
- ba’zi atamalarning semantik mazmuni to‘liq anglanmasdan tarjima qilinishi;
- o‘zbek tilidagi muqobillar yetarlicha shakllanmaganligi sababli xorijiy shakllarning aralash qo‘llanilishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **tavsiyalar**ni ilgari surish mumkin:

1. **Terminlarni standartlashtirish bo‘yicha lug‘at va qo‘llanmalarni yangilash** – davlat miqyosida tasdiqlangan IT terminologiyasi lug‘atlarining zamonaviylashtirilishi va keng ommaga yetkazilishi zarur.
2. **Darslik va rasmiy hujjatlarda yagona terminlar tizimini joriy etish** – har bir termin uchun tan olingan yagona o‘zbekcha variant tavsiya qilinib, rasmiy manbalarda aynan shu shaklda qo‘llanishi ta’minlanishi lozim.
3. **Jurnalistlar va tarjimonlar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish** – OAVda ishlatiladigan terminlar o‘zbek adabiy tili me’yorlariga mos tarzda yozilishi va til madaniyatiga rioya qilinishi kerak.
4. **Talim jarayonida zamonaviy va tushunarli terminlardan foydalanish** – o‘quvchilarning IT atamalarini to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri ishlatishlari uchun aniq, izchil va ilmiy asoslangan ta’limiy materiallar zarur.

Yakuniy xulosa shuki, axborot texnologiyalari terminlarini o‘zbek tiliga moslashtirish faqatgina tarjima bilan emas, balki ularning kontekstda to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlaydigan lingvistik, pedagogik va madaniy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmadaliyeva, M. (2021). *Axborot texnologiyalariga oid terminlarning tarjimasi va ularning o‘zbek tilidagi moslamalari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Karimov, A. & Jo‘rayev, S. (2020). *Zamonaviy texnologik terminlarning tarjima nazariyasi*. Samarqand: Ilm Ziyo.
3. Vahobov, U. (2018). *Inglizcha-o‘zbekcha axborot texnologiyalari atamalari lug‘ati*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. New York: Prentice Hall.
5. Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.
6. Nurmonov, A. (2019). “Terminologiyaning nazariy asoslari va tarjimada qo‘llanilishi”. *Filologiya masalalari* jurnali, №2, 112–117.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi PQ–4749-son qarori. *Axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
8. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat tili haqida qonun (o‘zgartirilgan tahrir). 2019-yil 21-oktabr.
10. Alimova, N. (2022). “Ingliz tilidan o‘zbek tiliga termin tarjimasida muammolar”. *Til va adabiyot ta’limi* jurnali, №1, 65–70.
11. M.T. Azimdjonova, M.T Murodova, M.Pazilov *“Informatika va axborot texnologiyalari.” Toshkent 2013*

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IJTIMOIY QATLAMLAR BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

Kamolov Dilshodbek Baxtiyor o‘g‘li,
“University of Business and Science”
ta’lim tashkiloti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birliklarning tarkibiy tuzilishiga bag‘ishlangan bo‘lib, maqolada ikki tildagi frazeologik birliklarning tuzilish, o’zshash va farqli tomonlari to‘g‘risidagi fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologizm, frazeologik birlik, pragmatika, ibora.

Kirish

Jahon tilshunosligida frazeologik birliklar davrlar o‘tsa ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda takomillashib borayotgan til va madaniyat, til hamda jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanishlar ham aynan frazeologik birliklarning mavjud aspektlarini turli tizimli tillarda keng va tizimli tahlil qilinishini taqozo etmoqda.

Dunyo tilshunosligida turli xalqlar madaniyatini til bilan bog‘liq holda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning tobora ortib borishi ham shu o‘rinda frazeologik birliklar sotsiolingivistik jihatlarini tizimli tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi. Hozirgi kunga qadar frazeologik birliklar bo‘yicha jahon va o‘zbek

tilshunosligida ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ushbu mavzu ingliz va o‘zbek tillarida yaxlit tizim shaklida qiyosiy aspektda chuqur o‘rganilmaganligi frazeologik birliklarning sotsiolingvistik jihatlarini ushbu bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillar doirasida chog‘ishtirma tadqiq etilishi lozimligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning ta’rifi va tasnifi, struktural-semantik jihatlari, atamalar tizimi va ularning unifikatsiyasi masalalari ma’lum darajada tadqiq qilingan bo‘lsa-da, ularning sotsiolingivistik xususiyatlari to‘liq o‘rganilmagan, ularning sodda yoyiq va an’anaviy so‘z birikmalaridan farqi, sintaksis tizimidagi maqomi, muloqotda asosiy, yaxlit til birliklari – belgilari sifatida keng qo‘llanilishining lisoniy va nolisoniy omillari ochib berilmagan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur tadqiqotda ilk bor turli tizimdagi tillarda frazeologik birliklarning yuqorida zikr etilgan dolzarb muammolari sotisolingivistik kesimda tadqiq qilinishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi”[126] degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu fikrlarning natijasi o‘laroq, tilning umumiy va xususiy masalalari yangicha tarzda o‘z talqinini topmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu kunga qadar ko‘plab tilshunoslar, jumladan, ingliz tilshunoslari X.Poutsma, R.Kverk, R.A.Klouz, M.Xollidey, D.Kristal, D.Biber, rus tilshunoslari L.L.Iofik, G.F.Gavrilova, G.F.Kalashnikova, N.A.Kobrina va Ya.N.Korneyeva, G.N.Manayenko, N.X.Shakirova, o‘zbek tilshunoslari M.A.Asqarova, G‘.A.Abdurahmonov, G‘.M.Xoshimov, R.R.Sayfullayeva, M.A.Abduvaliyev va boshqalar frazeologik birliklar bo‘yicha muhim izlanishlar olib borganlar, ularda qo‘shma gaplar nazariyasi asoslari yaratilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda frazeologik birliklarning nazariy asoslari yoritilgan, shu jumladan ularning tavsifi, ta’rifi, tasnifi va turlari ishlab chiqilgan, shuningdek, ularning struktural-semantik va kommunikativ-funksional jihatlari ham tizimli tahlil qilingan. Lekin mazkur izlanishlar asosan tilshunoslikning an’anaviy – lingvotsentrik yo‘nalishida amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarda frazeologik birliklarning sotsiolingivistik jihatlari, gender va yosh omiliga bog‘liq xususiyatlari, kommunikativ ahamiyati va zamonaviy nutqdagi roli e’tibordan chetda qolgan. Ushbu tadqiqot ishimizda frazeologik birliklarning sotsiolingivistik jihatlarini tadqiq etish, tasniflash va ular bilan bog‘liq bir qator tarjimaga oid muammolarga yangicha yechim berish ko‘zda tutiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

[126] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan: «Bizning buyuk va dono xalqimiz o‘z tarixida sharafli sahifalarni ochishga qodir» // «Xalq so‘zi» gazetasi, 25.01.2020. №19 (7490).

Tadqiqotda qiyosiy-chog‘ishtirma, tipologik, semantik komponentlarga ajratib tahlil qilish, zidlashtirib tahlil qilish, modellashtirish (qoliplashtirish), statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lishi bilan birga, u jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini aks ettiruvchi vositalardan biri hamdir. Frazeologik birliklar nutqning ajralmas qismi bo‘lib, ular turli ijtimoiy qatlamlarga mansub kishilar tomonidan turlicha qo‘llaniladi. Bu birliklar ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xosligini, hayot tarzini, kasbiy va ijtimoiy faolligini aks ettiradi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning ijtimoiy tabaqalanishiga oid masalalar atroflicha yoritilib, ularning kommunikativ va pragmatik funksiyalari o‘rganiladi.

Frazeologizmlar jamiyatning turli qatlamlari tomonidan turlicha qo‘llaniladi. Ular quyidagi asosiy guruhlarga ajratilishi mumkin:

1. Frazeologik birliklarning ijtimoiy tabaqalanishi:

Adabiy frazeologizmlar: Adabiy frazeologik birliklar rasmiy, badiiy va ilmiy nutqda keng qo‘llanadi. Ular umumxalq nutqida barqaror shaklga ega bo‘lib, adabiy til normalariga mos keladi. Masalan:

“Oltin yurakli inson” – saxovatli, mehribon odam;

“Ko‘z-quloq bo‘lmoq” – kuzatib borish, e’tiborli bo‘lish;

“Ko‘ngil osmoni yorishmoq” – kayfiyat yaxshilanishi.

Dialektal frazeologizmlar: Muayyan hududga xos bo‘lgan iboralar va frazeologizmlar shu hudud aholisi tomonidan ishlatiladi. Masalan:

“Oyoq-qo‘li yengil” (Farg‘ona lahjasi) – omadli odam;

“G‘o‘r bo‘lib yurmoq” (Samarqand lahjasi) – tajribasiz bo‘lish;

“Pichoqning suvrini olib qo‘yish” (Xorazm lahjasi) – tez harakat qilish.

Jargon va argot frazeologizmlari: Jargon va argot so‘zlar ma’lum kasb yoki ijtimoiy guruh vakillari tomonidan ishlatiladigan norasmiy, ba’zan esa yashirin tildagi frazeologizmlardir. Masalan:

“Qog‘oz qurtlari” – ko‘p kitob o‘qiydigan odamlar;

“Shapka olish” – imtihonda ko‘chirish;

“Boshni og‘ritmoq” – keraksiz gaplarni gapirish.

Kasbiy frazeologizmlar: Turli kasb egalari o‘z sohasi doirasida ishlatadigan maxsus iboralar mavjud. Masalan:

Qurilish sohasida: “devorni qulog‘idan ushlash” (devorni noto‘g‘ri qurish);

Tibbiyot sohasida: “bemorni stolga yotqizish” (jarrohlik amaliyoti qilish);

Huquqshunoslikda: “qog‘ozbozlik qilish” (keraksiz hujjatlar bilan shug‘ullanish).

Ko‘cha va so‘zlashuv frazeologizmlari: Bu turdagi frazeologizmlar norasmiy muloqotda uchraydi va tez o‘zgarib turadi. Masalan:

“Pulni shamol uchirdi” – pul yo‘qotish;

“Quloq tutmoq” – e’tibor berish;

“Yaxshi niyat – yarim davlat” – yaxshi niyat qilish muhimligi.

2. Frazeologizmlarning ijtimoiy funksiyasi:

Frazeologik birliklar ijtimoiy tabaqalanish jarayonida turli vazifalarni bajaradi:

Identifikatsiya – ma’lum bir guruhga mansublikni belgilaydi;

Emotsional ifoda – nutqni yanada ta’sirchan va boy qiladi;

Yashirin ma’no – ba’zi jargon va argotlar faqat shu guruh uchun tushunarli bo‘ladi;

Kultural merosni aks ettirish – milliy madaniyatni saqlashga xizmat qiladi.

3. Frazeologizmlarning tarqalish omillari:

Frazeologik birliklarning jamiyatda tarqalishi quyidagi omillar bilan bog‘liq:

Omma orasida mashhurligi – keng qo‘llanadigan iboralar tezroq tarqaladi;

Ommaviy axborot vositalari – televideniye, radio va internet orqali yangi iboralar keng ommaga yetkaziladi;

Texnologik taraqqiyot – yangi kasblar va sohalar yangi frazeologizmlarni yaratishga sabab bo‘ladi.

Frazeologik birliklarning ijtimoiy qatlamlar bo‘yicha taqsimlanishi jamiyatdagi nutqiy o‘ziga xosliklarni ochib beradi. Ularning ishlatilish doirasi sotsiolingvistika bilan bog‘liq bo‘lib, bu hodisani chuqur o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Keyingi tadqiqotlarda frazeologik birliklarning yosh, jins va kasbiy guruhlar bo‘yicha yanada kengroq tahlil qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til , tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o‘rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi. Lingvokulturologiya o‘rganish obyektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obyektiga bo‘lgan yondoshuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati

bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi.

XULOSALAR

Til madaniyat xazinasi, sandig‘i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, forklor va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. Til - madaniyat tashuvchisi bo‘lib, ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o‘zlashtiradi. Til - madaniyatning quroli, vositasidir. u xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan: «Bizning buyuk va dono xalqimiz o‘z tarixida sharafli sahifalarni ochishga qodir» // «Xalq so‘zi» gazetasi, 25.01.2020. №19 (7490).
2. Abdurahmonov G‘.A. O‘zbek tili grammatikasi. II tom Sintaksis. – T.: Fan, 1976. – 560 b.
3. Abduvaliyev M.A. Simple and complex sentence paradigms in English and Uzbek linguistics. – Andijon: Step by step print, 2022. – 90 p.
4. Asqarova M.A. Hozirgi o‘zbek tilida ergashish formalari va ergash gaplar. – T.: Fan, 1966. – 345 b.
5. Sayfullayeva R.R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning substansional (zotiy) talqini. – T.: Fan, 2007. – 256 b.
6. Poutsma H.A. Grammar of late modern English for the use of continental especially Dutch students. Section II. Composite Sentence. – Groningen, 1905. – 494 p.
7. Quirk R., Greenbaum S. A concise grammar of contemporary English. – New York: 1973. – 178 p.
8. Калашникова Г.Ф. Синтаксис многокомпонентного сложного предложения в системе филологического образования в вузе и в школе: Учеб.-метод. пособие. – Харьков: ХГПУ, 1998. – 296 с.
9. Кобрина Н.А, Корнеева Е.А. и др. Морфология. Синтаксис. – Петербург: Союз, 1999. – 329 с.
10. Манаенко Г.Н. Информационно-дискурсивный подход к анализу осложненного предложения. – Ставрополь: Изд-во СГПИ, 2006. – 263 с.
11. Шакирова Н.Х. Структурно-семантические модели многочленных смешанных сложных предложений в современном татарском литературном языке. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Тобольск, 2006. – 54 с.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NAZARIY ASOSLARI

I.Qodirova
University of Business and

Science magistranti.

Annotation: This thesis explores the theoretical foundations of phraseological units, focusing on their lexical and grammatical features, as well as their role in linguistics. The study analyzes the formation, semantic structure, and stylistic functions of phraseologisms. Particular attention is given to types of phraseological units in the Uzbek language and the challenges of their translation.

Keywords:phraseological unit, semantics, stylistics, linguistics, translation, fixed expression.

Hozirgi davrda jahon tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi, chunki turg‘un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda globallashuv davrida jahon xalqlari madaniyati va adabiyotining turli tillarga tarjima qilinishi, shu orqali o‘sha xalqlarning tillari va madaniyati borasida axborot almashinuvchi sodir bo‘lamoqda, boshqa xalqlari madaniyati haqidagi axborotlarni o‘zga xalq o‘quvchilariga yetkazishda badiiy tarjimaning ahamiyat beqiyosdir. Badiiy tarjima orqali badiiy adabiyotda mujassam bo‘ladigan xalqlarning madaniyati, an’ana va qadriyatlari, turmush tarzi, ularning xarakteri va boshqa jihatlar xorijiy til o‘quvchilariga yetkaziladi. Ular ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an’ana va marosimlar asosida shakllangan. Til nafaqat haqiqatni ifodalaydi, balki uning qanday talqin qilinishi bilan ham shug‘ullanadi, natijada odamlar yashaydigan noyob haqiqat paydo bo‘ladi. Til turli xil maqsadlar. Bu ko‘pincha odamlar ifoda etadigan asosiy vosita sifatida tanilgan o‘zlari va bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Til to‘plash uchun ishlatiladi va madaniy muhim moddiy saqlab.

Turli tilshunoslar tilni quyidagicha atashgan “obyektiv haqiqat uyi” va biz nafaqat chuqur o‘rganishimiz mumkin bo‘lgan vositalar zamonaviy millatchilik, shuningdek, qadimgi odamlarning dunyoga bo‘lgan qarashlari va madaniyat. Hikmatlar, so‘zlar, frazeologik birliklar, metafora va madaniy vakolatxonalar bir necha yil oldin sodir bo‘lgan va omon qolgan voqealarni aks ettiradi asrlar davomida. Ular knning muhim manbalari sifatida qaraladi. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo‘lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o‘tmishi bilan bugungi hayotini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o‘rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Ko‘p asrlar davomida til va madaniyat bir tizimning ajralmas elementlari – dunyoning umumiy lingvistik manzarasi bo‘lib kelgan. Bundan tashqari, turli madaniyat vakillari atrofdagi voqelikni o‘zlarining stereotiplari, ramzlari, standartlariga muvofiq idrok etadilar va talqin qiladilar. Bu tilshunoslikning lingvokulturologiya kabi sohasining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Telia V.N. tilshunoslikning ushbu bo‘limini ikki xil semiotik tizimni (til va madaniyat) o‘zaro bog‘laydigan va ularning o‘zaro ta’sirini tavsiflovchi madaniy ma’no orqali ko‘rib chiqadi. Frazeologik birliklar madaniyat haqidagi bilimlarni to‘playdi va xalqning madaniy va tarixiy tajribasini va har qanday tilning rivojlanish xususiyatlarini eng yorqin aks ettiradi. Frazeologik birliklar ajdodlarning lingvistik merosining bir turi bo‘lib, qisqa so‘zda axloqiy qonun va sog‘lom fikrni o‘z ichiga oladi. Lingvokulturologiya uchun frazeologik birliklarning lingvistik materialining o‘ziga xosligi ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq:

1. Frazeologik ma’noning yaxlitligi. Frazeologiya-bu to‘liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma’noga ega barqaror birikma xisoblanadi. Frazeologik aylanmaning sobit tuzilishi uning lingvistik idiomatikligini va frazeologik birlik ma’nosini uning tarkibiy qismlarining to‘g‘ri ma’nolaridan ajratib bo‘lmasligini yaratadi. Muayyan madaniyatga xos bo‘lgan muayyan munosabat, urf-odatlar va an’analar va frazeologik aylanmada aks ettirilgan avloddan-avlodga o‘tadi, bu esa boshqa tilga so‘zma-so‘z tarjima qilishga imkon bermasligini ko‘ramiz.

Tarjimon ma’noni to’liq yetkazishga harakat qilgan va o’xshatishni ham aynan keltirgan, lekin ingliz tilida “crown flower” degan boshqa gul nomi bor lekin aynan gultojiho’roz o’simligi fanda “amarant” ingliz tilida esa “amaranth” deb ataladi. “Crown flower” esa mayga qo’shilishi haqida ham uni qip-qizil qilishi haqida ham ma’lumotlar yo’q, chunki uning guli qizil emas. Bunda tarjimon “gultojixo’roz” so’zidagi “toj” so’ziga urg’u berganini taxmin qilsak bo’ladi.

[136] Dilnavoz Yusupova, “G‘azallar sharhi” – Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi : 27-jild, 4-bet. Toshkent – 2022.





3. Chok etib el ko'nglin, etting g'unchadek ko'nglum girih,
Ochting el ko'nglun agarchi bizni diltang aylading.

Girih-tugun, chigal
Diltang-siqilgan, g'amli
Nasriy bayon:
El ko'nglini chok etib, g'unchadek ko'nglumga tugun solding, elning ko'nglini ochding, ammo bizning qalbimizni qayg'uga to'ldirding.
Bu baytda shoir chok etmoq va tugun solmoq, ko'nglini ochmoq va qayg'uga to'ldirmoq kabi bir-biriga zid iboralardan foydalaninb tazod she'riy san'atidan mohirona foydalangan; hamda tashbeh she'riy san'atidan foydalanilganini ko'ngilni g'unchaga o'xshatganidan ko'rishimiz mumkin.

By breaking folks' soul, tied my little soul like a bud,
Folks' souls you opened though made our souls so bad.
Ushbu baytda ma'no aynan saqlangan holda tarjima qilishga erishilgan. "Folks' soul" so'zining sinonimlaridan foydalanmasdan takror ishlatilishi asliyatdagi ohangdorlikni saqlash maqsadini namoyon etgandek bo'ladi, chunki g'azaldagi "el ko'ngli" so'z birikmasi ham qayta-qayta qo'llanilgan va bu g'azalga o'zgacha ohang bag'ishlagan.

4. Buki tashbih etting, ey ko'z, hoki poyin surmag'a,
Bilki javharni qaro tufroqqa hamsang aylading.
Hamsang-teng
Nasriy bayon:
Ey ko'z, uning hoki poyini surmaga o'xshatding, bilgilki, bu tashbihing bilan gavharni qora tuproqqa tenglashtirding.
Bunda shoir ko'zdan shikoyat qiladi, chunki oshiq gavhar deb bilgan yorning hoki poyini ko'z surmaga ya'ni qora tuproqqa tenglashtirgani ga chidolmaydi. Lekin bu yerda yana bir mohirlik borki, mumtoz she'riyatdan ma'lumki, ko'z uchun surma juda qadrli ashyodir va u doim surmaga intilib yuradi, lekin oshiqqa bu xuddi yorning gavharga teng bo'lgan "hok poyi"ni kamsitgandek tuyuladi. Ushbu

o’xshatishlarni ikkala tomondan olib qarasak ham juda go’zal ma’no kasb etgan.Bu bayt inversiya (tashbih etting hoki poyin surmag’a); tashbeh (hoki poyin surmag’a); oksimoron (javharni qaro tufroqqa hamsang aylading) ; tashxis (ko’z jonlantirilgant) kabi she’riy san’atlarga boyligi bilan o’quvchini o’ziga jalb qiladi.

Hey eye, her steps’ soil to surma you did resemble,
Do know, to black clay made you equal the pearl.

Bu o’rinda ham tarjimon Navoiy qanday san’atlardan foydalangan bo’lsa barchasidan unumli foydalanadi: inversiya- you did resemble, tashbeh-her steps’ soil to surma, to black clay made equal to pearl.

5. Ishq sirri mahmilin ko’k pili chekmas, ey qazo,
Gar hilolidin kajak, xurshididin zang aylading.

Mahmil-kajava, fil va tuya ustiga o’rnatadigan o’rindiq
Pil-fil
Kajak-folbinlar tayoqchasi, ilgak
Nasriy bayon:
Ey taqdir, agar yangi oydan ilgak, quyoshdan qo’ng’iroq yasasang ham,ishq sirrining yukini osmon fili ko’tarolmaydi.
Bu baytda ko’k fili obrazining keltirilishi o’sha davr odamlarining olam haqidagi tushunchasiga ishora qilingan- ya’ni yerni toshbaqa ustidagi 3 ta fil ko’tarib turadi degan farazning mavjudligiga murojaat qilingan. Ya’ni shoir ishq siri joylashgan o’rindiqni xattoki bahaybat ko’k fili ham ko’tarolmaydi. She’riy san’atlardan Metafora (oy-ilgak, quyosh-qo’ng’iroq(shoir bunda karvondagi tuyalarning bo’ynidagi qo’ng’iroqlarini nazarda tutgan)), Mubolag’a (ishq siri shunchalik og’irki uni hatto osmon fili ham ko’tarolmaydi) dan mohirona foydalanilgan.

Load of love’s secret heaven’s elephant can’t lift, hey fate,
Even though a hook of moon, a bell of sun you’ve made.

Tarjimon bu baytni ham mukammal tarjima qila olgan - aynan mubolag’a va metafora ham saqlab qolingan.
Faqat “hilol” so’zining aynan tarjimasi keltirilmagan, chunki ingliz tilida yangi chiqqan oy – crescent deyiladi va faqat unigina ilgakka o’xsatish mumkin, “moon” ni “hook”(ilgak) deb berilishi ma’noni biroz g’alizlantiradi.
Ushbu holatda mutarjim shaklni moslash ya’ni qofiya strukturasiga to’g’rilash uchun ”moon” so’zidan foydalangan deb taxmin qilish mumkin.

6. Ne qatiq vodiy ekan, yo Rab, sanga ey ishqkim,
Aql sarkash tavsanin q’o’yg’ach qadam lang aylading.

Tavsan-sarkash ot
Lang-cho’loq

Nasriy bayon: Iloho sen tomon boradigan vodiy yo'li qanchalik og'ir! Ey ishq, aqlning oti bu tomonga qadam tashlagan zahoti oyog'i cho'loq bo'lib qoldi.
Bu o'rinda Navoiy Talmeh san'atidan foydalangan, ya'ni "Layli va Majnun" asaridagi ishq vodiysini eslatib o'tgan. Mubolag'a(ishq vodiysining qattiqligi shu darajadaki eng sarkash ot ham qadam qo'yishi bilanoq cho'loq bo'lishi), inversiya (qo'yg'ach qadam) kabi sifatlari baytning qimmatini oshiradi.

Oh Allah, how difficult is the road leading to your fame,
As soon as the mind's steed makes a step to you , it'll lame.

Tarjimon mohirlik bilan "sarkash tavsan" so'zini "steed" deb o'giradi, chunki bu so'z aynan poetik ahamiyatga ega va ma'lum maqsad uchun ishlatiladigan maxsus afzalligi bor otlarga ishlatiladi. Mutarjim "horse" so'zini ishlatishdan qochib, poetik zeb beruvchi so'zga murojaat qiladi va bu tarjimonning mahoratini yaqqol ochib beradi.

7. Qil Navoiyni vujudi nangidan, yo Rab, xalos,
Chun vujudin barcha olam ahlig'a nang aylading.
Nang-or, uyat, nomus
Nasriy bayon:
Yo Rabbim, Navoiyni yashamoq nomusidan xalos et! Negaki uning borlig'I olam ahli uchun uyat bo'lib qoldi. Ya'ni bu savdo ishq dardidan begona olam ahli orasida sharmsor ayladi.
Bu baytda Radd san'atining Radd-ul hashv ilal-ibtido turini kuzatish mumkin, ya'ni 1 chi misraning o'rtasida kelgan so'z 2 chi misraning boshida qaytarilgan. Vujudning butun olamga uyat aylangani Mubolag'aning ig'roq turiga misol bo'lishi mumkin(tasavvur qilish mumkin, lekin amalga oshmaydigan yolg'on).

Oh Allah, get Navoiy rid of shame to live worthless,
For this existence is shame for the whole world, Bless.

Bu baytda tarjimon oshiq "vujudi nang"ini- to live worthless deb qiyoslaydi, ya'niki ishqqa begona olamda yashash xuddi foydasiz yashashdek ko'rinadi.
"Bless"- shoirni nimani nazarda tutayotganini sezgandek, hayotini olish unga jazo emas mukofotdek bo'ladi deb, duo qil degan ma'noda shu so'zni qo'shgan deb o'ylasak bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida tahlil qilganimizdek, Alisher Navoiy g'azallarini ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida shakl va mazmun birligini ta'minlashda ko'plab qiyinchiliklar va muammolar kelib chiqadi. Xususan, g'azallarning poetik tuzilishi, ritmi va san'atkorda aks etgan hissiyotlar tarjima jarayonida yo'qolish xavfi mavjud, chunki har bir tilning leksik va sintaktik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi.

Bu muammolarni hal qilish uchun tarjimonlar Navoiy asarlarining adabiyotshunos hamda navoiyshunos olimlar tomonidan yaratilgan nasriy bayoni va tabdilidan foydalansalar yuqoridagi kabi muammolar - asl ma’nodan uzoqlashib ketish va anglashilmovchiliklar ma’lum ma’noda o’z yechimini topadi.

Shakl va mazmun birligini ta'minlashga qaratilgan ushbu yondashuv, ya’ni nasriy bayon va tabdildan foydalanish tarjimonlarga Navoiy g'azallarini ingliz tilida asl asarning ma'nosi va estetik ahamiyatini saqlab, yangi o'quvchilarga taqdim etishda muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Bu jarayon, o'z navbatida, Navoiy ijodining global madaniyatdagi o'rnini mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 4 jildlik. T.: “Fan”, 1983-1985.
2. Dilnavoz Yusupova, “G‘azallar sharhi– Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi”, 27-jild. Toshkent – 2022.
3. Edward S.Said, "Orientalism", USA: Pantheon Books, 1978.
4. Gulnora Xudoyberdiyeva,"Alisher Navoiy asarlarini zamonaviy o'zbek tiliga o'girish",Toshkent, 2005 yil
5. Ismatulla Xudoyberdiyev, "Navoiyning satrlari", "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Adabiyot va san'at instituti", 1989
6. Jahon adabiyoti jurnali, www.ziyouz.com.kutubxonasi, 2018-9 son
7. Rita Felski ,"The Limits of Critique" , University of Chicago Press, October 20, 2015
8. Roman Jakobson, "On Linguistic Aspects of Translation", Cambridge: Massachusetts, 1959.
9. Turkiy adabiyot durdonalari: Alisher Navoiy. “Xazoyin ul-maoniy: G’aroyib-us sig’ar”, “O’zbekiston”, Toshkent; 2022.
10. Walter Benjamin, ”Task of the translator” -London:Routledge,2000.

LINGUOCULTUROLOGICAL AND LINGUOPRAGMATIC ISSUES IN TRANSLATING FOOD VOCABULARY IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY AND SCIENTIFIC TEXTS

Hojiyeva Mehrangiz G'ayrat qizi
ESP teacher, Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino, Bukhara, Uzbekistan
hojiyeva.mehrangiz@bsmi.uz
hojiyevamehrangiz@gmail.com

Abstract. This article examines the linguoculturological and linguopragmatic issues involved in translating food-related vocabulary between Uzbek and English in both literary and scientific texts. Food vocabulary carries rich cultural connotations and pragmatic functions that can pose significant challenges in cross-cultural translation. The study explores how idioms, symbolic expressions, and culturally embedded culinary terms function in their native contexts and what shifts occur during translation. By drawing on examples from literary works, idiomatic expressions, and real-life usage, the article highlights how food language encodes national identity, cultural values, and worldview. The findings emphasize the importance of culturally aware and pragmatically sensitive approaches in translation practice, particularly when working with culturally loaded lexicon.

Keywords: Linguoculturology, food vocabulary, Uzbek language, English language, cultural values, idioms, cultural identity

Introduction. Food language, from basic lexical units to metaphorical expressions, offers a unique lens through which to explore how cultural concepts are encoded in linguistic forms. **Moreover, in the field of translation, food-related expressions represent one of the most sensitive domains where semantic accuracy must be balanced with cultural and pragmatic equivalence. This study aims to explore not only the cultural semantics of food vocabulary but also the difficulties that arise when such terms are translated between Uzbek and English in both literary and scientific contexts.**

Literature Review. Previous studies have highlighted the linguistic encoding of cultural practices through food-related lexicons. Wierzbicka (1997) emphasized the importance of culturally salient concepts such as "bread", "meat", and "salt" in shaping conceptual universes. Stepanov (2015) further examined the symbolic nature of food in language, noting that culinary references often bear strong associative meanings related to heritage, morality, and community. Expanding on this, Lakoff and Johnson (1980) argued that metaphorical conceptualizations rooted in bodily experience—such as "a sweet deal" or "biting off more than one can chew"—demonstrate how food is not only a literal necessity but also a cognitive foundation for abstract reasoning. These metaphors link physiological

experience to socio-cultural narratives, showing that language users unconsciously project cultural values onto food-related expressions.

In the context of Central Asian linguocultural studies, several scholars have examined the role of food-related idioms in conveying cultural values. Tagayeva (2023) provides a comparative analysis of English and Uzbek culinary idioms, highlighting their cultural significance. Radjabova (2024) delves into the symbolic roles of food in Uzbek proverbs, emphasizing their function in imparting moral lessons and reinforcing social cohesion. Uralova (2024) explores the interplay between language and culture through gastronomic phraseology in Uzbek, demonstrating how these expressions reflect societal norms and traditions. Additionally, Vakhobova and Akhmadjonova (2023) conduct a comparative study of food-related proverbs in English and Uzbek, revealing insights into national mentalities and cultural customs. Saidakbarova (2022) discusses the significance of gastronomic idioms in reflecting ethnic and cultural identities, analyzing expressions in both languages that encapsulate historical and religious influences.
Despite these contributions, comparative analyses between Uzbek and English food lexicons remain underexplored, especially from a linguoculturological perspective. This study seeks to fill that gap by offering a comparative framework to interpret cultural meaning embedded in food-related language.

Methodology. This study employs a qualitative, descriptive, and comparative methodology rooted in linguoculturology and translation studies. By examining a diverse range of sources—including food-related vocabulary, idiomatic expressions, literary texts, proverbs, and scientific registers—from both Uzbek and English, the research uncovers cultural meanings and translation challenges embedded in food language**. Particular attention is paid to how meaning shifts or is preserved during translation, and what pragmatic or cultural losses may occur if context is not fully understood.**

Analysis. Uzbek Food Vocabulary and Cultural Values
Translating food-related vocabulary from Uzbek to English (and vice versa) often requires more than a literal rendering. For example, the Uzbek expression *"tuz yegan joyingda tuzga sodiq bo'l"* may lose its ethical and communal implications if rendered directly as *"be loyal to where you ate salt"*—which may sound obscure to English readers. A linguopragmatic approach demands not only semantic equivalence but also the retention of cultural context, often requiring adaptation, explanatory strategies, or footnotes in literary texts and simplified clarifications in scientific ones. Conversely, English idioms such as *"bringing home the bacon"* may need careful interpretation into Uzbek to avoid literal confusion or cultural mismatch.
In Uzbek culture, certain foods hold a sacred status. For example, *non* (bread) is more than a dietary staple—it symbolizes life, hospitality, and divine blessing. Expressions such as *non sindirish* (breaking bread) reflect deep communal values

and reverence for food as a gift from the divine. The phrase *tuz-nasiba* (salt and destiny) intertwines nourishment with fate, implying that sharing food is a spiritually significant act. The *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* (2023) defines *tuz-nasiba* as follows: "Go‘yo taqdirda belgilangan rizqi ro‘z, nasiba" (“As if the sustenance and provision determined by fate”). An illustrative example comes from H. Sultonov’s *Onamning yurti*: “Umri uzoq ekanmi, tuz-nasiba tortibmi, bir oyoqda bo‘lsa hamki, qaytib keldi” (“Whether it was due to a long life or fate’s provision, he returned—even on one leg”).

Culinary traditions such as preparing “osh” (pilaf) for guests during weddings and funerals reinforce food’s role in maintaining social cohesion and celebrating life’s transitions. Proverbs like “Tuz yegan joyingda tuzga sodiq bo‘l” (“Be loyal to the place where you ate salt”) reflect a moral obligation tied to shared sustenance.

English Food Vocabulary and Cultural Values

In English, food metaphors frequently convey abstract concepts such as success, simplicity, or difficulty. Phrases like “bringing home the bacon” denote economic provision, while “a piece of cake” indicates ease. These idioms reflect an individualistic, goal-oriented worldview common in Anglo-American cultures.

Traditional food practices like *afternoon tea* symbolize refinement, ritual, and politeness—values associated with British social etiquette. Similarly, the metaphor *food for thought* highlights the epistemological link between sustenance and cognition, emphasizing food as a medium for intellectual and emotional reflection.

Cross-Cultural Comparisons

Conceptual Focus	Uzbek culture	English culture
Sacred Foods	Non, tuz	Bread (Biblical), bacon
Communal Values	Osh, non sindirish	tea parties, sunday roasts
Idioms	Tuz-nasiba, Tuz yegan joyingda tuzga sodiq bo‘l	Piece of cake, “butter someone up
Symbolism	Hospitality, destiny	Achievement, refinement

This comparative matrix shows that while both cultures use food language to articulate values, Uzbek expressions tend to emphasize collectivism and spiritual significance, whereas English idioms often prioritize individualism, achievement, and emotional nuance.

Discussion. In literary texts, translators must preserve emotional nuance, cultural identity, and metaphorical depth—often requiring creative solutions to convey food-related symbolism. In scientific texts, where precision and clarity are paramount, culturally rich terms may be substituted with neutral equivalents, though this may lead to the loss of deeper meaning. **Thus, linguopragmatic competence is essential to maintain the balance between cultural resonance and communicative function in both genres.**

Conclusion. The study affirms the potential of linguoculturology to reveal deep-seated cultural values embedded in everyday language and calls for further comparative studies across diverse linguistic traditions. **Moreover, the research demonstrates that successful translation of food-related language—particularly in literary and scientific texts—requires an interdisciplinary awareness of cultural semantics, pragmatic function, and genre-specific constraints. The article encourages future translators and linguists to approach food vocabulary not just as lexical items, but as carriers of cultural memory and social meaning.**

References

1. Radjabova, A. T. (2024). *Semantic parallelism in Uzbek food names and proverbs*. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 504–506. https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/2344
2. Saidakbarova, S. (2022). *Classification of English and Uzbek idioms depending on gastronomic codes*. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 51–55. https://www.researchgate.net/publication/361722248
3. Tagayeva, U. E. (2023). *A culinary journey through languages: Comparative linguistic analysis of food-related idioms in English and Uzbek languages*. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(5), 124–131. https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/444
4. Uralova, N. A. (2024). *Linguocultural study of gastronomic phraseology in the Uzbek language*. Next Scientists Conferences, 1(01), 218–220. https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/414
5. Vakhobova, D. F. kizi, & Akhmadjonova, S. (2023). *Linguocultural study of the term "food" in English and Uzbek languages*. Innovative Development in Educational Activities, 2(11), 217–223. https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1412
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
7. Stepanov, Y. (2015). *Constants: Dictionary of culture and language* (in Russian). Akademicheskiy Proyekt.
8. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press.
9. G'ayrat qizi, H. M. . (2025). From Idioms to Ingredients: Unveiling the Connection between Food Lexicon and National Identity in English and Uzbek. *International Journal of Formal Education*, *4*(2), 97–100. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/4496
10. Hojiyeva , M. . (2024). A COMPARATIVE STUDY OF FOOD LEXICON IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN THE CONTEXT OF CULTURAL IDENTITY AND GLOBALIZATION. Академические исследования в современной науке, 3(34), 76–81. извлечено от http://econferences.ru/index.php/arims/article/view/19645
11. qizi, H. M. G. (2024). Integrating English Teaching to Develop Professional Thinking in Medical Education. *Best Journal of Innovation in Science, Research*

and Development, 3(5), 377–386. Retrieved from https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2301

PRAGMATIK TARJIMA XUSUSIDA

Raxmatova Zumrad Avazxanovna
NamDCHTI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda badiiy matnlar tarjimasining ayrim pragmatik muammolari xususida fikr yuritiladi. Nemischa badiiy asarda ishlatilgan maxsus madaniy atama yoki ibora, o‘zbek tiliga tarjima qilganda, uning to‘g‘ri tushunilishi va o‘zbek madaniyatiga moslashtirilishi talab etiladi. Bu boraddagi pragmatik farqlarni ajratish uchun nemis tilidan misollar keltirish orqali tahlillar berilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy matn, tarjima, pragmatika, madaniy atama, ibora, tahlil.

Annotation: This study explores certain pragmatic issues in the translation of literary texts. When translating a specific cultural term or phrase from a German literary work into Uzbek, it is necessary to ensure its correct understanding and adaptation to Uzbek culture. To highlight these pragmatic differences, analyses are provided through examples from the German language.

Keywords: Literary text, translation, pragmatics, cultural term, phrase, analysis.

Badiiy matnlar tarjimasining pragmatik muammolari, asosan, badiiy matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni pragmatik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida nafaqat so‘zma-so‘z tarjima qilish, balki matnning ijtimoiy va madaniy kontekstini ham hisobga olish juda muhimdir. Nemis va o‘zbek adabiyoti tarjimasi misolida, bu jarayonda uchraydigan asosiy pragmatik muammolarni quyidagi jihatlar asosida tahlil qilish mumkin.

1. Kulturologik farqlar

Badiiy matnlar ko‘pincha madaniyatga xos atamalar, odatlar va kontekstual elementlar bilan to‘la bo‘ladi. Nemischa badiiy asarda ishlatilgan maxsus madaniy atama yoki ibora, o‘zbek tiliga tarjima qilganda, uning to‘g‘ri tushunilishi va o‘zbek madaniyatiga moslashtirilishi talab etiladi.

Masalan: Nemis adabiyotida mashhur bo‘lgan “Oktoberfest” so‘zi oddiygina “Oktabr festivali” deb tarjima qilinishi mumkin, ammo bu iboraning asl ma’nosi nemis madaniyatidagi an’anaviy pivo festivali ekanligini anglatadi. O‘zbek tilida bu tushuncha notanish bo‘lishi mumkin, shuning uchun tarjimon uni tushuntirish yoki muqobil ekvivalent yaratish yo‘llarini topishi kerak [1].

2. Semantik nuanslar

Pragmatik tarjima jarayonida matnning semantik ma’nosini saqlash va uni yangi tilga moslashtirish talab etiladi. Ba’zida badiiy asarlarda maxsus semantik nuanslar mavjud bo‘lib, ular tilning o‘ziga xosligi yoki o‘sha tilga xos san’atkorlik uslubi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Masalan: Nemis tilidagi “Ach du meine Güte!” iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “Oh, mening yaxshiligim!” degan ma’noni anglatadi. Lekin o‘zbek tilida bu ibora oddiy “Voy dod!” yoki “Xudoyim-ey!” shaklida berilishi kerak [2].

3. Pragmatik ma’no va kontekst

Tarjimada tilning pragmatik ko‘rsatkichlari – ya’ni kim, nima, qachon va qayerda gapirayotgani, kimga murojaat qilinayotgani, so‘zlar qanday maqsadda ishlatilganligi juda muhimdir.

Masalan: Nemis yozuvchisi Herman Hessening asarlarida falsafiy mulohazalar juda ko‘p uchraydi. Uning “Steppenwolf” romanidagi “Ich bin ein Teil von jener Kraft, die stets das Böse will und stets das Gute schafft” (“Men doimo yomonlikni istaydigan, lekin doimo yaxshilik yaratadigan kuchning bir qismiman”) iborasi tarjima qilinganda, original kontekst saqlanib qolishi kerak [3].

4. Metafora va figurativ ma’no

Badiiy matnlarda ko‘pincha metaforalar, taqqoslashlar va figurativ uslublar ishlatiladi. Nemischa asarda uchraydigan figurativ ifodalarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri o‘zgartirish, lekin original ma’nosini saqlash katta ahamiyatga ega.

Masalan: Nemis tilida “Mit einem Bein im Grab stehen” (“Bir oyoq qabrda turish”) iborasi mavjud. Agar bu iborani so‘zma-so‘z tarjima qilsak, o‘zbek o‘quvchilari uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Aslida bu ibora “O‘limga juda yaqin bo‘lish” degan ma’noni anglatadi. Tarjimon bu iborani “O‘lim bilan yuzma-yuz turish” deb o‘zgartirishi mumkin [4].

5. Ijtimoiy va emosional jihatlar

Badiiy asarlarni tarjima qilishda, o‘zaro muloqotda ishlatiladigan tilning emosional va ijtimoiy holatlarini saqlash ham katta ahamiyatga ega.

Masalan: Nemis tilida “Du spinnst!” iborasi so‘zma-so‘z “Sen ip yigiryapsan!” degan ma’noni anglatadi. Lekin aslida bu ibora o‘zbek tilida “Aqling joyidami?” yoki “Aqlingga sig‘maydi!” shaklida tarjima qilinishi kerak [5].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, badiiy matnlar tarjimasining pragmatik muammolari – bu til va madaniyatlararo farqlarni, semantik va pragmatik ma’nolarni saqlashni, madaniy xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladigan jarayon. Nemischa va o‘zbekcha asarlar tarjimasi misolida, tarjimonlar pragmatik nuqtai nazardan matnni eng yaxshi tarzda o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va qiziqarli qilishga harakat qilishlari kerak. Bu esa, tilning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini chuqur tushunishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (2011). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
2. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
3. Hesse, H. (1927). *Der Steppenwolf*. Fischer Verlag.
4. Snell-Hornby, M. (1995). *Translation Studies: An Integrated Approach*. John Benjamins.
5. Vinay, J. P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. John Benjamins.

TARIXIYLIKNI AKS ETTIRISHDA VAQTNI BILDIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR TARJIMASI XUSUSIDA

Salayeva Lolajon Sodiqovna
NamDCHTI 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarihiylikni va tarihiy davr ruhini tarjimada aks ettirish muammolari xususida fikr yuritiladi**.** Davr ruhini aks ettirishda vaqtni ifodalab keluvchi so‘z birliklarining tarjimada berilishi va tarjima usullari misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Tarixiylik, davr ruhi, tarjima, usul, ekvivalent, maxorat, adabiy til.

Ma’lumki, jamiyat hayotidagi har bir o‘zgarish tilda bevosita o‘z aksini topadi. Har bir xalqning tili shu xalqning tarixini, bosib o‘tgan iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga boy yo‘lini aks ettiruvchi vositadir.

Ilmda ta’kidlanishicha, moziyda yaratilgan asarlar davr tarixini o‘zida aks ettirish bilan birga, tabiiyki, tilning o‘sha davrdagi holatini ham aks ettiradi.

Klassik asarlarda qo‘llangan va hozirda eskirgan sɪzlar iatoridan joy olgan til birliklari etimologik jihatdan tahlil iilinsa, ularning katta iismi arab, fors, muIul tillaridan o‘zlashtirilganligi ma’lum bo‘ladi. Birgina “arabcha so’zlarning o’zlashtirishimizga sabab o’tmishda O’rta Osiyoda arablar uzoq davr mobaynida hukmronlik qilganliklari tufayli, bir tomondan o’zbek milliy madaniyati, adabiyoti va tilida ularning sezilarli ta’siri sailanib qoldi”[137].

Islom dinining turkiy xalqlar orasida keng tarqalishi hamda musulmon an’anasi, urf-odatining taraqqiy etishi bilan bog’liq holda bir qancha arab til birliklari tilimizda saqlanib kelmoqda.

Misol tariqasida turkiy xalqlarning qamariy oy, hijriy yil hisobidagi arab yilnomasidan foydalanganliklarini olishimiz mumkin. Vaqt o’lchovini ifodalovchi eski oy nomlari bilan hozirda tilimizda qo’llanilayotgan baynalmilal oy nomlari orasida ma’lum darajada farq bor. Shuningdek “Grigoryan kalendari bilan quyosh kalendari o’rtasidagi farq 11 kundan iboratdir. Grigoryan kalendari 365 kunni, Quyosh kalendari esa 354 kunni”[138] tashkil etadi.

Qadimda vaqt rlchovini bildirib kelgan bu kabi til vositalarining tilimizda tutgan o’rni haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba’zi manbalarda[139] ular tarixiy so’zlar qatoriga kiritiladi.

E.Qilichev esa tilimizdagi eskirgan leksikaning bu ko’rinishini arxaizmlar deb atar ekan, baynalmilal oy nomlarining tilimizga o’zlashtirilishi eski oy nomlarining iste’moldan chiqishiga sabab deb ko’rsatadi.[140] Biz olimning fikriga to’la qo’shilgan holda shuni qo’shimcha qilmoichimizki, klassik asar yaratilgan davr uchun odatiy bo’lgan, ammo hozirda tilimizning passiv qatlamidan o’rin olgan asliyatning haqiqiy tarixiy manba ekanligini ta’minlovchi bu kabi til birliklarining tarjimada me’yorini belgilash juda nozik masaladir. Bu o’rinda tarjimon bir

[137] G. Salomov. Adabiy an’ana va badiiy tarjima. T.: Fan. 1980. 157-bet.
[138] F. Xolmirzayev. Xotira uyg’onsa go’zaldir. T.: 2003. 56 bet.
[139] O’zbek tili leksikologiyasi.T.: Fan .1981.146-bet.

mamlakatda yashovchi hamda yagona bir tilda so'zlashuvchi xalq tilini ham sinxronik ham diaxronik jihatdan olib o'rganishi zarur bo'ladi. Chunki aynan bir xalq tilida passiv qatlamdan joy olgan til birliklari boshqa bir xalq tilida aktiv qo'llanishda bo'lishini hisobga olish shart.

Ma'lumki, asliyatda qo'llangan bu kabi til birliklari bilan tarjima tilidagi til birliklari o'rtasidagi farqlar tarjimondan asliyat tarjimasiga tarixiy yondashishni hamda tarixiy voqealar bayonini buzmay to'g'ri aks ettirishni talab qiladi.

Klassik adabiyot namunalarida vaqt o'lchovini bildiruvchi bu kabi til birliklari ko'plab qo'llanganligini hisobga olsak, ularni tarjimada berilishini o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Asliyat mualliflari har bir voqea va hodisani bo'lib o'tgan vaqtini tafsilotlarigacha aniq ko'rsatishga harakat qilganlar. Bu esa asliyatni tarixiy-adabiy manba sifatida qadrini yanada oshirishga xizmat qiladi. Asliyatga muqobil tarjima yaratishda vaqt o'lchovini bildiruvchi birliklar haqida to'xtalib, taniqli tarjimashunos olim A.V.Fyodorov "Asliyatdagi bir ma'noli so'zga turli kontekstlarda birday mos keladigan bir ma'noli so'zning to'g'ri kelishi amaliyotda juda kam"[141] deb aytar ekan, bunday moslik faiat ba'zi leksik birliklarga, ya'ni: crzlar, kalendar tushunchalarni anglatuvchi (oy nomlari, hafta kunlari) hamda qarindosh uruIchilikni bildiruvchi otlar, kishilik olmoshlariga taalluiligini ta'kidlaydi. Olimning fikriga qo'shilgan holda yana shuni qo'shimcha qilmoqchi edikki, kalendar tushunchalarini yoki vaqt o'lchovini anglatuvchi bunday leksik birliklar Grigoriyan yil hisobi qo'llangan asarlar tarjimasi ustida gap borganda, ularni o'girish yoki trasnkripsiya qilish ham aynan grigoriyan yil hisobida amalga oshirilganda bu tezis o'zini oqlaydi. Ammo, sharq hayoti tasvirlangan klassik asarlarda hijriy shamsiy-qamariy yil hisobi qo'llangan hollarda ularni zamonaviy tilga o'girish tarjimonlar uchun murakkabroq. Chunki, tarjimondan yana asliyat mansub halq hayotining ham diaxronik ham sinxronik holatini bilish, u tarjimasiga kirishgan asarning muvaffaqiyatli o'girilishini ta'minlaydi.

Klassik asar namunalaridan bizga ma'lumki tadqiqotimiz manbalari bo'lmish asarlar yaratilgan davrda ajdodlarimiz "hijriy-qamariy" hamda "hijriy-shamsiy" yil hisobidan foydalanganlar. Ular orasidagi farq nimada? "Hijriy-iamariy" yil oylarining hozirgi grigoriy (yilnoma) kalendaridan 10-12 kun qisqaligini va shu sababli oylarning surilib kelishi tarjimonlar oldida bir qadar mushkulliklarni keltirib chiqaradi. "Hijriy-shamsiy" yilning davomiyligi esa grigoriy kalendari kabi 365-366 kunni tashkil etadi va oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtida keladi.

Juyida misollar bilan bu kabi til birliklarning tarjimalarini cholishtirsak.

«*Tangri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyiining beshida tarix sakkiz yuz to'qison to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum*». (Bn. 5-bet).

[141] А. В. Федоров. Основы общей теории перевода. М.: Высшая школа. 1968. стр-159.

Tarjimasi: «Au mois de Dieu, Clyment et Misyricordieux. Au mois de ramazan de l'annye 899 [juin 1494] je devins roi dans le pays de Fergana a l'vge de douze ans» (Bn. p.33).

Asardan olingan ushbu parcha tarixiy voqea bo'lib o'tgan kuni, oyi, yilining aniq keltirilishi bilan katta qimmatga ega.

Otasining *Voqeanoma*sini o'qigan Gulbadanbegim ham *Humoyunnoma*ni yaratar ekan, *Boburnoma* uslubidan borib tarixiy voqealar kechmish joyi, vaqti haqida to'liq ma'lumot beradi. Quyida otasining taxtga o'tirishi voqeasini tilga olar ekan unga aniqlik kiritib hijriy 909 ramazonning beshida, 12 yoshida podshoh bo'ldi, Farg'onaning Andijonida uning nomiga xutba o'qildi deb yozadi. O'z ishiga ijodiy yondoshgan tarjimon bu gal muallif tomonidan keltirilgan *ramazonning beshida* ma'lumotini tarjimada to'la aks ettirgan.

«Dans sa douziime annye, il devint roi, et, le 5 ramadan 909 [10 juin 1494], le prfne fut prononcy en son nom a Andijon, capitale du pays du Farghona.» (Hn.p. 27).

Tarjimon ham muallif uslubini tarjimada aks ettirish davomida matnda *hijriy-qamariy* yil hisobidagi oyning nomini transkripsiya yo'li bilan saqlab qolib, matn bilan yonma-yon qavs ichida grigoriyan kalendari bo'yicha ham oy, ham yilni berib aynan to'g'ri ogirgan. Xuddi yuqoridagi misol kabi tarjimada tarixiy aniqlikni talab qiluvchi yana bir parchani o'rrib chiqsak:

Amir Temur Damashqni zabt etgandan so'ng, yetti yillik *yurish* nomi bilan tarixga kirgan yurishning hal qiluvchi janggi haqida shunday deydi: *«— Lashkarlar jam brlgandan keyin hijriy 804 yilining rajab oyida Ozarboyjondan chiqib, qaysarlarga qarshi jang qilish uchun yo'lga tushdim*». (Tt. 66-bet).

«Dis que je les eus rezus, le partis de l'Azerbapjane au mois de Ryjab, l'an de l'Hygire huit cent quatre pour la guerre a Kissar.» va izohi: J.C. 10 Avril 1402. Hygire 23 Ryjeb 804.

Ushbu keltirilgan misolda o'zbekcha matnni o'qigan kitobxon bu taxminan grigoriyqn kalendarining qaysi yili va oyiga to'g'ri kelarkin deb bosh qotirsa, fransuzcha tarjimada tarjimon ma'lum ma'noda o'sha tarixiy voqeani bo'lib o'tgan vaqti to'g'risida anii ma'lumot bera olgan.

Amir Temur davom etib:«*urushni boshladim va uni yengdim. Qaysarni lashkarboshilarimdan biri qo'lga tushirib, huzurimga keltirdi.*

Yetti yillik yurishdan so'ng zafar va nusrat bilan Samarqandga qaytdim» - deydi. (Tt. 67).

«... On levra la bataille, et je la gagnai. Ce prince vaincu dut pris par mes troupes, et ameny eu ma prysence. Enfin, apris un guerre de sept annyes, je retournai victorieux a Samarcand». (T. p. 343).

Ushbu keltirilgan parchaga izoh sifatida asarning o'zbekcha nusxasida *Rum qaysarini* yenggan payti 1402 yil 20 iyulda deb ko'rsatilsa, fransuzcha tarjimada, J.C.Vendredi 16 Juin 1402 Hygire 29 Zoulcady 804, ko'rinishida hamda uning Samarqandga qaytishi o'zbekcha nusxada 1404 yil avgust oyida deyilsa fransuzcha tarjima nusxasida

Au mois de Juillet 1404 (Hygire Moharrem. 807) ko'rinishda beriladi.

Asliyat va uning tarjimasidagi bu kabi chalkashliklarga sabab bizning fikrimizcha hijriy-qamariy yil hisobi bilan grigoriyan yil hisobidagi farqdir, birinchisida yil oylarining doimiy bo'lmay har yili o'zgarib kelishi tarjimonlardan o'z ishlariga ijodiy yondoshishni, tarixiy haqiqatni buzmay to'g'ri aks ettirishlarini talab etadi. Bu esa o'z navbatida xorijiy kitobxonda to'g'ri tassurot uyg'otishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent. "Fan". 1966. 383 bet.
2. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. 1978. 196 bet.
3. F. Xolmirzayev. Xotira uyg'onsa go'zaldir. Toshkent. 2003. 56 bet.
4. А. В. Федоров. Основы общей теории перевода. М.: Высшая школа. 1968. стр-159.

TARJIMADA ASAR YARATILGAN DAVR RUHINI BERISH MASALASI

Dusmatova Aziza Yuldashevna
NamDCHTI 1-bosqich magistrant

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda tarihiy asarlar tarjimasida davr ruhini aks ettirish muammolari xususida fikr yuritiladi**.** Davr ruhini aks ettirishda tarjimon maxorati va tarjima usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarihiylik, davr ruhi, tarjima, usul, ekvivalent, maxorat, adabiy til.

Tarixga nazar, ajdodlar ruhiyatini o'rganish jamiyat taraqqiyotining hamma bosiichlarida ham zamonaviy ahamiyat kasb etadi va shu bilan birgalikda turli xalqlar o'tmishida yaratilgan asarlar tarjimasi esa dunyoni kengroq anglash, turli xalqlar tarixiy-madaniy merosini o'rganishga yanada ko'maklashadi.

Tarjimada davr ruhi, davr nafasi, davrning adabiy til tushunchasi bilan bog'liq yetakchi mayllarni aks ettirish jiddiy, murakkab, kompleks problemalar. U shuning uchun ham kompleks xarakterga egaki, bu yerda masalaning faqat bir davr, muayyan bir yozuvchining ijodidan qilingan tarjimalar, bir tarjimon egallagan tarjriba va nihoyat alohida olingan bir adabiy janr doirasida qilingan tarjimalar bilan chegaralangan holda tahlil etib bo'lmaydi. Bizning tahlilimizda klassik asarlar tarjimalarini asliyat bilan cholishtirib o'rganish yotar ekan, bu tarjimada davr ruhini berish mavzusi hamisha dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

O'zbek klassik adabiyoti namunalari ko'plab xorijiy tillarga tarjimalari bilan ham Sharqda, ham G'arbda mashhurdir. Biroq shunga qaramay ushbu asarlar tarjimalarida haligacha kamchiliklar, notro'g'ri tarjima qilish kabi nuqsonlar takrorlanishi uchrab turibdi. Xorijiy tarjimalarning mukammal bo'lishida klassik adabiyot namunalarini ham ilmiy-lug'aviy, badiiy tomondan, ham tarixiy, etnografik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlari nuqtai nazaridan kelib chiiib chuqurroq tadqiq qilish zarur. Noyob adabiy yodgorliklar va ularning tarjimalarini tarixiy davr talabidan kelib chiqib, qiyosiy tahlil etish, tarjimonlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariyu maqsadlarini ular yashagan davr xususiyati bilan bog'lagan holda ochib berish zarur.

Ma’lumki, har qanday asar asliyatda o’z zamonasining adabiy tilida yoziladi va zamondosh o’quvchilarga tushunarlidir. Zamonlar o’tib, avlodlar almashinib, qarashlar, urf-odatlar o’zgaradi, tilning ifoda vositalarida jiddiy farqlar seziladi. Natijada ajdodlar tafakkuri mahsuli bo’lgan yozma merosni bugungi kun o’quvchisi uchun tushunish mushkullashadi. Tarjimon ham agar zamondoshimiz bo’lsa, demak, bugungi kun o’quvchisidir. Tarjimon nafaqat o’quvchi, balki asl nusxani badiiy tomonlarini tahlil qila oladigan tanqidchi hamda asarni o’z tilida qayta tiklay oladigan yozuvchi hamdir. Ham tarjimonga, ham o’quvchiga adabiy yodgorlikni tushunishni qiyinlashtiruvchi bir necha sabablar borki, quyida ularni ko’rib chiqsak. Ya’ni:

1. Klassik adabiyotimiz namunalarida qo’llangan tarixiy, milliy, diniy, harbiy so’zlar va ko’chma ma’noda qo’llangan so’z va iboralar. Bunday so’zlar, so’z va iboralar anglatgan ma’noni ba’zi o’quvchilar matn ruhidan kelib chiiib, bir munchaqiiynalgan holda anglaydilar. Aksariyat kitobxonlarga esa tushunarli emas.

2. Klassik asarlar yaratilganidan so’ng oradan o’tgan vaqt davomida ko’hna, boy lug’at xazinamiz turli o’zgarishlarga uchragan. So’z, birikma, grammatik tarkib hamda talaffuz o’lchamlari asl ma’nolarini yo’qotib borgan. Asar yaratilgan davrda tilning aktiv qatlamida bo’lgan so’zlar davr o’tishi bilan tilning passiv qatlamidan joy olgan.

3. Adabiy yodgorlikda nafaqat turkiy so’zlar, balki arabcha, forscha so’zlardan ham juda ko’p o’rinlarda qo’llanilgan va ular tashigan ma’nolar hozirga qadar mavjud lug’atlarda to’la qamrab olinmagan.

4. Bunday asarlar uslubining murakkabligi va ularda milliy ruhning o’ta chuqurligidadir. Shu kabi sabablar klassik adabiyotni nafaiat kitobxonlarga, balki asarni tarjima qilishga kirishgan tarjimonlarga ham ish davomida bir qator mushkulliklarni keltirib chiqaradi. Tarjimada asar yaratilgan davr ruhini berish muammosini ko’rib chiqishdan avval, bizning fikrimizcha tarixiy janrga kiruvchi asarlarning quyidagi ko’rinishlarini alohida ta’kidlash joiz:

1. Tarixiy voqea va hodisalarga bevosita guvoh bo’lgan, qahramon sifatida olingan shaxslar bilan bir vaqtda yashagan mualliflarning asarlari. “Temur tuzuklari” , Z.M.Boburning “Boburnoma”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, M.Solihning “Shayboniynoma” asarlari.

2. Jamiyat hayotida ma’lum iz qoldirgan tarixiy voqea va hodisalar, hamda tarixiy shaxslarga bag’ishlab keyingi avlodlar tomonidan tarixiy mavzuda yozilgan asarlar. Oybekning “Navoiy”, Pirimiul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” romanlari va boshqalar.

Klassik adabiyot namunalari tarjimasi tarixiy mavzuda yozilgan asarlar tarjimasiga qaraganda mushkul ishdir. Chunki klassik adabiyot namunasi yozuvchining millatdoshlari uchun ham tarixiy yodgorlikdir, ya’ni bunda tarixiylik darajasi, tarixiy davr ruhi yanada sezilarlidir. Zamondosh adiblarimiz tomonidan tarixiy janrda yozilgan asarlar tarjimasi tarjimonlar uchun bir muncha yengillik tug’diradi. Avvalambor asar muallifi tarjimonning zamondoshi bo’lsa, qolaversa davr ruhini berish uchun qo’llanilgan tarixiy - arxaik so’zlarning muallif tomonidan izohlanishida, sharhlanishida, tushuntirilib borilishidadir. Klassik adabiyot namunalari

tarjimasida esa aksincha mushkulotlar bir qancha. Bular asarning tili bilan,uni qanday davr tiliga o'girish bilan bog'liq masalalardir. Ya'ni:

a) Turli xalqlar klassik adabiyoti namunalarini o'girish davomida tarjimonlar asarni biror milliy tilning klassik asar yaratilgan davr tiliga tarjima qilishlari mantiqan to'g'rimi?

b) Agar mantiqan to'g'ri bo'lsa klassik adabiyoti namunalari yaratilgan davrda mustaqil til sifatida hali mavjud bo'lmagan hozirgi ko'pgina yangi milliy tillarda ularni tarjima qilish qanday kechadi?

c) Turli xalqlar klassik adabiyoti namunalarini o'girish qanday tilga, ya'ni asar o'girilayotgan til taraqqiyotining qaysi davriga moslab amalga oshirilishi zarur,

d) Agar klassik adabiyot namunalari hozirgi adabiy til normalaridan kelib chiqib tarjima qilinsa, tarjimonlar nimalarga e'tibor berishlari kerak?

e) Turli xalqlar klassik adabiyoti namunalari tarjimalari davomida asar qahramonlari siymosida biz zamondoshlarimizni ko'rishimiz mantiqan to'g'rimi? Bu kabi va shunga o'xshash mushkulliklarni yechishlari va ularga to'g'ri javob topishlari, tarjima jarayonida tarixiy haqiqatni buzmay, to'g'ri aks ettirishlari zarur bo'ladi. Chunki tarixiy janrdagi asarlar tarjimasi qiyin, klassik adabiyot namunalarini "asrlar, zamonlar, xaqilar va tillar osha qayta yaratish esa beadad qiyin"[142]dir. Bu kabi asarlarni tarjimon nafaqat bir tildan ikkinchi tilga, balki, bir davrdan boshqa bir davrga o'girishiga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

5. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent. «Fan». 1966. 383 bet.
6. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. «¤iituvchi». 1978. 196 bet.
3. Саломов Г. Бадиий таржимада услубий-миллий узига хосликни кайта яратиш проблемаси. («Рамаяна», «Декамерон») Таржима санъати. 1980 й, 57-бет.

BADIIY TARJIMADA SHE'RIY SAN'ATLARNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI

Abduraxmanova Ozoda
Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik, magistr

Annotatsiya:

Ushbu maqolada badiiy tarjimada she'riy san'atlarni qayta yaratish muammolari yoritilgan. Qofiya, ritm, metafora, epitet, alliteratsiya kabi poetik vositalarning boshqa tilda ifodalanishidagi qiyinchiliklar, nazariy yondashuvlar hamda amaliy misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Badiiy tarjima, she'riy san'atlar, qofiya, ritm, metafora, epitet, alliteratsiya, estetik mezon, tarjima nazariyasi, kontekstual tarjima, uslubiy vositalar, milliy obraz, madaniy tafakkur, erkin tarjima.

[142] Саломов. Бадиий таржимада услубий-миллий узига хосликни кайта яратиш проблемаси. («Рамаяна», «Декамерон») Таржима санъати. 1980 й, 57-бет.

Annotation:

This article explores the major challenges encountered in translating poetic devices in literary works. It focuses on difficulties related to preserving rhyme, rhythm, metaphor, epithet, alliteration, and other stylistic features in translation. The study draws upon theoretical approaches in literary translation and analyzes examples from both Uzbek and Western literature, offering critical insights into how poetic imagery and musicality can be recreated or adapted in the target language.

Keywords: Literary translation, poetic devices, rhyme, rhythm, metaphor, epithet, alliteration, aesthetic principles, translation theory, contextual translation, stylistic features, national imagery, cultural awareness, free translation.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida milliy adabiyot namunalari boshqa xalqlarga tarjimalar orqali taqdim etilmoqda. Ammo badiiy tarjima nafaqat matnni boshqa tilda qayta ifodalash, balki uning badiiy-estetik xususiyatlarini saqlab qolishdir. Ayniqsa, she’riy asarlarda ishlatilgan san’atlar (metafora, epitet, tashbih va boshqalar) tarjimonda alohida e’tibor va ijodiy yondashuv talab etadi. Ushbu maqolada tarjimada san’atlarni qayta yaratishdagi asosiy muammolar tahlil qilinadi.

Asosiy qism

1.Badiiy tarjimaning mohiyati

Badiiy tarjima – bu oddiy til o‘zgarishi emas, balki madaniy, estetik va hissiy qatlamlarni boshqa til vositasida qayta yaratishga qaratilgan murakkab va ijodiy jarayondir. Bu turdagi tarjimada so‘zlarning shakliy tarjimasi emas, balki ularning ma’no, tuyg‘u, obraz va badiiy ifoda darajasida mos tushadigan muqobillarini topish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, she’riy tarjima jarayonida tarjimon oldida yanada murakkab vazifalar turadi, chunki she’r tilining ohangdorligi, ritmi, qofiyasi, metaforik tasvirlari, epitetlar va boshqa poetik vositalari orqali ifodalangan estetik ruhni boshqa tilga o‘tkazish katta mahorat va nozik did talab etadi.

Badiiy tarjimaning asosiy maqsadi – asarning mohiyatini, uning mazmuni bilan birga muallifning uslubini, hissiyotini, obrazlarini, badiiy tuyg‘ularini saqlab qolgan holda, uni boshqa tilda yangi hayot bilan qayta tiklashdir. Bu jarayonda tarjimon faqat tarjimon emas, balki hammuallif, ijodkor sifatida ishtirok etadi. Asl matndagi har bir badiiy vosita tarjimada shunchaki o‘girilmaydi, balki moslashtiriladi, ba’zan esa uni ifodalash uchun yangi, lekin mazmunga mos vositalar yaratiladi.

She’r tarjimasida ayniqsa fonetik va musiqiy elementlar – qofiya, alliteratsiya, assonans, ritm – katta ahamiyatga ega. Har bir she’r o‘ziga xos ohang va musiqiylikka ega bo‘lib, bu unsurlar uning estetik ta’sirini belgilaydi. Tilning fonetik imkoniyatlari har xil bo‘lgani uchun, tarjimon ayrim hollarda asl qofiyani saqlash o‘rniga, mazmun va kayfiyatga mos yangi qofiyalar yaratishga majbur bo‘ladi. Bunda uning poetik mahorati va estetik tafakkuri muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, badiiy tarjima madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajaradi. Har bir adabiy asar muayyan madaniyatga, milliy dunyoqarashga, tarixiy va ijtimoiy kontekstga bog‘langan bo‘ladi. Tarjimon ushbu kontekstlarni chuqur anglashi, ularni boshqa madaniyat vakiliga tushunarli shaklda yetkazishi zarur. Aks holda, tarjima yuzaki, ruhsiz yoki noto‘g‘ri talqin qilingan bo‘lishi mumkin.

2.She’riy san’atlarning turlari va ularning tarjimadagi holati

She’riy san’atlar – bu adabiy tilning eng nozik va badiiy qatlamlarini tashkil etuvchi vositalar bo‘lib, ular orqali muallifning estetik qarashi, ichki dunyosi, hissiy holati va obrazlilik darajasi ifodalanadi. Bular qatoriga metafora, epitet, alliteratsiya, anafora, assonans, paralelizm, ironiya, oksimoron, tashbih kabi vositalar kiradi. She’riy asarlarning tarjimasida aynan shu san’atlarning boshqa tilga o‘tkazilishi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biridir. Chunki bu vositalar bevosita tilning fonetik, semantik va madaniy imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Metafora – bu bir narsani boshqa narsa orqali obrazli tarzda ifodalashdir. U til va tafakkurning eng kuchli badiiy qurolidir. Masalan, Alisher Navoiyning “Ko‘ngul bir gulshan ichra gulshan ichra gulsanoqlikdir” misrasida ko‘ngil go‘yo ko‘p qatlamli gulzor sifatida tasvirlanadi. Bu misrada uch bosqichli metafora mavjud bo‘lib: ko‘ngil – gulshan – yana gulshan – gulsanoq, ya’ni ko‘ngil go‘zallik, nafislik va ichki boylik timsoli sifatida chizilgan. Ushbu obrazni boshqa tilga aynan ifodalash nihoyatda qiyin. Chunki boshqa tilda bu darajadagi tasviriylikni va poetik ta’sirni saqlab qolish uchun tarjimon yuqori darajada ijodiy yondashuvi, madaniy kontekstni tushunishi hamda poetik shakllantirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Epitet – bu obrazga xos bitta xususiyatni ajratib ko‘rsatadigan sifatlovchi vosita. Masalan, “oq tanli oydek go‘zalim” degan ifodada “oq tanli” va “oydek” epitetlar orqali go‘zallik kuchliroq aks ettirilgan. Tarjimada bu epitetlar oddiy sifatga aylanishi mumkin: "my fair-skinned beloved" – bu ifoda grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da, originaldagi obrazlilik, romantika va estetik kuch to‘laqonli yetkazilmaydi.

Alliteratsiya – bu so‘zlarda bir xil yoki o‘xshash tovushlarning takrorlanishi orqali musiqiylik yaratish vositasidir. Bu uslub ko‘pincha she’rning ohangini belgilaydi. Masalan, “Sho‘x shamol shivirlab shivirladi” degan jumlada “sh” tovushi ohangdorlik beradi. Tarjimada bu tovush o‘xshashligini boshqa tilda yaratish imkoni bo‘lmasa, badiiy kuch susayadi.

Anafora – bir xil so‘z yoki iboralarning she’r satrlarida boshida qayta-qayta ishlatilishidir. Bu uslub asarga marosimiylik, kuchli ta’sirchanlik va muhim g‘oyani urg‘ulash imkonini beradi. Misol uchun: Sen uchun yuragim urar, Sen uchun ko‘nglim o‘rtanar, Sen uchun ruhim zor olar... Bunda “Sen uchun” takrorlanishi obrazli ta’sirni kuchaytiradi. Tarjimada bu takrorlar ko‘pincha yo‘qotiladi yoki qisman ifodalanadi, natijada asarning estetik ohangi susayadi.

Bu kabi badiiy vositalarni tarjimada aynan saqlab qolish ko‘pincha mumkin bo‘lmaydi. Buning o‘rniga tarjimon o‘sha poetik ruhni boshqa vositalar orqali qayta yaratishga intiladi. Ba’zan bu jarayonda erkin tarjima uslubidan

foydalaniladi – ya’ni tarjima matni original matnga grammatik jihatdan emas, balki ruhiy va estetik jihatdan yaqin bo‘ladi.

Shuningdek, tarjimon tarjima qilayotgan til va madaniyatdagi o‘xshash badiiy vositalarni qidirishi, muqobillarni topishi yoki yangi, ammo mazmun jihatdan to‘g‘ri bo‘lgan obrazlar yaratishi kerak. Bu ijodiy yondashuvsiz poetik tarjima muvaffaqiyatli chiqmaydi.

3.Tarjimonning roli

Tarjimon badiiy tarjima jarayonida nafaqat tilshunos, balki madaniyatshunos, adabiyotshunos, estetik tahlilchi va hatto ijodkor sifatida ishtirok etadi. Ayniqsa, she’r tarjimasida bu rol yanada chuqurlashadi. She’r – bu nafaqat til bilan ifodalangan matn, balki ichki ruh, tuyg‘u, tasavvur va musiqiylik uyg‘unligidir. Shu sababli tarjimon oddiy tarjima qiluvchi emas, balki muallifning ijodiy ruhini boshqa tilga ko‘chira oladigan nozik did egasidir.

Tarjimonning vazifasi faqat so‘zlarni to‘g‘ri tarjima qilishdan iborat emas. U asarning badiiy ifodasi, uslubi, ritmi, hissiy yuki, madaniy va tarixiy kontekstini anglay olishi va ularni mahorat bilan boshqa tilga ko‘chira olishi kerak. Ayniqsa, she’r tarjimasida tarjimon ko‘pincha shoirning hamfikri, hammaslakdoshi va hatto “qayta muallifi”ga aylanadi. Chunki u original asarda yashiringan ma’no, obraz va his-tuyg‘ularni o‘z ruhida sezib, yangi tilda qayta ifoda etishi zarur.

Tarjimon she’r muallifining estetik qarashlarini, dunyoqarashini, uslubini chuqur his qilishi, u bilan ichki muloqotga kirisha olishi kerak. Aks holda, tarjima yuzaki, ruhsiz, faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo badiiy jihatdan sust chiqadi. Shuning uchun she’r tarjimasida tarjimon – bu ham tarjimon, ham ijodkor, ham adibdir.

Bundan tashqari, tarjimon ikki madaniyat o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi. U faqat til o‘zgartirmaydi, balki bir madaniyatga xos badiiy ifodani boshqa madaniyat vakiliga tushunarli va ta’sirchan shaklda yetkazishga harakat qiladi. Masalan, o‘zbek she’riyatidagi an’anaviy obrazlar – oy, gul, ko‘ngil, muhabbat, sabr, ayriliq kabi tushunchalar boshqa madaniyatda boshqacha talqin qilinishi mumkin. Tarjimon bu tushunchalarni izohlash, ularning poetik mohiyatini tushunarli shaklda ifodalash uchun ijodiy yondashuvi va madaniy kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak.

Shu jihatdan qaralganda, tarjimonning roli faqat vositachilik emas, balki ijodkorlik, tahliliy tafakkur va madaniyatlararo ko‘prik quruvchi maqomidadir. Aynan shunday yondashuvgina badiiy tarjimani chinakam adabiy asarga aylantiradi.

4.Yechimlar va tavsiyalar

Badiiy, ayniqsa she’riy tarjima sohasidagi dolzarb muammolarni yengib o‘tish, tarjimonlarning mahoratini oshirish va asarlarning badiiy-ruhaniy mohiyatini boshqa tilga to‘liq o‘tkaza olish imkonini yaratish uchun quyidagi amaliy yechimlar va tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1.Tarjimonlar uchun she’riyat san’atlarini chuqur o‘rganish kurslarini yo‘lga qo‘yish She’riyat – bu o‘ziga xos tuyg‘ular, musiqiylik, tasviriylik va poetik konstruksiyalarning uyg‘unligidir. Bunday murakkab matnlarni tarjima qilish

uchun tarjimonlar oddiy til bilimidan tashqari, she’riyatga xos badiiy san’atlarni chuqur o‘rganishi lozim. Shu bois, oliy ta’lim muassasalari va tarjimonlar tayyorlaydigan markazlarda maxsus “Poetik tarjima nazariyasi”, “She’riyat va tarjimonlik” kabi kurslarni yo‘lga qo‘yish, ularning amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitilishi lozim. Bunday kurslar orqali tarjimonlar metafora, epitet, ritm, qofiya, anafora, alliteratsiya kabi poetik vositalarni chuqur o‘zlashtiradi va ularni tarjimada to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi.

2.Tarjima qilingan she’rlarni asl nusxasi bilan taqqoslab, stilistik tahlil qilish uslubini kengaytirish Tarjimani baholashda ilmiy tahlil muhim o‘rin tutadi. She’r tarjimasining muvaffaqiyatini aniqlash uchun tarjima matni bilan original matnni yonma-yon qo‘yib, stilistik, semantik, fonetik jihatlarda tahlil qilish zarur. Bu uslub orqali tarjimon tomonidan yo‘qotilgan, o‘zgartirilgan yoki yangi ifodalangan badiiy vositalar aniqlanadi va tahlil qilinadi. Universitetlarda va ilmiy markazlarda bu borada tarjima tahlili laboratoriyalari tashkil etilishi, talabalar va tadqiqotchilar ishtirokida amaliy tahlillar o‘tkazilishi foydali bo‘ladi.

3.Tarjimon va adabiyotshunoslar o‘rtasida ko‘proq hamkorlik o‘rnatish Tarjimon har doim adabiyotshunos bilan hamkorlikda ishlasa, bu tarjimaning sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotshunos asarning konteksti, madaniy qatlamlari, poetik tuzilmasi haqida chuqur bilimga ega bo‘lganligi sababli, tarjimonda noaniq, chalkash yoki chuqur tushunilmagan jihatlarni aniqlashda katta yordam bera oladi. Shuning uchun ilmiy tadqiqot institutlari, nashriyotlar va tarjima loyihalari doirasida tarjimon–adabiyotshunos tandemini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv tarjimalarda badiiylikni, aniqlikni va madaniy sadoqatni ta’minlaydi.

4.Tarjimon va adabiyotshunoslar o‘rtasida ko‘proq hamkorlik o‘rnatish Tarjimon har doim adabiyotshunos bilan hamkorlikda ishlasa, bu tarjimaning sifatiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyotshunos asarning konteksti, madaniy qatlamlari, poetik tuzilmasi haqida chuqur bilimga ega bo‘lganligi sababli, tarjimonda noaniq, chalkash yoki chuqur tushunilmagan jihatlarni aniqlashda katta yordam bera oladi. Shuning uchun ilmiy tadqiqot institutlari, nashriyotlar va tarjima loyihalari doirasida tarjimon–adabiyotshunos tandemini shakllantirish tavsiya etiladi. Bu yondashuv tarjimalarda badiiylikni, aniqlikni va madaniy sadoqatni ta’minlaydi.

Xulosa

She’riy tarjima — bu oddiy tilshunoslik jarayoni emas, balki murakkab estetik va madaniy hodisadir. Metafora, epitet, qofiya, ritm, alliteratsiya kabi poetik vositalar tarjimada ko‘pincha yo‘qolib ketadi yoki noaniq aks ettiriladi. Shu sababli tarjimon nafaqat tilni, balki madaniyatni, adabiy tafakkurni, tarixiy va kontekstual chuqurlikni ham puxta bilishi zarur.

Yuqoridagi tavsiyalar — ya’ni she’riy tarjima bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish, tarjimalarni stilistik jihatdan taqqoslab tahlil qilish usullarini rivojlantirish va tarjimonlar bilan adabiyotshunoslar o‘rtasida doimiy hamkorlik o‘rnatish — ushbu muammolarni hal etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda yana bir bor ta’kidlash joizki, badiiy tarjima, ayniqsa she’riy asarlar tarjimasi — bu yangi asar yaratish bilan barobar. Har bir muvaffaqiyatli tarjima – bu ikki tilda va ikki madaniyatda baravar yuksalgan adabiy hodisadir. Tarjimon esa bu yaratish jarayonining bosh qahramoni, asarning ikkinchi muallifidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абдураҳмонов, А. (2009). Таржима назариясига кириш. Тошкент: Университет нашри.
2.Назаров, С. (2012). Адабиётшунослик ва бадиий таҳлил асослари. Тошкент: Фан.
3.Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
4.Bassnett, S. (2002). Translation Studies (3rd ed.). London: Routledge.
5.Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
6.Venuti, L. (1995). The Translator’s Invisibility: A History of Translation. London: Routledge.
7.Jakobson, R. (1959). “On Linguistic Aspects of Translation.” In On Translation, edited by R. A. Brower. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8.Хошимов, Ў. (1985). Икки эшик ораси. Тошкент: Ёзувчи нашриёти.

“Boburnoma”ning fransuzcha tarjimalaridagi toponimlarining etnolingvistik va lingvokultural tadqiqi

Valijon Mamadjonov Alixanovich
Namangan Davlat chet tillar institutining
Nemis va fransuz tillari kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
valijon.mamadjonov84@gmail.comv

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Boburnoma” asarining fransuz tiliga tarjimasida uchraydigan toponimlar lingvomadaniy hamda etnolingvistik jihatdan har tomonlama tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan geografik nomlarning tarjima jarayonida qanday semantik o‘zgarishlarga uchragani, ularning tarixiy va madaniy konnotatsiyalari, shuningdek, fransuzcha muqobillar bilan solishtirma tahlili asosida o‘rganiladi. Maqolada tarjimon tomonidan qo‘llanilgan strategiyalar, toponimlarning milliy-madaniy identitetni ifodalashdagi o‘rni, va ularning ma’nodoshligi darajasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari, asardagi joy nomlarining tarjimada adekvat va madaniy jihatdan ekvivalent holda ifodalanishining muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:

Boburnoma, toponimlar, geografik nomlar, tarjima nazariyasi, lingvomadaniyat, etnolingvistika, fransuz tili, madaniy ekvivalentlik.

Annotation:

This article provides a comprehensive linguocultural and ethnolinguistic analysis of the toponyms found in the French translation of the *Baburnama*. It examines the semantic transformations of geographical names during the translation process, their historical and cultural connotations, and offers a comparative study with their French equivalents. The article explores the strategies employed by the translator, the role of toponyms in conveying national and cultural identity, and the extent to which semantic equivalence is preserved. The findings highlight the importance of rendering toponyms in a culturally adequate and faithful manner in literary translation.

Keywords:

Baburnama, toponyms, geographical names, translation theory, linguoculture, ethnolinguistics, French language, cultural equivalence.

Kirish

Jahon adabiyoti xazinasida o‘zining betakror uslubi, tarixiy haqiqatga sodiqligi, til boyligi va madaniy merosga boyligi bilan alohida o‘rin egallagan “Boburnoma” asari bugungi kunda nafaqat O‘rta Osiyo xalqlari, balki jahon miqyosida ham keng o‘rganilayotgan nodir manbalardan biri hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub ushbu asar XV-XVI asrlar Sharq hayoti, siyosiy voqealari, ijtimoiy munosabatlari, shuningdek, madaniy-ma’naviy hayotini yorituvchi muhim tarixiy-adabiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, unda uchraydigan toponimlar orqali o‘sha davr geografiyasi, siyosiy tuzilmalari, madaniy aloqalari haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Toponimlar, ya’ni joy nomlari, tilshunoslikda o‘ziga xos semantik guruhga mansub bo‘lgan muhim lingvistik birliklar sirasiga kiradi. Ular ikki tomonlama funksiyaga ega bo‘lib, bir tomondan, muayyan geografik obyektlarni — shahar, qishloq, daryo, tog‘, mamlakat va boshqa tabiiy yoki inson tomonidan yaratilgan joylarni nomlash vazifasini bajaradi, ikkinchi tomondan esa xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tafakkuri, urf-odatlari, diniy qarashlari va hayot tarzining ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi.

Toponimlarning **e**tnolingvistik tahlili va milliy-madaniy qatlamlari

Etnolingvistika — bu til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi fandir. U til birliklarining faqat lingvistik emas, balki etnik, madaniy, diniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstdagi ma’nolarini ham tahlil qiladi. Bu borada toponimlar, ya’ni joy nomlari, til va madaniyat chorrahasida turgan alohida birliklar sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat muayyan hudud yoki geografik obyektni bildiradi, balki ushbu joy bilan bog‘liq tarixiy voqealar, madaniy tafakkur, urf-odatlar, diniy e’tiqodlar, xalq og‘zaki ijodi, etnik xotira va boshqa ko‘plab ko‘rinishlarni o‘zida mujassam etadi.

Masalan, "Ko‘histon" toponimi fors tilidan olingan bo‘lib, “ko‘h” – tog‘, “-iston” – joy, hudud ma’nosida qo‘llanadi. Bu nom bevosita geografik muhitni bildirgan bo‘lsa-da, u orqali ushbu tog‘li hududda yashovchi xalqning hayot tarzi, madaniy me’yorlari, etnik xususiyatlari haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin. Tog‘li hududlarda yashovchi aholi odatda mustahkam jamoaviy rishtalarga, o‘ziga

xos qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi, bu esa toponimda bevosita bo‘lmasa-da, bilvosita tarzda aks etadi.

Fransuz tiliga tarjima qilingan matnlarda bunday toponimlarning qanday aks ettirilganiga e’tibor berish zarur. Masalan, o‘zbek tilidagi "Farg‘ona" toponimi ko‘pincha "Fergana" yoki "Ferghane" tarzida transliteratsiya qilinadi. Bu shakllar fonetik jihatdan fransuz o‘quvchisi uchun o‘qilishi qulayroq bo‘lishi mumkin, biroq ular asl nomdagi etimologik ildizlar ("far" – old, "g‘on" – pastlik) va semantik qatlamni to‘liq ifodalay olmaydi. Natijada, toponim ortidagi milliy-madaniy konnotatsiyalar yo‘qolish xavfi tug‘iladi.

Toponimlarning madaniy konnotatsiyasi tarjima jarayonida alohida e’tibor talab qiladi. Ayrim toponimlar diniy yoki etnik ramziy ma’nolarga ega bo‘lib, ular oddiy transliteratsiya bilan chegaralanmasligi lozim. Masalan: **« Makka »** — bu shunchaki Saudiya Arabistonidagi shahar emas, balki butun islom olami uchun muqaddas joy, haj marosimining asosiy maskani. Uni fransuz tiliga "La Mecque" shaklida o‘tkazish mumkin, biroq diniy mazmuni tushuntirilmasa, o‘quvchi u to‘g‘risida faqat geografik ma’lumot bilan cheklanib qoladi. **«Bag‘dod»** — bu nafaqat Iroq poytaxti, balki Abbosiylar davrida islom madaniyatining yuksalish markazi bo‘lgan shahar. U "Bagdad" shaklida transliteratsiya qilinadi, ammo bu shakl tarixiy-yodgorlik yukini o‘zida to‘liq aks ettirmaydi.[143]

Lingvokulturologiya — bu til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab, ko‘p qatlamli aloqalarni o‘rganadigan fan sohasidir. Har bir til o‘zida o‘sha xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurining aksini mujassam etadi. Shu sababli, tarjima jarayoni oddiy tilni bir tildan boshqasiga o‘tkazish emas, balki ikki madaniyat o‘rtasida ko‘prik qurish, ya’ni lingvokultural uzviylikni ta’minlash vazifasini bajaradi. Bu ayniqsa, kuchli madaniy yoki tarixiy yuklama ortgan til birliklari — toponimlar tarjimasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Fransuz tarjimalarida toponimlar asosan uch asosiy yondashuv orqali tarjima qilinadi:

1. **Transliteratsiya**

Bu usulda toponim asl tiliga maksimal darajada yaqin yoziladi. Bunda fonetik yoki yozuvdagi o‘zgarishlar minimal darajada saqlanadi. Masalan:

- *Andijon* → **Andidjan**
- *Samarqand* → **Samarkand**

Bu yondashuv toponimning fonetik va vizual sadoqatini saqlaydi, ammo ko‘pincha madaniy yoki semantik qatlamni ochib bermaydi.

2. **Adaptatsiya**

Bu usulda toponim fransuz fonetikasi va orfografiyasiga moslashtiriladi. Bu yondashuv o‘quvchi uchun talaffuzni yengillashtiradi, biroq asl toponimdagi madaniy yoki semantik qatlamlar ba’zida yo‘qolib ketadi. Masalan:

- *Qobul* → **Kaboul**
- *Buxoro* → **Boukhara**

[143] Vinay, J.-P., Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais: méthode de traduction*. Paris: Didier, 1958.

Adaptatsiya usuli xalqaro e’tirof etilgan shakllar asosida tanlanadi, biroq tarjimon har doim toponim ortidagi tarixiy-ma’naviy yukni hisobga olishi lozim.

3. **Izohlama (explication)**

Tarjimon nafaqat til vositachisi, balki madaniyatlararo muloqotni amalga oshiruvchi **mediator** sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z faoliyati davomida faqat lingvistik emas, balki madaniy, tarixiy, ijtimoiy va diniy jihatlardan ham ongli ravishda qaror qabul qilishi lozim. Misol uchun, *“Makka”* kabi muqaddas toponimni tarjima qilayotganda, u faqat “La Mecque” shaklida emas, balki o‘quvchiga bu joyning islom dunyosidagi maqomini ham tushuntirishi maqsadga muvofiq.[144]

4. Tarjimonning semantik sodiqlik va madaniy adekvatlik strategiyasi

Toponimlarni tarjima qilish jarayoni tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki madaniy sezgirlik va ilmiy yondashuvni ham talab etadi. Bu jarayonda tarjimon ikki asosiy mezon o‘rtasida muvozanatni saqlashi lozim: **semantik sodiqlik** va **madaniy adekvatlik.**

Bu mezon tarjimaning asl matnga mazmunan sodiq bo‘lishini, toponim ortidagi tarixiy, madaniy, semantik ma’nolarni buzmasdan yetkazilishini anglatadi. Misol uchun, *“Andijon”* toponimi shunchaki shahar nomi emas, balki Boburning tug‘ilgan yeri sifatida, uning shaxsiy va tarixiy identitetida muhim o‘rin egallaydi. Shunday holatda bu toponimni saqlab qolish yoki zarurat tug‘ilganda izoh bilan boyitish semantik sodiqlikning ifodasidir.

Bu yondashuv madaniy adekvatlik mezoniga mos keladi va o‘quvchi uchun kontekstni to‘g‘ri anglash imkonini yaratadi.

Fransiyalik mashhur sharqshunos olimlar — **Jean-Louis Bacqué-Grammont, Xavier de Planhol, Lucien Kehren** — o‘z tarjimalarida aynan yuqoridagi ikki mezon asosida harakat qilganlar. Ular t**oponimlarni asliga yaqin shaklda saqlaganlar,** lekin k**ontekstual izohlar orqali o‘quvchiga madaniy va tarixiy ma’lumot berganlar.**

Xulosa

Tarjima jarayonida toponimlarning asl shaklini saqlash yoki uni madaniy-ma’naviy kontekstga moslashtirish o‘rtasida tarjimon uchun doimiy murakkab tanlov yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, fransuz tarjimalarida uch asosiy yondashuv — transliteratsiya, adaptatsiya va izohlama — samarali tarzda qo‘llaniladi. Har bir usul o‘zining maqsadi va auditoriyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarjimonning madaniy sezgirligi va ilmiy yondashuvi bilan to‘ldiriladi.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” fransuz tilidagi tarjimalaridagi toponimlar nafaqat tarixiy manba sifatida, balki madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tarjimonning harakatlari, ularning qo‘llagan strategiyalari, shuningdek madaniy sezgirlik va ilmiy asoslangan yondashuvlar to‘g‘ri uyg‘unlashganida, asl matnning mazmuni va madaniy-kontekstual qatlamlari samarali tarzda yangi til va madaniyat doirasida

[144] Gurevich, A. Ya. “Toponimika va tarix.” – Moskva: Nauka, 1984.

saqlanib qoladi. Bu esa nafaqat tarjimaning sifatini oshiradi, balki turli xalqlar o‘rtasida madaniy tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobur. *Mémoires de Babur* (Traduction française par Jean-Louis Bacqué-Grammont et S. N. Sirojiddinov). Éditions Les Belles Lettres, Paris.
2. Superanskaya, A. V. *Toponimika: Teoriya i praktika*. Moskva: Nauka, 2001.
3. Karpenko, Yu. A. *Osnovy etnolinguistiki*. Kyiv: Lybid, 1998.
4. Tursunov, A. S. *O‘zbek toponimikasining lingvokulturologik asoslari*. Toshkent: Fan, 2019.
5. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais: méthode de traduction*. Paris: Didier, 1958.
6. Newmark, P. *A Textbook of Translation*. Prentice Hall, 1988.
7. Bobur. *Boburnoma*. O‘zbekcha matn. Tahririy hay’at tomonidan nashr qilingan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
8. Bobur. *Mémoires de Babur* (traduction française par Jean Chardin et H. Massé). – Paris: Gallimard, 1980.
9. Karimov, M. “Tarjima nazariyasi asoslari.” – Toshkent: Universitet, 2005.
10. Akbarov, A. “Lingvomadaniyatshunoslikka kirish.” – Toshkent: Fan, 2008.
11. Gurevich, A. Ya. “Toponimika va tarix.” – Moskva: Nauka, 1984.
12. Vinay, J. & Darbelnet, J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais.* – Paris: Didier, 1958.
13. Humboldt, W. von. *Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues*. – Berlin, 1836.

Foydalanilgan internet manbalar

1. Boburnoma, tarjima tahlili va lingvistik tadqiqotlarga oid mustaqil tadqiqotchilar ishlari: https://www.academia.edu/
2. Etnolingvistika, lingvistik ekvivalentlik, joy nomlari tarjimasi bo‘yicha ilmiy maqolalar: https://www.researchgate.net/
3. https://baburid.uz/bibliography/970 Fransuzcha «Boburnoma»lar
4. https://infourok.ru/la-vie-et-l-%C5%93uvre-de-zahiriddin-muhammad-babur-6487737.html

NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMALARNING PRAGMATIK MUAMMOLARI

Raxmatova Zumrad,
NamDCHTI I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Badiiy matnlarni tarjima qilish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki muallif niyatini, madaniy kontekstni va o‘quvchi kutganini hisobga oladigan pragmatik yondashuvni ham talab etadi. Ushbu maqola nemis tilidan o‘zbek tiliga badiiy tarjimalarda uchraydigan pragmatik muammolarni tizimli tahlil qiladi. Frazeologizmlar, kinoya, madaniy-realliya birliklari va nutq

uslubi tarjimasida yuzaga keladigan muammolar amaliy misollar yordamida tahlil qilinadi. Tarjimon faoliyatida kontekstga moslashtirish, madaniyatlararo vositachilik va stilistik sodiqlikni ta’minlash strategiyalari asosiy e’tiborga olinadi.

Kalit so‘zlar: badiiy tarjima, pragmatika, madaniy tafovut, kinoya, frazeologiya, tarjima strategiyalari, nemis-o‘zbek tarjimasi.

Annotation: Translating literary texts requires not only linguistic competence but also a pragmatic approach that takes into account the author's intent, cultural context, and the expectations of the target audience. This article provides a systematic analysis of the pragmatic issues encountered in literary translations from German into Uzbek. It examines challenges in translating idioms, irony, culture-specific elements, and speech style using practical examples. The focus is placed on strategies such as contextual adaptation, intercultural mediation, and maintaining stylistic fidelity in the translator’s work.

Keywords: literary translation, pragmatics, cultural differences, irony, phraseology, translation strategies, German-Uzbek translation.

Badiiy tarjima inson tafakkuri, madaniyati va estetik dunyoqarashi bilan bog‘liq murakkab faoliyatdir. Bu jarayonda tarjimon nafaqat lug‘aviy ma’no, balki matnning pragmatik konnotatsiyasini — ya’ni gap nima uchun aytilgani, qanday ohangda ifodalangani va o‘quvchiga qanday ta’sir ko‘rsatishi kerakligini ham hisobga oladi. Bu ayniqsa nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimada dolzarb, chunki har ikki til madaniyati o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud (House, 2015; Nord, 2005).

1. Pragmatikaning tarjimadagi o‘rni

Pragmatika bu tilning foydalanuvchisi va konteksti bilan qanday aloqada ekanligini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi bo‘lib, tarjimada uning ahamiyati juda katta (Leech, 1983). Pragmatik muammolar quyidagicha guruhlanadi:

- Madaniy realliyalarni ifodalashdagi muammolar
- Frazeologik birliklarning tarjimasi
- Nutq ohangi va uslubdagi tafovutlar
- Ijtimoiy-psixologik konnotatsiyalarni yetkazish
- Ironiya, kinoya va hazilni o‘tkazishdagi qiyinchiliklar

2. Frazeologik birliklar: semantik emas, pragmatik yondashuv

Frazeologik iboralar tarjimada ko‘pincha so‘zma-so‘z qabul qilinib, ma’nosi buziladi. Quyidagi misolni ko‘raylik:

Nemischa: *Er hat ins Gras gebissen.*

(U o‘tni tishladi – ya’ni vafot etdi)

O‘zbekcha pragmatik tarjima: *U vafot etdi" yoki "U olamdan ko‘z yumdi*

Bu holatda tarjimon iboraning idiomatik mazmuni va pragmatik funksiyasini aniqlab, madaniyatga mos, tabiiy ifodani tanlaydi (Baker, 1992).

3. Ijtimoiy kontekst: murojaat va ierarxiya

Nemis tilida rasmiy muomala ancha qat’iy, “Sie” zamirining ishlatilishi ijtimoiy masofa yoki hurmatni bildiradi. O‘zbek tilida esa, bu maqsad odatda “siz” orqali beriladi, lekin hurmat shakllari “aka”, “opa”, “ustoz” kabi so‘zlar bilan ifodalanadi.

Nemischa: *Könnten Sie mir bitte helfen, Herr Professor?*

O‘zbekcha: *Ustoz, iltimos, yordam bera olasizmi?*

Bu tarjimada ijtimoiy rol, hurmat va nutq ohangi o‘zbek tilidagi kontekstga moslashtirilgan.

4. Ironiya va kinoya: stilistik muvofiqlik muammosi

Ironiya, hazil va kinoya tarjimasi tarjimonning stilistik sezuvchanligiga bog‘liq. Kinoyaviy gaplar ko‘pincha teskari ma’noda ishlatiladi.

Nemischa (ironik): *Na, das hast du ja toll gemacht!* (biror ish noto‘g‘ri bajarilganda aytiladi)

O‘zbekcha pragmatik muqobili: *Voy, qoyil, zo‘r ish qilibsan! (kinoya bilan)*

Agar bu kinoya oddiy ohangda tarjima qilinsa, komik effekt yo‘qoladi.

5. Madaniy realiyalar: tarjimada “yo‘q narsa”ni qanday ifodalash mumkin?

Ko‘plab nemischa matnlarda Yevropa hayotiga xos ijtimoiy realiyalar (masalan, “Biergarten”, “Kaffee und Kuchen”) mavjud. Ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish o‘zbek o‘quvchisi uchun noma’lum qoladi.

Nemischa: *Wir haben uns im Biergarten getroffen.*

O‘zbekcha: *Biz ochiq havodagi kafeda uchrashdik.*

Bu yerda tarjimon mos ekvivalent topadi va kontekstga moslashtirish strategiyasini qo‘llaydi (Newmark, 1988).

6. Tarjimonning strategik yondashuvi

6.1 Adaptatsiya

Madaniy yoki semantik jihatdan begona bo‘lgan elementlarni mahalliy kontekstga moslashtirish.

6.2 Kompensatsiya

Yo‘qotilgan ma’no yoki ohangni boshqa joyda qoplash.

6.3 Izohli tarjima

O‘quvchiga noma’lum bo‘lgan atamalar uchun tushuntirish kiritish.

6.4 Stilistik sodiqlik

Muallif uslubining ohangini, sintaksisini, ritorikasini iloji boricha saqlab qolish.

Pragmatik muammolar badiiy tarjimaning asosiy sinovlaridan biridir. Tarjimon nafaqat matnni tildan tilga o‘giradi, balki madaniy va kommunikativ ko‘prik quradi. Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinayotgan badiiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir til va madaniyat o‘ziga xos ifoda uslubiga ega. Tarjimon esa bu tafovutlarni ko‘prik sifatida emas, balki imkoniyat sifatida qabul qilgan holda, har bir ibora, kayfiyat va ohangning o‘rnini topa oladigan mutaxassis bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hatim, B. & Mason, I. (1997). The Translator as Communicator. London: Routledge.
2. House, J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present. London: Routledge.
3. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.
4. Nord, C. (2005). Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application. Amsterdam: Rodopi.
5. Reiss, K. & Vermeer, H. J. (1984). Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie. Tübingen: Niemeyer.

SHE’RIYAT TARJIMASIDA SO‘ZLARNING MILLIY MADANIY XUSUSIYATLARI MUAMMOSI

Ergashaliyeva Gulnoza Odiljon qizi
Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat Chet tillari institutining
Qiyosiy tilshunoslik linguistik tarjimashunoslik
yo’nalishi 1-bosqich magistrant
gulijohayot@gmail.com

Annotatsiya: She’riyat tarjimasida so‘zlarning milliy madaniy xususiyatlari muammosi she’riyatning o‘ziga xosligi va tarjimaning murakkabligini tashkil etuvchi eng dolzarb masalalardan biridir. Har bir millatning o‘ziga xos madaniyati, qadriyatlari va til o‘ziga xosliklari mavjud bo‘lib, bu xususiyatlar she’riyatda o‘zining chuqur ifodasini topadi. She’riyat tarjimasi esa nafaqat so‘zlarni boshqa tilga o‘girish, balki ularning milliy madaniy kontekstini, ma’naviy-ruhiy mazmunini ham to‘liq yetkazish vazifasini bajaradi. Shu sababli, so‘zlarning milliy madaniy xususiyatlarini tarjimada saqlash va ifodalash katta e’tibor talab qiladi.

Kalit so‘zlar: she'riyat, madaniyat, tarjima, til, iboralar, milliy an’analar, madaniy kontekst, ma'no.

Milliy madaniyat so‘zlarda aks etgan tarixiy, ijtimoiy, diniy, urf-odat va an’anaviy qadriyatlarning majmuasidir. Har bir so‘zning ma’nosi faqat lingvistik komponentdan iborat bo‘lmay, balki uning madaniy konteksti ham katta ahamiyatga ega. Masalan, o‘zbek she’riyatida ko‘plab so‘zlar va iboralar milliy an’analar, tarixiy voqealar, xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. Bu so‘zlar tarjima qilinayotganda, ularning madaniy ildizlari va ma’nolari to‘liq tushunilmasligi yoki noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Bu esa she’riyatning asl ruhini yo‘qotishiga olib keladi. She’riyat tarjimasida so‘zlarning milliy madaniy xususiyatlarini saqlash uchun tarjimonning chuqur madaniy bilimga ega bo‘lishi zarur. Tarjimon faqat tilni bilishi bilan cheklanmay, tarjima qilinayotgan millatning tarixiy va madaniy kontekstini ham chuqur anglab yetishi kerak. Bu esa tarjimaning sifatini oshiradi va o‘quvchiga asl she’rning ma’nosini, ohangini va ruhini yetkazishga yordam beradi. Tarjimon milliy madaniyatga oid so‘z va iboralarni tarjima qilishda ularning ma’nosini izohlash, qo‘shimcha tushuntirishlar kiritish yoki o‘xshash madaniy elementlar orqali ifodalash usullarini qo‘llashi mumkin. She’riyatda milliy madaniyatning aks etishi so‘z tanlash, obrazlar, metaforalar va boshqa badiiy vositalarda yaqqol seziladi. Har bir millatning o‘ziga xos badiiy ifoda vositalari mavjud bo‘lib, ular she’rning mazmuni va ohangini belgilaydi. Shu bois, tarjimada bu vositalarni to‘g‘ri tushunish va o‘zbek tiliga mos ravishda ifodalash muhimdir. Masalan, o‘zbek she’riyatida keng tarqalgan tabiat tasvirlari, xalq maqollari, aforizmlar va diniy atamalar tarjimada o‘zining milliy xususiyatini yo‘qotmasligi kerak. Tarjimada ba’zan so‘zlarning milliy madaniy xususiyatlarini to‘liq yetkazish qiyin bo‘ladi. Chunki har bir til va madaniyat o‘ziga xos bo‘lib, ba’zi so‘zlar yoki iboralar boshqa tilga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bu holatda tarjimon o‘z ijodiy

imkoniyatlaridan foydalanib, so‘zlarning o‘rnini bosuvchi yoki o‘xshash ma’nodagi iboralarni izlashga majbur bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda tarjima asl she’rning ruhiyatini saqlab qolishga qaratilgan bo‘lishi lozim.[1]

Milliy madaniy xususiyatlarni saqlash she’riyat tarjimasining estetik va semantik jihatlarini uyg‘unlashtirishni talab qiladi. She’r nafaqat ma’noni, balki ohang, ritm, va badiiy ifodani ham o‘z ichiga oladi. Tarjimonda bu elementlarni saqlash uchun so‘zlar tanlashda milliy madaniyatning o‘ziga xosligi hisobga olinadi. Bu esa tarjimaning o‘quvchida asl she’rdek ta’sir qoldirishiga yordam beradi. She’riyat tarjimasida milliy madaniy xususiyatlarni saqlashda o‘zbek tilining o‘ziga xosliklari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tili o‘zining boy leksikasi, frazeologiyasi va badiiy ifoda vositalari bilan ajralib turadi. Tarjimon bu boyliklarni to‘liq anglab, tarjimada qo‘llashi kerak. Shuningdek, o‘zbek tilining she’riy qoidalari, ritm va ohangini hisobga olish tarjimaning badiiyligini ta’minlaydi. Tarjimaning milliy madaniy xususiyatlarini saqlashda zamonaviy texnologiyalar va onlayn lug‘atlardan foydalanish ham foydali bo‘lishi mumkin. Biroq, texnologiyalar madaniy kontekstni to‘liq tushunishga yordam bermaydi, shuning uchun inson omili, ya’ni tarjimonning madaniy bilim va tajribasi eng muhim hisoblanadi. Tarjimonning madaniy bilimlari qanchalik chuqur bo‘lsa, tarjima shunchalik aniq va mazmunli bo‘ladi.

She’riyat tarjimasida milliy madaniy xususiyatlarni saqlash masalasi nafaqat tarjimon, balki o‘quvchi va adabiyotshunoslar uchun ham muhimdir. O‘quvchi tarjimada milliy madaniyatning aks etishini his qilishi, she’rning asl ma’nosini va ruhiyatini anglashi kerak. Adabiyotshunoslar esa tarjimaning sifatini baholashda milliy madaniy xususiyatlarning saqlanishiga e’tibor qaratadilar. Shu bois, she’riyat tarjimasi sohasida doimiy tadqiqotlar olib borish va yangi metodlarni ishlab chiqish zarur. Milliy madaniy xususiyatlarning saqlanishi she’riyat tarjimasining xalqaro aloqalarda ham ahamiyatini oshiradi. Tarjima orqali boshqa millatlarning madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan tanishish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa madaniy almashinuv va o‘zaro tushunishni rivojlantiradi. Shu sababli, tarjimada milliy madaniy xususiyatlarni saqlash nafaqat badiiy, balki madaniy va ijtimoiy vazifa sifatida ham qaraladi.[2]

Milliy madaniy xususiyatlarni saqlashda tarjimonning roli juda muhim va murakkabdir. Tarjimon nafaqat ikki til o‘rtasida so‘zlarni almashtiruvchi shaxs, balki madaniyatlararo ko‘prik yaratishda faol ishtirok etuvchi madaniy vositachidir. Tarjima jarayoni faqat matnni bir tildan boshqasiga o‘girishdan iborat emas, balki u madaniy kontekst, tarixiy ma’no, ijtimoiy qadriyatlar va milliy an’analarning saqlanishini ta’minlashga qaratilgan murakkab jarayondir.

Madaniyat har bir xalqning o‘ziga xosligi, dunyoqarashi, qadriyatlari va urf-odatlarini o‘zida mujassam etgan noyob tizimdir. Har bir til esa bu madaniyatning eng muhim ifoda vositasi hisoblanadi. Shu bois tarjimon milliy madaniyatning o‘ziga xos qirralarini tushunishi va tarjimada ularni saqlab qolishi kerak. Bu ishning murakkabligi shundaki, har bir til va madaniyat o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlarga ega bo‘lib, ba’zan so‘zlarning to‘liq ekvivalentini topish

mumkin emas. Tarjimon esa shu murakkabliklarni yengib o‘tib, asl matnning ruhini va ma’nosini yangi tilga ko‘chirishga harakat qiladi. Tarjimonning madaniy bilimlari juda keng bo‘lishi zarur. U o‘zbek madaniyatining tarixiy, adabiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarini chuqur bilishi, shuningdek, tarjima qilinayotgan til madaniyatini ham yaxshi tushunishi lozim. Bu bilimlar tarjimada madaniy tafovutlarni to‘g‘ri anglash va ularni o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, o‘zbek she’riyatida ko‘plab xalq og‘zaki ijodining elementlari, milliy obrazlar, urf-odatlar va an’analar aks etadi. Tarjimon bu elementlarni yangi tilga moslashtirishda ularning asl ma’nosini saqlab qolishga intilishi kerak. Tarjima jarayonida tarjimon ijodkorlik ko‘rsatadi. She’riyatning badiiy xususiyatlarini yangi tilga o‘tkazish oddiy so‘z almashtirishdan farq qiladi. Tarjimon so‘zlarning ma’nosini, ohangini, ritmini va badiiy ifodasini saqlab qolish uchun ijodiy yondashuvni qo‘llaydi. Bu jarayonda u ba’zan yangi metafora va obrazlarni yaratishi, ba’zan esa asl matndagi madaniy elementlarni izohlash yoki o‘xshash madaniy kodlar bilan almashtirishga majbur bo‘ladi. Shunday qilib, tarjimon o‘zbek milliy madaniyatining noyobligini saqlab qolgan holda, yangi til o‘quvchisiga uni taqdim etadi.[3]

Madaniy tafovutlarni boshqarish tarjimonning yana bir muhim vazifasidir. Har bir madaniyat o‘ziga xos urf-odatlar, e’tiqodlar va qadriyatlarga ega bo‘lib, ularni boshqa madaniyatga to‘liq ko‘chirish har doim ham oson emas. Tarjimon ushbu tafovutlarni aniqlab, ularni o‘quvchiga tushunarli va qabul qilinarli tarzda yetkazish uchun muvofiqlashtirish ishlarini bajaradi. Bu esa tarjimaning mazmuniy va madaniy to‘g‘riligini ta’minlaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi milliy bayramlar, xalq og‘zaki ijodi, diniy e’tiqodlar va boshqa madaniy elementlarni tarjimada to‘g‘ri aks ettirish uchun tarjimon ularning mazmunini chuqur anglab, kerak bo‘lsa izohlar kiritishi mumkin. Tarjimonning madaniy qadriyatlarni hurmat qilishi va saqlashi juda muhimdir. U tarjima qilinayotgan matndagi nozik madaniy jihatlarni e’tibordan chetda qoldirmasdan, ularni asliga yaqin shaklda ifodalashga intiladi. Bu esa she’riyatning asl ruhini va badiiy go‘zalligini saqlashga xizmat qiladi. Tarjimonning madaniy sezgirligi va hurmati natijasida o‘quvchi boshqa madaniyatni yanada chuqurroq anglaydi, uning noyobligini qadrlaydi va hurmat qiladi. Tarjimon shuningdek, madaniy izohlar va tushuntirishlar kiritish orqali o‘quvchining madaniy tafovutlarni tushunishiga yordam beradi. Ba’zan tarjimada mavjud bo‘lmagan yoki boshqa madaniyatda mavjud bo‘lmagan madaniy elementlar haqida qo‘shimcha ma’lumot berish talab etiladi. Bu o‘quvchining matnni to‘liq anglashiga yordam beradi va milliy madaniyatning o‘ziga xosligini chuqurroq his qilish imkonini yaratadi. Shu tariqa, tarjimon nafaqat matnni, balki madaniyatni ham tarjima qiladi. Tarjimonning roli shunchalik muhimki, u milliy madaniyatning dunyo miqyosida tanilishi va qadrlanishida bevosita ishtirok etadi. Tarjima orqali o‘zbek madaniyati boshqa xalqlarga tanishtiriladi, uning noyobligi va boyligi keng auditoriyaga yetkaziladi. Tarjimon esa bu jarayonda madaniyat vakili sifatida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglab, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarjimonning milliy madaniy xususiyatlarni saqlashdagi roli zamon bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda

globalizatsiya jarayonlari madaniy o‘zgarishlarni tezlashtirmoqda. Tarjimon esa bu jarayonda milliy madaniyatning o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun kurashadi. U nafaqat tarjima qilayotgan matnni, balki milliy identitetni himoya qiladi. Bu esa milliy madaniyatning davomiyligini ta’minlaydi. Tarjimonning milliy madaniy xususiyatlarni saqlashdagi roli faqat badiiy matnlar bilan cheklanmaydi. U ilmiy, tarixiy, diniy va boshqa sohalardagi matnlarni tarjima qilishda ham madaniy kontekstni hisobga oladi. Bu esa tarjimaning sifatini oshiradi va o‘quvchiga to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot yetkazilishiga yordam beradi. Tarjimon madaniyatlararo muloqotning samarali bo‘lishi uchun zarur shartlarni yaratadi. Tarjimonning madaniy bilimlari va tilga bo‘lgan chuqur tushunchasi uning ishining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. U o‘zbek tilining boyligi, uning badiiy va madaniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, shuningdek, tarjima qilinayotgan tilni chuqur tushunishi kerak. Bu bilimlar tarjimonga milliy madaniyatni saqlab qolgan holda, uni yangi tilga muvaffaqiyatli ko‘chirish imkonini beradi.[4]

Umuman olganda, tarjimon milliy madaniy xususiyatlarni saqlashda madaniyatlararo vositachi, ijodkor, madaniy tafovutlarni boshqaruvchi va madaniy qadriyatlarni himoya qiluvchi sifatida faoliyat yuritadi. Uning ishining natijasi nafaqat tarjima sifatida, balki milliy madaniyatning boshqa xalqlarga tanitilishida ham o‘z aksini topadi. Shu bois tarjimonning roli nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida tarjimonning madaniy sezgirligi va ijodkorligi milliy madaniyatning asl xususiyatlarini saqlab qolishning kalitidir. U o‘zbek madaniyatining noyobligini yangi til o‘quvchisiga yetkazishda o‘zining professional va madaniy mas’uliyatini chuqur anglab, har bir so‘z va iborani diqqat bilan tanlaydi. Bu esa tarjimaning nafaqat to‘g‘ri, balki badiiy va madaniy jihatdan ham boy bo‘lishini ta’minlaydi. Shunday qilib, tarjimon milliy madaniy xususiyatlarni saqlashda nafaqat tilshunos, balki madaniyatning himoyachisi va targ‘ibotchisi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Uning mehnati natijasida milliy madaniyat boshqa xalqlarga tanitiladi, qadrlanadi va saqlanib qoladi. Bu esa milliy madaniyatning davomiyligi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Tarjimonning roli madaniyatlararo muloqotning samarali bo‘lishi uchun juda zarur va uning ahamiyati yillar o‘tishi bilan yanada oshib boradi.[5]

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, she’riyat tarjimasida so‘zlarning milliy madaniy xususiyatlarini saqlash muammosi tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tarjimonning madaniy bilimlari, tilga bo‘lgan chuqur tushunchasi va ijodiy yondashuvi bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Milliy madaniy xususiyatlarni saqlash orqali she’rning asl ma’nosi, ohangi va ruhiyati o‘quvchiga to‘liq yetkaziladi, she’riyatning badiiy go‘zalligi saqlanib qoladi. Shuning uchun she’riyat tarjimasida milliy madaniy xususiyatlar muammosiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, A. (2015). "She’riyat tarjimasida madaniy kodlar va ularning o‘rni." Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti nashriyoti.
2. Mirzaev, S. (2017). "Tarjima va madaniyat: she’riyat misolida." Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Islomov, J. (2018). "Milliy madaniyat va tarjima san’ati." Toshkent: Akademnashr.
4. Karimova, N. (2019). "She’riyat tarjimasida madaniy tafovutlar." Toshkent: Adabiyot va san’at.
5. Rustamov, D. (2020). "Tarjima jarayonida milliy madaniyat elementlarini saqlash." Samarqand: Sharq nashriyoti.
6. Tursunov, B. (2021). "So‘zlarning madaniy xususiyatlari va tarjimada yuzaga keladigan muammolar." Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
7. Xo‘jayev, M. (2022). "She’riyat tarjimasida madaniy kontekst va uning ahamiyati." Buxoro: Madaniyat va til.
8. Saidov, R. (2023). "Tarjima va milliy madaniyat: nazariy va amaliy masalalar." Toshkent: Ilm-fan.
9. Yusupova, L. (2023). "She’riyat tarjimasida madaniy kodlarni o‘rganish." Toshkent: O‘zbekiston adabiyoti.
10. Akbarov, F. (2024). "Milliy madaniyat va tarjima muammolari." Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti.

INGLIZCHA BIZNES TERMINLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMAALARI HUSUSIDA

Atajanov Faruh Dilshod o’g’li
Urgench Ranch Universiteti magistranti

Annotation
This paper explores the key principles of translating English business terminology into Uzbek, with particular attention to the challenges of literal translation and the advantages of contextual methods. As English has solidified its role as the global language of business, many of its terms have been integrated into Uzbek economic, legal, and managerial discourse. The research compares literal (word-for-word) translation with context-based semantic translation, using real-world examples to highlight their respective strengths and limitations. While literal translation may offer surface-level accuracy, it often fails to convey the deeper conceptual meaning of terms. In contrast, contextual translation considers the function and meaning of terms within their specific business environments.

Keywords:
business terminology, translation strategies, literal translation, contextual translation, Uzbek language, transliteration, semantic equivalence, translation challenges

Global biznes aloqalarining kengayishi va ingliz tilining xalqaro til sifatida mustahkamlanishi natijasida inglizcha atamalar o‘zbek tilidagi iqtisodiy, huquqiy va boshqaruv nutqiga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bunday terminlarni

o‘zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat tilshunoslik, balki soha (biznes, iqtisod, marketing) bilimlariga asoslangan yondashuv zarur bo‘ladi.

Tarjima – bu bir xalqning ma'naviy boyliklarini boshqa bir xalqqa yetkazib berishda eng to‘g'ri yoldir. Chunki bir tildan qiiingan tarjima asari orqali boshqa bir xalq to'g'risida ma’lumot olinadi.

Ma’lumki, tarjima jarayonida bevosita (so‘zma-so‘z) tarjima va kontekstga asoslangan semantik tarjima kabi ikkita asosiy yondoshuv mavjud.

Asl tilda so‘zlarning tartibi va butun tuzilishi saqlanib qolgan tarjima so‘zma-so‘z deyiladi. Bunday holda, so‘zlar faqat keng ma'noda olinadi. Kontekst hisobga olinmaydi. Boshqacha qilib aytganda, so‘zma-so‘z tarjima ona tilidagi so‘zlarni manba tildagi so‘zlarga mexanik ravishda almashtirishdir.

Har ikki yondashuv o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega bo‘lib, biz tadqiqotimizda ayrim misollar bilan tahlil qilmoqchimiz. Masalan:

Bevosita tarjima:

Bevosita tarjimada atama so‘zma-so‘z tarjima qilinadi. Bu yondashuvda semantik ma’no kamroq bo‘lib, ayrim holatlarda noto‘g‘ri yoki noaniq tushunchaga olib keladi.

Inglizcha termin	So‘zma-so‘z tarjima	Kamchiliklari	Taklif etiladigan muqobil
Cash flow	Naqd pul oqimi	Naqd emas, bank o‘tkazmalari ham bo‘ladi	Pul aylanishi / Mablag‘ oqimi
Human resources	Inson resurslari	Inson mehnatini ob'ekt sifatida ko‘rsatadi	Kadrlar / Mehnat resurslari
Fixed assets	Qattiq aktivlar	“Qattiq” noto‘g‘ri konnotatsiyaga ega	Asosiy vositalar
Break-even point	Tenglashish nuqtasi	Iqtisodiy ma’nosi aniq emas	Zararsizlik nuqtasi

Tadqiqotchi D.To‘xtasinova ta’kidlaganidek, so‘zma-so‘z tarjima til tizimi darajasida to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo u mazmun jihatdan yetarlicha izoh bera olmaydi[145].

2. Kontekstga asoslangan tarjima:

Kontekstga asoslangan yondashuvda terminning matndagi funksiyasi, sohaviy ma’nosi va madaniy konnotatsiyasi hisobga olinadi. Masalan:

Inglizcha termin	Kontekstual tarjima	Izoh
Stakeholder	Manfaatdor tomon	Kompaniyadan manfaatdor barcha guruhlar

[145] D.To‘xtasinova. Biznes terminlarining tarjima xususiyatlari. – Toshkent, 2022

Benchmarking	Solishtirma tahlil	Tashqi tajriba asosida strategiya tuzish
Outsourcing	Tashqi xizmatlar jalb etish	Ichki faoliyatni tashqariga topshirish
Equity	Moliyaviy ulush	Kapitaldagi ulush ma'nosi
Corporate governance	Korporativ boshqaruv	Direktorlar va aksiyadorlar o‘rtasidagi munosabatlar
ROI	Investitsiyadan foyda darajasi	Investitsiyaga nisbatan qaytgan foyda

Ilmda ta’kidlanishicha, termin tarjimasi so‘zning shaklini emas, balki tushunchani uzatishni maqsad qilishi kerak[146].

Tarjimashunoslikda yana bir yondashuv mavjud bu *transliteratsiya va o‘zlashtirish*: Masalan:

Inglizcha termin	O‘zbekcha shakli	Eslatma
Marketing	Marketing	“Bozor faoliyati” konnotatsiyani yo‘qotadi
Branding	Brending	Brend yaratish jarayoni
Startup	Startap	Yangi texnologik kompaniya
Franchise	Franchayzing	Avtonom savdo tarmog‘i
Logistics	Logistika	Tashish, saqlash va tarqatish

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlamoqchimizki, tarjima jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun shu soha mutaxassislarini jalb etish, normativ asoslarga tayanish, izohli lug‘atlar tuzish va konvensiyalashgan atamalarni saqlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo‘raqulov Sh. Tarjimashunoslik nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. 2021
2. Karimova N. Termin tarjimasi muammolari va ularning yechimlari. Filologiya masalalari. 2021
3. To‘xtasinova D. Biznes terminlarining tarjima xususiyatlari. Toshkent: Innovatsion nashrlar. 2022
4. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge. 2015

[146] Sh Jo‘raqulov, Tarjimashunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2021

Uilliam Shekspirning birinchi soneti tarjimasida shakl va mazmun birligi

Rahmonaliyeva Sarvinoz Fazliddin qizi
Fariddinova Nodira Azamatjon qizi
Is'hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari instituti
Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik
yo'nalishi 1-bosqich magistrantlari

Annotatsiya

Ushbu maqolada Uilliam Shekspirning 1-soneti va uning Yusuf Shomansur tomonidan o'zbek tiliga hamda Nikolay Gerbel tomonidan rus tiliga qilingan tarjimalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik yondoshuvi asosida tahlil qilinadi. Asarlarning shakl va mazmun uyg'unligi, metrik tizimdagi o'xshashlik va farqlar, tarjimalarda qo'llanilgan badiiy vositalar va ularning Shekspir g'oyalarini yetkazishdagi roli o'rganiladi. Qiyosiy tahlil natijalari tarjimalarning o'ziga xos uslub va madaniy ifoda orqali Shekspir ruhiyatini har xil darajada aks ettirganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Shekspir, sonet, tarjima, yambik pentametr, barmaq vazni, russiyaviy silabik tizim, shakl va mazmun, qiyosiy tahlil

Abstract

This article presents a comparative analysis of William Shakespeare's Sonnet 1 and its translations into Uzbek by Yusuf Shomansur and into Russian by Nikolay Gerbel, using linguistic and literary approaches. The study examines the harmony of form and content, similarities and differences in metrical systems, and the artistic devices used in the translations and their role in conveying Shakespeare's ideas. The results show that both translations reflect the spirit of the original in different ways, shaped by their respective national poetic traditions and cultural expressions.

Keywords: Shakespeare, sonnet, translation, iambic pentameter, syllabic system, form and content, comparative analysis

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ первого сонета Уильяма Шекспира и его переводов на узбекский язык Юсуфом Шомансуром и на русский язык Николаем Гебелем с точки зрения лингвистики и литературоведения. Рассматриваются гармония формы и содержания, сходства и различия метрических систем, художественные средства, применённые в переводах, и их роль в передаче идей Шекспира. Результаты анализа показывают, что оба перевода по-разному отражают дух оригинала, исходя из национальных поэтических и культурных особенностей.

Ключевые слова: Шекспир, сонет, перевод, ямбический пентаметр, бармакский размер, силлабическая система, форма и содержание, сравнительный анализ

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari asarlarning shakl va mazmun uyg‘unligini tahlil qilish orqali o‘zaro boyib brogan va Uilliam Shekspir sonet janrining buyuk namoyandasi sifatida o‘z asarlari orqali dunyo adabiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada Shekspirning 1-soneti va uning Yusuf Shomansur tomonidan o‘zbek tiliga, Nikolay Gerbelning rus tiliga tarjimasida shakl va mazmun nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Maqola Shekspirning asl ingliz tilidagi matni va Yusuf Shomansurning o‘zbek tilidagi, Nikolay Gerbelning rus tarjimasi asosida solishtirma-tahliliy usulda yozildi. Tilshunoslik jihatidan metrik tizimlar (yamblik pentametr va barmaq vazni) va poetik ritm tahlil qilindi, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa poetik obrazlar va ma’no qatlamlari o‘rganildi.

Shekspirning 1-soneti va uning Yusuf Shomansur tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi o‘rtasidagi shakl va mazmun uyg‘unligi alohida e'tiborga loyiq. Avvalo, Shekspirning asl matni ingliz she'riyatiga xos bo‘lgan yamblik pentametr vaznida yozilgan. Bu metrik tizimda har bir misrada o‘nta bo‘g‘in va beshta urg‘uli zarb mavjud bo‘lib, ikkilamchi urg‘usiz-urg‘uli ketma-ketlikni ta'minlaydi. Yusuf Shomansur tarjimada esa o‘zbek poeziyasi an'anasiga xos barmaq vazni (11 bo‘g‘inli) ni qo‘llagan[147]. Bu o‘zgarish shaklni moslashtirish uchun zarur bo‘lgan va tarjimada poetik ritmni saqlab qolishga xizmat qilgan.

Shomansur tomonidan kiritilgan "qarigan gul", "g‘uncha", "yov", "yalakat" kabi ifodalar inglizcha matnda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud bo‘lmasa-da, ular tarjimaning poetik ruhini boyitgan va o‘zbek o‘quvchisi uchun asarning ma’nosini yanada aniqroq va sezilarli qilgan. Masalan, "g‘uncha" so‘zining qo‘shilishi "heir" (avlod) tushunchasini yanada jonli va o‘zbek tabiatiga yaqin obraz orqali ifodalagan. Shuningdek, "yalakat" (uyatsiz, yuzsiz) kabi xalqona leksik birlik ishlatilishi yigitning o‘z go‘zalligini isrof qilishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini bajarmasligini yanada keskinroq ta’kidlagan.

Asl inglizcha matnda sonet yambik pentametr asosida yozilgan bo‘lib, bu 10 bo‘g‘indan iborat misralar va 5 urg‘u bo‘lagidan tashkil topgan qat’iy vazndir. Yusuf Shomansur bu shaklni 11 bo‘g‘inli barmoq vazni bilan o‘zbek tiliga moslashtirgan. Nikolay Gerbel esa rus she’riyati an’analariga mos silabo-tonik tizimdan foydalangan — aniqrog‘i, silabik tizim (bo‘g‘inga asoslangan) asosida, lekin urg‘ular yumshoq moslashgan holda.

Gerbel tarjimasida she’r strukturasining tashqi shakli (14 misra, ababcdcdefefgg qofiyalanish) deyarli to‘liq saqlangan[148]. U rus she’riyatidagi klassik uslubga suyanib, qattiq metrik uyg‘unlik emas, balki umumiy ohangdorlik va uslubiy silliqlikni afzal ko‘rgan.

Muhim jihatlardan biri shundaki, Shekspir sonetida ko‘tarilgan asosiy falsafiy g‘oya — go‘zallikning o‘tkinchiligi, nasl qoldirish orqali abadiylikni ta’minlash, o‘zini o‘ylashning manfiy oqibatlari — tarjimada ham aniq saqlab qolingan. Yusuf Shomansur tarjimasi asliyatdagi "beauty's rose might never die"

[147] Yusuf Shomansur. Shekspir sonetlari tarjimalari, 12-bet
[148] Gerbel, N. *Сонеты Шекспира*. Санкт-Петербург, 1865.

(go‘zallikning guldek nobud bo‘lmasligi) degan g‘oyani "so‘lmasin" va "hosil kutamiz" kabi obrazlar orqali ifodalaydi.

Biroq ayrim joylarda Yusuf Shomansur tarjima jarayonida o‘zbek madaniyatiga moslashtirish uchun ijodiy erkinlikdan ham keng foydalangan. Ingliz matnida o‘zini o‘zi "yoqib yuborayotgan olov" sifatida ko‘rsatilgan obraz tarjimada "o‘z husnini qurbon qilish" va "nurab gado bo‘lish" kabi ifodalar bilan boyitilgan. Bu esa tarjima nazariyasida "ijodiy adekvatlik" printsipiga mos keladi — ya'ni tarjimaning maqsadi so‘zma-so‘z tarjima emas, balki ruhiy va poetik ifodani to‘liq yetkazishdir.Bundan tashqari, Shekspir tanqidiy ohangda, lekin muloyim tarzda o‘z fikrini bildirgan bo‘lsa, Yusuf Shomansur tarjimasida ba'zi o‘rinlarda tilda biroz keskinroq ifodalar ("beomon yovsan", "yalakat") ishlatilgan. Bu o‘zbek tilining o‘ziga xos ifoda uslubi va madaniy talqin talabidan kelib chiqqan deb baholash mumkin.Shuningdek, Shekspir sonetining umumiy poetik kompozitsiyasi — muammo qo‘yish, rivojlantirish va yechim taklif etish (klassik sonet tuzilmasi) Yusuf Shomansur tarjimasida ham asosan saqlab qolingan. Asarning oxirgi qatorlarida Shekspir yigitni ikki yo‘lga chaqiradi: dunyoga rahm qilish yoki o‘z go‘zalligini qabr bilan yo‘qotish. Yusuf Shomansur bu chaqiriqni:

"So’ldirma, dunyoga shafqat qil, qizg‘on,
Yetilajak hosil bo‘lmasin xazon!"

deya nihoyatda ta’sirli tarzda ifodalagan.

Natijada, Yusuf Shomansurning tarjimasi Shekspir asarining asosiy falsafiy va poetik mohiyatini saqlab qolgan holda, o‘zbek o‘quvchisiga mos madaniy va badiiy ko‘rinishda yetkazilgan. Bu tarjima tahlili tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari uchun o‘zaro bog‘liqlik va asarlar adaptatsiyasi jarayonida milliy xususiyatlarni saqlash muhimligini ko‘rsatadi.

Nikolay Gerbel esa Shekspirning obrazlar tizimini saqlab qolishga harakat qilgan, lekin rus poetikasiga xos bo‘lgan ifoda vositalari bilan. Masalan, u “beauty’s rose might never die” ifodasini:

“Чтоб роза красоты не увяла никогда”

deya tarjima qilgan. Bu yerda “роза красоты” (go‘zallik guli) degan obraz originalga yaqin, lekin rus tilida shoirona estetik ohangni saqlagan.

Bundan tashqari, Gerbelda “самоед” — “o‘zini yeyayotgan” obraziga urg‘u berilgan:

“Ты, пышный юноша, сам сам себя сжигаешь”

Bu satr Shekspirning metaforasini (“makest waste in niggarding”) obrazli va poetik usulda ifodalaydi, lekin rus tilidagi "сжигаешь себя" – o‘zini yoqish – obrazini yanada kuchliroq va dramatikroq qiladi.

Shomansur tarjimasi milliy ohangda, ya’ni ko‘proq xalqona, ba’zida keskin tilda (“beomon yovsan”, “yalakat”) yozilgan. Gerbel esa klassik rus adabiyotiga xos yumshoq, nazokatli tilda ishlagan. Bu farq tarjimalarda Shekspirning muloyim tanqidiy ohangi qanday aks ettirilganini ochib beradi. Gerbelda tanqid yumshoqroq, ishoraviy, Shomansurda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xalqona.

Yusuf Shomansur tomonidan amalga oshirilgan Shekspirning 1-soneti tarjimasi shakl va mazmun uyg‘unligini saqlash borasida e'tiborga molik yutuqlarga ega bo‘lsa-da, ba’zi nuqtalarda tanqidiy qarashlarni ham talab etadi.

Birinchidan, tarjimada Shekspirning falsafiy ohangi va o‘ziga xos mutanosibligi ayrim o‘rinlarda mahalliylashtirilgan ifodalar bilan o‘zgarib ketgan. Masalan, "yalakat" kabi xalqona ifoda o‘zbek o‘quvchisi uchun jonli va ta’sirchan bo‘lsa-da, asl matnda mavjud bo‘lgan nazokatli tanqid ohangidan biroz chetga chiqadi. Shekspirning asliyatda tanqid qilish usuli murakkab va nozik: u ochiqchasiga ayblashdan ko‘ra, ishoralar va tashbehlar orqali o‘quvchini fikrlashga undaydi. Tarjimada esa ayrim hollarda bu noziklik o‘rniga keskin, ba’zan achchiqroq ifodalar berilgan.

Ikkinchidan, ritmik va vaznli ifoda saqlangan bo‘lsa-da, tarjimaning ba’zi misralarida sonetning tabiiy oqimi biroz buzilgan. Asliyatdagi yamblik pentametrning yumshoq urg‘ulanishi tarjimada o‘zbekcha barmaq vaznida har doim tabiiy ohang bilan chiqmagan. Natijada, ba'zi o‘rinlarda o‘qish jarayonida sun'iylik yoki grammatik qattiqlik sezilishi mumkin. Bu esa, ayniqsa, Shekspir kabi poetik ritmni mukammal darajada ishlatgan shoirning tarjimasida muhim kamchilik sanaladi.

Uchinchidan, tarjimada muallif ba'zan asliyatdagi obrazlarni kengaytirib yuboradi. "Qarigan gul", "g‘uncha", "yov", kabi so‘zlar, shubhasiz, o‘zbek o‘quvchisiga aniqroq tasavvur beradi, lekin bu so‘zlar original matndagi umumiylik (universallik) ruhidan ma'lum darajada chekinishga olib keladi. Shekspir sonetida har bir obraz ko‘p ma’noli va turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lsa, tarjimada esa ma’nolar ko‘proq aniq va qat'iy shakllangan. Bu esa asar erkin talqin qilish imkoniyatini biroz cheklab qo‘yadi.

Nihoyat, Shekspir sonetlarining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan nozik hazil va ichki ironiya (o‘zini kinoya bilan tanqid qilish) tarjimada to‘liq aks ettirilmagan. Asliyatda, Shekspir o‘z auditoriyasiga yuzlanib, inson tabiatining zaif tomonlarini muloyim kinoya bilan ko‘rsatadi[149]. Tarjimada esa bu ironiya ohangi kuchsizroq seziladi, chunki tanqid ohangi ko‘proq ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalangan.

Ammo, bu kamchiliklar tarjimaning umumiy qiymatini pasaytirmaydi, balki uning o‘zbek adabiyoti va she’riy an'analariga moslashtirilgan shaklini ko‘rsatadi. Yusuf Shomansur asarni faqat tarjima qilish bilan cheklanmay, uni milliy estetik qadriyatlar bilan boyitishga ham harakat qilgan. Bu esa tarjimaning ilmiy va adabiy qimmatini oshiradi, biroq tarjimaning interpretativ (talqinli) xarakterga ega ekanligini unutmaslik kerak.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Shomansur va Nikolay Gerbel tarjimalari o‘zbek va rus poetik maktablarining turli ifoda va madaniy kodlarga tayangan holda Shekspir sonetining asosiy g‘oyalarini yetkazishga intilganini ko‘rsatadi. Gerbelning tarjimasi shaklga sodiq, obrazlarga yaqin, klassik uslubda yozilgan bo‘lsa, Shomansurniki esa poetik energiyani milliy ifoda orqali yetkazishga harakat

[149] Shekspir, U. Sonnetlar, 8-bet

qilgan. Ikkala tarjima ham Shekspirning g‘oyalarini o‘z til va madaniyat doirasida moslab yetkazishda muhim adabiy tajriba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shekspir, U. Sonnetlar. Ingliz tilidagi asl matn.
2. Yusuf Shomansur. Shekspir sonetlari tarjimalari.
3. Crystal, D. Ingliz tilining tarixiy rivoji. Penguin Books, 2004.
4. Bassnett, S. Tarjima nazariyasi. Routledge, 2014.
5. House, J. Tarjima sifatini baholash. Routledge, 2015.
6. Munday, J. Tarjimaning nazariy va amaliy jihatlari. Routledge, 2016.
7. Baker, M. Boshqa so‘zlar bilan: Tarjimaning asosiy tushunchalari. Routledge, 2018.
8. Burke, P. Suhbat san’ati. Polity Press, 1993.
9. Venuti, L. Tarjimonning ko‘rinmasligi. Routledge, 1995.
10. Gerbel, N. *Сонеты Шекспира*. Санкт-Петербург, 1865.

UCHQUN NAZAROVNING “CHAYON YILI “ ASARINING NEMISCHA TARJIMASI “DAS JAHR DES SKORPIONS” DA DISFEMIZMLARNING TARJIMA USULLARI

Namangan davlat chet tillar instituti
katta o‘qituvchisi
Umida Yusupova Inomovna
Nemis va fransuz tillari kafedrasi
e-mail: umidayusupova222@gmail.com

Annotatsiya: Adabiyotda tarjimonning vazifasi – faqatgina tilni tarjima qilish emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirishdir. Asarlarning tarjimasi ayniqsa, salbiy ma’nodagi iboralar, kamsituvchi, qo‘pol yoki kinoyali so‘zlar bo‘lganda yanada murakkablashadi. Disfemizmlar – bu tilshunoslikda odatda kamsituvchi, salbiy ohangdagi so‘zlar va iboralardir. O‘zbek tilida, ayniqsa realistik adabiyotda, bu so‘zlar ijtimoiy tanqid, qahramonlarning ichki qarama-qarshiliklari yoki ruhiy holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.Ushbu ilmiy maqolamizda biz disfemizm tarjima usullarui ikki til ortasidagi farqlar, qiyosiy tahlili borasida to’xtalib o’tdik.

Kalit so’zlar: disfemizm, tarjimon, ijtimoiy tanqid, salbiy so’zlar, qarama-qarshi.

Abstract: The task of a translator in literature is not only to translate the language, but also to implement intercultural communication. The translation of the works is especially complicated when there are expressions with a negative meaning, humiliating rude or sarcastic words. Dysphemism are words and phrases in linguistics that usually have a derogatory, negative tone. In the Uzbek language especially in realist literature, these words are used to express social criticism internal contradictions or mental states of the characters.

Key words: dysphemism, translator, social criticism, negative words, opposite

KIRISH

Adabiyotda tarjimonning vazifasi – faqatgina tilni tarjima qilish emas, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirishdir. Asarlarning tarjimasi ayniqsa, salbiy ma’nodagi iboralar, kamsituvchi, qo‘pol yoki kinoyali so‘zlar bo‘lganda yanada murakkablashadi. Disfemizmlar – bu tilshunoslikda odatda kamsituvchi, salbiy ohangdagi so‘zlar va iboralardir. O‘zbek tilida, ayniqsa realistik adabiyotda, bu so‘zlar ijtimoiy tanqid, qahramonlarning ichki qarama-qarshiliklari yoki ruhiy holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.[150]

TAHLILLAR VA MULOHAZALAR

Uchqun Nazarovning “Chayon yili” asaridagi disfemizmlar, asar qahramonlarining turli ijtimoiy sinfdagi o‘rni va shaxsiy hayotidagi qiyinchiliklarni ochib berishga xizmat qiladi. Nemis tilidagi tarjimasi – “Das Jahr des Skorpions” nomi bilan chop etilgan asar, o‘zbek tilidagi asl asar ruhiyatini saqlash bilan birga, nemis tilidagi auditoriyaga moslashgan holda tarjima qilingan. Bu jarayonda disfemizmlarni qanday aks ettirish va tarjimadagi madaniyatlararo farqlarni hisobga olish juda muhim bo‘ladi. Tarjimon Ingeborg Baldaufning "Chayon yili" ” Das Jahr des Skorpions „ tarjima asarini nemis tiliga tarjima qilishda evfemizm va disfemizmning ishlatilishi va ularni qayta aks ettirish muammolari tahlili bizni be`etibor qoldirmadi. Asar ham o‘zbek xalqining kundalik hayoti, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlari va tarixiy hodisalari haqida yozilgan bo‘lib, bu asarlarda ko‘p hollarda evfemistik va disfemistik ifodalar ishlatiladi. Baldauf, tarjimon sifatida, bu ifodalarni qanday tarjima qilganini va madaniyatlararo farqlarni qanday inobatga olganini ko‘rsatadi. Maqolamizda asardagi disfemizmlar tarjimalari haqida to‘xtalib o‘tdik. Disfemizm asarlarni salbiy yoki qo‘pol tarzda ifodalashga yordam beradi. "Chayon yili" va "Kafansiz ko‘milganlar" asarlarida, ijtimoiy va siyosiy tazyiqlarga qarshi turish yoki insonning noxush holatdagi hayoti tasvirlanadigan joylarda disfemistik iboralar qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilidagi "yomon odam" yoki "bu yerda quruq qon qoldi" kabi ifodalar, og‘ir va salbiy ijtimoiy holatlarni tasvirlaydi. Bunday ifodalar, asarlarning qahramonlarining ichki dunyosini va ular yashayotgan jamiyatni ko‘rsatishga yordam beradi. Disfemizmni nemis tiliga tarjima qilishda, salbiy ma'nolarni ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarzda aks ettirish kerak bo‘ladi. Biroq, bu kabi ifodalar ko‘pincha nemis o‘quvchisi uchun noqulay yoki haddan tashqari qattiq bo‘lishi mumkin. Masalan, "yomon odam" (schlechte Person) o‘rniga, nemis tilida "böses Individuum" (yomon shaxs) yoki "Schurke" yoki “wie einen Schwein” (cho‘chqaga tenlashtirilgan jaholatli kishi) kabi so‘zlar ishlatiladi. Ushbu tarjimadagi farq, ba'zan asl asarning tilidagi noziklikni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin, chunki nemis madaniyatida "yomon odam" kabi ifoda to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsituvchi va qo‘pol emas, aksincha oddiy ifodalardan biri hisoblanadi.[151]

ASOSIY QISM

1. Disfemizm tushunchasi va uning turlari

[150] . Schäffner, C. (2004). Discourse and Translation. Manchester: St. Jerome Publishing.
[151] House, J. (2009). Translation: A Multidisciplinary Approach. London: Palgrave Macmillan.

Disfemizm – bu tilshunoslikda odatda salbiy, qo‘pollik yoki kinoya orqali tasvirlanadigan iboralar bo‘lib, jamiyatda kimnidir kamsituvchi yoki yomon tasvirlovchi so‘z yoki iboradir. Disfemizmlar nafaqat o‘zining ijtimoiy va madaniy o‘rniga qarab, balki uning badiiy maqsadiga, roman yoki hikoya ichidagi ruhiy va ma’naviy pozitsiyasiga qarab ham turlicha bo‘lishi mumkin. Disfemizmlar orqali, asosan, odamlarning qiyin holatlari yoki ijtimoiy tartibsizliklari tasvirlanadi.

O‘zbek tilida keng tarqalgan disfemizmlar o‘z ichiga quyidagi kategoriyalarni oladi:[152]

***Salbiy ma’no ifodalovchi so‘zlar:** "yovuz", "o‘g‘ri", "qotil", "yolg‘onchi" va boshqalar.

***Kinoya va qo‘pollik ifodalar:** "yo‘lda yurgan jo‘ja", "o‘g‘ri yigit", "buram" (ko‘p ishlatiladigan atamalar).

Asliyatdan …<u>O‘zi chalasavod</u> , <u>tegirmonning gardini yutib yurgan notavon bir kimsa bo‘lsa</u>. Yo‘q qaynotasining poyi qadamiga sajda qilishi, changini yalashi kerak. [19.CH. Y] **Nemischasi:...Er hatte kaum lesen und Schreiben gelernt und war nur ein <u>unwissender Bursche gewesen,</u> der Staub der Muehle schlucken musste. Nein ! Er musste niederfallen bor seinem Schwiegervater ,die Stiefel hatte er ihm lecken...[23]** Bu jumlaning lingvomadaniy tahlilini va tarjimalarini qiyoslaganda bu jumlani disfemizm deb ta'riflash mumkin. "O‘zi chalasavod, tegirmonning gardini yutib yurgan notavon bir kimsa bo‘lsa" jumlasida kishi haqida salbiy, tahqirlovchi ifodalar ishlatilgan: "chalasavod", "notavon", "tegirmonning gardini yutib yurgan" kabi iboralar uning kamchiliklarini, zaif tomonlarini ochib ko'rsatadi. Ushbu jumla asosida kamsitish va salbiy tasvir mavjud bo'lib, bu ifodalar disfemizm sifatida qaraladi. Bunday so'zlar jamiyatda yuqori ijtimoiy statusga ega bo'lmagan yoki past darajada baholangan odamlar haqida salbiy tasavvur uyg'otadi. Asardagi bu jumlaning nemischasi bilan qiyoslasak , xuddi shunday klassik dissfemizm qo`llanilgan, ya`ni insonning zaif tomoni berilmoqda.Nemis tili tarjimada juda kuchli disfemizm “ Das Lecken den Stiefel “ “etigini yalash “ bizdagi poyini so`zini bu forsiy tilda “poyabzal” so`zidan kelib chiqqan

***O‘zgacha ruhiy holat yoki ziddiyatni aks ettirish:** "so‘qmoq", "qarzdor", "arqon uzilgan". Asliyatdan:

Jumla „**Munaqalar ilakishsa, zulukdek yopishib oladi, iroda degan narsa qolmaydi, burnidan ip o‘tqazib, qayoqqa bursang, shu yoqqa yaralaydi, qaram bo‘ladi -qoladi...**“ murakkab tuzilgan bo‘lib, bir nechta tasviriy tasvirlar va holatlar o‘z ichiga oladi.

„Wenn so einer einbeisst, saugt er sich fest <u>wie ein Egel</u>. <u>Der hat keinen eigenen Willen</u> mehr, dem kannste einen Strick durch die Nase ziehen und er wird dir nachlaufen, egal in welche Richtung du ihn führst, er ist dir verfallen.“[153] Bu jumlada disfemizm sifatida „Iroda degan narsa qolmaydi“ va „qaram bo‘ladi“ kabi ifodalar o‘zining salbiy va manipulyativ ma’nosini o‘z ichiga oladi. Bu

[152] Bassnett, S. (2002). Translation Studies (3rd ed.). London: Routledge.
[153] Nazarov, U. (2004). Chayon Yili. Toshkent,Sharq Nashriyoti

dysphemizm sifatida tasniflanadi, chunki shaxsning ruhiy yoki ijtimoiy holati yomonlashadi, uning erkinligi yo‘qoladi. Nemis tilida esa keng tarqalgan disfemizmlar (ya’ni, kimgadir yoki nimagadir nisbatan salbiy, haqoratli, yoki kamsituvchi tarzda ishlatiladigan ifodalar) turli kategoriyalarga bo‘linadi. Quyida ba’zi asosiy kategoriyalarga misol keltirish mumkin:[154]

1. **Etnik va milliy disfemizmlar**: Ma’lum etnik guruhlarni haqoratlash yoki barqaror tassavvurlar ya`ni andaza uchun ishlatiladi. Masalan: "Kanake" (haqoratli tarzda afro-nemislar haqida), "Polacke" (polyaklar uchun haqoratli atama).
2. **Jismoniy yoki aqliy nogironlikka oid**: Nogiron yoki aqliy jihatdan farqli insonlarni masxara qilish yoki haqoratlash uchun. Masalan: "Spasti" (spastik falajlikdan aziyat chekayotgan insonlarga nisbatan), "Krüppel" (jismoniy nogironlarga nisbatan kamsituvchi).
3. **Kasb va ijtimoiy mavqega oid disfemizmlar:** Muayyan kasblarni yoki ijtimoiy sinflarni kamsituvchi so‘zlar. Masalan: "Bulle" (politsiyachilarni kamsitish), "Assi" (asotsial, madaniyatsiz shaxs).
4. **Diniy asosdagi disfemizmlar**: Diniy e’tiqodlarga asoslangan haqoratli iboralar. Masalan: "Moslem", lekin salbiy, andazaviy ohangda ishlatilganda, yoki yahudiylarga qarshi ishlatiladigan "Jude" ishlatiladi.
5. Hayvonlar asosidagi metaforik disfemizmlar,ya`ni hayvon nomlari orqali kamsitish. Masalan: "Schwein" (cho‘chqa), "Kuh" (sigir – ayolga nisbatan kamsituvchi), "Affe" (maymun – irqiy yoki axloqiy pastlikni anglatadi).[155]

Disfemizmlar ko‘pincha asar qahramonlarining ijtimoiy holatini yoki ma’naviy bo‘shliqlarini ochib berishda ishlatiladi. Nazarovning "Chayon yili" asarida bu turdagi so‘zlar, ayniqsa, ijtimoiy adolatsizlik, shaxsiy muammolar va ma’naviy tanazzulni ko‘rsatishda ishlatiladi. Asar qahramonlarining ko‘pgina qiyinchiliklari, ularning hayotga qarashlari va atrof-muhitga munosabatlari orqali o‘quvchiga taqdim etiladi. “Chayon yili” asaridagi disfemizm namunalarini U. Nazarovning asaridagi disfemizmlarni tahlil qilishda asar qahramonlarining turli ijtimoiy qatlamlardan ekanligi va ular orasidagi ziddiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, asar ichidagi qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlar va ma’naviy tanazzul , ya`ni targ‘ib qilinadi. Misol uchun, asar qahramonlaridan biri, aytgancha, “boshqa odamlar uchun men faqat o‘g‘ri va so‘qmoqman” deb bildiradi. Bu ifoda qahramonning ijtimoiy rolini salbiy tasvirlashga yordam beradi. Boshqa bir misolda, “men hech qachon yovuz odamga aylanishni xohlamadim”, deb aytiladi, bu ifoda esa qahramonning o‘ziga bo‘lgan noaniq munosabati va ijtimoiy tarmoqlardagi o‘rinini tasvirlaydi. Tarjimadagi disfemizmlar bilan shug‘ullanayotganda, nemis tiliga o‘tganda ba’zan so‘zlar o‘zgartiriladi, ba’zan esa salbiy tasvirni saqlab qolish maqsadida boshqa muqobillardan foydalaniladi. Asarning nemischa tarjimasi, aynan bunday disfemizm ifodalarini qanday aks ettirganini tahlil qilish muhimdir. Disfemizmlar tarjimasini amalga oshirishda

[154]. House, J. (2009). Translation: A Multidisciplinary Approach. London: Palgrave Macmillan.
[155] Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translation. Leiden: E.J. Brill.

tarjimon bir nechta metodlarni qo‘llaydi. Har bir metod, asarning ruhiyatini va asl mazmunini saqlab qolish uchun turlicha rejalarni talab qiladi[156]:

1. **To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima:** Bu usulda asar iborasi aslida mavjud bo‘lgan mazmunni aniq aks ettiradi. Misol uchun, o‘zbek tilidagi “yovuz” so‘zi nemis tilida “böse” deb tarjima qilinishi mumkin. Misol: **Jumla „Hozir bechora tutdek to‘kilib o‘tiribdi, borib aytsam, bilmadim, shaytonlab qolmasmikan“ ning lingvomadaniy tahlili quyidagicha amalga oshiriladi. Nemischasi: Der Satz „Jetzt sitzt der Ärmste da wie ein Maulbeerbaum, wenn er geschüttelt worden ist, und wenn ich jetzt wiederkomme, ich weiß nicht, womöglich fällt er in Ohnmacht...“** „Shaytonlab qolmasmikan“ iborasini disfemizm sifatida ko‘rish mumkin, chunki u odamning yomon holatga tushish xavfini ko‘rsatadi, bu esa salbiy ma’noda ishlatiladi.[43bet U. Nazarov „Chayon yili“]

2. **Yumshatish (eufemizmga aylantirish):** Bunda, asar qahramonining ruhiy holatiga nisbatan noaniqliklar yoki salbiy tasvirlar yumshatiladi. Misol uchun, **"qotil"** so‘zining o‘rniga **"foyda ko‘rgan"** yoki **"baxtsiz odam"** kabi yumshatilgan ekvivalentlar ishlatilishi mumkin.

3. **Tarjimada chetlab o‘tish yoki almashtirish:** Ba’zan, qahramonlarning so‘zlari madaniyatlararo tafovutlar yoki qabul qilinmaydigan so‘zlar tufayli o‘zgartiriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **“qo‘rquvli”** ifodasi nemis tilida **“erschreckend”** (hayajonlantiruvchi) yoki **“beängstigend”** (qo‘rqinchli) tarzida o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin. Misol:

4.Stilistik ekvivalent orqali ifodalash: Tarjimon maqsadli tilning stilistik ehtiyojlariga moslashtirish uchun ekvivalent so‘z yoki iboralardan foydalanadi. Misol: **Jumla „Elchiga o‘lim yo‘q, taqsir, muborak bo‘lsin kuyov“ ning Tarjimasi:„Dem Boten darf kein Haar gekrümmt werden“: Dieser Ausdruck reflektiert den Schutz und die Unantastbarkeit von Boten in früheren Zeiten, die als Überbringer wichtiger Nachrichten geschätzt wurden.** [157]„Taqsir“ so‘zi biror yomon ishni ifodalashda disfemizm sifatida ishlatiladi. Bu yomonlik yoki gunohni ta'kidlashda ishlatiladigan so‘z bo‘lib, salbiy ma'noga ega. Nemis tili tarjimasida ajiyib ibora , „ Kein Haar kuemmern“ – Qayg`urishnimg hojati yo`q iborasi bizning „Elchiga o`lim yo`q iboeramizga muqobil tarjima qilingan.

Maqolamizda asardan olingan misol va tahlillar natijasida kelib chiqib, tarjimada disfemizmlarning ma`no doirasi , holati va madaniyatlararo tafovutlar to`g‘risida ham to‘xtalib o‘tdik. Tarjimon, disfemizmlarni tarjima qilishda madaniyatlararo farqlarni hisobga olish juda muhim. O‘zbek tilidagi qahramonlarning kamsituvchi ifodalari, nemis madaniyatida qanday qabul qilinishini aniq bilish zarur. O‘zbek tilida ko‘plab disfemizmlar zamonaviy ijtimoiy tizimning qiyinchiliklari bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis madaniyatida ular ba’zan kutilgan darajada salbiy yoki haqoratli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, tarjimon maqsadli auditoriyani hisobga olgan holda, ba’zida ba’zi iboralarni yumshatib tarjima qiladi yoki ular o‘rniga boshqa ekvivalentlarni tanlaydi.

[156] Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
[157] Baldauf, I. (2009). Das Jahr des Skorpions. Frankfurt am Main, Suhrkamp Verlag.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazarovning “Chayon yili” asarining nemischa tarjimasi “Das Jahr des Skorpions “– o‘zbek adabiyotining asarlari bilan tanishishni istagan nemis tilidagi auditoriya uchun muhim eslatma bo‘lib, adabiy tarjima jarayonida madaniyatlararo farqlarni chuqur anglashni talab qiladi. Tarjimon, disfemizmlarni tarjima qilishda, o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda, asl asar ruhiyatini va madaniy ehtiyojlarni birlashtira olishga harakat qilgan.

TAKLIFLAR:

1. Tarjimonlarga madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishda yanada katta e’tibor berish tavsiya etiladi.
2. Disfemizmlarning kuchini saqlash va tilning o‘ziga xos ohangini saqlab qolish uchun metodologik yondashuvlarni kengaytirish zarur.
3. O‘quvchilarga bu turdagi tarjimalar orqali madaniyatlararo va tilshunoslikka oid o‘rganish imkoniyatlarini yanada kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Nazarov, U. (2004). Chayon Yili. Toshkent,Sharq Nashriyoti
2. Baldauf, I. (2009). Das Jahr des Skorpions. Frankfurt am Main, Suhrkamp Verlag.
3. House, J. (2009). Translation: A Multidisciplinary Approach. London: Palgrave Macmillan.
4. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translation. Leiden: E.J. Brill.
5. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
6. Bassnett, S. (2002). Translation Studies (3rd ed.). London: Routledge.
7. Schäffner, C. (2004). Discourse and Translation. Manchester: St. Jerome Publishing.
8. Munday, J. (2016). Introducing Translation Studies: Theories and Applications (4th ed.). London: Routledge.
9. Venuti, L. (2012). The Translation Studies Reader (3rd ed.). London: Routledge.
10. Yusupov, Sh. (1992). Kafansiz Ko‘milganlar. Toshkent: O‘zbekiston.
11. Yusupov, Sh.(2005). Die Ohne Leichentuch Begrabenen –Übersetzung von Ingeborg Baldauf

TARJIMASHUNOSLIKDA BEVOSITA TARJIMANING AHAMIYATI (DANTE ALIGERI “ILOHIY KOMEDIYA” ASARI MISOLIDA)

Niyozova Muharram Nosimjonovna
Namangan Davlat Chet Tillar Instituti magistranti

Abstract:
This article explores the theoretical and practical significance of direct translation in translation studies, using Dante Alighieri’s Divine Comedy as a case study. Focusing on Canto XXVIII (lines 55–61) of the Inferno, the paper provides a comparative analysis of English, Russian, and Uzbek translations. The study highlights how direct translation preserves the author’s original stylistic, semantic,

and cultural intent more effectively than indirect translation. Issues such as semantic deformation and the erasure of cultural codes in mediated translations are critically examined.

Annotatsiya:
Ushbu maqola tarjimashunoslikdagi bevosita tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Dante Aligerining “Ilohiy Komediya” asarining “Inferno” bo‘limi 28-qo‘shig‘ining 55–61-bandlari asosida ingliz, rus va o‘zbek tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Bevosita tarjimaning muallif matnini stilistik, semantik va madaniy darajada asliga sodiq holda yetkazishdagi roli tadqiq qilinadi. Tarjimonning ijodiy erkinligi, vositachi til orqali tarjimalarda yuzaga keladigan semantik deformatsiya, madaniy kodlarning yo‘qolishi kabi muammolar tahlil etiladi.

Аннотация:
В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты прямого перевода на примере «Божественной комедии» Данте Алигьери. Анализируются переводы 28-й песни «Ада» (строки 55–61) на английский, русский и узбекский языки. Делается акцент на том, как прямой перевод позволяет сохранить авторскую стилистику, семантику и культурный контекст более точно по сравнению с косвенным переводом. Также анализируются проблемы семантической деформации и утраты культурных кодов в посреднических переводах.

Tarjimashunoslik, ayniqsa adabiy tarjima sohasi, madaniyatlararo muloqotda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir tarjima til, madaniyat va tafakkur tizimlarining kesishmasida yuzaga keladi. Shuning uchun har bir tarjima — bu nafaqat tilshunoslik, balki sosiologik, falsafiy va estetik jarayon hamdir.

Bevosita tarjima (source language → target language) — matnni to‘g‘ridan-to‘g‘ri manba tilidan tarjima qilish — bu jarayonda eng asosiy yondashuvlardan biri sanaladi. Ayniqsa, klassik adabiy matnlar, masalan, Dante Aligerining *“Ilohiy Komediya”* asari kabi ko‘p qatlamli metafora va diniy-siyosiy kodlarga boy asarlarda, bevosita tarjima muallif niyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada aynan shu masala tahlil etiladi.

Dante Aligeri (1265–1321) — o‘rta asr Italiyasining eng yirik shoiri, faylasufi va siyosiy arbobi. Uning *“Divina Commedia”* asari nafaqat badiiy yuksaklik, balki teologik-falsafiy tizimni o‘zida mujassam etgan, o‘z zamonasining aks-sadosi bo‘lgan. Asar uch qismdan iborat: Inferno (Do‘zax), Purgatorio (A’rof) va Paradiso (Jannat). Har bir bo‘lim 33 qo‘shiqdan, jami 100 qo‘shiqdan iborat bo‘lib, trilogik qurilish Dante dunyoqarashining timsoli sifatida talqin qilinadi.

Dante katolik dunyoqarashiga sodiq bo‘lib, barcha boshqa din vakillarini (hatto Vergiliy, Ibn Sino, Aristotel kabi buyuk shaxslarni) do‘zaxda tasvirlaydi. Bu esa tarjimada diniy va ideologik qatlamlarni aniq yetkazishni talab qiladi. Dante o‘z zamonasining diniy-siyosiy ziddiyatlarini poetik til orqali ifodalaydi.

"Inferno"da Fra Dolchino, Mahomet (s.a.v.) kabi obrazlar do‘zaxning og‘ir azobga mahkum bo‘lgan qatlamlarida tasvirlanadi. Bu holat esa tarjimada stilistik noziklikni, kontekstual sezgirlikni talab qiladi.

Fra Dolchino – XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida italiyada yashagan diniy islohotchi va “Apostolik birodarlar” radikal harakati yetakchisi bo`lgan. U 1300-yillada cherkovning boyligi va buzuqligiga qarshi chiqdi va ilk nasroniylikdagi kambag`allik va tenglik g`oyalariga qaytishni targ`ib qildi. Katolik cherkovi uni bid`atchilikda aybladi. 1307- yilda Dolchino va uning izdoshlari urushda yengilib, u qo`lga olinib, qiynoqqa solingan: oldin tiriklay chopib , keyin yoqib yuborilgan. U ko`p jihatdan o`rta asrning erta ijtimoiy islohotchilari va protest harakatlarining yetakchi vakili bo`lgan. Dante esa o`zining katolik diniga sodiq qolgan. “Ilohiy Komediya “da ham hamma boshqa dindagi buyuk olimlar: g`arbda Aristotel , sharqdagi Ibn Sinoni, hatto o`z ustozi Vergiliyni ham do`zahda tasvirlaydi va ularga faqatgina katolik bo`lmaganlari uchun shu ahvolda ekanligini aytib o`tgan. Unga o`z davrida qarsh chiqqan protestant Dolchino esa do`zahning eng qattiq azobli qavatida joylashtirilgan. Umuman katoloklar nafratlanadigan din Islom dini yetakchisi payg`ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamni esa, tabiiyki eng og`ir azobli qavatda tasvirlab, Fra Dolchinoni ogohlantirayotgan holda tasvirlagan.

Dante Aligerining “Ilohiy komediya” asari jahon adabiyotining nodir durdonalaridan biri sanaladi. Ushbu asar italyan tilida yozilgan bo‘lib, chuqur falsafiy va diniy mazmunga ega. “Ilohiy komediya”ni tarjima qilishda tarjimon nafaqat matnni tushunishi, balki uning ichki ma’nolar qatlamini ham ilg‘ay olishi kerak. Asarda qo‘llanilgan poetik shakl (tercina), ritm va ravoq, diniy-simvolik obrazlar, italyan tilining o‘ziga xos leksikasi bevosita tarjimani talab etadi.

Bevosita tarjima orqali tarjimon ushbu asardagi murakkab tushunchalarni, Dante uslubining o‘ziga xosligini, va o‘sha davr Italiya madaniyatini iloji boricha to‘liqroq yetkazishga harakat qiladi. Ikkilamchi manbadan amalga oshirilgan tarjimalarda esa, bu qatlamlar ko‘pincha yo‘qolib ketadi yoki buziladi. Masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan variantlarda ba’zan original italiyancha kontekst buziladi.

Shuningdek, bevosita tarjima orqali asarning estetik ta’siri saqlanadi. Dante o‘z asarida til bilan sehrli ohang yaratgan. Uni boshqa tilga o‘tkazishda bu ohangni saqlab qolish — tarjimonning mahoratiga bog‘liq. Bu esa bevosita tarjimasiz deyarli imkonsiz.

Mazkur tadqiqot Dante Aligerining “Ilohiy Komediya” asarining “Inferno” bo‘limi, xususan 28-qo‘shig‘ining 55–61-bandlarini tahlil qilish orqali bevosita va bilvosita tarjima o‘rtasidagi farqlarni ochib berishni maqsad qilgan. Bu bandlarda Fra Dolchino va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) obrazlari orqali diniy-falsafiy va ideologik mazmun ifodalangan bo‘lib, tarjimada mazkur qatlamlarni qanday yetkazilganini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Demak, quyidagi tarjimalarni tahlil qilamiz:

John Ciardi (inglizcha tarjima, italyan tilidan bevosita);

Mixail Lozinskiy (ruscha tarjima, ko‘pchilik hollarda inglizcha matn asosida);

Abdulla Oripov (o‘zbekcha tarjima, rus tilidagi versiyaga asoslangan)

John Ciardi tarjimasi (italyanchadan bevosita, ingliz tilida):
On hearing him, more were there than a hundred
Who stopped there in the ditch to look at me.
And who through their surprise forgot their pain.
“To Fra Dolchino do thou therefore say
Thou that, perhaps, wilt shortly see the sun,
If soon he would not hither follow me,
To arm him so with food, lest stress of snow
Should give the Novarese a victory,
Which else would not be easily obtained.”
When one foot he had raised to go away,
Mahomet said these words to me; which done,
Upon the ground he stretched it to depart. [2]

Mixail Lozinskiy tarjimasi (rus tilida, bilvosita):
Их больше ста остановилось вдруг,
Услышав это, и с недвижным взглядом
Дивилось мне, своих не помня мук.
“Скажи Дольчино, если вслед за Адом
Увидишь солнце: пусть снабдится он,
Когда не жаждёт быть со мною рядом,
Припасами, чтоб снеговой заслон
Не подоспел новарцам на подмогу;
Тогда нескоро будет побежден”.
Так молвил Магомет, когда он ногу
Уже приподнял, чтоб идти; потом
Её простер и двинулся в дорогу. [3]

Abdulla Oripov tarjimasi (o‘zbek tilida, bilvosita):
Nogoh to‘plandi-yu jamiki mardum
Butkul unutishib o‘z azobini
Menga angraydilar, etolmay mafhum:
“Qayta ko‘rsang hayot xush oftobini
Dolchinoga aytgil, mahv bo‘lmay to
Topsin jon saqlashning yo‘l, hisobini.
Qor ko‘chib, Novardan yetguncha balo
Sarishtasin qilsin chidab, amallab
Bir muddat yengilmay turgay, inshollo”.
Yana yo‘lga tushib, doira bo‘ylab,
Kezmoq-chun qo‘zg‘alib qo‘yarkan qadam –
Shu bo‘ldi Muhammad aytgan so‘ngi gap. [4]

Quyidagi tahlil har bir tarjimada kuzatilgan leksik, stilistik va madaniy farqlarni, ayniqsa bevosita tarjimaning ustunliklarini ko‘rsatishga qaratilgan.

Leksik-semantik tafovutlar:
"More than a hundred" / "Их больше ста" / "Jamiki mardum": Ingliz va rus matnlarida aniq sonli ifoda mavjud bo‘lsa, Oripov tarjimasida bu so‘z "jamiki mardum" deb poetik umumlashtirish orqali ifodalangan. Bu estetika uchun foydali, ammo tarixiy aniqlikni yo‘qotadi.
"To arm him so with food" / "пусть снабдится он припасами" / "jon saqlashning yo‘l, hisobini": Bevosita tarjimada Dante o‘zining diniy-taktik maslahatini aniq bildiradi. Oripov esa buni majoziy ifoda bilan yumshatadi. "Jon saqlash" iborasi diniy konnotatsiyaga ega.

Stilistik tafovutlar:
Og‘zaki va yozma ohanglar: Ciardi tarjimasida dramatik ohang saqlanib qolgan: "said these words to me" aniq ifoda. Lozinskiyda bu "Так молвил Магомет" shaklida poetik, ammo klassik uslubda berilgan. Oripov esa uni "Shu bo‘ldi Muhammad aytgan so‘ngi gap" deb dramatik nuqtani kuchaytiradi.
Ritmik va metrik sodiqlik: Ciardi she’riy vaznni asliga yaqin saqlashga uringan. Oripov esa o‘zbek she’riyatining milliy ohangiga sodiq qoladi, bu esa uni mustaqil adabiy asar sifatida qabul qilishga imkon beradi.
Fra Dolchino obrazining konteksti: Fra Dolchino – XIII asr oxiri diniy islohotchi. Dante uni do‘zaxga joylashtirgan, bu orqali o‘zining katolik cherkovi mafkurasini ilgari surgan. Ciardi tarjimasida bu kontekst to‘laqonli saqlanadi. Oripov esa kontekstni izohlamaydi, lekin diniy ohangni kuchaytiradi.
Mahomet obrazining talqini: Dante Muhammad (s.a.v.)ni do‘zaxga joylashtirgan, bu cherkov pozitsiyasining aksidir. Ciardi bu qismni neytral yetkazadi, Lozinskiy esa silliqlashtiradi. Oripov esa diniy tuyg‘ularni inobatga olib, iborani yumshoq ifoda bilan yakunlaydi.

Umumiy xulosa

Bevosita tarjima, ayniqsa badiiy adabiyotda, tarjimaning aniqligi, uslubiy xususiyatlar va madaniy qatlamlarning saqlanishi uchun nihoyatda muhimdir. “Ilohiy komediya” misolida bu yondashuvning ustunliklari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, bunday asarlarni tarjima qilishda imkon qadar asl manbadan — bevosita tarjima asosida ishlash zarur.

Tarjimalarda leksik boylik, stilistik moslashuv va madaniy pozitsiyalarning farqi yaqqol ko‘rinadi. Bevosita tarjimada Dante ruhiyati va falsafasi aniq aks etadi, bilvosita tarjimalarda esa bu ma’lumotlar majoziy va ba’zan yo‘qotilgan shaklda namoyon bo‘ladi.
Taqdimotdagi barcha asosiy tahliliy nuqtalar, xususan leksik farqlar, diniy obrazlar va tarixiy shaxslar talqini — ushbu bo‘limda to‘liq aks ettirildi. Bu esa maqolaning asosiy maqsadini — bevosita tarjimaning afzalliklarini isbotlashni ta’minlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bevosita tarjima – ayniqsa murakkab, ko‘p qatlamli adabiy matnlar uchun – mualliflik uslubi, poetik ritm, semantik ohang, va eng asosiysi, madaniy-historik kontekstni to‘liq saqlash imkonini beradi. Dante kabi chuqur diniy-falsafiy qatlamlarga ega bo‘lgan asarlar tarjimasida bevosita uslub o‘zining afzalligini to‘laqonli namoyon qiladi.

Abdulla Oripov kabi ustoz tarjimonlar ijodida san’atkorlik va o‘zbek poetikasining chiroyli uyg‘unligi seziladi. Biroq, bunday tarjimalar tugal izoh va ilmiy sharhlar bilan boyitilmasa, asar konteksti yuzaki qabul qilinadi. Shularni hisobga olinsa, o‘zbek tarjimonlarini manba tillarini (italyan, fransuz, nemis) to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganishga rag‘batlantirish, bevosita tarjimalar uchun maxsus ilmiy-ma’rifiy dasturlar va loyihalar yaratish, tarjimalarda izohlar va madaniy kontekstlarni ajratib ko‘rsatish amaliyotini kengaytirish, tarjimashunoslikda bevosita tarjima bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish kabi masalalar paydo bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dante Alighieri. *Divina Commedia: Inferno*. Asl matn.
2. Ciardi, John. *The Divine Comedy: Inferno*. New York, 1954.
3. Lozinskiy, M. *Божественная комедия: Ад*. Moskva, 1976.
4. Oripov, A. *Ilohiy Komediya*. Toshkent: G‘. G‘ulom nashriyoti, 1984.
5. Nida, Eugene. *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill, 1964.
6. Toury, G. *Descriptive Translation Studies and Beyond*. Benjamins, 1995.
7. Even-Zohar, I. *Polysystem Studies*. Poetics Today, 1990.
8. Niyozova, M. *Dante “Ilohiy Komediya” tarjimalarining qiyosiy tahlili*. (Taqdimot materiallari, 2025).

TARJIMADA LEKSIK VA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATI: UILYAM SHEKSPIR SONETINING JAMOL KAMOL TARJIMASI ASOSIDA

Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet tillari institutining
Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik yo‘nalishi
1-bosqich magistranti
Muhammadaliyeva Sitora
sitora.1121@icloud.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning sonetlaridan biri va uning Jamol Ka mol tomonidan amalga oshirilgan o‘zbek tilidagi tarjimasi asosida tarjimada uchraydigan leksik va grammatik transformatsiyalar tahlil qilinadi. Qiyosiy-lingvistik tahlil asosida tarjimada yuzaga kelgan sintaktik va semantik o‘zgarishlar aniqlanadi, transformatsiya jarayonining lingvistik va poetik xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari tarjimada grammatik tuzilma va leksik birliklar

o‘rtasidagi tafovutlar natijasida yuzaga keladigan transformatsiyalarning tarjimaning estetik va semantik qiymatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.
Kalit so‘zlar: Shekspir, tarjima, grammatik transformatsiya, leksik transformatsiya, sonet, poetik tarjima, inversiya, sinonimiya, semantik tafovut, Jamol Kamol

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические особенности лексических и грамматических трансформаций на основе одного из сонетов Уильяма Шекспира и его перевода на узбекский язык, выполненного Джамолом Камолом. Путем сравнительно-лингвистического анализа выявляются синтаксические и семантические изменения, раскрываются лингвистические и поэтические особенности процесса трансформации. Результаты исследования подтверждают, что трансформации, возникающие из-за различий в грамматическом строении и лексических единицах, оказывают положительное влияние на эстетическое и семантическое качество перевода.
Ключевые слова: Шекспир,перевод, грамматическая трансформация, лексическая трансформация, сонет, поэтический перевод, инверсия, синоними, семантическое различие,Джамол Камол

Abstract

This article analyzes lexical and grammatical transformations based on one of William Shakespeare's sonnets and its Uzbek translation by Jamol Kamol. Through comparative linguistic analysis, syntactic and semantic changes are identified, and the linguistic and poetic features of the transformation process are revealed. The results of the study confirm that transformations arising from differences in grammatical structure and lexical units positively affect the aesthetic and semantic quality of the translation.
Keywords: Shakespeare, translation, grammatical transformation, lexical transformation, sonnet, poetic translation, inversion, synonymy, semantic difference, Jamol Kamol

Tarjima — bu til vositalari orqali bir tilda ifodalangan fikrni boshqa tilga o‘tkazish jarayoni bo‘lib, u lingvistik jihatdan murakkab hodisa sanaladi. [158]Ayniqsa, poetik tarjima bu jarayonning eng nozik,mashaqqatli va mas’uliyatli yo‘nalishlaridan biridir. Poeziyada ohang, ritm, obrazlilik, madaniy fon va stilistik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shekspirning sonetlari esa o‘zining poetik go‘zalligi, semantik chuqurligi va murakkab sintaktik qurilishi bilan ajralib turadi. Ularning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida tarjimon til va madaniyat tafovutlarini yengib o‘tishga harakat qiladi. Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning sonetlaridan biri va uning Jamol Kamol tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan shakli asosida leksik va grammatik o’zgarishlarning lingvistik xususiyatlari o‘rganiladi.

[158] . Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik tahlil metodologiyasi qo‘llanildi.[159] Shekspirning ingliz tilidagi soneti va Jamol Kamolning o‘zbek tilida qilgan tarjimasi sintaktik, morfologik va leksik jihatdan taqqoslandi. Analiz davomida tarjimada uchraydigan quyidagi transformatsiyalar(o’zgarish) turlari o‘rganildi: grammatik transformatsiyalar (inversiya, tushirib qoldirish), leksik transformatsiyalar (sinonimiya, antonimiya, umumlashtirish), poetika va ma’no transformatsiyasi (obrazli ifodalarni erkin talqin qilish). Shuningdek, tarjimada qo‘llanilgan poetik kompensatsiya (yo‘qotilgan ma’noni boshqa vositalar bilan to‘ldirish) hollari ham alohida ko‘rib chiqildi,amaliy hamda nazariy tahlil qilindi.

Tahlil Shekspir sonetining Jamol Kamol tomonidan tarjima qilinishi jarayonida quyidagi transformatsiyalardan foydalanganini ko‘rsatdi:[160]

Grammatik transformatsiyalar:
- Inversiya: Ingliz tilida “From fairest creature we desire increase” jumlasi odatiy so‘z tartibida (Adverbial + S + V + O) berilgan. Tarjimada esa “Istaymiz, go‘zallar bo‘lsin ziyoda” tarzida egasiz (ya’ni “we” – “biz” tushib qolgan) va inversiya asosida ifodalangan.
- Ega va kesimning tushirilishi: O‘zbek tilida sintaktik moslashuvlar evaziga so‘zlar qisqartirilgan va ixtiyoriy tartibda joylashtirilgan.

Leksik transformatsiyalar:
- Sinonimik o‘zgarish: “Fairest creature” iborasi “go‘zallar” sifatida umumlashtirib tarjima qilingan.
- Antonomik ifoda: “Never die” ifodasi tarjimada “yashnasin abad” shaklida antonimiya orqali ijobiy shaklga o‘zgartirilgan.
- Tushirib qoldirish: “Thereby” va “we” so‘zlari tarjimada umuman ishlatilmagan.
- Obrazli kompensatsiya: “Tender heir” iborasi tarjimada “nozik gul g‘unchasi” tarzida obraz bilan ifodalangan.

Poetika va mazmuniy transformatsiyalar: Har bir satrda tarjimon mazmunni saqlagan holda yangi obrazlar va poetik vositalar orqali uni o‘zbek tilida ifoda etgan.

Yuqoridagi natijalar asosida quyidagi muhim jihatlar aniqlanadi:
1. Grammatik tafovutlar: Ingliz va o‘zbek tillari orasidagi sintaktik farqlar grammatik transformatsiyalarni keltirib chiqaradi.
2. She’riy tarjimada erkinlik: Jamol Kamolning tarjimasida poetik ma’no, mazmun va tuyg‘u saqlab qolingan,biroz o’zgartirishlar bo’lishiga qaramay.

[159] Vinay, J.-P. & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins
[160] . Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.

3. Transformatsiya vositasi sifatida poetik kompensatsiya: Ma’nodagi yo‘qotishlar obrazli ifodalar orqali kompensatsiya qilingan.

Ushbu tadqiqot Shekspir sonetining o‘zbek tilidagi tarjimasida leksik va grammatik transformatsiyalar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatdi. Grammatik transformatsiyalar, ayniqsa, so‘z tartibini o‘zgartirish, tushirib qoldirish kabi usullar orqali amalga oshirilgan. Leksik jihatdan esa sinonimik, antonimik va metaforik o‘zgarishlar poetik tuyg‘uni saqlab qolishga xizmat qilgan. She’riy tarjima jarayonida transformatsiya vositasi nafaqat til tafovutlarini yengib o‘tish, balki original matnning estetik ruhini etkazish uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Jamol Kamolning tarjimasi bu jarayonning yuksak namunasi sifatida qadrlanishi mumkin. Transformatsiyalar tarjima nazariyasi doirasida faqatgina texnik o‘zgarish emas, balki lingvistik va madaniy ko‘prik vazifasini ham bajaradi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
2. Vinay, J.-P. & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins.
3. Bassnett, S. (2002). Translation Studies. Routledge.
4. Shekspir, U. (2002). Sonetlar. Jamol Kamol tarjimasi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.
5. Komissarov, V.N. (1999). Teoriya perevoda (Translation Theory). Moskva: Vysshayashkola.
6. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation.Routledge.

CHALLENGES IN TRANSLATION AND THE TRANSLATOR’S PROFESSION

Namangan davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Dilnoza Tug‘unova,
Prague, Czech Republic Prague City University,
School of Media and IT Gramoz Çubreli, Ph.D.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima jarayonining murakkab va mas’uliyatli jarayon ekani, tarjimonlik kasbining o‘ziga xos xususiyatlari, tarjimonlarning kasbiy malakasi va tajriba darajasining ahamiyati yoritilgan. Muallif tarjima nazariyasi, tarjimonlik amaliyoti, tarjima turlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy-nazariy mulohazalar yuritadi. Shuningdek, maqolada avtomatik tarjima tizimlari rivojlanayotgan bo‘lsa-da, tarjimaning ijodiy jihatlari va inson omilining o‘rni doimo ustun ekani ta’kidlanadi. Muallif tarjima faoliyatida aniqlik, xolislik, lisoniy va madaniy kompetensiya muhim o‘rin tutishini asosli misollar orqali tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar:tarjima, tarjimon, tarjima turlari, og‘zaki tarjima, yozma tarjima, sinxron tarjima, tafsil tarjima, tarjima nazariyasi, ijodiy jarayon, til kompetensiyasi.

Annotation. This article explores the complexity and responsibility inherent in the translation process, highlighting the unique characteristics of the translation profession as well as the significance of translators' professional skills and levels of experience. The author presents theoretical and practical reflections on translation theory, the practice of translation, and the specific features of different types of translation. The article also emphasizes that although machine translation systems are developing, the creative aspects of translation and the role of the human factor remain paramount. The author analyzes, with well-founded examples, how accuracy, impartiality, and linguistic and cultural competence play a crucial role in translation activities.

Keywords: translation, translator, types of translation, oral translation, written translation, simultaneous translation, consecutive translation, translation theory, creative process, language competence.

Translation – a literary form of re-creation. Translation is a literary form of re-creating a text from one language into another. It serves as one of the most essential forms of intercultural communication. Depending on the nature of the original and the translated text, translation is classified into various types, such as literary translation, scientific translation, and others. Based on the method of conveying the original meaning, it can also take forms such as word-for-word (literal) translation, free translation, and explanatory (commentary) translation.

RESEARCH METHODOLOGY

This article employs analytical methods based on both scientific-theoretical approaches and practical experience. The author presents the fundamental principles of translation theory and connects them to real-world translation practice. Using factual data, historical references, and practical experiences in the field, the article analyzes various types and directions of translation. Real-world issues in translation activity are explored, enriching theoretical knowledge with practical examples.

LITERATURE REVIEW

The article refers to both Western and Eastern traditions of translation, including translation practices in ancient Egypt and the Napoleonic era, as well as the principles of the Geneva School of Translators. It draws upon historical and modern sources, highlighting key theories that align with the views of leading scholars in the development of translation studies. The author emphasizes the integration of language, culture, and subject-area competence, summarizing advanced ideas and focusing on the practical aspects of translation theory.

Translation originated in ancient times out of the need for communication between people belonging to different tribes and communities. This early form, known as oral interpretation or “interpreting” still exists today[161].

[161] “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашрёти Тошкент 2004, 8-том, 272 б.

Translation – a complex and responsible process. Despite the emergence of automatic translation systems based on artificial intelligence technologies, translation has always remained a creative process and will continue to do so. If a person is familiar with at least the minimum necessary information about translation, this can help facilitate the process of solving the task at hand. This minimum enables the translator to fully understand the task and accurately assess their actual ability to perform the translation. To achieve this, one must acquire the skills and methods developed by professional translators and make effective use of translation bureau services. The manner, tone, form, and style in which the material is presented also hold significant importance.

"The only condition for a translation to resemble the original both in form and content is the translator's ability to select and use linguistically equivalent means in the target language."

Thanks to the efforts of skilled translators, our ancestors enjoyed the works of the world's greatest poets and writers, and today we continue to enjoy them with our children. A person who lacks knowledge in a specific field of specialization and who has not accumulated years of experience cannot become a good translator, even if they have excellent language proficiency. We have all witnessed intelligent individuals confidently say, "There's nothing difficult about this text," only to be met with challenges as soon as they open the first page—challenges only a professional translator can overcome. Recognizing their lack of qualification, they abandon the task.

Why does this happen? Because a professional translator is not only proficient in the foreign language but also has a strong command of their native language—both in speech and writing. They possess a rich vocabulary and know how to use it accurately and skillfully. They are able to convey the original speaker's or writer's thoughts in the target language appropriately. Often, the foreign speaker's live speech is not translated into colloquial Uzbek but rather into a literary or "bookish" version of the language.

Subject-matter knowledge and experience gathered over time are critical factors in a translator's ability to render specialized texts. Today, international organizations such as the World Bank and the International Monetary Fund, as well as major foreign companies, demand high-quality translation—especially in consecutive and simultaneous interpreting. This, in turn, opens opportunities for translators to rise to higher positions, travel to more countries compared to other professions, gain broader experiences, and become highly paid, qualified specialists.

However, one should not forget the meaningful words of the founders of the famous Geneva School of Translators:

"At international conferences, translators are not paid for translating but for speaking well." These words reflect the bright future and direction toward which a translator should strive. Translation has long been regarded as one of the most prestigious and essential professions. The first translators appeared in Ancient

Egypt and were considered among respected individuals from that time. Napoleon Bonaparte once stated:

“A soldier who knows two languages is worth two fighters.” “Translation that reflects a subjective, biased attitude toward the original may inadvertently distort its meaning or oversimplify it. This ultimately results in presenting a different interpretation that did not exist in the original.”

Translators are divided into oral (interpreters) and written (translators), depending on their field of activity. These types of translation are very different and are even considered two separate professions in some languages of Eastern Europe. For example, in English, an oral translator is called an interpreter, while a written translator is referred to as a translator.

Oral translators are further divided into simultaneous and consecutive interpreters. Written translators, on the other hand, can be divided into technical and literary translators. Many people mistakenly believe that anyone who knows two languages well can translate from one into another. Unfortunately, this is only true for simple, everyday communication—such as ordering food at dinner or sending a brief message about a meeting time.

In these cases, many can manage without a translator. However, handling large volumes of texts in literary, legal, technical, or medical fields—which require full comprehension of all details and a high command of Uzbek—is still the domain of professional translators. The belief that oral translators can easily perform the work of written translators or vice versa is also mistaken. Translating texts in one subject area is not necessarily easier than translating those in another, and being able to translate one subject does not guarantee success in another. Just as distinguishing between different types of doctors by rank makes little sense, categorizing translators by rank is equally futile.

“No one claims that a neurologist is more qualified than a urologist. Just as a cardiologist would struggle with filling a tooth canal, a skilled literary translator like the late Cho‘lpon would have found it difficult to translate a radio engineering manual. Similarly, a translator of technical materials is unlikely to be able to render Hamlet effectively.”

Consecutive interpreters often impress simultaneous interpreters with their ability to memorize and fully express a five-minute speech in another language. However, simultaneous interpreters, who speak concurrently with the speaker, gain admiration for their exceptional abilities.

As previously mentioned, oral interpretation includes simultaneous and consecutive types. Most clients mistakenly refer to any form of oral interpretation as simultaneous. In fact, simultaneous interpretation is a specific, highly complex, and expensive type of oral interpretation.

In consecutive interpretation, the speaker delivers a portion of the speech, pauses, and allows the interpreter to translate before continuing. This form is more suitable for meetings, technical briefings, guided tours, and other interactive settings where time is less constrained.

Simultaneous interpretation, as the name implies, occurs in real time, without any pause from the speaker. The translator speaks continuously and simultaneously listens to the speaker's next phrases through a headset. This requires specialized, costly equipment: two interpreters in a soundproof booth, alternating every 30 minutes to prevent fatigue, as constant interpretation is extremely demanding.

Simultaneous interpretation is used in high-level meetings, conferences, symposia, and formal events. Only a limited number of experts—true simultaneous interpreters—are capable of performing this task due to its high difficulty and skill requirement. Their number has always been small and will likely remain so.

REFERENCE:

1. Ajunwa, Enoch. 2015. Fidelity Challenges in Translation. Translation Journal, January 2015.
2. Costeleanu, Mirela. 2009. Difficulties in Translating Specialized Texts. Editura Eiroplus.
3. Baker, Mona and Gabriela Saldanha (ed). 2009. An International Encyclopedia of Translation Studies, Volume 2.
4. Dryden, John. 2012. Dancing on ropes with fetter'd legs.
5. Dukāte, Aiga. 2007. Manipulation as a Specific Phenomenon in
6. Translation and Interpreting. Riga.Hatim, Basil and Jeremy Munday. 2004.
7. Translation. An advanced resource book. London/ New York:
8. Routledge. Letonika.lv. Vārdnīcas. Latviešu – angļu un angļu - latviešu vārdnīca.
9. Pūtele, Iveta. (ed.) 2013. Aktuālas tendences terminoloģijas teorijā un praksē. Rakstu krājums. Rīga: Latvijas Universitātes Latviešu valodas institūts.Tildes Tulkotājs (online) Dictionary.
10. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашрёти Тошкент 2004, 8-том, 272 б.
11. Таржима назарияси асослари Қудрат Мусаев Тошкент 2005 68- б.
12. Зокиров Д. Таржима санъати ва муаммолари Т:. 2009 Б. 8
13. А.В.Фёдоров. Основы общей теории перевода (лингвистический очерк). Изд-во. «Высшая школа», М., 1968, стр. 155-157.
14. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. (Devoni lug'otit turk). 3 jildlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. -T.: Fan, 1960. -500 b.
15. Nurmonov A. Tanlangan asarlar 2-jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi - Toshkent: 2012. -232 b.
16. O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Samarqand: SamDU,1999. -80 b.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ПОЭТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Ниматов Акмаль Ахмад угли
Студент II курса факультета филологии Наманганского государственного института иностранных языков им.И.Ибрата
Таджибаева Альбина Алишеровна
Преподаватель английского языка, докторант Наманганского института иностранных языков им.И.Ибрата

Аннотация: Статья посвящена одной из важнейших проблем в области художественного перевода — сохранению эквивалентности при переводе поэтических текстов. Основное внимание уделено анализу теоретических основ поэтического перевода, классификации его видов (поэтический, стихотворный, дословный), а также проблеме передачи эстетической и концептуальной информации оригинала. Особое место занимает исследование эквивалентности в переводе на материале стихотворений С.А. Есенина. В статье подчеркивается, что качественный перевод поэзии невозможен без глубокого понимания языка оригинала, культурного контекста и эмоционально-психологического потенциала текста. Работа опирается на труды известных переводчиков и теоретиков перевода, таких как С.Я. Маршак, Л.С. Бархударов, И.С. Алексеева.

Ключевые слова: поэтический перевод, эквивалентность, ритм, эмоции, стилистика, литературная передача, художественный текст, переводческое решение.

Annotation: This article addresses one of the most significant challenges in literary translation — the preservation of equivalence in the translation of poetic texts. The article focuses on the theoretical foundations of poetic translation, offering a classification of its main types (poetic, verse-based, and literal), and examines the difficulty of conveying the original's aesthetic and conceptual content. A special emphasis is placed on the issue of equivalence through the analysis of translations of S.A. Yesenin's poems. The article underscores that high-quality poetic translation is impossible without a profound understanding of the source language, cultural context, and the emotional-psychological potential of the text. The study draws on the works of renowned translators and translation theorists such as S.Ya. Marshak, L.S. Barkhudarov, and I.S. Alekseeva.

Key words: poetic translation, equivalence, rhythm, emotions, stylistics, literary transfer, artistic text, translation strategies.

Annotatsiya: Ushbu maqola badiiy tarjima sohasidagi eng muhim muammolardan biri — she'riy matnlarni tarjima qilishda ekvivalentlikni saqlab qolish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada she'riy tarjimaning nazariy asoslari, uning asosiy turlari

(she’riy, qofiyali, so‘zma-so‘z) tasnifi hamda original matnning estetik va konseptual ma’lumotini yetkazish muammosi tahlil qilinadi. Ayniqsa, S.A. Yesenin she’rlarini tarjima qilish misolida ekvivalentlik masalasi chuqur o‘rganiladi. Maqolada sifatli she’riy tarjima asl tilni, madaniy kontekstni va matnning hissiy-psixologik salohiyatini chuqur tushunmasdan amalga oshirilishi mumkin emasligi ta’kidlanadi. Tadqiqot mashhur tarjimonlar va tarjima nazariyotchilari — S.Ya. Marshak, L.S. Barxudarov va I.S. Alekseeva — asarlariga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: she’riy tarjima, ekvivalentlik, ritm, hissiyot, uslubiyat, badiiy ifoda, badiiy matn, tarjima yechimi.

Актуальность исследования

Первые ритмичные, легко запоминающиеся тексты были продемонстрированы ещё в Ведах, которые берут своё начало в 1500 —1000 гг. до нашей эры. Допустим, что это годы зарождения поэзии. В наши дни миллионы людей пишут стихи на самых разных языках мира и те работы, которые набирают большую популярность среди соотечественников автора, выходят на мировой уровень, где уже требуется обеспечить их понимание для представителей других языков и культур. Иначе говоря, стихи и поэмы нужно не просто переводить, а делать это грамотно, стараясь донести до иностранного читателя те эмоции и чувства, которые поэт вложил в свои строчки в момент вдохновения. Ни один компьютер, ни один онлайн переводчик не сделает этого должным образом, как бы первоклассно он ни был запрограммирован. Почему? Всё просто. Текст нужно прочувствовать и постараться передать его в максимально «первозданном» виде. А ведь переводить нужно не только современные поэтические произведения, (которые в свою очередь, могут познакомить нас с культурой исходного языка и расположить к себе), но также и те, что были написаны десяти, а то и столетия назад. За работу над последними люди наверняка брались, но в этом и особенность живого интеллекта, по отношению к искусственному. Люди мыслят по-разному и одно произведение может быть переведено тем или иным способом мелодичнее или точнее. Также есть ещё множество нетронутых поэм и стихов известных авторов из прошлых столетий. Красивые, мелодичные строчки тех времён — это бесценные элементы истории, взгляды автора на свою эпоху, которые просто необходимо передать другим народам и поколениям, ни в коем случае не изолируя их одним языком.

Основные способы перевода поэтических текстов

Поэтический текст — это отдельный вид литературной работы, отличный от прозы своим строением и уникальной ритмикой. Одна из особенностей такого текста — его стиховая форма (составленный по определённым принципам набор звуков). Стихи могут располагать рифмой (слаженностью звуков в конце строк) или могут быть без рифмы. Нередко в

поэтическом тексте встречаются фигуры речи, например метафора, сравнение, эпитет и др. Такие стилистические приёмы способствуют более красочной передаче смысла текста. Поэтический текст, как правило, заполнен чувствами и эмоциями, которые выражаются фигуральной речью, образностью и метафорами. Создавая эмоционально насыщенные и живописные тексты, автор имеет возможность использовать красивые и необычные образы. Все вышеперечисленные стилистические приёмы автор может применять для того, чтобы создать особенную атмосферу и вызвать у читателя определённые эмоции, играя с ритмом и создавая мелодичность текста. Поэзия представляет оригинальные возможности для изобретательного самовыражения миру, а также позволяет разделить свои идеи и чувства с другими людьми, вызывая у них сопереживание.

Понятие «поэтический текст» — это достаточно широкий спектр литературных произведений: поэмы, стихотворения, басни и т.п. Такой текст описывается несколькими особенностями. 1. В поэзии важен субъект изложения, а также его отношение к изображаемому (автор описывает не материальный мир, а идеальный). Лирическое переживание, показанное в стихотворном тексте, включает в себя многосторонний смысл, поэтому всякий читатель может сказать, что этот текст написан про него, про его чувства. 2. Поэтический текст — это фигуральное понимание мира. 3. Это текст связанный с самовыражением; поэзия создаёт свой собственный вид возможного мира. 4. Поэзия — это вторичная знаковая система, а уже имеющаяся система повседневного языка служит языком первого уровня. 5. Поэтический текст — это система, форма и смысл которой подчинены эстетическому замыслу. 6. Такой текст отличается мерностью, рифмой. 7. Творческая сторона языка играет очень большую роль в поэтических текстах (это ярко проявляется в феноменах языкотворчества) как инструмент познания человеческой души. 8. Поэзия, появившаяся на границе тысячелетий, связывает ряд социолектов (высокий язык культуры, научный, бытовой, редуцированный, просторечный), образует разные языковые пространства и интертексты. 9. Понимание художественного текста осуществляется не быстро, в отличии от других; поэтический текст требует неспешного чтения, а то и неоднократного перечитывания.

«Только в поэзии язык раскрывает все свои возможности... Поэзия как бы выжимает все соки из языка, и язык превосходит здесь себя самого.» [1:349 с]
Михаил Бахтин

Передача замысловатого информационного сочетания, при помощи компактного стихотворного текста возможно лишь в силу серьёзных его различий от житейской практической речи. На первый взгляд, казалось бы, в лирическом тексте употребляются те же слова и фразы, что и в практической речи, однако благодаря характерной структуре стихотворения здесь в корне

меняется система смыслообразования, в искажённом виде представляются парадигматика и синтагматика речи, и ко всему прочему трансформируется её коммуникативная нацеленность и её назначение.

Вспоминая вышесказанное известным русским философом М.М. Бахтиным про «выжимание всех соков из языка поэзией» отметим, что это происходит вследствие того, что лирический текст, утрамбованный ритмической, фонетической и метафоричной концепциями образуют уникальную надсмысловую систему, где каждая составляющая (будь это полноценная строка, слово, морфема или фонема) спрягается с рядом других таких же компонентов, приобретая в сумме добавочное и многоуровневое значение. В итоге слова из этого текста чаще всего не эквивалентны аналогичным словам в практической речи, а представляют собой их омонимы. Вместе с тем, неоднократно увеличивается роль контекста и, чтобы раскрыть смысл каждого определённого слова, нужно будет внимательно изучить смысловую часть, рассматривая все, даже самые редко используемые варианты.

Но если значения слов в лирическом тексте не соответствуют их лексическим значениям, а иногда и противостоят им, то имеем ли мы право вообще искать элементарно осмысляемое словесное сходство между подлинным и переводным поэтическим текстом? Не отдалит ли нас это от оригинала?

Ясно следующее: во-первых, поэтическая связь возможна лишь тогда, когда автор написал некий стихотворный текст, все элементы которого связаны и принадлежат к концепции конкретного языка; во-вторых, именно поэтому невозможно воспроизвести весь информационный набор, который был воплощён в оригинальном тексте. Таким образом, переводчик каждый раз подвергается выбору — чем и для чего ему стоит пожертвовать.

С.Я. Маршак в статье «Поэзия перевода» высказал следующее утверждение: «Перевод стихов — высокое и трудное искусство. Я выдвинул бы два — на вид парадоксальных, но по существу верных положения: Первое. Перевод стихов невозможен. Второе. Каждый раз это исключение. Прочитав перевод из Гейне, из Шиллера, Горация или Расула Гамзатова, читатель должен быть уверен, что он и в самом деле прочёл стихи Гейне, Шиллера, Горация и Расула Гамзатова, что поэт-переводчик донёс до него подлинные мысли и чувства поэтов, не утеряв ничего главного, основного, существенного. При этом степень вольности и точности перевода может быть различна — есть целый спектр того и другого. Важнее всего передать подлинный облик переводимого поэта, его время и национальность, его волю, душу, характер, темперамент» . [2:371-375 с]

Если подлинный лирический текст представляется в роли способа метафизического общения между литератором и представителем его народа, то при помощи переводного лирического текста, реализуется более сложный коммуникативный акт, формирующийся между автором и читателем, относящимся к иной культуре. Вместе с тем в переводе следует учитывать

разнообразные факторы, в том числе временной, психологический, этнический, и фактор несоответствия лингвокультурного мировоззрения.

Близкое взаимодействие содержания лирического текста с его формой, в совокупности с несоответствием языковых систем и неповторимостью этнического духа любого народа, который обнаруживает отражение в поэтических композициях, сформировали концепцию непереводимости поэзии. Хорошо то, что сегодня теория перевода принимает переводимость литературного целого в принципе, несмотря на крайнюю сложность подбора эквивалента той или иной составляющей подлинного текста.

Если говорить о свойствах поэтического перевода, следует начинать с того, что тут на передний план выдвигается прагматический момент, иначе говоря особенно конкретной передаче подвержены не слова со смыслом, а ощущение, которое подлинник вызывает у представителя исходного языка, то есть его духовно-эстетическое содержание. Либерман (Яков Львович) приводит термин «эмоционально-психологический потенциал» подлинника, охватывающего взгляд и ощущение мира автора, его чувства и настроение.

Позади других типов художественного перевода лирический перевод отличается наименьшей близостью к подлиннику, ибо необходимость передать ритм, строфическую организацию, рифму иногда переходит в явное противостояние с потребностью передать содержание ИТ. Из-за этого одним из ключевых условий для поэтического перевода является выражение формы и сути как системы, а не самостоятельных элементов. В то же время позволяется формирование функциональных сходств основным особенностям формы, если язык перевода не допускает их передачи напрямую. Поэтому поэтический перевод различает очень много лексико-грамматических замен, добавлений и опущений. При переводе поэзии сам переводчик не сильно лимитирован границами подлинного литераторского текста. Прямые лексические, а часто и метрические схожести рассматриваются как буквализм и их принято считать ошибочными. Компоненты, от которых можно отказаться, устанавливаются коммуникативной функцией перевода. Но наименее весомым компонентом в большинстве случаев становится фактуальная информация, ибо в лирическом тексте она есть план выражения конкретного концептуально-эстетического содержания. Невзирая на то, что полностью передать фактуальную информацию не представляется возможным и даже является излишним, ее «критической массе» не следует переносить существенные изменения.

На основе вида информации, которую переводчик намерен представить как можно точнее, существует три значительно разных способа перевода одного и того же лирического оригинала.

Каждый метод перевода представляет подлинник под определённым углом и даёт о нём конкретное понимание.

1. Поэтический перевод. Единственный вид перевода поэзии, рассчитанный на собственно поэтическую связь. Такая связь — это вид общения между

автором и читателем или слушателем, с помощью которой выполняется синхронная передача концептуальной и эстетической информации лирического текста.

Ясно то, что во-первых активизировать поэтическую связь должен стихотворный текст, во-вторых этот текст следует организовать так, чтобы изложить как можно больше информации поэтического текста в наибольшей степени немногословными вербальными способами. Следует также отметить различие между текстом стихотворным и поэтическим. Их объединяет рифма, но в отличие от поэтического, стихотворный текст может и не иметь никакой смысловой нагрузки.

Конечно, одной рифмы не хватит, чтобы наполнить стихотворение содержанием эстетики — для этого у поэта в резерве имеется огромное количество тропов, образов и видов организации, построенных на силлабо-тонических правилах стихосложения. Но только талантливый поэт может, используя такой большой выбор поэтических инструментов, пропорционально заполнить строфы смыслом и эстетикой, и лишь тогда можно уже говорить не о стихотворном тексте, а о поэтическом. Без этого критерия стихотворный текст к поэзии никак не относится, даже если он переполнен рифмами и метафорами — он всё же останется «рифмованной прозой».

В общем, поэтический перевод -- это перевод лирического текста на одном языке, с помощью лирического текста на языке перевода. То есть, переводчику следует создать новый лирический текст, эквивалентный подлиннику по его смысловой и эстетической информации, но располагающий при необходимости совсем другими языковыми, или даже стиховыми формами. Фактуальная информация передаётся только так, чтобы это не вредило эстетической и концептуальной. Учитывая то, что предметное содержание таковым по правде не является, а определяет только форму поэтического текста, то в том числе и глубочайшее его изменение не расходится с известной концепцией профессора С.Г. Бархударова, в соответствии с которым «перевод есть преобразование текста на одном языке в текст на другом языке при сохранении его плана содержания».

Поэтический перевод подразумевает вставку текста перевода в живой литературный процесс, в культуру и литературное наследие того языка, на который и осуществлён сам перевод. Именно лирические переводы иногда влияют на полное исчезновение границ между творчеством подлинным и переводческим. Всякий образованный русский читатель знаком с баснями Крылова, чаще всего даже не подозревая, что это – довольно корректные переводы из Лафонтена, знаком с множеством стихов Пушкина, Лермонтова, Жуковского, не всегда понимая, что это есть переводы из Шенье, Гете, Байрона.

В общем, поэтический перевод – это метод перевода поэзии для самого обширного читателя, метод воздействия на литературу языка перевода, метод единения языков и наций.

2. Стихотворный перевод. Таким переводом является способ перевода поэзии, в результате которого подлинник выражается на языке перевода речью не поэтической, а только стихотворной. Данный тип перевода очень схож с оригиналом касательно слов и выражений, а также касательно стилистики. Экспертами по этому переводу являлись такие поэты, как Вяземский, Фет, Катенин, а в прошлом веке — М. Гаспаров и А. Блок. Увы, данный тип перевода коверкает смысл и практически не передаёт всей эстетики. Непосредственно стремление сблизиться с оригиналом в словесном и стилевом отношении не допускает никакого шанса реконструировать стихотворный перевод в оригинальный поэтический текст.

Этот тип перевода удобен и применим для особенных и нестандартных задач: например, чтобы частично цитировать поэзию в научно-языковедческих трудах, для научных публикаций литературных памятников, предназначенных для будущего рассмотрения авторской стилистики и специфики построения его работ. Так как этот тип перевода не передаёт эстетической информации, то в литературном процессе он самостоятельного участия не принимает.

3.Дословный перевод. Этот перевод поэтического текста реализуется прозаически и направлен на полную передачу фактуальной информации оригинала. Это дополнительный способ перевода, чаще всего, приводящийся с сопутствующим текстом оригинала или объёмными примечаниями. Такой тип перевода и не рассчитан на поэтическую коммуникацию, однако он максимально точно преподносит каждую деталь подлинника и способен служить значимым подспорьем в трудах литератора, исследователя или просто читателя.

Дословный перевод ещё можно использовать в роли переходного этапа при осуществлении поэтического перевода. Этот подход способствует получению текста, близкого к подлиннику на каждом инфрмационном уровне.

«Переводить стихотворца может один только стихотворец...
Переводчик стихотворца есть в некотором смысле сам
творец оригинальный».[3:152 с]

В. Жуковский.

Список использованной литературы:

1. Бахтин М.М., Эстетика словесного творчества, «Искусство», 1979 г., 416 стр.
2. Маршак С. Собрание сочинений в 8 томах. Т. 6. - М.: Художественная литература, 1971. 688 стр.
3. 1810, Жуковский; «Вестник Европы» разбор трагедии «Радамист и Зенобия», переведенной с французского Степаном Висковатовым; 586 стр.
4. Ахманова О.С., Словарь лингвистических терминов, 1966, 608 стр.

5. Бархударов Л.С. «Язык и перевод. Вопросы общей и частной теории перевода». М.: ЛКИ, 2014 240 стр.
6. Гальперин И.Р. Введение// Большой англорусский словарь. –4е изд., Т.I. – М.: Рус.язык, 1987. –1121 стр.
7. В.Н. Комиссаров, «Теория перевода», 1990., 253 стр.
8. В.Н. Комиссаров, «Общая теория перевода», 2000, 132 стр.
9. Firth, 1956, «Лингвистический анализ и перевод».
10. Halliday, 1964, «Сопоставление и перевод».
11. Catford, 1965, «Линвистическая теория перевода».
12. Я.И. Рецкер, «Теория закономерных сооответствий, 1950.
13. В.Н. Крупнов, «Курс перевода, 1979.
14. Ю. Найда, 1964, «К науке переводить».
15. О. Каде «Языковое посредничество как общественное явление и предмет научного исследования», 1980.
16. Д.И. Ермолович, «Имена совственные на стыке языков и культур», 2001.
17. Шметов, В.Б. Семиотика и перевод Текст. / В.Б. Шметов // Germanica. Slavica. Turkica: сб. ст. Уфа, 2000.
18. Брукина, О.А. Гендерный аспект перевода Текст. / О.А. Брукина // Гендер как интрига познания. М., 2000.
19. Маршак, С.Я. Собрание сочинений Текст.: в 4 т. / Самуил Маршак. М.: Гослитиздат, 1960. - Т. 4: Статьи и заметки о мастерстве.
20. Будагов, Р.А. Литературный язык и языковые стили Текст. / Р.А. Будагов. М.: Высшая школа, 1967. 376 с.
21. Алякринский, О.А. Поэтический текст и поэтический смысл Текст. / О.А. Алякринский // Тетради переводчика: Сб. научно-теоретический. - М.: Высшая школа, 1982.
22. Гумилев, Н. Антология английской поэзии Текст. / Н. Гумилев. М.: АРТ-ФЛЕКС, 2000.
23. Швейцер,А.Д. Теория перевода Текст. / А.Д.Швейцер. М.: Наука, 1988.
24. М.Волькенштейн. «Стихи как сложная информационная система».
25. Гачечиладзе, Г.Р. Стихосложение и поэтический перевод (фрагмент) Текст. / Г.Р. Гачечиладзе. / Поэтика перевода. М., 1988.
26. Казарин, Ю.В. Поэтический текст как уникальная функционально-эстетическая система Текст.: автореф. дис. канд. филол. наук: 10.02.01 / Казарин Юрий Викторович. Екатеринбург, 2001.
27. Ковтунова, И.И. Поэтический синтаксис Текст. / И.И. Ковтунова. М.: Наука, 1986.
28. Ковтунова, И.И. Поэтический синтаксис Текст. / И.И. Ковтунова. М.: Наука, 1986.
29. Структура и функционирование поэтического текста Текст. (Очерки лингвистической поэтики) / под ред. Кожина А.Н. М.: Наука, 1985.
30. Эткинд, Е. Поэзия и перевод Текст. / Е. Эткинд- Л.: Сов. писатель. Ленинградское отделение, 1963.
31. https://proza.ru/2011/11/26/1518

32. https://inyaz.bobrodobro.ru/2554

ILMIY VA BADIIY TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPRAGMATIK MUAMMOLARI

Nazarova Diyora,
NamDChTI talabasi

Annotatsiya. Diyora Nazarova o‘z maqolasida adabiy tarjimaning lingvokulturologik muammolarini tahlil qiladi. U manba va maqsad tilidagi leksemalar orasidagi semantik nomuvofiqliklarga, ayniqsa, etnokultural ahamiyatga ega bo‘lib, ekvivalenti yo‘q so‘zlarning tarjimadagi qiyinchiliklariga e’tibor qaratadi. Maqolada semantik munosabatlar va ularning tarjima jarayoniga ta’siri o‘rganiladi.

Asosiy qismda Nazarova muallif va tarjimon dunyoqarashidagi tafovutlardan kelib chiqadigan ontologik xatolarni misollar orqali ko‘rsatadi. Buning uchun Chexovning “Толстий и тонкий” asari va Abdulla Qahhorning “Semiz va oriq” hikoyalari misol qilinadi. Tahlil shuni bildiradiki, tarjimon manba madaniyatining tarixiy va madaniy kontekstini chuqur bilmasa, etarli adabiy tarjima mumkin emas.

Nazarova fikricha, ideal tarjimon ikki til va madaniyatni biluvchi bo‘lib, madaniy va tafakkuriy qarama-qarshiliklarni bartaraf eta olishi kerak. Bunday tarjimon asarning asl mohiyatini saqlab qolishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *adabiy tarjima, lingvokulturologiya, semantik nomuvofiqlik, etnokultural leksemalar, ontologik xatolar, dunyoqarash, madaniy kontekst, tarjimon, til va madaniyat, tarjima etarliligi.*

Annotation. Diyora Nazarova analyzes the linguoculturological challenges of literary translation in her article. She focuses on semantic inconsistencies between lexemes in the source and target languages, especially on words with ethnocultural significance that lack direct equivalents, highlighting the difficulties they pose in translation. The article examines semantic relationships and their impact on the translation process.

In the main part, Nazarova illustrates ontological errors arising from differences in worldview between the author and the translator, using examples from Chekhov’s work “Fat and Thin” and Abdulla Qahhor’s stories “Fat and Thin” (“Semiz va Oriq”). The analysis shows that without a deep understanding of the historical and cultural context of the source culture, an adequate literary translation is impossible.

According to Nazarova, the ideal translator is someone who is proficient in both languages and cultures and can resolve cultural and cognitive contradictions. Such a translator helps preserve the original essence of the work.

Key words: *literary translation, linguoculturology, semantic inconsistency, ethnocultural lexemes, ontological errors, worldview, cultural context, translator, language and culture, translation adequacy.*

KIRISH

Ba’zi fikrga ko‘ra, etarli darajada aniq tarjima bo‘lishi mumkin emas, chunki xalqlarning tafakkuri va tillari, hatto yaqin bo‘lgan taqdirda ham, farq qiladi. San’at asarining tasavvur tizimi va badiiy fikrlashning o‘ziga xosligi shunchalik noyob va betakrorki, fikr harakatining barcha nozik jihatlarini boshqa til orqali to‘liq etkazish imkonsizdir. Albatta, bunday muammolar ilmiy va rasmiy-huquqiy matnlarni tarjima qilishda yuzaga kelmaydi, chunki ular aniq faktlar, maxsus lug‘at, terminologiya bilan ishlaydi va yashirin ma’no, ramzlarni o‘z ichiga olmaydi.

Badiiy matn esa tasvirlarga to‘la bo‘lib, bu uning asosiy farqidir. Har bir yozuvchining tasviriy dunyoqarashi individual bo‘lib, shaxsiy va milliy darajada tarixiy, madaniy, ruhiy, diniy va boshqa arxetiplarga asoslanadi. Yozuvchilar tomonidan qo‘llanilgan so‘z o‘yini, tropalar va so‘z san’ati vositalarini asl ma’nosini saqlagan holda etkazish juda qiyin. So‘z ustasining maqsadini amalga oshirish uchun sinchkovlik bilan o‘ylangan uslub va vositalarning tarjimada yo‘qotilishi, tarjimaning nafaqat...

Buni Chexovning “Толстий и тонкий” asari va Abdulla Qahhorning “Semiz va oriq” hikoyalari misolida ko‘rib chiqish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nashrning dolzarbligi shundaki, adabiy tarjima nazariyasi va amaliyoti muallif va tarjimonning lingvistik tafakkuri muammolari, ularning dunyoqarashlari o‘rtasidagi nomuvofiqliklar, turli tuzilishga ega tillarda etarli tarjima qilish qiyinchiliklari kabi masalalar kesishmasida davom ettirilishi lozim.

Maqolamizning maqsadi — adabiy matnni boshqa til vositalari orqali qayta yaratishda yuzaga keladigan madaniy muammolarni tahlil qilishdir.

Tadqiqotda A. Akopova, L.S. Barkhudarova, J.-P. Vayn, J. Darbilne, G. Gachechiladze, V.N. Komissarov, A.F. Loseva, L.A. Chernyakhovskiy, R.K. Minyar-Belorucheva, A. Popovich, Yu.P. Solodub va boshqa ko‘plab olimlarning asarlaridan foydalanilgan.

Asosiy metodlar tizimida biz analitik va tavsifiy metodlarni, shuningdek, taqqoslash va lingvokulturologik yondashuvni tanladik.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Tarjimonning asosiy muammolaridan biri — manba matndagi leksik birliklar bilan maqsad tilidagi leksik birliklar orasidagi semantik nomuvofiqlikdir. Bu muammo ayniqsa Tolstoyning “Толстий и тонкий” asarida va Abdulla Qahhorning “Semiz va oriq” hikoyalarida aniq ko‘zga tashlanadi, chunki ikki madaniyat va ikki til orasidagi dunyoqarash farqlari tarjimaning murakkabligini oshiradi.

Masalan, “Толстий и тонкий” asarida muallif qahramonlarning fe’l-atvori, xarakteri va dunyoqarashini boy rus tilining leksik birliklari orqali chuqur ifodalaydi. Bu erda rus tilidagi so‘zlarning semantik doirasi va konnotatsiyalari o‘zbek tilidagi ekvivalentlariga to‘liq mos kelmasligi tarjimon uchun qiyinchilik tug‘diradi. “Semiz va oriq” hikoyasida esa, Abdulla Qahhorning o‘zbek tilidagi

o‘ziga xos ifodalari va xalq an’analariga bog‘liq leksik birliklar tarjimada o‘zining to‘liq mazmunini yo‘qotishi mumkin.

Tarjimada uch xil semantik moslik holatini ko‘rish mumkin:

To‘liq identiklik — bu holat juda kam uchraydi, asosan maxsus nomlar, terminlar, sonlar va bayram nomlariga tegishli.

Qisman moslik — bu holatda so‘z bir necha maqsad tilidagi ekvivalentlarga mos keladi. Masalan, “tolstiy” va “tonkiy” so‘zlari o‘zbek tilida “semiz” va “oruq” so‘zlari bilan qisman, lekin to‘liq ma’noda emas.

Hech qanday moslik yo‘qligi — bu esa madaniy yoki milliy xususiyatlarga bog‘liq so‘zlar va tushunchalarda yuzaga keladi, masalan, rus tilidagi ba’zi urf-odatlar, an’analar yoki Abdulla Qahhor hikoyalaridagi milliy ma’nolarni ifodalovchi lug‘at birliklari.

Masalan, “Толстий” va “Тонкий” so‘zlari rus tilida nafaqat tana vazniga, balki xarakter va ijtimoiy holatni ham ifodalaydi. Tarjimada esa bu so‘zlarni faqat “semiz” va “oruq” deb berish cheklangan bo‘lib, ularning psixologik va ijtimoiy kontekstini to‘liq anglatmaydi. Shuningdek, “Semiz va oriq” hikoyasida qahramonlarning ichki kechinmalari, muammolari va ta’sirchan jihatlari, ularning o‘zbek tilidagi o‘ziga xos ifodalari boshqa tillarga tarjimada noto‘liq yoki yuzaki tushunarli bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, madaniy-lingvistik lacunar (bo‘shliq) masalasi ham dolzarbdir. Masalan, “Толстий и тонкий” da rus madaniyatiga xos urf-odatlar, an’anaviy bayramlar, ma’naviy qadriyatlar mavjud bo‘lib, ularni o‘zbek tiliga to‘g‘ri va mazmunan yaqin tarjima qilish qiyin. Xuddi shunday, Abdulla Qahhorning “Semiz va oriq” hikoyasida ham o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’anaviy qadriyatlari ko‘p bo‘lib, ular rus yoki boshqa tillarga to‘liq tarjima qilinmaydi yoki faqat izoh bilan beriladi.

Masalan, rus tilidagi “толстый” va “тонкий” so‘zlarining o‘zbek tilidagi mosligi nafaqat tana holatiga, balki xarakter va ijtimoiy mavqe bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi “semiz” va “oruq” so‘zlari ham shaxsiy fazilatlarni ifodalashda cheklangan.

Tarjimon quyidagi variantlardan foydalanishi mumkin:

“Толстий и тонкий” — ruscha so‘zlarni saqlab, izoh berish orqali.

“Semiz va oriq” — o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, lekin ma’noni yo‘qotishi mumkin.

Tavsifiy tarjima — xarakter va ruhiyatni tushuntiruvchi so‘zlar yordamida.

Har uchala variant ham o‘zining chegaralari va cheklovlariga ega, shuning uchun tarjimon qaysi variantni tanlashda kontekst, maqsadli auditoriya va madaniy farqlarni hisobga olishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, “Толстий и тонкий” va “Semiz va oriq” kabi asarlar tarjimasi murakkab lingvistik va madaniy qirralarga ega bo‘lib, tarjimonni chuqur tahlil va moslashuvga majbur qiladi. Semantik nomuvofiqlik, madaniy lacunalar va polisemantik so‘zlar tarjimon uchun asosiy qiyinchiliklardir. Bu esa tarjima jarayonining o‘ziga xos, murakkab va nozik san’at ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tolstoy uslubida: (soddalik va tafsilotlarda aniqlik)

O‘zbekiston adabiyotida ham Shimoliy Kavkaz xalqlarining yuksak badiiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida ko‘plab iste’dodli tarjimonlar mehnat qildi. Ulardan Naum Grebnev, Vera Zvyagintseva, Vera Potapova, Semen Lipkin, Yakov Kozlovsky kabi shaxslar juda katta xizmat qildilar. Ularning tarjimalari tufayli biz Rasul Gamzatovning avar she’riyatini, Magomet Mamakaev va Rais Akhmatovaning chechen adabiyotini, Kosta Xetagurovning osetin ijodini, Qaysin Qulievning balkar she’riyatini, Alim Qeshokovning qabardiyalik yozuvlarini, David Kugultinovning kalmyk she’rlarini o‘zbek tilida o‘qish imkoniga ega bo‘ldik. Shu bilan birga, O‘zbekistonning o‘z milliy adabiyotlari ham boylandi, xalqaro madaniyat maydonida yangicha ovoz eshittirdi.

Lekin tarjimaning eng muhim mezoni — faqat matnning mazmunini emas, balki muallifning uslubi, tasviriyligi va o‘ziga xos ifodasini ham saqlab qolishdir. Afsuski, tarjimonlarning barchasi buni amalga oshira olmaydi. Hatto eng mashhur va iste’dodli tarjimonlar ham ba’zida asarning ruhini to‘liq yetkazishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Masalan, O‘zbekistonlik filolog va tarjimonlar tomonidan chechen xalq qo‘shig‘i “Bug‘u” (O‘rdak) asarining turli tarjimalarini tahlil qilganda, ularning barchasida asarning asl ritmi, melodiyasi va mazmuniy to‘liqligi saqlanmaganini ko‘rish mumkin. Bir tarjimon qo‘shiqni bo‘laklarga ajratib, uning ravonligi va ulug‘vorligini yo‘qotgan. Boshqasi esa mineral manbani “loyqa suv” deb noto‘g‘ri tarjima qilgan, bu esa asarning falsafiy mazmunini buzgan.

Shu holatlar shuni ko‘rsatadiki, tarjima qiluvchining o‘ziga xos dunyoqarashi va tilga munosabati badiiy asarlarni to‘liq, aniqlik bilan tarjima qilishda katta rol o‘ynaydi. Tarjimonning e’tiborsizligi, yoki ba’zida shoshqaloqligi natijasida asarning asl mohiyati yo‘qoladi va uning o‘rniga yangi, asl asardan juda farq qiladigan matn paydo bo‘ladi.

Bu holat o‘zbek adabiyotidagi tarjimonlar uchun ham darsdir. Ular faqat so‘zlarni emas, balki xalqning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini, ruhiy olamini o‘rganib, badiiy tarjimani amalga oshirishlari kerak. Chunki asl asar tilga aylanganida nafaqat so‘zlar, balki xalqning ko‘ngil dunyosi ham jonlanadi.

Abdulla Qahhor uslubida: (soddaligi va insoniyligi bilan, real hayotiylik nuqtai nazari bilan)

O‘zbek xalqining hamda Shimoliy Kavkaz xalqlarining adabiy meroslarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda bizda ham mehr-muhabbat bilan ishlagan ko‘plab tarjimonlar bor. Masalan, Naum Grebnev, Vera Zvyagintseva, Semen Lipkin, Yakov Kozlovsky kabi kishilar bunday ishni chin qalbdan bajardilar. Ularning tarjimalari orqali biz Rasul Gamzatovning avar she’rlarini, Magomet Mamakaevning va Rais Akhmatovaning chechen dostonlarini, Kosta Xetagurovning osetin she’rlarini o‘zbek tilida tingladik. Shuningdek, Qaysin Qulievning balkar so‘zlarini, Alim Qeshokovning qabardiyalik so‘z san’atini, David Kugultinovning kalmik tillarini ham ko‘rdik. Bularning barchasi xalqimizga yangi dunyo eshigini ochdi.

Ammo har qanday ishda bo‘lgani kabi, tarjimada ham xatolar uchraydi. Odamning ko‘ngli va ruhiyati kabi badiiy asar ham aniq shaklda, noziklik bilan tarjima qilinishi kerak. Lekin ba’zida bu qiyin bo‘ladi. Masalan, “Bug‘u” qo‘shig‘ida mineral suv “loyqa suv” deb berilgan. Bu aslida asarning mohiyatiga zid, chunki bug‘u ulug‘ bir hayvondir, u iflos suv ichmaydi. Bunday xatoliklarning sababi — tarjimonning diqqat-e’tibori kamligi yoki tilni chuqur tushunmasligi bo‘lishi mumkin.

Naum Grebnev esa ayni qo‘shiqni tarjima qilganida, uning ritmi va shaklini saqlashga harakat qilgan, ammo mazmunni biroz buzib yuborgan. Natijada, u asl matn emas, balki yangi, boshqa matn paydo bo‘ldi.

Tarjima san’ati oddiy emas. U katta sabr, diqqat va yuksak mahorat talab qiladi. Tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki odamning ruhiyati, his-tuyg‘ularini, hayotiy tajribasini ham o‘z tilida jonlantirishi kerak.

Biz, o‘zbek tarjimonlari, bu vazifani anglab, asarlarni chin yurakdan, qalbimiz bilan tarjima qilishimiz lozim. Shunda adabiyotlar o‘zaro bog‘lanadi, xalqlar bir-birini yaxshiroq tushunadi, madaniyatimiz yanada boyiydi.

XULOSA

Tolstoyning “Толстый и тонкий” asari bilan Abdulla Qahhorning “Semiz va oriq” hikoyalari kabi badiiy asarlarning ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega bo‘lishi ularni tarjima qilishdagi murakkabliklarni oshiradi. Badiiy asarning asl xususiyatlarini, uning madaniy va mental kontekstini saqlagan holda tarjima qilish – uning badiiy qadrini saqlab qolishning muhim omilidir. Ideal tarjima uchun tarjimon ikki tilni ona tili darajasida bilishi, tilning tuzilishi, semantikasi va frazeologiyasini chuqur tushunishi, shuningdek, til modellari o‘rtasida aniq taqqoslash qila olishi zarur.

Tolstoy va Qahhor asarlaridagi individual uslub, mualliflarning dunyoqarashi va obraziy tizimlarini to‘liq va aniq etkazish uchun tarjimon badiiy asar muhitiga chuqur kirib borishi, muallifning ijodiy vazifalarini hisobga olgan holda asarni qayta yaratishi kerak. Qatorma-qator tarjima (interlinear tarjima) ma’lum darajada xorijiy badiiy asarlarni taqdim etishda yordam berishi mumkin, ammo u yetarli darajada badiiy talqin hisoblanmaydi, chunki madaniy va mental farqlar sababli asl asardan uzoqlashish xavfi mavjud.

Shuning uchun Tolstoy va Qahhor kabi ijodkorlarning asarlarini tarjima qilayotgan tarjimon o‘zbek va rus tillarini mukammal bilishi, shu bilan birga, ikki tilning madaniy kontekstini ham chuqur anglab, tarjimada muallifning shaxsiy ijodiy uslubini, dunyoqarashini, tasviriy tizimini va boshqa individual xususiyatlarini ham saqlashi talab etiladi. Tarjimon asl til dunyosining orqa fon bilimlari va madaniy tasvirini to‘liq egallashi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Tolstoy, L. N. (1883). Толстый и тонкий. — Asl matn.
2. Qahhor, A. (1959). Semiz va oriq. — To‘plam.
3. V. V. Alimov, Yu. V. Artemyeva, Literary translation: a practical translation course, 256 (2010).
4. L. S. Barkhudarov, Language and translation, 289 (1975).

5. T. V. Bulygina, A. D. Shmelev, Language conceptualization of the world, 156 (1997).
6. Y. L. Weisgerber, Native language and the formation of the spirit, 224 (1993).
7. Vezhbitskaya, Understanding cultures through keywords, 290 (2001).
8. Vezhbitskaya, Semantic universals and description of languages, 263-305 (1999).
9. Vezhbitskaya, Language, culture, knowledge, 265 (1996).
10. E. M. Vereshchagin, V. G. Kostomarov, Language and culture, 246 (1990).
11. J.-P. Vine, J. Darbelne, Questions of the theory of translation in foreign linguistics, 198 (2018).
12. S. Vlakhov, S. Florin, Untranslatable in translation, 315 (1998).
13. E. Ya. Galperina, The word is alive and dead, 416 (2017).
14. G. Gachechiladze, Artistic translation and literary relationships, 160 (1980).
15. T. A. Kazakova, Literary translation. Tutorial, 113 (2002).

IV – SHO'BA. CHET TILI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI

CHET TIL O`RGATISH METODIKASINING ASOSIY MASALALRINI TUSHUNTIRISHDA ANALOGIYA METODIDAN FOYDALANISH

Saidumar Saydaliyev,
NamDU professori, p.f.n.

Annotatsiya: Maqolada chet til o`rgatish metodikasi va uning asosiy masalalari hamda ularni tushuntirishda qo`llaniladigan induktiv, deduktiv va analogiya metodlaridan foydalanish yo`llari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: induksiya, deduksiya, **analogiya**, og'zaki metodlar, tushuntirish

Tillar o`rgatish metodikasining asosiy masalalari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: chet til ta`limidan ko`zlangan maqsad, chet til ta`limining mazmuni, vositalari, prinsiplari, yondashuvlar; til materiali (fonetika, leksika, grammatika) ustida ishlash, ko`nikmalarni shakllantirish; nutq faoliyati turlariga oid malakalarni rivojlantirish; nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish va boshqalar.

Moskva lingvistik universitetining taniqli professori Zoya Mixaylovna Tsvetkova ma`ruzalaridan birida, pedagogika, psixologiya yoki tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishi olib borayotgan doktorant shu sohaning masalari bilan chuqur tanish bo`lsa va o`z mavzusi ustida jiddiy ishlasa tadqiqotini yakunlashi mumkin, ammo ma`lum fanni o`qitish metodikasidan tadqiqot ishini olib borish murakkab bo`lib, tadqiqotchi bir necha fanlarning asosiy masalari bilan yaqindan tanish bo`lishi talab etiladi, jumladan chet til o`rgatish metodikasi bo`yicha tadqiqot ishini olib borayotgan tadqiqotchi tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va metodika masalalarini batafsil o`rganishi kerak bo`ladi degan edi. Bu haqda jiddiy va sinchiklab o`ylab ko`rilsa Z.M.Tsvetkovaning naqadar haq ekanligini tushunib yetish mumkin.

Metodikada til hodisalarini (fonetik, leksik, grammatik) turli metodlar asosida taqdim etish va tushuntirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, gapda so`z tartibini o`rgatish uchun induktiv, deduktiv va analogiya metodlaridan foydalanish mumkin.

Induktiv metod

Ayrim yoki xususiy ma`lumotlarga tayangan holda umumiy xulosa chiqarish induktiv metodga hos usuldir. Yakkadan, qismdan umumiyga qarab borish, amaliyotdan qoida chiqarish, ya`ni nutqda o`rganilgan til hodisasi xususida mavhumot chiqarish ushbu metodning mohiyatini belgilaydi. Amaliyotda avvalo nutq, so`ng sodda qoida, ya`ni oldin til hodisasini qo`llash, so`ngra mavhumotga o`tish talab qilinadi. Nemis tilida darak gaplar so`z tartibiga ko`ra ikki xil bo`ladi. 1. To`g`ri so`z tartibli darak gaplar. 2. Teskari so`z tartibli darak gaplar. Agar ega kesimdan avval kelsa bunday gaplar to`g`ri so`z tartibli, agar ega kesimdan keyin kelsa bunday gaplar teskari so`z tartibli darak gaplar deb ataladi. Masalan, Ich lese ein interessantes Buch. Ein interessantes Buch lese ich. Bu metodga ko`ra avval qoida beriladi, so`ngra qoidaga muvofiq misollar keltiriladi.

Deduktiv metod

Narsa, hodisa va tushunchalarning mohiyatini tushuntirish uchun avvalo ularga oid misollar keltiriladi va shu misollardan qoidalar keltirib chiqariladi. Ushbu metodga ko`ra umumiydan yakkaga, qismga qarab borish, avval umumiy qoida berib, so`ngra unga misollar keltirish usuliga amal qilinadi. Masalan, nemis tilidagi quyidagi so`zlarning birlik va ko`plik shakli beriladi: Tag –Tage, Mensch-Menschen, Lied-Lieder, Wort-Wörter, Lehrer-Lehrer, Mutter-Mütter, Auto-Autos, Klub-Klubs. Misollardan quyidagi qoida chiqariladi, masalan, nemis tilidagi otlarning ko`plik shakli –e, -en, -er, ko`shimchasiz, va –s qo`shimchalari yordamida va artiklning o`zgarishi bilan yasaladi.

Analogiya metodi

Analogiya (yun. analogia — muvofiqlik, aynanlik, o‘xshashlik) — 1) falsafa fanida predmet va hodisalarda biror xususiyatning o‘xshashligi tushuniladi. Mantiqda analogiya yordamida ikki predmetning qandaydir bir xususiyati o‘xshasa, boshqa xususiyatlari ham o‘xshashligi haqida xulosa chiqariladi. Chiqarilgan xulosaning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini bilish uchun uni amaliyotda tekshirib va sinab ko‘rish lozim; 2) huquq fanida biror tayin harakat qonunda bevosita ko‘rsatilmagan holda shunga o‘xshash hodisani ko‘zda tutadigan huquqiy normani mazkur harakatga tatbiq etish nazarda tutiladi. 3) tilshunoslikda til hodisalarining (so‘z yasalishi, shakl yasalishi va boshqalar) muayyan munosabat ta’sirida aynanlik kasb etishi tushuniladi. Masalan, „ko‘r“ ob’ektli fe’lga „qara“ ob’ektsiz fe’l sinonim bo‘lib kelishi (uchishini ko‘r — qara), „ko‘r“ ko‘makchi fe’lga „boq“ fe’lning sinonim bo‘lishi (qilib ko‘r — boq); 4) biologiya fanida turli manbalardan kelib chiqqan, lekin bir xil vazifani bajaradigan, tashqi ko‘rinishi ham ana shu vazifaga moslangan ozmi-ko‘pmi bir-biriga o‘xshab ketadigan organlar va bo‘laklarning o‘xshashligi tushuniladi. Biologiya ilmida bajaradigan vazifalari bir xil, lekin kelib chiqishi turlicha bo‘lgan organlar analogik organlar deb ataladi. Bularga qush va kapalaklar qanoti, baliq va qisqichbaqalar jabrasi, zirk va

do‘lanalar tikani misol bo‘la oladi. Analogik organlarning o‘xshashligi faqat tashqi tomondan ko`rinadi. Ularning embrional rivojlanishida katta tafovut bor. Masalan, qush qanoti maxsus oyoq murtagidan paydo bo‘ladi, hasharot qanoti esa teridan o‘sib chiqadi. Zirkning tikani ko‘rinishi o‘zgargan barg, do‘lananing tikani esa ko‘rinishi o‘zgargan shoxchadir.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, analogiya (muvofiqlik, aynanlik, o`xshashlik, mutanosiblik) ikki yoki undan ortiq narsalar, harakatlar, faoliyatlar, shakllar, funksiyalar, ma`nolar, qo`llanishlar o`rtadidagi muvofiqlik tushuniladi. Ushbu metodga ko`ra predmetning ba`zi belgilari o`xshashligiga ko`ra bu predmetlar boshqa belgilariga ko`ra ham o`xshash degan xulosaga kelinadi. Analogiya xususiydan xususiyga boradigan, bir konkret faktdan boshqa konret faktlarga boriladigan xulosadir. Ma`lum xulosaga kelish uchun tafakkur usullaridan foydalanish zarur bo`ladi. Butunni uni tashkil etrivchi qismlariga ajratishga yo`naltirilgan fikrlash (tafakkur) usuli analiz deb ataladi. Predmetlar yoki hodisalar o`rtasida bog`lanishlar o`rnatishga yo`naltirilgan tafakkur usuli sintez deb ataladi. Masalan, 100 sonida nechta o`nlik va birlik bor degan savolga javob berish uchun 100 soni analiz qilinadi. Anologiya metodi bevosita analiz va sintez usullari bilan bog`liq.

Tillar o`rgatish metodikasi kursida keng tarqalgan til ta`limidan ko`zlangan maqsad va ta`lim vositalari tushunchalarini analogiya metodi orqali quyidagicha tushuntirish mumkin. Masalan, A nuqtadan B nuqtaga borish maqsad hisoblanadi deylik. Ushbu maqsadga erishish uchun piyoda, velosipedda, taksida, avtobusda, damasda borish mumkin. Demak ushbu maqsadga erishishda oyoqlar, velosiped, taksi, avtobus, damas vosita vazifasini bajaradi. Shunga o`xshab chet tilda gapirishni o`rgatish maqsad deb belgilansa, nutq faoliyatining tinglab tushunish, o`qish, yozish ushbu maqsadga erishishda vosita vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu tezisni rivojlantirib bu haqda ham alohida maqola tayyorlash imkoniyati mavjud.

Chet tilda yozuvni o`rgatish uchun quyidagi anologiyadan foydalansa bo`ladi. Ma`lum mavzuda matn tayyorlash, masalan, maqola yozish huddi uy qurish jarayoniga o`xshaydi. Avvalo mavzu bo`yicha adabiyotlar o`rganiladi va material to`planadi. Konspekt olinadi. Ya`ni poydevor qurilib, sinch qoqiladi, reja tuziladi, sinchga guvala uriladi, matn qorada yoziladi, devor chaplama qilinadi, matn to`ldiriladi, bo`rtib chiqqan devor tekslab chopiladi, matndagi ortiqcha so`z va jumlalar chiqarib tashlanadi, devor qora suvoq qilinadi, matn birinchi marta o`qib chiqiladi, so`ngra devor oq suvoq qilinadi, matn yana o`qib chiqiladi, nihoyat devor bo`yaladi, bezak beriladi, matn qayta-qayta tahrir qilinadi.

Yozuv murakkab kompleks aqliy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning murakkab fikrlash, tuzatish, o`zgartirish, o`rnini almashtirish jarayoni ekanligini e`tirof etish lozim. Buni xuddi mashina haydash jarayoniga o`xshatib analogiyadan foydalangan holda tushuntirish mumkin. Avtomobil boshqarishni quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Haydovchi, rul, gaz, tezlik richagi, tormoz, mufta, tunda chiroqlar, yog`ingarchilikda oyna tozalagichlar, shu bilan birga ko`rsatkich priborlarini ham kuzatib borishi kerak. Bularning barchasi o`rganish paytida

alohida o`rganiladi va o`zlashtiriladi va mashq qilinadi. Mashinani boshqarish jarayonida esa ularning bir nechtasini bir vaqtning o`zida qo`llashga ham to`g`ri kelishi mumkin. Yozish jarayoni ham xuddi shunday kechadi. Bu jarayonni quyidagi tarkibiy qismlarda mashq qilinadi: so`z boyligi bilan jumla qurish, husnixat bilan imlo, yordamchi vositalarni qo`llash, tinish belgilaridan foydalanish kabi ko`nikmalar til mashqlari asosida shakllantiriladi. Bu ko`nikmalar qanchalik yaxshi shakllansa yozuv jarayoni shunchalik yengil, samarali kechadi va natija ijobiy bo`ladi. Yuqoridagi ko`nikmalari shakllangan va malakalari rivojlangan tajribali muallif ular haqida o`ylamaydi, balki uning fikri-hayoli matnning mazmuni va mantiqiy qurilishi haqida bo`ladi. Shuni ham hisobga olish kerakki muharrir mazmun haqida, matn tuzatuvchi (korrektor) esa imlo haqida o`ylaydi, matnni shu nuqtai nazardan o`qib chiqadi.

Analogiya - analogdan foydalanadigan usul (ya’ni, o’rganilayotgan jarayon yoki ob’yektni yetarli darajada aks ettiruvchi ideal yoki moddiy ob’ekt); ushbu usul bilan o’rganilayotgan ob’ektda biron bir belgi mavjudligi haqidagi xulosa boshqa belgilarda mavjud bo’lgan o’xshashlik asosida amalga oshiriladi. Ta`lim ва Analogiya - bu isbotlovchi kuchga ega bo’lmagan usul. Tasdiqlash asosidagi o’xshashlik tasodifiy bo’lib chiqishi mumkin va o`xshashliklarni tanlab tahlil qilishda muhim xususiyatlar ahamiyatsiz bo’lganlari bilan almashtirilishi mumkin. Shuning uchun o’xshashlikni ehtimollik usuli sifatida qarash muhimdir: Xulosa, o’xshashlik bo’yicha xulosalar ishonchli emas, lekin faqat ko’proq yoki kamroq ehtimollikka ega. Ular voqelikdagi hodisalar belgilari o`rtasidagi zarur aloqa va munosabatlarga tayanadi. Bunday holda, analogiya bo’yicha xulosa chiqarish ehtimoli darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, o’xshash xususiyatlar shunchalik ko’p qamrab olinadi va taqqoslanadigan ob’yektlarda bu xususiyatlar shunchalik muhim bo’ladi. Agar taqqoslanayotgan hodisalardagi o’xshash belgilar tasodifiy bo’lsa, o’xshashlik noto’g’ri bo’lib chiqishi mumkin. O’zlarining ehtimollik xususiyatiga ko’ra, analogiya bo’yicha xulosalar boshqa usullar yordamida olingan natijalar bilan tasdiqlanishi va amalda sinchkovlik bilan tekshirilishi kerak. Bu yerda qat’iy analogiya va qat’iy bo’lmagan analogiya o’rtasidagi farq juda muhimdir: birinchi holda, bitta noma’lumdan tashqari barcha belgilarning o’xshashligi asosida xulosa chiqariladi; ikkinchi variantda xulosa chiqarish koʻpchilik xususiyatlarning oʻxshashligiga asoslanadi va ikki yoki undan ortiq xususiyat tadqiqotchiga noma’lum boʻlib qoladi.

Matn tushunchasining mohiyatini aniq tasavvur qilish uchun to`qima, to`qilgan, to`qiladigan mato tushunchasi bilan qiyoslash uni idrok qilishni osonlashtiradi. Matn atamasining ma`nodoshi sifatida ilmiy-metodik adabiyotlarda ko`p qo`llaniladigan tekst atamasi esa to`qimachilik (tekstil) sohasi bilan uzviy bog`liq. Sodda qilib bayon qiladigan bo`lsak, “matn” yoki “tekst” atamalari to`qimachilikda keng qo`llaniladigan ip, ipak, jun yoki tola va boshqa xom-ashyolarning ma`lum tartib-qoidalar asosida to`qish jarayonining mahsuli, hosilasi sifatida tasavvur qilish mumkin. Xom-ashyoning sifati va uni qayta ishlash jarayonidagi usul va texnologiyalarning rivojlanganlik darajasiga qarab mahsulot baholanadi. Matn ham uning tarkibiy qismlari tayyorlashdagi qonun-qoidalarga

amal qilinishi, bfoda shakli va usuli, pragmatic funksiyasiga va ta`sir kuchiga qarab baholanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinri, analogiya metodidan ilm-fanning barcha sohalarida foydalanish mumkin va bu metod narsa, hodisa va voqelik hamda ularning amal qilish qonuniyatlarini tushunib olish uchun yengillik yaratadi, ayniqsa til hodisalari va ularning amal qilish qonuniyatlarini tushunish va ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlariga kung yo`l ochib beradi. Bu borada fundamaental tadqiqot olib borish kun tartibida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Аналогия в лингвистике // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

Jalolov J. Chet til o`qitish metodikasi. – T.: O`qituvchi, 2012. 432 b.

Tolipov O`., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

Xodjayev B.X."Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Toshkent - 2017, "Sano-standart" nashriyoti.

Уемов, А.И. Аналогия в практике научного исследования. – М: Наука, 1970. – 264 с.

Новиков А. Н. Метод аналогии: анализ опыта использования естественнонаучных закономерностей в трансграничных гуманитарно-географических исследованиях // Гуманитарный вектор. Сер. Философия. Культурология. 2016. Т. 11, № 1. С. 127-132.

Кубрякова Е. С. Аналогия // Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: СЭ, 1990. — С. 31—32.

Кузьмин А.М. "Метод "Приемы аналогий"" и другие Методы поиска идей и создания инноваций

Neuner, Gerhard. Hunfeld, Hans. Methoden des fremdsprachigen Deutschunterrichts. Eine Einführung. Berlin. München: Langenscheidt. 2004.

ZAMONAVIY CHET TILLARNI O‘QITISH USLUBLARI: METODIK YONDASHUVLAR VA ISLOHOTLAR YO‘NALISHI

X.B.Tursunov, Is’hoqxon Ibrat nomidagi
Namangan davlat chet til instituti dotsenti, pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya: *Ushbu maqola chet tillarni o‘qitishning zamonaviy uslublariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘nggi yillarda ushbu sohada kuzatilayotgan metodik yondashuvlar va islohotlar yo‘nalishi atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada kommunikativ yondashuv, kontent-integratsiyalashgan til o‘qitish (CLIL), gibrid ta'lim va raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi kabi ilg‘or metodikalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, til o‘qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion pedagogik amaliyotlar, o‘quvchi markazli*

ta'lim, avtonom o‘rganish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning ahamiyati yoritiladi. Maqola chet tili o‘qituvchilari, metodistlar, tadqiqotchilar va til o‘rganishga qiziquvchilar uchun

Kalit so‘zlar : *Chet tillar metodikasi, zamonaviy o‘qitish uslublari, kommunikativ yondashuv, CLIL, gibrid ta'lim, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, til ta'limi islohotlari.o‘ljallangan.*

Globallashuv va xalqaro aloqalarning jadal rivojlanishi natijasida xorijiy tillarni, ayniqsa zamonaviy tillarni (fransuz, ingliz, ispan, nemis va boshqalar) o‘qitish zamonaviy ta’lim tizimlarining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda xorijiy tilni o‘rgatish nafaqat madaniy boylik yoki akademik zarurat sifatida, balki muloqot, kasbiy integratsiya va global raqobatbardoshlik vositasi sifatida qaralmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan til o‘rgatish metodikasidagi islohotlar o‘zining mazmuni, shakli va natijalari jihatidan sezilarli farqlarni namoyon etmoqda. An’anaviy grammatik-tarjimaviy yondashuvlar o‘rnini asta-sekin kommunikativ, bevosita va interaktiv metodlar egallamoqda. Shu bilan birga, fonetika, og‘zaki nutqni rivojlantirish, madaniyatlararo kompetensiya va texnologik integratsiya kabi yo‘nalishlar xorijiy tillarni o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda.

Ushbu maqolada biz xorijiy mamlakatlar, xususan Yevropa va Shimoliy Amerikaning ilg‘or ta’lim tajribasi asosida, tirik tillarni o‘qitishning zamonaviy metodik tendensiyalarini, qo‘llanilayotgan pedagogik vositalarni va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda tahlil qilamiz.

So‘nggi yigirma yil davomida xorijiy tillarni o‘qitish sohasida kuzatilgan o‘zgarishlar tilshunoslik va pedagogika tarixida o‘ziga xos davrni tashkil etadi. Hech bir avvalgi bosqichda tirik tillarning o‘rganilishi bu qadar sezilarli darajada taraqqiy etmagan. Global miqyosda zamonaviy hayotning kommunikativ zaruratlari, texnologik rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy talablar natijasida xorijiy tillarni o‘qitish tizimi jiddiy va chuqur islohotlarga uchradi. Ushbu islohotlarning dastlabki samaralari allaqachon ko‘zga tashlana boshlagan bo‘lib, ularning natijasi sifatida xorijiy tilni o‘rgatishning yangi metodologik yondashuvlari shakllanmoqda.

An’anaviy, adabiy yo‘nalishga asoslangan yondashuv — ya’ni xorijiy tilni asosan adabiy asarlarni o‘rganish, yozuvchi va shoirlarning ijodiy merosini tahlil qilish vositasi sifatida qaralgan konsepsiya — o‘z o‘rnini tobora **amaliy-kommunikativ** yondashuvga bo‘shatmoqda. Endilikda xorijiy tilni o‘rganish kundalik hayotda muloqot qilish, kasbiy faoliyat yuritish va global axborot makoniga integratsiyalashish vositasi sifatida talqin etilmoqda. Shunday qilib, xorijiy tillar metodikasi sohasida yuz berayotgan zamonaviy yondashuvlar ta’lim mazmuni va shaklini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.

Ta’lim dasturlari yangilanib borishi bilan bir vaqtda, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi ham tilning tabiiy qonuniyatlariga ko‘proq moslashgan holda chuqur

o‘zgarishlarga — hattoki, ma’nan inqilobiy o‘zgarishlarga — yuz tutdi. Uzoq yillar davomida ustuvorlik qilgan an’anaviy tarjima metodikasi, ya’ni asosan o‘lik tillarni (lotin, yunon) o‘rganishga xos bo‘lgan, grammatikani didaktik tarzda chuqur tahlil qilishga asoslangan yondashuv, o‘z o‘rnini tobora kengayib borayotgan bevosita (direkt) metodga bo‘shatmoqda. Ushbu metod o‘quv jarayonining ilk bosqichidanoq o‘rganilayotgan tilni imkon qadar to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu tilda o‘rgatishni, ona tiliga murojaat qilmasdan, xorijiy tilda bevosita fikrni shakllantirishni maqsad qiladi.

Bugungi kunda bu bevosita yondashuv qadimgi va yangi dunyodagi taraqqiy etgan deyarli barcha mamlakatlarda o‘z qonuniy o‘rnini egallagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, aynan hozirgi pallada — Frantsiyada tirik tillarni o‘qitish masalasi parlament va ta’lim sohasi vakillari muhokamasiga qo‘yilgan bir vaqtda — xorijiy mamlakatlardagi islohotchi pedagogik harakatlar taraqqiyotini tahlil qilish, katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Qo‘shni davlatlar tajribasiga murojaat qilishdan avval, avvalo bevosita metod deb nomlanadigan yondashuv doirasidagi turli-tuman yo‘nalishlarni aniq belgilab olish va ularni umumlashtirish muhimdir. Bu metod tarafdorlari orasida turli oqimlar shakllanib, ular o‘ziga xos, ayrim hollarda esa bir-biridan keskin farq qiluvchi, hattoki, haddan tashqari yopiq va mutaassib metodik tizimlarni ishlab chiqishga intilmoqda.

Shunga qaramay, shuni ta’kidlash joizki, bu yondashuvlar har xil ko‘rinishga ega bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi bir umumiy g‘oyaviy manbaga borib taqaladi. Bu yondashuvlar o‘zaro zid emas, balki muayyan tizim asosida o‘zaro uyg‘un holda bir butun metodik konsepsiyani tashkil qilishi mumkin.

Shu bois, biz mutaassib metodik maktablarning haddan ziyod mubolag‘ali yondashuvlarini bir chetga surib, mavjud nazariy konsepsiyalar orasidan haqiqatan ham puxta asoslangan, jiddiy, ilmiy jihatdan asosli tamoyillarni ajratib olishga intilamiz — aynan shular atrofida pedagogik hamjihatlik shakllanib bormoqda.

Islohot tashabbuskorlarining fikricha, tirik til – avvalo va eng avvalo – fonetik hodisa sanaladi. Xorijiy tilni o‘rganishdagi asosiy maqsad — ushbu tilda erkin va to‘g‘ri gapira olish bo‘lganligi sababli, eshitish qobiliyatini va talaffuz organlarini rivojlantirish o‘qituvchi diqqat markazida turishi lozim.

Biroq tovushlarni hosil qilish fonetika fani tomonidan o‘rganiladigan fiziologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Ushbu qonunlarni o‘qituvchi e’tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Ular til o‘qituvchisi uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, anatomiya haqidagi bilimlar jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uchun xuddi shunday zarur hisoblanadi. To‘g‘ri talaffuzni shakllantirish yoki noto‘g‘ri talaffuzni tuzatish — oddiy jarayon emas. Buning uchun tovush hosil qilinishida ishtirok etadigan nutq a’zolari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish zarur. Shunchaki so‘zlarni takrorlash, hattoki baland ovozda aytishning o‘zi yetarli emas: chunki o‘quvchi — ilgari qanday talaffuz qilishga o‘rgangan bo‘lsa — o‘qituvchining aytganini emas, balki o‘zi eshitishga odatlangan shaklda qabul qiladi. 1; 502-532]

Shu boisdan, til o‘qituvchilari uchun fonetika bo‘yicha tayyorgarlikni kuchaytirish, dars jarayonlarida esa og‘zaki mashqlarning ustuvorligini ta’minlash

zarurati ilgari surilmoqda. Chunki ko‘plab hollarda so‘zning yozilishi bilan uning talaffuzi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘ladi. [2; 75-79]

Aynan shu muammoni bartaraf etish maqsadida, ayrim islohot tarafdorlari til o‘rgatishning ilk bosqichlarida darsliklardan foydalanishni cheklash, hattoki ularni butunlay bekor qilish yoki o‘rgatilayotgan so‘zlarni talaffuzga mos fonetik yozuvlar orqali berishni taklif qilmoqdalar. Bu yondashuv tilni eshitish va to‘g‘ri talaffuz asosida o‘zlashtirishni ta’minlashga xizmat qilishi bilan metodik jihatdan e’tiborga loyiqdir. [3; 121-123.]

Masalani haddan tashqari murakkablashtirmasdan turib ham, kamida so‘zning ko‘rinishidan avval uning eshitilishi (auditsiyasi) ta’lim jarayonida ustuvorlik kasb etishi kerakligi tabiiy va asosli talab sifatida qaralmoqda.

O‘qituvchi, shuningdek, sinf doskasida tushuntirish berish jarayonida fonetik yozuvlardan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, xorijiy til tovushlarining to‘liq va tizimli sintezini ifodalovchi devoriy sxemalar asosida o‘tkaziladigan imlo va tovush ajratish mashqlari ham, me’yor doirasida bo‘lishi sharti bilan, ta’limiy samaradorlikni oshiradi.

Bunday og‘zaki-tovushli mashqlar tilda talaffuz mahoratini shakllantirishda musiqadagi gamma mashqlariga o‘xshash tayanch vazifasini bajaradi — ya’ni ular tilni "mashq qilish" va artikulyatsiyani takomillashtirish vositasidir. [4;25-29]

Bevosita metod — o‘rgatilayotgan so‘zlarni o‘quvchining eshitish sezgisi orqali yetkazilishi, ya’ni ularni dastlabki bosqichda yozma yoki bosma shaklda emas, og‘zaki tovush shaklida qabul qilish orqali taqdim etilishi bilan o‘z nomiga munosibdir. Biroq bu metod nafaqat shakliy, balki mazmuniy yondashuvi bilan ham bevosita deb nomlanishga haqlidir.

Ushbu yondashuvning asosiy xususiyatlaridan biri — ona tilidan (ya’ni tarjimadan) vos kechish, tilni tushuntirishda bevosita intuitsiya (sezgilar asosida anglash) usulidan foydalanishdir. Ya’ni, yangi so‘zlar o‘z ma’nosini ona tiliga tarjima orqali emas, balki: narsalar va mavjudotlarning bevosita ko‘rinishi bilan,ularning xossalari va holatlarini sezish orqali, mavjudotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni idrok qilish asosida, hamda tirik mavjudotlar tomonidan bajarilayotgan harakatlarga bog‘liq holda o‘rganiladi.

Shunday qilib, bevosita metod o‘quvchining tilda fikrlash qobiliyatini shakllantirish, til birliklarini esa hayotiy kontekstda tushunish va qo‘llash orqali tabiiy til o‘zlashtirish jarayonini yaratishga intiladi. [5;78-85]

Shuni ta’kidlash kerakki, lug‘at boyligini intuitiv tarzda o‘zlashtirish jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ushbu ketma-ketlik o‘qituvchining dars jarayonidagi metodik rejasini belgilaydi.

Avvalboshlarda intuitsiyaga asoslangan til o‘zlashtirish bevosita xarakter kasb etadi. Bunda o‘quvchining sezgi a’zolari orqali real, ko‘z bilan ko‘riladigan yoki amalda ushlab ko‘riladigan obyektlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi nazarda tutiladi. Bu jarayon o‘quvchining o‘rganish muhiti — ya’ni: sinf xonasi va undagi didaktik jihozlar, maktab hayotidagi oddiy faoliyatlar, o‘quvchining o‘zi, uning tanasi, kiyim-kechaklari, maktab atrofidagi muhit va voqeliklar, bilan bevosita tanishishi orqali amalga oshiriladi. Bu kabi sezgi orqali anglash mumkin bo‘lgan

materiallar — o‘quvchining tilni tabiiy va mantiqiy asosda o‘zlashtirishi uchun boy va yetarli manba bo‘lib, bir o‘quv yili davomida samarali foydalanishga to‘liq asos yaratadi. Mazkur bevosita material to‘liq o‘zlashtirilgach, o‘rganish jarayoniga bilvosita (no-bevosita) intuitsiya bosqichi kirib keladi.

Reallikdagi mavjudot va hodisalarni bevosita idrok etishning iloji bo‘lmaganda, **ularning tasviriy ifodasi — rasm yoki obraz** orqali tushunishga murojaat qilinadi. Axir, o‘quvchilarni butun dunyo bo‘ylab sayohatga olib chiqish imkonsiz ekan, **rasmiy vositalar** — ya’ni tasvirlar yordamida tashqi hayot manzaralarini sinf muhitiga olib kirish mumkin bo‘ladi.

Shu asosda, o‘quvchilarning ko‘z oldida ketma-ket namoyon bo‘ladigan **devoriy ko‘rgazmali vositalar tizimini** ishlab chiqish mumkin va bu amaliy jihatdan ham bajarilishi mumkin bo‘lgan yondashuvdir. Masalan:

a) **uy muhiti va oilaviy hayot** sahnalari,

b) **fasllar va qishloq hayoti** tasvirlari,

c) **shahar manzaralari va turli iqtisodiy hamda erkin kasblar** vakillari faoliyati,

d) yoki hatto **tabiat manzaralari** — okeanlar, tog‘lar, cho‘llar, qutb mintaqalari kabi obrazlarni ifodalovchi tasvirlar orqali vizual kontekst yaratiladi.

Bu yo‘nalishda **rasomlar va nashriyotchilarning individual tashabbuslari** keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular xorijiy til o‘qituvchilari ixtiyorida bo‘ladigan **ko‘rgazmali metodik vositalarni** doimiy takomillashtirish va boyitishga xizmat qiladi. [6 ; 123-125]

Shunga qaramay, tasvir (rasm) vositalari deskriptiv (ta’riflovchi) tilni o‘rganishda juda muhim resurs bo‘lib xizmat qilsa-da, uning imkoniyatlari nisbatan chegaralangan. Sababi, tasvir bir vaqtning o‘zida faqat bitta harakatni ifodalashi mumkin va bu harakat ko‘pincha harakatsiz, “muzlagan” holatda tasvirlanadi. Natijada, harakat tili (langue de l’action)ning to‘liq ifodasi bu vosita orqali cheklovga uchraydi.

Aynan shunday holatda intuitsiyaning uchinchi shakli — aqliy (mental) intuitsiya ishga tushadi. Bu bosqichda tasavvur (imaginatsiya) tasvirlangan bitta harakatdan kelib chiqib, unga bevosita bog‘liq oldingi yoki keyingi ketma-ket harakatlar zanjirini tasavvurda tiklash imkonini beradi. Ushbu ketma-ket harakatlar bir-biriga bog‘langan zanjir halqalari singari uzviy bog‘liq bo‘lib, birinchi bo‘g‘inni anglab olingach, qolgan bo‘laklar tabiiy ravishda mantiqiy izchillikda keladi.

Mazkur yondashuvga o‘zining ilmiy faoliyatida katta e’tibor bergan fransuz pedagogi janob Gouin ushbu intuitsiyaning maxsus shaklini asos qilib olib, “seriyalar metodi” (méthode des séries) deb nomlanuvchi uslubni ishlab chiqqan. Bu metod, keyinchalik, xorijiy mamlakatlarda keng ommalashgan bo‘lib, uning tafsilotlariga biz keyingi bo‘limlarda alohida to‘xtalamiz. [7 ; 250]

Shu tariqa, sezgining ushbu uch shakli bir-birini to‘ldiradi va uyg‘un holda qo‘llanilganda, intuitiv metodik yondashuvni amaliyotda boyitish uchun muhim xilma-xillik manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv, ayniqsa, aniq va konkret lug‘at birikmalarini o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, abstrakt til elementlarini o‘rgatishda yetarli darajada ta’sirli emas. Biroq, intuitsiya imkoniyatlari tugaydigan joyda, o‘qish jarayoni boshlanadi — ya’ni, tushunchalarni chuqur anglash va umumlashtirish bosqichida matn bilan ishlash vositasi muhim rol o‘ynaydi.

Ba’zi islohotchi metodistlar hatto o‘qishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri metodning markaziy elementi sifatida ilgari surganlar. Biroq, uni ta’limning dastlabki bosqichidan butunlay chiqarib tashlamagan holda, o‘qishni xorijiy tillarni o‘qitish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida talqin qilish yanada to‘g‘riroq yondashuv bo‘ladi. Aynan o‘qish orqali o‘quvchilar intuitsiya orqali to‘liq o‘zlashtira olmagan lug‘at boyligini mukammal egallashga erishadilar. Shu bilan birga, o‘quvchilar ilgari bevosita kontekstda o‘zlashtirgan konkret so‘zlar ularga abstrakt tilda fikr yuritish uchun zarur bo‘lgan mustahkam tayanch asosni yaratadi. [8; 98-102]

Yangi so‘zlarni tarjimasiz tushuntirish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu jarayonda misollardan, ta’riflardan, qiyoslash va qarama-qarshiliklardan, shuningdek, etimologiya, so‘z oilalari, parafraz va sinonimlardan mohirona foydalanish katta samara beradi. Bu yondashuv natijasida xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida butun o‘quv vaqti to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu til doirasida olib boriladigan amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlanadi. Shunday qilib, chet tili so‘zlari o‘zlarining ifodalagan tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtiriladi va bu jarayon o‘quvchiga o‘rganilayotgan tilda tezroq fikrlashga o‘tishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 1889 « Les langues vivantes dans l’Enseignement primaire », pp. 502-532 in : Recueils de monographies pédagogiques publiées à l’occasion de l’exposition universeile de 1889, Paris, Ministère de l’Instruction publique et des Beaux-Arts, 790 p
2. M. Vielor, professeur à l’université de Marburg, le 8° congrès des professeurs allemands et autrichiens de langues vivantes, tenu à Vienne en 1898,
3. 1905 « L’application de la phonétique à l’enseignement des langues vivantes », Les Langues Modernes (19), avr., pp. 121-123.
4. M. Kuhff, ou phrases rythmées typiques. Les langues vivantes parlées, Paris, 1886.
5. Schweitzer, Préface de la Méthode directe pour l’enseignement de l’allemand, lib. A. Colin.
6. A. Colin et Hachette ont entrepris également la confection de tableaux muraux qui sont appelés à rendre de grands services aux professeurs de langues vivantes.
7. François Gouin a été de se montrer trop exclusif, en proscrivant d’une façon absolue les autres modes de l’enseignement intuitif. Mais on peut tirer un excellent parti de son système. Le Conseil municipal de Paris décida en 1893
8. A. Colin, 1898.) Méthode directe dans l'Enseignement des langues vivantes ,

Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlarida nofilologik yo‘nalish talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi

Misirov Sohibjon Abdupattayevich
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
E-mail: sohibjon.misirov.76@mail.ru +99893-776-63-34

Annotatsiya: Ushbu maqolada nofilologik yo‘nalish talabalarining ingliz tilida kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida kasbiy va sohaviy yo‘nalishlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik tahlili, ingliz tilida talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish usullari muammolariga bag‘ishlanadi.

Kalit so’zlar: kommunikativ kompetensiya, kasbiy kompetensiya, ingliz tili, kasbiy komunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari, kabiy kommunikativ mashqlar.

Methodology for the development of professional communicative competence of students of non-philological orientation in English

Misirov Sokhibjon Abdupattayevich
associate professor, doctor of Pedagogical Sciences (DSc),
Namangan State Institute of Foreign Languages.
E-mail: sohibjon.misirov.76@mail.ru +99893-776-63-34

Abstract: This article is focus on the features of the development of professional communicative competence of students of non-philological orientation in English, methodological analysis of the development of communicative competence in professional and field directions in English, the problems of methods for the development of professional communicative competence of students in English.

Key words: communicative competence, professional competence, English, stages of development of professional communicative competence, such communicative exercises.

Методика развития профессиональной коммуникативной компетенции студентов неофилологического направления на практических занятиях по английскому языку

Мисиров Соҳибжон Абдупаттаевич
доцент, доктор педагогических наук (DSc),
Наманганский государственный институт иностранных языков
E-mail: sohibjon.misirov.76@mail.ru +99893-776-63-34

Аннотация: В данной статье речь пойдет об особенностях развития профессиональной коммуникативной компетенции студентов нефилологической направленности на английском языке, методологическом анализе развития коммуникативной компетенции на профессиональном и профильном направлениях на английском языке, проблемах методов

развития профессиональной коммуникативной компетенции студентов на английском языке.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, профессиональная компетентность, английский язык, этапы развития профессиональной коммуникативной компетентности, такие как коммуникативные упражнения.

Kirish. Yangi O‘zbekiston pedagogika oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar butun hayoti davomida mustaqil ta’lim olishga intiluvchan, ta’limni raqamlashtirish muhitida yangi pedagogik texnologiyalardan habardor bo‘lgan va ulardan bemalol foydalanib, shaxsan o‘zi mustaqil holda qaror qabul qiladigan, jahon ta’limi standartlariga to‘liq javob beradigan, ijtimoiy hayotga va bo‘lajak kasbiy muhitga moslashuvchi, his-hayojonli holatlarga doimo tayyor turuvchi, ammo ulardan tezlik bilan mohirona chiqa oladigan bo‘lishi lozim. Bularning hammasi hozirgi davr va kasb talabidir. Xorijiy tillarni xalqaro va davlatlararo muloqotning asosiy vositasi sifatida o‘rganishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi islohotlar halqimiz hayotining barcha jabhalariga o‘z ta’sirini o‘tkazib, xorij davlatlari bilan har tomonlama aloqalarni rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bunda chet tilllarni o‘rganish va uni egallashga ehtiyojning oshishi kuzatilmoqda. Birgina ta’lim va tarbiya sohasida ham yangi o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarishda chet tillarni o‘zlashtirish va bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, o‘zgaruvchan sharoitda inson o‘zining kundalik va kasbiy faoliyatida katta hajmdagi axborotlarni chet tilida egallamoqda. Bu esa, integratsion jarayonlarda jamiyatdagi chet til o‘quv predmetini maqomining o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Jahon ta’lim tizimida mutaxassis kadrlarni tayyorlashga, shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlaramalga oshirilgan, monografik tadqiqotlar e’lon qilingan. Rossiyalik va MDH olimlarining bu boradagi ilmiy ishlari muhim ahamiyatga molikdir. Xususan, T.A.Boldova, L.A.Borxodoyev, J.M.Bliyeva, Ye.P.Gerasimenko, N.M.Gubina, T.I.Gustomyasova, N.J.Dagbayeva, T.G.Dobrosklonskaya, S.A.Denisova, I.A.Isenko, I.V.Klimenko, Yu.Yu.Kovaleva, Ye.A.Kostina, M.V.Leushkina, Ye.S.Nechayeva, N.F.Radionova, M.V.Kropacheva, V.V.Cafonova, M.P.Trofimenko va S.I.Shevchenkolarning ishlari shular jumlasidandir.

O‘zbekistonda ham mazkur muammolarga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar qilingan. Xususan, G.X.Bakiyeva, B.R.Djo‘rayeva, N.M.Majidov, N.I.Murtozayeva, B.X.Rahimov, S.I.Qulmamatov va O.A.Qo‘ysinovlarning ishlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Tadqiqotchilardan L.M.Mitina “pedagogik kompetensiya” atamasini “predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot

ko‘nikmasi va malakasi, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashuvi”, – deb izohlaydi va uning tuzilmasida uchta (faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy) yetakchi omillar mavjudligini ta’kidlaydi. Mazkur mulohazalarni biz ham ma’qullaymiz va uni nazariy asos sifatida qabul qilamiz. Tadqiqotni olib borish jarayonida aniqlangan va tajriba- sinov ishlarida sinab ko‘rilgan quyidagi uchta omillar bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentsiyasini rivojlanish darajasini belgilaydi, deb hisoblaymiz: 1. Faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka va pedagogik amaliyotni amalga oshirishning yakka tartibdagi xilma-xil usullari majmui); 2. Shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z ustida mustaqil tinimsiz izlanish va oxir-oqibatda o‘z-o‘zini amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar majmui); 3. Kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar majmui).

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak pedagoglarning lisoniy kompetensiyasining rivojlanishida kasbiy kompetensiyaning faoliyatli va shaxsiy tuzilmalari ustuvor ekanligini alohida ta’kidlaymiz. Bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy yoki kasbiy kompetensiyasi - bu kompetensiya soha o‘qituvchisining kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘z- o‘zini amalga oshirishga qobiliyatlilikni bildiradi. Shaxsning o‘zini-o‘zi takomillashtirish va o‘zini-o‘zi amalga oshirishga ehtiyoji A.Maslovning olg‘a surgan g‘oyasiga, ya’ni shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirish konsepsiyasiga mos holda shaxsning oliy ehtiyoji bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning o‘zini-o‘zi faollashtirishi deyilganda, bu o‘zini-o‘zi amalga oshirishga insonning intilishi, o‘zining potensial imkoniyatlarini amalga oshirishga urinishi tushuniladi. A.Maslov shaxs tabiatining quyidagi talqinini taklif etgan edi: inson tabiatan yaxshi va o‘zini-o‘zi takomillashtirishga qobiliyatli, odam–ongli va aqlli yaratuvchi, inson mohiyatining o‘zi doimiy ravishda uni shaxsiy o‘sishga va ijodkorlikka yo‘naltiradi. Uning fikriga ko‘ra, mustaqil faollikka moyillik shaxsining mohiyatini va o‘zagini tashkil etadi.

Kasbiy faoliyatdagi tajribalarimizdan kelib chiqqan holda, alohida ta’kidlamoqchimiz: bo‘lajak pedagog kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish modelini qurishda va lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlarida qayta-qayta tekshirilgan quyidagi pedagogik omillar hal qiluvchi rol o‘ynadi: 1. Kasbiy kompetensiya lisoniy bilimlar metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot (ko‘nikma va malaka) madaniyat, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘zini-o‘zi takomillashtirish, o‘zini-o‘zi aniqlash usullari va vositalarining uyg‘unlikdagi birlashmasi sifatida tushuniladi; 2. Pedagogika oliy ta’limi muassasalarida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish o‘qituvchi kasbidagi ichki o‘zining “men - haqiqiy”dan va “men-ideal” o‘rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etishga qadar bo‘lgan bir qator bosqichlarda amalga oshiriladi; 3. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish o‘qitishni tashkil etishda e’tiborga olish zarur bo‘lgan o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan ikki, ya’ni gnostik va amaliy bosqichlari orqali amalga oshiriladi; 4. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish ijodiy mohiyatga ega, shuning uchun ham pedagogik mehnat

sub'yekti sifatida talabaga borliqdagi o'zining imkoniyatlarini erkin tanlashni taqdim etuvchi o'quv jarayonini tashkil etish talab etiladi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-metodik adabiyotlardagi metodist olimlarning mulohazalariga ko'ra, pedagogika oliy o'quv yurtlarining zamonaviy bitiruvchisi, nafaqat, o'qimishli, murakkab muammo vaziyatlarni tahlil qilish va hal qilishga qodir bo'lishi, balki ularning professional va shaxsiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lgan o'z nutqiy madaniyatiga e'tibor qaratishi ham lozim. Bu me'yor pedagogika yo'nalishi bitiruvchilariga ham taalluqli, deb hisoblaymiz.

Metodist M.P.Manayenkovaning ta'kidlashicha, jahon ta'lim tizimining barcha jabhalarida nutq kompetensiyasini rivojlantirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Ko'p jihatdan bunday dolzarblik ta'lim jarayoni va uning natijasidagi nutqiy-fikrlash faoliyatining rivojlanishi shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashi bilan asoslanadi, qachon u o'z xususiyatlari va farqlari bilan namoyon bo'lishga intilganda, jamiyat tomonidan qabul qilinishi zarurligini ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, bu o'rinda talabaning nutqiy madaniyati, uning umumiy madaniyati, to'laqonli ta'lim olish imkoniyatlari va ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy o'sish istiqbollari o'rtasidagi aloqadorlik yetakchilik qiladi. Jamiyatning nutqiy madaniyati bilan tanishmay turib, bilimli shaxsni, xususan, bo'lajak o'qituvchini mutaxassis sifatida rivojlantirish mumkin emas, shuning uchun bugungi kunda gumanitar ta'lim muhitini tashkil etuvchi barcha o'quv fanlari va mashg'ulotlarning asosiy vazifasi soha talabalarida nutq kompetentligini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotni olib borish jarayonida ayni ta'kidlanayotgan muammoning pedagogika ilmida ilmiy jihatdan tadqiq etilmaganligini inobatga oldik, shu boisdan bo'lajak o'qituvchilarning nutq kompetensiyasi muammolariga tadqiqotimizda alohida to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Xullas, nutq kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchining asosiy shaxsiy va kasbiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi, shuning uchun uni shakllantirish va rivojlantirish masalalari zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'limning pedagogika yo'nalishlarda ham alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Ingliz tili o'qituvchisining kommunikativ kompetensiyasi tadqiqotchilardan E.G.Azimov va A.N.Щukinlarning fikricha, kommunikativ kompetensiya chet til vositasida maishiy, o'quv, ishlab chiqarish va madaniy hayotda dolzarb bo'lgan muloqot masalalarini hal qila olish; til va nutq vositalari yordamida muloqot maqsadlariga erishishdir. Ushbu fikrni ma'qullagan holda mualliflik yondashuvi asosida quyidagilarni ta'kidlamoqchimiz: bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi jamiyatda insonlar bilan o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili, o'zi yashayotgan davlatning rasmiy tili hamda xorijiy tillarda so'zlashish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq hamda tushunarli bayon qila olish, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish hamda berilgan savollarga asosli, to'g'ri javob berish, muloqot vaziyatiga moslasha olish, muloqot jarayonida muomala madaniyatiga amal qilish, suhbatdoshining fikrini hurmat qilgan holda o'zining nuqtai nazarini himoya qila bilish, suhbatdoshini ishontira olish, ziddiyatli

vaziyatlarda o‘zini-o‘zi boshqara olish, muammo hamda kelishmovchiliklarni hal etishda maqbul qarorlarni qabul qilish kabi juda ko‘p jihatlarni qamrab oladi.

Ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlarda xorijlik olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalari xilma-xil ekanligini kuzatdik. Yu.Jukov kommunikativ kompetensiyaning asosiy, muhim ekanligini ko‘rsatish uchun uni metakompetentlik yoki “yadro kompetentligi” deb ataydi. Boshqa olimlarning fikriga ko‘ra, kompetensiyaning bu turi ijtimoiy, kasbiy, shaxslararo kompetensiya kiradi va ularni bir-biri bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, kasbiy, ijtimoiy va shaxslararo kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi. Biz bu borada kommunikativ kompetensiyaning shaxsning atrofdagi olam bilan uning barcha jabhalarida muloqot qilish samaradorligini ko‘rsatadigan asosiy omillaridan biri ekanligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarni qo‘llab- quvvatlaymiz.

Xulosalar. Tadqiqotimizni olib borish jarayonida, eng avvalo, bo‘lajak o‘qituvchining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ kompetensiya yetakchi omil ekanligini hisobga oldik. Uning kompetensiya talablaridan kelib chiqqan holda, lisoniy va pedagogik-psixologik omillarini aniqlashga harakat qildik.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, mazkur omillarni quyidagilardan iborat, deb belgiladik: 1. Soha leksikasini bilish; 2. Og‘zaki nutqning rivojlanganligi (aniq va to‘g‘ri so‘zlash qoidalariga amal qilish); 3. Yozma nutqning talab darajada ekanligi; 4.Muloqot etikasiga qat’iy rioya qilish; muloqot taktikalari va strategiyasining puxta egallanganligi; 5. Muloqot ishtirokchilarining o‘ziga xos xususiyatlari va muammolarini bilish; tashqi signallar (tana va yuz harakatlari, nutq ohangi)ni tahlil qila olish qobiliyati; 6. Nizolarning oldini olish; o‘ziga qat’iy ishonish; boshqalarni tinglay olish; 7. Notiqlik mahoratini yuqori darajada egallash; munozaralarni tashkil qilish va olib borish malakalarini egallash; kundalik hayotda o‘zgalarga hamdard bo‘la olish va o‘zgalar manfaatini anglash.

Adabiyotlar

1.Abdullayeva M.A. Kommunikativnaya metodika obucheniya inoyazichnoy grammatike na nachalnom etape yazikogo fakulteta (na materiale present continuous, present perfect angliyskogo glagola). – Xudjand, 2004. –189 b.

2.Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: ped. fan. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2019. – 81 b.;

3.Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2 -nashri. - Toshkent: O‘quvchi, 2012. -432 b.

4.Mustafayeva H.T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar talabalariga o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari: Ped. fan. nom. ... dis. – Samarqand, 2003. – 139 b.

Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi

Abdupattayev Azizbek Sohibjon o‘g’li
Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti
E-mail: azizbekabdupattayev@mail.ru. +998931792820

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish tamoyillari, ta’lim jarayonidagi samaradorligi va uning amaliyotda qo‘llanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so’zlar: kommunikativ yondashuv, chet til til ta’limi, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, til va nutqiy ko‘nikmalar, til o‘qitish metodikasi, ta’lim samaradorligi.

Методика совершенствования лингвистической компетентности будущих учителей иностранных языков

Абдупаттаев Азизбек Сохибжон угли
докторант Наманганского государственного
института иностранных языков
E-mail: azizbekabdupattayev@mail.ru. +998931792820

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы повышения лингвистической компетентности будущих учителей иностранного языка. В статье также рассмотрены принципы повышения лингвистической компетентности будущих учителей иностранного языка, их эффективность в учебном процессе и возможности применения на практике.

Ключевые слова: коммуникативный подход, иностранный язык языковое образование, коммуникативная компетентность, лингвистическая компетентность, язык и речевые навыки, методика преподавания языка, эффективность обучения.

Methodology for improving the linguistic competence of future Foreign Language teachers

Azizbek Abdupattayev
Post-graduate student of Namangan State
Institute of foreign languages
E-mail: azizbekabdupattayev@mail.ru. +998931792820

Annotation: This article analyzes the problems of improving the linguistic competence of future Foreign Language teachers. The article also examined the principles of improving the linguistic competence of future Foreign Language teachers, their effectiveness in the educational process and the possibilities of its application in practice.

Keywords: communicative approach, foreign language education, communicative competence, linguistic competence, language and speech skills, language teaching methodology, educational effectiveness.

Kirish. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan Amerika, Germaniya, Fransiya, Braziliya, Ispaniya, Finlandiya, Rossiya va boshqalarda til ta’limidagi kompetensiya va kompetentlik nazariyasi, xususan, kompetentlik yondashuvining asosiy komponentlarini rivojlantirish tizimi bo‘yicha salmoqli ilmiy ishlar qilingan, bu borada muayyan ilmiy fikr-mulohazalar bildirilgan. Jahon ta’limi va tadqiqot muassasalarida raqamli ta’lim tizimida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalash, o‘qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta’limiy axborot infrastrukturasi bazasini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta’limda o‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, innovasion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish, “ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish”, ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Lingvistik kompetensiyasi nazariyasiga daxldor bunday tarzdagi xilma-xil fikr-mulohazalarni va qisqacha sharhlashlarni yanada davom ettirish bizni muayyan ma’noda cheklaydi. Ayni holatni hisobga olib, ishimizning mazkur faslida qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda lingvistik kompetensiyaning tuzilmasi va prinsiplarini aniqlashtirishga e’tiborni jalb etdik.

Lingvistik kompetensiya xorijiy til amaliyotidagi nutq (akustik) faoliyati turlari hamda tilning mustaqil sathlaridan fonetik, leksik, frazeologik, grammatik (morfologik va sintaktik), stilistik bilimlarni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiya tarkibiga kundalik hayotga, tevarak- atrofga oid turli-tuman ma’lumotlar orqali tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv hamda fonetik, leksika, frazeologiya, grammatikaga mansub malakalarga oid barcha bilimlarni kundalik amaliyotda qo‘llay olish jarayoni kiradi. Mazkur kompetensiyalar negizida egallangan bilim va malakalar, soha o‘quvchilarining kundalik amaliy vaziyatlarda, maxsus pedagogik faoliyatlarida ingliz tilini mustaqil qo‘llay olishiga asos bo‘la oladi. Shu boisdan ham o‘rta umumta’lim maktablari o‘quvchilariga tadbiq qilingan kompetensiyalar negizida o‘quv dasturiga tayanilib barcha berilgan bilim va malakalar ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga, shular asosida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratiladi.

Aytilgan mulohazalarning hayotdagi tasdig‘i va tarixiy asoslari jahon chet til ta’limida allaqachon isbotlangan edi. Masalan, Del Xayms tomonidan lingvistik kompetensiyaning mustaqil tarkibi hisoblangan kommunikativ kompetensiya taklif qilingach, Amerikalik amaliy lingvist Leonard Nyumark (Leonard Newmark) ingliz tilini o‘qitishda grammatik xodisa va leksik birliklarni o‘rgatishga asosiy e’tibor qaratish, o‘quvchining kelajakda ingliz tilida kommunikatsiyani amalga oshirishga erisholmasligini, shu sababli tilni o‘rgatishda biror bir vazifalarga

asoslangan yondashuvni (Task based approach) (dialoglar, o‘qituvchiga taqlid qilish, rolli o‘yinlar, ingliz tilida gapirishni mashq qilish) qo‘llashni taklif qiladi. Uning ta’kidlashicha, ingliz tili muallimlarining asosiy vazifasi, o‘quvchilarning nimani xohlashlarini ayta olishlarini bilishdan iborat.

Pit Corder ta’kidlashicha, ingliz tilini o‘rgatish yoki o‘qitish xuddi biror bir musiqa asbobini chalish yoki biror bir sport turi bilan shug‘ullanish kabi malakalarni egallash bilan barobar.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning bosh mavzusi hisoblangan lingvistik kompetensiya o‘zining tuzilishiga ko‘ra nutq (fonetik), leksik, frazeologik, grammatik (morfologik va sintaktik), kommunikativ va boshqa til kompetensiyalardan iborat bo‘lib, unga dastlab Noam Chomsky tomonidan asos solingan. Mazkur olimning olg‘a surgan nazariyasiga ko‘ra, lingvistik kompetensiya – akustik (fonetik) tizim orqali muayyan til boyligidagi so‘z va jumlalarni tushunish, grammatik jumlalarni grammatik qonun-qoidalari ishtirok etmagan so‘z va jumlalar bilan farqlanishini, shuningdek, boshqa samarali lingvistik amallar bajarish tizimini o‘z ichiga olgan murakkab jarayonli kompetensiya sanaladi.

Noam Chomsky tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan lingvistik kompetensiya nazariyasi tilshunoslikda o‘ziga xos inqilob yasadi: fanda xilma-xil bahs-munozaralarga sababchi bo‘ldi. Agarda jahon ta’lim tizimidagi lingvistik kompetensiya nazariyasi tarixiga qisqacha nazar tashlansa, eng rivojlangan mamlakatlar olimlarining alohida fikr-mulohazalariga, muayyan kuzatishlarining hosilasi sifatida paydo bo‘lgan bir qator g‘oya va xulosalarga duch kelamiz. Ulardan ayrimlarini qisqacha qayd etish va sharhlashni lozim topdik.

Noam Chomsky 1957 yilda keng muhokamaga sabab bo‘lgan generativ grammatika nazariyasini ilmiy jamoatchilikka havola, uni har bir jumlaning aniq tavsifi bo‘lgan qoidalar majmui sifatida belgilab berdi.

Mazkur olim lingvistik nazariyaning asosiy maqsadi tildan foydalanish asosidagi ruhiy-aqliy jarayonlarni tushuntirishdan iborat, deb ta’kidlaydi va shuning uchun tilshunoslikni o‘rganishdan maqsad ifoda (gap)ni emas, balki kompetensiyani o‘rganishdan iborat bo‘lishi kerakligini eslatadi.

Jahondagi eng rivojlangan mamlakatlar olimlarining ilmiy ishlarida, xususan, A.Priyanto, F.Heidari, S.A.Alavi va boshqalarning tadqiqotlarida o‘quvchilarning grammatik kompetensiyasi bilan og‘zaki muloqot (kommunikativ) kompetensiyalar o‘rtasida mo‘ътadil aloqadorlik borligi aniqlangan101; shuningdek,Wahyuni D. Ihsan, D.R.Hayati ilmiy ishlarida nutq ishtirokchi (so‘zlovchi)larining lingvistik (grammatik) kompetentligi bilan nutqiy qobiliyati o‘rtasida kuchli lisoniy-muloqot aloqasi borligi aniqlangan; Z.Akbari tadqiqotlarida grammatika og‘zaki nutqqa xalaqit bermasligini, uning faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi qayd etilgan.

D.A.Myhill, S.M.Jones, H.Lines, A.Watson ishlarida katta miqyosdagi aralash usullar o‘rganilgan; F.Karimkhanining ishlarida miqdoriy tadqiqotlar, S.Jones, D.Myhill, T.Bailey va boshqalar aralash usularini o‘rganilgan. P.Rajabi, E.Dezhkamlarning amaliy tadqiqotlarida yozuv sharoitida grammatikani

o‘qitishning potensial afzalliklari ishonchli dalillar asosida isbotlangan. Biroq bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Y.H.Huangning nazariy modelga bag‘ishlangan tadqiqoti grammatikaga oid bilimlar bilan ularni yozuvda qo‘llash o‘rtasida kuchli aloqa mavjud emasligini ko‘rsatdi.

K.Mokhtari, H.B.Thompson, Z.Akbari va boshqalarning tadqiqotlaridagi mulohazalarning tasdiqlashicha, o‘quvchilarning sintaksis bo‘yicha egallangan bilimlari ko‘p jihatdan o‘qilgan narsani tushunish ko‘rsatkichlari bilan sezilarli darajada bog‘liqdir. C.Gascoigne tadqiqotida ham shakl, ham grammatik qoidalar, imlo va tinish belgilariga urg‘u berish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik va matnga daxldor bo‘lmagan bo‘shliqlarni muvaffaqiyatli to‘ldirish faoliyati bilan bog‘liqlik jihatlari o‘rganilgan. Ammo A.L.López o‘zining korrelyasiga oid ilmiy ishlarida o‘quvchilarning o‘qilgan narsasini tushunish ko‘nikmalarini prognozlash uchun grammatik kompetensiyaning o‘zi yetarli emas, degan xulosaga kelgan; ta’lim oluvchiga bog‘liq bo‘lgan omillar – matn, o‘qish maqsadi o‘qilgan matnni muvaffaqiyatli tushunishning bosh kalitidir, degan mulohazani ilgari surgan. D.A.Myhill,

S.M. Jones, H.Lines, A.Watson kabilarning aniqlashicha, sintaksisga oid bilim va o‘qilganni tushunish o‘rtasidagi aloqadorlik xotira va tilning o‘zaro bog‘liqlik jihatini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Talabalarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish va takomillashtirish uchun ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan prinsiplarni aniqlash masalasi dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Shu boisdan ularga qisqacha to‘xtalishni va tavsif berishni lozim topdik. Chet til o‘qitish metodikasidagi prinsiplar o‘tgan asrda (1965-1970 yillar) birinchi bo‘lib Ye.N.Passov aniqlanganligini, biroq shu davrgacha Ya.A.Kamenskiy taklif qilgan umumdidaktik prinsiplarga tayanib kelganligini ilmiy jamoatchilik va metodist olimlar yaxshi bilishadi.

Ingliz tilini o‘qitishda to‘rtta (lingvistik, didaktik-pedagogik, psixologik-psixolingvistik va metodik) prinsiplar mavjud va ular soha o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga bevosita faol xizmat qiladi.

1.Lingvistik prinsiplar. Xorijlik L.V.Sherba, G.Ye.Vedel, A.N.Leontyev, A.A.Mirolyubov, V.A.Buxbinder, S.K.Folomkina, Ye.I.Passov, A.A.Shakirova, V.L.Skalkin, L.Friman, S.Tornberi va D.Kristal kabi metodistlar mazkur prinsip ustida salmoqli tadqiqotlar olib borishgan. Ularda qo‘yilgan va aniqlangan, amaliyotga tatbiq etilgan masalalarning umumiy tavsifini umumlashtirib quyidagicha belgilasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1. Ona tili tajribasini hisobga olish prinsipi; 2. Tizimlilik prinsipi (og‘zaki nutq va til materiallarini o‘qitish kommunikativ maqsadda tashkil qilinadi, grammatik birliklar va leksik usullar orqali tanishtiriladi); 3. Konsentrizm prinsipi (o‘quv materiali osondan qiyinga, mustahkamlashdan yangiga o‘tish orqali takrorlab kengaytirib borilishini nazarda tutadi); 4. Funksionallik prinsipi (til materiali ta’lim mazmuniga binoan tatbiq qilinadi, grammatik material kommunikativ tarzda o‘rgatiladi. Mazkur prinsip chet til o‘qitish maqsadlariga ko‘ra belgilanadi); 5. Minimizatsiyalash yoki chegaralash

prinsipi (nutq faoliyati turlari chet til egallash darajasiga binoan, chegaralab beriladi); 6. Aktiv (faollik) prinsipi (barcha nutq faoliyati turlarini qo‘llashda o‘rgatiladigan til materiali ustida ishlashni nazarda tutadi); 7. Passivlik prinsipi (faqat tinglab tushunish va o‘qish nutq faoliyati turida qo‘llanilishi o‘rgatiladigan til materiallari ustida ishlashdan iborat); 8. Stilistik differensiatsiya prinsipi (turli nutq namunalari, masalan, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy uslublarning o‘ziga xos jihatlarini inosbatga olish orqali chet til o‘rgatiladi); 9. Madaniyatlararo hamkorlikni inobatga olish prinsipi; 10. Onglilik prinsipi.

2.Didaktik-pedagogik prinsiplar. Mazkur prinsiplar xorijlik olimlar Ya.A.Kamenskiy, L.S.Vigotskiy, L.V.Щyerba, I.V.Raxmanov, A.S.Shklyayeva, G.Ye.Vedel, I.L.Bim, A.N.Leontyev, R.K.Minyar-Beloruchev, Ye.I.Passov, I.A.Zimnyaya, N.D.Galskogo, N.I.Gez, Yu.K.Babanskiy, A.V.Xutorskiy, S.Tornberi va G.Vells kabilar tomonidan uzoq yillik tadqiqotlar natijasida aniqlangan hamda ta’lim jarayoniga kiritilgan. Bularni umumlashtirib, quyidagilarni ta’kidlaymiz: 1. O‘quv materialni hayot bilan bog‘lash; 2. O‘qituvchi ko‘magida o‘quvchining ongliligi va faolligi; 3.Tushunarlilik va soddalik; 4. Amaliyot va nazariyaning bog‘liqligi yoki ilmiylik; 5. O‘quv materiallarni tushunarli qilib yetkazib berish; 6.Ko‘rgazmalilik; 7. Malakalarni mustahkam egallash; 8. Fanlar bilan aloqadorlik; 9. O‘quv jarayonida o‘quvchining faol harakatlantirish ustunligi; 10. Puxta o‘zlashtirish; 11. Produktivlik; 12. Mobillik (operativlik) yoki faollik; 13. Individual yondashish; 14. Oson-qiyinlik yoki o‘quvchilar kuchiga moslik; 15. Madaniyatlarning o‘zaro ta’siri; 16. Qarorlar qabul qilishga o‘rgatish yoki umumiy dunyoqarashni rivojlantirish; 17.Mazmun va topshiriqqa binoan muqobil metod va vositalardan foydalanish va qo‘llash; 18. Ta’lim berish uchun kerakli sharoitni tanlash; 19. Estetik ruhda tarbiyalash; 20. Jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish; 21. Ta’lim berish orqali tarbiyalash.**Xulosalar.** Xulosa qilib aytganda, kommunikativ yondashuv – bu zamonaviy til o‘qitishning nazariy-metodik asoslarini mustahkamlovchi, o‘quvchilarda funksional til bilimlari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion va integrativ yondashuvdir. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ushbu yondashuvni keng joriy etish orqali raqobatbardosh, lingvistik jihatdan savodli, madaniyatlararo sezgir va metodik jihatdan puxta tayyorlangan pedagogik kadrlar safini kengaytirish mumkin. Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotda tatbiq qilinsa, ingliz tilini o‘rgatish sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratadi.

